

Mo‘minov Abdulxay Rashidovich

Tillabayev Mirzatillo Alisherovich

BOLA HUQUQLARI

TOSHKENT - 2014

O‘ZBEKISTON RESPBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
YURISTLAR MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

Mo‘minov Abdulxay Rashidovich

Tillabayev Mirzatillo Alisherovich

BOLA HUQUQLARI

Darslik

*Mas’ul muharrir – A.X.Saidov,
yuridik fanlar doktori, professor*

Toshkent – 2014

**Muminov A.R., Tillabayev M.A. Bola huquqlari: Darslik / Mas'ul muharrir
A.X.Saidov. – T.: “Adolat” nashriyoti, 2014. – ** bet.**

*Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuristlar malakasini oshirish markazi Ilmiy kengashi tomonidan nashrga
tavsiya etilgan (2014-yil 27-iyun, 8-sonli bayonnoma).*

Mas'ul muharrir: A.X.Saidov, yu.f.d., professor

Taqrizchilar:

M.Mamasiddiqov, yu.f.d., professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, guruh rahbari

G.Yuldasheva, yu.f.n., Toshkent davlat yuridik instituti , “Huquqiy tadqiqotlar markazi” rahbari

F.Bakayeva, yu.f.n., Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi bo‘lim boshlig‘i

Mazkur darslik “Bola huquqlari” o‘quv fani predmetini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bola huquqlari tushunchasi, tarixi va rivojlanish bosqichlari, bola huquqlari bo‘yicha xalqaro va milliy huquqiy normalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari, bola huquqlari sohasida xalqaro hamkorlik kabi masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Darslik o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, mutaxassislar, magistr va bakalavr talabalari hamda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

© A.Mo‘minov, M.Tillabayev. 2014 y.

© O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2014 y.

MUNDARIJA

Kirish

1-mavzu. “Bola huquqlari” tushunchasi, o‘quv kursi tizimi va ahamiyati

1. Bola huquqlarini o‘rganishning dolzarbligi
2. “Bola huquqlari” o‘quv kursi “Inson huquqlari” fanining maxsus sohasi sifatida
3. Bola huquqlari” o‘quv kursining obykti, predmeti, maqsadi va vazifalari va o‘rganish metodologiyasi
4. “Bola” va u bilan bog‘liq tushunchalar

2-mavzu. “Bola huquqlari” tarixi va uning rivojlanish tendensiyalari

1. Bola huquqlari to‘g‘risidagi g‘oyalar va qarashlarni shakllanishi va rivojlanishi
2. Bola huquqlari masalalarining normativ shakllanishi va rivojlanishi

3-bob. Bola huquqlari bo‘yicha xalqaro-huquqiy hujjatlar

1. Bola huquqlariga oid xalqaro normalar klassifikatsiyasi
2. Bola huquqlariga oid universal xalqaro hujjatlar tavsifi
3. Bola huquqlariga oid mintaqaviy halqaro hujjatlar tavsifi

4-bob. Bola huquqlari bo‘yicha xalqaro mexanizmlar

1. Bola huquqlari bo‘yicha xalqaro institutsional tizimning umumiy tavsifi
2. Bola huquqlari bilan shug‘ullanuvchi xalqaro universal xalqaro tashkilotlar
3. YUNISEF – bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan BMTning maxsus organi sifatida
4. Bola huquqlari bilan shug‘ullanuvchi mintaqaviy xalqaro tashkilotlar
5. Bola huquqlariga ixtisoslashgan xalqaro nodavlat tashkilotlari

5-bob. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi va uning fakultativ protokollari

1. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani qabul qilishning shart-sharoitlari, o'ziga xos xususiyatlari va poydevor prinsiplari
2. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya normalarining umumiy tavsifi
3. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga fakultativ protokollarning tavsifi
4. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va unga Fakultativ protokollarning monitoring mexanizmi

6-bob. Bola huquqlarini himoya qilishga oid O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi

1. Bola huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari
2. Bola huquqlariga oid O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligining umumiy tavsifi
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni va uning tavsifi
4. Bola huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati

7- bob. Bolalarning shaxsiy huquq va erkinliklari hamda siyosiy huquqlari

1. Bolalarning shaxsiy huquq va erkinliklarini amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari
2. Bolalarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari
3. Bolalarning shaxsiy huquq va erkinliklari hamda siyosiy huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik, bu huquq va erkinliklarni ta'minlashning kafolati sifatida va uni amalga oshirishning huquqiy asoslari

8-mavzu. Bolalarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari va ularni amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari

1. Bolalarning iqtisodiy huquqlari amalga oshirishning xalqaro va milliy

huquqiy asoslari

2. Bolalarning ijtimoiy huquqlari amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari

3. Bolalarning madaniy huquqlari amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari

4. Bolalarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik bola huquqlarini ta'minlashning kafolati sifatida va uning huquqiy asoslari

9-bob. Bola huquqlarini ta'minlash usullari

1. Bola huquqlarini ta'minlashda davlat organlarining o'rni va roli

2. Bola huquqlarini himoya qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va roli

3. Bola huquqlarini ta'minlashda inson huquqlari bo'yicha milliy mexanizmning o'ziga xos xususiyatlari

4. Bola huquqlari milliy monitoringi

10-bob. O'zbekiston Respublikasining bola huquqlari bo'yicha xalqaro hamkorligi

1. O'zbekiston Respublikasining bola huquqlari bo'yicha xalqaro hamkorligining ustuvor yo'nalishlari

2. O'zbekistonni xalqaro tashkilotlar bilan bola huquqlari bo'yicha hamkorligi

3. O'zbekistonni YUNISEF bilan bola huquqlari bo'yicha xalqaro hamkorligi

Ilovalar

Bola huquqlarini himoya qilishiga oid xalqaro huquqiy hujjatlar.

Bola huquqlariga oid O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari.

Bola huquqlaridan glossariy

"Bola huquqlari" fani bo'yicha tavsiya etilayotgan adabiyotlar va manbalar ro'yhati:

Kirish

Yosh avlodni erkin, demokratik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni komil inson ruhida o‘stirish va ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish va ta‘minlab berish fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik, huquqiy davlatni qurishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan har bir jamiyat uchun juda ham muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Barcha demokratik davlatlar kabi, mazkur masala, ya‘ni yosh avlodni tarbiyalash, aholida esa bola huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatni shakllantirish masalasi, O‘zbekiston uchun ham muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi yosh mustaqil davlat bo‘lib, aholisining 40%ni 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar tashkil etadi, 64%ni esa – 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar. Shu sababli, inson huquqlari va erkinliklari sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bolalar va yoshlarning jismoniy, intellektual va ma‘naviy rivojlanishi uchun qulay va eng yaxshi sharoitlarni yaratish, shuningdek ko‘p bolali oilalarni, yetim bolalarni va oila muhitidan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi¹.

Mamlakatda bola huquqlarini ta‘minlash va ularni har tomonlama himoya qilish uchun maxsus huquqiy baza shakllangan desak, adashmagan bo‘lamiz. Jumladan, bolalarning huquqlari mamlakatimiz Konstitutsiyasida va boshqa qonun hujjatlarida o‘z aksini topgan. O‘zbekiston o‘z mustaqilligining dastlabki davridanoq, aniqrog‘i 1992-yili BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasini² ratifikatsiya qilishi bilan jamiyatimiz bola huquqlari naqadar, dolzarb masala ekanligini xalqaro miqyosda e‘tirof etdi.

Mamlakatimizda bola huquqlarini ta‘minlashda, qonunchilik hujjatlari va Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya bilan bir qatorda, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Xotin-

¹ Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma /Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. –T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011. -B.5

² Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar (to‘plam). -T.: “Adolat”, 2004. – B. 220.

qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, Irqiy kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi konvensiya va Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya, kabi inson huquqlari bo'yicha boshqa xalqaro shartnomalarga ham tayaniladi. Bugungi kungacha mamlakatimiz 70dan ortiq inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarga qo'shilgan. Mazkur xalqaro huquqiy hujjatlar orasida bola huquqlariga oid xalqaro normalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu alohida qayd etish kerakki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60-yilligi mamlakatimizda keng nishonlangan 2008-yilda O'zbekiston parlamenti bola huquqlariga taalluqli quyidagi muhim xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildi:

1. Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi XMTning konvensiyasini (2008-yil 4 aprelda);
2. Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va tugatishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi XMTning konvensiyasini (2008-yil 8 aprelda);
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini (Nyu-York, 2000-yil 15-noyabr) to'ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi protokolini (2008-yil 8-iyulda);
4. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ protokolni (2008-yil 11-dekabrda);
5. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalarning qurolli mojaralarda ishtirokiga taalluqli Fakultativ protokolni (2008-yil 12-dekabrda).

Bola huquqlariga oid mazkur xalqaro hujjatlar o'z navbatida milliy qonunchilikni takomillashtirishga yordam bermoqda.

Jumladan, O'zbekistonda bola huquqlari va erkinliklari, ularni ta'minlash va himoya qilish masalalari 100dan ortiq qonunlar bilan tartibga solinishiga qaramay,

2008-yil 7-yanvar kuni, bu sohadagi maxsus qonun hisoblangan O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni³ kuchga kirdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni O‘zbekistonning huquq tarixida bola huquqlariga oid birinchi maxsus qonun bo‘ldi. Maqsadiga ko‘ra, mazkur Qonun bolaning huquqiy ahvolini belgilashga doir munosabatlarni tartibga solishga, bola huquqlarini va erkinliklarini yuridik kafolatlashga qaratilgan. Unga binoan, bola huquqlari va manfaatlarini amalga tatbiq etilishini ta‘minlaydigan kafolatlarni belgilash qonun bilan tartibga solinadigan asosiy obyekt hisoblanadi. Ta‘kidlash joizki, Qonun normalarining yarmidan ko‘pi bola huquqlarining kafolatlarini belgilashga bag‘ishlangan⁴.

Bola huquqlariga oid mazkur xalqaro va milliy normalar mamlakatimizda bola huquqlariga oid davlat siyosatining shakllanishi uchun huquqiy zamin yaratdi. Mazkur siyosat bola huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun samarali mexanizmni yaratishga qaratilgan davlat va mahalliy hokimiyat organlarining izchil olib borayotgan faoliyatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, bola huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish uchun zarur bo‘lgan huquqiy va tashkiliy sharoitlar va kafolatlarni yaratish mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Alohida qayd etish kerakki, bola huquqlari va erkinliklari mazkur huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lsa, ularni amalga oshirish bo‘yicha mamlakatda keng ko‘lamli amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bola huquqlarini himoya qilishni ta‘minlash bilan bog‘liq amaliy tadbirlar hukumatimiz tomonidan qabul qilingan quyidagi dasturiy hujjatlarda o‘z aksini topdi:

– “Homiylar va shifokorlar yili” (2006-yil), “Ijtimoiy himoya yili” (2007-yil), “Yoshlar yili” (2008-yil), “Barkamol avlod yili” (2010-yil), Sog‘lom bola yili”ga (2014) bag‘ishlangan yillik davlat dasturlarida;

³ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami. -T.:2008, N 1-2, 1-modda.

⁴ Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma /Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. –T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011. -B.6

- Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning qoidalarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining davriy ma'ruzalarini ko'rib chiqish yakunlari yuzasidan BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasining tavsiyalarini bajarish bo'yicha Milliy harakat dasturlarida;

- Bolalar farovonligini ta'minlash bo'yicha Milliy harakat dasturida (2007-2011-yillar), Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyani hamda Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va tugatishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirish bo'yicha Milliy harakat rejasi (2008-2010-yillar), Odam savdosini bartaraf etish bo'yicha Milliy harakat rejasi (2008-2010-yillar);

- Universal davriy hisobot doirasida O'zbekiston Respublikasining Milliy ma'ruzasini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha BMT Inson huquqlari kengashining tavsiyalarini bajarish yuzasidan Milliy harakat dasturi (2009-2011-yillar)⁵.

Mazkur milliy harakat dasturlarida bola huquqlari va erkinliklarini har tomonlama amalga oshirish va ularni himoya qilishning yanada samarali mexanizmlarini yaratish va ularni takomillashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatda bola huquqlari sohasida axborot-ma'rifat va ta'lim faoliyati sezilarli darajada faollashdi. Ma'rifiy faoliyat bola huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlarni chop etish, ushbu mavzuga bag'ishlangan konferensiya, seminar va treninglar o'tkazishni qamrab oladi.

Hozirgi kunga qadar bola huquqlariga oid quyidagi kitoblar chop etildi:

- "Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo'llanma";
- "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya", o'zbek tilida 2000 nusxada nashr etildi;
- "Bola huquqlari to'g'risida konvensiya va uning fakultativ protokollari" o'zbek tilida 2000 nusxada nashr etildi;

⁵ Bola huquqlari monitoringi. O'quv-uslubiy qo'llanma /Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011. -B.7

- “Inson huquqlari. Parlament a’zolari uchun qo‘llanma”, o‘zbek tilida 1000 nusxada nashr etildi;
- “XMTning asosiy konvensiyalari va tavsiyalari to‘plami”;
- “Bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham berish”, parlament a’zolari uchun qo‘llanma (XMTning 182-sonli konvensiyasini qo‘llash bo‘yicha amaliy qo‘llanma).
- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 60-yilliga bag‘ishlangan nashri;
- “BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi va O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunini o‘z ichiga olgan to‘plam (o‘zbek, rus va ingliz tillarida);
- “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga sharhlar;
- “Bola huquqlari: xalqaro shartnomalar to‘plami” elektron kitobi;
- Bakalavr va magistrlar uchun “Bola huquqlari” o‘quv qo‘llanmasi.
- “Bola huquqlari” elektron darsligi, shular jumlasidandir.

Mazkur adabiyotlar bugungi kunda, mamlakatimizda bola huquqlariga oid huquqiy savodxonlikni oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda bola huquqlari mavzusi O‘zbekistonda chop etilayotgan ko‘pgina yuridik, iqtisodiy, pedagogik jurnal va gazetalarda ham yoritib kelinayotganini ta’kidlash joiz. Masalan, bola huquqlari masalasi Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Ombudsman instituti va O‘zbekiston kasaba uyushmalari kengashi, “Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan chop etib kelinayotgan “Demokratlashtirish va inson huquqlari”, “Ijtimoiy fikr va inson huquqlari” jurnallari mualliflari uchun ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Har yili jurnal sonlaridan biri butunlay O‘zbekistonda bola huquqlariga rioya qilish masalalariga bag‘ishlanadi. “Bola va Zamin” ilmiy-ommabop jurnali esa, to‘laligicha bolalar, mavzusiga bag‘ishlangan.

Bola huquqlariga oid xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilikni o‘rganish maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasbiy va oliy

ta'lim muassasalari xodimlari, pedagoglar va tibbiyot xodimlari, jurnalistlar, huquqni muhofaza qilish tizimi xodimlari va sudyalar malakasini oshirish tizimining o'quv dasturlariga kiritilgan.

Bola huquqlarini ham nazariy, ham amaliy jihatlarini har tomonlama o'rganishga mo'ljallangan mazkur darslik ham, bola huquqlariga oid yuqorida qayd etilgan adabiyotlarni o'rganilgan va ulardan foydalanilgan holda, ularning yutuqlarini e'tirof etgan holda tayyorlangan bo'lib, bola huquqlari tushunchasi, uni rivojlanish evolyutsiyasi, bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari va mexanizmlarini o'rganishda yangicha yondashilgan manba hisoblanib, bola huquqlari bo'yicha yuqorida qayd etilgan adabiyotlar va manbalar bazasini yanada to'ldiradi, deb hisoblaymiz.

Saidov A.X.

yuridik fanlar doktori, professor

1-mavzu. “Bola huquqlari” tushunchasi, o‘quv kursi tizimi va ahamiyati

1. Bola huquqlarini o‘rganishning dolzarbligi
2. “Bola huquqlari” o‘quv kursi “Inson huquqlari” fanining maxsus sohasi sifatida
3. Bola huquqlari” o‘quv kursining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari va o‘rganish metodologiyasi
4. “Bola” va u bilan bog‘liq tushunchalar

1. Bola huquqlarini o‘rganishning dolzarbligi

Yosh avlodni erkin, demokratik, insonparvarlik tamoyillari asosida komil inson ruhida o‘stirish, ularning nafaqat o‘z huquq va erkinliklarini yaxshi biluvchi, balki ularni amalga oshira oladigan hamda o‘z burch va majburiyatlarini ham ongli ravishda bajaruvchi inson sifatida jamiyatning teng huquqli va faol subyekti qilib tarbiyalash fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik, huquqiy davlatni qurishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan har bir demokratik davlatlar kabi, O‘zbekiston uchun ham muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

“Azal-azaldan har qaysi ota-ona o‘z bolasining sog‘lom va barkamol, aql-zakovatli, baxtli bo‘lishini istaydi. Shunday farzandni voyaga yetkazish, uning hayotda munosib o‘rin egallashiga erishish – ota-onaning eng ulug‘, eng muqaddas orzusi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. ... Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o‘zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda⁶”.

Yosh avlod tartiyasi O‘zbekiston uchun yana shunisi bilan ham hayot-mamot masalasi hisoblanadiki, mamlakatimiz aholisining 40%ni 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 60%ni 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Shu sababli, inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bolalar va yoshlarning jismoniy, intellektual va ma’naviy rivojlanishi uchun qulay va eng

⁶ “Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir”. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. /Xalq so‘zi, 2013-yil 7 dekabr.

yaxshi sharoitlarni yaratish, shuningdek ko'p bolali oilalarni, yetim bolalarni va oila muhitidan mahrum bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hisoblanadi⁷.

Mamlakatda yoshlar masalasi, ularning o'z fuqarolik pozitsiyasiga ega inson sifatida tarbiyalash, ularning huquq va erkinliklarni, qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalalariga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, davlat siyosatining ustuvor yo'nalish sifatida katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Mustaqilligimiz endi e'lon qilingan paytlari, ya'ni 1991-yilning 20-noyabrida, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi maxsus qonuni qabul qilinganligi bunga dalolat bo'la oladi.

Mazkur Qonunda yoshlarga oid siyosatning maqsadi, O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati qanday sohasidagi vakolatlari, yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunlarning mazmun-mohiyati qanday bo'lishi lozimligi, bu boradagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari normalarining ustuvorligi tamoyili ko'rsatib o'tilgan. Bu esa, yoshlar siyosati masalasi 1992-yilgi mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasida o'z aksini topishiga, shu yili O'zbekistonning BMTning asosiy hujjatlaridan biri hisoblanmish "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyaga⁸ qo'shilishiga va mazkur hujjatlar asosida o'tgan davr mobaynida bolalar va yoshlar masalalariga dahldor 100dan ortiq qonunlarni qabul qilinishi hamda 2008-yilda, bu sohadagi maxsus qonun hisoblangan O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunini⁹ qabul qilinishiga asos bo'ldi. .

2008-yil 7-yanvar kuni kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 18 yoshgacha bo'lgan subyektlar hisoblanmish, bolalarning huquqiy ahvolini belgilashga doir munosabatlarni tartibga solishga, bola huquqlarini va erkinliklarini yuridik kafolatlashga

⁷Bola huquqlari monitoringi. O'quv-uslubiy qo'llanma /Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011. - B. 5.

⁸ Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar (to'plam). -T.: "Adolat", 2004. - B. 220.

⁹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2008-yil, 1-2-son, 1-modda.

qaratilgan. Ta’kidlash joizki, Qonun normalarining yarmidan ko’pi bola huquqlarining kafolatlarini belgilashga bag’ishlangan¹⁰.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, o’tgan davr mobaynida, mamlakatda bolalarning huquqiy jihatdan himoyalashning xalqaro va milliy huquqiy asoslari yaratildi va ular hayotga jalb etilib borilmoqda.

Mazkur huquqiy hujjatlarda bolalar, shuningdek, aholining boshqa barcha qatlami vakillarining ham bola huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan. Bu yo’nalishda huquqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi tegishli xalqaro hujjatlar, parlamentning qonun va qarorlari, mamlakat Prezidentining g’oyalari, tegishli farmon va farmoyishlarining¹¹ ijrosining samarasi o’laroq, bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha va umumiy o’rta ta’lim muassasalari, oliy o’quv yurtlari va oliy o’quv yurtidan keyingi ta’limda huquqiy ta’lim tizimi yaratildi. Bola huquqlari o’rganish masalasi mazkur tizimning tarkibiy qismiga aylandi.

Alohida qayd etish kerakki, aholida bola huquqlariga oid huquqiy madaniyatini shakllantirishda hukumat tomonidan qabul qilingan quyidagi dasturiy hujjatlar ham muhim ahamiyatga ega. Har yili qabul qilinadigan davlat dasturlarida yoshlar muammosi doimo diqqat marqazida bo’lmoqda. Ayniqsa, 2008-yilni “Yoshlar yili”, 2010-yilni “Barkamol avlod yili”, 2014-yilni “Sog’lom bola yili” deb e’lon qilinishi bolalar, yoshlar va ularning tarbiyasi davlat siyosatining bosh masalasi ekanligini ko’rsatib berdi. Ayniqsa, bu borada mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan turli tadbirlar yoshlarning huquqiy madaniyatini, ularning

¹⁰ Bola huquqlari monitoringi. O’quv-uslubiy qo’llanma /Mas’ul muharrir A.X.Saidov. –T.: Inson huquqlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011. -B.6

¹¹ Misol uchun, BMTning “Inson huquqlari sohasidagi ta’lim o’n yilligi (1995-2004)” doirasidagi tavsiyalari hamda O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi Qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan tasdiqlangan 1997-yildagi “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 25-iyundagi “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o’rganish ishini yaxshilash haqida”gi Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvardagi “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganishni tashkil etish to’g’risida”gi Farmoyishi.

huquq va erkinliklarini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda¹².

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda bugungi kunda aholining bola huquqlari oid huquqiy madaniyatini rivojlantirish bo'yicha huquqiy asos va institutsional tizim yaratildi va u takomillashtirib borilmoqda. Ammo, qonunlarni ishlashi, ular mexanizmlarining samaradorligi birinchi o'rinda, aholining huquqiy madaniyatining qay darajada ekanligiga bog'liqdir. Uni esa, bu boradagi ta'limsiz erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham, mamlakatda inson huquqlari sohasidagi ta'limni rivojlantirish bilan bir qatorda, uning aholisining katta qismini tashkil etuvchi bolalarning huquqlarini ham maxsus o'qitish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanmoqda.

Mazkur yo'nalishda, bolalarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishda, aholining bola huquqlariga oid huquqiy bilimlarini oshirishda, quyidagilarga e'tiborni yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir: *birinchidan*, bola huquqlariga oid ta'lim va tarbiyaning nazariy jihatlarini kuchaytirish bilan bir qatorda, uning amaliy samaradorligini yanada oshirish; *ikkinchidan*, bolalar ta'lim va tarbiyasini amalga oshiruvchi muassasalar o'quv dasturlarida bola huquqlariga oid O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro normalarga, umuminsoniy qadriyatlarga, ilg'or horijiy tajribaga va albatta, mamlakatda tarixan shakllangan milliy an'analarga, qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirish; *uchinchidan*, bola huquqlarini o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini oshirish; *to'rtinchidan*, bola huquqlariga oid tadqiqotchilikni, ayniqsa, ularning o'zlarining hamda aholining bola huquqlariga oid huquqiy madaniyatini o'rganishga qaratilgan ilmiy va sotsiologik tadqiqotlarni yanada kuchaytirish; *beshinchidan*, bola huquqlari borasida ta'lim muassasalari bilan davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, xususan mahallalar o'rtasidagi

¹²Jumladan, Bolalar farovonligini ta'minlash bo'yicha Milliy harakat dasturida (2007-2011-yillar); Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyani hamda Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va tugatishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirish bo'yicha Milliy harakat rejasi (2008-2010-yillar); Odam savdosini bartaraf etish bo'yicha Milliy harakat rejasi (2008-2010-yillar); Universal davriy hisobot doirasida O'zbekiston Respublikasining Milliy ma'ruzasini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha BMT Inson huquqlari kengashining tavsiyalarini bajarish yuzasidan Milliy harakat dasturi (2009-2011-yillar), "Sog'lom bola yili" davlat dasturi (2014-yil) kabi dasturlar.

o‘zaro tushungish va hamkorlikka erishish; *oltinchidan* OAVlarining bolalar va yoshlarning huquqiy tarbiya sohasidagi faoliyatini yanada kengaytirish.

2. “Bola huquqlari” o‘quv kursi “Inson huquqlari” fanining maxsus sohasi sifatida

Bola huquqlari masalalarini har tomonlama o‘rganishni maqsad qilib olgan mazkur o‘quv kursi avvalombor, “Inson huquqlari” fani doirasida, uning maxsus kursi sifatida shakllandi. “Inson huquqlari” fani esa, o‘z navbtida ijtimoiy fanlar tizimida, bu fanlarning kesimida shakllangan. “Inson huquqlari” fanining paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi g‘oyalar xorijda XX asrning 70–80-yillarida, mamlakatimizda esa, 90-yillarda paydo bo‘lgan edi.

“Inson huquqlari” nomli darslikda inson huquqlarining fan sifatida shakllanishi¹³ ko‘rsatib berilgani holda, bu fan doirasida yangi shakllanayotgan sohalar ham asoslab berilgan¹⁴.

Bugunga kelib, bizning mamlakatimiz huquqshunosligida ham inson bola huquqlari alohida fan sifatida shakllanib ulgurdi, desak adashmaymiz. Jumladan, mamlakat huquqiy adabiyotida, bola huquqlari bo‘yicha dastlabki darslik 2009-yilda chop etilgan edi¹⁵. Bugungi kunda, bola huquqlari inson huquqlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar¹⁶da alohida mavzu sifatida o‘rganilishi bilan bir qatorda, bola huquqlariga bag‘ishlangan maxsus darslik va o‘quv qo‘llanmalar¹⁷

¹³ Qarang: Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. –T.; Adolat, 2013. –B.12-18

¹⁴ Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. –T.; Adolat, 2013. –B.365-366

¹⁵ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik // Prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI nashriyoti, 2009. – 248 bet

¹⁶ Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. –T.; JIDU, 2010; Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. 2 nashr. –T.; Adolat, 2013.; Mo‘minov A. Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik 2-nashr. –T.; Adilat, 2013; Gafurov A., Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. O‘quv qo‘llanma. –T.; Adolat, 2012.

¹⁷ Muminov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. 2011 y. Bola huquqlari. / Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik // Prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. – 240 bet; Bolalarni himoya qilish. Parlament a‘zolari uchun qo‘llanma. T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006.; Prava rebenka: Uchebnik. /pod red. A.X.Saidova. –T.: TGYuI, 2009. -251 s.; Raxmonov b. Mahmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. –T.: CHASHMA PRINT, 2011. -144 b.; Bolalar g‘ayriijtimoiy harakatlarining oldini olish borasidagi dolzarb vazifalar va ustuvor yo‘nalishlar: (ilmiy-amaliy konferensiya materiallari) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiya, BMT Bolalar fondining (UNICEF) O‘zbekistondagi vakolatxonasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining oliy o‘quv kurslari; mas‘ul muharrir T.A.Umarov. –T.: YURIST-MEDIA markazi, 2010. 378 b.; Ismailov B.I. Правовые основы системы ювенальной юстиции. Uchebnoye posobiye. - T.: 2001.; Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma /Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. –Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011.-134 b.; Balog‘atga yetmagan bolalar

tayyorlandi va, shu asnoda mamlakatimizda bola huquqlari bo'yicha o'quv-uslubiy baza shakllana boshladi.

Bola huquqlari to'g'risidagi yangi fanning shakllanishi nazariyaning yanada rivojlanish zaruriyati va amaliyot ehtiyojlari bilan ham bog'liq edi. Bu holat esa, o'z navbatida insonning tafakkuri va amaliyotining maxsuli hisoblangan yangi fanlarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, jamiyatning eng zaif qatlami hisoblangan bolalarning huquqlarini ta'minlab berish, bolalarni har tomonlama yetuk komil inson bo'lib tarbiyalash masalalari jamiyatimizda qadimdan muhim masala bo'lib kelgan. Bola, uning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish va yanada samaraliroq ta'minlash berish masalasi, bugungi kunda davlatning bosh siyosatiga aylandi. Vaholanki, davlatning kelajagi, yosh avlodni qanchalik himoyalanganligi va ularni qay qanday tarbiya qilishga bog'liqdir.

Albatta, har qanday tarbiya avvalombor ta'lim tizimiga, uning sifatini yanada yaxshilash va zamon talablari darajasiga ko'tarish bo'yicha katta vazifalar qo'yadi. Shuning uchun ham, mamlakatda barkamol avlodni tarbiyalashda bola bilan bog'liq ta'limga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda bola huquqlari ta'limini rivojlantirish, uning uchun esa, "Bola huquqlari" fanini shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. "Bola huquqlari" fani ham o'z navbatida, "Inson huquqlari" fani doirasida shakllanganligi ham alohida qayd etish lozim.

Chunki, huquqning alohida sohasi sifatida shakllanib bo'lgan "Inson huquqlari" fanining ham nazariy, ham amaliy jihatdan kengayib, uning xalqaro va milliy mexanizmlari takomillashib borayotgan bir paytda, uning yanada ixtisoslashuvi yanada chuqurlashmoqda. Uning ixtisoslashuvi, alohida huquqiy himoyaga muhtoj subyektlarning o'ziga xos himoya tizimi shakllanib borayotganligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, inson huquqlari sohasida "Ayollar huquqlari", "Nogironlar huquqlari", "Mahkumlar huquqlari", "Bemorlar

huquqlari” kabi aholining ijtimoiy zaif qatlami hisoblanuvchi alohida kategoriyadagi shaxslar huquqlari shakllanmoqda. Bunday alohida kategoriyadagi huquqli individlar, o‘zining jismoniy va ijtimoiy holati, alohida e‘tibor talab etishi tufayli jamiyatning teng huquqli a‘zosi sifatida rivojlana olishi, o‘z va manfaatlarini himoya qila olishi, jamiyatning barcha farovonligi va imkoniyatlaridan teng darajada foydalana olishi uchun barcha insonlarga tegishli bo‘lgan huquqlar bilan bir qatorda, alohida huquqlar, imtiyozlar hamda kafolatlardan foydalanishadi.¹⁸

Bunday huquqlar, imtiyozlar va kafolatlar davlat tomonidan, shu bilan birga xalqaro hamjamiyat tomonidan ham taqdim etiladi. Shu nuqtai-nazardan ham, jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmagan, maxsus ravishda muhofaza va g‘amxo‘rlikka, binobarin, tug‘ilguncha va tug‘ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj bolalarga taqdim etilayotgan alohida huquqlar, imtiyozlar va kafolatlarni qamrab oluvchi xalqaro va milliy huquqiy asos va mexanizmlarni o‘z ichiga qamrab olgan - “Bola huquqlari” degan inson huquqlarining maxsus sohasi shakllandi. Bola huquqlari o‘zining alohida xalqaro va milliy me‘yoriy bazasi va himoya mexanizmi bilan ham boshqa ayrim kategoriyadagi inson huquqlaridan farq qiladi.

Bola, agar jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetishmagan bo‘lsa, maxsus ravishda muhofaza va g‘amxo‘rlikka, binobarin, tug‘ilgunga qadar va tug‘ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj bo‘ladi.

Bolalar alohida g‘amxo‘rlik va yordam huquqiga egadirlar. Jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanish oila va atrof-muhit uning barcha a‘zolari, ayniqsa, bolalar o‘sib ulg‘ayishlari va farovonlikka ega bo‘lishlari, sog‘lom va har tomonlama uyg‘unlashgan holda kamolotga yetishi uchun u oila g‘amxo‘rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushinish vaziyatida o‘sishi, jamiyatda mustaqil hayotga to‘la tayyorlanishi, ayniqsa tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, huquq va erkinliklar, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozim.

¹⁸ Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. –T.; Adolat, 2013. –B.365

Har bir bola uchun koʻzda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamchiliklarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa eʼtiqodlari, milliy etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, bolaning sogʻligʻi va tugʻilishi, uning onasi yoki qonuniy vasiysi yoki boshqa biron-bir holatlardan qatʼiy nazar hurmat qilinishi va huquqlari taʼminlanishi kerak.

Bularni amalda bajarilishi uchun ijtimoiy masalalar bilan shugʻullanuvchi davlat va xususiy muassasalar, sudlar, maʼmuriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan bolaning huquqlari va manfaatlari yaxshiroq taʼminlanishiga eʼtibor berilishi lozim.

Maʼlumki, huquqiy hujjatlar asosida har bir bola tugʻilgan zahoti roʻyxatga olinadi va tugʻilgan daqiqasidan boshlab ism bilan aytilish va fuqarolikka ega boʻlish, shuningdek iloji boricha oʻz ota-onasini bilish va ular gʻamxoʻrliklaridan bahramand boʻlish huquqlariga egadir.

Shuningdek bola oʻzining fikrini erkin ifodalash vijdon va din erkinligi, bilim olish, dam olish hamda ota-onasi turli davlatlarda yashayotgan bola alohida holatlardan tashqari, otasi va onasi bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va toʻgʻridan-toʻgʻri aloqalar bogʻlab turish huquqiga haqli hisoblanadi.

Hozirgi zamonning dolzarb vazifalaridan biri, bu bola huquqlari va erkinliklarini har tomonlama taʼminlanishi va himoyalanihini amalda qonunlar asosida bajarilishini taʼminlash orqali bolalarni barkamol oʻstirish hamda jamiyatning har tomonlama yetuk aʼzosi sifatida tarbiyalash hisoblanadi. Bunday vazifani muvaffaqiyatli bajarishda bola huquqlari va erkinliklariga bagʻishlangan mazkur oʻquv kursi, albatta muhim ahamiyat kasb etadi.

3. “Bola huquqlari” oʻquv kursining obykti, predmeti, maqsadi va vazifalari va oʻrganish metodologiyasi

Bola huquqlari”ning fan sifatidagi vazifasi bolalar va ularni barkamol rivojlanishining huquqiy jihatlari bilan bogʻliq obyektiv bilimlarni ishlab chiqish va nazariy tizimlashtirish boʻlgan insoniyat faoliyatining sohasi tushuniladi. Fan,

ijtimoiy institut sifatida, insonlarning tabiat va jamiyat voqeliklari to'g'risidagi ilmiy bilimlarni ishlab chiqaruvchi va tizimlashtiruvchi faoliyat sohasi hisoblanadi.

“Bola huquqlari” o'quv kursini o'rganishning **obyekti** - bu davlat bilan individ o'rtasidagi bolaning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni o'rganishdan iboratdir. Davlat ushbu munosabatlarda bola huquqlariga oid xalqaro hujjatlarga qo'shilishi, shuningdek, o'zining bu sohadagi qonunchiligini shakllantirishi bilan hamda bola huquqlarini himoya qiluvchi maxsus mexanizmlarni yaratish yo'llari bilan bola hisoblanuvchi individlarning alohida kategoriyasining huquq va erkinliklarini ta'minlab beradi.

«Bola huquqlari» o'quv kursining **predmeti** – mazkur kurs doirasida o'rganiladigan quyidagi masalalardan iborat: bola huquqlari tushunchasi, bola huquqlarining tarixiy rivojlanish qonuniyatlari, bola huquqlari bo'yicha milliy qonunchilik hujjatlari, bola huquqlariga oid xalqaro normalar va ularning turli davlatlarning milliy qonunchiligiga implementatsiya qilinishi masalalari, bola huquqlari va erkinliklari kafolatining xalqaro va milliy mexanizmlari, shuningdek, bola huquqlari va erkinliklariga ta'sir qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va boshqa omillar kabi bola huquqlari va erkinliklariga rioya qilish va ularni himoya qilishni ta'minlab berish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar.

«Bola huquqlari» o'quv kursining **maqsadi** – bola huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini o'zaro chambarchas va bir-biriga bog'liq holda tushunish, shuningdek, bola huquqlariga rioya qilish hamda ularni himoya va muhofaza qilish muammolarini ularning turfa xilligidan kelib chiqqan holda o'rganish asosida bolaning har tomonlama kamol toptirish bilan bir qatorda, bola huquqlari xususida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, “Bola huquqlari” o'quv kursi yana quyidagi maqsadlarni ham ko'zlaydi:

- *o'quvchilarda, bola huquqlarini himoya qilish shug'ullanadigan bo'lajak mutaxassislarda* bola huquqlarini himoya qilishga oid milliy va xalqaro huquqiy normalar, ularni amalga oshirishning milliy va xalqaro mexanizmlari to'g'risida

huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish va mazkur normalar hamda mexanizmlarni samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;

- *bolalarda*, har bir erkin inson ega bo'lishi kerak bo'lgan sifatlar – *insoniy qadr-qimmat, o'zini o'zi hurmat qilish, demokratik ko'nikmalar, fuqarolik mas'uliyati tuyg'usini singdirish*;

- *bolalarda* ta'limning butun jarayonida, ushbu fanni chuqur o'rganish uchun hamroh bo'lishi kerak bo'lgan *o'z huquqlari va erkinliklari kabi, boshqa insonlarning ham shunday huquqlari va erkinliklarini chuqur tushunish va hurmat qilish xissini shakllantirish*.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- *birinchidan*, bolalarning o'z huquqlari to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirishida malakali pedagogik yordam ko'rsatish;

- *ikkinchidan*, bola huquqlariga oid huquqiy bilimlarni targ'ib qilish va rivojlantirish;

- *uchinchidan*, bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

“Bola huquqlari” o'quv kursining vazifalari. “Bola huquqlari” o'quv kursining oldiga qator vazifalar qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

fuqarolarni bola huquqlari to'g'ri- sidagi bilimlar bilan tanishtirish;

fuqarolarda bolalarga, ularning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatiga nisbatan hurmat hissini oshirish;

huquqni qo'llovchi mansabdor shaxslarda bola huquqlariga rioya qilish bo'yicha mas'ullikni oshirish;

jamiyatdagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirishga ko'maklashish;

jamiyatda yuqori darajada fuqarolik mas'uliyatini his eta oladigan huquq subyektini shakllantirish.

Bola huquqlarini o‘rganish metodologiyasi. Boshqa fanlar kabi Bola huquqlari” fani ham o‘zining o‘rganish usuliga ega. “*Bola huquqlari*” o‘quv kursining o‘rganish metodologiyasi deganda, bola huquqlari tushunchasi, ularning belgilari va xususiyatlari, ularning qonunda mustahkamlanishi va amalga oshirilishining shakllari va usullarini har tomonlama o‘rganishga yordam beruvchi qoidalar va usullar tushuniladi. Odatda, ular universal va xususiy usullarga bo‘linadi.

“Bola huquqlari” fanini o‘rganish metodologiyasi quyidagi usullardan iborat:

Universal usullar	Xususiy usullar
<i>Tabiat, tafakkur va jamiyatning umumiy qonuniyatlari</i>	<i>Tizimli usul</i> <i>Qiyosiy usul</i> <i>Tarixiy usul</i> <i>Sotsiologik usul</i> <i>Mantiqiy usul</i>

Tizimli usulda bola huquqlari muammolari, inson huquqlarining boshqa kategoriyalari bilan o‘zaro bog‘liq holda yagona bir butun sifatida o‘rganiladi. Masalan, bolaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni hech qachon uning shaxsiy huquq va erkinliklaridan ajratgan holda o‘rganib bo‘lmaydi.

Qiyosiy usulda tushunchalar va holatlar ular o‘rtasidagi umumiy tomonlar va farqlarni solishtirish asosida o‘rganiladi. Masalan, turli mamlakatlarning bola huquqlariga oid qonunchiligi va ularni amalga oshirish bo‘yicha mexanizmini hamda bola huquqlariga milliy qonunchilik va xalqaro normalarni taqqoslash orqali o‘rganish mumkin.

Tarixiy usulda bola huquqlari tarixiy taraqqiyot rivojlanishida o‘rganiladi. Masalan, bola huquqlariga oid g‘oyalar va normalarni qadimgi dunyoda, o‘rta asrlarda va hozirgi davrda rivojlanib borishi nuqtai nazardan o‘rganish.

Sotsiologik usulda axborotlar yig‘iladi va tahlil etiladi. Bularning birinchisiga turli shakldagi so‘rovlar (ommaviy anketa so‘rovlari, intervyu, ekspert

so'rovlari, ijtimoiy tajriba, kuzatuv va boshqalar) kiradi. Ayniqsa, bola huquqlari sohasidagi dolzarb muammolar bo'yicha anketa so'rovlarini o'tkazish orqali aholining fikrini o'rganish, odatda, ushbu muammolarni to'g'ri hal etishga yordam beradi va qabul qilingan qarorning aholi orasida xayrixohlik bilan qabul qilinishiga yordam beradi.

Mantiqiy usulda bola huquqlari muammolarini mantiqiy nuqtai nazardan o'rganishning vositalari va usullari tushuniladi. Muammolarni o'rganishda mantiqiy usullardan foydalanish, ushbu muammoni o'rganish asosida qabul qilinadigan qarorlar va qonun hujjatlari ziddiyatlardan xolis bo'lishiga yordam beradi.

Biz sanab o'tgan usullarni "Bola huquqlari" fanini o'rganishning barcha usullari, deb hisoblab bo'lmaydi va ushbu fan doirasidagi muammolarni o'rganishda bilish nazariyasining boshqa usullaridan ham foydalanish mumkin.

4. "Bola" va u bilan bog'liq tushunchalar

"Bola va bolalar" tushunchasi. O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida "Bola (bolalar)" tushunchasiga O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida ilk marotaba ta'rif berilgan. Mazkur Qonun qabul qilinishiga qadar, "bola" yoki "bolalar" tushunchasi qo'llanilganda, uning mazmuni yoritilmagan. Bolaga berilgan ushbu tarif muhim, chunki "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun va bolalarga oid boshqa qonunlar kimlarni himoya qilishga qaratilganligini aniq belgilab beradi.

Ushbu Qonun¹⁹da bolalarga berilgan tarif, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining 1-moddasidagi "18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi", degan ta'rifga mos tushadi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 1-moddasida berilgan tarif "bolalik" qaysi paytdan, ya'ni bola tug'ilgan paytdan yoki undan avval boshlanishi

¹⁹ O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni (bundan keyingi matnlarda qisqartirilgan holda "Qonun" deb nomlanadi).

to'g'risidagi masalani yoritmaydi va shu bilan ongli ravishda milliy normalar turfa xilligi tufayli istisnosiz barcha davlatlar uchun yagona bo'lgan muammoning yechimini bermaydi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bolalikning yoki bola hayotining boshlanishini belgilash masalasini milliy qonunchilik ihtiyoriga qoldirgan.

Biroq, Konvensiyaning 1-moddasiga binoan, yuqori yosh chegarasini 18 yosh deb belgilangan. Shunday qilib, bu yosh chegarasi biron bir maqsad yoki faoliyat uchun aniq yosh belgilashi zarur bo'lganda ishtirokchi-davlatlar uchun asos va boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi.

“Bolaning qonuniy vakillari» tushunchasi. Qonunda “bolaning qonuniy vakillari” sifatida uning ota-onasi, farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar belgilangan. Qonuning 3-moddasida “bolaning qonuniy vakillari” tushunchasiga berilgan tarif O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 67-moddasidan kelib chiqqan bo'lib, bolaning qonuniy vakili bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslarning ro'yxatini belgilab bergan.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 67-moddasida “bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ota-onasi tomonidan (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda esa - vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi” deyilgan.

Shunday qilib, Qonunning 3-moddasiga binoan, bolaning qonuniy vakili sifatida uning ota-onasi, farzandlikka oluvchi shaxslar, vasiylar, homiylar tan olinadi, biroq O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi va boshqa qonunda nazarda tutilgan hollarda, bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, agar vasiylik va homiylik organlari tomonidan ota -onalar va bolalar manfaatlari o'rtasida ziddiyatlar borligi aniqlansa, ota-onalar bolalarining manfaatlarini himoya qilishi mumkin emas. Ota-onalar va bolalar o'rtasida kelishmovchilik bo'lgan holda, vasiylik va homiylik organi bolalarning huquqi va manfaatlarini himoya qilish uchun o'z vakilini tayinlashi mumkin. Ota - onalar ota-

onalik huquqlaridan mahrum bo'lgan hollarda ham bolaning qonuniy vakili bo'lishlari mumkin emas.

“Vasiylik va homiylik organlari” tushunchasi. “Vasiylik va homiylik organlari” tushunchasi O‘zbekiston Respublikasining oila qonun-hujjatlarida bola huquqlari va erkinliklari buzilganda yoki buzilish ehtimoli bo‘lganda keng qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida vasiylik va homiylik maqsadi, vasiylik va homiylikni tayinlaydigan organlar, vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshiradigan organlar, vasiylik va homiylik belgilanadigan shaxslar ko‘rsatilgan alohida “Vasiylik va homiylik” deb nomlanadigan 21-bob mavjud. Ushbu bobda vasiyning va homiyning huquqlari va majburiyatlari, ularning faoliyatini nazorat qilish shakllari, vasiylar va homiylarni chetlatish hamda vasiylikni va homiylikni bekor qilish asoslari va hokazo belgilangan. Shunday qilib, vasiylik va homiylik organlari faoliyatlarining barcha jihatlari O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 173-193 moddalarida batafsil tartibga solingan.

Qonunning 3-moddasida “vasiylik va homiylik” tushunchasi ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ularga ta‘minot, tarbiya hamda ta‘lim berish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli deb tariflangan. Vasiylik o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan, homiylik esa o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan bolalarga nisbatan belgilanadi deyilgan. Ushbu tarif Oila kodeksining qoidalariga to‘liq mos keladi.

“Yetim bola” tushunchasi. Qonunning 3-moddasida ilk marotaba “etim bola” tushunchasiga tarifi berilgan. Yetim bola deb otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e‘lon qilingan bola hisoblanadi. Farzandlikka olgan shaxslar vafot etgan bo‘lsa yoki sud orqali vafot etgan deb topilgan bo‘lsa ham ushbu Qonunga binoan bola yetim deb hisoblanadi.

“Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bola” tushunchasi. Qonunga binoan, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bola deb nogironlikni belgilash uchun yetarli bo‘lmagan jismoniy, aqliy,

sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bola hisoblanadi. Ushbu tushunchalarning qonundagi tarifi bu toifadagi bolalarning huquqiy maqomi har xilligi bilan belgilanadi.

Nogiron deb hisoblangan bolalar muayyan huquqlarga ega va milliy qonun-hujjatlarda ko‘zda tutilgan muayyan nafaqalar olish huquqiga ega (quyida yoritilgan), jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarga nisbatan esa bu qoida qo‘llanilmaydi. Qonun “ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar” tushunchasiga tarif berish orqali jismoniy va aqliy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun alohida himoya va tegishli nafaqalar olish huquqini ta’minlashga qaratilgan.

“Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar” tushunchasi. Qonunda ilk bor keng qo‘llaniladigan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar” tushunchasiga quyidagicha aniq tarif berilgan: “yuzaga kelgan holatlar sababli og‘ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bolalar”. Qonunga binoan, *ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar* deb:

nogiron bolalar;

jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar;

etim bolalar;

ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar;

ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar;

muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan bolalar;

kam ta’minlangan oilalardagi bolalar;

jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida turgan bolalar;

zo‘ravonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar hisoblanadi.

“Nogiron bola” tushunchasi. Qonun “nogiron bola” tushunchasiga ta’rif beradi. Nogiron bola - jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo‘lganligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordamga, himoyaga muhtoj hamda qonunda belgilangan tartibda nogiron, deb topilgan bola.

“O‘zbekiston Respublikasi nogironlarning ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahririga binoan, nogiron deb jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgalangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxs hisoblanadi. **Shaxsning turmush faoliyati cheklanganligi** deganda shaxsning o‘ziga o‘zi xizmat qilish, harakatlanish, yo‘lni topa olish, muloqot qilish, o‘z xatti-harakatini nazorat etish, shuningdek o‘qish va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish qobiliyatini yoki imkoniyatini to‘la yoxud qisman yo‘qotganligi tushuniladi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonundagi “nogiron bola” “O‘zbekiston Respublikasi nogironlarning ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida ko‘zda tutilgan barcha asosiy qoidalarni mujassam etgan.

O‘zbekiston Respublikasi nogironlarning ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun nogironlarning huquqiy maqomini belgilovchi asosiy hujjat bo‘lib, *nogironlarni ijtimoiy himoya qilish* deganda nogironlarga turmush faoliyati cheklanganligini bartaraf etishi, qoplashi (kompensatsiya qilishi) uchun shart-sharoitlarni ta‘minlovchi hamda ularga jamiyat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimini tushunish kerakligini nazarda tutadi.

Shaxsni, shu jumladan, o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan bolalarni nogiron deb topish tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan, o‘n olti yoshgacha bo‘lgan bolalarni nogiron deb topish esa tibbiy-maslahat komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Xalqaro standartlarda, (milliy qonunchilikdan farqli ravishda), nogironlar alohida himoyaga va yordamga muxtoj shaxslar deb hisoblanmaydi nogironlar boshqa fuqarolar bilan teng huquqlarga ega, lekin imkoniyatlari cheklanganligi sababli ularni to‘liq amalga oshira olmaydigan shaxslar deb belgilangan. Masalan, 2006-yil qabul qilingan Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi yangi konvensiyada (O‘zbekiston imzolamagan) nogironlarga quyidagicha tarif berilgan: “boshqalar

bilan bir xil tarzda jamiyat hayotida to‘liq va samarali ishtirok etishiga to‘sqinlik qiladigan uzoq muddatli jismoniy, aqliy, ruhiy va sensor nuqsonlari bo‘lgan shaxslar” (1-modda).

Konvensiya nogironlar o‘z huquqlarini to‘liq amalga oshira olishi uchun ushbu to‘siqlarni bartaraf etish berish maqsadida ishtirokchi-davlatlar zimmasiga barcha choralarni ko‘rish majburiyati yuklatilgan.

“Ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslar” tushunchasi. Muayyan hayotiy vaziyatlar tufayli ota-onalar majburiyatlarini ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bajaradi va shuning uchun bu tushunchaning tarifi Qonuning 3-moddasida quyidagicha o‘z aksini topdi: “qonunda belgilangan tartibda bolaga nisbatan ota-onalik huquqini amalga oshiruvchi va ota-onalik majburiyatlarini bajaruvchi, lekin bolaning ota-onasi bo‘lmagan shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar)”.

Ota-onaning majburiyatlari quyidagi sabablarga ko‘ra bolalar ota-ona qaramog‘isiz qolgan holda farzandlikka oluvchi, vasiylar va homiylar, boqib olgan ota-onalar tomonidan bajariladi: ota-ona vafot etganda, ota-onalik huquqlaridan mahrum bo‘lganda, ota-ona muomalaga layoqatsiz deb topilganda, ota-onalar bolalarini tarbiya qilishdan bosh tortganda, bolalar muassasalarida bir yildan ortiq bolani ko‘rishga kelmaganida, ota-onalar bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topilgan hollarda. Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar oilalarga tarbiyaga (farzandlikka, vasiylikka, homiylikka yoki tarbiyaga oladigan oilalarga), bunday imkoniyat bo‘lmagan hollarda – yetim bolalar yoki ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar uchun muassasalarga (tarbiyaviy, tibbiy, ijtimoiy himoya va boshqa shu kabi muassasalarga) topshirilishi lozim.

Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni oilalarga yoki yuqorida ko‘rsatilgan muassasalarga joylashtirgunga qadar vasiy (homiylar) vazifasini bajarilishi vaqtinchalik vasiylik va homiylik organlariga yuklatiladi.

Ta’kidlash joizki, farzandlikka olingan bolalar farzandlikka olgan shaxsning farzandlari bilan teng shaxsiy va mulkiy huquqlarga ega va o‘zlarining biologik ota-onalariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlardan mahrum bo‘ladi. Boqib

olingan bolalar o‘zlarining ota-onasi va qarindoshlari bilan muloqotda bo‘lish huquqiga ega.

“Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bola” tushunchasi. Qonunda «yetim bola» va “ota-ona qaramog‘isiz qolgan bola” tushunchalari o‘rtasidagi farq ko‘rsatilgan. Ohirgisi – yetim bo‘lib qolishdan tashqari (ya’ni ota-onasi vafot etgan yoki sud qarori bilan vafot etgan deb topilgan hollardan tashqari) boshqa har qanday sabab tufayli ota-onaning qaramog‘isiz qolgan bola hisoblanadi.

Ota-onasi o‘z majburiyatlarini sog‘lig‘i tufayli, majburiyatlari bajarishdan bosh tortgan hollarda, qonunda belgilangan tartibda ota-onalik huquqlaridan mahrum bo‘lganda, jinoyat sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum bo‘lish joylarida jazo o‘tayotgan hollarda va boshqa hollarda bola ota-onasining qaramog‘isiz qolishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

- 1. Bola huquqlari masalasi davlat siyosatining ustuvor masalasi ekanligini nima bilan izohlaysiz?*
- 2. Bola huquqlarini o‘rganishning zarurligi qanday omillar bilan xarakterlanadi?*
- 3. “Bola huquqlari” fanining maqsad va vazifalarini ko‘rsatib bering.*
- 4. “Bola huquqlari” fanining o‘rganish obyekti va predmetini ko‘rsatib bering.*
- 5. Bola huquqlarini o‘rganishda qanday usullardan foydalanish maqsadag muvofiq?*
- 6. “Bola va bolalar” deganda nimani tushunsiz?*
- 7. “Yetim bola”, “Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bola” deganda nimani tushunsiz?*
- 8. “Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bola” deganda nimani tushunsiz?*
- 9. “Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar”, “Nogiron bola” deganda nimani tushunsiz?*

10. *“Bolaning qonuniy vakillari” deganda nimani tushunasiz:*
11. *“Vasiylik va homiylik organlari” deganda nimani tushunsiz?*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. *Muminov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. –T., JIDU, 2011.*
2. *Bola huquqlari. / Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / Prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009.*
3. *Bolalarni himoya qilish. Parlament a‘zolari uchun qo‘llanma. -T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006.*
4. *Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma /Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. –Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011.*
5. *Prava rebenka: Uchebnik. /pod red. A.X.Saidova. –T.: TGYuI, 2009.*
6. *Bolalar g‘ayriijtimoiy harakatlarining oldini olish borasidagi dolzarb vazifalar va ustuvor yo‘nalishlar: (ilmiy-amaliy konferensiya materiallari) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yichcha komissiya, BMT Bolalar fondining (UNICEF) O‘zbekistondagi vakolatxonasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining oliy o‘quv kurslari; mas‘ul muharrir T.A.Umarov. –T.: YURIST-MEDIA markazi, 2010.*
7. *Balog‘atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar/Международные документы по правам несовершеннолетних. – T.: Adolat. 2002.*

2-mavzu. “Bola huquqlari” tarixi va uning rivojlanish tendensiyalari

1. Bola huquqlari to‘g‘risidagi g‘oyalar va qarashlarni shakllanishi va rivojlanishi.
2. Bola huquqlari masalalarining normativ shakllanishi va rivojlanishi.

1. Bola huquqlari to‘g‘risidagi g‘oyalar va qarashlarni shakllanishi va rivojlanishi

Bola huquqlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi to‘g‘risida fikr yuritar ekanmiz, jamiyatning ijtimoiy ojiz qatlami hisoblanmish – bolalarga talluqli huquq va erkinliklar, ularning qonuniy manfaatlari tarixi, inson huquqlari tarixi bilan bevosita chambarchas bog‘liq ravishda o‘rganish maqsadga muvofiq ekanligiga yana bir bor guvoh bo‘lamiz. Zero, bola huquqlari inson huquqlarining tarkibiy qismidir.

Inson hayotini, uning katta kishi yoki bola ekanligidan qat’i nazar, o‘z mohiyatini tashkil etgan huquq va erkinliklardan xoli tasavvur etib bo‘lmaganligi sababli, bola ham, kattalardan kam bo‘lmagan darajada, o‘z huquq va erkinliklari e’tirof etilishiga muhtoj bo‘lib kelgan. Shunga qaramay, bola huquqlari asrlar davomida bunday alohida e’tirofdan mahrum bo‘lib kelgan. Uning yashashga bo‘lgan huquqlari insoniyat tarixida eng qadimiy muammolardan biri bo‘lib kelgan. Tarixdan bolalar noqonuniy tug‘ilgan, nikohsiz tug‘ilgan, yashirin ravishda tug‘ilgan, nogiron yoki kasal tug‘ilgan yoki bolaning otasi yoxud onasi noma’lum, degan vajlar bilan bunday toifadagi bolalarga nisbatan hurmatsizlik qilingan, bolalar tahqirlangan yoki jismonan yo‘q qilib ham yuborilgan²⁰. Qadimgi Spartada nogiron tug‘ilgan bolalarni tiriklayin o‘limga mahkum etilgani, shuningdek, Qur’oni Karim nozil qilinguniga qadar qiz bolalarning dunyoga kelishi fojia sanalgani²¹ tarixiy manbalardan ma’lum. Ammo, insoniyat rivojlanib borishi bilan

²⁰ Karimova D. Bola huquqlarining paydo bo‘lishi, rivojlanish tarixi va bola huquqlarining ta’rifi. Qonunchilikni takomillashtirish islohotlar kafolati (ilmiy maqolalar to‘plami). – T.: O‘zMU, Huquqshunoslik fakulteti, El-Press, 2012. –B.296

²¹ Safarov O., Maxmudov M. Oila ma’naviyati. –T.: Ma’naviyat, 1998. –B.49

bir qatorda, qishilik jamiyati yanada madaniylashib, bolalarga, ularning huquq va erkinliklariga bo'lgan e'tibor ijobiy tomonga o'zgarib borgan.

Bola huquqlari o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. "Huquq" va "majburiyat" tushunchalari davlatlar tashkil topa boshlagan jamiyat paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan inson hayotidan ham mustahkam o'rin oladi boshladi. Davlat-huquqiy hodisalar yuzaga kelishi bilan ijtimoiy munosabatlar ilk marotaba qonunlar yordamida muvofiqlashtiriladigan obyektga aylanadilar.

Amalda, bu kabi tartibot bo'lg'usida inson huquqlari g'oyasining tug'ilishi va rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratdi, deyish mumkin. U ijtimoiy adolatsizlik, hamda inson tabiatiga xos huquq va erkinliklarni poymol qilishga asoslangan har bir davlatning mohiyatan ildizlarida yashirin edi. Insoniyat tarixi ham aynan ana shundan dalolat beradi. Ma'lumki, turli mamlakat va qit'a xalqlari ozodlik uchun, quldorlikka, ekspluatatsiya va inson huquqlarining poymol qilinishiga qarshi asrlar davomida kurashib keldilar. Kurash jarayoni muttasil ravishda ozodlik g'oyasi o'zining nochor ahvoliga qarshi kurashayotganlar ongini tobora ko'proq egallab olishiga sabab bo'ldi. Bunda g'oya faqat kundalik ong darajasidagina shakllanish bilan cheklanmadi. U falsafiy-siyosiy fikrlar, huquqiy ta'limotlar, badiiy adabiyot, she'riyat va san'atda ham o'z rivojlantirib borildi²².

Albatta, bu masalada, qadimgi yunon faylasuflarining xizmatlari kattadir. Ular asarlarida inson huquqlarining qadimgi ko'rinishlari va tushunchalarini keltirgan holda, bolalarning huquq va erkinliklari cheklanganligini e'tirof etishadi.

Qadimgi mashhur donishmand Arastu (miloddan avvalgi 384-322 y.) davlatni "Ozod odamlar ittifoqi" deb ta'riflab, bu siyosiy uyushmaga qul bolalarni kiritmagan. Huquq va erkinliklar faqat ozod kishilarga xos deb hisoblangani bois, bolalar umuman davlat-huquq doirasidan chiqarib tashlangan. Ular hatto o'z otalari bilan muloqotda bo'lishi rad etilgan. Rim yuristlarining "Qullar, jonivorlar va buyumlar", "Qul va hayvon" kabi mashhur maqollari bunday tenglashtirishning

²² Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuL, 2009. -B.21.

rasmiy ifodasi edi. Shunisi ham taassufki, bu maqollar qonun kuchiga ega bo‘lgan mashhur Digestlardan joy olgan edi²³.

Jamiyat a’zolarini odamlar va buyumlar tarzida ifodalangani odamlarning ongiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan, ularning tevarak atrof va jamiyatdagi hayot haqida fikrlarida ham aks etgan edi. Bolalarning voyaga yetmaganligi bilan bog‘liq jismonan va aqliy jihatdan yetarli noilojligi inobatga olinmas edi. Bolalar huquqsizlik, ijtimoiy adolatsizlik, qaramlikning mashaqqatlariga kattalar bilan babbaravar darajada bardosh berishga mahkum etilgan edi.

Sitseron “Majburiyatlar haqida” asarida fuqarolarning majburiyatlarini ularning hayotiy zarurligi darajasiga ko‘ra bir qancha turlarga ajratadi. Birinchi o‘ringa, Vatan va ota-ona oldidagi majburiyatlar qo‘yilgan. Bolaga nisbatan majburiyatlar ikkinchi o‘rinni olgan. Ammo, bolalar o‘zining butkul huquqsizligi sababli oilada ham, jamiyatda ham, davlatda ham loyiq sharoitlarga ega bo‘lish uchun real imkoniyatlardan mahrum edi. Bolalarning jamiyatda va davlatdagi ayanchli ahvoli turli gumanitar fanlar, jumladan tarixda e’tibor beriladigan va o‘rganiladigan obyekt bo‘lib keldi²⁴.

IX-XVII asrlarda Qadimgi Rusda bolalarni toifalarga ajratish urf-odat bo‘lgan. Mamlakatda Xristian dinining paydo bo‘lishi orqali ruhoniylar bolalarga nisbatan rahm-shavqat g‘oyalarini targ‘ib qilish orqali “bolalardek bo‘ling” degan yangi munosabatlar o‘rnatila boshlandi. Shu bilan birga xristianlik o‘z navbatida bolalarning qaysi urug‘, toifa yoki nasl-nasabdan dunyoga kelganini birinchi o‘ringa qo‘yib, bolaga nisbatan ota-onasining mavqei doirasida munosabatda bo‘lishni ham ilgari suradi. Ayniqsa, nikohsiz tug‘ilgan bolalarga bepisandlik bilan qarash illatga aylanib ketgan²⁵.

Har bir xalq madaniyati, uning an’analari, dini, huquqiy qarashlarida umumijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab g‘oyalarni topish mumkin. Shu

²³ O‘sha joyda. -B.12

²⁴ Bola huquqlari. Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik /prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuI, 2009. -B.12.

²⁵ Karimova D. Bola huquqlarining paydo bo‘lishi, rivojlanish tarixi va bola huquqlarining ta’rifi. Qonunchilikni takomillashtirish islohotlar kafolati (ilmiy maqolalar to‘plami). – T.: O‘zMUU, Huquqshunoslik fakulteti, El-Press, 2012. -B.297

kabi, o'tmishning insonparvarlik g'oyalari bo'lajak avlodlar qabul qilib olishi, o'rganishi uchun o'ta qadrli asos, poydevorni tashkil etadi. O'tmishdagi salbiy hodisalarni yo'qotib, shu bilan birga insoniyat xalqlar o'z taraqqiyoti jarayonida to'plab kelgan qadriyatlarni asrab-avaylab keladi. Insoniyat tarixiy taraqqiyotining turli bosqichlarida yuz bergan xalqlarning o'zaro almashinib, boyib borish mohiyati ham aynan shunda namoyon bo'ladi.

Ushbu masala nuqtai nazaridan qadim Sharqda bola huquqlari, uning oila, jamiyat va davlatdagi ahvoliga yondashuv to'g'risida tushuncha hosil qilish imkonini beradigan alohida manbalarga murojaat qilish muayyan qiziqish uyg'otadi. Ayniqsa, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan zardushtiylik diniy huquq tizimi qoidalari jiddiy e'tiborga molik. Shuni ham nazardan qochirmaslik kerakki, Sharqda bola masalasi jamiyat hayotining dolzarb masalasi bo'lib kelgan. Sharq xalqlari bolaparvarligi bilan ma'lum va mashhur. "Avesto" muqaddas kitobining ba'zi qoidalariga murojaat qilganimizda, ushbu hol odamlarning kichik yoshli toifasiga qadriyat sifatida qarashlarning mustahkamlanishida muhim o'rin tutganligini ko'ramiz. Mazkur kitobda aytilishicha, bolalar "qat'iy tarzda muhofaza etilishi" shart. Bunda so'z nafaqat tug'ilgan, balki tug'ilajak bolalar haqida ham boradi (Videvdat, XV, 36-39)²⁶.

Hali tug'ilmagan, ona qornidagi bola farovonligi, tinchligi ham dunyoga kelgan bola farovonligi, tinchligiga tenglashtiriladi. «Avesto, – deydi S.G.Ganbarov, - tug'ilgan va hali dunyoga kelmagan bolalarning huquqlarini qat'iy muhofaza etgan»²⁷. Qat'iy muhofaza etish g'oyasi hali tug'ilib ulgurmagan bolaga ham teng ravishda taalluqlidir. Voyaga yetmagan bolalarni ota-onasidan olib ketib qolish, ularni vasiyliksiz qoldirishga og'ir jinoyat sifatida qaragan²⁸. Nafaqat tug'ilgan bola, balki ona qornida bo'lgan bolalar huquqini alohida muhofaza qilish nazarda tutilgan. Homilador ayol homilasini oldirib tashlasa yoki jonzotni boshqa yo'l bilan tushirishi gunoh hisoblanib, aybdorlar o'lim jazosiga

²⁶ Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuI, 2009. -B.12.

²⁷ Ganbarov S.G. Политические и правовые идеи в Авесте. // Автореф.дисс. канд.юрид.наук. - Баку, 1992. - S12-13.

²⁸ Perixanyan A.G. Общество и право в Иране в парфянский и сасанидский периоды. – М.,1983. -S. 248

mahkum etilgan²⁹. Bolalarni go‘dakligidanoq o‘qitish, ilmi qilish tavsiya etilgan. “Agar o‘g‘ling bo‘lsa, - deyiladi “Adurbadning o‘gitlari”da,- uni bolaligidanoq maktabga ber, zotan, bilim ko‘z nuridir”³⁰.

Olam taraqqiyotiga Yaxshilik va Yomonlik orqali qarash bilan zardushtiylik odamlarni Yaxshilik qonunlari asosida, erkinlikda, bo‘ysunish va zo‘ravonlikka majburlanmay yashashga chaqiradi. U baxtsizlik va g‘am-qayg‘u keltiradigan johillikdan saqlanishni maslahat beradi. Oila yaratish, farzand ko‘rish, uy-joy qurish, hatto daraxt ekish va yer sug‘orish ham zardushtiylik tomonidan baxtli hayotning yaqqol belgilaridan deb qaralgan³¹.

Zardo‘shhtiylikda «Yer boqqan qizlar, iqtidorli bolalar»ga Yaxshilik mahsuli deb qaralgan. Xalq ongi, fikr-qarashlari ifodasi bo‘lgan “Avesto” jamiyatda bolalarga nisbatan “mehr ko‘zi bilan qarash”ning “tobora ildiz otishi”ga muvofiqlashtiruvchi ta‘sir ko‘rsatgan. Uning me‘yorlari “uy-joy tiklash”, “farzand ko‘rish”, ular to‘g‘risida doimiy g‘amxo‘rlik qilishga chaqirgan. Ushbu g‘oyalar o‘zining umumijtimoiy ahamiyatiga ko‘ra shu qadar jiddiy ediki, ular insonlar o‘rtasidagi muloqotda “Farzand ko‘rish, uy qurish va daraxt ekish” ko‘rinishida hamon mavjud. Ammo odamlar hayotidan muqim joy olgan bu iboraning “ildizlari” qabila-qabila bo‘lib yashalgan, zardushtiylik davriga borib taqalishidan ko‘pchilik bexabar. Yaqin va O‘rta Sharq, jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashayotgan xalqlarning bir necha avlodlari zardushtiylik ta‘sirida shakllanib borgan. Islomdan avvalgi shakllangan “Yaxshilik qonunlari” ko‘p sonli xalqlar xotirasida saqlanish bilan cheklanmay, balki ularning hayot tarzi, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan an‘analarida ham aks etdi. Bolalarga Sharq mamlakatlari, xususan Markaziy Osiyoda asrlar davomida “yaxshilik mevasi” deb qaralgan.

²⁹ Boboyev X., Xasanov S. “Avesto” – ma‘naviyatimiz sarchashmasi. –T.: Adolat, 2001. –B.103

³⁰ Изведат дороги и пути праведных: пехлевийские назидательные тексты /Введение, транскрипсия текстов, перевод, комментарий, глоссарий и указатели О.М.Чунаковой. – М., 1991. - S.78

³¹ Bola huquqlari. Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik /prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuI, 2009. -B.23

Zamonaviy O‘zbekiston aholisining deyarli yarmini ham ota-onasining faxri va ishonchi bo‘lgan bolalar tashkil etishi ham tasodif emas³².

Bolalarga nisbatan zardushtiylik tuzumi davrida shakllangan ezgulik ko‘zi bilan qarash islom davrida, islom huquqi me‘yorlarida ham o‘z aksini topdi. Ayniqsa u me‘yorlari kichik yoshli bolalarga vasiylik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni tartibga soladigan *xiznat qoidalarida* to‘liq ifodalangan³³. Shunisi qiziqki, nikoh buzilgan holda islom huquqida kichik yoshli bolaga vasiylik qilish huquqi onaga beriladi, deb e‘tirof etiladi. Onaning bolaga vasiylik qilish huquqi asoslanadigan dalillar ham e‘tiborga molik³⁴.

Islom dini bola tarbiyasiga katta e‘tibor qaratgan. Quyidagi hadisi shariflarda ham bu narsa alohida ta‘kidlangan.

1. “Ota-ona farzandiga go‘zal odob va yaxshi tarbiyadan ortiq (narsa) berolmaydilar”.
2. “Farzandlarigizga ikromda bo‘ling (yaxshi munosabatda bo‘ling), ularga go‘zal odob va tarbiya bering”³⁵.

Islom huquqi sharhlari – Hidoyaga muvofiq ushbu e‘tirof asosini payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v.ning o‘z oldiga farzandini tortib olib qo‘yish maqsadida tashrif buyurgan eridan shikoyat qilib kelgan ayolning murojaatiga oid fikri tashkil etadi. Payg‘ambarimiz quyidagicha javob berganlar: **“Sen boshqa odamga turmushga chiqquningga qadar sobiq turmush o‘rtog‘ingga nisbatan farzand huquqiga ko‘proq egadirsan”**³⁶.

Bu hadis islom huquqiga berilgan sharhlarda yanada rivojlantirildi. Ularda ta‘kidlanishicha, ona **“faqat mehribon emas, bolaning kichikligida emizishda**

³² Bola huquqlari. Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik /prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuI, 2009. -B.23

³³ Xidoia. Комментарий мусульманского права. –Т.: Узбекистан, 1994. –S.378-383

³⁴ Bola huquqlari. Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik /prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuI, 2009. -B.23

³⁵ Axmedov B. Islom dinida farzand tarbiyasining muhim jihatlari. //Voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish tizimi: muammolar va yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, “KONSAUDITINFORM-NASHR”, 2008. -B.243

³⁶ Xidoia. Комментарий мусульманского права. –Т.: Узбекистан, 1994. –S.378

durust moslashgani, bola to'g'risida g'amxo'rlik qilish unga topshirilgani bola uchun bevosita foydalidir"³⁷.

Kichik yoshli bolalar ustidan vasiylik qilish masalasi birinchi navbatda bola manfaatlari ustuvorligi nuqtai nazaridan hal qilinishi e'tiborga molik. Onasi vafot etgan bolaga nisbatan xizanat o'rnatish bilan bog'liq munosabatlar ham xuddi shu manfaatlarni ko'zlab tartibga solinadi. Bunda ona tomonidan buvi imtiyozga ega hisoblanadi. Ota tomoni buvisining *xizanat huquqi* faqat ona tomonidan buvi vafot etganidagina e'tirof etiladi.

Ona tomonidan bo'lgan buvi insonparvarlik qarashlariga asoslanib tanlangan deyish mumkin. Bunda ana shu buvi "o'z avlodlariga boshqa qarindoshlarga nisbatan ko'proq g'amxo'rlik qiladi" deb hisoblaniladi³⁸.

"Hidoya"ga binoan ona tomon qarindoshlari bo'lmasa, u holda xizanat huquqi bolaning ammalariga tegishli bo'ladi. Biroq bunda ulardan qarindoshi bilan nikohda bo'lgani imtiyozga ega bo'ladi. Begona bilan qurilgan nikoh uning vasiylik huquqini bekor qiladi, chunki "begona er" yetim qolgan bola bilan yetarlicha yaxshi muomala qilmaydi deb hisoblanadi. Ammo nikoh bekor qilinganda u yana xizanat huquqini qo'lga kiritadi, chunki bu huquqga ega bo'lishga xalaqit bergan holat barham bo'lgan hisoblanadi³⁹.

Xizanat huquqi bolaning o'ziga o'zi mustaqil qaray olmaydigan davrigacha davom etadi, bolaning o'zi ovqatlana olishi, suvini ichishi, harakatlana olishi va boshqa tabiiy ehtiyojlarini boshqalarning yordamisiz amalga oshira oladigan yetuklik yoshiga yetganidan so'ng unga g'amho'rlik qilish otaga yoki homiy bo'lishi mumkin bo'lgan otasining yaqin qarindoshlaridan biriga o'tadi. Ya'ni, bolaning barcha sohalarda foydali va yaxshi sohalarda ta'lim olishiga, insonlarning bilimi va jamiyatning san'atini o'rganishida g'amho'rlik qilish bag'ishlash ko'proq ota va ota tomonidan qarindoshlariga ma'qul hisoblanadi. Bunda, ya'ni xizanat

³⁷ Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuI, 2009. -B.23-24

³⁸ Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuI, 2009. -B.23-24

³⁹ Xidoya. Kommentarii musulmanskogo prava. –T.: Uzbekistan, 1994. –S.379

huquqida onaning ustuvorligi, odatda, o'g'il bolalar uchun 7 yosh, qizlar uchun 9 yoshni tashkil etadi⁴⁰.

Ko'rinib turibdiki, bolaga kim qarashi kerak, unga kim g'amho'rlik qilish lozim, degan masalada kichik bolaning sog'lom rivojlanishi manfaatlari hammadan oldingi o'ringa qo'yilgan. Islom huquqida batafsil tartibga solingan bola huquqlarining ustuvorligi hozirgi zamonaviy bola huquqlarini afzalroq ta'minlash prinsipiga hamohangdir. Bundan tashqari islom huquqida mustahkamlangan bola manfaatlarini muhofaza qilish g'oyasi o'zining kelib chiqishi nuqtai nazaridan ancha qadimiydir⁴¹.

Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq, ularni oziqlantirish, ayniqsa muhtoj bo'lganlariga sadoqa tarzida yordam ko'rsatish kabi munosabatlar juda keng tartibga solingan.

Qur'oni karim go'dakni emizishni tamomlashni istovchi onalarga "o'z bolalarini ikki yil boqishlari"⁴² zarurligini uqtiradi hamda tug'ilgan bolani ota-onalari "odatga ko'ra" oziqlantirishga va kiyintirishga majbur ekanliklarini eslatadi⁴³. Bolalarga muhabbat, hayotning ko'rki va sevinchi, deb hisoblanadi⁴⁴.

Islomda farzandlarning qanday huquqlari bor?

Islomda farzandlarning huquqlari rioya qilingan bo'lib, bular ularning ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari, yashayotgan jamiyatlariga vazifa qilib yuklatilgandir. Bular voojib bo'lib, unga amal qilmoqlik majburiydir. Ulamolimiz quyidagilarni zikr qiladilar:

1. Nasab-nikohning asl maqsadlaridan biri ham, naslu nasabini saqlashdir. Busiz oila ham, jamiyat ham bo'lmaydi. Farzandning ota-onasi nikohdan o'tgan, halol-pok yashagandagina nasabi aniq va pok bo'ladi.

⁴⁰ Xidoya. Комментарии мусульманского права. –Т.: Узбекистан, 1994. –S.379

⁴¹ Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuL, 2009. -B.24

⁴² Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi. Abdulaziz Mansur tarjimasi va izohlari. –Т.: Islom universiteti, 2001. -B.32.

⁴³ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi. Abdulaziz Mansur tarjimasi va izohlari. –Т.: Islom universiteti, 2001. -B.42.

⁴⁴ O'sha joyda.. -B.64.

2. Emizish – tug‘ilgan farzand avvalo emizishga muhtoj. Bu esa onasining vazifasi. Shar’iy uzr sababli ona emiza olmasa, emizuvchi topish va uni rozi qilish otaning ishi hisoblanadi.
3. Homiylik – bola yetti yoshga qirguncha bironing himoyasiga muhtoj. Ya’ni doimo ovqatlanish, kiyinish, yuvinish va boshqa holatlarda kattalarning yordamiga muhtoj. Bu ishlarni uning ota-onasi, ular bo‘lmasa yaqin qarindoshlari amalga oshirishlari vojibdir. Buning talablarini, yuqorida *xinazat huquqida* ko‘rib o‘tdik.
4. Valiylik – yetti yoshdan balog‘at yoshiga yetguncha bo‘lgan bolalar valiyga, o‘zidan katta rahbarga muhtojdirlar. Bu ham ota-ona bo‘lmasa, yaqin qarindoshlarga yuklatiladi.
5. Nafaqa. Bolalarning nafaqasini berish, ularni oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy bilan ta’min etish otaning burchidir.
6. Balog‘atga yetgandan so‘ng uylantirib, oilalik qilib qo‘yish va boshqalar. Ko‘rinib turibdiki, oila farzandlarning alohida huquqlari bo‘lib, unga amal qilish shart etib qo‘yilmoqda⁴⁵.

Yetim bolalarning iqboli haqida g‘amxo‘rlik qilishga, ularning mulkiy huquqlarini muhofazalashga Islom dinida katta ahamiyat beradi. Qur’on oyatlariga muvofiq, yetim bolalarga ular nikoh yoshiga yetgach va aqli raso bo‘lgach, g‘amxo‘rlik qilishga mas’ul kishilar ularning mulkini “behuda va shoshilinch yemasdan” berishga majbur. Jumladan, Uning sur’alaridan birida uqtiradi: «Yetimlarning mol-mulklarini zulm yo‘li bilan yeydigan kimsalar, albatta, qorinlarida olov yegan bo‘lurlar va albata, do‘zaxda toblanurlar»⁴⁶.

*“Yetim-esirlarga ularning mulkini bering,
Ularga tegishli narsani o‘zingizning narsangiz
Bilan qo‘shib iste’mol qilsangiz –*

⁴⁵ Axmedov B. Islom dinida farzand tarbiyasining muhim jihatlari. //Voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish tizimi: muammolar va yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, “KONSAUDITINFORM-NASHR”, 2008. B.251

⁴⁶ Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimai. Abdulaziz Mansur tarjimai va izohlari. – T.: Islom universiteti, 2001. -B. 78.

Bu gunohi azimku, axir, bilsangiz”⁴⁷.

Ijtimoiy ko‘maklashish turi bo‘lgan sadaqa odamlarga tushunarli va fahmlash oson shaklda tartibga solingan. Kimki yetimga sadaqani ravo ko‘rmasa va uni boqishga da‘vat etmasa, dinga ishonchi yo‘q shaxs deb hisoblanadi. Qur‘onning 107. Mo‘un sur‘asida: “2. Bas, u yetimni jerkiydigan 3. va miskin (bechora)ga taom berishga targ‘ib qilmaydigan kimsadir”, deyilgani holda, bu sifat egalari Makkaning ashaddiy kofirlari sifatida ko‘riladi⁴⁸.

Asrlar osha e‘tiqodlilarni diniy hayrixohlik sari chorlab, Qur‘on bolalar, ayniqsa ularning eng murg‘aki – yetimlar bilan chuqur insoniy munosabatda bo‘lishga da‘vat qiladi. Bolalarga nisbatan insoniy munosabatlarning ta‘sir kuchi Ikkinchi jahon urushi yillarida ayniqsa yorqin namoyon bo‘ldi. SSSRning frontga yaqin joylaridan evakuatsiya qilinib kelingan yuz minglab bolalar O‘zbekistonda alohida mehribonlik obyekti bo‘ldilar. Minglab bolalar o‘zbek oilalarida, shu jumladan, ko‘p bolali oilalarda farzandlikka olindilar. Bu xayrli harakatlar “yuqoridan” berilgan farmoyish bo‘yicha emas, qaramsiz qolgan bolalarga nisbatan chinakam insoniylik ko‘rsatish, ezgulik, hamdard va muruvvatli bo‘lish hissiyotlari bo‘yicha amalga oshdi⁴⁹.

Bolalarga nisbatan bu hilda insoniy munosabatni asrlar davomida shakllanishi yo‘lida jamiyatning ayniqsa ojiz qisminini avaylash hissiyotlarini tarbiyalashda Qur‘oni Karimdagi talablar ozmuncha rol o‘ynamadi. Ta‘kidlash joizki, kattalarning bolalarga nisbatan munosabatlarini tartibga soluvchi qudratli manbalardan biri sifatida Qur‘oni Karim taraqqiyotning hozirgi bosqichida ham axloq-odob jihatidan ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda. Milliy turmush tarzining o‘ziga xosligi Qur‘oni Karim sur‘alaridan joy olgan talablarga chuqur hurmat va ehtiromda ayniqsa ravshan ifodalanadi. Din qoidalariga chuqur ehtirom qilish xalq hayotida muqaddas sanaladi. Ular o‘zlarining axloqiy mohiyatiga ko‘ra,

⁴⁷ Bola huquqlari. Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik /prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuI, 2009. -B.25

⁴⁸ Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjimai. Abdulaziz Mansur tarjimai va izohlari. – T.: Islom universiteti, 2001. - B.602

⁴⁹ O‘n nafar evakuatsiya qilingan bolalarni farzandlikka olgan Shomahmudovlar oilasiga Toshkentda qad ko‘targan haykal yetim bolalarga xalq muruvvatining ramziy ifodasidir.

odamlarning ma'naviy ehtiyojlari va intilishlariga mos ekanligi sababli hayotiy kuchga ega. Shunday bo'lgach, jamiyatning axloqiy taraqqiyotiga ta'sir o'tkazuvchi turli manbalarning ahamiyatiga baho berganda diniy ta'sirning ijobiy jihatlarini hisobga olmaslik mumkin emas. Muqaddas Yozuvdagi qoidalar, diniy qobiqda bo'lsalarda, mazmunan axloqiy talablardan o'zga narsa emas. Ularning tartiblashtirishuvchi roli, aynan axloqiy ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi⁵⁰.

Islomning o'zoq o'tmishda bola huquqlarini tartibga solishga insoniy yondashuvi shunday ishonch tug'diradiki, ularning huquqlari qo'qqisidan, birdaniga emas, insoniy qadriyatlarni asta-sekin tushunilgan sari e'tirof etilgan⁵¹.

O'tmishdagi insoniyat yutuqlari tarix ostonasida qolib ketmaydi. Vaqti kelib ular kelgusi avlodlarning boyligiga aylanib, bola huquqlari nazariyasini va amaliyotini boyitadi, yanada yuqoriroq sifat darajasiga ko'taradi. O'tmish va zamona o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish shunday mutanosiblikda o'zini namoyon qiladi. Ma'lumki, boshliqdan biror narsa vujudga kelmaydi.

Payg'ambar Muhammad s.a.v. bolalarga qanday munosabatda bo'lganidan aniq darak beruvchi hadislarning axloqiy talablari islomiy jamiyatda bolalarni qadrlashning asrlar davomida tavsifi to'g'risida darak beradi⁵².

Angliyalik mashhur olim Jon Byorton diniy jihatdan musulmon aqidalarini tadqiq etib, Payg'ambar hatto jamoa namoz o'qib turganida bolani qo'llariga ko'tarib erkalatganiga e'tibor qaratadi. J.Byorton ta'kidlaganidek, o'nta bolaning otasi "hech qachon ularning birontasini o'pmagan" ekaniga iqror bo'lganida Payg'ambar "Boshqalarga takalluf ko'rsatmagan har qanday odam vaqti kelganda boshqalardan takalluf ko'rmog'i dargumon", deydi. Jon Byorton alohida ta'kidlaydi-ki, islom huquqi bo'yicha beva va yetimlarga ko'rsatilgan ehtirom, xuddi "Xudo yo'lida" jang qilishdek, xudoga xush keladigan ishdir⁵³.

⁵⁰ Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuU, 2009. -B.12.

⁵¹ Byorton Djon. Мусулманское предание. – М. – SPb., 2006. -S.158.

⁵² Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuU, 2009. -B.26

⁵³ Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuU, 2009. -B.27

Musulmon aqidalarida aytilishicha, ezgu ishlarni qilgan qaysi xudojuy eng muhimdir, deb so‘rganlarida Muhammad s.a.v. “Bolaning ota-onalariga muhabbati” degan. Ota-onani e‘zozlamaslikni Payg‘ambar “eng ayanchli gunohlar” qatoriga kiritgan.

Payg‘ambar musulmon odam avvalo o‘z ota-onasi uchun, so‘ngra xudo yo‘lida ishlashi lozim, deb hisoblagan”⁵⁴.

Ota-onalar va bolalarning o‘zaro munosabatlari muammosi keng mulohaza nuqtai-nazaridan ko‘rilgan, chunki so‘z shu haqda boradiki, boshqalarning ota-onalarini sen xafa qilsang, u ham xuddi shunday qilishi mumkin. Bu “oltin” qoidalarining asl mazmunini tashkil etadi.

Islomshunoslik tadqiqotlariga oid ma’lumotlarga qaraganda, bola manfaatlarining ustuvorligini tan olish g‘oyasi qadimiy ekani bilan ajralib turadi. Ushbu g‘oyani diniy yo‘sinda tan olishning o‘zi dinga mansublarning avlodidan avlodigacha qo‘llanib va rivojlanib kelgan.⁵⁵

Jamiyatning yordamga eng muhtoj qismini tashkil etuvchi bolalar manfaatlarini tan olish va ulug‘lashga qaratilgan musulmon o‘g‘itlari axloqiy asosining mohiyati ana shunda. Bu odamiylik g‘oyasining ta’siri ostida kichik insonga ehtiyotkorona munosabat rivojlanib va shakllanib kelgan.

Bolalar, ularning ota-onalari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlariga oid muammo mashhur xitoy faylaso‘fi Konfutsiy (m.i. 551-549 y.) ta’limotida alohida o‘rin egallagan.

Konfutsiy bolalarning ota-onalari bilan o‘zaro munosabatlarini bolalarni ota-onalariga, kichiklarni kattalarga hurmat, e‘zozlash ruhida tarbiyalash zarurligi asosida bayon qilinadi. Oila a’zolarining bir-biriga itoat etishiga oila faravonligi va tartibini belgilovchi zarur shart sifatida qaraladi. Ammo bola va ota-ona o‘rtasidagi munosabatlar tavsifi “katta oila” nuqta-nazaridan baholanadi. Shunday oila tarzida davlat va uning fuqarolari tushuniladi. Hokim o‘z fuqarolarining “otasi” sifatida, fuqarolar esa “farzand” sifatida qaraladi. Xonadon otasi qanday bo‘lsa, hokim ham

⁵⁴ Буортон Дюн. Мусулманское предание. – М. – СПб., 2006. -S.157

⁵⁵ O‘sha joyda. – S.158.

o‘z qaramidagilarga otalarcha g‘amxo‘r, ularni ezgulik bilan boshqarishi lozim. Ezgulik bilan boshqarish tobelarning e‘zozli bo‘ysunishiga, qobilligi va “katta xonadon otasi” o‘rnatgan tartibni hurmat qilishiga bog‘liq⁵⁶.

“Ezgulik boshqaruv” ta‘limoti “bardoshlik”, “qobillik” va “bo‘ysunishlik” tushunchalariga asoslangan.

Bu xususiyatlar oilaning har bir a‘zosi ongida yoshlikning dastlabki oilaridanoq singdirib kelinishi lozim. Oilaviy tarbiya uslubi shu sababli e‘tiborga molik. “Katta oila” doirasida “O‘g‘ilning e‘zoz etishi” onalarcha hokimiyatni to‘la mustahkamlash g‘oyasiga to‘la bo‘ysunadi. Ota-onalar zimmasiga o‘z qaromag‘idagilarni hokimiyatdan berilgan har qanday amrni bardoshlik va qobillik bilan ijro etish ruhida tarbiyalash mas‘uliyati yuklatiladi.

Bola bo‘lsin yoki katta bo‘lsin shaxsning salohiyati konfutsiylik ta‘limotiga ko‘ra, onalarcha hokimiyat talab qilgan sifatga bog‘liq.

Ota-ona va kattalarga “hurmat va ehtirom bilan munosabatda” bo‘lishning o‘zi ko‘rkam sifatdir. Ammo, agar noiloj rozilik, ko‘r-ko‘rona bo‘ysinish va itoatkorlik shaxsni mutega aylantirish, erkinliklardan mahrum etish, odamning insoniy qadriyatlarini turli shakldagi quvg‘in va kamsitishga duchor qilish yo‘lida foydalanilsa, jamiyatni va davlatni “ezgulik” bilan boshqarish, xalqqa xayrixohlik ko‘rsatish to‘g‘risida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas. O‘zining ijtimoiy mazmuniga ko‘ra, “katta oila” nazariyasi ijtimoiy tengsizlik, odamlarni “yuqori” va “quyi” toifalarga ajratishga asoslanib, davlat negizlarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Bu nazariyaga muvofiq, aynan “quyi” toifaga kiritilganlar davlat negizlarini mustahkamlash uchun bolalikdan qullarcha hayot kechirishga mahkum edilar⁵⁷.

Demak, bola va uning huquqlariga oid qadimgi davrda bildirilgan fikr va tasavvurlar hamda g‘oyalar to‘g‘risida xulosa qilib aytish mumkinki, bolaning oila va jamiyat uchun naqadar aziz ekanligi e‘tirof etilsada, ammo, ularning huquq va

⁵⁶ Bola huquqlari. Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik /prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYuI, 2009. -B.27

⁵⁷ Bola huquqlari. Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik /prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. -B.28

erkinliklari, ularning huquqning subyekti sifatida ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar, hattoki, qadimgi mutafakkirlarda ham yetarli darajada berilmagan va ularning huquq va erkinliklari ayrim hollarda inkor etib kelingan. Ammo, dinlarda, ayniqsa islom dinida bu masala har tomonlama, chuqur o‘ylangan holda tartibga solingan va ularning huquq va erkinliklarini, oila va jamiyatda tutgan o‘rni va roliga alohida ahamiyat karatilgan.

2. Bola huquqlari masalalarining normativ shakllanishi va rivojlanishi

Inson huquqlari bo‘yicha dastlabki normativ hujjatlar to‘g‘risida fikr yuritilganda, odatda Angliyadagi 1215-yilda qabul qilingan “Erkinliklarning buyuk xartiyasi” bilan boshlangan Uyg‘onish davri ko‘rsatiladi. Albatta, shartli ravishda mazkur davrdan boshlab odatda, inson huquqlari masalasini normativ shaklda shakllana boshladi, desak adashmasak kerak. Chunki, insonning “oliy qadriyat” sifatida e‘tirof etilishi aynan shu davrga borib taqaladi. Ilk demokratik inqiloblar bosqichida Yevropa mintaqasida taraqqiy eta boshlagan inson huquqlari g‘oyasi tabiiy-huquq nazariyasida alohida o‘z ifodasini topdi. Inson tafakkuri tarixida ilk marotaba inson huquq va erkinliklarining kelib chiqish tabiati haqidagi masala o‘rin oldi. Ushbu ilmiy yo‘nalish vakillari masalani hal etishga uning tabiiy, ya’ni tashqaridan hech bir aralashuvsiz vujudga kelishi nuqtai nazaridan yondashdilar. Mazkur yondashuvga ko‘ra inson tug‘ma huquqlarga davlat jamiyati tashkil topishidan ancha avval ega bo‘lgan. Faqatgina jamiyatga birlashish natijasida insonlar o‘z huquq va hayotiy manfaatlarini himoya vositasi sifatida davlatni tuzadilar. Ushbu nazariyaning mohiyati shundaki, u bir tomondan inson huquq va erkinliklarining tabiiy vujudga kelishi g‘oyasini asoslab berdi⁵⁸.

Asrlar davomida huquqsizlik va kamsitilganlik holatida yashab kelgan insonlar, o‘zining dunyoga kelish va shakllanish davridagi “tug‘ma huquqlar”ga egaligi g‘oyasi ijtimoiy ongda tub o‘zgarish hosil qildi. Bu g‘oya kishilarning yoshi va boshqa farqlariga bog‘liq holda huquqiy tabaqalanishidan uzoq edi.

⁵⁸ Bola huquqlari. Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik /prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. -B.29.

Aksincha, uning hayotiy ahamiyati shundaki, u har bir shaxs, avval boshdanoq ega bo'lgan huquq va erkinliklarga oid qoidalarni rivojlantiradi. Vaholanki, "tug'ma" atamasi o'zining mohiyatiga ko'ra, inson huquqlari uning tug'ilganidan boshlab bir vaqtning o'zida u bilan birga vujudga kelishini bildiradi. Demak, inson huquqlari, xoh u o'g'il, xoh u qiz bo'lsin, bola huquqlari bilan boshlanadi. XX asrga qadar, ko'p ming yillar davomida bola ijtimoiy ongda alohida hurmat va e'tiborga sazovor shaxs sifatida qabul qilinmagan bo'lsa, mazkur nazariya jamiyat va davlatning ancha huquqsiz, himoyasiz a'zosiga bo'lgan munosabati o'zgarishiga qay darajada ta'sir ko'rsatganligini ayon qiladi⁵⁹.

Tug'ma huquqlar konsepsiyasi jahonda inson huquqlari, xususan, bola huquqlarini himoya qilish harakatining rivojlanishiga chuqur g'oyaviy ta'sir ko'rsatdi. Uning tubdan o'zgartiruvchan ta'sir ko'rsatkichlari bo'lib, hozirgi dunyoda mavjud bola huquqlari sohasidagi xalqaro va milliy andozalar xizmat qilishi mumkin.

Bola huquqlarini inson huquqlari umumiy konsepsiyasidan ayri holda ko'rib chiqish mumkin emas. Buning ustiga, bola huquqlari inson huquqlari konsepsiyasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bola huquqlari konsepsiyasi – mazmunan inson huquqlari to'g'risida konsepsiya, lekin hali ulg'aymagan inson – shu sababli o'z huquqlari va erkinliklarini kuchliroq himoya qilinishiga ayniqsa muhtoj inson to'g'risida konsepsiyadir⁶⁰.

Bola huquqlari masalasini rivojlanishi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, albatta bola huquqlariga oid g'oya va qarashlar o'z navbatida rivojlanib, normativ tus ola boshladi. Bu esa, bu sohaga oid maxsus huquqiy normalar vujudga kelayotganligini ko'rsatib berdi. Bu boradagi dastlabki, normalardan biriga 312-yilda Imperator Konstantin bolani o'ldirib yuborish va tashlab yuborishning oldini olishga qaratilgan qonunni qabul qilganiga misol qilib keltirishimiz mumkin. 716-

⁵⁹ Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. -B.30

⁶⁰ Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. -B.30

yilda esa Milan shahrida tashlab ketilgan bolalarni boqib olishga mo'ljallangan Bolalar uyi tashkil etilgan⁶¹.

Butun Rus Imperatori Aleksey Romanov (1645-1676-yillar) davridan boshlab to XIX asrning oxirigacha bolalarning huquqlariga nisbatan qonun doirasida qarashga o'tildi. Masalan, 1649-yilda qabul qilingan Tuzuklar (Ulojeniya) bolaning tug'ilishi, nikohsiz tug'ilgan bolaga nisbatan munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan Rossiya tarixidagi birinchi yuridik hujjat hisoblangan. Keyinchalik, Pyotr I davrida go'dakning tashlab ketilishi davlatga qarshi harakat sifatida baholanadi. 1892-yilda Rossiyada qambag'al va kasal bolalarni himoya qilish maqsadida "bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'limlari" tashkil etilgan. Bolalarni yashirincha emas, balki oshkora bolalar uyi (etimxona)ga joylashtirish to'g'risidagi hukumat qarorlari Rossiyada 1869-yildan to 1894-yilgacha qabul qilingan⁶².

XX asrning boshlariga kelib, vrach A.V.Siromyatnikov bola huquqlarini himoya qilishning quyidagi tizimini taklif etadi:

- eng asosiy holati – tashlab ketilgan bolaning huquqlari barcha qulay usullar orqali himoya qilinishi lozim;

- agarda, hududlarda vasiylik bo'limlari ma'naviy va moddiy ko'mak berib kelsa, bola va uning ota-onasi hamda oilani himoya qilgan bo'ladi;

- go'daklar uyiga joylashtirilgan bolaga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilsa, go'dakka tibbiy-ijtimoiy himoya amalga oshirilgan bo'ladi;

-har tomonlama oilaviy patronaj amalga oshirilishi lozim;

-noqonuniy tug'ilgan bolalalarning huquqiy holatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy qoidalar ishlab chiqilishi kerak⁶³.

⁶¹ Karimova D. Bola huquqlarining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi va bola huquqlarining ta'rifi. Qonunchilikni takomillashtirish islohotlar kafolati (ilmiy maqolalar to'plami). -T.: O'zMUU, Huquqshunoslik fakulteti, El-Press, 2012. -B.296

⁶² O'sha joyda. -B.297-298

⁶³ Karimova D. Bola huquqlarining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi va bola huquqlarining ta'rifi. Qonunchilikni takomillashtirish islohotlar kafolati (ilmiy maqolalar to'plami). -T.: O'zMUU, Huquqshunoslik fakulteti, El-Press, 2012. -B.299

Dunyoda inson huquqlarini himoya qilish yoʻlida kuchayib borayotgan umumiy harakat jarayonida jamiyatning eng murgʻak qismi – bolalarni muhofaza qilish muammosi alohida oʻrin tutadi.

Bola huquqlariga bagʻishlangan huquqiy adabiyotlarda “bolalar jamoatchilik nazariga tushgan vaqt XIX va XX asrlar oraligʻiga” toʻgʻri keladi, deb qayd etiladi.⁶⁴ Ushbu fikrni Yevropada voyaga yetmaganlarning ishlari boʻyicha kriminalistlar, sudʻyalarning xalqaro uyushmalari yuzaga kelganligi ham tasdiqlaydi⁶⁵.

Yangi, XX asr boʻsagʻasida, yaʻni 1890-yili kriminalistlar Kongressi boʻlib oʻtdi. Unda qabul qilingan rezolyutsiyaga binoan, 14 yosh chegarasi belgilanib, undan kichik boʻlganlarni jinoiy jazoga tortish taqiqlandi. Ikki yildan soʻng, yaʻni 1892-yilda Bolalar ustidan vasiylik qilish Xalqaro jamiyati tuzildi. Bu jamiyat mazkur yoʻnalishdagi oʻzining ilk Xalqaro kongressini 1913-yili chaqirdi.

Shunisi eʻtiborliki, XX asrning boshi, yaʻni 1900-yili Chikagoda voyaga yetmaganlarning ishlari yuzasidan ixtisoslashgan sud yaratilishi bilan boshlandi. Buning sababi - bolalarning yosh xususiyatlarini har tomonlama hisobga olish, ularga nisbatan ehtiyotkor tarbiyaviy choralarni qoʻllashga boʻlgan intilish boʻldi.

“Bolalar sudi” gʻoyasi va uni yaratish amaliyoti shu qadar muhim boʻldiki, bu kabi sudlar dunyoning koʻplab mamlakatlarida yuzaga kela boshladi⁶⁶.

1913-yilda Norvegiya, nafaqat nikohdan, balki nikohsiz tugʻilgan bolalar ham huquqlari teng ekanligini qonun yoʻli bilan eʻtirof etdi. Sobiq Ittifoq respublikalarida bunday eʻtirof, RSFSRning 1918-yilgi Fuqarolik holati qaydnomalari toʻgʻrisidagi qonunlar kodeksida aks ettirildi. Uning Turkiston Avtonom respublikasi hududida ham amal qilganligi tufayli ushbu eʻtirof Oʻrta

⁶⁴ Чыж Элжбета. Права ребенка. Хелсинкский фонд по правам человека. Варшава. 2003. -с.10.

⁶⁵ Bola huquqlari. Yuridik oliy oʻquv yurtlari uchun darslik /prof. Gʻ.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. -B.32

⁶⁶ Bola huquqlari. Yuridik oliy oʻquv yurtlari uchun darslik /prof. Gʻ.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. -B.32

Osiyo (hozirda Markaziy Osiyo) mintaqasi respublikalari, shu jumladan, O'zbekistonga ham taalluqli edi⁶⁷.

Yaratilayotgan tashkilotlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar bolalar huquqlarini saqlash va muhofaza qilish sohasidagi bir maqsadga yo'llangan ijtimoiy-siyosiy faoliyatning rivojlanishiga ko'maklashdi.

Inson huquqlarining keng ko'lamda e'tirof etilish jarayoni unga ham subyektiv, ham obyektiv tusga ega bo'lgan omillar ta'sir qilayotgan murakkab ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yuz bermoqda. Bu davr inson, ayniqsa bola huquqlari hali davlat siyosatining tarkibiy qismi bo'lib ulgurmagan bir davr edi. Shu bilan birga, davlat o'z ijtimoiy mohiyatiga ko'ra inson taraqqiyoti manfaatlariga xizmat qilmog'i lozim. Uning xizmatida qonun bilan belgilangan huquq va erkinliklarga "ex officio" rioya qilinishini ta'minlashi lozim bo'lgan davlatning asl maqsadi namoyon bo'ladi. Shu bilan bog'liq ravishda fuqarolar va davlatning o'zaro munosabatlarini "**inson va hokimiyat**" munosabati orqali ochib berish qabul qilingan. Bu sxemaning ustuvor bo'g'ini bo'lib insonning o'zi ishtirok etishini ham nazardan qochirmaslik lozim⁶⁸.

Inson farovonligi to'g'risida qayg'urish davlatning majburiyati deb tan olinadi. Bu kabi majburiyat inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarda qayd etilgan. Huquqiy e'tirof etilishi tufayli inson huquqlari himoyasi, uning ayol yoki erkak, katta odam yoki bola ekanligidan qat'i nazar tengligi tamoyili, tarixda ilk bor demokratik tuzumli davlatlar siyosatining uzviy qismiga aylandi.

Inson huquqlari g'oyasi rivoji murakkab, ziddiyatli jarayondan iboratdir. Inson huquqlari konsepsiyasi ayniqsa, ilg'or, yangicha demokratik qarash vakillari tomonidan nafaqat qabul qilindi, balki u rivojlantirila bordi va jamiyatning mazkurr ilg'or fikrli qismi umum tenglik va erkinlik g'oyasini qo'llab-quvvatlay boshladi. Ammo, qayd etish kerakki, bu g'oyaga qarshi sifatida konservativ qarash

⁶⁷ Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. -B.32

⁶⁸ Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. -B.33

vakillari ham, shu qadar kuchli va yashovchan bo‘lib chiqdiki, u, afsuski, ayrim hollarda va mamlakatlarda bugungi kunda ham saqlanib qolmoqda.

Bola huquqlarining normativ shaklda rivojlanishining yana bir shakli, bu bolalarga oid maxsus xalqaro normalarni shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

Jumladan, bola huquqlariga oid maxsus dastlabki xalqaro-huquqiy hujjat, Millatlar Ligasi tomonidan, 1924-yil 24-sentabrda Jeneva deklaratsiyasi qabul qilingan edi. Mazkur hujjatni ishlab chiqish va qabul qilish tashabbusi Bolalarni qutqarish xalqaro ittifoqi (Tashkilot asoschisi Eglantin Djeeb) tomonidan ilgari surilgan edi. Mazkur hujjat 5 ta asosiy prinsipdan tashkil topgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat edi:

Birinchi prinsip – bola yaxshi rivojlanishi uchun ham moddiy, ham ma’naviy imkoniyat yaratib berish lozim;

Ikkinchi prinsip – och bola ovqatlantirilishi, kasal bola parvarish qilinishi, ahloqsiz bola tarbiyalanishi, qarovsiz bola va yetim bolaga yashashi uchun boshpana berilishi lozim;

Uchinchi prinsip – halokat (falokat) paytida bolaga birinchi yordam ko‘rsatilishi lozim;

To‘rtinchi prinsip – bolaga mavjud bo‘lishi uchun vosita topishiga imkoniyat yaratib berilishi va u barcha shakldagi ekspluatatsiyadan himoya qilinishi lozim;

Beshinchi prinsip – bola, kelajak avlod uchun uning yaxshi sifatleri foydali bo‘ladi, degan ongda tarbiyalanishi lozim⁶⁹.

XX asrda qabul qilingan dastlabki hujjatlar to‘g‘risidagi fikr yuritilganda, 1921-yilgi Xalqaro ayollar va bolalar savdosiga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyani, 1933-yilgi, Voyaga yetmagan qizlar savdosiga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyani ham alohida qayd etib o‘tish kerak. shuningdek, mazkur konvensiyalarga 1947-yilda BMT tomonidan qo‘shima Protokol qabul qilindi. Protokol va konvensiyalarda davlatlarning ayollarni fohishalikka jalb qiladigan va ayollar va bolalar savdosi bilan shug‘ullanadigan odamlarga nisbatan jinoiy jazo

⁶⁹ Бондаренко А. Насилие и права человека сегодня //Вестник МГУ серия 7 Философия. 2004, №6.

tayinlashi hamda bu jinoyatlar bilan professional darajada shug‘ullanuvchi jinoyatchilar haqida bir-birlariga habar berishlari e’tirof etilgan⁷⁰.

Inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari nazariyasi va amaliyoti rivojining sifat jihatidan yangi bosqichi – Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr hisoblanadi, chunki urushning og‘ir oqibatlaridan biri, qariyalar, ayollar bilan bir qatorda, jamiyatning yana bir ojiz qatlami hisoblangan bolalarning og‘ir qismati hisoblanadi.

1945-yili BMT tashkil topishi bilan inson huquqlarining universallashtirish jarayoni boshlandi. Shu davrdan inson huquqlariga xalqaro muammo sifatida qarala boshlandi. Bu esa inson huquqlarining buzilishi va poymol etilishi davlatning ichki muammosi bo‘lib qolmasligini anglatardi. U endilikda o‘z universalligi tufayli inson huquqlarining qo‘pol va tizimli tarzda buzilishi bilan bog‘liq holatlarning BMT kabi xalqaro mexanizmlar tomonidan ko‘rib chiqilishi obyektiga aylandi. Ushbu bosqichda inson huquqlariga oid xalqaro me‘yoriy hujjatlar yaratilishi bilangina cheklanmay, balki ularga rioya qilinishi hamda amalga oshirilishi ustidan nazorat qilishning xalqaro mexanizmlarini yaratishga ham jiddiy e’tibor qaratildi.

BMT tashkil etilgandan keyin inson huquqlari masalasiga katta e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, u mafkuraviy kurashning obyektiga ham aylanib qoldi. “Sovuq urush” davrida avj olgan keskin mafkuraviy kurash sharoitida kapitalistik mamlakatlar vakillari fuqarolik va siyosiy huquqlarning ustuvorligi g‘oyasi uchun zo‘r berib kurashdilar. Sotsialistik mamlakat vakillari esa iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning nisbatan muhimligini e’tirof etish kerakligini uqtirdilar⁷¹.

Biroq qarashlar naqadar turli-tuman bo‘lmasin, huquqlarning har bir avlodi so‘zsiz o‘z ijtimoiy qadr-qimmatiga egadir. Bir avlod huquqlari boshqasini to‘ldirib keladi. Uch avlod huquqlari ichidan o‘rin olgan huquq turi har bir inson uchun hayotiy muhim ahamiyatga ega. Shu ham e’tiborga molikka, ikki qarama-

⁷⁰ Raxmonov B. Maxmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. –T.: CHASHMA PRINT, 2011. -B.14

⁷¹ Bola huquqlari. Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik /prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. -B.34

qarshi siyosiy tizim vakillari orasidagi keskin munozaralar oqibatida umumiy kelishuv, bitimga erishildi. 1966-yilgi xalqaro paktlar: bir tarafdin, fuqarolik va siyosiy huquqlar, ikkinchi tarafdin, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar xususida erishilgan natijalarga yorqin misol bo‘la oladi.

Xalqaro paktlar qoidalari teng ravishda bolalarga ham ta’sir kuchini o‘tkazadi. Masalan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 23-moddasi nikohda bo‘lgan yoki u bekor qilingan holatda ham “barcha bolalarni himoya qilish zarurati” to‘g‘risidagi qoidaga ega. Xuddi shu Paktning 24-moddasida qayd etilishicha, har bir bola “uning kichik yoshli sifatidagi holatida oilasi, jamiyat va davlat tomonidan” talab etilgan himoya choralari huquqiga egadir.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktida barcha bolalarga nisbatan biron-bir kamsitishsiz “maxsus muhofaza qilish va ko‘maklashish choralari” qabul qilish zarurati ko‘zda tutiladi. Bolalar va o‘smirlarni iqtisodiy va ijtimoiy ekspluatatsiyadan himoya qilishga alohida e’tibor beriladi.

XX asrning ikkinchi yarmida bola huquqlari masalasi inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjatlarda aks etishi bilan bir qatorda, bola huquqlariga odi maxsus xalqaro hujjatlarda aks etishi bilan ham rivojlanib bordi. Ya’ni, bu davrga kelib, bola huquqlari bo‘yicha xalqaro kodifikatsiyalash jarayoni boshlandi, desak adashmagan bo‘lamiz.

Mazkur jarayonda, 1959-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari bo‘yicha deklaratsiyani alohida qayd etish lozim. O‘zida o‘nta ijtimoiy-huquqiy prinsiplarni ifoda etgan mazkur hujjat ota-onalarni, boshqa alohida shaxslarni, nohukumat tashkilotlarni, mahalliy hokimiyatni bolaning huquq va erkinliklarini, ularning qadr-qimmatini hurmat qilishga hamda ustuvor deb e’tirof etishga chaqirdi. Deklaratsiya bola huquqlari sohasidagi xalqaro siyosatga va olib borilayotgan ishlarga, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga ma’lum darajada turtki bo‘ldi.

Mazkur Deklaratsiyani qabul qilinganligiga 20-yil to'lishi munosabati bilan BMT tomonidan 1979-yilni "Xalqaro bolalar yili" deb e'lon qilindi va bola huquqlarini hurmatlash va himoya qilish borasidagi yangi xalqaro normalarni ishlab chiqish, bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta'minlab berish, bolalarga nisbatan jinoyatlarning oldini olish va bola huquqlariga oid boshqa barcha masalalarni qamrab oluvchi yangi xalqaro hujjat ishlab chiqish va qabul qilish to'g'risida tashabbuslar va takliflar ilgari surildi.

1986-yil 3-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan, 41/85 rezolyutsiyasi bilan "Bolalar himoyasi va xotirjamligi, asosan xalqaro va milliy darajadagi bolalarni tarbiyalashga va asrab olishga taalluqli siyosiy va huquqiy prinsiplar to'g'risida"gi Deklaratsiya qabul qilindi. Mazkur Deklaratsiya bola huquqlari bo'yicha xalqaro kodifikatsiya hisoblanmish "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyaning g'oyaviy asoslaridan biri bo'ldi.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasining 34-sessiyasida ishtirok etgan davlatlar orasida Polsha delegatsiyasi 1959-yilgi Bola huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya asosida Bola huquqlari to'g'risidagi yagona Konvensiya qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi va Konvensiya loyihasini taqdim qildi⁷².

Konvensiyani qabul qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad bola huquq va erkinliklarini, uning qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ta'minlashda davlatlar zimmasiga yuridik majburiyat yuklashdan iborat edi. Konvensiya loyihasi Inson huquqlari bo'yicha komissiya tomonidan ko'rib chiqildi va qabul qilindi⁷³. Ammo, bu loyiha BMT a'zolari orasida anchagina tortishuvlarga sabab bo'ldi⁷⁴. Natijada, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish va Konvensiya loyihasini yanada mukammallashtirish uchun BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi tomonidan maxsus ishchi guruh tuzish taklifi bildirildi. 1979-yil yurist, vrach, pedagog, psixolog, sotsiolog va madaniyatshunos kabi soha mutaxassislaridan iborat maxsus ishchi guruh loyiha ustida ish boshladi.

⁷² Ганибаева Ш. Международно-правовая защита прав ребёнка /Отв. ред. А.Х.Саидов. -Т.: 2003. -С.10

⁷³ Резолюция 30(XXXIV) от 8-марта 1978 г.

⁷⁴ Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Raxmonov B. Maxmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. -T.: CHASHMA PRINT, 2011. -B.16

1981 va 1988-yillar orasida maxsus ishchi guruh tomonidan har yili BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi yig'ilishi oldidan Konvensiya loyihasiga bag'ishlangan bir haftalik yig'ilish o'tkazilib turildi. Unda "manfaatdor hukumatlar", BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari va xalqaro nohukumat tashkilotlar tomonidan Konvensiya matni borasida bildirilgan taklif va mulohazalar har tomonlama o'rganilib, muhokama qilinib borildi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya BMT Bosh Assambleyasining 44/25 rezolyutsiyasi bilan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilindi va 1990-yil 26-yanvardan uni imzolash boshlandi. Konvensiya 20 ta davlat hukumatlari tomonidan imzolanganidan so'ng, 1990-yil 2-sentabrdan kuchga kirdi. Qisqa vaqt ichida ko'p mamlakatlar tomonidan ushbu hujjat imzolandi va ratifikatsiya qilindi. Konvensiyaga a'zo bo'lgan davlatlar soni 1990-yil oxirlarida 57, 1992-yil oxirlarida 117 ta bo'ldi, 1994-yilda 167, 1995-yilga kelib 174taga yetdi. Hozirgi kunga kelib, 140 davlat mazkur hujjatni ratifikatsiya qilgan, 193 ta davlat esa, ishtirokchi davlatga aylangan. Konvensiyaga BMTga a'zo-davlatlardan faqatgina AQSh (imzolagan, lekin ratifikatsiya qilmagan) va Somali (imzolamagan ham, ratifikatsiya qilmagan ham) a'zo emas. Konvensiya tarixga inson huquqlari sohasida eng ko'p mamlakatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan hujjat sifatida kirgan⁷⁵.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qabul qilinganidan beri dunyoda bolalar ahvoliga oid ko'p narsa ijobiy tarafga o'zgardi. Ushbu o'zgarishlar, bolalarni mehnatning xavfli ko'rinishlaridan ozod qilinishiga, ularning maktabda ta'lim olishga keng ko'lamda jalb etilishiga, tibbiyot xizmatlarining kengaytirilishiga, rejali ravishda immunlashtirish kabi qator chora-tadbirlar bilan bog'liq.

Shu bilan bir qatorda, "Konvensiya ishtirokchisiga aylangan davlatlarning bir qismi mavjud bo'lgan qonunchilik tizimiga o'zgartirish kiritish, uni isloh qilish yo'lidan, bir qismi esa, maxsus qonunlar qabul qilish yo'lidan ketishdi. Masalan,

⁷⁵ Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo'llanma. –T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006. –B.16

Braziliyaning yangi Konstitutsiyasiga bola huquqlariga bag‘ishlangan alohida bob kiritildi, Finlyandiyada bola haqida maxsus qonun, Norvegiyada bola ishlari bo‘yicha vakilni (ombudsman) ta’sis etish to‘g‘risidagi qonun, Kubada bolalar va voyaga yetmaganlar to‘g‘risida Kodeks qabul qilindi. Germaniyada bolalarga va yoshlarga yordam ko‘rsatish to‘g‘risida yangi Qonun loyihasi ishlab chiqildi (Germaniyada bola haqida birinchi qonun XX asrning 20-yillarida qabul qilingan edi, lekin u fashistlar diktaturasi hokimiyat tepasiga kelgandan keyin kuchdan qoldirilib, bekor qilingan)”⁷⁶.

Konvensiya bola huquqlari va erkinliklari, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida deyarli barcha masalalarni “qamrab olgan” bo‘lsa-da, lekin, vaqt o‘tishi bilan bola huquqlariga nisbatan sodir etilayotgan xalqaro jinoyatlar ko‘lami kengayib, ularning shakllari ko‘payib ketdi. Bu esa, bola huquqlari va erkinliklarini hamda ularning qonuniy manfaatlarini hurmatlash va himoya qilinishining ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan edi. Konvensiyada bolalarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish uchun a’zo davlatlarga berilgan umumiy ko‘rsatmalar yetralicha natija bermadi. 2000-yil 25-may kuni BMT Bosh Assambleyasining A/RES-54/263 rezolyutsiyasi bilan Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga ikkita Fakultativ protokol: Bolalarning qurolli mojarolarga jalb qilinishi to‘g‘risidagi fakultativ protokol (2002-yil 12-fevralda kuchga kirgan), Bolalar savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasi to‘g‘risidagi Fakultativ protokol (2002-yil 18-yanvarda kuchga kirgan) qabul qilindi.

Bola huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish bilan bog‘liq jarayon Konvensiya va uning protokollari bilan to‘htab qolgani yo‘q.

Ayniqsa, bolaning odil sudlovga bo‘lgan huquqi, bu yo‘nalishda alohida qator xalqaro-huquqiy hujjatlarni qabul qilish bilan rivojlantirildi. Quyidagi hujjatlar bu yo‘nalishdagi asosiy hujjatlar hisoblanadi: 1985-yil 29-noyabrda qabul

⁷⁶ Raxmonov B. Maxmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. –T.: CHASHMA PRINT, 2011. -B.18

qilingan Balogʻatga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (“Pekin qoidalari”); 1990-yil 1-dekabrda qabul qilingan Balogʻatga yetmagan bolalar oʻrtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari (“Ar-Riyod dasturiy prinsiplari”); 1990-yil 14-dekabrda qabul qilingan Ozodlikdan mahrum etilgan balogʻatga yetmagan bolalarni himoya qilishga doir qoidalari; 1990-yil 14-dekabrda qabul qilingan Qamoqda saqlash bilan bogʻliq boʻlmagan choralarga doir minimal standart qoidalari (“Tokio qoidalari”), 2005-yil 22-iyulda qabul qilingan Jabrlangan va jinoyat guvohlari boʻlgan bolalar bilan bogʻliq boʻlgan odil sudlovga oid BMTning Rahbariy qoidalari. Bu hujjatlar boshqacha til bilan aytganda yuvenal adliya hujjatlari sifatida ham eʼtirof etiladi.

Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ham bola huquqlari oid, ularning mehnat huquqlariga oid xalqaro hujjatlar qabul qilinishi, bolalarning mehnat huquqlarining kodifikatsiyasi sifatida rivojlanib bordi. Bu boradagi ayrim hujjatlar, qabul qilinishi boʻyicha yuqorida koʻrib oʻtgan hujjatlardan ham oldinroq qabul qilingan. Jumladan, XMT doirasida 1919-yilda Sanovatda ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh toʻgʻrisidagi №5 Konvensiya qabul qilindi. Tashkilot shuningdek, 1973-yil 26-iyunda Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh toʻgʻrisidagi №138 Konvensiyani va №146 Tavsiyani, 1999-yil 17-iyunda esa, Bolalar mehnatining eng yomon shakllari toʻgʻrisidagi №182 Konvensiya va №190 Tavsiyani qabul qildi. Mazkur hujjatlar bolalarni ishga qabul qilishda minimal yosh chegarasini va sanovat korxonalarida, ishlab chiqarish fabrikalarida ishning xususiyatidan kelib chiqqan holda ishga qabul qilish uchun yoshni belgilash, bolalarning sogʻligʻi uchun zararli boʻlgan, ularni oila muhitida oʻsishlari va boshlangʻich taʼlim olishlari uchun toʻsqinlik qiladigan mehnat turlariga barham berish nazarda tutilgan.

Umuman olganda, bola huquqlari masalalarini xalqaro shartnomaviy huquqiy shaklda rivojlanishi toʻgʻrisida fikr yuritilganda, bola huquqlariga odi dastlabki xalqaro hujjatlar XX asr boshlarida qabul qilingan boʻlsada, bola

huquqlarini rivojlanish tendensiyalari XX asrning oxirlari va XXI asrning boshlarida ayniqsa, kuchayib bordi.

Shu bilan birga qayd etish kerakki, XX asrda bola huquqlariga oid milliy qonunchilik bu boradagi xalqaro normalarni shakllanishiga va rivojlanishiga kuchli ta'sir qilgan bo'lsa, XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida esa, xalqaro normalar milliy qonunchilikni rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ya'ni, dastlab, davlatlarning milliy qonunchiligi bola huquqlariga oid xalqaro normalarni ishlab chiqishga asos bo'lgan va ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, keyingi davrlarda esa, xalqaro tashkilotlarning tashabbusi bilan ishlab chiqilib, qabul qilinayotgan bola huquqlari bo'yicha xalqaro normalar davlatlarning milliy qonunchiligini takomillashtirib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishganining dastlabki yillaridanoq, bola huquqlari borasida milliy qonunchiligini shakllantirish va rivojlantirishga katta e'tibor qarata boshladi. 1991-yil 20-noyabr kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonuni, O'zbekistonning 1992-yilda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilishi, buning tasdig'i hisoblanadi. O'tgan mustaqillik yillari davomida O'zbekistonda ham, uning xalqaro normalariga mos keluvchi bola huquqlari bo'yicha milliy qonunchiligi shakllandi va u doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Bola huquqlari universal ko'rinishga ega bo'lganligi sababli uning ahvolini yaxshilash yo'lidagi harakatlar, choralar butun jahon hamjamiyati darajasida, har bir alohida davlatda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham amalga oshirilmoqda.

Shunday bo'lsa ham, muayyan yutuqlarga qaramay, inson, xususan bola huquqlarining ba'zi jihatlariga oid ma'lum kolliziyalar mavjudligini qayd etmay bo'lmaydi. Chunki, turli madaniyat va sivilizatsiyalarga xos bo'lgan xususiyatlar tufayli barcha huquq va erkinliklar ham universal ahamiyatli tushunchalar deb qabul qilinmaydi. Buning tasdig'i sifatida 1995-yili Pekin shahrida bo'lib o'tgan,

ayollar ahvoriga bag'ishlangan IV Butunjahon anjumanida ayollar bilan bir qatorda bolalar masalalariga oid muhokamar materiallarini keltirish mumkin⁷⁷.

Bir qator mamlakat vakillari Pekin Harakat platformasining ba'zi qoidalariga qarshi ekanliklarini ma'lum qildilar. Aksariyat izohlar diniy, misol uchun islomga, jamiyatning ahloq va ma'naviy qadriyatlariga zid bo'lgan qoidalar bilan bog'liq ravishda bildirildi.

O'z izohlarida Eron, Malayziya, Quvayt, Misr, Malta, Gonduras, Iroq, Marokash, Mavritaniya kabi mamlakatlar delegatsiyalari va vakillari abort va jinsiy befarqlik erkinligining ushbu mamlakatlar diniy-huquqiy va ma'naviy qadriyatlariga nomuvofiqligini yakdillikda qayd etdilar⁷⁸.

Malayziya delegatsiyasi o'zining abortga qarshi ekanligini uqtirib, ayniqsa ushbu muammoning o'smir qizlar o'rtasida noxush homiladorlik bilan bog'liq ravishda keskinlashuvi tufayli, e'tiborni shahvoniy befarqlik va o'smirlar orasida nosog'lom jinsiy munosabatlar amaliyotiga chek qo'yishga qaratdi.⁷⁹

Malta delegatsiyasi esa "abort qonunga hilof bo'lmagan shart-sharoitda" iborasini izohsiz qo'llashga noroziligini bildirdi, chunki Maltada homiladorlikni sun'iy abort yo'li bilan to'xtatish noqonuniy hisoblanadi. Delegatsiya fikriga ko'ra abort tibbiy va boshqa ruhiy jihatlardan butkul xavfsiz bo'lishi mumkin. Ammo, bu holda hali tug'ilib ulgurmagan bola huquqlari butunlay e'tibordan chekkada qolib ketadi.⁸⁰

Gvatemala hukumati ham Harakat platformasiga "homilador bo'lgan vaqtdan boshlab yashash huquqini so'zsiz hurmat qilish" nuqtai nazaridan izoh berish bilan, hali tug'ilmagan bola huquqlarini himoya qilishga oid o'z pozitsiyasini ko'rsatdi.⁸¹

⁷⁷ Четвертая Всемирная конференция по положению женщин. Доклад Четвертой Всемирной конференции по положению женщин. Пекин, 4-15 сентябрь 1995 года.

⁷⁸ Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. –B.39

⁷⁹ Четвертая Всемирная конференция по положению женщин. Доклад Четвертой Всемирной конференции по положению женщин. -Пекин, 1995.-Б.190.

⁸⁰ O'sha yerda. –B.190.

⁸¹ O'sha yerda. –B.180.

Muqaddas Taxt nomidan ishtirok etgan delegatsiya vakillari o'z izohida katolik cherkov abortlarni qonunlashtirishga qarshi ekanligi qayd etishdi. Muqaddas Taxt ayol kishining o'z jinsiy axloqini nazorat qilish huquqiga oid mujmal atamalarni qabul qila olmasligini uqtirib, bu abortni jamoatchilik ko'zi oldida qo'llab-quvvatlash sifatida sharhlanishi mumkinligiga e'tibor qaratdi.

Ko'rinib turibdiki, izohlar Pekin Harakat platformasida mavjud qoida va iboralar turli mamlakatlar tomonidan turlicha anglangani va qabul qilinganligiga yorqin misol bo'la oladi⁸².

Demak, huquq va erkinliklarning bu kabi turlicha idrok etilishi asosida tarixan shakllangan o'ziga xos turmush tarzi, fikrlash va dunyoqarashlarning o'ziga xosligi, jamoatchilik ongida asrlardan buyon muhrlanib qolgan muayyan qarashlarni hosil qilgan va mustahkamlagan an'ana va odatlar yotadi. Ob'ektiv xarakterga ega bo'lgan barcha ushbu omillar jamiyatda huquq va erkinliklarni idrok etishga ta'sir ko'rsatadi, albatta.

Biroq munozara ko'rinishidagi muhokama o'tkazilishining o'zi ham turli mamlakat va qit'a xalqlari Harakat dasturida mavjud muammoli masalalarning kelishilgan holda hal etilishidan qay darajada manfaatdor ekanligini namoyish etadi. Kelishmovchiliklar hali to'laligicha barham topganicha yo'q. Biroq inson huquqlarining muammoli jihatlarini keng ko'lamda muhokama qilish yo'lini tanlagan xalqlar, ertami, yo kechmi, hayotiy zarurat ta'sirida o'zaro birdamlik va idrok etish ruhini anglab yetadilar. Axir bir vaqtlar huquq va erkinliklar g'oyasining o'zi jinoiy deb topilganligini unutish mumkin emas. Bugungi kunda esa u ham xalqaro, ham milliy andozalar darajasida qonunlashtirilgan. U hozirda muhokama mavzuigina bo'lish bilan cheklanmay, balki jahon hamjamiyatining uni har yerda qaror toptirishga intilishiga sabab bo'lmoqda.

Bola huquqlari masalalarini rivojlanishi va uni normativ ravishda shu kungacha shakllanishi hamda rivojlanishini tahlil qilish asosida aytish mumkinki, uning rivojlanishini quyidagicha bosqichlarga bo'lish mumkin:

⁸² Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. -B.40

- 1) bola huquqlarini urf-odat normasi sifatida shakllanishi;
- 2) bola huquqlarini milliy qonunlarda norma sifatida o'z aksini topishi va rivojlanishi;
- 3) bola huquqlariga oid milliy qonunlarning mazkur sohadagi xalqaro standartlarni shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi;
- 4) va nihoyat, xalqaro standartlarning o'z navbatida milliy huquqni takomillashtirishga ta'siri.

Takrorlash uchun savollar

1. *Islomda huquqidagi xizmat qoidalari mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.*
2. *Islomda yetim bolalarning huquqlarini ta'minlab berishda unga mas'ul shaxslarga qanday majburiyatlar yuklanadi?*
3. *Islomda farzandlarning qanday huquqlari bor?*
4. *Bola huquqlariga oid keltirilgan xadislarni va ularning ma'nosini tushuntirib bering.*
5. *Qadimgi Xitoyda bolalarga oid munosabatlar to'g'risidagi g'oyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.*
6. *Bola huquqlariga oid dastlabki qonunlarning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.*
7. *XX asrning boshlarida bola huquqlariga oid normativ-huquqiy hujjatlarni shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat edi?*
8. *BMTni tashkil etilishi va uning faoliyati bola huquqlarini rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatdi?*
9. *Bola huquqlari bo'yicha xalqaro kodifikatsiyalash jarayonining boshlanishi va uning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.*
10. *Bolaning odil sudlovga bo'lgan huquqlari aks etgan xalqaro huquqiy hujjatlarni ko'rsatib bering.*
11. *Bolaning mehnat huquqlariga oid xalqaro hujjatlarni ko'rsatib bering.*

12. *Bola huquqlari masalalarini rivojlanishi qanday bosqichlarda kechdi va ularning xususiyatlarini tushuntirib bering.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar va manbalar ro‘yhati:

1. *Mo‘minov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. –T.: JIDU, 2011.*

2. *Bola huquqlari. Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik /prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009.*

3. *Bolalarni himoya qilish. Parlament a‘zolari uchun qo‘llanma. –T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006.*

4. *Boboyev X., Xasanov S. “Avesto” – ma’naviyatimiz sarchashmasi. –T.: Adolat, 2001.*

5. *Ганибаева Ш. Международно-правовая защита прав ребенка /Отв. ред. А.Х.Саидов. -Т.: 2003.*

6. *Qur‘oni Karim ma’nolarining tarjimasi. Abdulaziz Mansur tarjimasi va izohlari. –T.: Islom universiteti, 2001.*

7. *Худоя. Комментарии мусулманского права. -Т.: Узбекистан, 1994.*

8. *Чыж Элжбета. Права ребенка. Хелсинкский фонд по правам человека. Варшава. 2003.*

9. *Raxmonov B. Maxmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. –T.: CHASHMA PRINT, 2011*

10. *Axmedov B. Islom dinida farzand tarbiyasining muhim jihatlari. //Voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish tizimi: muammolar va yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, “KONSAUDITINFORM-NASHR”, 2008*

11. *Karimova D. Bola huquqlarining paydo bo‘lishi, rivojlanish tarixi va bola huquqlarining ta’rifi. Qonunchilikni takomillashtirish islohotlar kafolati (ilmiy maqolalar to‘plami). -T.: O‘zMUU, Huquqshunoslik fakulteti, El-Press, 2012*

3-bob. “Bola huquqlari” bo‘yicha xalqaro-huquqiy hujjatlar

1. Bola huquqlariga oid xalqaro normalar klassifikatsiyasi
2. Bola huquqlariga oid universal xalqaro hujjatlar tavsifi
3. Bola huquqlariga oid mintaqaviy halqaro hujjatlar tavsifi

1. Bola huquqlariga oid xalqaro normalar klassifikatsiyasi

Bolalar saodati va ularning huquqlari doimo xalqaro hamjamiyat diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Oldingi bobda ko'rib chiqqanimizdek, bola huquqlariga oid dastlabki hujjatlar XX asrning boshlarida, 1919-yilda Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan, Sanoatda ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi №5 Konvensiya, 1924-yilda Millatlar Ligasi tomonidan Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasi qabul qilingan edi. Shu davrdan boshlab, bolalar huquqlari asosan qullik, bolalar mehnati, bolalar bilan savdo qilish va voyaga yetmaganlarning pornografiyasiga qarshi choralar ko'rish bilan cheklangan bo'lsa, bola huquqlari bo'yicha xalqaro norma ijodkorlik faoliyatining rivojlanishi oqibatida, bugungi kunda bola huquqlari bo'yicha, uning barcha huquq va erkinliklarini hamda maxsus huquqlarini o'ziga aks ettirgan xalqaro huquqiy hujjatlarning katta bazasi shakllangan. Albatta, bu hujjatlar bir birini to'ldiradi, shu bilan bir qatorda bir biridan farq qiladi va ularni har doim ham bir xil qabul qilish noto'g'ri bo'lar edi. Shuning uchun ham, xalqaro shartnomalar hisoblangan bu hujjatlarning tabiati va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda, bu shartnomalarni klassifikatsiyalash orqali o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Odatda, xalqaro shartnomalarni quyidagi mezonlar asosida klassifikatsiyalash qabul qilingan:

- xalqaro hujjatlarning yuridik kuchi nuqtai nazardan: umumiy nomi ko'proq “konvensiya” nomi bilan ataluvchi imperativ harakter kasb etuvchi hujjatlar va umumiy nomi “deklaratsiya”, “tavsiyanoma”, kabi nomlar bilan ataluvchi tavsiyaviy xarakterdagi hujjatlar (ammo, qayd etish kerakki, xalqaro shartnomalarning nomlar yuqorida qayd etilgan nomlar bilan cheklanib qolmaydi);

- tartibga solinishi bo'yicha bola huquqlarining ayrim sohalariga bag'ishlangan maxsus hujjatlar va bola huquqlarining barcha sohalarini qamrab oluvchi umumiy xarakter kasb etuvchi hujjatlar;

- a'zolik masalasi bo'yicha, barcha davlatlarni qamrab olishni maqsad qilgan universal xalqaro shartnomalar hamda muayyan mintaqa davlatlarini qamrab oluvchi mintaqaviy hujjatlar.

Bola huquqlariga oid universal normalarni o'z ichiga qamrab oluvchi hujjatlarni ham o'z navbatida quyidigicha klassifikatsiyalash mumkin:

- BMTning inson huquqlariga oid universal standartlari deb ataluvchi umumiy deklaratsiyalar va konvensiyalari: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt kabi universal hujjatlari;

- BMTning YUNESKO, XMT kabi ixtisoslashgan tashkilotlari tomonidan ta'lim, mehnat sohalarida qabul qilingan hujjatlari;

- bola huquqlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan alohida ijtimoiy guruhlar (ayollar) huquqlarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar;

- muayyan huquqiy munosabatlar sohasini (jinoyat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi) qamrab oluvchi universal hujjatlar;

- BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan yuvenal yustitsiya, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan odilsudlovni amalga oshirish masalalariga oid hujjatlar;

- bola huquqlarini maxsus tartibga solishga qaratilgan deklaratsiyalar va konvensiyalar.

Bola huquqlari sohasida mintaqaviy xalqaro hujjatlarni ham quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin:

- Yevropa mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar;

- Afrika mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar;

- Amerika mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar.

Bola huquqlarini himoya qilishga oid mintaqaviy hujjatlar xususida fikr yuritilganda, yuqoridagi manzaradan ko'rish mumkinki, hozirgacha mavjud hujjatlar asosan yevropa, amerika va afrika qit'alarigagina taalluqli, xolos. Afsuski, bolalar huquqlarini ta'minlash murakkab va muammoli bo'lgan Osiyo mintaqasiga oid bunday hujjat xali ishlab chiqilmagan. Bu esa bu mintaqada inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy mexanizmning yo'qligi va bu sohada davlatlararo mintaqaviy hamkorlik juda ham sust ekanligi bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, bola huquqlariga oid xalqaro hujjatlarning klassifikatsiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, *birinchidan*, bola huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlarning mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam bersa, *ikkinchidan* bola huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy baza, ham universal miqyosda, ham mintaqaviy miqyosda rivojlanib borayotganligini, ammo, bu rivojlanish barcha mintaqalarda ham bir xil ketmayotganligi to'g'risidagi manzarani ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, turli mintaqalardagi davlatlarning siyosiy, iqtisodiy tuzumidagi farqlar, ularning diniy va madaniy xilma-xilligi kabi omillar bu sohadagi davlatlarning mintaqaviy integratsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar ekanligini tushunishga yordam beradi. *Uchinchidan* esa, bola huquqlariga oid xalqaro shartnomalarni klassifikatsiyalash asosida, ularga mos ravishda milliy qonun hujjatlarini va ularning normalarini o'rganishni osonlashtiradi. Bu esa, xalqaro normalar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirishni tadqiq qilishda va ularni o'rganishda ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani milliy qonunchilikka implementatsiya qilish to'g'risida fikr yuritilganda avvalombor, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuniga yoki XMTning bolalar mehnatiga oid hujjatlarining implementatsiyasi to'g'risida fikr yuritilganga O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, kabi mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi milliy qonunchilik hujjatlari tushuniladi.

Shu joyda, bola huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiya

qilgan xalqaro hujjatlar va bu sohadagi ayrim muhim milliy huquqiy hujjatlarni alohida jadvalda keltirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xalqaro hujjatlar	Milliy qonunchilik hujjatlari
<p>1. Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya</p> <p>2. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga bolalarning qurolli mojarolarga jalb qilinishi to‘g‘risidagi Fakultativ protokol</p> <p>3. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga bolalar savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasi to‘g‘risidagi Fakultativ protokol</p> <p>4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (“Pekin qoidalari”)</p> <p>5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining balog‘atga yetmagan bolalar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari (“Ar-Riyod dasturiy prinsiplari”)</p> <p>6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining qamoqda saqlash bilan bog‘liq bo‘lmagan choralarga doir minimal standart qoidalari (“Tokio qoidalari”)</p> <p>7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ozodlikdan mahrum etilgan balog‘atga yetmagan bolalarni himoya qilishga doir qoidalari</p> <p>8. Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risidagi 138-konvensiya</p> <p>9. Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to‘g‘risidagi 182-konvensiya</p>	<p>1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.</p> <p>2. Kodekslar: Fuqarolik kodeksi; Oila kodeksi; Mehnat kodeksi; Jinoyat kodeksi; Jinoiy-protsessual kodeksi; Jinoiy-ijroiya kodeksi; Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks.</p> <p>3. Bola huquqlariga oid maxsus qonunchilik: “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun; O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.</p> <p>4. Bola huquqlarining ayrim jihatlarini tartib soluvchi qonun hujjatlari: “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun; “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonun; “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonun; “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun; “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun va bola huquqlarini amalga oshirish masalalarini tartibga soluvchi va tegishli davlat organlarining hamda jamoat tashkilotlarining hamda otalarning ularni bajarish va buzilgan taqdirda himoya qilinishini ta‘minlash bo‘yicha majburiyatlarini belgilaydigan qonun-hujjatlarni ko‘zda tutuvchi boshqa qonun hujjatlari.</p> <p>5. Bola huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va</p>

2. Bola huquqlariga oid universal xalqaro hujjatlarning umumiy tavsifi

BMTning inson huquqlari sohasidagi universal standartlari deb ataluvchi umumiy deklaratsiyalar va konvensiyalari: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt kabi universal hujjatlari.

Ularda bayon etilgan huquqlar barcha kabi bolalarga ham taalluqlidir. Deklaratsiya va paktlarda bola huquqlari va manfaatlariga bevosita tallasli bo‘lgan qoidalar: bolalarni tengligi tamoyili, onalik va bolalikni himoya qilish to‘g‘risida, bolalarni ekspluatatsiya qilish to‘g‘risida, bolalarni ta‘lim olish huquqi shakllantirilgan. Deklaratsiya va paktlarda bolalarning tengligi tamoyili e‘lon qilingan. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi paktda har bir bola irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli yoki tug‘ilishidan qat‘iy nazar hech bir kamsitilishlarsiz uning oila, jamiyat va davlat tomonidan balog‘atga yetmagan shaxs sifatidagi himoya qilinishiga bo‘lgan huquqi o‘rnatib qo‘yilgan (24-moddaning 1-bandi).

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi paktning 10-moddasining 3-bandida barcha bolalar va o‘smirlarga hech bir kamsitishsiz, oilaviy kelib chiqishi yoki boshqa belgilaridan qat‘iy nazar alohida himoya choralari va yordam ko‘rsatilishi shart. Unga ko‘ra, bolalar va o‘smirlar iqtisodiy va ijtimoiy ekspluatatsiyadan himoyalangan bo‘lishi kerak; ularning mehnatini ahloqi va salomatligi uchun zararli bo‘lgan yoki hayot uchun havfli sohalarda yoki ularning normal o‘sishi uchun zarar keltirishi mumkin bo‘lgan sohalarda qo‘llash qonun bilan jazolanishi; bundan tashqari, davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan yoshdan quyi yoshdagi bolalarning mehnatidan foydalanish taqiqlanishi va jazolanishi kerak.

BMT ixtisoslashgan tashkilotlari hujjatlari: YUNESKO hujjatlari: 1960-

yildagi Ta'lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya; *XMT hujjatlari*: 1973-yilda qabul qilingan va 1976-yilda kuchga kirgan Ishga qabul qilishning eng kichik yoshi to'g'risidagi 138-sonli konvensiya; 1999-yilda qabul qilingan va 2000-yilda kuchga kirgan Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va ularni tugatish bo'yicha tezlik bilan chora-tadbirlar ko'rish to'g'risidagi 182-sonli konvensiya; Mehnat sohasida asosiy tamoyillar va huquqlar va ularni amalga oshirish mexanizmi to'g'risidagi XMTning 1998-yil 19-iyundagi deklaratsiyasi. Shuningdek, 1946-yilda qabul qilingan 77- va 78-sonli konvensiyalar bolalar va o'smirlarni sanoatda va sanoatda bo'lmagan korxonalarda ishlashga yaroqli ekanligini aniqlash uchun majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishni ko'zda tutadi. Ularda, agar bola 18 yoshdan kichik bo'lsa va ular tibbiy ko'rik natijasida ishlatilishi lozim bo'lgan sohalarda ishlashi uchun ishga yaroqsiz deb topilgan bo'lsa, bunday bolalar ishga qabul qilinmaydi. 79- va 90-sonli konvensiyalar bolalar va o'smirlarni tungi mehnatini va sanoatdagi sanoat bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni cheklashga qaratilgan.

Bola huquqlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan alohida ijtimoiy guruhlar (ayollar) huquqlarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar. Masalan, qurolli mojarolar davrida bolalarni himoya qilishga qaratilgan hujjatlar, urush paytida fuqaro aholini himoya qilishga qaratilgan 1949-yildagi IV Jeneva konvensiyasi va Jeneva konvensiyalariga 1977-yildagi I II Qo'shimcha protokollarda bolalarga harbiy xarakterli oqibatlaridan maxsus himoya taqdim etishni ko'zda tutadi. 1974-yildagi Favqulodda holatlar va qurolli mojarolar davrida ayollar va bolalarni himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiyada davlatlarga bolalarga alohida himoya taqdim etishni tavsiya qilinadi.

Muayyan huquqiy munosabatlar sohasini (jinoyat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi) qamrab oluvchi universal hujjatlar: Xalqaro farzandlikka olish sohasida bolalarni himoya qilishga oid 33-sonli Gaaga konvensiyasi; "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi BMT konvensiyasiga "Insonlar, hususan ayollar, bolalar traffikini oldini olish,

taqiqlash va jazolashga doir Palermo protokoli, 2000-yilda qabul qilingan va 2003-yilda kuchga kirgan.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan yuvenal yustitsiyaga oid hujjatlari: 1985-yildagi “Balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari” (“Pekin qoidalari”); 1990-yildagi “Balog‘atga yetmagan bolalar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari” (“Ar-Riyod dasturiy prinsiplari”); 1990-yildagi “Ozodlikdan mahrum etilgan balog‘atga yetmagan bolalarni himoya qilishga doir qoidalari”; 1990-yildagi “Qamoqda saqlash bilan bog‘liq bo‘lmagan choralarga doir minimal standart qoidalari” (“Tokio qoidalari”), 2005-yildagi “Jabrlangan va jinoyat guvohlari bo‘lgan bolalar bilan bog‘liq bo‘lgan odil sudlovga oid Rahbariy qoidalari”.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1985-yil 29-noyabrda 40/33-qarori asosida «Birlashgan Millatlar Tashkilotining balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari” qabul qilingan.

Minimal standart qoidalarida ko‘zlangan asosiy maqsadlar:

- Ishtirokchi-davlatlar, o‘z umumiy manfaatlariga muvofiq holda balog‘atga yetmagan o‘g‘il yoki qiz bola va uning oilasi farovonligiga ko‘maklashish uchun intilishi zarur.

-A‘zo-davlatlar o‘smirning jamiyatda mazmunli hayot kechirishi ta‘minlash imkonini beruvchi tegishli shart-sharoit yaratishga intilishi kerakki, hayotining ayni shu davrida nojoiz xulqqa ko‘proq moyilligi bo‘lgan o‘g‘il yoki qiz bolaning imkon qadar jinoyat va buzarlilikni sodir etish ehtimolidan holi shaxs sifatida kamolga yetishi va ta‘lim olishi bilan bog‘liq jarayonda bunday sa‘i-harakatning foydasi tegadi.

-Imkon qadar mavjud barcha zaxiralarni, shu jumladan,, oila, ko‘ngillilar va jamiyatning boshqa guruhlarini, shuningdek maktablar va shu kabi bir qator ijtimoiy institutlarni to‘la jalb etgan holda o‘smirning farovonligiga ko‘maklashish va shu bilan uning hayotiga qonun tomonidan aralashuv zaruriyatini kamaytirish,

qonun bilan ziddiyatda bo'lgan o'smirlarga samarali, adolatli va insoniy kamaytirish, qonun bilan ziddiyatda bo'lgan o'smirlarga samarali, adolatli va insoniy muomala qilinishi ta'minlash maqsadlarini ko'zda tutuvchi maqbul choralarni qo'llashga yetarlicha e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

-Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan sudlov harakatlari barcha balog'atga yetmagan bolalar uchun har tomonlama ijtimoiy adolatni ta'minlash va ayni chog'da shu yo'l bilan yoshlarni himoyalash va jamiyatda tinchlik-osoyishtalikni saqlab turish doirasida har bir mamlakat milliy taraqqiyoti jarayonining uzviy qismiga aylanishi zarur.

- Mazkur Qoidalar har bir a'zo-davlatning mavjud iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

- Balog'atga yetmaganlarga nisbatan odil sudlov harakatlari bilan shug'ullanuvchi xizmatlar xodimlarni malakasini, shu jumladan, ularning uslub, yondashuv va tajribasini oshirish va tegishli darajada saqlab turish maqsadida ana shu xizmatlarni muntazam ravishda rivojlantirib va muvofiqlashtirib borish zarur bo'ladi.

Minimal standart qoidalarida balog'atga yetmagan bolalar huquqlarining asosiy protsessual kafolatlari, xususan, aybsizlik prezumpsiyasi, ayb qo'yilganlik haqida xabardor etilish huquqi, guvohlik berishdan bosh tortish huquqi, advokat olish huquqi, ota-ona yoki vasiyning hozir bo'lishi huquqi, guvohlar bilan yuzlashish va ularning ikki yoqlama tergovida bo'lish huquqi va yuqori instansiyaga apellyatsiya berish huquqi sudlov harakatlarining barcha bosqichlarida kafolatlangan bo'lishi zarur, deb qayd etilgan.

Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining 1990-yil 1-dekabrdagi 45/112-qarori bilan qabul qilingan va e'lon etilgan «Balog'atga yetmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari» ham mavjud.

Mazkur hujjatda asosiy prinsiplar, dasturiy prinsiplarning qo'llanish doirasi jinoyatchilikning oldini olinishining umumiy yo'nalishlari, jamiyat hayotiga tayyorlash jarayonlari, ijtimoiy siyosat, qonunchilik va balog'atga yetmagan

bolalarga nisbatan odil sudlov yuritish, tadqiqotlar, siyosatni ishlab chiqish va muvofiqlashtirish to'g'risidagi qoidalar o'z ifodasini topgan.

Voyaga yetmaganlar muammolarining ayrim holatlariga tegishli 1990-yil 1-dekabrda 45/112-rezolyutsiya bilan qabul qilingan xususiy hujjat «Balog'atga yetmaganlar orasida jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan BMTning asosiy prinsiplari» mavjud. U «Ar-Riyod rahbariy prinsiplari» nomi bilan ham mashhur bo'lib, mazkur qoidalarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikni oldini olish jamiyatda jinoyatchilikni oldini olishning eng muhim shartlaridan biridir. Qonuniy, ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etib va jamiyat hamda hayotga nisbatan insonparvar qarashlarni xosil qilgan holda, yoshlar jinoiy faoliyatga yo'l qo'ymaydigan tamoyillar asosida tarbiyalanishi mumkin.

2. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikni oldini olish samarali bo'lishi uchun o'smirlarning komil inson bo'lib yetishishlari, ularning shaxsiga hurmat va bolalikdan boshlab ularning rivojlanishini qo'llab quvvatlash maqsadida butun jamiyatning sa'y-harakatlari zarur bo'ladi.

3. Mazkur rahbariy prinsiplarni sharhlash maqsadini ko'zlab, bolalar ehtiyojlariga e'tibor qaratilishi kerak. Yoshlar jamiyatda faol ishtirok etishlari va uning to'laqonli ishtirokchilari bo'lishlari lozim. Va aksincha, jamiyat hayotiga tayyorgarlik ko'ruvchi yoki nazorat obyekti sifatida qaralmasligi kerak.

4. Ushbu rahbariy prinsiplarni amalga oshirishni ko'zlab, milliy huquqiy tizimlarga muvofiq ravishda jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan har qanday dasturning diqqat markazi yoshlarni erta bolalikdan boshlab farovonligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

5. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan rivojlanib boruvchi siyosatni amalga oshirish va doimiy tarzda tahlil etib borish hamda chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim va zarurligini e'tirof etish kerak. Shu bilan birga, bolani o'z-o'ziga yoki boshqalarga jiddiy ziyon yetkazmaydigan xatti-harakati uchun jazolashdan qochish kerak. Bunday siyosat va chora-tadbirlar quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

- imkoniyatlar yaratish, xususan ta'lim olish sohasida imkoniyatlar yaratish, yoshlarning turli ehtiyojlarini qondirish hamda barcha yoshlarning shaxsini kamol toptirishda va ayniqsa havf ostida turuvchi yoki ijtimoiy havfli holatga kelib qolgan hamda alohida e'tibor va himoyaga muhtojlarni qo'llab quvvatlash tizimini yaratish;

- jinoyatchilikning kelib chiqishiga olib keluvchi sabab va shart sharoitlarni oldini olishga qaratilgan qonunlarni, jarayonlarni, muassasalarni, vosita va xizmat tizimlarini qo'llashga asoslangan voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan maxsus nazariyalar va ushbu masalaga yondashuvlarni ishlab chiqish;

- birinchi navbatda voyaga yetmaganning umumiy manfaatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy adolatga asoslanib va xolis tarzda rasmiy organlarning aralashuvi;

- barcha yoshlarning baxt-saodati, rivojlanishi, va manfaatlarini ta'minlash;

- yoshlarning umumiy ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga mos kelmaydigan xatti-harakatlari ko'pincha voyaga yetish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib qoidaga ko'ra, ular katta bo'lgan sayin o'z-o'zini anglab borishini inobatga olish;

- ko'pchilik ekspertlarning fikricha voyaga yetmagan shaxsga «buzg'unchi», «huquqbuzar» yoki «yosh jinoyatchi» tamg'asini bosish, ularda nomaqbul xatti-harakatlarning rivoj topishiga asos bo'ladi.

6. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikni oldini olish uchun, ayniqsa hali hech qanday muassasalar tashkil etilmagan hududlarda jamoaviy xizmatlar va dasturlarni ishlab chiqish lozim. Ijtimoiy nazoratni amalga oshiruvchi rasmiy muassasalar xizmatidan faqatgina so'ngi chora sifatida foydalanilishi kerak.

Bu kategoriyadagi hujjatlar yuvenal yustitsiya sohasidagi xalqaro standartlarning asosi bo'lib xizmat qiladi. ya'ni yuvenal yustitsiya sohasidagi xalqaro standartlar – balog'atga yetmagan bola to'g'risida, u sodir etgan buzarlilar to'g'risida, uning jinoiy va boshqa xil yuridik javobgarligi, davlatning bunday buzarlilikka nisbatan jazolash yoki shu kabi majburiy ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash ko'rnishidagi munosabati va nihoyat, jinoiy yustitsiya ta'sir doirasiga tushib qolgan balog'atga yetmagan bola huquqlari, erknliklari va qonuniy

manfaatlarini sudda himoya qilish konsepsiyasining asosiy me'yorlari to'g'risidagi yuridik doktrinaning asosiy qoidalarini tashkil etadi.

- *Bola huquqlarini maxsus tartibga solishga qaratilgan deklaratsiyalar va konvensiyalar*: 1924-yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi Jeneva deklaratsiyasi, 1959-yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya, 1989-yildagi Bola huquqlari konvensiyasi va ushbu konvensiyaga 2002-yildagi ikkita: Qurolli mojaralarda ishtirok etuvchi bolalar to'g'risidagi Qo'shimcha protokol va Bolalar bilan savdo-sotiq qilish, bolalar fohishabozligi va pornografiyasiga taalluqli Qo'shimcha protokol.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bola huquqlari bo'yicha asosiy hujjat hisoblanadi hamda uni bola huquqlariga oid o'ziga xos kodifikatsiyalash desa ham bo'ladi. Konvensiya 54 moddani o'z ichiga olgan bo'lib, ularni 4ta kategoriyadagi huquqlarga bo'lish mumkin: a) *yashay olish huquqi*: bola talablarini qondirish va xayotiy huquqlarini o'zida mujassam etish kabi asosiy shartlarni hamda tibbiy xizmatdan foydalana olish, ovqatlanish, boshpanaga ega bo'lish kabi adolatli me'rlarni o'z ichiga oladi; b) *rivojlana olish huquqi*: bolalarning o'z qobiliyatlarini kengroq rivojlantirishga erishishlari zarur. Masalan, bilim olish, o'yin, hordiq chiqarish, madaniy faoliyatlar, axborot olish va vijdoniy poklik kabi huquqlar; v) *bolalar zo'ravonlik va ekspluatatsiya qilinishdan himoyalangan bo'lishlari shart*. Bu borada quyidagi muammolarga, ya'ni: qochoq bolalar masalasidagi muammolarga, sudlovni amalga oshirish tizimidagi zo'ravonliklarga va qiynoqlarga, bolalarni qurolli mojarolarga jalb etish muammolariga, bolalar mehnatiga, balog'at yoshiga yetmaganlarni jinsiy ekspluatatsiya qilish va o'smirlarning giyohvand moddalarni iste'mol qilish muammolariga alohida e'tibor berilgan bo'lishi kerak; g) *ishtirok etish huquqi*: bolani jamiyat va mamlakat xayotida faol ishtirok etishga chorlaydi. Bu kategoriya, bolalarning hayotga taalluqli bo'lgan muammolar bo'yicha jahonshumul yig'ilishlarda va tadbirlarda ishtirok etish huquqini va o'z fikr-mulohazalarini aytishda erkin bo'lish kabi huquqlarini belgilaydi. Bolalar ulg'ayib borishlari davomida jamiyat hayotida faol

ishtirok etish uchun barcha paydo bo‘lib boruvchi imkoniyatlarning hammasiga ega bo‘lib borishlari hamda hayotiy muhim yechimlarning mas‘uliyatini xis qilgan holda ularni o‘z zimmalariga olishga tayyor bo‘lishlari kerak.

Bundan tashqari Konvensiyada ishtirokchi-davlatlar tomonidan bola huquqlarining himoyalaniishi, kafolatlanishi ham ta‘minlanishi borasida sharoit va imkoniyat yaratilishi uchun ular zimmasiga majburiyatlar belgilangandir. Masalan, 29-moddasida:

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaga ta‘lim berish quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi lozimligiga rozilik bildiradilar:

a) bolaning shaxsi, iste‘dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlari eng to‘la hajmda rivojlanishi;

b) inson huquqlari va asosiy erkinliklariga, BMT Nizomida e‘lon qilingan tamoyillarga hurmatni tarbiyalash;

s) bolaning ota-onasiga, uning madaniy o‘ziga xosligi, tili va qadriyatlariga, bola yashayotgan mamlakatning, u dunyoga kelgan mamlakatning milliy qadriyatlariga, o‘zinkidan farq qiladigan madaniy taraqqiyot darajasiga hurmat bilan qarashni tarbiyalash;

d) bolani erkin jamiyatda, tinchlik, sabr-toqatli bo‘lish, erkaklar bilan ayollarning tinchligi hamda barcha xalqlar, etnik, milliy va diniy guruhlar, shuningdek, tub aholi orasidan bo‘lgan shaxslar o‘rtasida do‘stlik ruhida tarbiyalash;

e) atrof-tabiatga hurmat ruhida tarbiyalash.

2. Ushbu moddaning yoki 28-moddaning hech qaysi bandi alohida shaxslar va organlarning o‘quv yurtlarini ochish hamda ularga ushbu moddaning 1-bandida bayon etilgan tamoyillarga rioya qilgan holda rahbarlikni amalga oshirish hamda bunday o‘quv yurtlarida beriladigan ta‘lim davlat tomonidan o‘rnatilgan minimal me‘yorlarga javob berishi kerak, degan talabning bajarilishidagi erkinligini cheklash sifatida talqin qilinmaydi.

Mazkur Konvensiyada bayon qilingan huquqlarning amalga oshirilishini kafolatlash va ko‘maklashish maqsadida ishtirokchi davlatlar ota-ona va qonuniy

vasiylarga bola tarbiyasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishlariga tegishli yordam ko'rsatadilar hamda bolalar muassasalari tarmog'ining rivojlanishini ta'minlashi, bu borada zarur chora-tadbirlarni ko'rishi ishtirokchi-davlatlarga yuklatiladi.

Ushbu konvensiya ijodkorlari bola huquqlari bo'yicha o'z konsepsiyalarini – liberal, paternalizm nazariyasi asosida ishlab chiqishgan. Ushbu konsepsiya g'oyalari tufayli bolalar jamiyatning to'la huquqli a'zosi deb e'tirof etilgan. Bu konsepsiya bilan bola ota-onaga yoki ularni o'rnini bosuvchi boshqa shaxslarga tegishililigi to'g'risida yuz yillar davomida mavjud bo'lib kelgan qoidaga chek qo'yilgan. Hozirgi kunga kelib esa, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya eng universal hujjatlardan biri bo'lib, Somali va AQShdan tashqari 191 davlat uning ishtirokchisidir. O'zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyaga 1992-yilda qo'shilgan bo'lib, bugungi kungacha to'rt marotaba o'zining Milliy ma'ruzasini taqdim etgan. Mazkur Konvensiyaning qo'shimcha protokollari hisoblanmish Bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ protokol hamda Bolalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taalluqli Fakultativ protokolni 2008-yil-dekabr oyida ratifikatsiya qildi. Bu protokollarga qo'shilish mamlakatimizning bola huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning qo'shimcha kafolati hisoblanadi va bu sohadagi davlat siyosatiga to'la mos keladi.

3. Bola huquqlariga oid mintaqaviy halqaro hujjatlarni umumiy tavsifi

Bola huquqlariga rioya qilinishi va ularni himoya qilishni nazorat qiluvchi universal xalqaro tashkilotlar bilan bir qatorda mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham mavjud bo'lib, uning a'zolari ma'lum geografik mintaqada davlatlari bo'lishlari mumkin. Bunday tashkilotlarning faoliyati xavfsizlik, iqtisod, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalar, kabi inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari sohasidagi mintaqaviy xalqaro hamkorlikka ham qaratilgandir.

BMT Nizomida bunday tashkilotlarga ma'lum talablar qo'yiladi. Jumladan, ularning tashkil etilish maqsadlari va faoliyati BMT Nizomining maqsad va tamoyillariga to'g'ri kelishi va bu tashkilotlar BMTning iqtisodiy, ijtimoiy,

madaniy va boshqa sohalardagi huquqiy muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatiga ko‘maklashishi lozim.

Barcha a‘zo-davlatlarga nisbatan qo‘llaniladigan bola huquqlarini himoya qilish sohasidagi BMT Nizomi asosida tashkil etilgan hamda BMT tomonidan qabul qilingan shartnomalar asosida ta‘sis etilib, ishtirokchi-davlatlarga taalluqli bo‘lgan tizimlardan tashqari, Afrika, Amerika va Yevropa qit‘alaridagi ko‘plab davlatlar huquqiy jihatdan mintaqaviy darajada bajarilishi majburiy bo‘lgan inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlariga doir shartnomalar qabul qilgan bo‘lib, bu shartnomalarning bajarilishi yuzasidan xalqaro monitoring olib boruvchi idoralar vakolatlarini e‘tirof etadilar. Bola huquqlari sohasidagi mintaqaviy shartnomalar va ularning amalga tatbiq etilishi bo‘yicha monitoring olib boruvchi mexanizmlar tizimi Osiyo va Tinch okeani mintaqasida hanuzgacha ishlab chiqilgani yo‘q.

Bola huquqlariga oid xalqaro hamkorlikning rivojlanib borishi, bola huquqlarini mintaqaviy darajada himoya qilish tizimining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Ya‘ni, dunyoning turli mintaqalarida inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlarini himoya qilishning o‘ziga xos modellari vujudga keldi. Bunday modellar ko‘p jihatdan universal tizimdan o‘zining samaradorligini ham ko‘rsatdi. Bunday mintaqaviy tashkilotlarga, Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Yevropa tizimi, Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Amerika tizimi, Inson huquqlari va xalqlar huquqini himoya qilish bo‘yicha Afrika tizimi, Inson huquqlari bo‘yicha Doimiy arab komissiyasi, MDH doirasida qabul qilingan 1995-yil 26-maydagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklari bo‘yicha MDH konvensiyalarini kiritish mumkin.

Shu shu yerda, bola huquqlari sohasidagi mintaqaviy tashkilotlar faoliyatlari asoslanadigan hujjatlarga to‘htalib o‘tadigan bo‘lsak, ular quyidagilardir:

- *Yevropa mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar:* Bolalarga homiylik qilish va ularga homiylik qilishni tiklash borasidagi qarorni tan olish va ularni bajarish to‘g‘risidagi 1980-yilgi Yevropa konvensiyasi; Bolalarni huquqlarini amalga oshirish bo‘yicha Yevropa konvensiyasi, 1996-yilda qabul

qilingan va 2000-yilda kuchga kirgan.

- *Afrika mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar*: Bola huquqlari va baxt saodati to'g'risida Afrika konvensiyasi, 1991-yilda qabul qilingan va 1999-yilda kuchga kirgan; Afrika yoshlari xartiyasi, 2006-yilda qabul qilingan, xali kuchga kirmagan.

- *Amerika mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar*: Balog'atga yetmagan bolalar xalqaro traffiki bo'yicha amerika davlatlari konvensiyasi 1994-yilda qabul qilingan, 1997-yilda kuchga kirgan; Qaytib kelgan bolalar to'g'risidagi amerika davlatlari konvensiyasi, 1989-yilda qabul qilingan va 1994-yilda kuchga kirgan; Balog'at yoshini o'rnatish bo'yicha qonunlar kolliziyasi bo'yicha amerika davlatlari konvensiyasi, 1984-yilda qabul qilingan va 1988-yilda kuchga kirgan. Amerika qit'asiga tegishli xalqaro hujjatlarning o'ziga xosligi, ular ko'proq muayyan huquqiy munosabatlar sohasini tartibga solishga qaratilgan.

Bola huquqlarini himoya qilishga oid mintaqaviy hujjatlar xususida fikr yuritilganda, yuqoridagi manzaradan ko'rish mumkinki, hozirgacha mavjud hujjatlar asosan yevropa, amerika va afrika qit'alarigagina taalluqli, xolos. Afsuski, bolalar huquqlarini ta'minlash murakkab va muammoli bo'lgan Osiyo mintaqasiga oid bunday hujjat xali ishlab chiqilmagan. Bu esa bu mintaqada inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy mexanizmning yo'qligi va bu sohada davlatlararo mintaqaviy hamkorlik juda ham sust ekanligi bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, bola huquqlariga oid xalqaro hujjatlarning klassifikatsiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, birinchidan, bola huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlarning mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam bersa, ikkinchidan bola huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy baza, ham universal miqyosda, ham mintaqaviy miqyosda rivojlanib borayotganligini, ammo, bu rivojlanish barcha mintaqalarda ham bir xil ketmayotganligi to'g'risidagi manzarani ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, turli mintaqalardagi davlatlarning siyosiy, iqtisodiy tuzumidagi farqlar, ularning diniy va madaniy xilma-xilligi kabi

omillar bu sohadagi davlatlarnig mintaqaviy integratsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar ekanligini tushunishga yordam beradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. *Bola huquqlariga oid xalqaro normalarni klassifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz va uning qanday ahamiyati bor?*

2. *Bola huquqlariga oid xalqaro normalarni klassifikatsiyalash qanday mezonlar asosida amalga oshiriladi?*

3. *Bola huquqlariga oid universal va mintaqaviy normalarni qanday klassifikatsiyalash mumkin?*

4. *BMTning inson huquqlari sohasidagi universal standartlari deb ataluvchi umumiy deklaratsiyalar va konvensiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.*

5. *BMT ixtisoslashgan tashkilotlari hujjatlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.*

6. *Bola huquqlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan alohida ijtimoiy guruhlar (ayollar) huquqlarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomalarning mohiyatini tushuntirib bering.*

7. *Muayyan huquqiy munosabatlar sohasini qamrab oluvchi universal hujjatlarning mohiyati va o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?*

8. *BMTning yuvenal yustitsiyaga oid minimal standartlari va asosiy prinsiplari deb hisoblanuvchi hujjatlarining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.*

9. *Bola huquqlari bo'yicha Yevropa mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlarni tushuntirib bering.*

10. *Bola huquqlari bo'yicha Afrika mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlarni ko'rsatib bering.*

11. *Bola huquqlari bo'yicha Amerika mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlarni ko'rsatib bering.*

12. Nima uchun Osiyo mintaqasida bola huquqlari bo'yicha yagona, mintaqaning barcha davlatlari manfaatlarini aks ettiruvchi hujjat mavjud emas?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar va manbalar ro'yhati:

1. Mo'minov A., Tillabayev M. *Bola huquqlari. Elektron darslik.* –T.: JIDU, 2011.
2. *Права ребенка: Учебник. /под ред. А.Х.Саидова.* -T.: ТГЮИ, 2009.
3. *Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida.* –T.: TDYuI, 2009.
4. *Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo'llanma.* –T.: YUNISEF, *Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi,* 2006.
5. *Raxmonov B. Maxmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari.* –T.: CHASHMA PRINT, 2011
6. *Balog'atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar /Международные документы по правам несовершеннолетних.* – T.: Adolat. 2002.
7. *Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam /O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X.Saidov.* –Toshkent: «Adolat», 2004.
8. *Исмаилов Б.И. Правовые основы системы ювенальной юстиции. Учебное пособие.* - T.: 2001.
9. *Хакимов Р. Детство: Проблемы и перспективы:[1946-2006].* -T.: *О'збекистон,* 2006.
10. *Mo'minov A. Bola huquqlari sohasida xalqaro-huquqiy normalar klassifikatsiyasi //Voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish tizimi: muammolar va yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.* –T.: *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, “KONSAUDITINFORM-NASHR”,* 2008

4-bob. Bola huquqlari bo'yicha xalqaro mexanizmlar

1. Bola huquqlari bo'yicha xalqaro institutsional tizimning umumiy tavsifi
2. Bola huquqlari bilan shug'ullanuvchi xalqaro universal xalqaro tashkilotlar
3. YUNISEF – bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan BMTning maxsus organi sifatida
4. Bola huquqlari bilan shug'ullanuvchi mintaqaviy xalqaro tashkilotlar
5. Bola huquqlariga ixtisoslashgan xalqaro nodavlat tashkilotlari

1. Bola huquqlari bo'yicha xalqaro institutsional tizimning umumiy tavsifi

Inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikning rivojlanishi bu – umumbashariy masaladir. Bu boradagi hamkorlikda barcha davlatlar ko'p tomonlama yaqin aloqadorlik, teng huquqlilik, davlat suverenitetini hurmat qilish, xalqaro huquq normalari va shartnoma majburiyatlarini vijdonan bajarish tamoyillariga asoslanishi lozim. Jumladan, hozirgi vaqtda bola huquqlari masalasiga xalqaro munosabatlarda ham tobora keng ahamiyat berilmoqda.

Bola huquqlarini himoya etishga qaratilgan ko'plab deklaratsiya, xartiya va bitimlar qabul qilingan bo'lib, ularda bolaning haq-huquqlarini himoya qilish qoidalari va me'yorlari mustahkamlangan. Ular to'g'risida oldingi bobda batafsil to'htalib o'tdik. Ammo, qayd etish kerakki, huquqiy qoidalar va me'yorlar yaratilgani bilan u o'z o'zidan amalga oshib qolmaydi va o'z o'zidan samarali bo'lmaydi. Buning uchun, uni davlatlar tomonidan amalga oshirishi uchun, ularni qo'llab-quvvatlaydigan, kuzatib boradigan, bu borada davlatlar faoliyatini muvofiqlashtirib turadigan xalqaro mexanizm lozimdir. Shuning uchun ham, bola huquqlarining xalqaro himoyasi to'g'risida fikr yuritilganda, mazkur xalqaro-huquqiy hujjatlarni amalga oshirishning mexanizmi sifatida, xalqaro institutsional tizimga alohida e'tibor qaratish lozim⁸³.

⁸³Xalqaro tashkilotlar to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun qarang: Mo'minov A. Xalqaro tashkilotlar huquqi. O'quv qo'llanma. –T.: JIDU, 2014; shuningdek, bola huquqlari bo'yicha xalqaro tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Bola huquqlari bo'yicha xalqaro institutsional tizim – o'z faoliyati doirasida bola huquqlari bo'yicha davlatlararo hamkorlik olib borishga ko'maklashuvchi hamda uni muvofiqlashtirib boruvchi, bevosita bola huquqlari bo'yicha xalqaro norma ijodkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar va organlarning tizimi.

Bugungi kunda bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro institutsional tizimi shakllanib ulgurdi. Mazkur xalqaro institutsional tizimning asosini – hozirgi zamon xalqaro huquqining hosilaviy subyektlari bo'lmish xalqaro hukumatlararo tashkilotlar tashkil etadi. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda, ma'lum darajada xalqaro huquqning cheklangan subyektlari sifatida xalqaro nohukumat tashkilotlar faoliyatini ham alohida ta'kidlash darkor.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar – bu, a'zo-davlatlar irodasi bilan belgilanadigan hajmda mustaqil irodaga va davlatlarning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadigan hosilaviy huquq va majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan organlarga ega bo'lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va boshqa sohalarda hamkorlikni amalga oshirish uchun xalqaro shartnoma asosida va xalqaro huquqqa muvofiq tuzilgan davlatlarning birlashmasidir.⁸⁴

Mazkur xalqaro institutsional tizimda Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'mi va rolini alohida ta'kidlash lozim. Xalqaro miqyosda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil topishi va uning Nizomining ta'sis etilishi insoniyat tarixida muhim siyosiy voqea bo'ldi. Inson huquqlari, shu jumladan, bola huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasida ushbu xalqaro tashkilotning asosiy maqsad va tamoyillaridan biri - bolaning barcha huquq va erkinliklarini ta'minlash, samarali amalga oshirish va ularga rioya qilish sohasidagi xalqaro hamkorlikdan iborat. Xalqaro tashkilotlar va davlatlar tomonidan bola huquqlari va erkinliklarini himoya

oli uchun qarang: Mo'minov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. –T.: JIDU, 2011; Raxmonov B. Maxmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. –T.: CHASHMA PRINT, 2011.; Hakimov R. Detstvo: Problemy i perspektivy: [1946-2006]. –T.: O'zbekiston, 2006.; Mo'minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. 2-nashr. –T.: Adolat, 2013.

⁸⁴ Международное публичное право. -М.: Проспект, 1999. – С. 250.

qilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, turli tadbirlar hamda ushbu tashkilot va davlatlarning bola huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati kabi muhim masalalar ushbu sohani mukammal o'rganishni va har tomonlama chuqur tahlil etishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, bola huquqlari bo'yicha mintaqaviy mexanizmlarni ham o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Chunki turli mintaqalarda bola huquqlarini himoya qilishni universal himoya qilishga nisbatan yaxshiroq amalga oshirish mumkin. Butun dunyo davlatlarining o'zaro tushunishiga ko'ra, biror mintaqadagi davlatlar bir-birini tezroq tushunadilar.

Ma'lumki, davlatlarning bola huquqlariga oid xalqaro hamkorligi turli shakllarda ifodalanadi: ya'ni davlatlar bolaning qanday huquq va erkinliklari hurmat qilinishi va amal qilinishi lozimligi bo'yicha yagona universal standartlar ishlab chiqadilar; davlatlar xalqaro kelishuvlar bo'yicha majburiyatlar olishida, o'zining milliy tartibini o'rnatishi doirasida ushbu standartlarga rioya qiladilar; davlatlar o'zlariga olgan majburiyatlariga rioya qilishlarini nazorat qilish bo'yicha maxsus nazorat mexanizmini tuzadilar.

Demak, bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro hamkorlik nafaqat davlatlar tomonidan, balki shu bilan birga, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xalqaro nohukumat tashkilotlar doirasida ham amalga oshiriladi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga Birlashgan Millatlar Tashkiloti, uning ixtisoslashgan tashkilotlari kabi universal tashkilotlarni hamda Yevropa Kengashi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, MDH kabi mintaqaviy xalqaro tashkilotlarni kiritishimiz mumkin. Bola huquqlariga oid xalqaro nohukumat tashkilotlariga Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi, Save children, SOS Kinderdorf kabi xalqaro nohukumat tashkilotlarni misol qilish mumkin.

Bolalarning huquq va erkinliklari amalga oshirishini nazorat qiluvchi muassasalar vazifasi, vakolati hamda ish yuritish shakliga qarab bir necha guruhga bo'linishi mumkin. Avvalo, ular xalqaro muassasalarga va har bir mamlakatda tashkil qilinadigan, ya'ni milliy muassasalarga bo'linadi.

Xalqaro tashkilotlarning faoliyati shunday tashkilotga a'zo bo'lgan hamma mamlakatlarga tatbiq etilsa, alohida mamlakatlarda tashkil qilinadigan muassasalarning faoliyati faqat shu mamlakat doirasida amalga oshiriladi. Inson huquqlari, shuningdek, bola huquqlari va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga rioya etilishini nazorat qiluvchi muassasalar tashkil etilishiga qarab, davlat muassasalariga hamda nodavlat muassasalariga bo'linadi. Davlat muassasalari davlat organlari tizimida tashkil qilinib, davlatning nazorat funksiyasini bajaradi va aksariyat hollarda majburiy qarorlar qabul qilsa, nodavlat muassasalari davlat organlari tizimiga kirmaydi hamda ularning qarorlari tavsiya etuvchi xarakterga ega bo'ladi. Demak, inson huquq va erkinliklari ayrim mamlakatlarda, davlat muassasalari va shu mamlakatda tashkil qilinadigan milliy davlat muassasalari tomonidagina emas, balki xalqaro tashkilotlar tomonidan ham nazorat qilinadi. Sababi, inson hamma yerda teng tug'iladi va u eng oliy qadriyat hisoblanadi. Har bir kishi millati, irqiga qarab biron-bir kamsitishga uchramasligi yoki boshqa kishilarga nisbatan hech qanday imtiyozga ega bo'lmasligi kerak. Shu asnoda, hamma yerda inson huquq va erkinliklari bir xilda bo'lishini ta'minlash maqsadida ularning amalga oshirishini nazorat qiluvchi xalqaro tashkilotlarning mavjud bo'lishiga zarurat tug'iladi.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar universal va mintaqaviy tashkilotlarga bo'linadi. Universal xalqaro tashkilotlarga BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari kiradi. Bu tashkilotlarning inson huquqlari sohasidagi faoliyati xususida fikr yuritadigan bo'lsak, ularning faoliyati katta ahamiyatga egadir.

BMT tizimidagi turli organlar xalqaro shartnomalarga rioya qilish yuzasidan nazoratni amalga oshiradi. Ular, odatda, ikki turga bo'linadi: ya'ni EKOSOS, Inson huquqlari bo'yicha kengash, Inson huquqlari bo'yicha Oliy bosh komissarlik, YUNISEF kabi uning Nizomidan kelib chiqib tuzilgan organlari hamda Bola huquqlari qo'mitasi kabi, davlatlarning o'z majburiyatlarini bajarishi yuzasidan taqdim qiladigan ma'ruzalarini hamda xususiy shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun tashkil etilgan nazorat yoki konvensiyaviy organlar.

Bunday konvensiyaviy organlar muayyan xalqaro shartnoma asosida tuziladi va mazkur shartnoma qoidalarining bajarilishini nazorat qilib boradi. Aynan tashkil qilish asoslaridan kelib chiqib, ular «shartnomaviy organlar», «implementatsiyaviy organlar», «konvensiyaviy organlar» kabi nomlar bilan ham yuritiladi⁸⁵.

Xalqaro tashkilotlarning o'zi xalqaro hukumatlararo va xalqaro nohukumat tashkilotlariga bo'linadi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarni ham, odatda, ularga a'zolik nuqtai nazaridan *universal, mintaqaviy, mintaqalararo* xalqaro tashkilotlarga bo'lish qabul qilingan.

Bola huquqlarini xalqaro ko'lamda himoya qilishning:

- universal xalqaro tashkilot sifatida, BMT va uning YUNISEF, kabi organlari hamda YUNESKO, Xalqaro mehnat tashkiloti, kabi ixtisoslashgan tashkilotlari doirasidagi universal;

- mintaqalararo tashkilot sifatida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti doirasidagi mintaqalararo;

- mintaqaviy tashkilot sifatida Yevropa Kengashi, Yevropa Ittifoqi, Amerika davlatlari tashkiloti, Afrika birligi tashkiloti singari xalqaro hukumatlararo tashkilotlar doirasidagi mintaqaviy mexanizmlari shakllangan.

Shuningdek, bola huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro nodavlat tashkilotlari tizimi ham shakllangan.

Umuman olganda, XXI asrda inson huquqlari rivojlanishi jarayonining o'ziga xos xususiyati sifatida bu jarayondagi xalqaro tashkilotlarning faol ishtirokini e'tirof etish kerak. Shuning uchun ham, bola huquqlarini xalqaro tashkilotlar huquqi bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Bola huquqlarini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlarning roli turlichadir. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar bola huquqlari sohasida norma ijodkorligi faoliyatini amalga oshirishlari orqali muayyan davlatlarda va mintaqalarda bola huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro shartnomalar loyihalarini yaratadilar va ularning qabul qilinishi bo'yicha tashabbuslar bilan chiqishlari mumkin. Ular, yana

⁸⁵Ismoilov B. O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlarini ta'minlashdagi xalqaro-huquqi majburiyatlarini bajarish amaliyoti //O'zbekiston va BMT: tajriba va hamkorlik istiqbollari. Konferensiya materiallari to'plami. 2006-yil 16-mart. -T.; TDYuI, 2006. -B.76

shuningdek, xalqaro shartnomalarga davlatlar tomonidan rioya qilinishi bo'yicha tegishli nazorat funksiyasini ham olib boradilar. Muayyan davlatlarga bola huquqlari sohasida moliyaviy va texnik yordamni amalga oshirishlari mumkin. Xalqaro nohukumat tashkilotlari esa, faoliyat turiga ko'ra, bola huquqlari sohalari bo'yicha xalqaro norma ijodkorligi jarayonida takliflar bilan chiqishi mumkin, Bola huquqlari qo'mitasi kabi xalqaro monitoring organlarida davlatlarning bola huquqlari bo'yicha ma'ruzalari yoki bola huquqlarini ham qamrab olgan inson huquqlari bo'yicha milliy ma'ruzalar ko'rilayotgan paytda o'z hisobotlari bilan ishtirok etishi va muayyan davlatlarga bu sohada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bola huquqlari masalalari va erkinlikarini himoya qilish va rag'batlantirish masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar to'g'risida qisqacha xulosa qilib aytganda, bugungi kunda jahonda bola huquqlari bo'yicha xalqaro institutsional mexanizm shakllandi.

2. Bola huquqlari bilan shug'ullanuvchi xalqaro universal xalqaro tashkilotlar

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalqaro universal tashkilot sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining bola huquqlarini himoya qilishda tutgan o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

BMT tizimi juda ham murakkab bo'lgan xalqaro tashkilotlar, jamg'armalar, organlar, qo'mitalar, komissiyalar va boshqa tuzilmalardan iborat bo'lib, ularning orasida bola huquqlari bilan shug'ullanuvchi organlar tizimi shakllangan. Bu tizimga avvalombor, BMT Bosh Assambleyasi, EKOSOS kabi uning asosiy organlari, YUNISEF kabi maxsus jamg'armasi, Bola huquqlari qo'mitasi kabi shartnomaviy organlari hamda YUNESKO, XMT kabi ixtisoslashgan tashkilotlari kiradi.



Birlashgan Millatlar Tashkiloti – umumiy faoliyatni amalga oshiruvchi, jahondagi barcha davlatlarni birlashtiradigan universal xalqaro tashkilot.

BMTning asosiy organlari ham, yordamchi organlari ham u yoki bu darajada inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlarini himoya etishga taalluqli masalalar bilan ham shugʻullanadilar.

Shuni taʼkidlash kerakki, BMT Nizomining 13-moddasiga binoan, Bosh Assambleyaning vazifasi asosan oʻrganish va tadqiq etish ishlarini uyushtirish hamda tavsiyalar berishdan iborat. Bola huquqlari muammolarini oʻrganish hamda tadqiq etish ishlarini, odatda, Bosh Assambleyaning topshirigʻiga binoan Iqtisodiy va ijtimoiy kengash hamda uning yordamchi organlari, ixtisoslashtirilgan muassasalar va BMT Bosh kotibi bajaradi.

Bosh Assambleya inson huquqlari sohasidagi oʻz vazifalarini bajarish uchun, BMT Nizomining 22-moddasiga binoan, zaruratga qarab turli yordamchi organlarni taʼsis etish vakolatiga ega.

Bosh Assambleyaning ijtimoiy va gumanitar masalalar hamda madaniyat masalalari mutasaddisi boʻlgan *Uchinchi qoʻmitasi* va boshqa baʼzi qoʻmitalar ham bola huquqlari muammolari bilan shugʻullanib kelmoqdalar. Ular tomonidan qabul qilingan qarorlar Bosh Assambleyaning yalpi majlislarida muhokama etilishi va tasdiqlanishi lozim.

Misol uchun, 2002-yilning 8-10-may kunlari Bosh Assambleyaning bolalarga bagʻishlangan Maxsus sessiyasi oʻtkazilib, unda bolalarning dolzarb muammolari muhokama qilindi. Unda 7000dan ortiq ishtirokchi shtirok etdi⁸⁶.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, BMTning bola huquqlari sohasidagi vazifalari bajarilishi uchun Bosh Assambleya bilan bir qatorda Iqtisodiy va ijtimoiy kengash ham javobgardir. Insonning huquqlari va erkinliklari bilan bogʻliq masalalar, shu jumladan, bola huquqlari bilan ham bogʻliq masalalar, odatda, BMT Bosh Assambleyasining kun tartibiga aynan Iqtisodiy va ijtimoiy kengash maʼruzalarining tegishli boʻlimlari hamda Bosh Assambleyaning avvalgi sessiyalarida qabul qilingan qarorlar asosida kiritiladi. Bunday masalalar BMTning

⁸⁶ World leaders "Say Yes" for children. <http://www.unicef.org/specialsession/>

boshqa organlari, shuningdek, mazkur Tashkilotga a'zo-davlatlar va BMT Bosh kotibi tomonidan ham tavsiya etilishi mumkin⁸⁷.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash o'z faoliyatini sessiyalar davrida ishlaydigan qo'mitalar - Iqtisodiy, Ijtimoiy va Muvofiqlashtiruvchi qo'mitalar yordamida olib boradi. Inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari masalalari bo'yicha hujjatlarni Ijtimoiy qo'mita tayyorlaydi. Ijtimoiy qo'mitaning ma'ruzalari Iqtisodiy va ijtimoiy kengashning yalpi majlislarida tasdiqlanadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash, bundan tashqari, o'z faoliyatining talaygina qismini inson huquqlari bilan bog'liq masalalarga bag'ishlaydigan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan, xususan, Xalqaro mehnat tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) va boshqalar bilan BMT nomidan bitimlar tuzadi. Iqtisodiy va Ijtimoiy kengash maslahatlashuvlar o'tkazish va tavsiyanomalar ishlab chiqish yo'li bilan bu boradagi ishlarni umumiy tarzda muvofiqlashtirib boradi.

Inson huquqlari bo'yicha komissiya inson huquqlari sohasini o'rganish va tadqiq etish ishlarini o'tkazib, bu sohadagi ishlarni yanda yaxshilash va inson huquqlari va erkinliklarini yanada samaraliroq ta'minlash va himoya qilishga qaratilgan tavsiyalar bergan, axborotlar tarqatgan bo'lsa, 2006-yildan uning o'rniga tashkil etilgan *Inson huquqlari bo'yicha kengashga* yanada kengroq vakolatlar berildi. Qayd etish kerakki, Inson huquqlari bo'yicha komissiya Iqtisodiy va ijtimoiy kengash doirasida tashkil etilib, uning topshiriqlarini bajarib kelgan bo'lsa, Inson huquqlari kengashi esa, Bosh Assambleyaning yordamchi organiga aylantirildi.

Kengash biror-bir farqlarsiz va adolatli hamda tenglik asosida barcha uchun barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarini, shu jumladan,, bola huquqlarini ham umumhurmat qilish va himoya qilishga ko'maklashish masalalariga javob berishga yo'naltirilgan va inson huquqlarining buzilishi bilan bog'liq holatlarni ko'rib chiqishi va ular bo'yicha o'zining tavsiyalarini ishlab chiqishi kerak.

⁸⁷ Saidov A. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. - T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. -B.149

Kengash Jeneva shahrida joylashgan bo‘lib, yil davomida doimiy ravishda majlislarga yig‘iladi hamda asosiy sessiyani qo‘shgan holda bir yilda 3 marotaba sessiya o‘tkazadi. Ushbu sessiyalarning umumiy davomiyligi kamida to‘qqiz haftani tashkil etadi, Komissiya esa bir yilda olti hafta majlis o‘tkazgan edi, xolos. Kengash, shuningdek, Kengash a‘zolarining uchdan bir qismining qo‘llab-quvvatlashi asosida Kengash a‘zolaridan birining talabi bo‘yicha maxsus sessiyalar o‘tkazishga ham haqlidir.

Kengash o‘z faoliyatini bir necha yo‘nalishda amalga oshiradi:

- universal davriy ko‘rib chiqish prosedurasini;
- maxsus proseduralar;
- shikoyatlar bo‘yicha proseduralar.

Maxsus proseduralar, ekspert maslahatlari va shikoyatlarni berish tartib-qoidalari bilan bog‘liq ishlarni takomillashtirish maqsadlarida 2007-yil 18-iyunda Kengashning “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashining institutsional qurilishi” nomli 5/1 sonli rezolyutsiyasi qabul qilindi⁸⁸. Unda, jumladan, *Universal davriy tahlil* prosedurasini o‘tkazishning asoslari, tamoyillari va maqsadlari, jarayoni va tartiblari tasdiqlangan. Ko‘rib chiqishning maqsadlari quyidagilar hisoblanadi: joylarda inson huquqlari sohasidagi ahvolni yaxshilash; inson huquqlari sohasida davlatlarning o‘z vazifalari va majburiyatlarini bajarishlari hamda ijobiy o‘zgarishlar va davlat oldida turgan muammolarni baholash; tegishli davlat bilan, uning roziligi asosida, davlat imkoniyatlarini mustahkamlash va maslahatlashuv uchun texnikaviy ko‘makni amalga oshirish; davlatlar va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasida yaxshiroq bo‘lgan tajribalarni almashish; inson huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilish sohasida hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash; Kengashning inson huquqlari bilan shug‘ullanuvchi boshqa organlar va Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissar boshqarmasi bilan har tomonlama o‘zaro hamkorligini rag‘batlantirish⁸⁹.

⁸⁸ Резолюция Совета по правам человека 5/1 от 18-июня 2007 года. // Док. ООН. А/ЩРС/5/21, глава ИИИ пункты 60-62.

⁸⁹ Mo‘minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. –T.: JIDU, 2010. –B.150

Universal davriy ko‘rib chiqish prosedurasi – bu yangi prosedura va tasdiqlangan jadvalga muvofiq, BMTning barcha 192 a‘zo-davlatlari 2008-yildan boshlab har 4-5-yil ichida undan o‘tishi mo‘ljallangan. O‘zbekiston Respublikasi o‘z ma‘ruzasini taqdim etgan va u 2008-yil-dekabr oyida Inson huquqlari kengashining III sessiyasida Universal davriy tahlil prosedurasi asosida ko‘rib chiqildi.⁹⁰

Undan tashqari, Kengashning mazkur rezolyutsiyasiga muvofiq, uning *maxsus proseduralari (tartibotlari)* isloh qilindi, xususan, tematik bo‘ladimi yoki mamlakatlar bo‘yicha bo‘ladimi, muayyan mansabga bo‘lgan mandat vakolati olti yildan oshib ketmaydigan (ikki marotaba uch yillik muddat tematik mandatga ega bo‘lganlar uchun) qilib belgilab qo‘yildi. Tematik mandatga ega bo‘lgan (mandatariy)lar muddati – uch yil, mamlakatlar bo‘yicha mandatga ega bo‘lganlar uchun esa – bir yil. Kengash o‘zining 5/2-sonli rezolyutsiyasi bilan, axloqiy va malakaviy yurish-turish standartlarini belgilab olish yo‘li bilan maxsus proseduralar tizimining samaradorligini oshirish maqsadida, Inson huquqlari bo‘yicha kengashning maxsus proseduralari mandatiga ega bo‘lganlarning Xulq-atvor kodeksini qabul qildi. Hozirgi paytda 29 mavzuga oid va 10 ta mamlakat bo‘yicha mandatlar mavjud. Mandatlar orasida Bolalar savdosi, fohibozligi va pornografiyasi bo‘yicha Maxsus ma‘ruzachi mandati ham mavjud.

1990-yil BMTning Inson huquqlari bo‘yicha komissiyasi 1990/68 rezolyutsiyasini qabul qilib, unga ko‘ra Bolalar savdosi, fohibozligi va pornografiyasi bo‘yicha Maxsus ma‘ruzachini tayinlash bo‘yicha qaror qabul qildi. Maxsus ma‘ruzachining mandatiga jahondagi bolalarni ekspluatatsiya qilinishining tekshirish va natijalari bo‘yicha BMT Bosh Assambleyasi va Inson huquqlari komissiyasiga (hozirgi kunda Inson huquqlari bo‘yicha kengash) ga ma‘ruza taqdim etish va bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan tavsiyalar berish

⁹⁰ Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.Saidov, F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. –T.: “O‘zbekiston”, 2010. -B.253

kiradi. Bu tavsiyalar hukumatlarga, BMT organlariga va nohukumat tashkilotlarga ham qaratiladi.

Inson huquqlari kengashi 16/12 rezolyutsiyasiga muvofiq, 2011-yil-mart oyidan boshlab Maxsus ma'ruzachi 3-yilga qayta tayinlanadi. Inson huquqlari kengashining 7/13 rezolyutsiyasiga ko'ra Maxsus ma'uzachi quyidagi masalalar yuzasidan davlatlarga tashrif buyurish va hukumatlar bilan aloqalar olib borishga mandat oldi:

- Bolalar savdosi, fohishabozligi va pornografiyasini tahlil qilish;
- Bolalar savdosi, fohishabozligi va pornografiyasini ng yangi namunalarini aniqlashlash;
- Bolalar savdosi, fohishabozligi va pornografiyasiga qarshi kurashni eng zo'r amaliyotini ishlab chiqish, o'zgartirish va umumiyashtirish;
- Bolalar savdosi, fohishabozligi va pornografiyasiga qarshi kurashda samarali foyda beruvchi strategiyalarni ishlab chiqishni davom ettirish;
- Seksual ekspluatatsiyadan jabrdiyda ko'rgan bolalarni reabilitatsiya qilishni ularning odam savdosi, fohishabozlik va pornografiyasining potensial jabrdiydalari sifatida, ularning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashga oid tavsiyalar berish.⁹¹

BMT qarorlarini hamda uning inson huquqlari sohasidagi organlari vazifalarini amalga oshirishda BMT Kotibiyatining muayyan o'rnini bor. BMT Kotibiyati tarkibida inson huquqlari bo'limi tashkil etilgan va u BMTning asosiy hamda yordamchi organlariga zarur hujjatlarni taqdim etish yo'li bilan xizmat ko'rsatib kelmoqda. Mazkur bo'linma zimmasidagi vazifalar jumlasiga inson huquqlari bo'yicha nashrlarni tayyorlash va boshqa qator masalalar ham kiradi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Bosh Assambleyaning 1955-yil 14-dekabrda qabul qilingan rezolyutsiyasiga muvofiq, Bosh kotib hukumatlarning iltimosiga javoban inson huquqlarini himoya etish borasida quyidagi shaklda yordam ko'rsatish vakolatiga ega:

⁹¹ Special Rapporteur on the sale of children, child prostitution and child pornography. <http://www.ohchr.org/EN/Issues/Children/Pages/ChildrenIndex.aspx>

- a) ekspertlar ko‘magida maslahat yo‘nalishidagi xizmatlar ko‘rsatish;
- b) seminarlar o‘tkazish;
- v) inson huquqlariga taalluqli masalalar bo‘yicha ixtisoslashishni rag‘batlantiruvchi stipendiyalar berish.

Vena deklaratsiyasiga asosan, BMTning Bosh Assambleyasi 1993-yilda Insonning barcha huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish bo‘yicha Oliy komissar lavozimini ta‘sis etish to‘g‘risida rezolyutsiya qabul qildi. Ana shu rezolyutsiyaga muvofiq, Oliy komissar BMT Bosh kotibi tomonidan tayinlanadi va uning o‘rinbosari hisoblanadi. Oliy komissar bevosita Bosh kotibga bo‘ysunadi, lekin o‘z faoliyati haqida Inson huquqlari bo‘yicha kengash oldida, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash orqali esa - Bosh Assambleya oldida hisobot berib borishi kerak².

BMTning bola huquqlari bo‘yicha tizimida inson huquqlari bo‘yicha BMTning shartnomaviy organi sifatida Bola huquqlari qo‘mita muhim ahamiyat kasb etadi. *Mazkur organning huquqiy maqomi va faoliyati to‘g‘risida keyingi bobda batafsil ma‘lumot keltiriladi.*

BMTning bola huquqlari masalalari bilan shug‘ullanuvchi yana bir organi sifatida ***BMTning Taraqqiyot dasturi (BMTTD)***ni ko‘rsatish mumkin. BMTTD Bosh Assambleyasining 1965-yil 22-noyabrdagi rezolyutsiyasiga asosan BMTning Kengaytirilgan texnikaviy yordam dasturi va Maxsus jamg‘armasini birlashtirish natijasida tashkil topgan. Dasturning asosiy maqsadi – rivojlanayotgan mamlakatlarga milliy rivojlanish borasida yordam ko‘rsatish. BMTTDning asosiy vazifalaridan biri – samarali boshqaruvni ta‘minlashga ko‘maklashish. BMT tomonidan qabul qilingan Mingyillik deklaratsiyasida ta‘kidlanishicha, samarali boshqaruv inson taraqqiyotiga erishishda, turmush darajasini yuksaltirishda, gender tenglik va tinchlikni saqlab qolishda asosiy omildir.

BMTTD inson huquqlariga oid milliy qonunchilik va xalqaro standartlar sohasida bilimlarni oshirish, gender tengligi, shuningdek, aholiga ayniqsa, uning

² Qarang: Верховный комиссар по поощрению и защите всех прав человека //Права человека. Учебник-хрестоматия /под ред. А. Саидова. – Т.: УМЭД, 2001. - С. 265.

ijtimoiy nochor qatlamlariga ko'rsatilayotgan huquqiy xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida yuristlar salohiyatini oshirish ustida faol ish olib bormoqda⁹².

BMTning organlari xususida xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda BMT doirasida, inson huquqlari, shuningdek, bola huquqlari bo'yicha murakkab institutsional tizim shakllangan.



YUNESKO - Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan tashkiloti


YUNESKO o'z faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanmish ta'lim sohasida savodsizlikka qarshi kurash dasturlarini izchil amalga oshirib kelmoqda. Majburiy yalpi boshlang'ich ta'lim tamoyilini amalga oshirish bu dasturlardagi muhim bo'g'in bo'lib, mazkur tamoyilning ro'yobga chiqarilishi savodsizlikning asosiy sabablarini bartaraf etishga yordam berishi tabiiy. YUNESKOning vakolat doirasiga o'qituvchilarni hamda ta'limni rejalashtirish va rivojlantirish uchun mutasaddi bo'ladigan shaxslarni tayyorlash masalalari ham kiradi. Buning zahirida joylarda maktablar qurilishini rag'batlantirish hamda ularni tegishli ashyo va asbob-uskunalar bilan ta'minlash maqsadi yotganligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Hozirgi kunga qadar YUNESKO tomonidan 70ga yaqin xalqaro shartnomalar qabul qilingan bo'lib, ularning aksariyati inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari bilan bevosita yoki bilvosita bog'liqdir. Jumladan, 1960-yilda qabul qilingan "Ta'lim sohasida kamsitishlarga barrham berish to'g'risida"gi konvensiya YUNESKOning asosiy hujjatlaridan biri hisoblanadi.

BMT Bosh Assambleyasi 2010-yilni Madaniyatlarni yaqinlashtirish yili deb e'lon qildi va YUNESKOni "mamlakatlar va xalqlar o'rtasida o'zaro bilimlar almashish vva o'zaro tushunish"ni rag'batlantirish bo'yicha 60-yillik tajribasiga tayangan holda "Xalqaro yilni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda muhim rol o'ynashga" chaqirdi. YUNESKO mandati bo'yicha bu Xalqaro yil bir vaqtning

⁹² Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.Saidov, F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -T.: "O'zbekiston", 2010. -B.270

o'zida Tinchlik madaniyati va planetada bolalar manfaatlarida zo'ravonliklarni bartaraf etish bo'yicha xalqaro o'n yillik (2001-2010-yillar)ning cho'qqisi va yangi strategiyaning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.



Xalqaro mehnat tashkiloti Millatlar ligasi bilan bir paytda Versal shartnomasi asosida 1919-yilda tashkil topgan. Xalqaro mehnat tashkiloti Birinchi jahon urushidan keyin ijtimoiy sohadagi islohotlarni jadallashtirish va ularni xalqaro darajada muvofiqlashtirish maqsadida ta'sis etilgan. Xalqaro mehnat tashkilotining birinchi yig'ilishi 1919-yilning-oktabr-noyabr oylarida Voshington shahrida bo'lib o'tdi. Unda Xalqaro mehnat tashkilotining oltita konvensiyasi va oltita tavsiyasi (Ish kunining davom ettirilishi to'g'risidagi 1-konvensiya bilan birga) qabul qilingan.

XMTning norma ijodkorlik faoliyati asosan konvensiya va tavsiyalarni qabul qilishda namoyon bo'ladi. Xalqaro mehnat byurosi turli davlatlardagi qonunchilik va uning amaliyotdagi ijrosi to'g'risidagi umumlashtirilgan axborotni o'z ichiga oluvchi ma'ruzalar tayyorlaydi hamda ularning muhokamasi natijasida konvensiya va tavsiyalar qabul qiladi. Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiya va tavsiyalari, o'z navbatida, a'zo-davlatlarga mo'ljallangan, ya'ni ular XMTning milliy qonunchilikka tegishli normalarini kiritish lozimligi to'g'risidagi xohishni aks ettiradi.

XMT mehnat sohasida bolalar huquqlarini himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Uning bola huquqlari sohasidagi faoliyati ishga qabul qilishning eng kichik yoshini belgilash va undan kichik yoshdagi shaxslar mehnatini taqiqlash, bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va ularni tugatish, bolalar va o'smirlarni sanoatda va sanoatda bo'lmagan korxonalarda ishlashlarini tartibga solish, ularni tungi mehnatini va sanoatdagi sanoat bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni cheklashlar kabi masalalarga oid xalqaro standartlarni

ishlab chiqish va davlatlar tomonidan ularga rioya etilishi ustidan nazoratni olib borish bilan shug'ullanadi.

3. YUNISEF – bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan BMTning maxsus organi sifatida



BMTning Bolalar fondi (YUNISEF). Ikkinchi jahon urushidan keyingi Yevropada va Xitoyda bolalarning oziq-ovqat, dori-darmon va kiyim-kechakka bo'lgan kundalik zarur ehtiyojlarini to'laroq qondirish maqsadida 1946-yil 11-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining birinchi

sessiyasida 57 (I) rezolyutsiyasi bilan “Bolalarga yordam ko'rsatish bo'yicha xalqaro favqulodda jamg'arma (YUNISEF)” (United Nations International Children's Emergency Fund - UNICEF) ta'sis etilgan edi.

1950-yilda BMT Bosh Assambleyasi mazkur Fond faoliyatining asosiy yo'nalishi rivojlanayotgan mamlakatlar bolalarining manfaatlari ko'zlangan dasturni amalga oshirishdan iborat deya qaror qabul qildi. Uch yildan keyin BMT Bosh Assambleyasi YUNISEFning faoliyatini nomuayyan muddatga uzaytirishga qaror qilgan⁹³.

Butun dunyodagi bolalarning hayotini saqlashdagi yordami uchun YUNISEF 1965-yili Nobel mukofotining sohibi bo'ldi⁹⁴.

YUNISEF insonparvarlik, muruvvat yordami ko'rsatgan holda rivojlanishga hamkorlik qilar ekan, bolalarni himoya etish va ularning barcha qobiliyatlarini o'stirish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik doirasini kengaytirishga harakat qilib kelmoqda. Bunday hamkorlik bolalarni kamol toptirish sohasidagi milliy dasturlar doirasida amalga oshirilmoqda. Ana shu hamkorlik mohiyatan jahondagi har bir bolaga uning Bola huquqlari to'g'risidagi

⁹³Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Hakimov R. Детство: Проблемы и перспективы: [1946-2006]. –Т.: O'zbekiston, 2006.-С.10

⁹⁴ Hakimov R. Detstvo: Детство: Проблемы и перспективы: [1946-2006]. –Т.: O'zbekiston, 2006. -S. 13

konvensiyada e'lon qilingan tayanch huquqlari hamda imtiyozlari imkon qadar ro'yobga chiqarilishini ta'minlashga qaratilgan. Markaziy va Sharqiy Yevropada, shuningdek sobiq Sovet Ittifoqi hududida bolalarning eng zarur talab-ehtiyojlarini qondirish maqsadida YUNISEF ba'zi davlatlarga yaqindan yordam ko'rsatib kelmoqda. YUNISEF bola huquqlarini rag'batlantirish masalalari bilan shug'ullanuvchi Bola huquqlari qo'mitasi bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'ygan bo'lib, ayni bir vaqtda Konvensiyaning amalga oshirilishini kuzatish hamda Konvensiyaning ratifikatsiya qilgan yoki bu hujjatga qo'shilgan davlatlarga zimmalaridagi vazifalarini bajarishlarida har tomonlama yordam ko'rsatish bilan shug'ullanmoqda.

YUNISEF o'z faoliyatida Bolalarning omon qolishini ta'minlash, ularni himoya etish va kamol toptirish to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasini amalga oshirishga qaratilgan harakatlar rejasiga amal qiladi. Mazkur Deklaratsiya bolalar manfaatlarini ko'zlab 1990-yilning-sentabrida Nyu-Yorkda 150 dan ortiq davlatlar va hukumatlarning rahbarlari hamda oliy-martabali boshqa shaxslar ishtirokida o'tkazilgan Oliy darajadagi umumjahon uchrashuvida qabul qilingan. Mazkur Uchrashuvda uning ishtirokchilari o'z mamlakatlarida yoshlar resurslarga nisbatan "ko'proq huquqlarini" e'tirof etdi.

Jahon mamlakatlarining hukumatlari yuqori darajadagi uchrashuv maqsadlarini o'zlarining siyosiy kursi va rejalariga kiritdilar va shu yo'l bilan o'z sa'y-harakatlari maqsadli yo'naltirish bilan bolalarning farovonligini yanada yaxshilash bo'yicha kafolatlashlarini bildirdilar⁹⁵.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya - YUNISEFning bolalar huquqlari hamda ularning xavfsizligi, salomatligi va ta'lim masalalarini ilgari surishdagi faoliyatida dasturamal vazifasini bajaradi.

YUNISEF, shuningdek, turli davlat tashkilotlari va siyosatchilarini hamkorlikka chaqiradi; bolalar hayoti va sog'lig'i himoyasiga, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishiga yo'naltirilgan tadbirlar o'tkazadi va ularni o'tkazishni qo'llab-quvvatlaydi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, YUNISEF BMT byudjeti

⁹⁵ Hakimov R. Detstvo: Детство: Проблемы и перспективы: [1946-2006]. –Т.: O'zbekiston, 2006. -S. 13

tomonidan hech qanday ta'minlanmaydi, uning moliyaviy jihati to'lig'icha xayr-ehsonlar hisobidan amalga oshiriladi. BMT bolalar fondi individual, korporativ va hukumat donorlarini qabul qiladi. Butun dunyo miqyosida yig'iladigan mablag'larini umumiyashtirib, YUNISEF ularni bolalarga yordam berishga, ularni eng zarur narsalar bilan ta'minlashga, bolalar va ularning oilalari uchun normal hayot tarzi yaratishga ko'maklashuvchi dasturlar uchun sarflaydi. YUNISEF xalqaro hukumatlararo tashkilot bo'lib, dunyoning 150dan ortiq davlatlaridagi bolalarga berib kelmoqda. Bugungi kunda ko'plab davlatlarda YUNISEF o'z vakolatxonalarini ochgan va samarali faoliyat olib bormoqda. O'z faoliyati davomida tashkilot davlatlarning parlamenti, vazirliklari, tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutining vakillari va boshqa mahalliy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik olib boradi⁹⁶.

YUNISEF bilan hamkorlik doirasida, 2002-yil-may oyida bo'lib o'tgan BMTning Bolalar masalalari bo'yicha maxsus sessiyasida bolalarning dunyoqarashlari ifoda etildi. Unda 7000 ishtirokchidan 600 nafarini bolalar tashkil etgan bo'lib, bolalar forumini ifoda etish imkoniyatini berdi. Shuningdek, 189 davlat "Bolalar uchun maqbul dunyo" deklaratsiyasini imzolagan. Ushbu hujjatga asosan, davlatlar bolalarning farovonligini yaxshilash bo'yicha faoliyatning milliy dasturlarini qabul qilishgan. Faoliyat o'z ichiga onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, ta'lim, bola himoyasi, ijtimoiy siyosat kabi sohalarni qamrab oladi.

YUNISEFning hozirgi paytdagi vaifalari va mandati quyidagi hujjatlarga asoslanadi:

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1989 y);

YUNISEFning dasturiy bayonoti (1996);

BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik maqsadlari deklaratsiyasi (2000);

"Bolalar uchun maqbul dunyo" deklaratsiyasi va Harakat reejasi (2002-yildagi BMT Bosh Assambleyasining bolalar holati bo'yicha maxsus sessiyasi).

⁹⁶ Raxmonov B., Mahmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. –T.: "CHASHMA PRINT", 2011. -B.85-86

YUNISEF asosan hayot tarzi yaxshi bo'lmagan, ancha og'ir sharoitlarga tushib qolgan rivojlanayotgan davlatlardagi bolalarga, sog'lig'i tufayli imkoniyatlari cheklangan bolalarga, harbiy harakatlar yoki tabiiy ofatlar, ochlik, Shafqatsizlik, ekspluatatsiya qurbonlariga katta e'tibor qaratadi. BMT hamkorlari hamda gumanitar tashkilotlar bilan hamkorlik YUNISEFga ayni vaqtda himoyaga juda muhtoj bo'lgan bolalarga tez va maqsadga yo'naltirilgan holda yordam berishga keng imkon yaratadi. O'zining ko'ngilli hamkorlari, donorlari va elchilari bilan birgalikda YUNISEF BMT Ustavida ko'rsatib o'tilgan teng huquqli va adolatli jahon hamjamiyatining qadriyatlarini va yutuqlarini yo'lida faoliyat olib bormoqda.

Bolalar jamg'armasining rahbar organi EKOSOS tomonidan BMT, ixtisoslashgan muassasalar hamda MAGATE a'zo-davlatlaridan saylanuvchi 41 davlat vakillaridan tashkil etilgan YUNISEF Boshqaruvi hisoblanadi. Boshqaruv o'zining yillik sessiyalarini o'tkazadi.

YUNISEF Kotibiyati (doimiy faoliyat yurituvchi organ)ni BMT Bosh kotibi Boshqaruv bilan maslahatlashib tayinlanuvchi direktor-ijrochi boshqaradi.

YUNISEF tomonidan davlatlarga yordam hukumatlarning iltimosiga ko'ra YUNISEF Boshqaruvi tomonidan qisqa muddatli va uzoq muddatli dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi. Odatda YUNISEFdan kelib tushadigan mablag'larning uchdan ikki qismi bolalarning sog'lig'ini saqlash, oziq ovqati hamda ta'limiga yo'naltiriladi. Taxminan uchdan bir qismi esa, mamlakatlarda dasturlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mahalliy xodimlarni malakali tayyorlash sohasiga yordam ko'rsatishga ajratiladi.

YUNISEF har yili EKOSOSga hisobot taqdim etadi.

YUNISEF mablag'larining manbasi hukumatlar va xususiy shaxslarning ko'ngilli badallari hisoblanadi⁹⁷.

YUNISEFning shtab-kvartirasi Nyu-York shahrida (AQSh) joylashgan. Undan tashqari, YUNISEFning Karib dengiz davlatlari va Lotin Amerikasi davlatlari uchun hududiy bo'limi (Panama); Avstraliya va Yangi Zelandiya uchun

⁹⁷ Hakimov R. Detstvo: Детство: Проблемы и перспективы: [1946-2006]. –Т.: O'zbekiston, 2006. -S. 11-12

hududiy bo‘limi; G‘arbiy yevropa davlatlari uchun hududiy bo‘limi; Markaziy, Sharqiy Yevropa hamda MDH davlatlari uchun hududiy bo‘limi (Jeneva); Sharqiy Osiyo va Tinch okeani davlatlari uchun hududiy bo‘limi (Bangkok, Tailand); Sharqiy va Janubiy Afrika davlatlari uchun hududiy bo‘limi (Nayrobi, Keniya); Yaponiya va Koreya Respublikasi uchun hududiy bo‘limi; O‘rta Sharq va Shimoliy Afrika davlatlari uchun hududiy bo‘limi; G‘arbiy va Markaziy Afrika davlatlari uchun hududiy bo‘limi (Abidjan, Kot-D-Ivuar); Janubiy Osiyo davlatlari uchun hududiy bo‘limi (Katmandu, Nepal) kabi hududiy bo‘limlari mavjud.

YUNISEF rivojlanayotgan mamlakatlar bilan quyidagilar bo‘yicha hamkorlik qiladi:

- bolalarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xizmatlarni rejalashtirish va taqdim etishga, manfaatdor mamlakatlar bilan maslahatlashuvlarga ko‘maklashish va davlatlar o‘rtasida tajriba almashishga yordam beradi;

- sog‘liqni saqlash va sanitar xizmati xodimlari, o‘qituvchilar, diyetologlar va bolalarni ijtimoiy ta‘minlash sohasidagi mutaxassislarni qo‘shgan holda milliy xodimlarni tayyorlash va ularni yo‘naltirish jarayonini faollashtirish uchun mablag‘larni taqdim etish;

- darsliklar uchun qog‘ozdan tortib jihozlargacha, klinikalar uchun dorilardan tortib qishloqlarni toza suv bilan ta‘miishlovchi truboprovodlar va nasoslargacha – texnik vositalar, jihozlar va boshqa ta‘minot vositalarini taqdim etish⁹⁸.

BMT Bosh Assambleyasining 1976-yildagi 31-sessiyada 31/169 rezolyutsiyasi bilan Bola huquqlari deklaratsiyasi qabul qilinganligining 20-yilligiga bag‘ishlab 1979-yilni Xalqaro bolalar yili deb e‘lon qildi va YUNISEFni mazkur yil doirasida BMT tizimidagi muassasalar faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi bosh muassasa deb tayinlandi.

YUNISEFning muassasalararo tuzilma sifatida:

- a) bolalarni himoya qilish manfaatida natijalarga erishish uchun mamlakatlar darajasida hamkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi;

⁹⁸ Hakimov R. Детство: Проблемы и перспективы: [1946-2006]. –Т.: O‘zbekiston, 2006. -S. 12

b) favqulodda holatlar, mojarolardan keyingi tiklanish va tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf etish davridagi barcha vaziyatlarda, shuningdek, umumbashariy targ'ibot faoliyati doirasida bola huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va qo'llab-quvvatlaydi;

v) ayniqsa, bola huquqlarini qo'pol buzilishi hollarida bolalar nomidan ish ko'radi;

g) o'z faoliyatida mamlakatlar bo'yicha yondashuvdan foydalanadi, ya'ni:

1) boshqaradigan va muvofiqlashtiradigan milliy hokimiyatda maxsus organ butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan;

2) milliy ustuvorliklar va rejalarni, shuningdek, bolalarni kundalik haqiqiy hayotini asos qilib oladigan;

3) maqsadga yo'naltirilgan bola huquqlarini amalga oshirish uchun mahalliy va milliy institutlarning imkoniyatlarini mustahkamlash;

4) siyosat, asosiy xizmatlar, asosiy keng iste'mol maxsuslotlari, bolalarni himoya qilish va vasiylik qilish, kabi omillar samarali sinergik ta'sir ko'rsatishga yordam beradigan;

5) bolalarga nisbatan huquq va majburiyatlarga ega va ular uchun bosh ma'suliyat zimmasidagi shaxslar sifatida ota-onalar va vasiylar imkonitini kengaytirishga harakat qiladigan, jamiyatning asosiy bo'lagi va bolalarning o'sishi, farovonligi va baxti uchun tabiiy muhit sifatida oila rolini targ'ibot qiladigan, ota-onalar qaramog'isiz qolgan bolalar hayoti sharoitlariga alohida e'tibor qaratadigan;

6) hamkorlik va birgalikda ishlash dasturlari yordamida jamiyatning teng huquqli a'zolari sifatida ayollar huquqlarini targ'ib qilishga harakat qiladigan va ularni jamoalarining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida to'la qonli ishtirokini rag'batlantiradigan, ayollarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish ayniqsa, qizlar va bolalar huquqlarini amalga oshirish, shuningdek sog'lom oilalar, jamoalar va jamiyatlarni shakllantirish uchun muhim ish deb biladigan;

7) favqulodda holatlarda bolalar, ayollar va oilalarning kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlarini qoniqtirish bo'yicha o'z majburiyatlarini barcha

dasturlar va operatsiyalardahisobga oladigan, gumanitar yordamni ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar zarur bo'ladigan favqulodda holatlarda hamkorlikning xodimlar va barcha dasturlari moslashib harakat qilishi uchun institutsional potensialni saqlab qoladigan va kuchaytiradigan;

8) gumanita inqiroz natijasida mamlakat ichkarisida ko'chirilgan bolalar va oilalar uchun sog'liqni saqlash, sanitariya, oziq-ovqat, ijtimoiy himoya va ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni kengaytirishga yordam beradigan va ko'chirilgan shaxslarni o'z uylariga joylashtirishi mumkin bo'lgan jamoalarni qo'llab-quvvatlaydigan;

9) turli jamoatchilik instansiyalarida bolalar va yoshlarning ahvoriga taalluqli qarorlar qabul qilinishi jarayonlarida ularning ongli va to'la qonli ishtirokiga yordam beruvchi tegishli milliy strategiyalar va rejalarda bolalarning manfaatlarini aks etuvchi choralarni hamkorlari bilan qabul qiladigan;

10) barcha darajalarda ishlaydigan va mavju haqiqiy, zamonaviy bilimlar, amaliyot va baholash va xalqaro tajriba natijalari bo'yicha qilingan xulosalar asosida o'z ish faoliyatini quradigan;

11) hamkorlar bilan hamkorlik olib borib, bolaga bola o'sishining ona qornidagi davrida, kichik yosh davrida, maktabgacha, maktab yoshida va o'smir davrida qo'llab-quvvatlaydigan, bolalar uchun muayyan darajada mas'ul bo'lgan ota-onalarga, o'qituvchilarga, sotsial muassasalarga, siyosatchilarga va boshqa tomonlarga, ularning bolalarning yoshini hisobga olgan holda, bu bolalarni qo'llab-quvvatlash, himoya qilish va vasiylik va homiylik ko'rsatish bilan bog'liq vazifalarini bajarishida yordam ko'rsatadigan quyidagi faoliyatlarni amalga oshiruvchi davlatlarga ko'mak ko'rsatadi⁹⁹.

YUNISEFning 2015-yilgacha bo'lgan davr uchun faoliyatining ustuvor sohalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Kichik yoshdagi bolalarning sog'lig'i va rivojlanishi;
2. Tayanch ta'lim va gender tengligi;
3. OIV/OITS va bolalarning ahvoli;

⁹⁹ Хакимов Р. Детство: Проблемы и перспективы: [1946-2006]. –Т.: O'zbekiston, 2006. -S. 37-39

4. Bolalarni zo‘ravonlik, ekspluatatsiya va shafqatsiz muomaladan himoya qilish;

5. Bolalar huquqlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan hamkorlikni shakllantirish va uni targ‘ib qilish siyosati.

YUNISEFning yordami birinchi o‘rinda tabiiy ofatlar, fuqarolik urushlari yoki epidemiyalar natijasida vujudga keladigan favqulodda holatlarda bolalar uchun uzoq muddatli dasturlarni bajarishga, onalar va bolalarning bevosita ehtiyojlarini tezliq bilan qondirishga yo‘naltiriladi, favqulodda yordam ko‘rsatilgandan so‘ng esa, qayta tiklash dasturlari amalga oshiriladi.

YUNISEF faoliyatining yana bir muhim jihati, bu targ‘ibot va tashviqot ishlari bo‘lib, unda Tashkilot jamiyatning barcha kuchlarini, siyosiy rahbarlar, o‘qituvchilar, shifokorlar va sog‘liqni saqlashning boshqa xodimlari, ommaviy axborot vositalari xodimlarini ijtimoiy maqsadlarga erishish va shu yo‘l bilan bolalar duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal etishga maksimum darajada sa’y-harakatlarni yo‘naltirishga harakat qiladi.

Demak, bola huquqlarini himoya qilish bu birinchi o‘rinda davlat va jamiyatning asosiy vazifasi hisoblanadi. “Bolalar mavzusi”ning diqqat markazda turishi uchun esa jurnalistlarning o‘rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ular bolalar himoyasini ta‘minlash mexanizmini ishga tushiruvchi “katalizator” vazifasini bajaradilar. Ya‘ni, bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatilmayotgani va mansabdor shaxslarni bu muammolarini bartaraf etishga chaqirishda, bolalarning odilsudlov bilan duch kelishi va boshqa turli muammolarni yoritishda aynan jurnalist asosiy rolni o‘ynaydi. Bunda jurnalistning ma‘suliyati juda ham kattadir. U o‘z maqolasi bilan nafaqat muammoni hal qilishga yordam berishi mumkin, balki ayrim hollarda malakasizligi yoki xatoga yo‘l qo‘yishi oqibatida muayn bolaning ahvolini yanada og‘ir ahvolga tushirib qo‘yishi, uning shaxsiy daxlsizligi huquqi kabi, turli huquqlarini ham buzib qo‘yishi mumkin.

Bunday xolatlarda jurnalistlarga ko‘mak tariqasida YUNISEF tomonidan qator tavsiyalar ishlab chiqildi¹⁰⁰. Mazkur ahloqiy tamoyillar quyidagicha tizimda berilgan:

1. Umumiy prinsiplar

1.1. Har qanday holatda ham aniq bir bolaning huquq va manfaatlari ko‘zda tutilishi lozim.

1.2. Kattalarda bo‘lgani kabi, bolalarning ham shaxsiy hayot va uning dahlsizlikka huquqi bor.

1.3. Bola o‘z fikrini aytishi, uni tinglashlariga va uo‘zining hayoti bilan qarorlar qabul qilinishida ishtirok etish huquqiga ega.

1.4. Jurnalistlik materiallarning chop etilganidan keyingi oqibatlarga baaho berish. Bunda bolaga uning eng yaqin insonlari – ota-onasi, vasiylari, shuningdek, u bilan ishlovchi mutaxassislar – shifokorlar, psixolog, sotsial pedagog va boshqalar yordam berishlari mumkin.

1.5. Agar bola yoki uning aka-singillari uchun birorta xavf bo‘lgan taqdirda uning nafaqat ismini chop etmaslik, balki rasm yoki aniqlash mumkin bo‘lgan boshqa holatlarini ham nashr emaslik shart.

2. Bolalardan intervyu olishda muhim bo‘lgan prinsiplar:

2.1. Intervyu uchun bolalarni tanlab olishda irq, jins, yosh, ijtimoiy kelib chiqish, ta’lim darajasi va jismoniy holati bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik.

2.2. Boladan yoki u uchun javob beruvchi shaxs (ota-onasi, vasiy. Bolalar uyi direktori, vasiylik va homiylik organi vakili)dan u bilan intervyu, videoga olish va boshqa uning rasmi, qo‘shimcha materiallariga tegishli masalalar bo‘yicha iloji boricha yozma ruxsatnoma olish kerak. Bu yozma hujjat esa bolaga tushunarli tilda tuzilishi kerak. Rozilik barcha majburlov choralarini istisno qilgan holda erkin tarzda berilishi kerak.

2.3. Bola yoki u uchun javob beruvchi shaxs (ota-onasi, vasiy. Bolalar uyi direktori, vasiylik va homiylik organi vakili) olingan materiallarni mahalliy va

¹⁰⁰ Raxmonov B., Mahmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. –T.: “CHASHMA PRINT”, 2011. -B.87

xalqaro darajadagi ommalashtirishni rejalashtirgan jurnalistga nima aytayotganliklarini aniq tushunib yetishlari lozim. Jurnalist ularga intervyuning maqsadi va undan qay tarzda foydalanishni aniq tushuntirib berishi lozim.

2.4. Intervyu davomida bolaning qalbiga jarohat bermaslik kerak, uni oilasini yo'qotganligi va boshqa og'ir holatlarini qaytadan xis qilishiga majbur qilmaslik kerak. Bolaning millati, dini, madaniyati yuzasidan kamsitishlar va bola yoki uning oila a'zosi uchun haqoratli so'zlarni ishlatishdan qochish kerak.

2.5. Bolaga intervyu vaqtida o'z tarixini bemalol aytish berishi uchun qulay shart-sharoit yaratish berish lozim. Bunda u tashqi, shu jumladan, jurnalistlar tomonidan har qanday bosimlarni holi bo'lishi lozim. Intervyu vaqtida ishtirok etadigan shaxslar sonini kamaytiring. Kino-, tele-, radiointervyularda bola turgan joyni aniqlab olish xavfidan qochish maqsadida vizual va ovozli fonga alohida e'tibor qaratish lozim.

2.6. Tomosha ko'rsatishdan qochish kerak. bolani manipulyatsiya qilmaslik kerak. Undan samarali intervyu yoki yorqin reportaj uyushtirish maqsadida o'zingiz xohlagan narsalarni aytishini so'ramaslik kerak.

3. Bolalar to'g'risida reportaj tayyorlash tamoyillari:

3.1. Tayyor jurnalistik materiallar, sizning xulosalaringiz va ta'rifingiz bolaning qalbini yaramasligi, uning psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, unga nisbatan kamsitishga va jamiyatning salbiy munosabatiga sabab bo'lmashligi kerak.

3.2. Sizning bola bilan tanishuvingiz va intervyu jarayoni haqida unga ishonchli ma'lumot bering.

3.3. Har doim ismlarni o'zgartirish kerak va bolaning qiqligini aniqlashga imkon beruvchi materiallarni oshkor qilmaslik kerak. Ayniqsa, quyidagi holatlardagi bolalarga nisbatan: zo'rash yoki seksual ekspluatatsiya qurbonlari yoki uning o'zi jismoniy yoki seksual zo'rash sodir etgan bo'lsa; VICH infeksiyasi bilan yoki SPID bilan kasallangan yoki ushbu kasallik natijasida hayotdan ko'z yumayotgan bo'lsa (bola yoki ota-ona/vasiy ismini oshkor qilishga rozilik bergan hollar bundan mustasno); jinoyat sodir etganligi uchun ayblanayotgan yoki hukm qilingan bo'lsa.

Mavjud xavf bo‘lgan taqdirda quyidagi hollarda bolaning ismini o‘zgartirib, uning kimligini aniqlashga imkon beradigan ma’lumotlarni oshkor qilmaslik kerak: agar bola amaldagi yoki sobiq harbiy harakatlarni ishtirokchisi bo‘lsa; agar bola qochoq yoki ko‘chirilgan shaxs hisoblanib, boshpana so‘rayotgan bo‘lsa.

3.4. Quyidagi holatlarda bolaning ismini, uning rasmini ko‘rsatish mumkin, hattoki zarur hamdir: agar muloqot bolaning tashabbusi oraqli bo‘lsa va bola uning fikrlari auditoriyaga yetib borishini xohlasa; agar bola birorta ijtimoiy loyiha ishtirokchisi sifatida tanitishni xohlasa; agar bola psixologik va ijtimoiy reabilitatsiya/adaptatsiya dasturlarida ishtirok etayotgan bo‘lsa. Bunday holatlarda ishtirokchilar ismining e‘lon qilinishi ushbu dasturning muhim elementi hisoblanadi va bolaning kamol topishi uchun foydali hisoblanadi.

3.5. Muloqot qilinayotgan bolaning yoshi va psixologik jihatlarini e‘tiborga olish kerak. U aytgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini uning yaqinlari yoki boshqa bolalardan so‘rab tasdiqlab olish kerak.

3.6. Agar ma’lumotni ommalashtirish natijasida bola uchun mavjud xavf bo‘lsa, hujjatlarda aniq bir bola haqida emas, shu holatdagi bolalarning umumiy holati sifatida yozish kerak.¹⁰¹

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, YUNISEF o‘tgan yarim asrdan ortiq faoliyati natijasida o‘z faoliyatida norma ijodkorlik, operativ yordam, muvofiqlashtiruvchi funksiyalarini amalga oshirish orqali bola huquqlarini himoya qilish sohasidagi universal xalqaro muassasaga aylandi.

4. Bola huquqlari bilan shug‘ullanuvchi mintaqaviy xalqaro tashkilotlar

Bola huquqlarini amalga oshirishini nazorat qiluvchi universal xalqaro tashkilotlar bilan bir qatorda mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham mavjud bo‘lib, uning a‘zolari ma’lum geografik mintaqada davlatlari bo‘lishlari mumkin. Bunday tashkilotlarning faoliyati ko‘proq xavfsizlik, iqtisod, ijtimoiy, madaniy va boshqa

¹⁰¹ Raxmonov B., Mahmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. –T.: “CHASHMA PRINT”, 2011. -B.87-89; Этические принципы подготовки журналистских материалов о детях. <http://www.unicef.ru/>

sohalardagi mintaqaviy xalqaro hamkorlikka qaratilgan bo'lsa-da bola huquqlari masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha yevropa tizimi.



Yevropada inson huquqlari, shuningdek, bola huquqlarini himoya etish bilan shug'ullanuvchi eng mo'tabar va nufuzli tashkilot Yevropa Kengashi hisoblanadi.

Yevropa Kengashi 1949-yil 5-mayda 10 mamlakatdan kelgan ishtirokchi-davlatlar tomonidan tashkil etildi. Uning a'zolari soni yildan-yilga o'sib bormoqda. 2008-yilga kelib 47taga yetdi. Uning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat: inson huquqlari himoyasi, plyuralistik demokratiyani targ'ib etish; kamchilik, notolerantlik va ksenofobiya bilan bog'liq muammolar yechimini izlashdir.

Bugungi kunda Yevropa Kengashi jahondagi baobro' va yirik tashkilotlardan biri, ayni vaqtda, inson huquqlarini himoya etish borasida nihoyatda nufuzli tuzilmadir. Shunisi e'tiborga loyiqki, inson huquqlariga rioya etish tamoyili Yevropa Kengashi Nizomi (Statuti)da mustahkamlab berilgan. Mazkur hujjatning 3-moddasida ta'kidlab ko'rsatilishicha, «Yevropa Kengashining har bir a'zosi qonun ustunligi tamoyilini hamda har qanday shaxs qaysi tamoyilning yurisdiksiyasi ostida bo'lganda inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan foydalanadigan bo'lsa, xuddi shu tamoyilni e'tirof etadi»¹⁰². Inson huquqlarini va uning asosiy erkinliklarini jiddiy tarzda buzish Yevropa Kengashiga a'zolikni to'xtatib qo'yish va hatto a'zolikdan chiqarish uchun asos bo'lishi mumkin. Mazkur Tashkilot tomonidan bu yo'nalishda olib borilgan ishlarning amaliy samarasi shuki, Yevropa Kengashining faoliyati mobaynida 200 ga yaqin konvensiya, shu jumladan,, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya etish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi qabul qilingan¹⁰³. Yevropa miqyosida qabul qilingan 10ta konvensiya va bitim, shu jumladan,, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya etish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi va Ijtimoiy xartiya

¹⁰² Устав Совета Европы // Международное сотрудничество в области прав человека: Документы и материалы. -М., 1993. Вып.2. -С. 121

¹⁰³ Право Совета Европы и Россия (сборник документов, материалов). – Краснодар, 1996.

yopiq hujjatlar hisoblanadi. Boshqa hujjatlar esa batamom yoki qisman ochiq xususiyatga ega.

Hozirgacha Yevropa kengashi doirasida qabul qilingan xalqaro shartnomalar ro'yxatida "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi" (1950-1953) va unga qo'shimcha 14ta Fakultativ protokol; "Yevropa Ijtimoiy xartiyasi" (1961-1965), unga qo'shimcha Fakultativ protokollar va yangi tahrirdagi "Yevropa Ijtimoiy xartiyasi" (1996-1999); Mehnatkash-migrantlarning huquqiy maqomi to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (1977-1983); Mintaqaviy yoki ozchilikka mansub xalqlar so'zlashadigan tillar to'g'risidagi Yevropa xartiyasi (1992-1998); Milliy ozchilikka mansub shaxslarni himoya qilish bo'yicha namunaviy konvensiya (1995-1998); Inson huquqlari va Biotibbiyot bo'yicha konvensiya (1997-1999); Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (1997-2000), kabi inson huquqlari bo'yicha hujjatlar bilan bir qatorda, bola huquqlari bo'yicha maxsus bo'lgan "Bolalarning huquqlarini amalga oshirish bo'yicha Yevropa konvensiyasi (1996-2000)" ham qabul qilingan.

Yevropa Kengashining nazoratni amalga oshirish mexanizmi tarkibiga Yevropa inson huquqlari komissiyasi, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi va Yevropa Vazirlar qo'mitasi kiradi. Yevropa konvensiyasiga muvofiq tashkil topgan inson huquqlarini himoya etish mexanizmi Yevropa Kengashiga a'zo-davlatlarning davlat suverenitetini mutlaqlashtirishda qaror topgan andozalardan voz kechishni taqozo etadi.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi. Inson huquqlari va asosiy erkinliklari bo'yicha Yevropa konvensiyasi nafaqat inson huquqlari doirasidagi asosiy huquqlarni e'lon qildi, balki ularni himoya qilishning o'ziga xos mexanizmini ham tashkil etdi. Uning joylashgan joyi sifatida Strasburgdagi Inson huquqlari saroyi (Fransiya) tanlandi, Yevropa Kengashi ham shu yerda joylashgan¹⁰⁴.

¹⁰⁴Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Mo'minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari /Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. -T.: Adolat, 2013.-B.214-2118



*Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti
– Yevropa, Markaziy Osiyo va Shimoliy
Amerika mamalakatlarini birlashtiruvchi
xalqaro tashkilot*

1975-yilda imzolangan Xelsinki Yakunlovchi hujjati Yevropada xavfsizlik va Hamkorlik konferensiyasi olib borgan ishlar samarasining cho‘qqisi bo‘lgan. Sharqiy va G‘arbiy Yevropadagi barcha suveren davlatlar (o‘sha kezlari Albaniya bundan mustasno ekanligini eslatish joiz), shuningdek, AQSh va Kanada ishtirokidagi Kengash tomonidan qabul qilingan Yakunlovchi hujjat hukumatlar uchun yuridik jihatdan majburiy shartnoma emas edi. Shunga qaramay, u siyosiy ahamiyatga molik g‘oyat muhim hujjat hisoblanadi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashi tomonidan qabul qilingan keyingi muhim hujjatlar orasida Vena (1989-yil) va Kopengagen (1990-yil) uchrashuvlarining yakuniy hujjatlarini, shuningdek, Yangi Yevropa uchun mo‘ljallangan Parij xartiyasini (1990-yil)¹⁰⁵ alohida ta’kidlash kerak.

Budapesht kengashining 1994-yildagi qaroriga muvofiq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashi (YeXHK) Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT) sifatida qayta tashkil etildi. Qarorda YeXHTning xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik, ekologiya sohalaridagi maqsadlari bilan birga, inson huquqlari sohasidagi faoliyatni rivojlantirish sohasida maqsad ham asosiy maqsadlardan deb belgilab olindi.

YeXHTga Yevropa mamlakatlari, AQSh, Kanada, shuningdek, MDHning barcha davlatlari, shu jumladan,, Osiyoda joylashgan MDH davlatlari ham a’zo hisoblanadi.

YeXHTning *Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi bola huquqlari sohasida* quyidagilarni amalga oshiradi:

- inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning rivojlanishiga ko‘maklashadi va texnikaviy yordam beradi;

¹⁰⁵ Qarang: Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Insoniylik mezonlari bo‘yicha hujjatlari. -Toshkent, 2002.

- turli mamlakatlarda nodavlat tashkilotlarining tashkil etilishi va fuqarolik jamiyatining shakllanishiga yordam beradi;

- a'zo davlatlarga inson huquqlari sohasida seminarlarini o'tkazishda texnikaviy yordam ko'rsatadi va Tashkilot maxsus loyihalarining amalga oshirilishida ko'maklashadi.

Hozirgi kunda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti¹⁰⁶ – tarkibiga 56 mamlakat a'zo bo'lgan xavfsizlik masalalari bilan shug'ullanuvchi umumevropa tashkilotidir.

YeXHT tashkil topgandan hozirgi kunga qadar o'zi faoliyat ko'rsatayotgan hududlarda xavfsizlikni ta'minlash masalalari bilan bir qatorda, inson huquqlarini himoya qilish borasida ham muhim ishlarni amalga oshirmoqda. U BMT tomonidan inson huquqlari va ularni himoya qilishga doir barcha hujjatlarni e'tirof etish hamda ularda belgilangan tamoyillarni amalga oshirishga intilmoqda. Uning BMT bilan bu boradagi hamkorligi inson huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'laminin oshib borishiga yordam bermoqda¹⁰⁷.

YeXHTning inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatida undagi barcha a'zo-davlatlar singari O'zbekiston Respublikasining o'rni va roli ham alohida ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi 1992-yilda Xelsinki Yakunlovchi hujjatini, 1993-yilda esa Parij xartiyasini imzolab, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'ldi va u bilan faol hamkorlik aloqalarini davom ettirmoqda.

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha amerika tizimi.



Amerika davlatlari tashkiloti - bola huquqlarini huquqlarini himoya qilish bo'yicha amerikalariaro tizimining yadrosini tashkil etadi.

Inson huquqlarining Amerika mamlakatlariaro tizimi quyidagi huquqiy manbalarga tayanadi: Amerika davlatlari tashkiloti (ADT) xartiyasi (ba'zi

¹⁰⁶ Saidov A. Xalqaro huquq. – T.: «Adabiyot jamg'armasi», 2001. -B.185

¹⁰⁷ Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Mo'minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari /Darslik Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013.-B.218-226

adabiyotlarda Ustav deyiladi, 1948-yil qabul qilingan va 1951-yil kuchga kirgan), Inson huquqlari va majburiyatlari to'g'risidagi Amerika deklaratsiyasi (1948-yil), Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasi ("San-Xose pakti", 1969-yil qabul qilingan va 1978-yil kuchga kirgan.), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha Amerika konvensiyasiga Protokol (1988-yil), O'lim jazosini bekor qilish bo'yicha Amerika konvensiyasiga Protokol (1990-yil), Qiynoqlarga barham berish va ularni qo'llaganlik uchun jazolash to'g'risidagi Amerikalalararo konvensiya (1985-yil qabul qilingan va 1987-yil kuchga kirgan.), Ayollar ustidan zo'ravonliklarning oldini olish, jazolash va tugatish to'g'risidagi Amerikalalararo konvensiya ("Belom do Para konvensiyasi", 1994-yil qabul qilingan va 1995-yil kuchga kirgan.), Majburan yo'qolayotgan inson to'g'risidagi Amerikalalararo konvensiya (1994-yil qabul qilingan va 1996-yil kuchga kirgan).

Amerika davlatlari tashkiloti xartiyasi tasdiqlangan konferensiyaning o'zida Amerika inson huquqlari va majburiyatlari deklaratsiyasi ham qabul etilib, unda insonning 27 ta huquqi va 10 ta majburiyati e'lon qilingan.

1969-yilda qabul qilingan Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasi fuqarolik va siyosiy huquqlarning o'n ikkita umumiy toifasini, masalan, huquq subyekti ekanlikni e'tirof etish huquqi, yashash huquqi, insoniy muomalada bo'lishning ta'minlanishi huquqi, ishni sudda adolatli tarzda muhokama etish huquqi, mulk huquqi, uyushmalar tuzish va ularga kirish erkinligi huquqini kafolatlaydi¹⁰⁸.

Amerika davlatlari tashkiloti doirasida inson huquqlari bo'yicha qator xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular orasida maxsus bola huquqlariga bag'ishlangan hujjat quyidagidir: "Balog'atga yetmagan bolalar xalqaro traffiki bo'yicha Amerika davlatlararo konvensiyasi" (1994-1997).

Inson huquqlari bo'yicha Amerika mamlakatlariaro komissiya. Mazkur Komissiyaning asosiy vazifalari Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasining 41-moddasida mujassamdir. Bu moddada Komissiyaning

¹⁰⁸ Qarang: Международное сотрудничество в области прав человека. -М., 1993. Вып. 2. – С. 157–180.

Amerika davlatlari tashkilotining organi sifatidagi vazifalari belgilangan hamda uning Konvensiyaning 44–51-moddalarida ta’riflangan «vakolat doirasiga muvofiq petitsiyalar va boshqa xabarlar yuzasidan choralar ko‘rish»ga vakil qilinganligi aytilgan. Komissiya ADTning maslahat organi sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi. Komissiya a’zo-davlatlarning so‘roviga ko‘ra yoki uning roziligi bilan joylarga tashriflarni amalga oshirishi, maxsus tadqiqotlarni tayyorlashi, hukumatlarga inson huquqlari himoyasi bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish bo‘yicha tavsiyalar berishi va ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida hisobotlarni taqdim etishini so‘rab davlatlarga murojaat qilishi mumkin.

Komissiya Amerika deklaratsiyasida va a’zo-davlatlarga nisbatan Amerika konvensiyasida mustahkamlab qo‘yilgan huquqlarning buzilishi bilan bog‘liq hollarda xususiy shaxslardan, bir guruh shaxslardan va nohukumat tashkilotlaridan shikoyatlarni qabul qilishi mumkin. Favqulodda holatlarda esa, Komissiya insonlarni himoya qilish bilan bog‘liq ehtiyot choralarini ko‘rishni talab qilishi mumkin¹⁰⁹.

Inson huquqlari bo‘yicha Amerika mamlakatlariaro sud, ishtirokchi davlatlardan birini Inson huquqlari to‘g‘risidagi Amerika konvensiyasini buzganlikda ayblash bilan bog‘liq ishlarni hal etish vakolatiga ega. Mazkur Sud Konvensiya normalarini qo‘llash bilan bir qatorda, Konvensiya va inson huquqlari bo‘yicha muayyan shartnomalar yuzasidan maslahat tarzida xulosalar berishi ham mumkin. Sud, agar a’zo-davlatlar tomonidan taqdim etilgan yoki davlatlar sudning yurisdiksiyasini e’tirof etgan bo‘lsa, Amerika mamlakatlariaro komissiyasi tomonidan taqdim etilgan ishlarni ko‘rib chiqishi mumkin. Sudning qarori davlatlar uchun majburiydir. Sud, buzilgan huquqlarni hamda qonunbuzarlik munosabati bilan davlatlar tomonidan belgilanishi lozim bo‘lgan choralarni ko‘rsatgan holda, zararni pul bilan qoplash uchun kompensatsiya qilish (tovon to‘lash) to‘g‘risida, shuningdek, aniqlangan da’vo bo‘yicha qarorlar chiqarish vakolatiga ega.

¹⁰⁹ Batafsil ma’lumotlar uchun qarang: Mo’minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari /Darslik Mas’ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013.-B.226-228

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha Afrika tizimi.



1963-yilda qabul qilingan Afrika birligi tashkiloti (ABT) xartiyasi dastlabki mintaqaviy shartnomalardan hisoblanadi.

Afrika birligi tashkiloti xartiyasining inson huquqlariga taalluqli boshqa qoidalarida Afrika davlatlari barcha shakl va ko'rinishdagi mustamlakachilikni tagtomiri bilan tugatishga tarafdor hamda Afrika xalqlarini rivojlantirish uchun iqtisodiy sharoitlar yaratish ishiga sodiq ekanligi ta'kidlanadi.

1981-yilda qabul qilingan va 1986-yilda kuchga kirgan Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika xartiyasi Muqaddimadan va 68 moddani o'z ichiga olgan uchta qismdan iborat. Uning huquqlar va majburiyatlarga bag'ishlangan I qismi ikkita bobga bo'lingan bo'lib, ularda inson va xalqlarning huquqlari (1–26-moddalar) va majburiyatlari (27–29-moddalar) bayon etilgan. Kafolatlarga bag'ishlangan II qism to'rtta bobdan iborat bo'lib, ularda Afrika inson va xalqlar huquqlari komissiyasini tuzish (30–44-moddalar), mazkur Komissiyaning vakolatlari, faoliyat ko'rsatish taomillari va tamoyillari (45–63-moddalar) ta'riflab o'tiladi¹¹⁰. Afrika mintaqasida inson huquqlari bo'yicha huquqiy hujjatlarga, yana shuningdek, Bola huquqlari va farovonligi bo'yicha Afrika xartiyasi (1990-yilda qabul qilingan) ham kiradi.

Afrika Ittifoqi (sobiq Afrika birligi tashkiloti) doirasida ham inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar bilan birga bola huquqlariga oid maxsus hujjat mavjud: *Afrika bolalarining huquqlari va farovonligi to'g'risidagi konvensiya (1990-1999)*.

1987-yilda tashkil etilgan hamda a'zo-davlatlar tomonidan tayinlanib, ABT davlatlari va hukumatlari boshliqlari tomonidan saylanadigan 11 a'zodan iborat *Afrika inson va xalqlar huquqlari komissiyasining* asosiy vazifasi inson va xalqlar huquqlarini rag'batlantirish hamda shu yo'nalishda tegishli normalar ishlab chiqishga qaratilgan. Komissiya davlatlardan axborotlar va boshqa xabarlar olishi hamda ko'rib chiqishi mumkin. Boshqa xabarlar jumlasiga ayrim shaxslar yoki bir

¹¹⁰ Qarang: Африканская хартия прав человека и народов // Международное сотрудничество в области прав человека. -М., 1993. Вып. 2. -С. 225-240.

guruh shaxslardan, shuningdek, bola huquqlari masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar yoki muassasalardan olinadigan xabarlar ham kiradi.

Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika sudi. 1998-yilning-fevralidagi ABDning Vazirlar kengashi majlisida Afrika xartiyasiga Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika sudini tashkil etish bo'yicha Protokol qabul qilindi. Afrika sudi Afrika komissiyasining huquqni himoya qilish mandatini to'ldiradi. Sud Afrika xartiyasi a'zo-davlatlari, Afrika komissiyasi va ABD organlarining so'rovlari bo'yicha maslahatlar berishi mumkin. Sud 2004-yilda, Protokolni 15 davlat ratifikatsiya qilganidan so'ng ta'sis etildi¹¹¹.

Bola huquqlari sohasidagi mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy kelib chiqishi, madaniyati va boshqa masalalarda bir-biriga yaqin bo'lgan davlatlarning bu sohadagi hamkorligi nisbatan ko'proq samara bermoqda. Bu esa, turli mintaqalarda hamkorlikning samaradorligi ham turlicha ekanligini ko'rsatmoqda. Yevropaning bugungi kundagi integratsiyasi bu mintaqadagi inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari sohasidagi muammolarni birgalikda samarali yechishga imkon bermoqda. Bunga sabab esa, barcha Yevropa davlatlarining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy, geografik va boshqa omillar bo'yicha ancha yaqinligidir. Ammo Osiyodagi turli iqtisodiy-ijtimoiy omillar, turli madaniy va diniy omillar bu mintaqada samarali mexanizm yaratishga to'sqinlik qilmoqda. Amerika va Afrika mintaqasining tajribasi esa bu boradagi ahvolning nisbatan mo'tadil ekanligini ko'rsatmoqda. Bu mintaqalarda zaruriy huquqiy va institutsional asos yaratilgan va davlatlar o'zaro kelishuvga kelishgan. Ammo ularda ham bu mexanizm Yevropa mexanizmi kabi samarali ishlamoqda, deyishga yetarli asos yo'q.

5. Bola huquqlariga ixtisoslashgan xalqaro nodavlat tashkilotlari

Bugungi globallashuv jarayoni rivojlanib, xalqaro munosabatlarning barcha subyektlarini ushbu jarayonga tobora kuchli jalb etayotgan bir paytda, bu

¹¹¹ Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Mo'minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari /Darslik Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. -T.: Adolat, 2013. -B.229-230

jarayonda xalqaro hukumatlararo tashkilotlar bilan bir qatorda xalqaro nohukumat tashkilotlarining roli va ahamiyati ham oshib bormoqda. Shu nuqtai nazardan ushbu tashkilotlarga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Chunki, ular xalqaro-maydonga an'anaviy xalqaro hukumatlararo tashkilotlar bilan bir qatorda xalqaro munosabatlarning faol aktarlari (ishtirokchilari) sifatida chiqmoqda. Bu tashkilotlarning xalqaro-maydondagi ta'sirini kuchayib borishi, davlatlar bilan hamkorligi kengayib borishi va davlatlararo hamkorlikdagi masalalarni xalqaro etishda, ba'zida muhim rolni o'ynashi, albatta bu tashkilotlarni ahamiyatini oshib borayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro nohukumat tashkilot (XNHT) – bu muayyan maqsadlarga va ularga erishishning o'rnatilgan shakllariga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxslarning assotsiatsiyasi yoki federatsiyasidir.

BMT Bosh Assambleyasining 1968-yil 23-maydagi 1296 (XIV) Rezolyutsiyasiga muvofiq, xalqaro nohukumat tashkiloti (XNHT) – bu hukumatlararo bitimlar asosida ta'ris etilmagan har qanday xalqaro tashkilotdir. BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS)ning 1996-yil 25-iyuldagi 1996/31 rezolyutsiyasiga asosan XNHT – bu xalqaro hukumatlararo shartnoma asosida tashkil topmagan va tijorat maqsadlarida foyda olishni ko'zlamagan har qanday nohukumat tashkilotdir.

Xalqaro nohukumat tashkilotlari – hukumatlararo bitimlar asosida emas, balki bitta davlatning milliy qonunchiligiga muvofiq ro'yhatdan o'tkazilgan ta'ris hujjatlariga asosan tashkil etiladigan, o'z faoliyatida foyda olishni va tijorat maqsadlarini ko'zlamaydigan va ikkitadan kam bo'lmagan davlatlar hududida faoliyat olib boradigan va o'z faoliyatida BMT Ustavi ruhi va prinsiplariga hamda xalqaro huquq normalariga muvofiq keluvchi yagona ichki maqsad yo'lida birlashishni maqsad qilib olgan dunyoning turli mamlakatlarining jamoatchiligi vakillarini birlashtirgan tashkiliy shakldir¹¹².

¹¹² Xalqaro nohukumat tashkilotlarining huquqiy maqomi bo'yicha batafsil ma'lumot uchun qarang: Mo'minov A. Xalqaro tashkilotlar huquqi shakllanishining nazariy masalalari. –T.: JIDU, 2013.

Demak, xalqaro nohukumat (yoki O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha nodavlat notijorat) tashkilotlarning huquqiy maqomi, milliy darajadagi nohukumat tashkilotlari kabi milliy qonunchilikka asoslanadi.

Jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi va faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasida asosiy qonunlardan biri, 1999-yil 14 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasiga ko'ra, **xalqaro notijorat tashkiloti - o'z** ustaviga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida hamda bitta yoki undan ko'proq chet el davlati hududida faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan xalqaro tashkilot xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti deb hisoblanadi.

Xalqaro nohukumat tashkilotlari xalqlar o'rtasidagi aloqalarni amalga oshiradigan shakllardan biri sifatida ifoda etiladi. Davlatlarning tinch o'zaro munosabatlari turli sohalarda insonlar, muassasalar va tashkilotlar o'rtasida individual va jamoaviy, rasmiy va norasmiy asosdagi hamkorlik uchun keng imkoniyatlarni yaratib beradi. Garchi, xalqlar o'rtasidagi munosabatlarning asosiy shakli davlatlar o'rtasidagi munosabatlar bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, ammo, ular siyosiy, iqtisodiy, madaniy va xalqaro xayotning boshqa sohalaridagi aloqalarning barcha tomonlarini chuqur qamrab ololmayapti. Zamonaviy xalqaro munosabatlar nafaqat davlatlararo munosabatlarni o'z ichiga oladi, balki boshqa subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, xalqaro nohukumat tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni ham qamrab oladi. Hozirgi paytda XNHTlar xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchilari hisoblanadi. Shu bilan birga xalqaro hamkorlikning turli sohalarida o'z faoliyatini amalga oshiruvchi xalqaro nohukumat tashkilotlarning soni nafaqat o'sib bormoqda, balki ularning xalqaro aloqalardagi roli ham oshib bormoqda. XNHTlar hozirgi sharoitda, **Xalqaro assotsiatsiyalar ittifoqining ma'lumotlariga qaraganda 20 mingdan ortiq XNHTdan iborat bo'lgan xalqaro tashkilotlarning eng ko'p sonli guruhini tashkil etadi.**



Xalqaro nodavlat tashkilotlari BMT tizimiga ham faol ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS) huzurida nodavlat



tashkilotlar bilan ishlash departamenti tashkil etilgan bo‘lib, u bilan xalqaro nodavlat tashkilotlari turli shakllarda hamkorlik qilishadi.

XNHTlar zamonaviy xalqaro munosabatlarning barcha jabhalarida faol rol o‘ynamoqda. XNHTlarning tor sohalari bo‘yicha ixtisoslashuvi XNHTlar tabiatining o‘ziga xos xususiyatidir. Chunki, barcha sohalarni qamrab oluvchi XNHTlar mavjud ham emas. XNHTlar, butun dunyodagi tinchlik va xavfsizlik masalalari, inson huquqlari, ya’ni xalqaro hamkorlikning barcha sohalarni qamrab olishi mumkin emas va bundan vakolatga ega bo‘la olmaydi ham. Shu nuqtai-nazardan muammoli bo‘lgan ijtimoiy sohalardagina individlar va yuridik shaxslarni birlashtiradi. Bu borada bola huquqlari sohasida alohida XNHTlar shakllangan bo‘lib, ularning ayrim, eng muhimlari faoliyatini o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda aytish mumkinki, bola huquqlari bo‘yicha xalqaro nodavlat tashkilotlarining funksiyalari turlichadir. Ular turli sohalarda faoliyat ko‘rsatishadi.

Bugungi kunda bola huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashgan xalqaro nohukumat tashkilotlari tizimi shakllanganki, ular orasida quyidagilar bola huquqlarini halqaro himoyasida muhim rol o‘ynaydi:

Tashkilot ramzi	Tashkilot nomi	Faoliyat yo‘nalishi
 MKKK	Xalqaro Qizil Xoch Qo‘mitasi	1864-yildan faoliyati yuritishni boshlagan. Bu davrda asosiy faoliyati qurolli mojarolar davrida uning jabrdiydalariga yordam ko‘rsatish hisoblangan. Bugungi kunda ularning faoliyati gumanitar sohalarda, shu bilan bir qatorda asosiy faoliyat yo‘nalishi sifatida qurolli mojarolar davrida uning jabrdiydalariga yordam ko‘rsatish hisoblangan.
	Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy jamiyatlari federatsiyasi	qatorda asosiy faoliyat yo‘nalishi sifatida qurolli mojarolar davrida uning jabrdiydalariga yordam ko‘rsatish hisoblangan. Bugungi kunda ularning faoliyati gumanitar sohalarda, shu bilan bir qatorda asosiy faoliyat yo‘nalishi sifatida qurolli mojarolar davrida uning jabrdiydalariga yordam ko‘rsatish hisoblangan.

 Save the Children	“Save the children (Bolalarni qutqaring)”,	“Save the children (Bolalarni qutqaring)” tashkiloti 1919-yili Buyuk Britaniyada tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi ta’lim, sog‘liqni saqlash tizimini, iqtisodiy imkoniyatlarni yaxshilash, bolalarni zo‘ravonlik va tabiiy ofatlardan himoya qilish, shuningdek bola huquqlarini muhofaza qilish va himoya qilish hisoblanadi. Mazkur tashkilot bugungi kunda jahonning 120 davlati bilan hamkorlik olib boradi.
 SOS CHILDREN'S VILLAGES INTERNATIONAL	“SOS kinderdorf Interneyshnl”	<p>Yetim bolalarga qulay sharoitlar yaratish, yordam berish, ularni tarbiyalash bilan shug‘ullanadi. Tashkilot nomidagi SOS abbeviaturasi “ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash (inglizcha, <i>social support</i> so‘zidan olingan) ma’nosidan kelib chiqib, aholining zaif qatlami vakillariga, bolalarga yordam va himoyani taqdim etishda jiddiy ehtiyojning ramzini bergan holda, xalqaro SOS falokat signali bilan o‘hshatiladi.</p> <p>SOS – bolalar qishlog‘i - yetim bolalar va ota-onalar qaramog‘isiz qolgan bolalarni maksimal darajada oilaga yaqin sharoitlarda tarbiyalashning noyob shaklidir.</p> <p>Birinchi SOS – bolalar qishlog‘i, tashkilotning asoschisi German Gmayner tomonidan 1949-yili Avstriyaning Imst shahrida ochilgan. Bu model hozirgi kunda dunyoning 130 dan ortiq mamlakatida muvaffaqiyat bilan ishlab kelmoqda.</p>

Aytish mumukinki, bugungi kunda bolalar huquqlari bilan shug‘ullanuvchi ko‘plab xalqaro nohukumat tashkilotlari faoliyatlari doirasida bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro nohukumat tizimi shakllangan. Bu tizimni “bola huquqlari bo‘yicha xalqaro fuqarolik jamiyati tizimi” deb ham atash mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

1. Bola huquqlari bo'yicha xalqaro institutsional tizim deganda nimani tushunasiz va bu tizimni klassifikatsiyalashtirib bering.
2. BMTning bola huquqlarini himoya qilishga oid mexanizmini o'ziga xos xususiyati nimada?
3. BMTning Bola huquqlari qo'mitasining huquqiy maqomini tushuntirib bering.
4. BMTning ixtisoslashgan tashkilotlarining bola huquqlarini himoya qili bo'yicha mexanizmining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
5. YUNISEFning maqomi va faoliyatining o'ziga xos xususiyati nimada?
6. YUNISEFning mamlakatlar bilan hamkorligini asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib bering.
7. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha Yevropa tizimining o'ziga xos xususiyati nimada?
8. Inson huquqlarini himoya etishning Amerika tizimining o'ziga xos xususiyati nimada?
9. Inson huquqlarini himoya etishning Afrika tizimining o'ziga xos xususiyati nimada?
10. Bola huquqlariga ixtisoslashgan xalqaro nodavlat tashkilotlarining bola huquqlarini rivojlantirishdagi roli va ahamiyati nimada ko'rinadi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar va manbalar ro'yhati:

1. Balog'atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar. /Kirish so'z muallifi va mas'ul muharrir. A.X.Saidov. –T.; 2002. -232 b.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.Saidov, F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. –T.: "O'zbekiston", 2010.
3. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. To'plam. /O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X.Saidov. -T.: Adolat. 2004.
4. Исмаилов Б., Рахимова М. Правовые основы системы ювналной юстиции. Учебное пособие. Ташкент, UNICEF, 2003.

5. *Mo‘minov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. –T.: JIDU, 2011*
6. *Mo‘minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. –T.: JIDU, 2010.*
7. *Mo‘minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas‘ul muxarrir A.X.Saidov. 2-nashr. –T.: Adolat, 2013.*
8. *Mo‘minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013.*
9. *Mo‘minov A. Xalqaro tashkilotlar huquqi shakllanishining nazariy masalalari. –T.: JIDU, 2013*
10. *Mo‘minov A. Xalqaro tashkilotlar huquqi. O‘quv qo‘llanma. –T.: JIDU, 2014*
11. *Saidov A. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq. Darslik. - T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.*
12. *Raxmonov B., Mahmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. –T.: “CHASHMA PRINT”, 2011.*
13. *Xakimov R. Детство: Проблемы и перспективы: [1946-2006]. –T.: O‘zbekiston, 2006.*

5-bob. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi va uning fakultativ protokollari

5. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani qabul qilishning shart-sharoitlari, o'ziga xos xususiyatlari va poydevor prinsiplari
6. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya normalarining umumiy tavsifi
7. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga fakultativ protokollarning tavsifi
8. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va unga Fakultativ protokollarning monitoring mexanizmi

1. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani qabul qilishning shart-sharoitlari, o'ziga xos xususiyatlari va poydevor prinsiplari

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bola huquqlarini himoya qilish tarixida alohida o'rin egallaydi. Konvensiya tez orada, 20 ta davlat tomonidan ratifikatsiya qilindi va 1990-yilda kuchga kirdi.

Konvensiyani tezda kuchga kirganligi, xalqaro xamjamiyat tomonidan jamiyatning eng nozik qismi hisoblangan bolalarning alohida manfaatini e'tirof etish, xurmat qilish hamda ularni himoya qilishga katta e'tibor qaratilayotganligining dalolatidir. Mazkur hujjatni qabul qilishgacha muhim tayyorgarlik davri, dastavval 1959-yildagi Bola huquqlari deklaratsiyasida mustahkamlangan poydevor prinsiplarni shakllantirishdan boshlangan edi. Ular mantiqiy nihoyasi sifatida Bola huquqlari to'g'risida konvensiyasida yuridik jihatdan majburiy normalar aks ettirildi.

Konvensiya ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida ishtirok etgan davlatlar har bir mamlakatda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlikni yanada jadallashtirish va yaxshilash zarurligiga hamda jahonda kechayotgan globallashtirish jarayonlarining yutuqlari bilan bir qatorda muammolarini va ularni bola huquqlariga ijobiy va salbiy ta'sirlarini, shuningdek, unda bolalarning ehtiyojlari va manfaatlarni hisobga olishga ishonch xosil qildilar.

Konvensiya moddalari bolaning yashash, farovon hayot sharoiti, ta'lim olish, ism, fuqarolik, o'z individualligini saqlash, alohida yashayotgan ota-onalari bilan muomalada bo'lish imkoni, o'z qarashlari va fikrlarini erkin bayon qilishga bo'lgan huquqlarini batafsil tartibga soladi. Konvensiya bolalarga nisbatan, qanday shaklda namoyon bo'lmasin, shafqatsiz muomalada bo'lish, ekspluatatsiya qilish va kamsitishni taqiqlaydi. Davlat va ota-onalar zimmasiga bolalarning huquq va erkinliklariga rioya qilish bo'yicha javobgarlik majburiyatini yuklatadi.

Undagi qoidalar keng doiradagi fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik va madaniy huquqlarni o'ziga qamrab olgan. Bu "pog'ona"dagi barcha huquqlar bir-birlarini to'ldiradilar, qo'llaydilar, tarannum qiladilar va shu zaylda bolaning salomatligi va rivojlanishiga xizmat qiladilar. Ulardan foydalanish qulay bo'lishini ko'zlab, uch toifadagi huquqlar guruhi ajratiladi: ta'minlash, himoyalash va ishtirok etishga oid.

Birinchi holda – sharoitlar bolaning huquqlarini amalga oshirishni, foydalanishini ta'minlaydigan bo'lishi (o'z oilasi bag'rida yashash yoki o'qish kabilar);

ikkinchi holda – o'z huquqlari har qanday tajovvuzlardan (ekspluatatsiya, zo'ravonlik, asossiz ozodlikdan mahrum etish va h.k.) himoyalangan ekanligi;

va, uchinchi holda – jamiyat xayotida, shu jumladan, o'z oilasida bevosita ishtirok etish uchun chinakam imkoniyatlarga ega bo'lish¹¹³.

Konvensiyani tayyorlash jarayoni oddiy kechmaganligini inobatga olish lozim. Bolaga har qanday odamlarga tegishli huquqlarni taqdim etishga ishonmaydiganlarning jiddiy qarshiliklariga uchradi. Ayniqsa, bolaning o'z fikrini bayon qilish, yig'ilishlarda erkin ishtirok etish, vijdon erkinligi, ijtimoiy ta'minotdan foydalanish huquqlarini e'tirof etishning zarurligiga shubhalanuvchilar bo'ldi.

¹¹³ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. –B.78

Keskin munozaralar natijasida bola barcha odamlarga tegishli huquqlar kompleksi bilan ta'minlanishi to'g'risida g'oyani e'tirof etuvchilar har qalay ustun keldilar¹¹⁴.

YUNISEF ma'lumotlarida alohida ta'kidlanganidek, bu huquqlarning barchasi Konvensiya matni bo'yicha uch asosiy maqsadni nazarda tutadi:

- *birinchidan*, bola huquqlari barcha boshqa shartnomalarga binoan umuman insonlarga berilgan huquqlardan iborat ekanini yana bir-marta ta'kidlash;
- *ikkinchidan*, insonning ba'zi asosiy huquqlarini mustahkamlab, bolalarning o'ziga xos manfaatlarini va mo'jizligini alohida e'tiborga olish;
- *uchinchidan*, bolalar uchun ayniqsa muhim bo'lgan sohalarga oid me'yorlar belgilash¹¹⁵.

Ta'kidlash lozimki, bolalarning keng huquqlarini tan olinishini, o'z huquqlaridan foydalanish va ularni himoyalashda mustaqil bo'lishini ba'zilar Konvensiya, xuddi bolalarni o'z oilalaridan "ozod" qilayotgandek tushundilar. Bunday tushuncha Konvensiyaning mazmuniga batamom zid bo'lib, uning xarakteri va maqsadini noto'g'ri talqin qilardi. Haqiqatda esa, Konvensiyaning maqsadi bolalarni o'z ota-onalaridan va oilalaridan uzoqlashtirish va yakkalab qo'yish emas, aksincha, bolalarni o'z oilasida yashashi, ota-onasidan ajratilmasligi, oila tizimlarini susaytirish emas, balki kuchaytirishga qaratilgan edi. Ishtirokchi davlatlarga, turli sabablarga ko'ra buzilgan oilalarni tiklash vazifasi yuklatilgani ham buning isbotidir.

Konvensiyaning chin mohiyati va ruhi oilani tibbiy orombaxsh muhit ekanligini va bola uni sevgan ota-onasi bag'rida mustaqil rivojlanishi, shakllanishi zarurligini e'tirof etishga qaratilgandi.

Konvensiyada uch jiddiy yangilik mavjud. Birinchidan, u bolalar uchun "ishtirok etish huquqi" tushunchasini amaliyotga kiritdi va bolalar o'z huquqlaridan xabardor bo'lishining ahamiyatini tan oldi.

¹¹⁴ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. –B.78

¹¹⁵ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. –B.78

Ikkinchidan, ilgari xalqaro hujjatlarda hech eslatilmagan ba'zi masalalarni o'rtaga tashladi: shafqatsizlik va ekspluatatsiyadan jabr ko'rgan bolalar o'z ahvolini tiklashga haqli ekani va hukumatlar bolalarning salomatligiga putur yetkazadigan odatlarga barham berish uchun qadam tashlashga majburligini ta'kidladi.

Uchinchidan, u ilgari yuridik majburiyat tug'dirmaydigan matnlardagina uchraydigan prinsiplar va me'yorlarga, xususan farzandlikka olish va voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarga e'tiborni qaratdi.

Konvensiya, shuningdek, ikki muhim konsepsiyani amaliyotga kiritdi:

Birinchi konsepsiya – “bola manfaatlarini yaxshiroq ta'minlash” (3-modda) bolalarga nisbatan barcha munosabatlar uchun majburiy omil deb sanaldi;

Ikkinchi konsepsiya – ota-ona yoxud bola uchun mas'ul bo'lgan barcha shaxslar o'z huquqlarini amalga oshirib, bolaga nisbatan boshqaruv va rahbarlik qilish chog'ida uning rivojlanib borayotgan qobiliyatlariga mos ish tutishlari darkor.¹¹⁶

Konvensiyaga ko'ra, bolaga nisbatan barcha harakatlar “bolaning manfaatlarini imkon boricha ta'minlash” (3-modda) mezoniga asoslanishi lozim. Bu mezon ota-onalarning o'z bolalariga munosabatlarida ham inobatga olinmog'i shart. Ular (ota-ona va ularning o'rnini bosuvchilar) o'z huquqlarini bolaning rivojlanayotgan qobiliyatlariga, ya'ni uning manfaatlariga moslab amalga oshirishlari kerak.

Konvensiyaning universal amal qilish miqyosi bo'yicha o'ziga xosligi shundaki, u insoniyat tarixida bola huquqlarini yuridik kafolatlagan birinchi xalqaro-huquqiy shartnoma hisoblanadi¹¹⁷. Uning qoidalari deklarativ emas, balki imperativ xususiyat kasb etadi.

¹¹⁶ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. –B.79

¹¹⁷ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. –B.80

Konvensiyaning axloqiy-siyosiy asosini Inson huquqlari bo'yicha xalqaro bill o'z ichiga olgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yildagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha xalqaro pakt va Fuqarolik va siyosiy huquqlari bo'yicha xalqaro pakt, va unga ikkita Fakultativ protokollar, shuningdek, 1959-yildagi Bola huquqlari deklaratsiyasi tashkil etadi. Shu bilan birga, uning yaratilishida oldingi boblarimizda tilga olingan ko'plab boshqa muhim hujjatlar ham muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Konvensiyada mustahkamlangan har bir me'yor xalqaro huquq me'yorlarining tarkibiy qismidir. Shu sababli, ushbu xalqaro shartnomani muayyan davlat hokimiyati oliy organi tomonidan ratifikatsiya qilinishi ushbu mamlakatda uning qoidalariga og'ishmay rioya etilishini bildiradi.

O'z zimmasiga majburiyat olgan davlatlar, unga rioya etmagan taqdirda, xalqaro hamjamiyat oldida mas'ul bo'ladilar.

Bola huquqlari to'g'risida konvensiyada axloqiy va yuridik xususiyatga ega bo'lgan ikki nihoyatda muhim sifatning mushtarakligi, ushbu universal shartnomaning obro'sini va ahamiyatini oshiradi.

Konvensiyaning axloqiy-huquqiy ta'sir kuchi shundaki, uning qoidalari ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan davlatlarning milliy qonunchiligida aks ettirilishi kerak¹¹⁸. Agar, bugungi kunda Konvensiyani dunyoning aksariyat davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilinganini hisobga olsak, Konvensiyada aks etgan normalar dunyoning deryali barcha davlatlarida milliy huquqiy tizimining tarkibiy qismiga aylanganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Konvensiyani bugungi kunda, 193 ta davlat ratifikatsiya qilgan¹¹⁹.

Bola huquqlari to'g'risida konvensiya normalarini amalga oshirish uchun hukumatlar tomonidan, Konvensiya normalarini mamlakatda qo'llash bilan bog'liq tegishli chora-tadbirlar va harakat rejasi qabul qilinadi. Bunday chora-tadbirlar va harakat rejasida qonun normalarini Konvensiya normalariga muvofiqlashtirishdan

¹¹⁸ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. –B.80

¹¹⁹ Special Rapporteur on the sale of children, child prostitution and child pornography.
<http://www.ohchr.org/EN/Issues/Children/Pages/ChildrenIndex.aspx>

boshlab, bu normalarning qo'llash samaradorligini oshirish uchun institutsional tizimda tegishli o'zarishlarni amalga oshirish, shuningdek, aholining huquqiy ongini o'zgaritirish maqsadida ta'lim tizimida hamda keng miqyosda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish kabi, Konvensiya normalarini qo'llashning, ya'ni implementatsiyasining samaradorligini oshirish bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.

Konvensiya me'yorlari qanchalik ijobiy bo'lmasin, ularning chinakam amalga oshirilishi bolalarning o'z huquq va qonuniy manfaatlaridan foydalanishi uchun aniq haqiqiy imkoniyatlar borligi bilan belgilanadi. Agar bolalar bunday imkoniyatga ega bo'lmasa, Konvensiyaning hayotiyliigi haqida so'z yuritish mushkul. Aynan, shuning uchun ham, davlatlarning e'tibori bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga oid o'z huquqlarini aniq joriy etishlari uchun qulay sharoitlarni yaratib berish majburiyatiga qaratiladi¹²⁰.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Bola huquqlari to'g'risida konvensiyani 1992-yil ratifikatsiya qilib, o'z zimmasiga uning barcha qoidalariga rioya qilish bo'yicha xalqaro majburiyatlar olgan. Mamlakatda xalqaro majburiyat doirasida, avvalo, Konvensiyani o'rganish va amalga oshirilishi bo'yicha nazoratni olib boruvchi ishchi guruhi tuzildi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilinganidan buyon o'tgan davr mobaynida O'zbekiston bir qancha tegishli qonunlarni qabul qildi, ular qatorida "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun alohida rol o'ynaydi. Mazmunan u bolani teng huquqli shaxs deb tan oluvchi "Bola" konvensiyasining milliy nusxasidir. Binobarin, har bir insonning barcha huquq va erkinliklari bolalarga ham tegishlidir.

Konvensiyaning asosiy prinsiplari tegishli qonun majmualarida – oila, fuqarolik, mehnat kodekslarida va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan¹²¹. Bu asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- Yashash bolaning ajralmas huquqi ekani prinsipi;

¹²⁰ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik / prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. –B.81

¹²¹ Bu huquq manbalarining batafsil tahlili ushbu darslikning 7 va 8-mavzularida berilgan.

- Bola manfaatlarining yanada yaxshiroq ta'minlanishi prinsipi;
- Bolani kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipi;
- Bolaning o'z fikrini erkin ifodalashi va tinch yig'ilish erkinligiga

bo'lgan huquqi prinsipi.

“Bolaga tegishli barcha huquq va erkinliklarning negizini tashkil etuvchi to'rtala prinsip, uning teng huquqli shaxs sifatidagi huquqiy maqomini yuksaltirish nuqtai nazaridan qadrlanadigan¹²²” mazkur prinsiplar Konvensiyaning poydevor prinsiplari hisoblanadi va uning normalari bu prinsiplar asosida qurilgan.

2. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya normalarining umumiy tavsifi

Mazkur hujjat konvensiya shaklida tuzilgandir. Odatda, konvensiya (lot. sonventio-bitim) atamasi umumiy ma'noda ham, muayyan turdagi xalqaro bitimlarni belgilsha uchun ishlatiladi. Umumiy ma'noda atama odat huquqidan forqli o'laroq, BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasida belgilanganidek, asosan shartnoma huquqini belgilash uchun ishlatiladi¹²³. Konvensiyaning tuzilishi, odatga ko'ra, kirish qismi hisoblanmish muqaddima, ikkita qismdan iborat asosiy qism va yakunlovchi qismdan iborat 3 ta tarkibiy qismdan iborat bo'lib, umumiy 54 moddani tashkil etadi.

Konvensiyaning rasmiy maqsadi, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va shartnoma tuzish sabablari¹²⁴ ko'rsatilgan Muqaddima qismida, xalqaro hamjamiyatning jahonda bola huquqlarini har tomonlama himoya qilishga qat'iy sa'y-harakati, jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va tibbiy muhitga uning barcha a'zolari, ayniqsa, bolalar o'sib-ulg'ayishlari va farovonlikka ega bo'lishlari uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga to'liq oladigan bo'lishiga erishish maqsadda zarur himoya va yordam bilan ta'minlanishi

¹²²Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik / prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. –B. 96

¹²³Rashidov K. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining tuzilishi, bajarilishi va bekor qilinishi. (Parlament a'zolari uchun amaliy qo'llanma). –Toshkent, 2012. -B.16

¹²⁴ Rashidov K. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining tuzilishi, bajarilishi va bekor qilinishi. (Parlament a'zolari uchun amaliy qo'llanma). –Toshkent, 2012. -B.27

lozim ekanligi, bolaning shaxsi sogʻlom va har tomonlama uygʻunlashgan holda kamoloti uchun u oila gʻamxoʻrligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida oʻsishi zarurligini eʼtirof etgan holda, jahondagi barcha mamlakatlarda ogʻir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida eʼtiborga muhtoj ekanliklarini, bolaning himoya qilinishi va uygʻun ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning anʼanalari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olinganligi, har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligini eʼtirof etilganligi, shuningdek, Konvensiyani bola huquqlari boʻyicha boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar va ularning normalari uygʻunligi kabi masalalar oʻz aksini topgan.

Konvensiyaning I-qismida ishtirokchi davlatlarning bolalarning huquq va erkinliklari, ota-onalari va ularni oʻrni bosuvchilarning huquqlari, majburiyatlari, shuningdek, ularni taʼminlab berish borasidagi davlat va uning tegishli organlarining majburiyatlari va vazifalari belgilab berilgan.

Konvensiyaning 1-moddasida “bola” taʼrif beriladi, yaʼni, unga koʻra “18 yoshga toʻlmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qoʻllaniladigan qonun boʻyicha u ertaroq balogʻatga yetmagan boʻlsa, bola hisoblanadi”.

Konvensiyaning 2-5 moddalarida ishtirokchi-davlatlarga, ular tomonidan Konvensiyada koʻzda tutilayotgan huquqlarni taʼminlab berish yuzasidan amalga oshirishi lozim boʻlgan chora-tadbirlari, kabi majburiyatlar yuklatilgan.

Jumladan, 2-moddada, ishtirokchi-davlatlarga oʻz taʼsir doirasida boʻlgan har bir bola uchun Konvensiya koʻzda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamsitishlarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa eʼtiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, bolaning sogʻligʻi va tugʻilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoki biror-bir boshqa holatlardan qatʼiy nazar, hurmat qilishi lozimlii hamda bu huquqlarni taʼminlab berish, shuningdek, “bola, uning ota-onasi, qonuniy vasiysi yoki boshqa oila aʼzolarining qarashlari yoki eʼtiqodida oʻz ifodasini topadigan maqom, faoliyat asosida

kamsitish yoki jazolashning barcha shakllaridan bolaning himoyasini ta'minlash uchun hamma zarur choralarni ko'rish majburiyatini yuklaydi.

Kamsitish – yengish qiyin bo'lgan ijtimoiy hodisa hisoblanib, ijtimoiy turmushning barcha darajalarida barham berilishi lozim. Uni yo'qotish uchun avvalo, davlat o'zining siyosiy irodasini namoyish etishi zarur. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya, ishtirokchi-davlatlar zimmasiga ular tomonidan nazarda tutilgan "barcha huquqlarni hurmat qilish va ta'minlash" vazifasini yuklab qo'yganligi bejiz emas. Shunga muvofiq, davlat bolalar o'z huquqlaridan haqqoniy foydalanishlari uchun huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tushdagi choralardan foydalanishi kerak. Bu o'rinda kamsitishning oldini olish borasida ogohlantiruvchi choralarni yaratish haqida so'z yuritilmoqda. Insonning rivojlanish erkinligini kamsitish nomaquldir. Hozirda jamiyat, uning har bir institutining bevosita ishtirokisiz uni tubdan yo'qolishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Fuqarolik jamiyatining rivojlangan darajasiga shubhasiz ko'p narsa bog'liq. Dunyo rivojlanish tajribasining dalolat berishicha, fuqarolik jamiyatining "ulg'ayishi" ijtimoiy muammolarni hal etish jarayonida fuqarolarning ishtiroki bilan amalga oshadi. Jamoatchilik kamsitishni yo'qotishga qanchalik muvaffaqiyatli kirishsa, uning hayotiy zarur muammolarni yechish faoliyatining natijasi ham shunchalik samarali bo'ladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan tayyorlangan "2000-yil bo'yicha insoniyat taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruza"da sanab o'tilgan "Yetti erkinlik" qatoriga "**Kamsitishlardan erkin bo'lish**" ham kiritilgan¹²⁵.

3-moddada "Bola manfaatlarini yaxshiroq ta'minlash prinsipi" o'z aksini topgan, ya'ni unga ko'ra, bolalarga nisbatan barcha hatti-harakatlarda, ular ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat yoki xususiy muassasalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan sodir etiladimi-yo'qmi,

¹²⁵Bola huquqlari /Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009.–B.89-90

bundan qat'iy nazar, bolaning manfaatlari yaxshiroq ta'minlanishiga birinchi darajali e'tibor berilishi;

Ishtirokchi-davlatlar o'z zimmasiga bolani uning farovonligi uchun zarur hisoblangan himoya va g'amxo'rlik bilan ta'minlash, bunda uning ota-onasi, vasiysi yoki qonun bo'yicha uning uchun javobgar sanalmish boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlarini e'tiborda tutishni hisobga olishlari hamda ana shu maqsadda barcha qonuniy va ma'muriy chora-tadbirlarni ko'rishlari;

Ishtirokchi-davlatlar bolalar haqida g'amxo'rlik ko'rsatish yoki ularni himoya qilish uchun mas'ul hisoblangan organlar, muassasalar va xizmatlar vakolatli organlar tomonidan belgilab qo'yilgan me'yorlarga, xususan, xavfsizlik va sog'liqni saqlash sohasida va ulardagi xodimlarning soni va ishga yaroqliligi, shuningdek, vakolatli nazorat olib borishi nuqtai nazaridan belgilangan me'yorlarga javob berishlarini ta'minlashlari lozimligi belgilab qo'yilgan.

Konvensiyaning 4-moddasi ishtirokchi-davlatlarga, Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirish uchun barcha zarur qonuniy, ma'muriy va boshqa choralarni ko'rish majburiyatini yuklaydi. Shuningdek, unda, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga nisbatan ishtirokchi-davlatlar bunday choralarni o'zlarida mavjud bo'lgan imkoniyatlar doirasida, mumkin qadar yuqori darajada zarurat tug'ilgan takdirda esa xalqaro hamkorlik doirasida qabul qilishi kerakligi alohida ko'rsatib o'tilgan.

5-moddada esa, bola tarbiyasi bo'yicha davlat, jamiyat va shaxs mas'ulligining uyg'unligiga oid qoida keltirilgan. Jumladan, unda ishtirokchi-davlatlar ota-onaning va tegishli holatlarda kengaytirilgan oila a'zolari yoki mahalliy urf-odatlarda ko'zda tutilganidek, jamoaning vasiylar yoki qonun bo'yicha bola tarbiyasi uchun javobgar hisoblangan boshqa shaxslarning Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirishda munosib darajada bolani boshqarish va unga rahbarlik qilish hamda bu ishni bolaning rivojlanib borayotgan qobiliyatlariga muvofiq holda bajarishdagi mas'uliyati, huquq va majburiyatlarini hurmat qilishlari lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Alohida qayd etish lozimki, Konvensiya moddalarida bolalarning tegishli huquq va erkinliklarga ega ekanligini ko'rsatilishi bilan birga, shu moddalarning o'zida ularni ishtirokchi-davlatlar e'tirof etadilar, deb ham ko'rsatib ketilgan.

Misol uchun, Konvensiyaning 6-moddasida ishtirokchi-davlatlarning har bir bola yashash uchun ajralmas huquqqa ega ekanligini e'tirof etishlari va bolaning omon yashashi va sog'lom rivojlanishi uchun mumkin qadar yuqori darajada imkoniyat yaratib berishlari lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Bolaning hayoti va sog'lig'iga alohida g'amxo'rlik qilish to'g'risida bolani "tug'ilgani zahoti" ro'yxatga olish to'g'risidagi qoida Bola huquqlari to'g'risida Konvensiyaning 7-moddasida bayon etilgan. Ta'kidlash joizki, tug'ilishni qayd etish ijtimoiy ongda faqat texnik tartib sifatida qabul qilinadi.

Aslida, uning ijtimoiy ahamiyati shunchalik yuksakki, kechikib ro'yxatga olish ba'zan halokatli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Yangi tug'ilgan chaqaloqni tug'ruqxonada almashtirib qo'yish, o'g'irlash, hatto o'ldirish hollari uchraydi. Bunday hollarning fojiviy yakun topishi muqarrar. Shuning uchun ham, Konvensiyada yangi tug'ilgan go'dakni ro'yxatga olishning o'ta qisqa muddati belgilab qo'yilgan¹²⁶. Ya'ni, 7-moddaning birinchi xat boshisiga ko'ra, "Bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi va tug'ilgan daqiqasidan boshlab ism bilan atalish va fuqarolikka ega bo'lish, shuningdek, iloji boricha, o'z ota-onasini bilish va ularning g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqlarini olishga haqli hisoblanadi."

Qisqa muddatda ro'yxatga olishning amaliy ahamiyati shundaki, bola ro'yxatga olinganidan keyin darhol qonun himoyasi ostida bo'ladi. Umuman ro'yxatga olmaslik yoki kechikib ro'yxatga olish bolaning hayoti va sog'lig'i uchun muayyan xavf tug'diradi.

Go'dakni zudlik bilan ro'yxatga olish bolalarni o'g'irlash, ularni qul qilib sotish, bolalar mehnatidan foydalanish, inson a'zolarini ko'chirib o'tkazish bilan bog'liq transmilliy jinoyatchilikning o'sib borayotganligi sharoitida tobora keskin

¹²⁶Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik / prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. –B.82

tus olmoqda. Shuning uchun ham, bolalarning xavfsizligini qo‘riqlash va himoya qilish muammosi hozirgi kunda dunyoda odamlarning, shu jumladan, bolalarning o‘z ota-onalari tomonidan o‘ldirilishi, tovon olish uchun bolalarni o‘g‘irlash va muvaffaqiyatli amalga oshmagan operatsiyadan so‘ng o‘ldirilishi, qurolli mojarolar va hokazolarda o‘ldirilishi tufayli ularning dom-daraksiz yo‘qolishi bilan bog‘liq hodisalar keng tarqalgan bir sharoitda tobora chuqurlashib bormoqda.

Yuqoridagi salbiy ijtimoiy hodisalarni inobatga olib, Konvensiyaning 7-moddasiga binoan hozirgi kunda ro‘yxatga olish muammosi dunyo hamjamiyatining ishtirokchi-davlatlari o‘z mamlakatlari qonunchiligiga kiritishi kerakligi alohida ahamiyat kasb etmoqda¹²⁷. Mazkur moddaning ikkinchi xat boshisiga ko‘rsa, “Ishtirokchi-davlatlar bunday huquqlar o‘z milliy qonunchiliklariga muvofiq amalga oshirilishini, ularning majburiyatlari shu sohaga tegishli xalqaro xujjatlarga asosan, xususan, bola boshqa fuqarolikka ega bo‘lmagan taqdirda bajarilishini ta‘minlaydilar”.

Konvensiya ishtirokchi-davlatlarga qonunda ko‘zda tutilganidek, bolaning o‘ziga xos xususiyatlari jumladan, fuqaroligi, ismi va oilaviy aloqalarini saqlab qolish huquqini hurmat qilish, qonunga zid ravishda aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik (8-modda 1-qismi) hamda agar bola o‘ziga xoslik elementlarining bir yoki barcha qismlaridan g‘ayriqonuniy ravishda mahrum etilgan bo‘lsa, ishtirokchi-davlatlar uning bu xususiyatlari tezroq tiklanishi uchun zarur yordamda himoyalashni ta‘minlash (8-modda 1-qismi) majburiyatini yuklaydi.

Konvensiyada bolaning ota-onasi bilan birga yashashga bo‘lgan huquqiga, uning ajralmas huquqi sifatida qaraydi va undan faqatgina bolaning eng maxshi manfaatlaridagi ayrish mumkin deb xisoblaydi. Ya‘ni, 9-moddaning 1-qismiga ko‘ra, “Ishtirokchi-davlatlar bola o‘z ota-onasidan ularning hoxishlariga zid ravishda ayrilib qolmasligini ta‘minlaydilar, vakolatli organlar sud qaroriga binoan qo‘llanilgan qonun va tartib-rusumga muvofiq tarzda bunday ayrilish bolaning eng yaxshi manfaatlari yo‘lida zarur deb topgan holatlar bundan mustasnodir. Bunday

¹²⁷ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009.–B.83

ajrim, masalan, ota-ona bolaga shafqatsizlik bilan munosabatda bo'lgan yoki unga g'amxo'rlik qilmay qo'ygan yohud otag'ona alohida yashayotgan hamda bola yashaydigan joyga nisbatan qaror qabul qilish zarurati paydo bo'lgan u yoki bu aniq holatda zarur bo'lishi mumkin". Bunga muvofiq holda ishni har qanday sharoitda ko'rib chiqish jarayonida barcha manfaatdor tomonlarga muhokamada qatnashish va o'z nuqtai nazarini bayon qilish imkoniyati beriladi (Mazkur moddaning 2-qismi).

Bolaning eng yaxshi manfaatlariga zid keladigan munosabatlarni istisno qilgan holda, ishtirokchi-davlatlar ota-onasining bittasi yoki har ikkovidan ham ayrilgan bolaning ular bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqini hurmat qilish majburiyatini o'z zimmlariga oladilar (Mazkur moddaning 2-qismi).

9-moddaning 4-qismida "Ishtirokchi-davlat tomonidan qabul qilingan biror-bir qaror, masalan, hibsga olish, qamash, surgun qilish, deportatsiya yoki ota-onadan bittasi yohud ikkovining ham yoki bolaning o'limi (ana shu shaxs davlat ixtiyorida bo'lgan paytda har qanday sababga ko'ra ro'y bergan o'lim ham shunga kiradi) tufayli sodir bo'lgan bo'lsa, ishtirokchi-davlat ota-onaga, bolaga yoki, agar zarurat tug'ilsa, oilaning boshqa a'zosiga ularning iltimosiga binoan oilaning yo'qolgan a'zosi (a'zolari yashab turgan joy) haqida, zarur axborotni agar bu bolaning farovonligiga ziyon keltirmaydigan bo'lsa yetkazib beradi. Ishtirokchi-davlatlar bunday iltimosni qondirish o'z-o'zidan tegishli shaxs (shaxslar) uchun noxush oqibatlarga olib kelmasligini ta'min etadilar" deb ko'rsatib o'tilgan.

10-moddada ishtirokchi-davlatlar tomonidan bola yoki uning ota-onasi oilani birlashtirish maqsadda ishtirokchi-davlatga kirish yohud undan chiqish uchun bergan arizalari ishtirokchi-davlatlar tomonidan ijobiy, insonparvarlik ruhida va tezkorlik bilan ko'rib chiqilishi lozimligi (1-qism), ota-onasi turli davlatlarda yashayotgan bola alohida holatlardan tashqari, otasi va onasi bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqiga egaligi ko'rsatib o'tilgan. Bunda ishtirokchi-davlatlar bolaning va ota-onasining har qanday mamlakatni tark etish, jumladan, o'z mamlakatini tashlab

ketish va unga qaytib kelish huquqini hurmat qilishi lozimdir. Shu bilan birga qayd etish kerakki, har qanday mamlakatni tark etish huquqiga nisbatan qonunda belgilab qo'yilgan va davlat xavfsizligini, jamoat tartibini (ordre public), aholining sog'lig'i va ma'naviyati hamda boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini saqlash uchun zarur hisoblangan taqdirda, Konvensiyada e'tirof etilgan boshqa huquqlarga mos tushadigan holda cheklash mumkin (2-qism).

Konvensiyada (11-modda) bolalarning g'ayriqonuniy ravishda ko'chirilishiga va chet eldan qaytmasligiga qarshi kurash olib borish uchun davlatlarning chora-tadbirlar ko'rishlari lozimligi va shu maqsadda ishtirokchi-davlatlar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bitimlar tuzilishiga yohud amaldagi bitimlarga qo'shilishga ko'maklashadilar.

Konvensiyada ishtirokchi-davlatlar o'zining qarashlarini shakllantirishga qodir bolaga, ana shu karashlarni bolaga taalluqli barcha masalalar bo'yicha erkin ifoda etish huquqini ta'minlashi (12-moddaning 1 qismi), shu maqsadda bolaga, jumladan, bolaga taalluqli har qanday sud yoki ma'muriy muhokama paytida, bevosita, vakil yohud tegishli organ orqali milliy qonunchilikning protsessual me'yorlarida ko'zda tutilgan tartibda o'zining fikrlarini ular tomonidan eshitish imkoniyati berilishi lozimligi (12-moddaning 1 qismi) aks etgan.

Konvensiyada *bolaning o'z fikrini erkin bayon qilish va tinch yig'ilishlarga bo'lgan huquqiga oid prinsip va ishtirok qilish prinsipi* Ishtirokchi davlatlar tomonidan bola o'zining fikrini erkin ifodalash huquqiga egaligi (13-modda), bolaning fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga egaligini, ota-onaning hamda tegishli holatlarda qonuniy vasiylarning bolaga uning rivojlanayotgan qobiliyatlariga muvofiq keladigan usul orqali bola huquqini amalga oshirishda rahbarlik qilish huquqi va majburiyatlarini hurmat qilishi lozimligini (14-modda), bolaning assotsiatsiya va tinch yig'ilishlar erkinligi huquqini e'tirof etishi (15-modda) tarzida berilgan.

Taniqli fransuz faylaso'fi Dekartning allaqachon og'izdan-og'izga o'tib kelgan "Cogito ergo sum" – "Fikrlayapman, demak yashayapman", degan iborasi" bilan aytganda bola tafakkurining hayotiy ahamiyati va rolini aniq ko'rsatib beradi

hamda kattalar ega bo'lgan huquqlarga bola teng huquqli shaxs sifatida ega ekanligi tan olinadi.¹²⁸

Taraqqiyotning xozirgi bosqichiga xos talab shundaki, bolaning o'z fikrini erkinlik bilan bildirishga bo'lgan huquqini faqat qonun bilan tan olish etarli emas deb xisoblash lozim. Endilikda ana shu tan olingan huquqni amalda ta'minlash darkor. Shunga ko'ra, davlatlar bolalarning qonunda belgilangan huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan choralar ko'rmoqda. O'zbekistonda, jumladan, davlat teleradiosi bolalarning bilimi va xordiq chiqarishiga moslangan turli eshittirishlar olib boradi. "Alanga" radiosi "**Olam bizning ko'zimizda**" yoshlar ruknida qatnashadigan bahslar tashkil etadi. Munozaralar mavzusini bolalarning o'zi tanlashi naqadar maroqli. Munozaralar bolalarda mantiqiy fikr yuritishni, o'z g'oyasini asoslab ishonitirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ularda boshqalarning fikrlariga bardosh berish, xurmat qilish xissiyotlarini tarbiyalaydi.

"**Agar rahbar bo'lib qolsam...**" ruknida bolalar rahbarlarning fuqaro bilan o'zaro munosabatlari, ijtimoiy va huquqiy tartib muammolari, o'tish davri bilan bog'liq qiyinchiliklarni yengish kabi muhim masalalar haqida fikr yuritadilar.

Ekologik ma'rifatni rivojlantirishda o'spirinlarning "**Ekologiya, salomatlik va bolalar**" rukni muhim rol o'ynaydi. Bu ruknda bolalarning ishtiroki umuman jamiyatda va xususan har bir shaxsda sof ekologik muhit naqadar xavfsizlik va sog'liqning qadriga yetish, tushinish zarurligiga ishonch tug'diradi¹²⁹.

Konvensiyadagi me'yorlar ijtimoiy fikrga chinakam xayrixohlik ta'sirini ko'rsatayotgani bolalar dunyoda borgan sari maktab kengashlarida, bolalar parlamentida, jamiyat hayotida ko'proq ishtirok etayotganidan ko'rinib turibdi. Hindistonning shtatlaridan birida bolalar o'z o'qituvchisining kontraktini uzaytirishga qarshi ovoz berib, ular o'z fikrlarini o'qituvchi "bolalarga e'tibor bermagani", dars soatlarida boshqa ishlar bilan shug'ullangani bilan asoslantirishgan. Fransiyalik maktab bolalari yoshlar kengashiga a'zo bo'lib

¹²⁸Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009.–B.90

¹²⁹ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. –B. 91-92

saylanib, shahar kengashining a'zolarini bolalar uchun yaxmalak uchish-maydonini qurish zarurligiga ishontira olganlar.

Bu xil faktlar bolalarning jamiyat hayotida faol qatnashganlari uchun rag'batlantirish muhim ekanligini isbotlaydi. Shuningdek, bunday faktlar bolalarning tabiatiga xos, faqat o'zlarining manfaatlari uchun emas, balki umuman jamiyat uchun xizmat qilish hissiyotidan keng foydalanish mumkinligidan darak beradi.

Ishtirok etish huquqining tan olinishi o'sib borayotgan yosh avlodning tashkilotchilik qobiliyati va ijodiy faolligini yanada oshiradi¹³⁰.

Ammo, qayd etish lozimki, bunday huquqlar cheklanishi mumkin. Chunki, "O'z fikrini erkin ifoda etish chegarasiz emas, u o'zining me'yorlariga ega. So'z erkinligini to'g'ri kelgan narsani gapiraverish deb tushunmaslik kerak. Erkinliklarning har biri o'z chegarasiga ega. Bu me'yorlar ma'naviy, axloqiy xususiyatga ega talablar bilan belgilanadi. Ma'lumki, so'z insonni ulug'lashi, ilhomlantirishi mumkin. Biroq, so'z uni chuqur jarohatlashi ham mumkin. Har qanday haqoratimiz ifodaning qanchalik ma'naviy azob yetkazishini isbotlashning hojati bormikin. Insoniyat nutqida "xushmuomalalik", "odoblilik", "sipolik" kabi inson qadr-qimmatiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni aks ettiruvchi atamalarning vujudga kelganligi bejiz emas"¹³¹. Ammo, bunday cheklash faqat qonunda belgilangan hamda davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholining ma'naviyati va sog'lig'ini saqlash yoki boshqa shaxslarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur hisoblangandagina amalga oshirilishi mumkin.

Bolaning eng muhim bo'lgan huquqlaridan bo'lmish, uning shaxsiy hayot, oilaviy hayot, uy-joy dahlsizligi yoki pochta orqali yuboriladigan narsalarning maxfiyligiga bo'lgan huquqi amalga oshirilishiga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga zid ravishda aralashish yohud uning sha'ni va obro'siga g'ayriqonuniy

¹³⁰ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. –B. 95

¹³¹ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik /prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009. –B. 93

tajovuz qilish obyekti bo'lishi mumkin emasligi, bola ana shunday aralashishlar yoki tajovuz qilishlardan qonun yo'li bilan himoyalaniş huquqiga egaligi (16-modda) ham, bolaning shaxsiy dahlsizligi bilan bog'liq huquqlarining kafolati sifatida ko'riladi.

17-moddada ishtirokchi-davlatlarning bola turli xil milliy va xalqaro manbalarning axborotlari hamda materiallari, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy farovonlikka, shuningdek, bolaning sog'lom, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ko'maklashishga qaratilgan axborotlardan bahramand bo'lishini ta'minlab berishi kerakligi ko'rsatib o'tilgani holda, mazkur jarayonda bolaning farovonligiga zarar yetkazadigan axborot va materiallardan uni himoya qilishning tegishli tamoyillarini ishlab chiqishni rag'batlantirish majburiyati belgilab qo'yilgan.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevraldagi "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi to'g'risidagi PQ-2133-son qarorida, mazkur Dasturni amalga oshirish jarayonida qabul qilinishi lozim bo'lgan qonun loyihalari orasida O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni salbiy jismoniy va ma'naviy jihatdan ta'sir ko'rsatuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun loyahasini ishlab chiqish va qabul qilish rejalashtirilgan.

17-moddaga ko'ra ishtirokchi-davlatlar bola tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun ota-onaning umumiy va bir xil javobgarligi tamoyili e'tirof etilishini ta'minlashga qaratilgan barcha mumkin bo'lgan kuch-g'ayratlarni safarbar etadilar. Ota-ona yoki tegishli holatlarda qonuniy vasiylar bolaning tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun asosiy javobgar bo'ladilar. Bolaning eng yaxshi manfaatlari ular ko'rsatadigan asosiy g'amxo'rlikning predmeti hisoblanadi (1-qism).

Konvensiyada bayon qilingan huquqlarning amalga oshirilishini kafolatlash va ko'maklashish maqsadda ishtirokchi-davlatlar ota-ona va qonuniy vasiylarga bola tarbiyasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishlariga tegishli yordam ko'rsatadilar hamda bolalar muassasalari tarmog'ining rivojlanishini ta'minlaydilar (2-qism).

Ishtirokchi-davlatlar ota-onasi ishlaydigan bolalar uchun mo'ljallangan xizmatlar hamda bolalar parvarish qilinadigan muassasalardan bolalarning

foydalanish huquqiga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radilar (3-qism).

19-moddada, ishtirokchi-davlatlar bolani jismoniy va ruhiy zo'ravonlikning, haqoratlash va suiiste'molliklar, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik yoki beparvolik bilan muomalada bo'lish, qo'pol muomala qilish yoki ota-ona, qonuniy vasiylar yoki bola haqida g'amxo'rlik qiluvchi har qanday boshqa shaxs tomonidan ekspluatatsiya qilish, jumladan, shahvoniy suiiste'molliklar sodir etishning har qanday shakllaridan himoyalash maqsadda jamiki zarur qonuniy, ma'muriy, ijtimoiy va ma'rifiy chora-tadbirlarni ko'rishlari lozimligi belgilab qo'yilgan bo'lib, bunday himoya choralari, zarurat tug'ilgan taqdirda, bola va unga g'amxo'rlik ko'rsatayotgan shaxslarni lozim darajada qo'llab-quvvatlash maqsaddagi ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish uchun samarali tartib-rusumlarni, shuningdek, bola bilan yuqorida ko'rsatilgan tarzda shafqatsizlarcha muomala qilish hollari munosabati bilan ogohlantirish, aniqlash, xabar berish, qarab chiqish, tergov olib borish, davolash hamda shundan keyingi choralarni ko'rish zarurati tug'ilgan taqdirda, sud ishini qo'zg'atish uchun chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi ko'rsatib o'tilgan.

Konvensiyaning 20–24-moddalari muayyan zaif qatlam sifatida e'tirof etilgan bolalarning huquq va erkinliklari ham qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Jumladag, 20-modda yetim bolalarning huquq va erkinliklariga bag'ishlangan. Jumladan, unda o'zining oila g'amxo'rligidan vaqtincha yoki doimiy mahrum bo'lgan yoki o'zining eng yaxshi manfaatlari yo'lida bunday g'amxo'rlikda qola olmaydigan bola davlat tomonidan ko'rsatiladigan alohida himoya va yordamni olish huquqiga egaligi, bunda ishtirokchi-davlat o'z milliy qonuniga muvofiq ravishda bolani parvarish qilishning almashtirilishini ta'minlashi lozimligi va u bolani bunday parvarishlash, jumladan, tarbiya berishni, asrab olishni yoki zarurat tug'ilgan taqdirda, bolalar boqiladigan tegishli muassasalarga joylashtirishni o'z ichiga olishi kko'rsatib o'tiladi. Parvarishni almashtirish turlari qarab chiqilayotganda bola tarbiyasidagi vorislikning maqsadga

muvofigligi hamda uning etnik kelib chiqishi, diniy va madaniy mansubligi, ona tili yetarli darajada hisobga olinishi lozim.

21-moddada bola asrab olishda ishtirokchi-davlatlar bolaning eng yaxshi manfaatlari birinchi navbatda hisobga olinishini ta'minlashi lozimligi qayd etilib, unda quyidilarni hisobga olishi qoida sifatida belgilab qo'yilgan:

a) bolani asrab olish faqat vakolatli ma'murlar tomonidan hal etilishini ta'minlaydilar, bunday ma'murlar qo'llaniladigan qonun va tartib-rusumlarga muvofiq hamda ishga taalluqli va ishonchli butun axborot asosida asrab olishga ota-ona, qarindoshlar va qonuniy vasiylarga nisbatan bolaning maqomiga qarab, agar talab etilsa, manfaatdor shaxslar zarur bo'lib qoladigan maslahat asosida asrab olish uchun o'zlarining ongli roziliklarini berishlari bois yo'l qo'yilishini aniqlaydilar;

b) boshqa mamlakatda asrab olish, agar bolani tarbiyaga berish yoki uning tarbiyasini ta'minlay oladigan yohud asrab oladigan oilaga joylashtirish mumkin bo'lmasa, agar bola paydo bo'lgan mamlakatda uni munosib ravishda tarbiyalashni ta'minlashning iloji bo'lmasa, bola boqishning muqobil usuli sifatida qaralishini e'tirof etadilar;

c) bola boshqa mamlakatda asrab olingan taqdirda xuddi mamlakat ichkarisida asrab olinganida qo'llaniladigan kafolat va me'yorlar qo'llanilishini ta'minlaydilar;

d) bola boshqa mamlakatda asrab olingan taqdirda uning joylashtirilishi shu ish bilan bog'liq shaxsga o'zini oqlamagan moliyaviy foyda keltirmasligini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radilar;

e) zarur holatlarda ushbu moddaning maqsadlariga ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartlashuvlar yoki bitimlar tuzilishi yo'li bilan erishishga ko'maklashadilar hamda shu asosda bolaning boshqa mamlakatda joylashuvi vakolatli ma'murlar va organlar tomonidan amalga oshirilishini ta'minlashga intiladilar.

Konvensiyaning 22-moddasi qochoq bolalarning huquqlariga bag'ishlangan. Unga ko'ra, ishtirokchi-davlatlar qochoq maqomini olishni istagan yoki qochoq

hisoblangan bolani qo'llaniladigan xalqaro yoki ichki huquq va tartib-rusumlarga muvofiq ravishda, ham unga hamroh bo'layotgan va bo'lmayotgan ota-onasi yoki tegishli ravishda himoya qiladigan va insonparvarlik yordami ko'rsatadigan har qanday boshqa shaxsni ushbu Konvensiyada va inson huquqlari bo'yicha boshqa xalqaro hujjatlarda yoki hujjatlarda bayon qilingan qo'llanishi mumkin bo'lgan huquqlardan foydalanishini ishtirokchilari hisoblanadigan ko'rsatib o'tilgan davlatlar ta'minlashi uchun zarur choralarni ko'rishlari (1-qism), ana shu maqsadda ishtirokchi-davlatlar, o'zlari zarur deb topgan holatlarda, BMT va boshqa vakolatli hukumatlararo tashkilotlar yoki BMT bilan hamkorlik qilayotgan nodavlat tashkilotlarning bunday bolani himoya qilish, unga yordam ko'rsatish hamda har qanday qochqin bolaning ota-onasi yoki oilasining boshqa a'zolarini izlashda, uning o'z oilasi bilan qo'shilishi uchun zarur bo'lgan axborotni olish maqsaddagi har qanday kuch-g'ayratlariga ko'maklashi lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Agar ota-onasi yoki oilasining boshqa a'zolarini topish iloji bo'lmagan taqdirda bu bolaga, ushbu Konvensiyada ko'zda tutilganidek biror-bir sababga ko'ra o'zining oilaviy g'amxo'rligidan doimiy yoki vaqtincha mahrum bo'lgan har qanday ko'rsatiladigan himoya taqdim etiladi.

Konvensiyaning 23-moddasi nogiron bolalarning huquq va erkinliklariga bag'ishlangan. Jumladan, unga ko'ra, ishtirokchi-davlatlar aqliy va jismoniy jihatdan yaxshi rivojlanmagan bola o'zining qadr-qimmatini ta'minlaydigan, o'ziga ishonch tug'diradigan va uning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini yengillashtiradigan sharoitlarda to'laqonli hamda munosib tarzda yashashi lozimligini e'tirof etadilar.

Ishtirokchi-davlatlar aqliy va jismoniy noto'kis bola o'ziga nisbatan alohida g'amxo'rlik ko'rsatilishi huquqiga ega ekanligini e'tirof etadilar hamda buni rag'batlantiradilar, imkoniyatlar mavjud bo'lgan taqdirda, yordam so'rab iltimos qilingan bo'lsa va bunday yordam bolaning ahvoriga, uning ota-onasi va bola haqida g'amxo'rlik ko'rsatayotgan boshqa shaxslarning mavqeiga mos kelsa, shunga haqli bolaga unga g'amxo'rlik qilish uchun javobgar kishilarga ana shunday yordam berilishini ta'minlaydilar.

Aqliy va jismoniy noto'kis bolaning alohida ehtiyojlari e'tirof etilgan holda ushbu moddaning 2-bandiga muvofiq yordam imkon darajasida bolaning ota-onasi va uning haqida g'amxo'rlik qilayotgan boshqa shaxslarning moliyaviy imkoniyatlari hisobga olinib bepul beriladi, bunday yordam noto'kis bola ta'lim, kasb-kor tayyorgarligi, tibbiyot, sog'liqni tiklash, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish sohasidagi xizmatlaridan samarali ravishda bahramand bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutadi, shuningdek, dam olish vositalariga yo'l ochadiki, bunday vositalar imkon darajasida bolani ijtimoiy hayotga jalb etishga, shaxsning rivojlanishi, jumladan, madaniy va ma'naviy kamol topishiga olib keladi.

Ishtirokchi-davlatlar xalqaro hamkorlik ruhida noto'kis bolalarning sog'lig'ini saqlash profilaktikasi, tibbiyot, ruhiy va funksional davolanishi sohasidagi tegishli axborotning ayirboshlanishiga ko'maklashadilar, sog'lomlashtirish usullari, umumiy ta'lim va kasb-kor tayyorgarligi haqidagi axborotni tarqatish, shuningdek, ana shu axborot bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lish ham shunga kiradi, toki ishtirokchi-davlatlar bu sohadagi o'z imkoniyatlari va bilimlarini yaxshilashga, tajribalarini kengaytirishga erishsinlar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e'tibor berilishi lozim.

Konvensiyada bolaning sog'lomlikka bo'lgan huquqlari bilan chambarchas bog'langan tarzda qaraladi. Chunki barcha huquqlar bir-birini to'ldiradi. Sog'liqning yomon holatdaligi boshqa huquqlardan foydalanishga ham ta'sir qiladi. Kravatdan tura olmaydigan bola ko'p imkoniyatlardan mahrum, o'ynay olmaydi, sport bilan mashg'ul bo'la olmaydi va hokazo. "Sog'liqni saqlash xizmatini yaxshilash" huquqidan bola foydalanishiga alohida etibor berilishi lozim (24-modda). Konvensiya sog'lom bo'lish huquqiga universal huquq tarzida qaraydi, ya'ni, so'z har bir bola dunyoning qaysi burchagida istiqomat qilmasin, sog'lom bo'lishi va rivojlanishi kerakligi haqida bormoqda. Unga ko'ra, bolaning sog'liqni saqlash tizimining takomillashgan xizmatlaridan, kasalliklarni davolash va salomatlikni tiklash vositalaridan foydalanishini huquqi e'tirof etiladi. Ishtirokchi-davlatlar birorta ham bola sog'liqni saqlash tizimining bunday

xizmatlaridan bahramand bo'lishdan iborat o'z huquqidan mahrum bo'lib qolmasligini ta'minlashga harakat qiladilar.

Ishtirokchi-davlatlar bunday huquqning to'la amalga oshishiga erishish majburiyatini olgan holda, quyidagi choralarni ko'rishlari lozim:

a) chaqaloqlar va bolalar o'limi darajasini pasaytirish;

b) hamma bolalarga zarur tibbiy yordam ko'rsatilishi va ularning sog'lig'ini saqlashga, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirishga birinchi darajali e'tibor berilishiga erishish;

c) boshqa usullar qatorida qulay texnologiyani qo'llash va yetarli miqdorda to'yimli oziq-ovqat va toza ichimlik suv yetkazib berish yo'li bilan hamda atrof-muhitning ifloslanish xavf-xatarini e'tiborga olgan holda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish doirasida kasalliklar va to'yib ovqatlanmaslikka qarshi kurash olib borish;

d) onalarga tug'ish oldidan va tuqqandan keyingi davrda ularning sog'lig'ini saqlash sohasida tegishli ravishda xizmatlarni taqdim etish;

e) jamiyat barcha tabaqalarining, jumladan, ota-onalar va bolalarning go'daklar sog'lig'i va ovqatlanishi, ko'krak suti bilan boqishning afzalliklari, gigiyena, bola yashayotgan muhit sanitariyasi va baxtsiz hodisalarning oldini olish haqidagi xabardorligini ta'minlash, shuningdek, ularning ilm olishiga yo'l ochish va egallagan bilimlaridan foydalanishlarini qo'llab-quvvatlash;

f) profilaktik tibbiy yordam va oila hajmini rejalashtirish sohasidagi ma'rifiy ishlar va xizmatlarni rivojlantirish.

Bolalarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadigan an'anaviy amaliyotga barham berish maqsadda har qanday samarali va zarur chora-tadbirlar ko'rlishi lozim.

Ishtirokchi-davlatlar mazkur normada e'tirof etilgan huquqlar to'la amalga oshishiga asta-sekin erishish maqsadda xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish majburiyatini oladilar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e'tibor berilishi zarur.

Shuningdek, ishtirokchi-davlat parvarish qilish, himoya ostiga olish yoki jismoniy yohud ruhiy davolash, bolaga taqdim etiladigan davolashni vaqtincha baholash hamda bunday vasiylik bilan bogʻliq, bolaga tegishli barcha boshqa shart-sharoitni yaratib berish maqsadda vakolatli organlar tomonidan vasiylikka topshirilgan bolaning huquqlarini eʼtirof etadilar (25-modda).

Insonning ikkinchi avlod huquqlaridan hisoblanmish bolaning ijtimoiy taʼminot huquqiga bagʻishlangan 26-moddada, ishtirokchi-davlatlar har bir bolaning ijtimoiy taʼminot neʼmatlaridan, jumladan, ijtimoiy sugʻurtadan foydalanish huquqini eʼtirof etadilar hamda ana shu huquq davlatlarning milliy qonunchiligiga muvofiq tarzda toʻla amalga oshishiga erishish uchun zarur chora-tadbirlarni koʻrishlari (1-qism), bu neʼmatlar zaruratga qarab bolaning hamda bolani boqish masʼuliyatini zimmasiga olgan shaxslarning, bola tomonidan yoki uning nomidan neʼmatlarni olish bilan bogʻliq har qanday fikr-mulohaza nazarda tutilgan holda taqdim etilishi lozimligi koʻrsatib oʻtilgan (2-qism).

27-moddagi koʻra, davlat tomonidan har bir bolaning jismoniy, aqliy, maʼnaviy, axloqiy va ijtimoiy kamol topishi uchun zarur hisoblangan turmush darajasiga ega boʻlish huquqini eʼtirof etiladi, ota-ona yoki bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslar oʻz qobiliyatlari va moliyaviy imkoniyatlari doirasida bolaning rivojlanishi uchun zarur boʻlgan turmush sharoitini taʼminlashga asosiy javobgardir.

Davlat oʻz milliy shart-sharoitlarga muvofiq va oʻz imkoniyatlari doirasida ana shu huquqning amalga oshishida ota-ona va bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslarga yordam koʻrsatish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni koʻrishi, zarurat tugʻilgan hollarda moddiy yordam koʻrsatishi, ayniqsa, oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joy bilan taʼminlash borasidagi dasturni qoʻllab-quvvatlashi lozim boʻladi.

Shuningdek, davlat tomonidan ota-ona yoki bola uchun moliyaviy javobgar hisoblangan boshqa shaxslar tomonidan bolani boqish ishtirokchi-davlat ichida ham, xorijda ham tiklanishini taʼminlash uchun barcha zarur chora-tadbirlarni koʻrilishi, xususan, bola uchun moliyaviy javobgar shaxs va bola turli davlatlarda yashayotgan boʻlsalar, davlatlar xalqaro bitimlarga qoʻshilishga yoki shunday

bitimlar tuzilishiga, shuningdek, boshqa tegishli kelishuvlarga erishishga ko‘maklashishi kerak.

Bolaning ijtimoiy huquqlaridan eng muhimlaridan biri bo‘lmish, uning ilm olish huquqini e‘tirof etilishi bilan bir qatorda, ana shu huquq teng imkoniyatlar asosida amalga oshishiga asta-sekin erishish maqsadda davlatlar, jumladan:

a) bepul va majburiy boshlang‘ich ta‘limni joriy etadilar;

b) ham umumiy, ham kasb-hunar bo‘yicha o‘rta ta‘limning turli shakllari rivojlanishini rag‘batlantiradilar, bunday ta‘limdan hamma bolalar bahramand bo‘lishlarini ta‘minlaydilar hamda bepul ta‘lim joriy etish va zarurat tug‘ilgan hollarda moliyaviy yordam ko‘rsatish singari zarur chora-tadbirlarni ko‘radilar;

s) barcha zarur vositalar yordamida har bir bolaning qobiliyati asosida oliy ta‘limdan bahramand bo‘lishini ta‘minlaydilar;

d) barcha bolalar uchun ta‘lim va kasb-hunar tayyorgarligi sohasida axborot hamda materiallar bilan tanishish imkoniyatlarini yaratib beradilar;

e) bolalarning maktabga muntazam borishlariga ko‘maklashish hamda maktabni tashlab ketadigan o‘quvchilar sonining kamayishi uchun chora-tadbirlar ko‘radilar.

Davlat tomonidan maktab intizomi bolaning insoniylik qadr-qimmatini hurmatlash o‘z ifodasini topgan usullar yordamida hamda ushbu Konvensiyaga muvofiq olib borilishi uchun barcha zarur chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim.

Ishtirokchi-davlatlar ta‘limga taalluqli masalalar bo‘yicha, jumladan, butun dunyoda johillik va savodsizlikni tugatishga yordam beradigan hamda ilmiy-texnikaviy bilimlar va o‘qitishning zamonaviy usullariga yo‘l ochishni yengillashtiradigan maqsadlarga qaratilgan xalqaro hamkorlikni rag‘batlantiradilar va rivojlantiradilar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e‘tibor berilishi zarur hisoblanadi (28-modda).

Bolaga ta‘lim berish quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi lozim:

a) bolaning shaxsi, iste‘dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlari eng to‘la hajmda rivojlanishi;

b) inson huquqlari va asosiy erkinliklariga, BMT Ustavida e'lon qilingan tamoyillarga hurmatni tarbiyalash;

c) bolaning ota-onaga, uning madaniy o'ziga xosligi, tili va qadriyatlariga, bola yashayotgan mamlakatning, u dunyoga kelgan mamlakatning milliy qadriyatlariga, o'ziniqidan farq qiladigan madaniy taraqqiyot darajasiga hurmat bilan qarashni tarbiyalash;

d) bolani erkin jamiyatda, tinchlik, sabr-toqatli bo'lish, erkaklar va ayollarning tengligi hamda barcha xalqlar, etnik, milliy va diniy guruhlar, shuningdek, tub aholi orasidan bo'lgan shaxslar o'rtasida do'stlik ruhida tayyorlash;

e) atrof-tabiatta hurmatni tarbiyalash.

Ozchiliklarning alohida huquqlarini xalqaro e'tirof etilishi nuqtai nazardan, Konvensiyada etnik, diniy yoki til jihatdan ozchilikni tashkil qiluvchi yohud tub aholiga mansub shaxslar yashaydigan davlatlarda ana shunday ozchilikka yoki tub aholiga mansub bolaning mazkur guruh boshqa a'zolari bilan birgalikda o'z madaniyatidan foydalanish, o'z diniga e'tiqod qilish va uning rasm-rusumlarini bajarish, shuningdek, ona tilidan foydalanish huquqi rad etilmasligi lozimligi imperativ norma sifatida mustahkamlab qo'yilgan (30-modda).

Bolaning madaniy huquqlaridan hisoblanmish, uning uning dam olish va bo'sh vaqtini o'tkazish huquqini, o'zining yoshiga mos keladigan o'yinlar va ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish, madaniy hayotda erkin qatnashish, san'at bilan shug'ullanish huquqini e'tirof etilgan holda, Konvensiyaga a'zo bo'lgan davlat bolaning madaniy va ijodiy hayotda har tomonlama qatnashish huquqini hurmat qilishni, rag'batlantirishni hamda madaniy va ijodiy faoliyat, bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olish uchun tegishli teng imkoniyatlar yaratib berilishiga ko'maklashishni o'z zimmasiga oladi (31-modda).

Konvensiyada (32-modda) bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan hamda uning sog'lig'i uchun xavf-xatar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan yohud sog'lig'i, jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga zarar keltiradigan har qanday ishlardan himoya qilinish huquqini

e'tirof etilgan holda, ishtirokchi-davlatlarga mazkur normani amalga oshirilishini ta'minlash uchun qonuniy, ma'muriy va ijtimoiy, shuningdek, ta'lim sohasidagi chora-tadbirlarni ko'rish majburiyati yuklatiladi. Ana shu maqsadlarda, davlatlar:

a) ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh yoki eng kichik yoshlarni belgilab qo'yadilar;

b) kundalik vaqtdagi ishning muddati va mehnat sharoitiga doir zarur talablarni aniqlaydilar;

c) ushbu moddaning samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun jazoning tegishli turlari yoki boshqa sanksiyalarni ko'zda tutadilar.

Konvensiyada bolalar turli jinoiy qilmishlarning jabrdiylariga aylanmasligiga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, unda ishtirokchi-davlatlarga bolalarni giyohvandlik va psixotrop moddalarini g'ayriqonuniy ravishda iste'mol qilishdan himoya etish maqsadda zarur barcha chora-tadbirlarni, jumladan, qonuniy, ma'muriy va ijtimoiy, shuningdek, ta'lim sohasidagi choralarni hamda ana shunday moddalarni g'ayriqonuniy ravishda ishlab chiqarishda va ularni sotishda bolalardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik choralarni ko'rishini (33-modda), shuningdek, bolani shahvoniy maqsadlarda foydalanish va shahvoniy buzishning barcha shakllaridan himoya qilish majburiyatini o'z zimmsiga olishi bilan bog'liq ravishda alohida majburiyatlar yuklanadi (34-modda). Ayniqsa, a) bolani har qanday g'ayriqonuniy ravishdagi shahvoniy faoliyatga tortish va majburlash; b) bolalardan fohishabozlik yoki g'ayriqonuniy ravishdagi barcha shahvoniy maqsadlarda foydalanish; c) bolalardan pornografiya va pornografiya materiallari tayorlash maqsadlarida foydalanishni oldini olish uchun ishtirokchi-davlatlar, milliy, ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajada hamma zarur chora-tadbirlarni ko'rishlari lozimdir.

Shuningdek, ishtirokchi-davlatlar bolalarni o'g'irlash, sotish yoki ularni har qanday maqsadlarda va har qanday shakllarda kontrabanda qilishning oldini olish uchun milliy, ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajada barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rishlari (35-modda), bolani uning farovonligiga oid har qanday

jihatdan zarar yetkazadigan foydalanishning barcha boshqa shakllaridan himoya qilishlari shart (36-modda).

Konvensiyaga muvofiq, (37-modda) ishtirokchi-davlatlar quyidagilarni ta'minlaydilar:

a) birorta ham bola qiynoqlarga yoki boshqa shafqatsizlarcha, g'ayriinsoniy yohud qadr-qimmatni oyoq osti qiladigan muomala yoki jazoga duchor etilmasligini. Na o'lim jazosi, na ozodlikka chiqarish imkoniyatini ko'zda tutmagan umrbod qamoq jazosi 18 yoshdan kichik bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun belgilanmaydi;

b) birorta ham bola g'ayriqonuniy ravishda yoki o'zboshimchalik bilan ozodlikdan mahrum etilmasligini. Bolani hibsga olish, ushlab turish yoki qamoqqa solish qonunga muvofiq amalga oshiriladi hamda faqat noiloj chora sifatida va mumkin qadar tegishli qisqa vaqt mobaynida ishlatiladi;

c) ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola uning yoshidagi shaxs ehtiyojlari hisobga olingan holda insoniy muomala va shaxsining ajralmas qismi bo'lgan qadr-qimmatini hurmatlashdan foydalanishini. Xususan, ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola, agar bolaning eng yaxshi manfaatlari yo'lida shunday qilish kerak, deb hisoblanmasa, kattalardan ajratib saqlanadi hamda alohida holatlarni istisno qilganda, o'z oilasi bilan xat yozish va diydor ko'rishish orqali aloqa bog'lab turish huquqiga egadir;

d) ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola huquqiy va boshqa tegishli yordamdan zudlik bilan bahramand bo'lish huquqidan, shuningdek, sud yoki boshqa vakolatli, mustaqil va xolis organ oldida o'zining ozodlikdan mahrum etilishining qonuniyligiga e'tiroz bildirish huquqidan hamda ana shunday har qanday protsessual xatti-harakatga nisbatan ular tomonidan kechiktirmasdan qaror qabul qilinishi huquqidan foydalanadi.

Konvensiyaning 38-moddasi Xalqaro gumanitar huquqiga oid masalaga bag'ishlangan. Ya'ni, unga ko'ra, davlatlar xalqaro insonparvarlik huquqining qurolli mojarolar ro'y bergan holatda ularga nisbatan qo'llaniladigan va bolalarga

taalluqli me'yorlarini hurmat qilishni, ularga rioya etilishini ta'minlashni o'z zimmalariga oladilar.

Ishtirokchi-davlatlar 15 yoshga to'lmagan shaxslar harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmasliklarini ta'minlash uchun imkoni bo'lgan barcha chora-tadbirlarni ko'radilar, jumladan, 15 yoshga to'lmagan har qanday shaxsni o'z qurolli kuchlari safiga xizmatga chaqirishga yo'l qo'ymaydilar. 15 yoshga yetgan biroq 18 yoshga to'lmagan shaxslar orasidan armiyaga jalb etilayotganda ishtirokchi-davlatlar yoshi kattaroq shaxslarni ma'qul ko'rishga harakat qiladilar.

Qurolli mojarolar paytida harbiy bo'lmagan aholini himoya qilish bilan bog'liq xalqaro insonparvarlik huquqi bo'yicha majburiyatlariga muvofiq ishtirokchi-davlatlar qurolli mojarolarning ta'siridan bolalarni himoyalash hamda parvarishlashni ta'minlash uchun imkoni bo'lgan barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

39-moddada ishtirokchi-davlatlar beparvolik, ishlatish yoki suiiste'molliklar, qiynashning har qanday ko'rinishlari yoki shafqatsizlik, noinsoniy yohud qadr-qimmatni oyoqosti qiladigan boshqa har qanday muomala, jazolash yoki qurolli mojarolar qurboni bo'lgan bolaning jismoniy va ruhiy tiklanishi hamda ijtimoiy jihatdan o'zini o'nglab olishiga ko'maklashish uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rishining lozimligi qayd etilgan. Bunday tiklanish va o'zini o'nglab olish bolaning sog'lig'i, o'zini o'zi hurmatlashi va qadr-qimmatini ta'minlaydigan sharoitlarda amalga oshirilishi lozim.

Yuvenal adliya masalalariga bag'ishlangan 40-moddada, ishtirokchi-davlatlar jinoiy qonunchilikni buzgan deb topilgan, qonunni buzishda ayblanayotgan yoki aybdor deb topilayotgan har bir bolaning unda qadr-qimmat va ahamiyatga moliklik his-tuyg'usini tarbiyalaydigan, bolada inson huquqlariga va boshqalarning asosiy erkinliklariga hurmatni mustahkamlaydigan hamda bunda bolaning yoshi va o'zini o'nglab olishi, jamiyatda foydali o'rin tutishiga ko'maklashish istagi hisobga olinadigan huquqini e'tirof etishlari belgilab qo'yilgan.

Ana shu maqsadlarda ishtirokchi-davlatlar:

a) birorta bola xatti-harakat sodir etilgan vaqtda milliy yoki xalqaro huquqda man etilmagan harakat yoki harakatsizlik sababli jinoiy qonunchilikni buzgan deb topilmasligi, ayblanmasligi va aybdor deb topilmasligini;

b) jinoiy qonunchilikni buzgan deb hisoblanayotgan yoki uni buzishda ayblanayotgan har bir bola kamida quyidagi kafolatlarga ega bo'lishi zarurligini ta'minlashlari lozim:

i) uning aybi qonunga muvofiq isbotlanguncha aybsizlik prezumpsiyasi;

ii) unga qarshi qo'yilayotgan ayblar haqida o'ziga, zarurat tug'ilgan taqdirda, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi orqali kechiktirmasdan va bevosita ma'lum qilish hamda o'zining himoyasini tayyorlash va amalga oshirishda huquqiy va boshqa xil yordam olishi;

iii) ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan vakolatli, mustaqil va xolis organ yoki sud organi tomonidan ishni adolatli tarzda ko'rish davomida qonunga muvofiq ravishda advokat yohud boshqa tegishli shaxs ishtirokida, agar bu bolaning eng yaxshi manfaatlariga zid keladi deb hisoblanmasa, xususan, uning yoshi yoki ota-onasi yohud qonuniy vasiylarining mavqei hisobga olingan holda hech kechiktirmasdan qaror qabul qilinishi;

iv) guvohlik ko'rsatmasi berish yoki aybga iqror bo'lishga majburlanmaslik; ayblash bo'yicha guvohlarning ko'rsatmalarini yohud mustaqil ravishda yohud boshqa shaxslar yordamida o'rganib chiqilishi hamda himoya guvohlarining teng ishtiroki va ko'rsatmalari o'rganilishini ta'minlash;

v) agar bola jinoiy qonunchilikni buzgan deb hisoblansa, yuqori turuvchi vakolatli, mustaqil va xolis organ yoki sud tomonidan tegishli qarorni va u bilan bog'liq holda qabul qilingan har qanday choralarni qonunga muvofiq ravishda takroran ko'rib chiqish;

vi) agar bola foydalanilayotgan tilni tushunmasa yoki bu tilda gapira olmasa, tarjimonning bepul yordam ko'rsatishi;

vii) ishni ko'rib chiqishning barcha bosqichlarida uning shaxsiy hayotini to'la hurmat qilish.

Ishtirokchi-davlatlar jinoiy qonunchilikni buzgan deb hisoblanayotgan, qonunbuzarlikda ayblanayotgan yoki aybdor deb topilgan bolalarga bevosita taalluqli qonunlar, tartib-qoidalar, organlar va muassasalarning qaror topishida, jumladan quyidagilarda ko‘maklashishga intiladilar:

a) jinoiy qonunchilikni buzishga qodir bo‘lmagan eng kichik yoshni belgilashga;

b) zarurat tug‘ilgan taqdirda va maqbul bo‘lganida, bunday bolalar bilan muomala qilish bo‘yicha inson huquqlari va huquqiy kafolatlar to‘liq rioya etish sharti bilan sud muhokamasidan foydalanmaslik choralarini ko‘rish.

Bolaning farovonligi, ahvoli va jinoyatning xarakteriga muvofiq keladigan muomalani ta‘minlash maqsadida, muassasalardagi parvarishning o‘rnini bosadigan parvarish qilishni ta‘minlash maqsadda, parvarish, vasiylik va nazorat haqida nizom, maslahat xizmatlari ko‘rsatish, sinov muddatini belgilash, tarbiyalash, o‘quv va kasb-hunarga tayyorlash dasturlari hamda parvarishning boshqa shakllari, kabi turli tadbirlar mavjud bo‘lishi zarur.

Konvensiyadagi hech bir narsa bola huquqlarini amalga oshirishga ko‘p darajada yordam beradigan har qanday vaziyatga daxl qilmasligi lozim hamda bunday qoidalar a) ishtirokchi-davlat qonunchiligida; b) mazkur davlatga nisbatan amal qilayotgan xalqaro huquq normalarida o‘z ifodasini topishi mumkinligi, Konvensiyaning 41-moddasida aks ettirilgan.

42-45-moddalarni o‘z ichiga olgan Konvensiyaning II-qismi, uni ratifikatsiya qilgan davlatlar tomonidan, uni amalga oshirish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishini xalqaro monitoring qilish mexaanizmiga bag‘ishlangan.

46-54 moddalarni o‘z ichiga olgani Konvensiyaning yakunlovchi qismi bo‘lgan III qismda esa uning kuchga kirish shartlari¹³²: uni imzolash, ratifikatsiyalash, unga qo‘shilish tartiblari, ratifikatsiya yorlig‘i yoki qo‘yilish to‘g‘risidagi hujjatni saqlab qo‘yish uchun depozitariyga topshirish va uni kuchga

¹³²Rashidov K. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining tuzilishi, bajarilishi va bekor qilinishi. (Parlament a‘zolari uchun amaliy qo‘llanma). –Toshkent, 2012. -B.28

kirishi, Konvensiyaga tuzatish kiritish, ko'rib chiqish va qabul qilish tartiblari, unga qo'shimcha shart (ogovorka) qo'llash, denonsatsiya qilish shartlari, matnlarning tili (asliga muvofiqligi), kabi masalalar o'z aksini topgan.

3. Konvensiyaning Fakultativ bayonnomalarining tavsifi

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning fakultativ protokollari, mazkur hujjatning mantiqiy davomi bo'lib, ular Konvensiyaga "qo'shimcha qarorlardan iborat hujjat"lar hisoblanib, "o'zgartirilgan shartnoma qabul qilingan tartibda qabul qilingan"¹³³. Chunki, Bola huquqlari to'g'risida konvensiya doimo harakatdagi xalqaro-huquqiy shartnomadir. Lekin, hayot o'zgarib boradigan ijtimoiy munosabatlarning talabi bilan bog'liq bir qancha murakkab muammolarni o'rta tashlaydi.

Bolalar savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasi to'g'risidagi fakultativ protokol. Jumladan, bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan va bola uchun xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan yoki bolaning ta'lim olishiga halaqit qiladigan yohud bolaning sog'lig'iga, uning jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy yoki ijtimoiy rivojlanishiga zarar qiladigan har qanday ishni bajarishdan himoyalaniş huquqidan kelib chiqqan holda, bolalar savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasini ko'zlagan bolalar halqaro traffigi sezilarli darajada o'sishi va buning oqibatida bolalar uchun alohida havfli bo'lgan, seks-turizm amaliyotining keng tarqalishi, alohida zaif guruhlarni, jumladan, qiz bolalarning seksual ekspluatatsiyaga duchor bo'lishi, internetda va boshqa rivojlanib kelayotgan texnologiyalar orqali bola pornografiyasi tarqalishining o'sishi, kabi muammolar yangi XXI asrga kelib yanada kuchayib bordi. Bunday muammolarni kuchayishiga iqtisodiy qoloqlik, qashshoqlik, iqtisodiy tengsizlik, adolatsiz ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma, oilalarning notinchligi, ta'lim darajasining pastligi, qishloqdan shaharga migratsiya, jinsiy kamsitish, katta yoshdagilarning mas'uliyatsiz shahvoniy xulqi,

¹³³Rashidov K. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining tuzilishi, bajarilishi va bekor qilinishi. (Parlament a'zolari uchun amaliy qo'llanma). –Toshkent, 2012. -B.18

zararli an'anaviy amaliyotlar, qurolli mojarolar va bolalar traffigini qamrab oluvchi omillar yanada ko'proq ta'sir qila boshladi.

Bola savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasiga bo'lgan iste'molchilik talabini kamaytirish uchun bu haqda xalqning xabardorligini oshiradigan sa'y-harakatlar zarur hamda barcha ishtirokchilar o'rtasidagi global hamkorlikni rivojlantirish va milliy darajada qonun ijrosini ta'minlash choralarini kuchaytirish muhimligiga hamda bolalar himoyasiga taalluqli bo'lgan xalqaro-huquqiy hujjatlar qoidalari¹³⁴ hamda tegishli xalqaro tashkilotlarning boshqa shu masalaga oid qaror va tavsiyalarning bajarilishi muhimligi, bolani himoyalash va barkamol shakllanishi uchun har bir xalqning an'analari va madaniy qadriyatlarining muhimligini tegishli darajada hisobga olingan holda BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil 25-maydagi A/RES/54/263-qarori bilan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga *Bolalar savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasi to'g'risidagi fakultativ protokol* qabul qilindi.

Mazkur Fakultativ protokolda Muqaddima va 17 modddan iborat bo'lib, ularda xalqaro hamjamiyat tomonidan bola savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasiga qarshi kurash borasida chora-tadbirlar o'z aksini topgan.

Hujjatning 1-moddasida, bola savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasini taqiqlanganligi bayon qilingan holda, uning 2-moddasida, mazkur taqiq ostiga olingan qilmishlarning asosiy ta'riflari berilgan:

a) «bolalar savdosi» - haq olish evaziga yoki boshqa shaklda qoplanadigan foyda evaziga har qanday shaxs yoki bir guruh shaxslar tomonidan bolani boshqa shaxsga yoki bir guruh shaxslarga berishni ko'zlagan har qanday harakat yoki bitimni;

¹³⁴Jumladan, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, Bolalar himoyasi va davlatlararo farzandlikka olish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Gaaga Konvensiyasi, Xalqaro bola o'g'irlashning fuqaroviy jihatlar to'g'risidagi Gaaga Konvensiyasi, Bolalar himoyasi bo'yicha chora-tadbirlar va ota-onalarning ma'suliyati masalalari bo'yicha yurisdiksiya, qo'llaniladigan qonun, tan olish, qonun ijrosini ta'minlash va hamkorlik to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi va Xalqaro Mehnat Tashkilotining Bolalar mehnatini ta'qiqlash va uning eng og'ir shakllariga barham berish bo'yicha shoshilinch choralar to'g'risidagi 182-Konvensiya qoidalari hamda Bola savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasining oldini olish bo'yicha Harakat dasturi qoidalarining, 1996-yil 27-31-avgustda Stokgolmda bo'lib o'tgan Bolalarni tijorat maqsadida seksual ekspluatasiya qilishga qarshi Butunjahon kongressida qabul qilingan Deklarasiya va Harakat rejasi.

b) «bola fohishabozligi» - haq olish evaziga yoki boshqa shaklda qoplanadigan foyda evaziga bolani seksual maqsadlarda ishlatishni;

c) «bola pornografiyasi» - bolaning haqiqiy yoki uyushtirilgan ochiq seksual faoliyatdagi ishtirokini har qanday vositalar orqali aks ettiruvchi tasvirni, yoki asosan seksual maqsadlar uchun bolaning jinsiy a'zolarini aks ettiruvchi har qanday tasvirni anglatadi.

Protokolning 3-moddasi ishtirokchi-davlatlarga, hech bo'lmaganda quyidagi harakat va faoliyatlar, bular milliy yoki xalqaro miqyosda yoki bir shaxs tomonidan yoki uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilishidan qat'iy nazar:

a) bolani seksual ekspluatatsiya qilish; foyda olish uchun bola organlarini ko'chirishni; bolani majburiy mehnatga jalb qilish maqsadlarida har qanday vositalar orqali bolani taklif qilish, yetkazib berish yoki qabul qilishni; farzandlikka olish sohasida qo'llaniladigan xalqaro-huquqiy hujjatlar qoidalarini buzgan holda bolani farzandlikka olishga qonunga hilof tarzda ko'ndirishni;

bola fohishabozligi uchun bolani taklif qilish, olish, yetkazib berish yoki bola bilan ta'minlashni; bola pornografiyasini yuqorida keltirilgan maqsadlar uchun ishlab chiqish, taqsimlash, tarqatish, import va eksport qilish, taklif qilish, sotish yoki saqlash, kabi holatlarni uning jinoyat yoki penitensiar huquqi tomonidan to'liq qamrab olishini ta'minlashlari ko'rsatib o'tilgan. Bunday jinoyatlar uchun yuridik shaxslarning javobgarligini o'rnatish uchun, tegishli hollarda, chora-tadbirlar ko'radilar. Ishtirokchi-davlatlarning huquqiy prinsiplari inobatga olingan holda, yuridik shaxslarning bunday javobgarligi jinoiy, fuqaroviy yoki ma'muriy bo'lishi mumkin. Ular, bolani farzandlikka olishga aloqador barcha shaxslar qo'llaniladigan xalqaro-huquqiy hujjatlar qoidalariga muvofiq ish tutishlarini ta'minlash maqsadida barcha tegishli huquqiy va ma'muriy choralar ko'rishlari lozim.

Protokolning 4-moddasida ishtirokchi-davlatlar tomonidan bolalar savdosiga oid jinoyatlarga nisbatan, agar bunday jinotlar uning hududida yoki ushbu davlatda ro'yxatga olingan dengiz yoki havo kemasi bortida sodir etiladigan bo'lsa, o'z yurisdiksiyasini o'rnatish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'rish lozimligi

ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, agar jinoyatda gumon qilinuvchi mazkur davlatning fuqarosi yoki uning hududida doimiy yashash joyiga ega shaxs bo'lsa yoki agar jabrlanuvchi mazkur davlatning fuqarosi bo'lsa, bunday hollarda ishtirokchi davlat o'z yurisdiksiyasini o'rnatish uchun zarur choralarni ko'rish lozim.

Protokolning 5-7 moddalarida ishtirokchi-davlatlar o'rtasida bolalar savdosi bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni ekstraditsiya (ushlab berish) masalalariga, ekstraditsiya yoki jinoyat ishlari yoki tergov harakatlarini amalga oshirish borasida huquqiy yordam ko'rsatishlariga hamda o'zlarining milliy qonunchiligi qoidalarini inobatga olgan mazkur Protokolda ko'zda tutilgan jinoyatlarni sodir etish uchun ishlatiladigan, material, mablag' va boshqa uskunalar kabi buyumlarni, bunday jinoyatlarni sodir etish evaziga olingan foydani olib qo'yilishi yoki musodara qilinishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarga bag'ishlangan.

Protokolning 8-moddasi esa, bola savdosi jabrlanuvchilarining huquq va manfaatlarini jinoyat protsessining barcha bosqichlarida himoya qilish uchun tegishli choralar ko'rishlari ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, unda:

a) jabrlangan bolalarning zaifligini tan olish orqali va ularning maxsus ehtiyojlarini, jumladan, ularning guvoh sifatidagi maxsus ehtiyojlarini tan olish maqsadda shu sohadagi tartibni moslashtirish;

b) jabrlangan bolalarni ularning huquqlari, roli va ish jarayonining mohiyati, muddati va bosqichlari hamda ularning ishlari bo'yicha chiqarilgan qarorlar to'g'risida xabardor qilish;

s) ish jarayonida jabrlangan bolalarning manfaatlariga ta'sir qiladigan masalalar ko'rilgan hollarda, ularning o'z qarashlari, ehtiyojlari va muammolari milliy qonunning protsessual normalariga muvofiq tarzda bayon qilinishi va ko'rib chiqilishi uchun imkoniyat yaratish;

d) jabrlangan bolalarga sud protsessining barcha bosqichlarida tegishli yordam xizmatlarini ko'rsatish;

e) jabrlangan bolalarning shaxsini va shaxsiy hayotini tegishlicha himoyalash orqali hamda jabrlangan bolalarni shaxsini aniqlashga olib kelishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni noo'rin tarqalib ketishini oldini olish uchun milliy qonunga muvofiq chora-tadbirlar ko'rish;

f) jabrlangan bolalar hamda ularning oilalari va ular nomidan qatnashayotgan guvohlarni lozim hollarda po'pisa qilish va o'ch olish harakatlaridan himoya qilish;

g) jabrlangan bolalarga kompensatsiya berish to'g'risidagi ishlar bo'yicha qaror chiqarishda va shu qarorlarni yoki farmoyishlarni ijrosida assosiz kechiktirilishiga yo'l qo'ymaslik.

Shuningdek, ishtirokchi-davlatlar jabrlanganning haqiqiy yoshining noaniqligi jinoyat tergov ishlarini boshlashga, jumladan, jabrlanganlarning yoshini aniqlashga qaratilgan tergov ishlarini boshlashga to'sqinlik qilmasligini ta'minlash;

bunday jinoyatlardan jabrlangan bolalarga nisbatan jinoyat-protsessual tizim tomonidan amalga oshiriladigan muomalada eng avvalo bolaning oliy manfaatlarining hisobga olinishini ta'minlash;

bunday jinoyatlar oqibatida jabrlangan bolalar bilan ishlaydigan shaxslarni tegishli tayyorgarlikdan, xususan, huquqiy va psixologik tayyorgarlikdan o'tkazish uchun chora-tadbirlar ko'rish;

shu kabi jinoyatlarning oldini olish faoliyati bilan shug'ullanuvchi va/yoki shu kabi jinoyatlar oqibatida jabrlanganlarni himoya va rehabilitatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning va/yoki shaxslarning shaxsiy dahlsizligini va himoyasini ta'minlash uchun chora-tadbirlar ko'rish majburiyatini oladilar.

BMTning inson huquqlari va odam savdosi bo'yicha tavsiya etilgan tamoyillari va amaliy qoidalarining 10 tamoyilida shunday ta'kidlanadi: "Odam savdosi jabrlanuvchilari bo'lgan bolalarning shunday maqomi aniqlandi. Bolaning eng yaxshi manfaatlari hamma vaqt birinchi o'rinda bo'ladi. Odam savdosi jabrlanuvchilariga aylangan bolalarga tegishli yordam va himoya ko'rsatiladi.

Ularning alohida zaif tomonlari, huquqlari va ehtiyojlari esa to'liq e'tiborga olinadi."¹³⁵

Protokolning 9-moddasida ishtirokchi-davlatlar tomonidan Protokolda ko'zda tutilgan jinoyatlarning oldini olish maqsadida tashkiliy-huquqiy choralarni ko'rish va bunda asosiy e'tibor, bunday amaliyotda o'ta zaif bo'lgan bolalarning himoyasiga qaratilishi, bunday jinoyatlarning oldini olish choralari va ularning zararli ta'sirlari to'g'risida barcha tegishli vositalar orqali xabardor qilish, ta'lim va o'qitish yo'li bilan keng jamoatchilikni, shuningdek bolalarning xabardorligini oshirishda ko'maklashishi, bu borada jamoatchilikning, xususan, bolalar va jabrlangan bolalarning ta'lim, o'qitish, axborot dasturlarida qatnashishlarini, shu jumladan, xalqaro darajada, rag'batlantirishlari lozimligi, bunday jinoyatlar oqibatida jabrlanganlarga, xususan, ularning to'liq ijtimoiy reintegratsiyasi hamda ularning to'liq jismonan va psixologik tiklanishlari uchun, barcha tegishli yordam ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida barcha choralarni ko'rishlari, bunday jinoyatlardan jabrlangan barcha bolalar, hech qanday kamsitishlarsiz, javobgarlikka tortilgan shaxslardan yetkazilgan zararlar uchun, kompensatsiya olishlari uchun tegishli qoidalardan foydalanishlarini ta'minlashlari lozimligi, bunday jinoyatlarni reklama qiluvchi materiallar ishlab chiqarilishini va tarqatilishini samarali ta'qiqlashga qaratilgan tegishli choralar ko'rishlari lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

10-moddada ishtirokchi-davlatlar bolalar savdosi, bola fohishabozligi, bola pornografiyasi va bola seks turizmi bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgar shaxslarni jazolash, ularga nisbatan surishtiruv, tergov ishlarini, sud ta'qibini amalga oshirish va bunday jinoyatlarning oldini olish maqsadida ko'p tomonlama, mintaqaviy va ikki tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rishlari, shuningdek, o'zlarining hokimiyat organlari, milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlar hamda xalqaro tashkilotlar o'rtasida xalqaro hamkorlik va muvofiqlashtirish ishlariga;

¹³⁵ Odam savdosi jabrlanuvchilarini jazolamaslik qoidasini implementasiya qilishga qaratilgan siyosat va qonunchilikka oid tavsiyalar. YeXHTning Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha maxsus vakili va koordinatori byurosi, 2013. -B.19

jabrlangan bolalarga ularning jismoniy va psixologik tiklanishlari, ijtimoiy reintegratsiya va repatriatsiyasi sohasida yordam berishga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikka;

bolalar savdosi, bola fohishabozligi, bola pornografiyasi va bola seks turizmi obyektlari sifatida bolalarning himoyasizligini yanada chuqukrlashtiruvchi omil bo'lgan qashshoqlik va iqtisodiy qoloqlik kabi asosiy sabablarni bartaraf qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga;

o'z imkoniyatidan kelib chiqib, mavjud ko'p tomonlama, mintaqaviy, ikki tomonlama yoki boshqa dasturlar doirasida moliyaviy, texnik va boshqa yordam ko'rsatishga ko'maklashish majburiyati ko'rsatib o'tilgan.

Protokolning 11-moddasining mohiyati shundan iboratki, unga ko'ra, agar, ishtirokchi-davlatning qonunida yoki ushbu ishtirokchi-davlat uchun kuchda bo'lgan xalqaro huquq normalarida bola huquqlarini mazkur Protokolga nisbatan yaxshiroq himoya qilish ko'zda tutilgan bo'lsa, Protokolning qoidalari ularning normalaridan ustuvor bo'lmaydi.

Protokol bo'yicha o'z ishtirokchi-davlatlarning majburiyatlarini bajarishlarining xalqaro monitoringi qoidalari hujjatning 12-moddasida aks ettirilgan. Mazkur monitoring jarayoni to'g'risida keyingi paragrafda batafsil tushuntirib o'tiladi.

Hujjatning yakunlovchi qismi hisoblanuvchi 13-17 moddalarda Protokolni imzolash, ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish, uni denonsatsiya qilish, ularning kuchga kirishi, Protokolga tuzatish kiritish tartib-qoidalari hamda Protokolning autentik tillari va depozitariysiga oid qoidalar o'z aksini topgan.

Mazkur hujjatning asosiy mazmuni bolalarning axloqiy-jismoniy rivojlanishiga xavfli tajovuz qiladigan jinoy xatti-harakatlarga barham berishning ijtimoiy ahamiyatiga e'tibor berishga chaqiradi.

Bolalarning qurolli mojarolarga jalb qilinishi to'g'risidagi fakultativ protokol. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yana bir murakkab muammo sifatida bolalarning qurolli mojarolarda ishtirok etishi, ularni bu jarayonga jalb etilishi va qurolli mojarolar davrida ularni himoya qilish muammosi hisoblanadi. Ta'kidlash

lozimki, harbiy to'qnashuvlarga bolalarni ishtirok ettirish istagi, xususiyati va shakllari turlicha o'zgarib turadi. Harbiy mojarolarga bolalarni jalb etish jarayonini o'zi ham bir zaylda bo'lmaydi.

Shunisi achinarliki, o'zlarining g'arazli manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yadigan muayyan kuchlar bolalar va yoshlarning qanday azoblarni boshdan kechirishlarini o'ylab ham ko'rmay, ularni ataylab harbiy harakatlarga yollaydilar va jalb etadilar. Jalb qilinayotgan bolalarga jangovar harakatlarda ishtirok etish bilan bog'liq halokatli tahdid jiddiy xavf tug'diradi.

Hozirgi zamonda dunyoning turli mintaqalari va davlatlarida 18 yoshga to'lmagan bolalarning urush harakatlarida ishtirok etishi odatiy hol hisoblanadi. Ayniqsa, afrika mamlakatlarida bolalarning qurolli mojarolar davrida harbiy xizmatga jalb etish bilan bog'liq amaliyot kuchlidir. Yosh bolalarni harbiy harakatlarga jalb etishga, odatda quyidagi omillardan kelib chiqiladi: *birinchidan*, qarshi tomondan bolalardan unchalik xavf kutilmaydi va bu hollarda dushman tarafga qarshi operatsiyani amalga oshirishda bolalardan munofiqona yo'l bilan bilan turli maqsadlarda foydalanish mumkin, *ikkinchidan* bolalar, ongi va tafakkuri hali yetarli rivojlanmaganligi sababli ham har qanday, shuningdek, noqonuniy topshiriqlarni bajarishi mumkin va hattoki, jangda har qanday vaxshilikdan ham qaytmasligi ham mumkin va o'z qilmishining mazmun-mohiyatini tushunib yetmaydi, *uchinchidan* bolalarni urushga jalb etish kattalarga nisbatan ancha arzon tushadi.

Bolalarni harbiy xizmatga jalb etish uchun turli vositalar, shu jumladan, kuch ishlatishdan ham foydalaniladi.

Masalan, qurolli kuchlar qishloq joyidan o'ta turib bolalarni o'zlari bilan olib ketadilar, ular bunda qizlarni ham ayab o'tirmaydilar. Aniq holatlarni o'rganish Salvador, Efiopiya, Ugandada soldat-qizlarning mavjudligini aniqlashga yordam berdi. Ular soldatlarning uchdan bir qismini tashkil etgan. Dunyoning

“qaynoq nuqtalar” deb ataladigan turli mintaqalarida qariyb 300.000 zamonaviy qurol-yarogʻ bilan qurollangan soldat-bolalar mavjud¹³⁶.

Bunday hollarda xalqaro hamjamiyatning qurolli toʻqnashuvlar davrida bolalarni himoya qilish va ularga gʻamxoʻrlik koʻrsatishni taʼminlash uchun bor imkoniyatni ishga solish zarurligi toʻgʻrisida tashvishga tushayotganligi ayniqsa, yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Harbiy harakatlarda ishtirok etadigan bolalarning eng katta yoshi masalasi ayniqsa murakkabligi bilan ajralib turadi. Uni hal etish bir xilda emas. Bu masala boʻyicha davlatlar tomonidan yagona toʻhtamga kelingani yoʻq.

Harbiy harakatlar sharoitida bolalarni alohida himoyalash masalasi dastlab, Xalqaro gumanitar huquq normalari, xususan 1949-yil 12-avgustdagi toʻrtta Jeneva konvensiyalari bilan tartibga solingan edi. Ammo, qurolli mojarolarga jalb etishning eng kichik yoshi koʻrsatilmagan. Qurolli mojarolar davrida fuqaro aholini himoya qilishga qaratilgan IV Jeneva konvensiyasida ham bolalar fuqaro aholi sifatida himoya ostiga olingan obyekt sifatida koʻriladi.

Urush harakatlariga 15 yoshga toʻlmagan bolalarni jalb etishni taqiqlash boʻyicha norma, birinchi bor mazkur Jeneva konvensiyalariga 1977-yildagi I-Qoʻshimcha protokolda oʻz aksini topdi. Bolalarni himoya qilish boʻyicha chora-tadbirlarga bagʻishlangan mazkur Protokolning 77-moddasining 2-qismiga koʻra, “Nizolashayotgan tomonlar 15 yoshga toʻlmagan bolalar harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmasligi uchun zarur boʻlgan barcha amaliy choralarni koʻradilar, xususan, tomonlar ularni oʻz qurolli kuchlariga yollashdan saqlanadilar. 15 yoshga toʻlgan, ammo hali 18 kirmagan shaxslarni yollash paytida, nizolashayotgan tomonlar iloji boricha yoshi kattaroqlarini afzol koʻrishga xarakat qiladilar”¹³⁷.

¹³⁶Bola huquqlari. / Yuridik oliy oʻquv yurtlari uchun darslik // Prof. Gʻ.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYul nashriyoti, 2009. –B.97

¹³⁷1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyalari va ularga Qoʻshimcha protokollar. –Ikkinchi, tuzatilgan nashri. –T.: Xalqaro Qizil Xoch Qoʻmitasi, 2007. –B.286

Bu talab keyinchalik Bola huquqlari to'g'risida konvensiyaning qurolli mojarolar sharoitida bolalarning huquqiy himoya qilishni ta'minlash maqsadida qabul qilingan 38-moddasiga asos bo'ldi.

Konvensiya dunyodagi deyarli barcha mamlakatlar tomonidan tan olingan bo'lsa-da, uning hamma qoidalariga bir xilda e'tibor berilmayotir. Qurolli kuchlarga 15 yoshgacha bolalarni jalb qilish va harbiy harakatlarda ishtirok ettirish taqiqlanganiga norozi mamlakatlar ham bor.

Ularga qarshi ko'pchilik mamlakatlar, keng jamoatchilik, nohukumat tashkilotlar, YUNISEF bu yoshni jang harakatlarida qatnashish uchun juda barvaqt, deb hisoblamoqdalar. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan aksariyat davlatlar buning uchun 18 yoshni belgilashmoqchi ekanliklarini bildirdilar. Bunday keskin qarshi fikrlar sababli Bola huquqlari bo'yicha qo'mita harbiy harakatlarda qatnashish yoshini yuqoriga ko'tarish haqida Fakultativ protokol tayyorlash uchun Ishchi guruhi tuzdi¹³⁸.

1994-yilning-oktabrida o'z vazifasiga kirishgan Ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga Bolalarning qurolli mojarolarga jalb qilinishi to'g'risidagi fakultativ protokol BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil 25-maydagi A/RES/54/263-qarori bilan qabul qilindi.

Protokol qabul qilinishining sabablari va shart-sharoitlari o'z aksini topgan Muqaddima va 13 moddadan iborat mazkur Fakultativ protokolning eng katta yutug'i harbiy xizmatga chaqiruvga minimal yoshni 18 deb belgilanganligi bo'ldi. Xususan, uning *1-moddasida* "Ishtirokchi-davlatlar o'zlarining qurolli kuchlari safidagi 18 yoshga to'lmagan harbiy xizmatchilarini harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmasligini ta'minlash uchun barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'radilar", 2-moddasida esa, "18 yoshga to'lmagan shaxslarni majburiy tarzda o'zlarining qurolli kuchlari safiga chaqirilmasligini ta'minlaydilar" deb belgilab qo'yildi.

¹³⁸Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI nashriyoti, 2009. -B.98

Protokolning 3-moddasining 1-qismida ishtirokchi-davlatlar o'zlarining milliy qurolli kuchlari safiga ixtiyoriy tarzda chaqirish mumkin bo'lgan eng kichik yoshni Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 38-moddasi 3-bandida ko'zda tutilgan yoshdan oshirishlari, bunda ushbu moddada aks etgan prinsiplarni hisobga olishlari hamda Konvensiya bo'yicha 18 yoshdan kichik yoshdagi shaxslar maxsus himoya qilinish huquqiga ega bo'lishlarini e'tirof etishlari lozimligi e'tirof etildi.

Shuningdek, mazkur moddaning 2-4 qismlarida ishtirokchi-davlat mazkur Protokolni ratifikatsiyalashida yoki unga qo'shilishida, o'zining milliy qurolli kuchlari safiga ixtiyoriy tarzda chaqiruvga ruxsat etilgan eng kichik yoshni ko'rsatuvchi va bunday chaqiruv zo'raki yoki majburiy tarzda amalga oshirilmasligini ta'minlash uchun ko'rilgan himoya choralarni bayon etuvchi qo'shimcha shartni saqlab qo'yish uchun topshirishi lozimligi;

o'zining milliy qurolli kuchlari safiga 18 yoshdan kichik shaxslarni ixtiyoriy tarzda chaqirishga ruxsat etgan ishtirokchi-davlatlar eng kamida:

- a) bunday chaqiruv haqiqatda ham ixtiyoriy tarzda amalga oshirilishi;
- b) bunday chaqiruv shaxsning ota-onasi yoki qonuniy vasiyning anglangan roziligi bilan amalga oshirilishi;
- c) bunday shaxslar harbiy xizmatning majburiyatlari haqida to'liq xabardor bo'lishi;
- d) bunday shaxslar milliy harbiy xizmatga qabul qilinishdan oldin yoshini tasdiqlovchi ishonchli isbot keltirishlari lozimligini ta'minlovchi himoya choralarni ko'rishlari lozimligi (3-qism);

ishtirokchi-davlat har qanday vaqtda BMT Bosh kotibi nomiga tegishli xabarnoma yuborish orqali o'zining bayonotini kuchaytirishi mumkinligi va bu haqda Bosh kotib barcha ishtirokchi-davlatlarni xabardor qilishi lozimligi, Bosh kotib bunday xabarnomani olgan kundan boshlab u kuchga kirishi;

harbiy xizmatga chaqirish uchun ko'zda tutilgan yoshni oshirish talabi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 28 va 29 moddalariga muvofiq ishtirokchi-davlatning qurolli kuchlari qoshida yoki nazorati ostida bo'lgan o'quv muassasalarga qo'llanilmasligi ko'rsatib o'tilgan.

Protokolning 4-moddasi davlatning qurolli kuchlari tarkibiga kirmaydigan qurolli guruhlarga, ular tomonidan har qanday holatda ham, 18 yoshga to'lmagan shaxslardan harbiy harakatlarda foydalanishi yoki ularni yollashi mumkin emasligi majburiyatini, davlatga esa, bolalarni bunday yollash yoki ulardan foydalanishning oldini olish maqsadida barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'rish, shu jumladan, bunday amaliyotni taqiqlash va jinoyat deb topilishi uchun zarur huquqiy choralarni ko'rish majburiyatini yuklaydi.

Alohida qayd etish lozimki, 4-moddaning qo'llanilishi qurolli mojarolardagi hech bir tomonning huquqiy maqomiga ta'sir etmaydi.

Protokolning 5-moddasida uning hech bir qoidasi ishtirokchi-davlat qonunida yoki halqaro shartnomalar va halqaro gumanitar huquqda mavjud bo'lgan bola huquqlarining ijobiy tarzda amalga oshirilishiga ko'maklashuvchi qoidalarga to'sqinlik qilmasligi, ya'ni bunday ijobiy amaliyot uchun ustuvor emasligi, ya'ni har qanday vaziyatda ham "eng avvalo bolaning oliy manfaatlarini hisobga olish" prinsipi ustuvor ekanligi o'z aksini topgan.

6-moddada ishtirokchi-davlatlar o'zining yurisdiksiyasi chegarasida mazkur Protokol qoidalarini samarali bajarilishini va hayotga tadbiiq etilishini ta'minlash uchun barcha zarur bo'lgan huquqiy, ma'muriy va boshqa choralarni ko'rishlari,

Protokolning qoidalari va prinsiplarini kattalarga va bolalarga keng tarzda ma'lum qilish va tegishli usullar yordamida targ'ib qilish majburiyatini o'z zimmasiga olishlari,

ular o'zining yurisdiksiyasi chegarasida mazkur Protokolga nomuvofiq tarzda harbiy chaqiruvga chaqirilgan yoki harbiy harakatlarda foydalanilgan shaxslarni demobilizatsiya qilinishi yoki xizmatdan ozod qilinishini ta'minlash uchun barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'rishlari, zarur hollarda, bunday shaxslarning jismoniy va psixologik tiklanishi va ijtimoiy reintegratsiyasi uchun zarur bo'lgan barcha yordamni amalga oshirishlari lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

7-modda Protokolga nomuvofiq bo'lgan har qanday faoliyatning oldini olish va Protokolga nomuvofiq bo'lgan harakatlar oqibatida jabrlangan shaxslarning reabilitatsiyasi va ijtimoiy reintegratsiyasi sohasida hamkorlik qilishga

bag'ishlangan bo'lib, shu jumladan, texnik hamkorlik va moliyaviy yordam orqali hamkorlik qilishdan iborat bunday yordam va hamkorlik tegishli ishtirokchi-davlatlar va halqaro tashkilotlar bilan maslahatlashgan holda amalga oshirilishi mumkinligi, shunday yordam ko'rsatish imkoniga ega ishtirokchi-davlatlar bunday yordamni mavjud ko'p va ikki tomonlama yoki boshqa dasturlar orqali yoki, xususan, Bosh Assambleya qoidalariga muvofiq tashkil qilingan ixtiyoriy badallar jamg'armasi orqali amalga oshirishlari mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Protokol bo'yicha o'z ishtirokchi-davlatlarning majburiyatlarini bajarishlarining xalqaro monitoringi qoidalari hujjatning 8-moddasida aks ettirilgan. Mazkur monitoring jarayoni to'g'risida keyingi paragrafda batafsil tushuntirib o'tilgan.

Hujjatning yakunlovchi qismi hisoblanuvchi 9-13 moddalarda Protokolni imzolash, ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish, uni denonsatsiya qilish, ularning kuchga kirishi, Protokolga tuzatish kiritish tartib-qoidalari hamda Protokolning autentik tillari va depozitariysiga oid qoidalar o'z aksini topgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Bola huquqlari to'g'risida konvensiyada e'tirof qilingan huquqlarni yanada samarali amalga oshirishga erishish maqsadalarida qabul qilingan har ikki Fakultativ protokol bola manfaatlarini eng yuqori ta'minlashga qaratilgan. Ular talab etilgan, o'nta davlat tomonidan ratifikatsiya etilgach, 2003-yilda kuchga kirdi.

Fakultativ protokollarning g'oyatda ahamiyatli ekani shundaki, ular konvensiyaviy qoidalar mazmunini ijtimoiy rivojlanishning hozirgi jarayoni talab qilayotgan zarurat va talablar ruhida boyitadi va takomillashtirib boradi.

Demak, bola huquqlarini tartibga solish faqat Bola huquqlari to'g'risida konvensiyadek yirik hajmli huquqiy hujjatni qabul qilish bilan cheklanmaydi. To'xtovsiz o'zgarib borayotgan hayot huquqiy tartibga solishning yangi yo'nalishlarini ko'rsatmoqda. Shu sababli, bola huquqlari to'g'risidagi amalda bo'lgan normalarni yangilash va yanada takomillashtirish uchun obyektiv zarurat vujudga keladi. Demak, huquqiy tartibga solish jarayoniga yangilash va takomillashtirishning to'xtovsiz jarayoni sifatida qarash lozim.

Xabarlar procedurasiga taalluqli fakultativ protokol. Uchinchi Fakultativ protokol bu, 2011-yil 19-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 66/138 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga xabarlar procedurasiga taalluqli Fakultativ protokoldir. Protokolga ko'ra, Bola huquqlari bo'yicha qo'mita tomonidan Konvensiya, Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ protokol, Qurolli mojaralarda bolalarning ishtirokiga taalluqli Fakultativ protokolning a'zosi bo'lgan davlatlar tomonidan, bu hujatlarda qayd etilgan huquqlarini mazkur davlatlar tomonidan buzayotgan deb hisoblovchi, ularning yurisdiksiyasi ostida shaxslar yoki shaxslar guruhining individual xabarlarini ko'rib chiqish (Protokolning 5-moddasi)ni, bunday huquqbuzarliklar qo'pol va tizimli deb topilganda esa, tergov procedurasi (Protokolning 13-moddasi)ni tashkil etadi va mazkur xabarlarini ko'rib chiqish natijalari va tergov natijalari bo'yicha boshqa ixtisoslashgan tashkilotlar va xalqaro organlar hamda a'zo-davlat bilan hamkorlik (Protokolning 15-moddasi) aloqalarini olib boradi.

Alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston hozirgacha, ya'ni 2014-yil-oktabrigacha mazkur Protokolga qo'shilgani yo'q.

4. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va unga fakultativ protokollarning monitoring mexanizmi

BMTning inson huquqlari bo'yicha konvensiyaviy organlari muayyan xalqaro shartnoma asosida tuziladi va mazkur shartnoma qoidalarining bajarilishini nazorat qilib boradi. Aynan tashkil qilish asoslaridan kelib chiqib, ular «shartnomaviy organlar», «implementatsiyaviy organlar», «konvensiyaviy organlar» kabi nomlar bilan ham yuritiladi.¹³⁹ Yoki, B.Ismoilovning fikricha, inson huquqlarini tatbiq etishda yuqori samaradorlikka erishish maqsadida xalqaro hamkorlik asosida yaratilgan bu shartnomaviy organlar turlicha nomlanadi: xalqaro

¹³⁹ Общая теория прав человека / Отв. ред. Е.А.Лукашева. - М.: НОРМА, 1996. -С. 121.

mexanizmlar, xalqaro nazorat, implementatsiyaviy mexanizmlar qabilida nomlashadi¹⁴⁰.

Ma'lumki, har qanday norma ham buzilishi ehtimoldan xoli emas. Xalqaro normalar ham, ularga rioya etilishi va bajarilishi ustidan nazorat o'rnatishga alohida e'tibor qaratish lozimligi jihatidan mustasno emas. Shu munosabat bilan Bola huquqlari bo'yicha konvensiyaning 43-moddasiga binoan " Ishtirokchi davlatlar tomonidan ushbu Konvensiyaga muvofiq qabul qilingan majburiyatlar bo'yicha erishilgan taraqqiyotni ko'rib chiqish uchun" tarixda ilk marotaba xalqaro miqyosga va ahamiyatga ega bo'lgan nazorat mexanizmi sifatida Bola huquqlari bo'yicha qo'mita 1991-yilda tashkil etilgan. Bu Qo'mitaning birinchi sessiyasi 1991-yilda bo'lib o'tgan.

Ushbu nazorat mexanizmining a'zolarini ishtirokchi davlatlar o'z fuqarolari orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylaydilar. Qo'mita ushbu Konvensiyada qamrab olingan sohalar bo'yicha "yuksak ma'naviy fazilatlariga ega va vakolatli" o'n sakkiz nafar ekspertdan iborat bo'ladi.

Ular mustaqil faoliyat yuritadilar. Qo'mita majlislari har yili Nyu-Yorkda bo'lib o'tadi. Qo'mita faoliyati to'g'risida ma'ruza ikki yilda bir EKOSOS orqali Bosh Assambleyaga taqdim qilinadi

Har besh yilda a'zo-davlatlar Qo'mitaga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi orqali Konvensiyada mustahkamlangan huquqlarni ular amalga oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlari to'g'risida ma'ruzalar taqdim etadilar (44-modda). Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaning faoliyatining proseduraviy tartibi quyidagi jadvalda berilmoqda.

¹⁴⁰ Ismoilov B. O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlarini ta'minlashdagi xalqaro-huquqiy majburiyatlarini bajarish amaliyoti //O'zbekiston va BMT: tajriba va hamkorlik istiqbollari. Konferensiya materiallari to'plami. 2006-yil 16-mart. – T., TDYuI, 2006. -B.76

Qo'mita nomi	A'zolarining kimlar tomonidan saylanishi	A'zolari soni	Yildagi majlislari va ularning davomlilik soni	Majlislarni o'tkazishning vaqti va joyi Jeneva (J) Nyu-York (N)	Milliy ma'ruza taqdim etish	Milliy ma'ruzalarni taqdim etish a) boshlang'ich b) davriy
Bola huquqlari bo'yicha qo'mita	Ishtirokchi davlatlar tomonidan	18	Yilda 3 ta majlis, 3 hafta davom etadi	Yanvar (J) May-iyun(J) Sentabr-oktabr (J)	44-moddaga ko'ra majburiydir	A) 2 yildan so'ng B) har 5 yilda

E'tiborli tomoni shundaki, davlatlar o'z mamlakatlarida ma'ruzalarini taqdim etish (44-modda) hamda nafaqat kattalar, balki bolalarni ham Konvensiyaning prinsiplari va qoidalaridan keng xabardor qilib turishni (42-modda) ta'minlash majburiyatini o'z zimmlariga oladilar.

Qo'mita ma'ruzalarni o'rganib, umumiy xarakterdagi taklif va tavsiyalar berishi mumkin. Agar ma'ruza yuzasidan mulohazalar qilinsa, bu haqda Bosh Assambleyaga xabar qilinadi.

BMTning inson huquqlariga oid konvensiyaviy organlarining asosiy vazifasi tegishli konvensiya qoidalari bajarilishini monitoring qilib borishdir. Qo'mitaning mulohazalari yuridik majburlov kuchiga ega emas. Lekin qo'mita mulohazalarini inobatga olmaslik Konvensiyaga hurmatsizlarcha qarashni bildiradi. Qo'mitada Konvensiyada ko'rsatilgan huquqlar bo'yicha ekspertlar faoliyat yuritadilar. Ekspertlar o'z davlati manfaatidan kelib chiqib emas, balki mustaqil ekspert sifatida ish olib boradilar. Bu esa ularning adolatli mulohaza chiqarishini ta'minlaydi.

Qo'mita Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani hamda uning fakultativ protokollarini ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan davlatlar o'zlarining bu boradagi majburiyatlarini qay tarzda bajarayotganliklarini kuzatib boradi. Konvensiya qatnashchisi bo'lgan davlatlar Konvensiya bajarilishiga qaratilgan tadbirlar haqidagi va bola huquqlarini amalga oshirish sohasidagi taraqqiyot to'g'risidagi ma'ruzalarni muntazam ravishda shu Qo'mitaning o'ziga taqdim

etadilar. Bu bilan ma'ruzalarning milliy darajada oshkor etilishi va keng ommalashtirilishi ta'minlanadi.

Bola huquqlari bo'yicha Qo'mita tashkil etilishining amaliy ahamiyati kattadir. Chunki, "Bola" Konvensiyasining bajarilishi jarayoni ustidan tashkil etilgan doimiy nazorat bola huquqlari sohasidagi huquqbuzarliklarga barham berishga, ularni bartaraf etishga, bola huquqlarini xalqaro va mahalliy darajada himoya qilishga ta'sir ko'rsatadi.

2011-yil 19-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ma'ullangan Konvensiyaning uchinchi, Murojaat taqdim etish bo'yicha Fakultativ protokoliga ko'ra, Bola huquqlari bo'yicha qo'mita individual/jamoaviy murojaatlarni va ko'rib chiqishi ham mumkin¹⁴¹.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga fakultativ protokollar bo'lmish *Bolalarning qurolli mojarolarga jalb qilinishi to'g'risidagi fakultativ protokolning* 8-moddasiga hamda *Bolalar savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasi to'g'risidagi fakultativ protokolning* 12-moddasiga binoan ularga ishtirokchi davlatlar ushbu protokollar ularga nisbatan kuchga kirganidan keyin ikki yil ichida uning qoidalarini bajarish borasida ko'rilgan choralar to'g'risida, xususan, chaqiruv va ishtirok etish to'g'risidagi qoidalarini bajarish borasidagi choralar haqida mufassal axborot beruvchi ma'ruzalari ham Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaga taqdim etadi. Mufasal ma'ruza taqdim etilganidan keyin har bir ishtirokchi-davlat, Konvensiyaning 44-moddasiga muvofiq Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaga taqdim etiladigan keyingi ma'ruzalariga protokollarning bajarilishi borasida yangi ma'lumotlarni kiritadi. Protokolda ishtirokchi boshqa davlatlar ma'ruzani har besh yilda taqdim etadilar. Qo'mita ishtirokchi-davlatlardan protokollarning bajarilishiga taalluqli bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

¹⁴¹ http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/child_optprot.shtml

1. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani qabul qilishning shart-sharoitlarini va o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
2. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada ko'zda tutilgan huquqlar bo'yicha uch asosiy maqsad va jiddiy yangiliklar nimadan iborat?
3. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning poydevor prinsiplari qaysilar va ular Konvensiya normalarida qanday aks etgan?
4. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning tuzilishini tushuntirib bering.
5. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada bolaning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlari, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari qanday aks etganligini tavsiflab bering.
6. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga Fakultativ protokollarni qabul qilishning zarurati va shart-sharoitlarini tushuntirib bering.
7. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga Fakultativ protokollarning tuzilishini tushuntirib bering.
8. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga Fakultativ protokollarni tavsiflab bering.
9. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va unga Fakultativ protokollarning monitoring mexanizmi nima?
10. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va unga Fakultativ protokollarning bola huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati nimadan iborat deb o'ylaysiz?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar va manbalar ro'yhati:

1. Balog'atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar. /Kirish so'z muallifi va mas'ul muharrir. A.X.Saidov. –T.; 2002. -232 b.
2. Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009.
3. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. To'plam. /O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X.Saidov. -T.: Adolat. 2004.
4. Mo'minov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. –T.: JIDU, 2011

5. Mo'minov A., Tillabayev M. *Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muxarrir A.X.Saidov. 2-nashr. –T.: Adolat, 2013.*
6. Mo'minov A., Tillabaev M. *Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013.*
7. Raxmonov B., Mahmudov F. *Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. –T.: “CHASHMA PRINT”, 2011.*
8. Rashidov K. *O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining tuzilishi, bajarilishi va bekor qilinishi. (Parlament a'zolari uchun amaliy qo'llanma). –Toshkent, 2012.*
9. Hakimov R. *Детство: Проблемы и перспективы: [1946-2006]. –T.: O'zbekiston, 2006.*
10. *1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyalari va ularga Qo'shimcha protokollar. –Ikkinchi, tuzatilgan nashri. –T.: Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi, 2007.*
11. *Odam savdosi jabrlanuvchilarini jazolamaslik qoidasini implementatsiya qilishga qaratilgan siyosat va qonunchilikka oid tavsiyalar. YeXHTning Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha maxsus vakili va koordinatori byurosi, 2013*
12. *Odam savdosiga qarshi kurash sohasidagi milliy va xalqaro huquq normalari /Tuzuvchilar L.Ishoqova, K. Hamroyeva. –T.: “Yurist-media markazi”, 2010.*

6-bob. Bola huquqlarini himoya qilishga oid O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi

1. Bola huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari
2. Bola huquqlariga oid O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligining umumiy tavsifi
3. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni va uning tavsifi
4. Bola huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati

1. Bola huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari

Bola huquqlariga oid milliy qonunchilik deganda, avvalambor O‘zbekiston Respublikasiga e‘tiborni qaratish lozim. Dunyoning 100ga yaqin konstitutsiyalarini o‘rganish asosida, ularning eng ilg‘or tajribalarini hisobga olib, umuminsoniy nuqtai nazardan e‘tirof etilgan xalqaro huquq normalariga asosan, shuningdek, xalqimizning boy o‘tmishi va tarixini e‘tiborga olgan holda, azaliy urf-odatlarimiz, va an‘analarimizdan kelib chiqib¹⁴², qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 moddasida inson, shu jumladan, bola ham, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat, deb e‘lon qilindi¹⁴³.

Bola huquqlarini huquqiy tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan boshlanadi, desak adashmaymiz. Chunki, mamlakatning Asosiy qonuni sifatida Konstitutsiyada barcha sohalar kabi, bola huquqlari bo‘yicha huquqiy munosabatlarning ham konstitutsiyaviy, ya‘ni fundamental asoslari, bolaning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi sifatida o‘z aksini topgan.

Bolaning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, uning oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan huquqlari, erkinliklari, majburiyatlari va ularni amalga oshirish kafolatlaridan iborat.

¹⁴² Mo‘minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. –T.: JIDU, 2010. –B.31

¹⁴³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2014.

Bolaning qonstitutsiyaviy-huquqiy maqomi Konstitutsiyada fuqaroning maqomidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Konstitutsiyada bolaga, uning huquqlariga, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga nisbatan davlat va jamiyat munosabatining asosiy tamoyillari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxs va fuqaroning o‘z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishiga asos bo‘lgan omil, ya’ni rahbariy g‘oyalar yig‘indisi hisoblangan shaxs va fuqaro huquqiy maqomining quyidagi tamoyillari mustahkamlab qo‘yilgan:

- 1) shaxs va fuqaroning huquq va erkinliklari sohasida xalqaro huquq normalarining ustunligi;
- 2) asosiy huquq va erkinliklarning ajralmasligi;
- 3) huquq va erkinliklarning bevosita amalga oshirilishi;
- 4) huquq va erkinliklarni majburan cheklashga yo‘l qo‘yilmasligi;
- 5) shaxs va fuqaro huquq va erkinliklarining davlat tomonidan kafolatlanganligi;
- 6) teng huquqlilik;
- 7) shaxsning o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishi boshqalarning huquq va erkinliklariga putur yetkazmasligi shart ekanligi¹⁴⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan inson huquqlari shaxsning erkinlik va o‘z taqdirini o‘zi belgilash doirasini, uning avtonomiyasini o‘rnatadi, inson huquqlari va erkinliklari sohasida umume’tirof etilgan xalqaro normalar va standartlar asosida ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni tartibga soladi hamda muvofiqlashtiradi, davlat insonning shaxsiy erkinlik doirasiga asossiz aralashishining oldini olgan, davlat tuzilmalarining mutlaq hukmronligiga va o‘zboshimchaligiga to‘siq qo‘ygan holda faoliyatining chegarasini o‘rnatadi, inson va davlatning o‘zaro munosabatlari mezonlarini,

¹⁴⁴ Qarang: O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi: Darslik /H.T.Odilqoriyev tahriri ostida. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. -B.192-194

davlatning o‘z faoliyati uchun jamiyat va shaxs oldidagi mas’uliyatini belgilaydi¹⁴⁵.

Har bir demokratik davlatning konstitutsiyaviy asosini inson huquq va erkinliklari tashkil qiladi. Shu ma’nodagi, mamlakatimiz Konstitutsiyasidan “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” bo‘limi alohida o‘rin egallaganini bejiz emas. Shuningdek, yuqorida ta’kidlanamizdek, Konstitutsiyaning “Asosiy tamoyillar” bo‘limida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligini qayd etuvchi asosiy g‘oyalar mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, ular jamiyatning to‘la huquqli, shu bilan bir qatorda muayyan zaif qatlami sifatida qo‘shimcha huquq va imtiyozlarga ega bo‘lgan bolalarga ham taalluqlidir.

18 yoshga yetmagan shaxs va shaxslarga nisbatan qo‘llanuvchi “bola”, “bolalar” va “voyaga yetmagan” tushunchalari Konstitutsiyaning uchta moddasida qo‘llanilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bola huquqlarining mustahkamlanishi

Konstitutsiyaning Muqaddimasida bolalar huquqlariga bevosita aloqador bo‘lgan O‘zbekistonda inson huquqlariga sodiqlik, xalqaro huquqning umume’tirof etilishi, fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ta’minlashga oid normalarning ustuvorligi belgilangan.

Konstitutsiyaning 45-moddasida “Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir” deyilgan.

Konstitutsiyaning 64-moddasida “Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota onalarining vasiyigidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi” degan norma e’tirof etilgan.

¹⁴⁵Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.Saidov, F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas’ul muharrir A.X.Saidov. –T.: “O‘zbekiston”, 2010. -B.55

Konstitutsiyaning 65-moddasida “Farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi,” - deyilgan.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bola huquqlarini himoya qilishning asosiy tamoyillari belgilangan. Ular sirasiga quyidagi tamoyillarni kiritish mumkin:

birinchidan, bola huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va normalarining ustuvorligi;

ikkinchidan, bola huquqlarining muhofaza va himoya qilinishining davlat tomonidan ta’minlanishi;

uchinchidan, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga davlat va jamiyat tomonidan g‘amho‘rlik ko‘rsatilishi;

to‘rtinchidan, bolalarni kelib chiqishi yoki ota-onasining fuqarolik holati sababli kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

beshinchidan, bolalarga nisbatan xayriya ishlarni amalga oshirishni rag‘batlantirish;

oltinchidan, ota-onalarning o‘z farzandlarini boqish va tarbiya qilish majburiyati¹⁴⁶.

Ta’kidlash joizki, bola nafaqat huquqlarga, shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-50 moddalarida nazarda tutilgan majburiyatlarga ham ega. Bolalar :

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etishga;
boshqa kishilarning huquqlarini, erkinliklarini, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga;

O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga;

atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar.

¹⁴⁶ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik // Prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI nashriyoti, 2009. –B.146

Albatta, qayd etish kerakki, bunday majburiyatlarni barcha yoshdagi bolalar yetarli darajada tushuna olmaydi va o‘zining cheklangan muomala layoqati orqali bu majburiyatlarni bajarish uchun shaxsan ma’sul bo‘la olmaydi. Ularning otalari va qonuniy vakillari bolalarning bunday majburiyatlarini uchun mas’ul hisoblanadi.

Demak, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yuqorida ta’kidlangan qoidalarida bola huquqlarini himoya qilishning asosiy tamoyillari belgilangan. Chunki, Konstitutsiyada inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini rivojlantirishning asosiy prinsiplari, davlat organlari tomonidan inson huquqlarini ta’minlashda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan norma-prinsiplar belgilangan¹⁴⁷.


Xalqaro huquq normalar ustuvorligining konstitutsiyaviy tamoyili. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks etilgan davlatimiz tomonidan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalarining ustuvorligini e’tirof etish to‘g‘risidagi tamoyil bola huquqlarini ta’minlashga ham bevosita dahldordir.

Konstitutsiya Muqaddimasida aks etilgan ushbu tamoyilga binoan, bolalarga nisbatan davlatning huquqiy siyosatini belgilashda O‘zbekiston Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro pakt va unga Fakultativ protokollardan iborat bo‘lgan Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro billga hamda Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya va unga Fakultativ protokollar va boshqa xalqaro hujjatlarda aks etilgan bola huquqlariga oid xalqaro standartlarga tayanadi. Mazkur tamoyil asosida bola huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi rivojlanib bormoqda.

Konstitutsiyada inson huquqlariga oid quyidagi muhim xalqaro-huquqiy qoidalar mustahkamlab qo‘yilgan¹⁴⁸:

¹⁴⁷Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.Saidov, F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas’ul muharrir A.X.Saidov. –T.: “O‘zbekiston”, 2010. –B.56

¹⁴⁸Mo‘minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. –T.: JIDU, 2010. –B.31-32



Albatta, mazkur qoidalar inson huquqlarining tarkibiy qismi sifatida bola huquqlariga oid munosabatlarga ham taalluqlidir.

Asosiy Qonun sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, bola huquqlari boʻyicha Oʻzbekistonning milliy qonunchiligi va davlat siyosatini yanada rivojlanib, takomillashib borishi uchun dasturilamal boʻlib qolmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida bola huquqlari bo‘yicha milliy qonunchilikning maxsus sohasi shakllanib ulgurdi.

2. Bola huquqlariga oid O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligining umumiy tavsifi

Ayni paytda mamlakatimizda bola huquqlari va qonuniy manfaatlari sohasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida hamda 15 ta kodeksi, 20 dan ortiq qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20 dan ortiq farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 100 dan ortiq qarorlari shuningdek, 70 dan ortiq idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmoqda¹⁴⁹.

O‘zbekistonda bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilikning rivojlanishini shartli ravishda uch bosqichga bo‘lgan holda o‘rganish mumkin:

birinchi bosqich – 1991 – 2000-yillarni,

ikkinchi bosqich – 2000 – 2008-yillarni,

uchinchi bosqich – 2008-yildan bugungi kunga qadar davrni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqich bola huquqlarini himoya qilishga oid milliy qonunchilikda huquqiy asoslarning to‘la shakllanishi bilan xarakterlansa, *ikkinchi bosqich* bola huquqlarini himoya qilishga milliy qonunchilikni rivojlanishi bilan bir qatorda uni kafolatlashga qaratilgan qonunlarni qabul qilish bilan uni kodifikatsiyalashga qaratilganligi hamda *uchinchi bosqich* esa, bola huquqlariga oid milliy qonunchilikni yanada chuqurlashtirish va takomillashtirishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Birinchi bosqichda O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonunning mustaqillikning dastlabki yilidanoq,

¹⁴⁹Aloyev U. Bola huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilik asoslari. // “O‘zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini boshqarishni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish: yutuqlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro forumining materiallari. 2011-yil 29-30-noyabr. –T.: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2011. -B.27

ya'ni 1991-yil 20-noyabrda qabul qilinishi bilan izohlanadi. Shundan so'ng bola huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalar o'z aksini topgan boshqa qonun hujjatlari qabul qilindi. Bunday qonunchilik hujjatlariga yuqorida ta'kidlangan "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonun bilan bir qatorda, 1992-yilgi "Fuqarolik to'g'risida"gi, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi, 1992-yilda qabul qilingan va 1997-yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar, "Kadar tayyorlash milliy dasturi", Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi, 1996-yilgi "Fuqarolar sog'lig'ini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi, 1998-yilgi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunlar, kabi ko'plab qonunlarda, shuningdek, albatta, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Jinoyat kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksi, Jinoyat ijroiya kodeksi, kabi kodekslarda o'z aksini topdi.

Albatta, yuqoridagi qonunlar va kodekslar to'laligicha bola huquqlariga bag'ishlanmagan bo'lmas-da, bolalarga oid maxsus normalar ajratilgan. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasining "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi qonunining V bo'limi "Onalik va bolalikni muhofaza qilish" deb nomlanib, unda onalikni rag'batlantirish, onalar va bolalar sog'lig'ini saqlash kafolatlari: homilador ayollarga va yangi tug'ilgan chaqaloqlarga tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlash; bolalar va o'smirlar sog'lig'ini mustahkamlash va saqlash to'g'risidagi g'amxo'rlik; bola boqishda fuqarolarga davlat yordami; bola kasal bo'lib qolganida onalarga beriladigan imtiyozlar (61-modda); o'smirlarning mehnat va ishlab chiqarish ta'limini hamda mehnat sharoitlarini nazorat qilish (62-modda); o'smirlarni majburiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish (63-modda) kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Mazkur yillar davomida mamlakatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika yosh ijodkorlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" (1993-yil), "O'zbekistonda ta'lim olayotgan yoshlarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (1993-yil), "O'zbekiston Respublikasining yosh mualliflariga eng yaxshi asarlari va ilmiy ishlari uchun

Davlat mukofotini topshirish to‘g‘risida” (1996-yil), “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi (1997-yil) farmonlari imzolandi¹⁵⁰. Shu yillarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 15-iyundagi “O‘zbekiston yoshlari ishlari bo‘yicha respublika kengashi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sog‘lom avlod uchun” hukumatga qarashli bo‘lmagan xalqaro xayriya jamg‘armasining takliflari to‘g‘risida”gi 1993-yil 28-oktabrdagi 524-sonli Qarori, 1993-yildagi “O‘sib kelayotgan avlodni sog‘lomlashtirish muammolarini kompleks tarzda hal qilish to‘g‘risida”gi qarori, 1994-yildagi “Bolalikdan nogironlar, qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi “Bolali oilalarga davlat ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi va 1994-yil 23-avgustdagi “Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi hamda 1996-yildagi “Bolali oilalarga ko‘rsatiladigan ijtimoiy ko‘makni kuchaytirish choralari to‘g‘risida”gi qarorlari bolalar huquqlari sohasidagi muhim hukumat hujjatlari sirasiga kiradi. Ular mamlakatimizda va bolalikni muhofaza qilish, bolalarning jismoniy, axloqiy va ma’naviy kamol topishi uchun qulay shart-sharoit yaratish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirishga ham alohida e’tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 171-son qaroriga 2 ilovada O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risida Nizom va mazkur Qarorga 3 ilovada “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida”g Nizom qabul qilindi. Mazkur nizomlarda vasiylik va homiylikka hamda bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) olishning talablari va undabolaning huquqlari va ularga rioya qilish

¹⁵⁰ Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 2014. –B.12-13

bo'yicha vasiylik va homiylikka hamda patronatga oluvchilarning majburiyatlari belgilab berildi.

Hukumat hujjatlari orasida yetim bolalarning barkamol rivojlanishi va tarbiyalanishiga qaratilgan "SOS – O'zbekiston bolalar shaharchalari" Assotsiatsiyasini yaratish to'g'risida"gi qarori alohida o'rin tutadi. O'zbekiston bolalar shaharchalari "SOS – Kinderdorf Interneshnl" Xalqaro Assotsiatsiyasining tarkibiga kiradi¹⁵¹.

Ikkinchi bosqichda, ya'ni 2000-2008-yillarda ham mamlakatimizda bolalar va yoshlarni huquqiy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, uni kodifikatsiyalashga katta e'tibor qaratildi. Mazkur bosqichda, 2008-yilning 7-yanvarida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy maqsadi bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lgan mazkur Qonun "O'zbekiston huquqiy tarixida bola huquqlari sohasidagi birinchi kodifikatsiyalangan hujjat hisoblanib, O'zbekistondagi barcha bolalarning o'ziga xos Bolalar Konstitutsiyasi bo'lib qoldi".¹⁵² Ushbu Qonunning mazmun mohiyati bilan keyingi paragrafda batafsil tanishamiz.

Alohida qayd etish kerakki, 2008-yilda mamlakat parlamenti tomonidan qator xalqaro hujjatlar qonun yo'li bilan ratifikatsiya qilindiki, bu xalqaro hujjatlar ham bola huquqlari bo'yicha milliy huquqiy tizimning tarkibiy qismiga aylandi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: 2008-yil 8 aprelda qabul qilingan XMTning "Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risida"gi 138-konvensiyasini (Jeneva, 1973-yil) ratifikatsiya qilish to'g'risida, "Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risida"gi 182-konvensiyasini (Jeneva, 1997-yil) ratifikatsiya qilish to'g'risida, 2008-yil 8-iyulda qabul qilingan "BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi

¹⁵¹Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI nashriyoti, 2009. –B.128

¹⁵²Saidov A.X. Закон Республики Узбекистан "О гарантиях прав ребенка" - детская конституция. // "O'zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini boshqarishni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish: yutuqlar va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro forumining materiallari. 2011-yil 29-30-noyabr. –T.: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2011. -S.10-11

konvensiyasini (Nyu-York, 2000-yil 15-noyabr) to'ldiruvchi Odam savdosining, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi protokolni ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi, 2008-yil 11-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ protokol"ga (Nyu-York, 2000-yil 25-may) qo'shilish to'g'risida", 2008-yil 12-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalarning qurolli mojaralarda ishtirokiga taalluqli Fakultativ protokol"ga (Nyu-York, 2000-yil 25-may) qo'shilish haqida"gi qonunlar. Ushbu qonunlarda bevosita yoshlar huquq va manfaatlarini himoya qilish yo'li bilan voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklariga qarshi kurashish va ularning oldini olishga oid normalar ham o'z ifodasini topgan¹⁵³.

Shu bilan bir qatorda, mazkur davr bola huquqlarini amalga oshirishning turli sohalariga oid qator Prezident farmoyishlari va hukumat qarorlari ham qabul qilindi. Ularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi 2001-yil 4-yanvardagi F-1322-sonli Farmoyishini; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"2004-yil 29-avgustdagi PF-3481-son Farmonini; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2004-yil 29-avgustdagi 410-son qarorini; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini tashkil etish to'g'risida" 2004-yil 7-sentabrdagi 419-son qarorini; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 2-noyabrdagi "Osiyo Taraqqiyot Banki ishtirokida "Umumta'lim maktablari uchun

¹⁵³Aloyev U. Bola huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilik asoslari. //“O'zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini boshqarishni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish: yutuqlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro forumining materiallari. 2011-yil 29-30-noyabr. –T.: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2011. -B.28-29

darsliklar va o‘quv adabiyotlari nashr etish tizimini takomillashtirish” loyihasining ikkinchi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 513-sonli Qarorini; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 25-oktabrdagi “Maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 225-sonli Qarori va mazkur Qarorga ilovada keltirilgan “O‘zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta’lim muassasasi to‘g‘risida”gi Nizomni misol qilib keltirish mumkin.

Mazkur davrda bola huquqlariga oid qonunchilik kodifikatsiyalashgani bilan bir qatorda, bolalarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilindi.

Uchinchi bosqichda bola huquqlarining ayrim jihatlariga oid qonun hujjatlari qabul qilindi va ular takomillashtirib borilmoqda.

Mazkur davrda qabul qilingan eng muhim qonunlardan biriga O‘zbekiston Respublikasining 2010-yildagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2010-yil 12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2010-yil 28-avgustda ma’qullangan)ni kiritish mumkin. Yuvenal adliyaning ayrim masalalariga bag‘ishlangan mazkur Qonunning 4-moddasida voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan:

voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash;

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish;

voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish.

2014-yilning 2-yanvarida O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi qonuni kuchga kirdi. Mazkur Qonunning maqsadi vasiylik va homiylik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat hamda mazkur sohada:

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarning o'z vaqtida aniqlanishi, hisobga olinishi va joylashtirilishini ta'minlash;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

vasiylik va homiylik to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash;

bolalarni oilada tarbiyalash shaklining ustuvorligini ta'minlash;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlash;

vasiylik va homiylik sohasida davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash;

vasiylik va homiylik sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishdan iborat davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shuningdek, bu davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko'plab farmonlari va qarorlari qabul qilindi. Ularning ayrimlariga to'htalib o'tamiz.

Bolalarning ijod qilish huquqini ta'minlash va bu sohadagi faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida"gi 2008-yil 8-iyuldagi PQ-910-sonli Qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi 2010-yil 27-yanvardagi PQ-1271-sonli Qarori. Mazkur Qarorda "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi tasdiqlangan bo'lib, uning asosiy vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan:

bolalar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga, ularni barkamol rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, amaldagi qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarga zamon talablariga mos o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

“Sog'lom ona — sog'lom bola” dasturini izchil amalga oshirish asosida sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish, onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, profilaktikaga asoslangan sog'liqni saqlash tizimini ustuvor rivojlantirish, tibbiy xizmat moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sog'lom bolalar tug'ilishi va ularni tarbiyalash bilan bog'liq masalalar yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish hamda maslahat ishlarini kuchaytirish;

tayyorlanayotgan mutaxassislariga real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi mavjud talabga alohida e'tibor qaratgan holda, o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasidagi moddiy-texnika bazani yanada mustahkamlash, undan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish;

ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimedia vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, kasb-hunar kollejlari, litseylari va oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini zamonaviy turdagi o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha samarali tizimni yanada rivojlantirish;

zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda Internet tizimini yanada rivojlantirish, ularni har bir oila hayotiga joriy etish va keng o'zlashtirish;

yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash, bolalar sportini rivojlantirish sohasida, yoshlarni, ayniqsa, qishloq qizlarini sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yangi sport majmualarini, stadionlar va

inshootlarni qurish, ularni zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan ta'minlash, yuqori malakali ustoz va murabbiylar bilan mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni izchil kuchaytirish;

iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishning muhim yo'nalishi, aholi va o'rta sinf mulkdorlari daromadlarini shakllantirish asosi bo'lgan kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish, bu sohadagi mavjud muammolarni hal etish, yoshlar, avvalambor, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini, ayniqsa, qishloq joylarda tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish uchun sharoit yaratish;

ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

yosh oilalarga g'amxo'rlik qilish ishlarini kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash, jismonan va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash borasida jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan sog'lom va mustahkam oilani shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan, tuban «ommaviy madaniyat» xurujlaridan himoya qilishga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Mazkur "Barkamol avlod yili" Davlat dasturida quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar belgilandi:

I. Bolalar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga, ularni barkamol rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish

II. Onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, profilaktikaga asoslangan sog'liqni saqlash tizimini ustuvor rivojlantirish, tibbiy xizmat moddiy-texnika bazasini mustahkamlash asosida

sogʻlom avlodni voyaga yetkazish borasidagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish

III. Taʼlim sohasida moddiy-texnika bazasi shakllantirilishi va undan samarali foydalanishni taʼminlash, real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida talab qilinayotgan mutaxassislarni tayyorlash, davlat taʼlim standartlari, oʻquv dasturlari va oʻquv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish.

IV. Taʼlim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, taʼlim muassasalarining oʻquv-laboratoriya bazasini mustahkamlash, oʻqituvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy hamda maʼnaviy ragʻbatlantirishning samarali tizimini shakllantirish hisobiga mamlakatimiz maktablarida kasb-hunar kollejlari, litseylari va oliy oʻquv yurtlarida oʻqitish sifatini tubdan yaxshilash.

V. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda Internet tizimini yanada rivojlantirish, ularni har bir oila hayotiga joriy etish va keng oʻzlashtirish.

VI. Yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash, bolalar sportini rivojlantirish sohasidagi ishlarni kuchaytirish, yoshlarni sport bilan muntazam shugʻullanishga keng jalb etish, yangi sport majmualarini qurish va jihozlar, ularni yuqori malakali ustoz va murabbiylar bilan mustahkamlash.

VII. Yoshlarni, eng avvalo, kasb-hunar kollejlari va oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilarini, ayniqsa qishloq joylarda tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish.

VIII. Yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish, fanni yanada rivojlantirish hamda isteʼdodli, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga faol jalb etish.

IX. Yosh oilalar toʻgʻrisida gʻamxoʻrlikni kuchaytirish, ularning huquqiy va ijtimoiy muhofazasini taʼminlash, sogʻlom va mustahkam oila qaror toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

X. Yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlikdan, chetdan kirib keladigan ekstremistik markazlar

hamda past saviyali «ommaviy madaniyat» illatlarining zararli ta'sirlari, tahdididan muhofaza qilish.

XI. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturining maqsadi, mazmuni va ahamiyati to'g'risida ommaviy axborot- tushuntirish ishlarini tizimli asosda tashkil etish.

Bu davrda bolalar sportiga e'tibor yanada kuchaytirilmoqda. Bolalarni, ayniqsa qizlarni sport bilan shug'ullanishga yanada kengroq jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, o'sib kelayotgan avlodni jismoniy rivojlantirish va sog'lig'ini mustahkamlashni ta'minlash, shuningdek ularning ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish hamda madaniy saviyasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi byudjetini xamda 2013-yilda bolalar sporti obyektlari, suzish havzalari va bolalar musiqa hamda san'at maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish manzilli dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2013-yil 15-martdagi PQ-1939-son Qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi byudjetini hamda 2014-yilda bolalar sporti obyektlari, suzish havzalari va bolalar musiqa hamda san'at maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash manzilli dasturlarini tasdiqlash to'g'risida" 2014-yil 31-yanvardagi PQ-2118-son Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining "Yoshlar" Teleradiokanali» yopiq aksiyadorlik jamiyati huzuridagi "Bolajon» Bolalar raqamli telekanalini tashkil etish to'g'risida"gi 2013-yil 30-maydagi PQ-1976-son Qarori qabul qilindi. Uunga ko'ra, quyidagilar tashkil etilayotgan «Bolajon» bolalar telekanali faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib belgilandi:

bolalar atrof dunyoni idrok qilishni, milliy qahramonlar hamda o'zbek xalqining va jahondagi boshqa xalqlarning dostonlari, eposlari va ertaklari personajlarining tarixi misolida bola ongida ezgulik va adolatni shakllantirib, qaror

toptirishga yo'naltirilgan bilim doirasini kengaytiruvchi va intellektual jihatdan rivojlantiruvchi televizion dasturlarni tayyorlash va namoyish etish;

bolalarning qiziquvchanligini, intellektual va ijodiy faolligini rivojlantirish, ularda bilim beradigan va ko'ngilochar-o'rgatuvchi televizion ko'rsatuvlarni, maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan intellektual o'yinlar va viktorinalarni namoyish etish vositasida boshlang'ich mahoratlarni, aqliy va jismoniy mehnat ko'nikmalari va madaniyatini shakllantirish;

bolalarning atrof dunyoni bilishga, yosh teletomoshabinlarning yoshga oid xususiyatlarini hisobga olgan holda translyatsiyalarning zamonaviy interaktiv shakllari va usullaridan, raqamli va multimedia texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda ularning o'z atrofidagi barcha qiziqarli narsalar va yangiliklarni kashf etishga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash;

bilim beradigan maxsus teleko'rsatuvlarni tayyorlash va shu jumladan, o'zbek tilidagi subtitrlari bilan xorijiy bolalar badiiy, multiplikasion va ko'ngilochar-o'rgatuvchi filmlarni translyatsiya qilish yo'li bilan bolalarning xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish;

bolalarda tabiatga va atrof muhitga bo'lgan qiziqish va mehrni, ularning uy hayvonlari va parrandalarga, akvarium jonivorlari va xona o'simliklariga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish hamda ularni to'g'ri parvarishlashga o'rgatish;

bolalarga jismoniy madaniyat asoslarini va sport bilan shug'ullanishga qiziqishni singdirish, ularda sport bahslariga muhabbat tuyg'usini tarbiyalash, bolalarda o'z sog'lig'iga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni, zarur sanitariya-gigiyena ko'nikmalarini shakllantirish.

Mazkur davrda hukumatning qator qarorlari qabul qilindi. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 2010-yil 26-noyabrdagi 268-sonli Qarori. Mazkur Qarorga 1-Ilovada "Alohida sharoitlarda

ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizom "Ta'lim to'g'risida", "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Nizomning 3-bandiga ko'ra, Ixtisoslashtirilgan maktab alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalarga ta'lim berishni, ularning kasb-hunar tayyorgarligi va ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiyasini amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasi hisoblanadi.

Nizomning 4-bandida ixtisoslashtirilgan maktabning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

barkamol, jismoniy va ruhiy sog'lom shaxsni tarbiyalash, bolalarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mas'uliyatlik, mustaqillik va komil inson bo'lishga intilish tuyg'usini shakllantirish;

bolalarning yoshiga xos bo'lgan psixofiziologik moyilliklari, qobiliyatlari, qiziqishlariga, bolalar hayoti va sog'lig'ini saqlash talablariga muvofiq tarzda ularning aqliy, emotsional va jismoniy rivojlanishiga ko'maklashuvchi psixologik, tibbiy va ijtimoiy rehabilitatsiyasini ta'minlovchi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

bolalarning davlat ta'lim standartlari asosida umumiy o'rta ta'lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

tarbiyalanuvchilarda qonunga itoatkorlikni shakllantirishga, ularni ijtimoiy himoya qilish va har tomonlama rivojlantirishga yordam berishga yo'naltirilgan dastur va metodik qo'llanmalarni ro'yobga chiqarish chora-tadbirlarini amalga oshirish¹⁵⁴.

¹⁵⁴O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 48-son, 445-modda; 2014 y., 23-son, 269-modda

2011-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni tarbiyalashni takomillashtirishga, sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi.

Bola huquqlariga oid hukumat qarorlari orasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “BMT Mingyillik rivojlanish maqsadlarini O‘zbekistonda amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2011-yil 26-yanvardagi 21-sonli Qarori hamm muhim o‘rin egallaydi. Mazkur Qarorga 1-Ilovada “BMT Mingyillik rivojlanish maqsadlarini O‘zbekistonda amalga oshirish bo‘yicha 2011-2015-yillarga mo‘ljallangan qo‘shimcha chora-tadbirlar majmuasi” tasdiqlangan bo‘lib, unda 8 ta maqsad va ularga erishish uchun 11 ta vazifa belgilangan. Mazkur masad va vazifalar quyida berilmoqda:

1- maqsad: kam ta’minlanganlik va yetarli ovqat iste’mol qilmaslikni kamaytirish
1-vazifa. 2015-yilgacha kam ta’minlanganlikni ikki barobarga qamaytirish
2-vazifa. 2000-2015-yillarda og‘irligi yetarli bo‘lmaganlarda besh yoshgacha bo‘lgan bolalar xissasini 50%ga kamaytirish
2- maqsad: umum ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish
3-vazifa. 2015-yilgacha barchaning imkoniyatlarini saqlab qolgan holda boshlang‘ich ta’lim va umumiy o‘rta ta’limning sifatini oshirish
3- maqsad: ayollar va erkaklar tengligi rag‘batlantirish, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish
4-vazifa. Bandlik sohasida va ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishda gender tengsizlikni bartaraf etish
4- maqsad: bolalar o‘limini kamaytirish
5-vazifa. 2015-yilgacha besh yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida bolalar o‘limini uchdan ikkigacha kamaytirish
5- maqsad: onalar sog‘lig‘ini yaxshilash

6-vazifa. 2015-yilgacha onalar o‘limini uchdan bir qismga kamaytirish
6- maqsad: oits, tuberkulez va malyariyaga qarshi kurashish
7-vazifa. OITSni tarqalishini to‘htatish va 2015-yilgacha kasallanishni kamaytirish tendensiyasini boshlash
8-vazifa. Tuberkulez va malyariyaning tarqalishini to‘htatish va 2015-yilgacha kasallanishni kamaytirish tendensiyasini boshlash
7- maqsad: ekologik barqarorlikni ta’minlash
9-vazifa. 2015-yilgacha davlat siyosati va dasturlarida barqaror rivojlanish hamda tabiiy zahiralarni yo‘qolishi jarayonini to‘htatishga qaratilgan tamoyillarni integratsiyalashtirish
10-vazifa. 2015-yilgacha toza ichimlik suvi va sanitariya sharoitlariga imkoniyati bo‘lgan shahar va qishloq aholisining sonini oshirish
8- maqsad: o‘zbekiston va rivojlanish maqsadlarida global sherikchilik
11-vazifa. Xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar bilan hamkorlikni faollashtirish

Shaxsning barkamol kamol topishiga, o‘ziga kelayotgan avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, o‘z quruvchilarga mehnatsevarlikni singdirishga, shuningdek ularning bo‘sh vaqtdan oqilona foydalanishiga yo‘naltirilgan maktabdan tashqari ishlar tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida 2011-yil 28-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 50-sonli Qarori qabul qilindi. Qarorda shunday deyiladi:

“1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining faoliyat ko‘rsatayotgan maktabdan tashqari ta’lim muassasalarining sonini va tuzilmasini takomillashtirish hamda uning asosida har bir tuman va shaharda bittadan “Barkamol avlod” bolalar markazini, shuningdek bittadan viloyat bolalar markazini, Qoraqalpog‘iston Respublikasida

esa respublika bolalar markazini va Toshkent shahrida -texnik, badiiy ijodiyot, o'lkashunoslik va ekologiya bo'yicha uchta respublika bolalar markazlarini - ular tegishli ravishda tumanlar, shaharlar va viloyatlar hokimliklariga bo'ysundirilgan holda - hammasi bo'lib 215 ta bolalar markazini shakllantirish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

2. "Barkamol avlod" tuman (shahar) bolalar markazlari, viloyat (Qoraqalpog'iston Respublikasida respublika markazi) va Toshkent shahar bolalar markazlarining, shuningdek uchta «Barkamol avlod» respublika bolalar markazlarining namunaviy tuzilmalari muvofiq ma'qullansin.

3. Quyidagilar "Barkamol avlod" bolalar markazlarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlariga muvofiq ularning ijodiy va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning foydali dam olishini tashkil etish;

mehnatsevarlikni, kasb tayyorgarligining dastlabki uquv va ko'nikmalarini singdirish, fan va texnikani rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlariga muvofiq texnik vositalar va kompyuter texnologiyalari ishini o'rganishni tashkil etgan holda bolalar texnik ijodkorligini rivojlantirish;

bolalar tomonidan jonajon o'lka tarixi, arxeologik va madaniy meros chuqur o'rganilishi, mamlakatimizning tabiiy boyliklari bilan tanishtirish hamda ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasidagi asosiy bilimlarni egallab olish;

maktabdan tashqari ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik usullar va metodlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning yangi shakllarini keng joriy etish".¹⁵⁵

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Barkamol avlod" bolalar markazlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2011-yil 11-maydagi 130-son qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorga Ilovada "Barkamol avlod" bolalar markazlari to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan bo'lib, Nizomning II qismi, 8-bandida Markazning asosiy vazifalari belgilab berilgan, unga ko'ra "Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

¹⁵⁵O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 yil, 9-son, 89-modda.

bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlariga muvofiq ularning ijodiy va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning foydali dam olishini tashkil etish;

mehnatsevarlikni, kasb tayyorgarligining dastlabki o'quv va ko'nikmalarini singdirish, fan va texnikani rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlariga muvofiq texnik vositalar va kompyuter texnologiyalari ishini o'rganishni tashkil etgan holda bolalar texnik ijodkorligini rivojlantirish;

bolalar tomonidan jonajon o'lka tarixi, arxeologik va madaniy meros chuqur o'rganilishi, mamlakatimizning tabiiy boyliklari bilan tanishtirish hamda ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasidagi asosiy bilimlarni egallab olish;

maktabdan tashqari ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik usullar va metodlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning yangi shakllarini keng joriy etish

Nizomning III qismi, 9-bandida Markaz faoliyatini tashkil etish to'g'risida fikr yuritilib, unga ko'ra "Markaz ko'p tarmoqli bo'lib, u faoliyat yuritadigan hududning xususiyati, o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga ko'ra ularning ijodiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan texnik, badiiy ijodiyot, o'lkashunoslik va ekologiya yo'nalishlarini o'z ichiga olgan holda faoliyat ko'rsatadi.

Markaz 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalarga ularning har tomonlama kamol topishlari va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi".¹⁵⁶

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalarni tarbiyalashni takomillashtirishga, sog'lom va barkamol avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2011-yil 14-oktabrdagi 280-sonli Qarori qabul qilinib, uning 1-Ilovasida "Bolalarni tarbiyalashni takomillashtirishga, sog'lom va barkamol avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar rejasi" tasdiqlangan.

¹⁵⁶O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 yil, 19-son, 190-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-martdagi “Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog‘lomlashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 67-son Qarori bolalar dam olish huquqini yanada yaxshiroq ta‘minlashga qaratilgan. Mazkur Qarorning 1-Ilovasida “Respublika oromgohlarida bolalarning dam olishini tashkil etish va sog‘lomlashtirish konsepsiyasi” tasdiqlangan. Mazkur Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi, “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlariga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”siga asoslangan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, u bolalarning dam olishini tashkil etish va sog‘lomlashtirishni yanada takomillashtirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatda hamda turli darajadagi dastur va rejalarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qilishi ko‘zda tutiladi.

Yosh avlodni tarbiyalashda oila va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 175-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorning 2-Ilovasida “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta‘limi boshqarmalari huzuridagi “Oila-mahalla-ta‘lim muassasasi” hamkorligi hududiy jamoat kengashlarining namunaviy tarkibi”, 3-Ilovada “Oila-mahalla-ta‘lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasi” belgilangan.

Ota-onasiz va qarovsiz qolgan bolalarni har tomonlama tarbiyalashga qaratilgan hukumat hujjatlari orasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 13-iyundagi “Bolalar uylari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 171-son Qarori muhim rol o‘ynaydi. Mazkur Qarorga Ilovada “Bolalar uylari to‘g‘risida” Nizom tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-iyundagi “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 185-sonli Qarorida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari o‘z aksini topgan. Mazkur Qarorning 5-Ilovasida “Vazirlar Mahkamasining “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini tashkil etish to‘g‘risida” 2004-yil 7-sentabrdagi 419-son qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirishlar” to‘g‘risida fikr yuritilib, ular orasida quyidagi o‘zgartirishlar ham ko‘zda tutiladi.:

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi jismoniy imkoniyatlari cheklangan (nogironlar, jismoniy nuqsoni bo‘lgan hamda asab va ruhiyati buzilgan bolalar, surunkali og‘ir kasalliklardan azob chekuvchi bolalar), ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlarga kiradigan bolalarni (etimlar, ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar qarovisiz qolgan bolalar, notinch oilalar bolalari), shuningdek ijtimoiy moslashuvda qiyinchilikka ega bo‘lgan, biroq xatarli guruhlarga kirmaydigan alohida iqtidorli bolalarni (umumiy maxsus qobiliyatli bolalarni, xususan: sportga, badiiy, ilmiy va boshqa qobiliyatlarga ega bo‘lgan bolalarni) (keyingi o‘rinlarda bolalar deb ataladi) ijtimoiy moslashtirish muammolarini o‘rganuvchi mustaqil tashkilot hisoblanadi.

Unda Markaz tuzilmasiga quyidagilar kirishi ko‘zda tutiladi:

Jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar muammolarini o‘rganish bo‘limi;

Ota-onalari qarovisiz qolgan bolalar muammolarini o‘rganish bo‘limi;

Ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlarga kiradigan bolalar muammolarini o‘rganish bo‘limi;

Bolalarning huquqiy muammolarini o‘rganish bo‘limi;

Ijtimoiy ishlar bo‘limi;

Alohida iqtidorli bolalar muammolarini o‘rganish bo‘limi;

“Bola va Zamon” jurnali tahririyati;

Axborot-konsalting xizmati va boshqalar.

Markaz oldida turgan vazifalarni samarali bajarish maqsadida bolalarni ijtimoiy moslashtirishning dolzarb muammolari bo'yicha belgilangan tartibda boshqa tarkibiy bo'linmalar ham tashkil etilishi mumkin".

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini yanada rivojlantirish va uning tomonidan imkoniyatlari cheklangan, ijtimoiy va huquqiy tahdid guruhlaridan bo'lgan bolalarga va ularning oilalariga, shuningdek iqtidorli bolalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy-pedagogik, huquqiy, tibbiy-reabilitatsiya va axborot-ta'lim yordamini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 6-martdagi "Respublika Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazining mintaqaviy filiallari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 68-sonli Qarori qabul qilindi. Unga ko'ra 2012-yilda Farg'ona shahrida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etilganligi va 2013-2014-yillarda Qarshi va Samarqand shaharlarida Markazning mintaqaviy filiallari tashkil etilishi nazarda tutilganligi; Markaz tomonidan Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazining mintaqaviy filiallari to'g'risidagi Namunaviy nizom belgilangan tartibda tasdiqlanganligi; Markazning mintaqaviy filiallari faoliyatini moliyalashtirish Davlat byudjeti parametrlarining tegishli yilga "Ta'lim" sohasida nazarda tutiladigan byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi", deb ko'rsatib o'tilgan.

Bolalarni ijod qilish huquqini ta'minlashga qaratilgan normalar ichida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent shahrida ximiya bo'yicha maktab o'quvchilarining 47-Xalqaro Mendeleev olimpiadasini o'tkazish to'g'risida"gi 2012-yil 13-dekabrda 352-sonli Qarori muhim rol o'ynaydi. Mazkur Qaror nafaqat maktab o'quvchilarni jahon olimpiadasini o'tkazishni ko'zda tutadi, balki O'zbekiston ham himiya sohasida jahonning ilmiy markazlaridan biri ekanligining e'tirofi hisoblanadi.

Kattalar kabi, bolalarning ham ijtimoiy himoya qilish masalalarini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordamni tayinlash va

to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risidagi"gi 2013-yil 15-fevraldagi 44-sonli Qarori qabul qilingan.

Bolalarning sport bilan shug'ullanish borasidagi huquqlarini amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining valyuta mablag'larini jalb etgan holda bolalar sporti uchun mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 114-sonli Qarori qabul qilindi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi byudjetini hamda 2014-yilda bolalar sporti obyektlari, suzish havzalari va bolalar musiqa hamda san'at maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash manzilli dasturlarini tasdiqlash to'g'risida" 2014-yil 31-yanvardagi PQ-2118-son qaroriga muvofiq, shuningdek O'zbekiston Respublikasida bolalar sportini yanada rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarining talab yuqori bo'lgan va zamonaviy sifat standartlariga javob beradigan sport kiyim-kechaklari, poyabzali, buyumlari va anjomlarining yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirishga doir faoliyatini kengaytirish va rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining valyuta mablag'larini jalb etgan holda bolalar sporti uchun mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni yangidan qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshiriladigan loyihalarni tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.¹⁵⁷

Qayd etish lozimki, 2014-yilda ham, bolalarni ham jismonan, ham aqliy tarbiyasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida qolmoqda.

Mamlakatda jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun

¹⁵⁷O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 19-son, 213-modda.

mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish uchun aniq maqsadga qaratilgan keng ko'lamdagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini shu yo'lda safarbar etish maqsadida hamda 2014-yil "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevralda "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-2133-son qarori qabul qilindi. Unda, "Sog'lom bola yili" Davlat dasturini amalga oshirishning ustuvor vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilab qo'yildi:

sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish uchun qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu borada qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan yangi qoida va me'yorlarni ishlab chiqish;

sog'lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog'lom va ahil oilaning mevasi sifatida qarab, oilada o'zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish, yosh oilalarning oyoqqa turib olishi uchun moddiy yordam ko'rsatish, onalik va bolalik muhofazasini ta'minlash, ona va bolaning salomatligini mustahkamlash, ayollarning o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ro'zg'or tashvishlarini yengillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

sog'lom bolani voyaga yetkazishda, patologiyalarsiz bolalar tug'ilishida sog'liqni saqlash tizimi va tibbiyot xodimlarining roli va mas'uliyatini oshirish, sog'liqni saqlash tizimining moddiy-texnika bazasini va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash, aholining tibbiy madaniyatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli axborot-tushuntirish ishlarini muntazam olib borish;

sog'lom bolani shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimi va sportning rolini kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularni yuqori malakali va tajribali pedagoglar bilan ta'minlash, boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlagan holda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini

amaliyotga keng joriy etish, sogʻlom turmush tarzini keng targʻib etish, bolalar, ayniqsa qiz bolalar oʻrtasida jismoniy tarbiya va sportga mehr uygʻotish boʻyicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda davlat va jamiyat tomonidan koʻrsatiladigan yordam va madadni kuchaytirish, mazkur jarayonlar uchun masʻul boʻlgan sogʻliqni saqlash, taʻlim, madaniyat, ijtimoiy muhofaza muassasalarida zamonaviy talablarga javob beradigan shart-sharoitlarni yaratish, ularni rivojlantirishga yoʻnaltiriladigan mablagʻlardan foydalanish samaradorligini oshirish, sogʻlom bolani tarbiyalash boʻyicha ilgʻor xalqaro tajribani keng koʻlamda oʻrganish va amalda joriy etish;

sogʻlom bolani, ayniqsa, qiz bolalarni tarbiyalab voyaga yetkazishda, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun ularga koʻmak berish, bolalarni turli toʻgaraklarga jalb etish, tadbirkorlikni rivojlantirish boʻyicha mahalla va boshqa jamoat tuzilmalarining rolini oshirish, huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, oilalar va jamiyatda oʻzaro hamjihatlik, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, kam taʻminlangan oilalarga moddiy va maʻnaviy yordamni oʻz vaqtida va manzilli koʻrsatish borasida mahalla va boshqa jamoat tuzilmalarining masʻuliyatini kuchaytirish;

«Sogʻlom bola yili» Davlat dasturining maqsad va vazifalari hamda uning bajarilishi toʻgʻrisida keng axborot-tushuntirish ishlari olib borilishini tashkil etish, bunda ommaviy axborot vositalarining, shu jumladan, elektron ommaviy axborot vositalarining va Internet tarmogʻining imkoniyatlarini faol ishga tushirish¹⁵⁸.

Bolalarning turli sohalardagi huquqlarini taʻminlashga oid qonunchilik normalarini huquqni qoʻllash amaliyotiga yaxshiroq qoʻllash maqsadida tegishli vazirliklarni normativ huquqiy hujjatlari qabul qilingan boʻlib, ularning ayrimlariga toʻhtalib oʻtamiz.

Bolalarning ijtimoiy taʻminotga boʻlgan huquqlariga oid Oʻzbekiston Respublikasi Moliya Vazirining “Bolalikdan nogironlarga nafaqalar toʻlash boʻyicha xarajatlarni moliyalashtirish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash

¹⁵⁸ Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2014 yil, 9-son, 87-modda.

haqida”gi 2009-yil 24-fevraldagi 27-sonli buyrug‘i va mazkur buyruq bilan tasdiqlangan “Bolalikdan nogironlarga nafaqalar to‘lash bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga joylashtirilayotgan voyaga yetmaganlarning tibbiy ko‘rigini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 2010-yil 17-dekabrda 342-sonli buyrug‘i qabul qilingan bo‘lib, bu Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 26-noyabrda 268-son “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga joylashtirilayotgan voyaga yetmaganlarning tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini belgilaydi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasiga asosan ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga ixtisoslashtirilgan maktablar va ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “Vasiylik va homiylik organlari tomonidan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar turar joylarining saqlanib qolishini nazorat qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2010-yil 31-dekabrda 46, 206-QQ va 29-son Qarori qabul qilingan. Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12 aprelda 171-son “O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2010-yil 2-avgustda 164-son “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni turar joylar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlariga muvofiq vasiylik va homiylik organlari tomonidan yetim bolalar, ota-ona

qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, ular toifasiga kiradigan 18 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan shaxslar (keyingi o‘rinlarda yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar deb ataladi) turar joylarining saqlab qolinishini nazorat qilish tartibini belgilaydi. Unga ko‘ra shaxs yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar bola yoshidan o‘tgan bo‘lsa ham, ularning turar joyga bo‘lgan huquqlarini saqlab qolish ko‘zda tutiladi.

Bolalarni har tomonlama sog‘lom tarbiyalashni kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining “Spirтли ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste’mol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2011-yil 17-yanvardagi 18-sonli buyrug‘i qabul qilingan. Mazkur buyruqning Ilovasida “Spirтли ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste’mol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan.

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi va “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 17-yanvardagi 13-son “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq spirтли ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste’mol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish, davolash va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “Ota-onalar tomonidan bolalarning musiqa va san’at maktablarida o‘qishi uchun haq to‘lash va undan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi

nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida 2014-yil 31-martdagi 22 va 29-sonli Qarori qabul qilingan.

Bolalarning sog‘lomlashtirish oromgohlarida dam olish huquqiga oid qonun normalarini ta‘minlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta‘limi Vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligining “Bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2014-yil 11-martdagi 9, 3-son Qarori qabul qilindi va uning Ilovasida “Bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlari to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi hamda “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-martdagi 67-son “Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog‘lomlashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarining maqsadi, vazifalari va funksiyalarini hamda ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Bola huquqlarini ta‘minlashga oid milliy qonunchilik hujjatlarining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda mamlakatning milliy huquqiy tizimida bola huquqlariga oid milliy qonunchilik tizimi shakllandi, desak adashmagan bo‘lamiz. Chunki, o‘tgan davr mobaynida bola va bola huquqlari masalasi jamiyatning barcha a‘zolarining huquq va erkinliklariga taalluqli qonunlar va qonun osti hujjatlarida aks etishi bilan bir qatorda, bolaning barcha huquqlari va ayrim sohalardagi huquqlarini maxsus tartibga soluvchi muhim qonunlar va qonunosti hujjatlari ham qabul qilindi va ular bugungi kunda yanada ixtisoslashish yo‘nalishida takomillashib bormoqda.

3. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun va uning tavsifi

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekistonning huquqiy tarixida bola huquqlariga oid birinchi maxsus qonun bo‘ldi. Mo‘ljalangan maqsadga ko‘ra, u bolaning huquqiy ahvolini belgilashga doir munosabatlarni tartibga solishga, bola huquqlarini va erkinliklarini yuridik kafolatlashga

qaratilgan. Qonunning maqsadiga binoan, bola huquqlari va manfaatlarini amalga tatbiq etilishini ta'minlaydigan kafolatlarni belgilash qonun bilan tartibga solinadigan asosiy obyekt hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, uning moddalarining yarmidan ko'pi bola huquqlarining kafolatlarini belgilashga bag'ishlangan

4 bob, 32 moddadan iborat bo'lgan "mazkur Qonun O'zbekiston qo'shilgan "Bola huquqlari konvensiyasi"ni milliy qonunchilikka to'liq implementatsiyasi hisoblandi. Mazkur qonunda sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot va har tomonlama rivojlantirish sohalarida bola huquqlarining kafolatlari mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu qonunda ijtimoiy zaif bolalar va alohida ehtiyojlarga muhtoj bolalarning huquqlari alohida e'tibor qaratilgan.

Qonunning qisqacha tavsifiga to'htalib o'taadigan bo'lsak, u quyidagichadir: qonunda, uning maqsadi sifatida bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solish belgilab olindi. Qonunning 3-moddasida, Bola (bolalar), bolaning qonuniy vakillari, vasiylik va homiylik, yetim bola, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, nogiron bola, ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola tushunchalari berilgan.

Qonunning "Umumiy qoidalar" deb nomlangan birinchi bobida shuningdek, Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosati (4-modda), davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha vakolatlari (5-modda), bola huquqlarini ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki (6-modda) masalalari o'z aksini topgan.

"Bola huquqlarining asosiy kafolatlari", deb nomlangan 2 bobda esa, bola huquqlarining qonuniy kafolatlari (7 modda), bolaning yashash huquqi kafolatlari (8-modda), bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo'lgan huquqi kafolatlari (9-modda), bolaning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlari (10-modda), bolaning himoyaga bo'lgan huquqi kafolatlari (11-modda), bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash (12-modda), bolaning oilaviy muhitga bo'lgan huquqi kafolatlari (13-modda), bolaning

g'ayriqonuniy ko'chirilishdan himoyalaniş huquqi kafolatlari (14-modda), bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi kafolatlari (15-modda), bolaning axborot olish huquqi kafolatlari (16-modda), bolaning fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi kafolatlari (17-modda), bolaning xususiy mulkka bo'lgan huquqi kafolatlari (18-modda), bolaning turar joyga bo'lgan huquqlari kafolatlari (19-modda), bolaning mehnat qilish huquqi kafolatlari (20-modda), bolaning dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqi kafolatlari (21-modda), bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi kafolatlari (22-modda), bolaning bilim olish huquqi kafolatlari (23-modda) mustahkamalab qo'yilgan.

Bolalarning alohida kategoriyasi hisoblangan "Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari" deb nomalangan 3-bobda esa, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning oila muhitiga bo'lgan huquqi kafolatlari (24-modda), ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatga uyg'unlashish huquqi kafolatlari (25-modda), ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning turar joyga bo'lgan huquqlari kafolatlari (26-modda), ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ijtimoiy yordam olishga bo'lgan huquqi kafolatlari (27-modda), nogiron bolalar, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning tibbiy-ijtimoiy yordam olishga bo'lgan huquqi kafolatlari (28-modda), ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta'lim olish huquqi kafolatlari (29-modda) belgilab qo'yilgan.

Qonunning yakunlovchi qoidalarini o'z ichiga olgan to'rtinchi bobida esa, bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi nizolar xal etish tartibi (30-modda), mazkur qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik (31-modda), qonunning kuchga kirishi (32-modda) tartibi belgilab qo'yilgan.

4. Bola huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati

Yuqorida sanab o'tilgan o'tilgan hujjatlarning barchasi O'zbekiston Respublikasida bola huquqlari va qonuniy manfaatlari borasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan.

O'zbekistonda bola huquqlarini amalga oshirish uchun barcha zarur bo'lgan qonuniy, ma'muriy va boshqa choralar ko'rilmoqda. Bolalarga oid davlat siyosati

bola huquqlariga oid normativ-huquqiy normalarni amalga oshirilishining tashkiliy-huquqiy jihatlariga oid masalalar bilan birgalikda bola huquqlarini ta'minlash uchun kerakli bo'lgan sharoitlarni yaratish bo'yicha davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining axborot-ma'rifiy faoliyatiga hamda ularning sa'y-harakatlarini birlashtirishga oid masalarni ham qamrab oladi.

Ilk marotaba yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida aks ettirilgan edi. Qonuning 1-moddasida belgilanganidek, yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir.

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. Bola, ya'ni 18 yoshga to'lmagan va shu sababli davlat va jamiyat tomonidan har tomonlama ko'mak va alohida yordamga muxtoj shaxslarning huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat siyosatining asoslari ilk marotaba "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida belgilangan. Bola huquqlarini va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha davlat siyosati BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi, boshqa xalqaro hujjatlar ta'sirida shakllanib, bola huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmni yaratish bo'yicha davlat organlari va nodavlat tashkilotlarning izchil faoliyatida namoyon bo'ladi.

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;

bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash;

bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish;

bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun - hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligini ta'minlash;

bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va ahloqiy kamol topishiga ko'maklashish;

bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik va tinchliksevarlik tuyg'ularini tarbiyalash;

bolani O'zbekiston xalqining tarixiy va milliy an'analari, ma'naviy qadriyatlari hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish;

bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish;

bolalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

bolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish;

bola huquqlarini ta'minlash maqsadida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik qilish;

bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

bolalarning ijtimoiy ko'nikmasiga, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirishga ko'maklashish.

Har bir yo'nalishni amalga oshirish uchun huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy choralarni ko'rish ko'zda tutilgan.

Bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha huquqiy choralar. Bola huquqlariga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha huquqiy choralar:

- bola huquqlarining kafolatlarini huquqiy asoslarini takomillashtirilishga;

•bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonunchilikni bajarilishini hamda bolada huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanishini ta‘minlashga qaratilgan.

Bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid yangi qonunlar qabul qilinmoqda, amaldagi qonun hujjatlarga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilmoqda, ular asosida bola huquqlarini tartibga soluvchi boshqa qonun-hujjatlar qabul qilinmoqda. Masalan, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi, “Sog‘liqni saqlash to‘g‘risida”gi Qonunlarga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan “Oilaviy bolalar uylari to‘g‘risida”gi, “Ota -ona qaramog‘isiz qolgan va to‘liq davlat ta‘minotida bo‘lgan bolalar uchun bolalar shaharchalari to‘g‘risida”gi yangi Nizomlarni tasdiqlanishi davlatimizning bola huquqlarini huquqiy himoya qilish usullarini, vositalarini va mexanizmlarini takomillashtirishga intilishidan dalolat beradi.

Bola huquqlari bo‘yicha davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikning asosiy shakllari

BMtning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasining fikricha, bola huquqlarini amalga oshirish muammosini hal etishda keng qamrovli yondashuv hamda bu sohada vakolatlarga ega bo‘lgan shaxslar va muassasalarning harakatlarning muvofiqlashtirilishini va keng qamrovligini ta‘minlash g‘oyatda muhim. Turli xil davlat idoralari o‘rtasidagi hamda markaziy viloyat va shahar hokimiyati o‘rtasidagi hamkorlik ishlarning asl holatini to‘g‘ri baholash uchun hamda faoliyatning takrorlanishini yoki resurslarning byohuda sarflanishini oldini olish uchun alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ularning sa‘y-harakatlarining muvofiqlashtirilishi mamlakatning turli viloyatlari yoki bolalarning turli toifalari o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishga, yordamga muhtoj bolalarga ko‘proq e‘tibor qaratishga imkoniyat berar edi. Konvensiyada e‘tibor qaratilgan sohalarda faoliyat olib boradigan nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish bu borada jamiyatdagi dialogni davom ettirish uchun, bolalar taqdirida ishtirok etishni rag‘batlantirish va bola huquqlarini ta‘minlashda va himoya qilishda milliy

salohiyatni kuchaytirish uchun katta ahamiyat kasb etishi mumkin.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda davlat va jamiyatning bolalar bilan o‘zaro ta‘sir va bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ko‘maklashish sohalari belgilangan – bolalarning jismoniy, intellektual, ruhiy va ma‘naviy rivojlanishiga ko‘mak ko‘rsatish; bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag‘rikenglik, va tinchlikparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalash; O‘zbekiston xalqining tarixiy, milliy an‘analarini, ma‘naviy qadriyatlari va jahon madaniyatining yutuqlari bilan bolani tanishtirish; bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnik va badiiy ijodkorligini rivojlantirish; bolalarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash; bolalarning ijtimoiy ko‘nikishiga ko‘maklashish, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olishga ko‘maklashish ko‘zda tutilgan.

Bola huquqlari bo‘yicha davlat organlarining faoliyati. Qonunda bola huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha davlat organlari faoliyatining quyidagi asosiy yo‘nalishlari belgilangan:

- Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash hamda himoya qilish oid davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligini ta‘minlash;
- Bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyat olib boradigan tayyorlash, ular uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish;
- Bola huquqlarini ta‘minlash maqsadida davlat organlari va NNT o‘rtasida hamkorlikni amalga oshirish;
- Bola huquqlarini himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Shunday qilib, bola huquqlariga oid davlat siyosati nafaqat davlat organlari, balki NNTning (jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari) va bola huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish masalalari bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlar faoliyatini ham qamrab oladi.

Bolalarni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik – davlat siyosatining muhim yo‘nalishi. Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari Qonunning muayyan bola

huquqlariga bag'ishlangan boshqa moddalarida batafsilroq yoritilganini inobatga olib, davlat va jamiyat faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri – bolalarni kamsitishga yo'l qo'ymaslik va bolalarning huquqlarini va imkoniyatlarini tengligini ta'minlanishiga to'xtalib o'tamiz.

Bolalarni irqi, tan rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, millati yoki ijtimoiy kelib chiqishi, tug'ilishi yoki bola yoki uning oilasiga tegishli bo'lgan boshqa xolatlardan qat'i nazar kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik Konvensiyada e'tirof etilgan barcha bolalarning tengligini ta'minlanishi uchun qo'yiladigan ustuvor xalqaro talab hisoblanadi.

O'zbekistonda bolaning maqomi, faoliyati, qarashlari yoki e'tiqodlari, otanasini, qonuniy vakillari yoki oilasining boshqa a'zolari tufayli kamsitilishining barcha shakllaridan yoki jazolanishdan himoya qilinishini ta'minlash uchun barcha choralar ko'rilmoqda.

Bola manfaatlarini yaxshiroq ta'minlash. O'zbekiston davlat siyosati bola huquqlarini himoya qilishning eng asosiy tamoyilini amalga oshirishga, ya'ni, har qanday holatda ham bola manfaatlarini yaxshiroq ta'minlashga qaratilgan.

Mazkur tamoyilning mazmuni Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining 3-moddasiga yoritilgan: bolalarga nisbatan barcha hatti-harakatlarda ular ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat yoki xususiy muassalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan sodir etiladimi yo'qmi, bundan qat'i nazar, bolaning manfaatlari yaxshiroq ta'minlanishiga birinchi darajali e'tibor beriladi.

Qonun chiqaruvchi organlar tomonidan milliy qonun-hujjatlar qabul qilinayotganida yoki qayta ko'rib chiqilayotganida, ularning takliflari bolaning manfaatlaridan kelib chiqqan holda ko'rib chiqilishi kerak. Biron bir nizoli vaziyat sud tomonidan hal etilayotganda sud bolaning manfaatlaridan kelib chiqqan holda qaror qabul qilishga haqli va majbur. Ma'muriy organlar bola huquqlarini ta'minlash va himoya qilish bo'yicha majburiyatlarini bajarganda, jumladan mahalliy hokimiyat organlari transport vositalarining oqimini tashkil etilishi yoki bolalar sayr qilishlari va uyinlari uchun xavfsiz joylarni belgilagash bo'yicha qaror

qabul qilganda ular bolalarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda chora ko‘rishlari lozim.

Shuningdek, byudjet mablag‘lari bilan bog‘liq masalalarini muhokama qilishda bolalik masalalariga va ularning bolalar hayotiga qay tarzda ta’sir ko‘rsatishi masalalariga alohida e’tibor qaratish kerak. Mablag‘larni imkon qadar kattaroq miqdorda ajratish lozim.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilgan tamoyildan kelib chiqqan holda barcha davlat organlari, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari, bola huquqlarini tartibga solish va amalga oshirish bilan bog‘liq masalalarni hal etishda bolaning qonuniy manfaatlarining ustuvorligi tamoyiliga tayanish kerak. Bu tamoyil barcha nodavlat va xususiy tuzulmalarga, ota-onalarga va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga ham tegishli.

Umuman, bola huquqlari, ularning kafolatlari to‘g‘risida xulosa qilib aytish mumkinki, aholisining katta qismi yoshlarni tashkil etuvchi mamlakatimiz uchun bola huquqlarini ta’minlash va ularni himoya qilish masalasi mamlakatda demokratik, huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishning eng muhim shartlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, Prezident I.Karimov ta’kidlaganidek, “Oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz – mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O‘zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o‘rin egallashi ham - bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o‘tib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo‘lib voyaga yetishiga bog‘liqdir”¹⁵⁹.

Takrorlash uchun savollar:

- 1. Bola huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari, bolaning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi deganda nimalarni tushunsiz?*
- 2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarida bola huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari o‘z aksini topgan?*

¹⁵⁹ Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T.9. –T.: O‘zbekiston, 2001. –B.187

3. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqib, bola huquqlarini himoya qilishning asosiy tamoyillarini tushuntirib bering.*
4. *Konstitutsiyada inson huquqlari, shuningdek bola huquqlariga oid xalqaro-huquqiy qoidalar qanday o‘z aksini topgan?*
5. *Bola huquqlariga oid O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi hujjatlarini tizimlashtirib, tushuntirib bering?*
6. *O‘zbekistonda bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilikning rivojlanish bosqichlari va bu bosqichlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflab bering.*
7. *“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunni tavsiflab bering va uning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.*
8. *Bola huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati deganda nimani tushunasiz?*
9. *Bola huquqlariga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini tushuntirib bering.*
10. *Bola huquqlariga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun qanday choralarni ko‘rish ko‘zda tutilgan?*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar va manbalar ro‘yhati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2014.*
2. *Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 2014.*
3. *Bola huquqlari. / Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik // Prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009.*
4. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.Saidov,*

- F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. –T.: “O‘zbekiston”, 2010.*
5. *Mo‘minov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. –T.: JIDU, 2011*
6. *Mo‘minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. 2-nashr. –T.: Adolat, 2013.*
7. *Mo‘minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013.*
8. *O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi: Darslik /H.T.Odilqoriyev tahriri ostida. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005.*
9. *“O‘zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini boshqarishni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish: yutuqlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro forumining materiallari. 2011-yil 29-30-noyabr. –T.: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2011.*
10. *Tegishli milliy qonun hujjatlarini topish uchun qarang: LexUz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz*

7- bob. Bolalarning shaxsiy huquq va erkinliklari hamda siyosiy huquqlari

1. Bolalarning shaxsiy huquq va erkinliklarini amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari
2. Bolalarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari
3. Bolalarning shaxsiy huquq va erkinliklari hamda siyosiy huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik, bu huquq va erkinliklarni ta'minlashning kafolati sifatida va uni amalga oshirishning huquqiy asoslari

1. Bolalarning shaxsiy huquq va erkinliklari va ularni amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq har bir bolaga inson hamda fuqaro huquqlari va erkinliklari tegishli bo'ladi hamda davlat tomonidan kafolatlanadi.

Nikohda va nikohsiz tug'ilgan bolalar teng hamda har taraflama himoyadan foydalanadi.

Davlat bolaning barcha shakllardagi kamsitishlardan himoya qilinishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radi.

Bola huquqlari cheklanishi mumkin emas, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

Bola huquqlari davlat himoyasidadir. Bola huquqlari va erkinliklarining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi fuqarosining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining asosiy qoidalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII-X-boblarida, ayrim istisnolardan tashqari, bolalarga bevosita tegishli bo'lgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy inson huquqlari aks etilgan. Shu bilan birga, davlat va jamiyat bolalarga voyaga yetmaganligi va muayyan yoshgacha o'z huquqlarini mustaqil himoya qila olmasligi sababli alohida ijtimoiy himoyani va vasiylikni ta'minlaydi.

Shaxsiy huquq va erkinliklar – bu tabiiy xarakterda bo‘lgan, ya’ni insonga tug‘ilishi bilan beriladigan huquqlar. Ular insonning individual erkinligini kafolatlashga, shaxsni boshboshdoqlikdan va davlat hamda uning organlarining arlashuvidan himoya qilishga qaratilgan. Bunday huquqlar sirasiga yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, shaxsning sha’ni, qadr-qimmat, adolatli va mustaqil ommaviy sud, e’tiqod erkinligi, ko‘chib yurish erkinligi kabi huquqlar kiradi.

BOLA YASHASH HUQUQI KAFOLATLARI

Yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqidir. Bola hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.

Davlat sog‘lom bolaning tug‘ilishi va rivojlanishini ta’minlash uchun sharoit yaratadi.

“Bolalar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasi bolaning eng muhim bo‘lgan huquqini, ya’ni yashash huquqini e’tirof etgan. Ushbu huquq shuni anglatadiki, davlat bolaning hayotini muhofaza qilishga bolani hayotdan mahrum bo‘lishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etiladigan harakatlarni oldini olishga qaratilgan zarur bo‘lgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va madaniy sharoitlarni yaratib berishi shart. Ushbu huquq bola huquqlarini himoya qilish va bola o‘ldirishda aybdor bo‘lgan yoki ehtiyotsizlik oqibatida bolaning o‘limiga yo‘l qo‘ygan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish mexanizmini nazarda tutgan qonuniy, ma’muriy va boshqa choralar tizimi orqali ta’minlanadi.

“Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyaning 6-moddasiga binoan, “ishtirokchi –davlatlar har bir bola yashash uchun ajralmas huquqqa ega ekanligini e’tirof etadilar. Ishtirokchi-davlatlar bolaning omon yashashi va sog‘lom rivojlanishi uchun mumkin qadar yuqori darajada imkoniyat yaratib beradilar”.

Ushbu moddada Konvensiyaning uchta asosiy tamoyili, ya’ni yashashga, omon qolishga va rivojlanishga bo‘lgan huquq yoritilgan. 1-bandiga binoan, ishtirokchi-davlatlar har bir bola yashash uchun ajralmas huquqqa ega ekanligini

e'tirof etadilar va shu bilan Konvensiyada aks etilgan huquqni tan oladilar va tegishli choralar ko'rish orqali bu huquqni himoya qilish va unga rioya etish uchun harakat qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar. Bunday choralar pozitiv xarakterga ega bo'lishi va umrni uzaytirish, chaqaloqlar va bolalar o'lim darajasini pasaytirish, kasalliklarga qarshi kurash olib borish, va sog'liqni tiklash, normal tarzda oziq-ovqat va toza ichimlik suvini yetkazib berishni o'z ichiga olib hayotni himoya qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Bunday choralar hayotdan mahrum qilishni oldini olishga ham qaratilgan bo'lishi mumkin, jumladan, o'lim hukmini chiqarish, noqonuniy, nizoli yoki jamoaviy jazo choralar ko'rilishini va majburiy yo'qolish holatlarini ta'qiqlash va oldini olish orqali. Ishtirokchi davlatlar bu uchun bola hayotdan mahrum bo'lishiga olib keladigan choralarni amalga oshirishdan tiyilishi hamda bola hayotini himoya qilishga qaratilgan choralar ko'rishi kerak.

Bolaning yashash huquqi O'zbekiston Respublikasining 24-moddasida aks etilgan bo'lib, unda "yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir" deyilgan.

O'zbekistonda bolaning yashash huquqi va sog'lom rivojlanish huquqining amalga oshirilishi quyidagi choralar orqali ta'minlanadi:

1. Onalik va bolalikni muhofaza etish bo'yicha keng qamrovli tibbiy-sog'lomlashtirish choralarni ko'rish;
2. Bolalar o'lim darajasini pasaytirish
3. Bolaning sog'lom rivojlanishi, rasional va xavfsiz ovqatlanishini ta'minlash
4. Kasalliklarni oldini olish. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish
5. Bolalarga bepul malakali tibbiy yordam ko'rsatilishini amalga oshirish
6. Bolalarni kundalik hayotda o'quv tarbiyaviy muassasalarda baxtsiz xodisalarga duch kelishini oldini olish
7. Bola hayotiga va sog'lig'iga suiqasd qilish bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etishda aybdor shaxslar uchun dinoiy javobgarlikni o'rnatish;
8. Bolaning hayotiga kattalar tomonidan jinoiy suiqasd qilinishini oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish;

9. Qiynoqlarni va muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz insoniylikka zid yoki qadr qimmatni kamsituvchi turlarini oldini olish;

10. Bolaning hayotini va sogʻligʻini muhofaza etishga qaratilgan boshqa choralar

Bolaning yashash huquqini va sogʻlom rivojlanishga boʻlgan huquqini buzishda aybdor shaxslar bolaning hayotiga va sogʻligʻiga qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida zarar yetkazgan hollarda maʼnaviy zararni qoplashi shart.

Onalik va bolalikni muhofaza etish boʻyicha choralar. Davlat sogʻlom bola tugʻilishi va rivojlanishi uchun sharoitlar yaratadi. Bolaning yashash huquqi davlat tomonidan eng avvalo, onalikni va bolalikni muhofaza etishga qaratilgan choralar tizimi orqali taʼminlanadi.

Onaning va bolaning sogʻligʻini saqlashning asosiy tamoyillari quyidagicha: sogʻliqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya etish, malakali tibbiy yordam olish imkoniyatini taʼminlash, bolalar orasidagi kasalliklarni oldini olish.

Davlat sogʻliqni saqlash boʻyicha davlat boshqaruv organlari orqali bolalarning hayotini saqlab qolishga va ularning sogʻligʻini himoya qilishga, bolaning sogʻligʻini saqlash sohasida maxsus davlat dasturlarini amalga oshirishga, bolalar uchun tibbiy muassasalar tarmogʻini rivojlantirishga qaratilgan choralarni amalga oshiradi..

Voyaga yetmaganlarning sogʻligʻini saqlash huquqlari davlat tomonidan ularning jismoniy, ruhiy rivojlanishi uchun, kasalliklarni oldini olish uchun yaxshiroq sharoitlarni yaratish hamda maktabgacha, maktab va boshqa muassasalarda tibbiy yordamni tashkillashtirish orqali taʼminlanadi.

Nogironlar, jumladan, nogiron bolalar va bolalikdan nogiron boʻlganlar imtiyozli ravishda tibbiy-ijtimoiy yordamga, reabilitatsiyaning barcha turlariga, dori-darmon, protez-ortopedik buyumlar, harakatlanish vositalari bilan taʼminlanish huquqiga hamda kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorgarlik olish huquqiga ega.

Bolalarni giyohvandlik moddalarni isteʼmol qilishga jalb qilinishiga yoʻl qoʻymaslik. Bolaning omon qolishga va sogʻlom rivojlanishiga boʻlgan huquqi Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyaning 33-moddasida nazarda tutilganidek,

O‘zbekistonda bolalarni giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni noqonuniy ravishda iste‘mol qilishdan himoya qilishga hamda ana shunday moddalarni noqonuniy ishlab chiqarishda va ularni sotishda boladan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan zarur choralar ko‘rish orqali ta‘minlanadi.

Konvensiyaning 33-moddasida ta‘kidlanishicha: “Ishtirokchi davlatlar tegishli xalqaro shartnomalarda belgilab qo‘yilganidek, bolalarni giyohvandlik va psixotrop moddalarini g‘ayriqonuniy ravishda iste‘mol qilishdan himoya etish maqsadida zarur barcha chora tadbirlarni jumladan qonuniy, ma‘muriy va ijtimoiy, shuningdek ta‘lim sohasidagi choralarni hamda ana shunday moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda ishlab chiqarishda, va ularni sotishda bolalardan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik choralarni ko‘radilar”.

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar uchun ma‘muriy va jinoiy javobgarlik ko‘zda tutilgan. *Keyingi paragrafga qarang.*

Bolaning yashash huquqini ta‘minlash bo‘yicha ota-onalarning majburiyatlari. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, bolaning yashash huquqi va sog‘lom rivojlanishga bo‘lga huquqning himoya qilinishi eng avvalo uning ota onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Ular o‘z bolalarining sog‘lig‘i, jismoniy ruhiy, ma‘naviy va ahloqiy kamaloti haqida g‘amxo‘rlik qilishlari shart. Ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarining jismoniy va ruhiy sog‘lig‘iga, ahloqiy kamolotiga zarar yetkazishga haqli emas. Bolalarni tarbiyalash usullari mensimaslik, shavfatsizlik, qo‘pollikdan, insoniy qadr qimmatni kamsituvchi muomaladan, bolalarni hakoratlash yoki ekspluatatsiya qilishdan xoli bo‘lishi kerak. Ota-onalik huquqini suite‘mol qilsa bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo‘lsa jumladan jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta‘sir ko‘rsatsa, o‘z bolalarinig hayoti yoki sog‘lig‘iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo‘lsa ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin. Ta‘kidlash joizki, bolaning hayoti va sog‘lig‘i bevosita

xavf ostida qolganda vasiylik va homiylik organi bolani ota-onadan (ularning biridan) yoki bolani o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan zudlik bilan olishga haqlidir. Bolani zudlik bilan olish fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining tegishli hujjatiga asosan amalga oshiriladi.

***BOLANING INDIVIDUALLIKKA VA UNI SAQLAB QOLISHGA
BO'LGAN HUQUQI KAFOLATLARI***

Har bir bola tug'ilgan paytdan e'tiboran familiya, ism, otasini ismi olish, millati va fuqaroligiga ega bo'lish huquqiga, shuningdek ularni saqlab qolish huquqiga ega.

Bolaning individuallikka bo'lgan huquqi aslida bolaning boshqa asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun zamin hisoblanadi. Bolaning individualikka bo'lgan huquqi unga ismi olish, fuqarolikka ega bo'lish, o'z ota-onasini bilish va ularning g'amxo'rligidan bahramand bo'lish huquqi berilishi orqali ta'minlanadi. Davlat Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga binoan, bu huquqlarini amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tarzda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 7-moddasida, "1. Bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi va tug'ilgan daqiqasidan boshlab ism bilan atalish va fuqarolikka ega bo'lish, shuningdek, iloji boricha, o'z ota-onasini bilish va ularning g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqlarini olishga haqli hisoblanadi. 2. Ishtirokchi-davlatlar bunday huquqlar o'z milliy qonunchiliklariga muvofiq amalga oshirilishini, ularning majburiyatlari shu sohaga tegishli xalqaro xujjatlarga asosan, xususan, bola boshqa fuqarolikka ega bo'lmagan taqdirda bajarilishini ta'minlaydilar", deb ta'kidlangan.

Ishtirokchi davlatlar ularning yuridiksiyasida bo'lgan har bir bolaning, jumladan, 2-moddada mustahkamlab qo'yilganidek, boshqa millatga mansub, boshpana izlayotgan, qochoqlar va fuqarolikka ega bo'lmagan bolalarni ham tug'ilishini ro'yxatga olinishini ta'minlashi shart. Bu huquq bolani huquq subyekti

sifatida tan olinishini yanada mustahkamlab, bolalarni bunday huquqlardan mahrum etmasdan, aksincha, ushbu Konvensiyada ko'zda tutilgan huquqlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash borasida muhim qadam bo'ldi. Aslida, tug'ilishni ro'yxatga olish bolalarga o'zlarining asosiy huquqlaridan jumladan, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 24-moddasiga ko'zda tutilgan sog'liqni saqlash xizmatlaridan bahramand bo'lish, mazku Konvensiyaning 28-moddasida ko'zda tutilgan ta'lim olish hamda 26-moddasiga binoan ijtimoiy sug'urtadan foydalanish huquqidan foydalanishga imkoniyat beradigan vositadir. Shuningdek, Konvensiyaning 35-moddasida bayon etilgan talablardan kelib chiqqan xolda, bu huquq bolalarni o'g'irlash, sotish yoki ularni har qanday maqsadlarda va shakllarda kontrabanda qilishning oldini olish imkoniyatini beradi. Shuning uchun, bu huquqning kiritilishini zarur va ustuvor xarakterini ta'kidlash uchun Konvensiyada "bola tug'ilgan zahoti ro'yxatiga olinadi" deyilgan (7-modda).

Bola tug'ilgan daqiqasidan boshlab ism olish huquqiga ega bo'lishi shart. Bu individuallikning muhim elementi 8-moddada ta'kidlanishicha, qonunga zid ravishda aralashuvga yo'l qo'ymagan holda davlat tomonidan saqlab qolinishi kerak. Shuning uchun, noqonuniy ravishda masalan kontrabanda yoki noqonuniy farzandlikka olish maqsadida, bolaning ismini o'zgartirish ehtimolini oldini olish imkonini beradi. Bundan buyon, bola har qanday vaziyatda, agar, boshqa yangi ism olishi bilan bog'liq bo'lmagan hollarda ismga ega bo'lishi kerak va Bola huquqlari to'g'risidagi deklaratsiyada ta'kidlanganidek, o'z ismidan mahrum etilishi mumkin emas.

Bolaning ismi oilasidan ajratilgan hollarda, bolaga o'z nasl nasabini bilish uchun imkoniyat beradigan muhim element sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu bilan bolaning o'z ota-onasini bilish huquqining amalga oshirilishini ta'minlaydi. "Iloji boricha" degan ibora shuni anglatadiki, ushbu huquq mutlaq emas. Alohida vaziyatlarda ya'ni, bola tashlab ketilgan bo'lsa yoki sun'iy homiladorlik oqibatida tug'ilgan bo'lsa, bolaning nasl-nasabini aniqlash biroz

mushkulroq bo‘ladi. Biroq bunday, vaziyatlarda bu muhim huquqni amalga oshirish bo‘yicha davlat tomonidan “iloji boricha” choralar ko‘rilganligi va bu huquq asossiz cheklanmaganligini, xususan Konvensiya tamoyillariga, jumladan bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta‘minlanishiga bo‘lgan huquqiga zid kelmaganligini isbotlash uchun muayyan choralar ko‘rilishi kerak.

Mazkur moddada bolaning fuqarolikka ega bo‘lish huquqi e‘tirof etilgan. Bu huquq bolaning qadr-qimmatini bilan uzviy bog‘liq va shu orqali ta‘minlanishi, himoya qilinishi, saqlab qolinishi va zaruriyat tug‘ilganda tiklanishi kerak. Bola doimo fuqarolikka ega bo‘lishi kerak, agar bunday choralar oqibatida boshqa fuqarolikka ega bo‘lmasa undan mahrum etilishi mumkin emas (8-modda).

Bolaning familiya, ism va otasining ismini olish huquqi. Familiya va ism olish huquqi shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi. Har bir bola tug‘ilgan zahoti ro‘yxatga olinadi va tug‘ilgan daqiqadan boshlab otasining ismi va familiasini olish huquqiga ega. Ularni belgilash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan tartibga solinadi.

Bolaga ism ota-onasining kelishuviga binoan, ota ismi – otasining ismiga ko‘ra beriladi.

Bolaning familiyasi ota-onaning familiasiga qarab belgilanadi. Ota-ona turli familiyalarda bo‘lganda ota-onaning kelishuviga binoan, bolaga otasining yoki onasining familiyasi beriladi. Ota-onaning xohishiga ko‘ra, bolaga ota yoki ona tomonidan milliy an‘analarga ko‘ra boboning ismi bo‘yicha familiya berilishi mumkin. Ota-ona o‘rtasida bolaning ismi va familiyasi bo‘yicha kelishuv bo‘lmaganda kelib chiqqan nizo vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

Fuqarolik holati dalolatnomlarini qayd etish organi ota-onaning birgalikdagi arizasiga binoan bola 16 yoshga to‘lgunga bola manfaatlarini e‘tiborga olib, uning ismini o‘zgartirishga, shuningdek unga berilgan familiyani ham otasi yoki onasining familiasiga qarab o‘zgartirishga haqlidir.

Agar ota-ona alohida yashasa va bola bilan birga yashovchi ota (ona) bolaga o‘z familiasini berishni xohlasa, vasiylik va homiylik organi bu masalani bolaning manfaatlarini hamda ota va onaning fikrini hisobga olgan holda hal qiladi. Ota yoki

onaning turgan joyini aniqlash mumkin bo'lmaganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda, muomalaga layoqatsiz deb topilganda, shuningdek ota yoki ona bolaga ta'minot berish va uni tarbiyalash majburiyatlarini bajarishdan uzrsiz sabablarga ko'ra bo'yin tovlagan hollarda ota yoki onaning fikrini hisobga olish shart emas.

Agar bola o'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan va otalik qonuniy tartibda belgilanmagan bo'lsa, vasiylik va homiylik organi bolaning manfaatlarini e'tiborga olib uning familiyasini onaning murojaat qilgan davridagi familiyasiga almashtirish uchun ruxsat berishga haqli.

10 yoshga to'lgan bolaning ismi yoki familiyasini o'zgartirishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Bolaning millati. Bolaning millati ham, familiyasi kabi ota-onasining millatiga qarab belgilanadi. Ota-onasi har xil millatga mansub bo'lgan hollarda, bola tug'ilganligi to'g'risidagi dalolatnomada ota-onasining kelishuviga binoan otasi yoki onasining millati ko'rsatiladi.

Shuni yodda tutish kerakki, bola milliy kelib chiqishidan qat'iy nazar teng huquqlarga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va ananalari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada "ozchilikni tashkil etuvchi" yoki "mahalliy aholi" tushunchalariga ta'rif berilmaydi. Uning 30-moddasida mamlakatda mavjud guruhlarga mansub shaxslarning huquqlarini himoya qilish uchun davlatning ma'suliyati aks ettirilgan. Shuning uchun bunday guruhlar mavjudligini qaysi obyektiv mezonlar asosida belgilash to'g'risidagi masala ochiq qoladi. Biroq, shunisi ayonki, mazkur norma, davlat tomonidan uning yurisdiksiyasida bo'lgan bunday ozchilikni yoki mahalliy aholining mavjudligini tan olmaslikka yo'l qo'yadigan ma'noda talqin etilmasligi kerak, chunki, unday

talqin etish, bunday guruhlarning alohida a'zolarining asosiy huquqlarini amalga oshirilishi uchun to'siq bo'lishi mumkin.

Ushbu norma aholining muayyan guruhiga mansub va huddi shunday madaniyat, din yoki tilga ega, davlat yurisdiksiyasi doirasida bo'lgan va Konvesiyaning 2-moddasiga binoan, uning fuqarolari, doimiy aholisi, fuqarolikka ega bo'lmagan yoki qochoq bo'lishi mumkin bo'lgan bolalarni himoya qilishga qaratilgan.

U bola huquqlarini amalga oshirishni rad etilishi mumkin bo'lmagan va bola mansub bo'lgan individuallikni saqlab qolish kerak bo'lgan 3ta asosiy huquqni yoritadi, bular - o'z madaniyatidan foydalanish, o'z diniga e'tiqod qilish hamda o'z ona tilidan foydalanish huquqi.

Fuqarolikka ega bo'lish huquqi. Fuqarolikka ega bo'lish huquqi, har bir shaxsning, shuningdek, bolaning o'zi yashab turgan davlati bilan huquq va majburiyatlar asosida huquqiy munosabatini bildiradi.

Bolaning fuqarolikka ega bo'lish huquqi uni olish va saqlab qolish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Fuqarolik to'risida"gi qonun bilan tartibgasolinadi. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'i nazar hamma uchun tengdir.

Tug'ilgan paytida ota-onasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bola, O'zbekiston Respublikasi hududida yoxud O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bo'lishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo'lib, ulardan biri bola tug'ilgan paytida O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan quyidagi hollarda bola O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi:

- 1) agar u O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan bo'lsa;
- 2) agar u O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tug'ilgan bo'lsayu, ota-onasi yoki ularning biri shu vaqtda O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lsa.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo'lib, ulardan biri bola tug'ilgan paytda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan bo'lsa, agar bu vaqtda ota-ona

O'zbekistondan tashqarida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lgan bo'lsalar, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bolaning fuqaroligi ota-onaning yozma tarzda ifodalangan kelishuvi bilan belgilanadi.

Ota-onasidan biri bola tug'ilgan paytda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi esa fuqaroligi yo'q shaxs bo'lgan yoxud noma'lum bo'lgan taqdirda, bola qayerda tug'ilgan bo'lishidan qat'i nazar u O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Fuqaroligi bo'lmagan, O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan bolasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Ota-onasi noma'lum bo'lgan va O'zbekiston hududida yashayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Ota-onalarining fuqaroligi o'zgarganligi natijasida ularning har ikkalasi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga o'tganida yoki har ikkalasi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqqanida, o'z navbatida ularning 14 yoshga to'lmagan bolalarining fuqaroligi ham o'zgaradi.

Agar bolaning ota-onasidan biri ma'lum bo'lsa, ana shu ota yoki onaning fuqaroligi o'zgarganida 14 yoshga to'lmagan bolaning fuqaroligi ham tegishli suratda o'zgaradi.

O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi bolaning ota-onasi yoki yolg'iz otasi, yo bo'lmasa onasi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqsalar va ayni vaqtda ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari vasiylikka yoki homiylikka olgan bolaning tarbiyasida ishtirok etmasalar, ota-ona, vasiy yoki homiyning iltimosiga ko'ra bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qoladi.

Agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylansa, boshqasi esa chet el fuqarosi bo'lib qolaversa, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olayotgan ota yoki onaning iltimosnomasiga ko'ra bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi mumkin.

Agar ota-onasidan biri O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylansa, boshqasi esa fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lib qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi bola O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Agar ota-onasidan biri O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylansa, boshqasi esa fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lib qolaversa, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida yashovchi bola O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olayotgan ota yoki onaning iltimosnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi mumkin.

Chet el fuqarosi yoxud fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olinayotgan bola O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Chet el fuqarosi bo‘lib, biri O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, boshqasi esa fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olinayotgan bola O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Fuqaroligi bo‘lmagan, biri O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olinayotgan bola O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Chet el fuqarosi bo‘lib, biri O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, boshqasi chet el fuqarosi bo‘lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olinayotgan bola farzandlikka oluvchilarning kelishuviga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Ota-onalarining fuqaroligi o‘zgargan taqdirda, shuningdek bolalar farzandlikka olingan taqdirda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning fuqaroligi “Fuqarolik to‘risida”gi qonunning 34-moddasida ko‘zda tutilgan tartibda faqat bolalarning roziligi bilan o‘zgartirilishi mumkin.

BOLANING ERKINLIK VA SHAXSIY DAXLSIZLIK HUQUQI KAFOLATLARI

Har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turar joyi daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish huquqiga ega.

Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayri qonuniy aralashuvlardan himoyalanih huquqiga ega.

Bola qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas.

Davlat bolaning shaxsi, turar joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiyaning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'rvonlikdan, qiynoqqa solishlardan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, jinoiy faoliyatga, fohishalik bilan shug'ullanishga jalb etilishdan himoya qilishni amalga oshiradi.

Shaxsiy hayot daxlsizligi – shaxsning tug'ilishi bilan vujudga keladigan va hech kimning aralashishiga yo'l qo'yilmaydigan insonning hayotiy turmksh tarzidir¹⁶⁰.

“Bolalar huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning 10-moddasida o'z aksini topgan kategoriyadagi huquq va erkinliklar Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 16-, 19-, 34-, 35-, 37-moddalarida ko'zda tutilgan qator huquqlarga tegishlidir.

Mazkur kategoriyadagi huquqlar BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida aks etilgan bir qator huquqlarni, jumladan, 16-moddada ko'zda tutilgan shaxsiy hayotga bo'lgan huquqi, 37 (v) – moddada ko'zda tutilgan g'ayriqonuniy ravishda yoki o'zboshimchalik bilan ozodlikdan mahrum etilmaslikka bo'lgan huquqi, 19-, 34-, 35- va 37 (a) - moddalarida ko'zda tutilgan jismoniy, ruhiy va ma'naviy zo'rvonlikdan, qiynoqlardan va ekspluatatsiyaning barcha turlaridan himoya qilinishga bo'lgan huquqini o'zida aks etadi.

Konvensiyaning 16-moddasi quyidagi andozani belgilaydi: birorta bola uning shaxsiy hayot, uy-joy daxlsizligi yoki pochta jo'natmalari sir tutilishiga bo'lgan huquqi amalga oshirilishiga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga zid

¹⁶⁰O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi. –T.: O'zbekiston, 2013. -B.147

ravishda aralashish yohud uning sha'ni va obro'siga g'ayriqonuniy tajovuz qilish obykti bo'lishi mumkin emas.

Ushbu modda bola o'zboshimchalik bilan yoki qonunga xilof ravishda aralashish obykti bo'lmaslikka hamda ana shunday aralashish yoki tajovuzlardan himoyalanih huquqini e'tirof etadi. Bu huquq aniq belgilangan hollarda va bu yerda bayen etilgan alohida vaziyatlarda qonun bilan aralashishi ruxsat etilgan vakolatli organlarning har qanday aralashuvidan bolaning himoyalanihini ta'minlashni nazarda tutadi. Bola davolanishga joylashtirilganda, uni parvarishlash uchun va himoya qilish uchun topshirilganda g'ayriqonuniy va o'zboshimchalik bilan aralashuvga yo'l qo'yilmaydi va bu talab bola bilan aloqada bo'lgan, shaxslar tomonidan, jumladan ana shunday muassasalar hodimlari tomonidan ham bajarilishi shart. Bu talab buzilgan hollarda bola uchun salbiy oqibatlar kelib chiqarmaydigan shikoyatlarni ko'rib chiqish prosedurasi ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.

Konvensiyaning 19-moddasiga binoan,

1. Ishtirokchi-davlatlar bolani jismoniy va ruhiy zo'ravonlikning, hakoratlash va suiste'molliklar, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik yoki beparvolik bilan muomalada bo'lish, qo'pol muomala qilish yoki ota-ona, qonuniy vasiylar yoki bola haqida g'amxo'rlik qiluvchi har qanday boshqa shaxs tomonidan ekspluatatsiya qilish, jumladan, shahvoniy suiiste'molliklar sodir etishning har qanday shakllaridan himoyalash maqsadida jamiki zarur qonuniy, ma'muriy, ijtimoiy va ma'rifiy chora-tadbirlarni ko'radilar.

2. Bunday himoya choralari, zarurat tug'ilgan taqdirda, bola va uning haqida hamxo'rlik ko'rsatayetgan shaxslarni lozim darajada qo'llab quvvatlash maqsadidagi ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish uchun samarali tartib-rusumlarni . shuningdek, bola bilan yuqorida ko'rsatilgan tarzda shafqatsizlarcha muomala qilish hollari munosabati bilan ogohlantirish, aniqlash, xabar berish, qarab chiqish., tergov olib borish, davolash hamda shundan keyingi choralarni ko'rish zarurati tug'ilgan taqdirda sud ishini qo'zg'atish uchun chora tadbirlarni ham o'z

ichiga oladi.

Konvensiyaning 34-moddasida boladan shahvoniy maqsadlarda foydalanish va shahvoniy buzishning barcha shakllaridan, jumladan bolani har qanday g'ayriqonuniy ravishdagi shahvoniy faoliyatga tortish va majburlash, bolalardan fohishabozlik yoki g'ayriqonuniy ravishdagi barcha shahvoniy maqsadlarda foydalanish, bolalardan pornografiya va pornografiya materiallarni tayyorlash maqsadida foydalanishdan himoya qilish bo'yicha davlatning majburiyatlari belgilangan

Konvensiyaning 37-moddasida ko'rsatilishicha, ishtirokchi davlatlar quyidagilari ta'minlaydilar:

a) birorta ham bola qiynoqlarga yoki boshqa shafqatsizlarcha, g'ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni oyoqosti qiladigan muomala yoki jazoga duchor etilmasligini. Na o'lim jazosi, na ozodlikka chiqarish imkoniyatini ko'zda tutmagan umrbod qamoq jazosi 18 yoshdan kichik bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun belgilanmaydi;

v) birorta ham bola g'ayriqonuniy ravishda yoki o'zboshimchalik bilan ozodlikdan mahrum etilmasligini bolani hibsga olish, ushlab turish yoki qamoqqa solish qonunga muvofiq amalga oshiriladi hamda ilojisiz chora sifatidagina va mumkin qadar tegishli qisqa vaqt mobaynida ishlatiladi.

Shu maqsadda, ishtirokchi davlatlarga bunday xodisalarni taqiqlaydigan va bu kabi holatlarni tergov qiinishini, aybdorlani jazolanishini va jazosiz qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun faol kurashishni kafolatlaydi.

Shunday qilib, Konvensiyada odil sudlov sohasidagi bola huquqlarini himoya qilinishining bir qator asosiy tamoyilari belgilangan.

Insonparvarlik tamoyili – bu tamoyil asosida Konvensiya qiynoqlarni, o'lim jazosini va 18 yoshdan kichik bo'lgan shaxslar uchun ozodlikka chiqarish imkoniyatini ko'zda tutmagan umrbod qamoq jazosini aniq taqiqlaydi (37-moddaning a), v) bandleri); Ozodlikdan mahrum etilishi mutlaq zarur bo'lgan hollarda bola uning yoshidagi shaxsning ehtiyejlarini hisobga olgan holda

insoniy muomaladan foydalanishi kerak;

Oilaning eng muhim roli tamoyili - bu tamoyil ozodlikdan mahrum etilgan bola oilasi bilan diydor ko‘rishish va xat yezish orqali tez -tez aloqa bog‘lab turishini (37-moddaning d bandi), unga qo‘yilayotgan ayblar to‘g‘risida ma‘lum qilinayotganda (40-moddaning 2-b(ii) bandi), va ish vaklatli mustaqil va xolis organ yoki sud organi tomonidan ko‘rib chiqilayotganda (40-moddaning 2-b(iii) bandi) ota -onasi uning yonida bo‘lishini talab qiladi;

Oshkora qilmaslik tamoyili – bolaga oid ishni ko‘rib chiqishning barcha bosqichlarida bolani hurmat qilishni talab qiladi va unga binoan bola o‘z advokati bilan aloqada bo‘lishga va bola saqlab turilgan muasasalar hodimlari ularga kasbiy burchlari orqali bolaning o‘ziga yoki oilasiga tegishli bo‘lgan ma‘lumotlarga ega bo‘lgan hollarda bu ma‘lumotlarni hurmat qilishini talab qilishga hamda shaxsiy ma‘lumotlar bazasiga ega bo‘lish huquqiga ega;

Xuquqiy aralashish tamoyili – ozodlikdan mahrum etilishining qonuniyligini aniqlash maqsadida (37-modda d bandi), qonunga binoan adolatli tarzda ishni ko‘rib chiqib qarror qabul qilish (40-modda, 2b (iii) bandi) va bola jinoiy qonunchilikni buzganligi to‘g‘risidagi qarorni takroran ko‘rib chiqish (40-modda, 2b-(v)-band);

Daxlsizlik tamoyili - unga binoan ozodlikdan mahrum etilgan bola o‘z himoyasiga tayyorgarlik ko‘rayotganda va uni amalga oshirayotganda huquqiy va boshqa kerakli yordam oladi (37-modda d) band) hamda qonunga binoan ishni adolatli tarzda ko‘rib chiqish davomida advokati ishtirok etishini talab qilish huquqiga ega (40 modda, 2b (iii) band);

Bola ishtirok etadigan ishning kechiktirmasdan ko‘rib chiqilishi - huquqiy va boshqa zarur yordamdan zudlik bilan bahramand bo‘lish (37-modda d) band, 40-modda, 2b (ii)band) va ozodlikdan mahrum etilishining qonuniyligi bo‘yicha kechiktirmasdan qaror qabul qilinishi (37-modda d) band), hamda bolaga unga qo‘yiladigan ayblar haqida kechiktirmasdan ma‘lum qilinishi (40-modda, 2b (ii) bandi) va ishning kechiktirmasdan ko‘rib chiqilishini (40-modda,

2b (iii) bandi) ta'minlaydigan vosita hisoblanadi.

Ushbu barcha tamoyillar voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlov tamoyillari hisoblanadi va nafaqat Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada, balki BMTning Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari ("Pekin qoidalari"), BMTning Balog'atga yetmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari ("Ar-Riyod dasturiy prinsiplari"), BMTning ozodlikdan mahrum bo'lgan voyaga yetmaganlarni himoya qilishga oid xalqaro normalari, BMTning ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan choralar bo'yicha qoidalarida (Tokio qoidalari) o'z aksini topgan.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan oddi sudlov, ya'ni boshqacha til bilan aytganda, yuvenal yustitsiyaning asosiy tamoyillari O'zbekiston Respublikasi qonun-hujjatlarida ham o'z aksini topgan.

Bolaning erkinlikka va shaxsiy daxlsizlikka bo'lgan huquqini ta'minlash. Bolaning erkinlikka va shaxsiy daxlsizlikka, turar joyi daxlsizligiga va xat-xabarlarini sir tutilishining qonuniy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik, Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasi quyidagi qoidani e'tirof etadi: Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas"

Konstitutsiyaning 27-moddasi shaxsiy daxlsizlikni shaxsiy hayotga aralashishga yo'l qo'ymaslik bilan bog'laydi. Unga binoan, "Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas".

Bolaning sha'ni va qadr-qimmatini hamda uning shaxsiy hayotiga noqonuniy aralashishdan himoya qilinishga bo'lgan huquqi. Davlat bolaning uning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilishlardan, uning shaxsiy hayotiga noqonuniy aralashishlardan himoya qilinishga bo'lgan huquqini ta'minlaydi.

Bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqi 14 yoshgacha bo'lgan bolaning ota-onasi yoki qonuniy vakili tomonidan, ko'rsatilgan yoshga tugandan keyin mustaqil ravishda bolaning o'zi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Bolalar sudda ish ko'rilishi yoki xayriya faoliyatining obyektlari bo'lgan hollarda ularning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni himoya qilish huquqiga ega.(masalan, bolaga nisbatan vasiylik belgilangan, farzandlikka olish, ajralish va hokazo). Bolaning shaxsiy hayoti sud jarayonining barcha bosqichlarida hurmat qilinishi kerak. Xalqaro standartlarda voyaga yetmagan gumon qilinuvchining yoki huquqbuzuvchining ismi ommaviy axborot vositalarida chop etilishining salbiy oqibatlarini ko'rsatilgan. *“Voyaga yetmagan huquqbuzuvchining shaxsini aniqlashga olib keladigan har qanday ma'lumotni chop etish taqiqlanadi”*.¹⁶¹ Bolalar ishtirokida sud ishni yopiq tarzda o'tkazish shart. Sudda ommaviy hukm chiqarilayotganda bolaning shaxsi oshkora etilishi mumkin emas.

Bolaning shaxsiy hayotga bo'lgan huquqi u davlat muassasasiga, jumladan ozodlikdan mahrum etish joylariga joylashtirilganligidan so'ng ham saqlanib qoladi. Bola turgan xonaning, bolaning shaxsiy daxlsizligini ta'minlash kerak – minimal hudud, alohida xojatxona va yuvinish uchun joylar bo'yicha standartlarga rioya etilishi shart. Bolalar o'zlarining shaxsiy narsalarini saqlash uchun muassasa xodimlari tomonidan tintuv qilinmaydigan joyga ega bo'lishlari shart.

Bolalar sha'niga va qadr qimmatiga tajovuzlardan himoya qilingan bo'lishi shart. Boshqacha qilib aytganda, qonunlar bolalarni og'zaki va yozma hamda ommaviy aborot vositalari orqali tajovuzlardan himoya qilishi shart.

¹⁶¹ BMTning Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (“Pekin qoidalari”), 8.1-qoida.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida bolaning, voyaga yetmaganlar sifatida jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish alohida bobda, ya’ni Kdeksning 13-bo‘limining 60-bobida ko‘rsatilgan, chunki, ularga nisbatan o‘zga ma’yorlar qo‘llaniladi. Voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini yuritishda ularning ijtimoiy-ruhiy holatlarini e’tiborgan olish muhimdir. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslarda bir tomondan yetuklik alomatlarini, ya’ni ularda mustaqillikning shakllanishi, o‘zini tuta bilish va idora vilish namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy ulg‘ayishning davom etayotganligi (maktab yoki boshqa bilim dargohida o‘qishni davom ettirishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilishi, muomala layoqatini rivoji) ko‘rinadi.¹⁶² Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida voyaga yetmaganlarning odilsudlov bilan bog‘liq sohasida qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyilini ta’minlash usullari mustahkamlanib qo‘yilgan, ular quyidagilarda o‘z aksini topgan:

–voyaga yetmagan ayblanuvchining shaxsini uning turmush tarzi sharoitlarini, oilaviy sharoitni har tomonlama o‘rganish; (548-modda);

–voyaga yetmaganlarning qonuniy vakillarining ishda ishtirok etishini ta’minlash (549-modda);

–ishda himoyachining ishtirokini ta’minlash (550-modda);

–ayblanuvchini ishlagan yoki o‘qigan muassasalar vakillari, uning vasiysi yoki homiysi, voyaga yetmaganlarning ishlari bo‘yicha komissiyaning vakillarining ishtirokini ta’minlash; (551-modda);

– ayblanuvchini so‘roq qilishga ketgan umumiy vaqt, kun davomida dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olmaganda, 6 soatdan oshmagan vaqtda himoyachining va qonuniy vakilining ishtirokida so‘roq qilishda, ularni so‘roqning bayonnomasi bilan tanishtirish va o‘z fikrlarlarini bildirish huquqini ta’minlash (552, 553-moddalar);

–so‘roqda zarur hollarda pedagog yoki psixologning ishtiroki (554-modda);

¹⁶² Jinoyat protsessi: (Maxsus qism): Yuridik institut va fakultetlari talabalari uchun darslik (Z.F.Inog‘omjonovanning umumiy tahriri ostida). –T.: TDYuI, 2008. -B.327

–ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan ehtiyot choralarini tanlash (555-modda);

–voyaga yetmaganlarning ota-onasi, vasiysi, homiysi yoki bolalar muassasalarning rahbarlarining qaromog‘iga topshirish (556-modda);

–prokuror sanksiya bilan yoki sud ajrimiga binoan voyaga yetmaganlarni bolalar muassasalariga joylashtirish (557-modda);

–sud qarori asosida ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish yoki uy qamog‘iga joylashtirish (558-modda);

–qonuniy vakili ishtirokida ish materiallari bilan tanishtirish va voyaga yetmaganing shaxsiga salbiy ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ish materiallarni tanishib chiqish uchun ko‘rsatmaslik (559-modda);

–zarur hollarda ishni yopiq sud majlisida ko‘rib chiqish (560-modda);

–voyaga yetmaganlarga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan hollarda ularni sud majlisi zalini chiqarib turish (561-modda);

–voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyani ishni ko‘rib chiqishda ishtiroki to‘g‘risida habardor qilish (562-modda);

–ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo chorasini tayinlash hamda voyaga yetmaganni jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburiy chora ko‘rish to‘g‘risidagi masalani sudda muhokama etilishi (563-564-moddalar)¹⁶³.

Shunday qilib, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy ishlarni ko‘rib chiqilganda bolaning sha’ni va qadr-qimmatining himoya qilinishi sudga nafaqat jinoyatni sodir etilishining sabablarini va shartlarini aniqlashda, ayblanuvchi shaxsining xususiyatlarini aniqlashda, unga sodir qilganiga munosib jazo tayinlashda, balki bolaning shaxsiga hurmat qilishni talab qilishga ham yordam berishi mumkin bo‘lgan ota-onalari, advokati, boshqa qonuniy vakillari, jamoatchilik, pedagoglar, psixologlar ishtiroki etishini taqozo etadi.

Bolani ushlab turish va qamoqqa olish uchun asoslar. Bola qonundan tashqari boshqa asoslarga ko‘ra ushlab turilishi hibsga olinishi yoki qamoqqa olinishi mumkin emas. Bolani ushlab turish va qamoqqa olish asoslari va tartibi

¹⁶³ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. www.lex.uz

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida, “Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga berilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun-hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunda, “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan.

Jinoyat-protsessual kodeksining 221-moddasiga binoan, jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxs quyidagi asoslar mavjud bo‘lganda ushlab turilishi mumkin:

- 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir sodir etganidan keyin qo‘lga tushsa
- 2) jinoyat shohidlari, shu jumladan, jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to‘g‘risidan-to‘g‘ri ko‘rsatsalar;
- 3) uning o‘zida yoki kiyimida yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;
- 4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo‘ladigan ma’lumotlar mavjud bo‘lib u qochmoqchi bo‘lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo‘q yohud shaxsi aniqlanmagan bo‘lsa.

Ushlab turish ushlanganni millitsiyaga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan vaqtdan boshlab 72 soatdan ortiq davom etishi mumkin emas. Tergovchi yoki prokuror tomonidan zarur va yetarli asoslar taqdim etilgan hollarda sud o‘z qarori bilan ushlab turish muddatini 48 soatga uzaytirishi mumkin.

Jinoyat-protsesual kodeksining 558-moddasiga binoan, voyaga yetmagan ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish yoki uy qamog‘i, Kodeksning 236-moddasida nazarda tutilgan asoslar, ya’ni, ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo‘yin tovlashining oldini olish; uning bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish; uning ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo‘l qo‘ymaslik; hukmning ijro etilishini ta’minlash maqsadida jinoyatning xavfliligi tufayli u surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan yashirinishi mumkin degan o‘rinli taxmin ham qamoqda saqlash tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lganda; shuningdek, ekspertiza o‘tkazish uchun tibbiy

muassasaga joylashtirilishini kutayotgan, shuningdek aqli noraso deb e'tirof etilgan yoki jinoyat sodir qilganidan so'ng ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan ehtiyot choralari ular yashirinishining va boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir qilishining oldini olish, shuningdek tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash haqidagi sud ajrimi ijrosini ta'minlash maqsadida qo'llanilishi mumkin asoslar bo'lganda hamda ayblanuvchiga besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan jinoyat sodir etganlikda ayb e'lon qilingan hamda ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishini boshqa ehtiyot choralari ta'minlay olmaydigan taqdirda qo'llanilishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi masalani ko'rib chiqishda prokuror ish materiallari bilan shaxsan tanishib chiqishi, iltimosnomaning asosligini tekshirishi, hodisaning favquloddaligiga ishonch hosil qilishi va ayblanuvchini ushbu ehtiyot chorasini qo'llash bilan bog'liq holatlar bo'yicha so'roq qilishi shart.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish qo'llanilgan voyaga yetmagan shaxslar katta yoshdagilardan, shuningdek voyaga yetmagan mahkumlardan alohida saqlanishi lozim¹⁶⁴.

Turar joy daxlsizligiga bo'lgan huquq. Turar joy daxlsizligi hech kim qonuniy asosiz uyda yashovchi shaxsning (jumladan, bolalarning) erkiga qarshi uyiga bostirib kirishi mumkin emasligini bildiradi. Bu huquq barcha turar joylarga – uylarga, xonadonlarga va qurilmalarga tegishlidir.

Mulk shaklidan qat'i nazar, bu huquqqa alohida uylarda yoki xonadonlarda yashaydigan fuqarolar ega. Uyga bostirib kirishga faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi. Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, surishtiruvchi va tergovchi biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o'zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar bor, deb o'ylash uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda tintuv o'tkazishga haqlidir.

¹⁶⁴O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. www.lex.uz

Xat-habarlarni sir tutish huquqi. Har bir shaxsning, shuningdek, bola ham xat-xabarlarini sir tutishi huquqiga ega va hech kim bu huquqni buzishi mumkin emas. Faqatgina, sodir etilgan jinoyatga doir ma'lumotlar yoki ish uchun ahamiyatga molik hujjatlar va buyumlar bor deb gumon qilish uchun yetarlicha asoslar bo'lgandagina jinoiy–protsessual qonunchilikda ko'zda tutilgan qoidaga rioya etilgan holda, ularning pochta, telegraf orqali jo'natmalrni xatlab qo'yishga, ularni ko'zdan kechirish va olib qo'yish hamda telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turishga ruxsat berilishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 142-moddasida turar joyga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda zo'rlik bilan bostirib kirish uchun jinoiy javobgarlikni ko'zda tutadi, 143-moddada esa-xat yozishmalari, telefondagi so'zlashuv, telegraf xabarlarini yoki boshqa xabarlarning sir saqlanish tartibini buzish uchun jinoiy javobgarlikni ko'zda tutadi.

Ekspluatatsiyaning barcha shakllaridan himoya qilinish huquqi. Davlat bolani ekspluatatsiyaning barcha shakllaridan jumladan jismoniy, ruhiy va shahvoniy zo'ravonlikdan himoya qilinishini amalga oshiradi. Ko'rsatilgan huquqlarni himoya qilinishining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun, Jinoyat kodeksi tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasiga binoan, har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalani huquqiga egadir. Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

Bola huquqlari to'risidagi konvensiyaning 32-moddasi quyidagicha deyilgan:

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan hamda uning sog'lig'i uchun xavf-xatar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan yohud sog'lig'i, jismoniy, aqliy, ma'naviy, ahloqiy va ijtimoiy

rivojlanishiga zarar keltiradigan har qanday ishlardan himoya qilinish huquqini e'tirof etadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar ushbu moddaning amalga oshirilishini ta'minlash uchun qonuniy, ma'muriy va ijtimoiy, shuningdek, ta'lim sohasidagi chora-tadbirlarni ko'radilar. Ana shu maqsadlarda, boshqa xalqaro hujjatlarning tegishli qoidalariga amal qilgan holda, ishtirokchi-davlatlar, jumladan:

a) ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh yoki eng kichik yoshlarni belgilab qo'yadilar;

b) kundalik vaqtdagi ishning muddati va mehnat sharoitiga doir zarur talablarni aniqlaydilar;

s) ushbu moddaning samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun jazoning tegishli turlari yoki boshqa sanksiyalarni ko'zda tutadilar.

Bola huquqlari bo'yicha Qo'mita ushbu modda bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan hamda uning sog'lig'i uchun xavf-xatar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan yohud sog'lig'i, jismoniy, aqliy, ma'naviy, ahloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga zarar keltiradigan har qanday ishlardan himoya qilinish huquqiga tegishli deb hisoblaydi. Bu qoidalar aniq bolaning to'liq va uyg'unlikda rivojlanishining va uning asosiy huquqlarini, jumladan ta'lim olish, sog'liq, bo'sh vaqt, dam olishga bo'lgan huquqlarini hurmat qilinishininig ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuning uchun, bu huquqlarni ta'minlash uchun bola huquqlariga keng qamrovli yondashuv kerak.

Ishtirokchi - davlatlar bolalarni ularga xavf tug'diradigan yoki zarar yetkazadigan, ekspluatatsiya qilinishiga olib keladigan vaziyatlarga jalb qilinishiga barxam berishi uchun ishlayotgan bolalarni samarali himoya qilish uchun, bunday faoliyatdan jabrlangan bolalarni jismoniy va ruhiy tiklanishini, ijtimoiy reintegratsiyasini ta'minlash uchun barcha zarur bo'lgan huquqiy, ma'muriy, ijtimoiy va ta'lim sohasida choralar ko'rishi shart. Ular tegishli xalqaro hujjatlarda, jumladan XMT tomonidan qabul qilingan hujjatlarda ko'zda tutilgan standartlarni e'tiborga olishi kerak va ularga amal qilgan holda ishga qabul qilish uchun eng

kichik yosh yoki eng kichik yoshlarni, kundalik vaqtdagi ishning muddati va mehnat sharoitiga doir zarur talablarni, jazoning tegishli turlari yoki boshqa sanksiyalarni belgilab qo'yishi kerak.

O'zbekiston qonun hujjatlarida Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning, XMTning "Majburiy mehnat" va "Majburiy mehnatga barham berish to'g'risida"gi konvensiyalarining qoidalari aks etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 7-moddasiga binoan, majburiy mehnat ya'ni biron bir jazoni qo'llash bilan tahdid qilish (jumladan mehnat intizomini saqlash vositasi tariqasida) orqali ish bajarishga majburlash taqiqlanadi.

O'zbekiston 2008-yili ratifikatsiya qilgan XMTnig 1999-yilgi "Bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyasiga binoan "bolalar mehnatining eng yomon shakllari" atamasi quyidagilarni qamrab oladi:

a) qullikning barcha shakllari yoki qullikka o'xshash amaliyot, masalan, bolalarni sotish va ularning traffiki, qarz asosidagi qaramlik va krepostnoy tobelik, shuningdek zo'raki yoki majburiy mehnat, shu jumladan,, bolalardan qurolli mojaralarda foydalanish uchun ularni zo'r lab yoki majburlab jalb qilish;

b) fohishabozlik bilan shug'ullanish, pornografiya mahsulotlari tayyorlash yoki pornografik tomoshalarda ishtirok etish uchun boladan foydalanish, uni yollash yoki uni taklif qilish;

s) qonunga xilof faoliyat bilan shug'ullanish uchun, xususan, tegishli xalqaro shartnomalarda belgilangani kabi, narkotiklar tayyorlash va sotish uchun boladan foydalanish, uni yollash yoki uni taklif qilish;

d) bajarish xususiyatlari yoki sharoitiga ko'ra bolalar sog'lig'i, xavfsizligi va ma'naviyatiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlar.

O'zining ekstremal shakllarida – bolalarni qulga aylantirish, oilalaridan ajratish, ularning hayotiga va sog'lig'iga xavf tug'dirish va yoshligidan katta shahar ko'chalarida mustaqil hayot kechirishga majbur qilish.

O‘zbekiston hukumati tomonidan bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham berish borasida qator qarorlar va ularni amalga oshirish uchun chora-tadbirlar rejalari qabul qilingan. Jumladan, XMTning O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini amalga oshirishni davom ettirish, majburiy mehnatga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, bolalar mehnatining eng yomon shakllari qo‘llanilishining oldini olish bo‘yicha qonun hujjatlarini takomillashtirish va qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 27-mayda “Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini 2014-2016-yillarda amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan.

BOLANING G‘AYRIQONUNIY KO‘CHIRILISHDAN HIMOYALANISH HUQUQI KAFOLATLARI

Har bir bola g‘ayriqonuniy ko‘chirilishdan va chet eldan qaytarilmaslikdan himoyalanih huquqiga ega.

Bolaning chet elga safarlari faqat ota va onaning yoki ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslarning roziligi bilan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Ushbu masala bo‘yicha ota va ona yoki ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘rtasidagi har qanday kelishmovchilik sud tomonidan hal qilinadi.

Ota-ona yoki ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslar bolaning yo‘qolganligi haqida tegishli organlarga darhol xabar berishlari shart.

Ota-ona yoki ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslar hamrohligida bo‘lmagan bolalar ularning yoniga kafolatli qaytarilish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini chet elda qonuniy vakillari hamrohligisiz turgan bolalar, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hisobini yuritadi va ularning qaytarilishi bo‘yicha choralar ko‘radi. Ota-onasi bedarak yo‘qolgan deb topilgan yoki ular vafot etgan deb e‘lon qilingan taqdirda, vasiylik va homiylik organi ana shu bolalarni oilaga, bunday imkoniyat bo‘lmaganda esa yetim bolalar yoki ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalarga joylashtirish choralarini ko‘radi.

Qonuniy vakillari hamrohligisiz chet elda turgan bolalarni qaytarish masalalari O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida hal qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining qonun - hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq davlat ijro etish maqsadlari, shakllari va usullaridan qat‘i nazar, bolalarni g‘ayriqonuniy ko‘chirishning oldini olish, shuningdek ularni doimiy yashaydigan mamlakatiga qaytarish choralarini ko‘radi.

“Bolalar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 14-moddasi bolani g‘ayriqonuniy ko‘chirilishdan va chet eldan qaytarilmasligidan himoya qiladi. Ushbu norma bizning qonunchiligimizda nisbiy yangi bo‘lib, dunyoda odam savdosi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi tahdidlar bilan bog‘liq.

Mazkur modda mazmuni Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning davlatlar zimmasiga bolalarning g‘ayriqonuniy ravishda ko‘chirilishiga va chet eldan qaytmasligiga qarshi kurash olib borish uchun chora-tadbirlar ko‘rish majburiyati yuklovchi 11-moddasi, shuningdek, bolalar savdosiga qarshi davlatlar tomonidan ko‘riladigan choralarga oid 35-moddasidan, bolalar ota-onasi tomonidan tashlab ketilgan vaziyatlarga qaratilgan Bolani xalqaro o‘g‘irlanishining fuqarolik jihatlari to‘g‘risidagi Gaaga konvensiyasi¹⁶⁵ normalariga mos keladi.

Noqonuniy ko‘chirilish. Mazkur tushuncha bolalar ota-onasi tomonidan ko‘chirilishiga ham, trafik bilan bog‘liq noqonuniy ko‘chirilish masalalariga ham taaluqli. Bolaning noqonuniy ko‘chirilishi bolaning doimiy yashaydigan davlatidan vasiylik huquqlari buzilgan holda ko‘chirilishi deb hisoblanadi. Bu ta‘rif keng bo‘lib, yuqorida tilga olingan Gaaga konvensiyasiga mosdir. Vasiylik deganda nafaqat vasiylik va homiylik organlari, shuningdek ota-onalar ham tushuniladi.

Ota-ona tomonidan o‘g‘irlanish. Bolalar ota-onasi yoki boshqa qarindoshlari tomonidan o‘g‘irlanishi mumkin. O‘rtasida kelishmovchiliklar bo‘lgan ota-onalar o‘z bolalarini o‘g‘irlab chet elga olib ketish hollar ko‘p uchraydi. Bolaning g‘ayriqonuniy ko‘chirilishi bola yashab kelgan otasi yoki onasidan mahrum bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Biroq, bunday holatda shuni tahmin qilish mumkinki, *“O‘zbekiston Respublikasi qonun-hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq ijro etilish, maqsadalari, shakllari va usullaridan qat‘i*

¹⁶⁵ O‘zbyokiston ushbu Konvensiyaga 1999-yilda qo‘shilgan.

nazar, davlat bolalarni noqonuniy ko'chirilishdan himoya qilish bo'yicha choralar ko'radi" degan ushbu moddaning 7-bandini inobatga olgan holda, Qonunning 14-moddasi Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 11-moddasiga qaraganda kengroq tushunilishi kerak va bolani nafaqat ota-onasi yoki boshqa qarindoshlari tomonidan noqonuniy ko'chirilishdan, shuningdek ularni sotish maqsadida o'g'irlashdan himoya qilishni ham o'z ichiga olishi lozim.

Ya'ni, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 14-moddasi O'zbekiston tomonidan 2008-yili ratifikatsiya qilingan Transmilliy uyushtirilgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyaga doir Odam savdosini, ayniqsa ayollar va bolalar savdosini oldini olish va ehtiyot choralarini ko'rish va bu uchun jazolash to'g'risidagi Protokolning qoidalarini qo'llash uchun sharoitlar yaratadi.

Ushbu Protokolda "odam savdosi" tushunchasiga eng to'liq ta'rif berilganligi tufayli, odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha muhim hujjat hisoblanadi¹⁶⁶.

Odam savdosi. O'zbekiston qonun hujjatlarida "g'ayriqonuniy ko'chirilish" tushunchasiga ta'rif berilmagan bo'lsada, 2008-yil 17 aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish" to'g'risidagi Qonunda "odam savdosi" tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, unga binoan, **odam savdosi** - kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish, odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini majburiy mehnat yoki xizmatlarni qullik yoki qullikka o'xshash odatlarni, erksiz xolat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishni

¹⁶⁶ Qarang: Protokol o preduprejdennii i presechenii torgovli lyudmi, osobenno jenuinami i detmi, i nakazanii za nee, dopolnyauyushiy Konvensiyu Organizatsii Ob'edinennykh Natsiy protiv transnatsionalnoy organizovannoy prestupnosti. *Sbornik mejdunarodnykh dogovorov Respubliki Uzbekistan, 2008 g., № 3-4.* www.lex.uz

anglatadi. Mazkur Qonunda odam savdosini oldini olish, aniqlash, ehtiyot choralarni ko'rish, oqibatlarini kamaytirish, odam savdosi qurbonlariga yordam ko'rsatish bo'yicha olib boriladigan faoliyatning huquqiy asoslari belgilangan.

Bu Qonun bolani ekspluatatsiyadan, ya'ni bolalar fohishabozligi va shaxvoniy ekspluatatsiyasining barcha shakllaridan, majburiy mehnat yoki hizmatlardan, qulchilik yoki unga o'xshash odatlar, erkinliksizlik holatda saqlash yoki organlari va to'qimalarini ajratib olishdan bolaning himoya qilinish huquqiga tegishli. Ushbu Qonun odam savdosi qurbonlari bo'lgan bolalarni himoya qilish bo'yicha choralarni ko'zda tutgan.

Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish maqsadida, Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish bo'yicha Milliy harakatlar dasturi qabul qilingan va 2008-yil 8-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlangan.

2008-yil O'zbekiston Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga Bolalar savdosi, fohishabozligi va pornografiyasiga taalluqli ikkinchi qo'shimcha protokolini ratifikatsiya qildi.

O'zbekiston Respublikasi bolalarni chet eldan qaytarish bo'yicha huquqni muhofaza etish organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik masalarni ko'zda tutgan fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam berish to'g'risidagi ko'p va ikki tomonlama shartomlalar tuzadi.

Bolaning qiynoqlardan himoya qilinishiga bo'lgan huquqi. Davlat bolani ning qiynoqlardan va muomalaning boshqa shafqatsiz, qo'pol yoki qadr-qimmatini kamsitadigan shakllaridan himoya qilish huquqini ta'minlaydi.

O'zbekiston qiynoqlarning barcha shakllariga qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati darajasida yo'l qo'ymasligini ochiq e'tirof etdi va Konstitutsiyaning 26- moddasida o'z aksni topgan. Unga binoan, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas".

Bolaning shahvoniy tajovuzlardan himoya qilinishi huquqi. 2008-yil O'zbekiston Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga Bolalar savdosi,

fohishabozligi va pornografiyasiga taalluqli ikkinchi qo‘shimcha protokoli bolalarni shahvoniy ekspluatatsiya qilinishiga oid muamolarni hal qilish uchun qonuniy, ma‘muriy va boshqa choralarni belgilab beradi. Ushbu protokol jinoyatlarni sudga tortish, shuningdek qayta ekspluatatsiyaga jalb qilinmasligi uchun jabrlangan bolalarni himoya qilish va ularga yordam berish masalariga oid.

Bolaning jinoiy faoliyatga jalb qilishdan himoya qilinish huquqi. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 33-moddasi davlatlarni bolalarni giyohvandlik va psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda iste‘mol qilishini va giyohvandlarni sotishga jalb qilinishdan himoya qilishga chaqiradi. BMT voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikni oldini olish to‘g‘risidagi qoidalar¹⁶⁷ davlatlar bolalarni jinoiy faoliyatga jalb etilishi xavfini kamaytirish maqsadida davlat tomonidan qabul qilinishi zarur bo‘lgan qonuniy va ma‘muriy choralarni belgilaydi.

Bu qoidalar voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikni oldini olishda oilaning, jamiyatning, ommaviy axborot vositalarining rolini ta‘kidlaydi.

Davlat bolani jinoiy faoliyatga jalb etilishidan, jumladan fohishabozlik bilan shug‘ullanishdan himoya qilinishi to‘g‘risida qayg‘urishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga bolalarni tarbiya qilish, ularning jismoniy, ruhiy, ma‘naviy va ahloqiy rivojlanishini ta‘minlash bo‘yicha majburiyatlar yuklatilgan. Ular bolalarga ziyon yetkazmasligi, jumladan jinoiy faoliyatga jalb qilmasliklari kerak.

¹⁶⁷ Ar-Riyod dasturiy prinsiplari, BMT Bosh Assambleyasi Rezolyusisi 45/112 ,1990-yil

Har bir bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi, ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror, sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetguncha qonunga muvofiq to'la muomalaga layoqatli deb e'tirof etilgan (emansipasiya) bola o'z huquqlarini, shu jumladan, himoyaga bo'lgan huquqini mustaqil amalga oshirishga hamda majburiyatlarini mustaqil bajarishga haqlidir.

Bola ota-ona va ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan qilinadigan suiiste'molliklardan himoyalaniş huquqiga ega.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab vasiylik va homiylik organiga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqli.

Bolaning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganidan, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligidan xabardor bo'lgan shaxslar bu haqda bola haqiqatda turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma'lum qilishlari shart. Shunday ma'lumotlar olingan taqdirda, vasiylik va homiylik organi bolaning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha zarur choralar ko'rish shart.

“Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan harkatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida”gi, “Oliy Majlis Inson huquqlari bo'yicha vakili to'g'risida”gi va boshqa Qonunlar asosida bola huquqlarini sud orqali va ma'muriy tartibda himoya qilish usullari aks etilgan.

Bolaning himoyaga bo'lgan huquqini o'zida aks ettirgan “Bolalar huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning 11-moddasini ahamiyati shundaki, unda bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari nafaqat davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat

birlashmalari, mansabdor shaxslar tomonidan, shu bilan birga ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan buzilganda ham ularni himoya qilish usullarini belgilab beradi.

Har bir bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, mansabdor shaxslarning noqonuniy qarorlari va haraktalari ustidan sudga shikoyat bilan murojaat qilish huquqi kafolatlanadi.

Bolalarning tarbiyasiga, ota-onalar huquqlarini amalga oshirishga, bola yaqin qarindoshlari bilan ko'rishishga, nikohdan ajratishga, mulkni bo'lishga oid masalalar bo'yicha va boshqa ishlar bo'yicha ota-onalar o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqqanda, sud bolaning eng yaxshi manfaatlaridan kelib chiqqan holda va bolaning fikrini e'tiborga olgan holda nizoni hal qiladi.

Ta'kidlash joizki, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga ko'ra, bolaning eng yaxshi manfaatlaridan kelib chiqish tamoyili shuni anglatadiki, bolaga nisbatan muayyan harakatlarni amalga oshirganda, qaror qabul qilganda, ular bolaning hayotiga, sog'lig'iga, uning jismoniy, intellektual va ma'naviy rivojlanishiga qisqa va uzoq muddat ichida qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'zda tutishi shart.

Bola huquqlarini ota-ona yordamida va mustaqil ravishda himoya qilinishi. Bola o'z huquqlarini va qonuniy manfaatlarini ota onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yordamida hamda mustaqil ravishda himoya qilish huquqiga ega.

Muomalaga layoqatsiz va 14 yoshdan-18 yoshgacha bo'lgan muomala layoqati cheklangan bolalar va 14 yoshgacha bo'lgan bolalar o'z huquqlarini ota-onasi yordamida himoya qilish huquqiga ega.

Ota-onalar o'z farzandlarining qonuniy vakilari hisoblanadi va jismoniy va yuridik shaxslar oldida ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini alohida vakolatlarsiz himoya qiladi.

Qonunga binoan muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan bolalar o'z huquqlari va majburiyatlarini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq mustaqil amalga oshirishga haqlidir.

Fuqarolik kodeksining 17-moddasiga binoan, barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etiladi.

Fuqaroning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi.

Voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o'tgan fuqaro nikohdan o'tgan vaqtdan e'tiboran to'la hajmda muomala layoqatiga ega bo'ladi.

Nikoh tuzish natijasida ega bo'lingan muomala layoqati o'n sakkiz yoshga to'lmasdan turib nikoh bekor qilingan taqdirda ham to'la saqlanib qoladi.

Nikoh haqiqiy emas deb topilganida, sud voyaga yetmagan er (xotin) sud belgilagan paytdan boshlab to'la muomala layoqatini yo'qotganligi haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Qonunda belgilangan hollar va tartibdan tashqari, hech kimning huquq va muomala layoqati cheklanishi mumkin emas.

Fuqaroning huquq layoqatidan yoki muomala layoqatidan to'la yoki qisman voz kechishi va huquq layoqati yoki muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emasdir, bunday bitimlarga qonun tomonidan yo'l qo'yiladigan hollar bundan mustasno.

Bolaning vasiylik va homiylik organlari, prokuror va sud tomonidan himoya qilinish huquqi. Qonunchilikda belgilangan hollarda bolaning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarining himoya qilinishi nafaqat ota onasi va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan, shuningdek vasiylik va homiylik organlari, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yildagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan alohida g‘amxo‘rlikka, shuningdek o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, ota-onalik huquqidan mahrum etilmagan ota-onasi bo‘lgan hamda bolalarning hayoti yoki sog‘lig‘iga bevosita tahdid tug‘dirayotgan yoki ularning ta‘minoti, tarbiya va ta‘lim olishiga doir talablarga javob bermaydigan sharoitda yashayotgan bolalarga, ularga ta‘minot, tarbiya va ta‘lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, bolaning huquqlari quyidagi hollarda vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi:

- Ota-ona bolani tarbiyalash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmagada yohud ota onalik huquqlaridan suiste‘mol qilganda (67-modda);
- Ota-ona o‘rtasida bolaning ismi va familiyasini o‘zgartirish bo‘yicha nizo bo‘lganda (70-modda);
- Bola voyaga yetmagan ota ona tomonidan tarbiyalanayotganda (72-modda);
- Ota-ona va bola manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik bo‘lganda (74-modda);
- Ota va ona o‘rtasida bolaning ta‘lim tarbiyasiga oid masalalar bo‘yicha kelishmovchilik mavjud bo‘lsa (75-modda);
- Ota - ona bola yaqin qarindoshlari bilan ko‘rishish huquqini rad etsa (77-modda);
- Ota - onalik huquqlaridan mahrum etilsa (80-modda) va hokazo.

Oila kodeksining 148-moddasiga binoan, ota-ona vafot etganda, ota onalik huquqidan mahrum etilganda, ularning ota - onalik huquqi cheklanda, ular muomalaga layoqatsiz deb topilganda kasal bo‘lganda, uzoq muddat bo‘lmaganda, ota-ona bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo‘yin tovlaganda shu jumladan ota - ona tarbiya, davolash, aholini

ijtimoiy himoyalash muassasalarini va shunga o'xshash boshqa muassasalardagi bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

Prokuror bola huquqlarini himoya qilishda quyidagi holatlarda ishtirok etadi:

Ota-onalik huquqlaridan mahrum etish bo'yicha ishlar (80-modda); ota onalik huquqlarini tiklash to'g'risidagi ishlar (82-modda); ota-onalik huquqlarini cheklash to'g'risidagi ishlar (83-modda); farzandlikka olishni bekor qilish to'g'risidagi ishlar (170-modda) sudda ko'rib chiqilganda va hokazo.

Oila kodeksining 67-moddasiga binoan, bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega. Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), ushbu Oila kodeksida nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan, himoya huquqini mustaqil amalga oshirishga haqlidir.

Bola ota-ona (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan qilinadigan suiiste'molliklardan himoyalani huquqiga ega. Bolaning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab, vasiylik va homiylik organiga, o'n to'rt yoshga to'lgandan keyin esa, mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Bola huquqlarini unnig sog'lig'iga va hayotiga xavf bo'lgan hollarda himoya qilish bo'yicha choralar. Davlat ota-onalarga bolalarni tarbiya qilishda ko'mak ko'rsatishi kerak, lekin ba'zi hollarda bolani himoya qilish uchun oila hayotiga aralashishi shart.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya davlatlar zimmasiga quyidagi majburiyatlarni yuklaydi:

Bolaning yashash huquqini himoya qilish va ularning omon qolishini va rivojlanishi ta'minlash (6-modda);

Bola ota-onasi, qonuniy vakillari yoki ularga g'amxo'rlik ko'rsatayotgan shaxslarning qaramog'ida bo'lganda ularni jismoniy va ruhiy zo'rvonlikdan, shikastlanishdan yoki shafqatsiz muomaladan, beparvolik bilan munosabatda bo'lishdan, ekspluatatsiyadan hamda shahvoniy zo'rvonlikdan himoya qilish (19-modda).

19-modda davlatlardan bola huquqlarini himoya qilinishini ta'minlash uchun turli hil qonuniy, ma'muriy, ijtimoiy va ta'lim bo'yicha choralar ko'rishni talab qiladi. 19-moddaning 2-bandiga ko'ra, davlat bolalarga g'amxo'rlik qilayotgan shaxslarga yordam ko'rsatish uchun ijtimoiy dasturlar va oldini oluvchi choralarni amalga oshirishi shart, chunki zo'rvonlik va bolaga nisbatan beparvolik munosabatda bo'lish ko'pincha ijtimoiy muammolar bilan bog'liq.

Davlat bolalarga munosib hamxo'rlikni ta'minlash masadida barchasini amalga oshirishi shart. Biroq agarda oila bolaning asosiy extiyojini ta'minlab bera olmasa yoki ta'minlamasa, jumladan agar bola jismoniy, ruhiy yoki shahvoniy ta'sir xavf ostida bo'lsa, davlat bu bolaning farovonligini himoya qilish maqsadida aralashishi shart.

Bolaning shafqatsiz beparvolik bilan muomala qilishdan va zo'rvonlikdan himoya qilinishini ta'minlash uchun davlat shunday himoya tizimini kafolatlashi kerakki, bu tizim xavf ostida bo'lgan bolalarni yoki shafqatsiz muomala qilinayotgan bolalarni aniqlash va bu tizimning mutaxassislari va jamoat vakillarining tegishli hokimiyat organlariga hisobot berib borish imkoniyatini yaratishi kerak.

Bolani ajratish to'g'risidagi qaror tegishli qonun va proseduralar asosida vakolatli organ tomonidan qabul qilinish kerak va u qaror ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyati bo'lishi kerak. Apellyatsiya jarayoni bolaning noqonuniy va keraksiz ajratilish muddati iloji boricha qisqa bo'lishi uchun tezkor bo'lishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, bolaning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘ilganligidan uning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganligidan xabardor bo‘lgan shaxslar bu haqda bola ayni paytda yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma’lum qilishi shart, shunday ma’lumotlarni olgach vasiylik va homiylik organi bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan zarur choralar ko‘rishi zarur.

Mazkur norma shuni bildiradiki, ota-onalar bolaga ziyon yetkazishi, uning insoniy qadr-qimmatini kamsitishi, unga shafqatsiz, g‘ayriinsoniy muomala qilishga haqli emas. Bola huquqlari buzilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar bu haqda vasiylik va homiylik organlariga xabar berishi shart.

18 yoshga to‘lmagan shaxslarga nisbatan vasiylik va homiylik qilish xalq ta’limi bo‘limlariga yuklatilgan, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda yoki layoqati cheklanganlarga nisbatan – sog‘liqni saqlash bo‘limlariga, sog‘lig‘i tufayli homiylikka muhtoj shaxslarga nisbatan – ijtimoiy ta’minot bo‘limlari zimmasiga yuklatilgan.

Vasiylik va homiylik organlariga ota-onalar, ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bola huquqlari buzilayotganligi haqidagi ma’lumotlar bolaning qarindoshlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakillari, NNT, qo‘shnilar, ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash va boshqa shaxslar tomonidan taqdim etiladi.

Ichki ishlar organlari vasiylik va homiylik organlariga bola huquqlarini himoya qilishda va qonunda belgilangan tartibda bolalarga nisbatan o‘z huquqlarini suiste’mol qilishga yo‘l qo‘ygan ota-onalar va boshqa shaxslarni javobgarlikka tortishda ko‘mak ko‘rsatadi.

Har bir bolaga davlat Konstitutsiyada va qonunlarda aks etilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlaydi, uning huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilinishini davlat organlari, masabdor shaxslar, jamoat birlashmalrining noqonuniy harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini kafolatlaydi.

Bola huquqlarini sudda himoya qilish. Bu masala Fuqarolik protsessual kodeksining 38-moddasida batafsilroq tartibga solinadi, ya'ni voyaga yetgan fuqarolar sudda o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Voyaga yetmaganlarning ya'ni, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari, shuningdek muomala layoqati cheklangan fuqarolarning sudda ularning ota-onalari, farzandlikka olgan shaxslar yoki homiylari tomonidan himoya qilinadi. Biroq, ushbu holat voyaga yetmaganlarni va muomala layoqati cheklangan shaxslarni bunday ishlarda bevosita ishtirok etish huquqidan mahrum qilmaydi.

16 yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs to'liq muomala layoqatiga ega deb e'lon qilingan holda (emansipatsiya) qonunda belgilangan tartibda o'z huquq va majburiyatlarini sudda shaxsan amalga oshirishi mumkin.

Kichik yoshdagi bolalar, ya'ni 14 yoshga to'lmaganlarning hamda ruhiy kasallik yoki aqli zaifligi sababli muomalaga layoqatsiz deb tan olingan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari sudda ularning qonuniy vakillari, ya'ni ota-onalari, farzandlikka olgan shaxslar va vasiylar tomonidan himoya qilinadi.

Nikohda va nikohsiz tug'ilgan bolalarning o'z huquqlarini himoya qilish huquqi. Ko'p hollarda qonun va amaliyot nuqtai nazaridan jamiyat nikohsiz tug'ilgan bolalarga nikohda tug'ilgan bolalarga qaraganda kamroq yuridik huquqlar berib ularni kamsitadi. (masalan, merosga bo'lgan huquq). Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya kamsitish bola huquqlarini buzadi deb belgilaydi. Unga ko'ra, davlatlar Konvensiyada ko'zda tutilgan barcha huquqlarni hech qanday kamsitishlarsiz ta'minlanilishini kafolatlashi shart (Konvensiyaning 2-moddasi).

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunda nikohda va nikohsiz to'g'ilgan bolalar davlat va jamiyat tomonidan teng hamda har taraflama himoyadan foydalanadi deb alohida ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida bolaning nasl-nasabini belgilash tartibi ko'rsatilgan.

Bolaning shu onadan tugʻilganligi (onalik) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga koʻra, bola tibbiy muassasada tugʻilmagan holda esa, boshqa dalillarga asosan belgilanadi. Ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining oʻlimi, nikohdan ajratilganligi yohud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan soʻng uch yuz kun ichida tugʻilgan bolasi nikohda tugʻilgan bola hisoblanadi.

Bolaning onasi bilan nikohda boʻlmagan shaxsning otaligi oʻzini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organigva birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi. Ona vafot etganda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati boʻlmaganda yoki u onalik huquqdan mahrum qilinganda, otalik vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan holda oʻzini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning arizasiga binoan belgilanadi. Bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan boʻlsa. Otalikni belgilash toʻgʻrisidagi arizani uning nomidan vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan uning homiysi berishi mumkin.

Oʻzaro nikohda boʻlmagan ota-onadan bola tugʻilgan taqdirda, ota-onaning birgalikdagi arizasi yoki bola otasining arizasi boʻlmasa, ushbu Kodeksning 61-moddasida koʻrsatilgan hollarda otalik sud tartibida belgilanishi mumkin.

Otalik belgilanganda bolalar ota-onasi va ularning qarindoshlariga nisbatan oʻzaro nikohda boʻlgan shaxslardan tugʻilgan bolalar bilan teng huquq va majburiyatlarga ega boʻladilar. Nikohsiz tugʻilgan bolalar jismoniy, aqliy, maʼnaviy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur boʻlgan turmush darajasiga haqli.

Bolalarni kamsitishning barcha shakllaridan himoya qilinishini taʼminlash boʻyicha choralar. Barcha bolalar bir xil huquq va erkinliklarga ega va davlat ularni kamsitilishiga yoʻl qoʻymaslik uchun choralar koʻradi, bu har bir bola huquqlarga ega va ularning himoyasi irqi, tana rangi, jinsi, tili. Dini, siyosiy va boshqa eʼtiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli,

sogʻligʻi va tugʻilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoki boshqa holatlardan qatʻi nazar taʻminlanadi.

Davlat kamsitish yoki jazolashning barcha shakllaridan bolaning himoya qilinishini taʻminlash uchun barcha zarur choralar koʻradi, bolalarga nisbatan barcha hatti-harakatlarda ular bolalar muammolari bilan shugʻullanuvchi davlat yoki boshqa muassalar, sudlar, maʼmuriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan sodir etiladimi yoʻqmi bundan qatʻi nazar bolaning manfaatlari yaxshiroq taʻminlanishiga birinchi darajali eʼtibor beriladi.

Xalqaro hujjatlardan kelib chiqqan holda kamsitish – bu jamiyat hayotining barcha sohalarida inson huquqlari va asosiy erkinliklarining boshqa bilan teng ravishda foydalanilishi yoki buuquqlar va asosiy erkinliklarning amalga oshirilishini susaytirishga yoki yoʻqqa chiqarishga qaratilgan biron bir belgilar koʻra har qanday farqlash, istisno etish yoki cheklashni anglatadi.

Irqiy kamsitishga barxam berish toʻgʻrisidagi konvensiyada va Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisidagi konvensiyada koʻzda tutilgan ushbu taʻrif bolalarga nisbatan ham qoʻllanilishi mumkin.

Shu bilan birga, bolalarga muomala qilganda barcha farqlashlarni kamsitish deb baholanilishi mumkinligini anglatmaydi. Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya (2-modda) alohida ijtimoiy himoyaga muhtoj, davlat va jamiyat tomonidan koʻrsatiladigan qoʻshimcha yordamsiz oʻz huquqlarini amalga oshira olmaydigan bolalarga nisbatan ijobiy kamsitish boʻyicha choralar koʻrishni taʻqiqlamaydi. Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga alohida eʼtibor koʻrsatilishi zarur.

Davlat bolani davlat va nodavlat organlari tomonidan kamsitilishinidan himoya qilish boʻyicha zarur choralar koʻradi. Ushbu choralar sirasiga kamsitishni qonuniy taʻqiqlanishini va kamsitishga yoʻl qoʻygan alohida shaxslarni va organlarni jazolash boʻyicha harakatlarni kiritadi. Shuningdek, davlat kampaniyalarini oʻtkazish, dasturlar va ijobiy kamsitish siyosati orqali kamsitishga

yo‘l qo‘ymaslikni targ‘ib etishi kerak.

O‘zbekistonda Konstitutsiya, ma‘muriy, fuqarolik, jinoiy, oilaviy va boshqa sohadagi qonun hujjatlar darajasida bolalarni kamsitishdan huquqiy himoya qilishning qonuniy kafolatlari belgilangan.

Bola huquqlarini cheklash uchun asoslar. Bola huquqlari, kattalarning huquqlari kabi, cheklanishi mumkin emas, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida “fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlanib qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdirdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas” deyilgan. Konstitutsiyaning 20-moddasida esa, fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlarini, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shartligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyaning 29-moddasida “har bir inson o‘z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o‘zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo‘lishini hamda hurmat qilinishini ta‘minlash, faqat ahloq, jamoat tartibi, umumiy farovonlikning odilona talablarini qondirish maqsadida qonunda belgilangan cheklashlarga rioya etishi kerak” deyilgan.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada bolaning fikrini erkin ifodalash huquqi, axborot olish huquqi (13-modda), fikrlash, vijdon va din erkinligi (14-modda) cheklanishi mumkinligini ko‘zda tutadi.

Shunday qilib, bolaa huquqlari katta inson huquqlari kabi faqat qonunda nazarda tutilgan va demokratik jamiyatda davlat xavfsizligi yoki jamiyat xavfsizligi, jamoat tartibi manfaatlarini yo‘lida, aholining sog‘lig‘i yoki ahloqiy qadriyatlarini saqlash, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur hollarda cheklanishi mumkin. Shubhasiz, bola huquqlarini cheklash qiynoqlarni, zo‘ravonlikni, qulchilikni va erksiz ahvolda ushlab turishni

ta'qiqlashga tegishli bo'lmisligi kerak. Davlat bolaning huquqlarining asossiz cheklanishlaridan sud orqali himoya qilinishini ta'minlaydi.

***BOLANING O'Z FIKRINI IFODA ETISH HUQUQI
KAFOLATLARI***

Oilada har bir bola o'z fikrini ifoda etishga, shuningdek har kandy sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama davrida o'z manfaatlariga taalluqli masalalar yuzasidan so'zlashga haqlidir.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'lidan. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir¹⁶⁸.

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning 15-moddasi, bola uning manfaatlariga tegishli bo'lgan qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqini kafolatlaydi. Unda bolaning quyidagi hollarda, ya'ni

- o'z oilasida,
- sud muhokamasida,
- ma'muriy muhokamada o'z fikrini ifoda etish huquqini alohida kafolatlaydi.

Qonunning ushbu moddasi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 12-moddasida aks etgan bolaning o'z manfaatlariga tegishli bo'lgan har qanday masalani hal qilishda o'z fikrini ifoda etish huquqiga aloqador qoidalarni amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bolalar faqat himoyaga muhtoj passiv subyektlar emas, shu bilan birga ular huquq egalari hamda o'zining va atrofdagi muhit rivojlanishining ishtirokchilaridir. Bu uchun bolalarda ularning hayotiga va umuman barcha bolalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan masalalarni xal etishda faol ishtirok etish imkoniyati bo'lishi kerak. Bola huquqlari to'g'risidagi

¹⁶⁸Barkamol avlod orzusi. //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, X.Saidov, R.Ahliddinov. -To'ldirilgan ikkinchi nashr. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.-B.17

konvensiyaning 12-moddasi g'oyatda muhim bo'lib, konvensiyaning "asosiy tamoyillari"¹⁶⁹ sifatida e'tirof etilgan, ya'ni 12-modda konvensiyaning barcha moddalarini amalga oshirishda inobatga olinishi lozim.

Bu huquqning mustahkamlanib qo'yilishi shuni ta'kidlaydiki, bola oilasida ham, ayniqsa manfaatlariga tegishli bo'lgan masalalarni hal qilishda, fikrini inobatga olish kerak bo'lgan shaxs hisoblanadi.

O'z fikrini ifoda etish huquqi bolaning o'z fikrini ifoda etish imkoniyatiga emas, uning o'z qarashlarini ifoda etish qobiliyatiga bog'liq bo'lishi lozim. Shunday qilib, na tili, na nogironligi bolaga o'z qarashlariga ega bo'lishi uchun to'siq bo'la olmaydi. Bundan tashqari, milliy tilida muloqot qila olmaydigan bolalar uchun tarjimonlarni ta'minlab berish kerak. Odatda muloqot qilishga to'siqliq qiladigan nogironlik, bunday bolalar o'z qarashlarini shaklantira olmaydi degani emas, blaki muloqotni osonlashtirish uchun zarur choralar ko'rilishi kerak.

Bolaning o'z oilasida fikrini ifoda etish huquqi. Qonunning 15-moddasi bolaga to'g'ridan-to'g'ri oilasida o'z fikrini ifoda etish huquqini beradi. Bola o'z fikrini ifoda etish mumkin bo'lgan masalalar doirasi cheklanmagan. Ota-onalar bolaning hayotiga ta'sir ko'rsatadigan qarorlarni har kuni qabul qilishi mumkin. Barcha bolalar, hattoki eng kichik yoshdagilar ham o'z qarashlariga va qarorlariga ega. Bu qarorlar diyeta, ta'lim, turmush tarzi, din va shu kabi bo'yicha masalalarga oid bo'lishi mumkin va ular ifoda etish huquqini qo'llab-quvvatlash lozim. Ushbu moddada ota-onalar, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bolalarning barcha istaklarini bajarishi kerak deyilmagan va bu ushbu moddaning maqsadi sifatida ham belgilanmagan. Ba'zi hollarda bolaning istaklariga qarshi qaror qabul qilish kerak bo'ladi. Biroq eng muhimi bolalar ularga quloq solishi lozim. Ushbu moddaga ko'ra, oilada pozitiv va ma'suliyatli muloqot tizimi ustun bo'lishi shart. Aslida, ota-onalar bolalarga kerak bo'lgan hollarda boshchilik qilib va ularni yo'naltirish bilan bolaning o'z qarashlarini samarali ifoda etish uchun qobiliyatini rivojlantirish, ularni erkin jamiyatda mustaqil hayotga tayyorlash imkoniyatini

¹⁶⁹Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 2- (amalga oshirishda kamsitmaslik), 3- (bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta'minlash) va 6-moddalari (yashash va rivojlanish huquqi) hujjatning uchta asosiy tamoyili hisoblanadi.

yaratib beradilar. Shunday qilib, bolaning xohish-istagi doimo bajarilmasa ham, e'tiborga olinishi lozim va bolalarga qabul qilinadigan qarorlarning sabablarini tushunish uchun imkoniyat berilishi kerak. Bolalar o'z ota-onalarining istaklarini passiv bajaruvchilari emas, zarur ko'nikmalarga ega bo'lgan faol hamkorlariga aylanishi kerak.

Bolaning ishtirok etish huquqi to'g'risida habardorligini oshirish.

Bolalarga o'z fikriga ega bo'lish huquqi tabiiyki barcha oilalarda ta'minlanishi lozim. Tegishli organlar bolaning fikri boshqalar tomonidan eshutilishini talab qilishga bo'lgan huquqi bo'yicha aholi orasidagi xabardorlikni oshirishi kerak. Ayniqsa, bu haqdagi bilimlarni jamiyat va, uning yacheykasi bo'lmish, oilalarda keng tarqatishi lozim. Bu huquqlarni samarali amalga oshirish maqsadida oilalarga bolaning fikrini qay tarzda eshinish kerakligi bo'yicha maslahatlar berishni tashkil etishi maqsadga muvofiq.

Biroq barcha bolalar ham o'z oilalarida o'sish va tarbiya olish imkoniyatiga ega emas. O'z ota-onasi bilan yashay olmaydigan bola maxsus bolalar muassasalarida, vasiy va homiylar tomonidan tarbiyalanishi mumkin. Bunday hollarda bolalarga tegishli qarorlarni qabul qilishda ularning fikrini inobatga olinishini ta'minlash uchun ushbu muqobil shakllar oila muhiti sifatida tan olinishi kerak.

Har qanday sud yoki ma'muriy muhokama davrida o'z fikrini ifoda etish huquqi. “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning 15-moddasi bolaga, unga taalluqli bo'lgan har qanday sud majlislarida ishtirok etish huquqini beradi. Mazkur huquq, jumladan, ajralish, farzandlikka olish, ismini o'zgartirish, turar joyini aniqlash, ta'lim kabi uning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga taalluqli bo'lgan ma'muriy, jinoyat hamda fuqarolik ishlari bo'yicha sud muhokamalarida ishtirok etish bilan bog'liq huquqlarni o'z ichiga oladi.

“Ma’muriy muhokama” degan tushuncha yanada kengroq bo‘lib, ta’lim, sog‘liqni saqlash, rejalashtirish va atrof-muhit, ijtimoiy sug‘urta, bolani himoya qilish, mehnat bandligi va ma’muriy yuvenal adliya kabi masalalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Biroq, mazkur 15-modda bolaga ovozga ega bo‘lish huquqini berish bilangina amalga oshirilishi mumkin emas. Bolalarga eng samarali usullar orqali ishtirok etish uchun imkoniyatlar berilishi kerak. Ma’muriy va sud proseduralari bolalar va yoshlar uchun qo‘rqinchli tuyulishi mumkin. Odatda proseduralar juda rasmiy xarakterga ega. Texnik, yuridik va murakkab til qo‘llaniladi. Ko‘pincha bolalar atrofda sodir bo‘layotgan narsalarni tushunishga qiynaladi. Bu omillar bolaga ishtirok etish va o‘z fikrini ifoda etish imkoniyatini qiyinlashtiradi. Shunday qilib, sud va boshqa ma’muriy organlarni bolaning ishtirok etishiga qarab moslashtirish lozim.

Bundan tashqari, bolaning fikrini eshitagan va ularni keyinchalik sud oldida ifoda etadigan mustaqil xolis shaxs ishtirokiga ham zarurat bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, bolalar o‘z fikrini ifoda etishga majbur bo‘lmasligini ham talab qilishi mumkin. Masalan, ota-onasi o‘rtasida kelishmovchilik bo‘lgan hollarda bolaga u kim bilan yashashni xohlashi to‘g‘risida gapirish yoqmasligi mumkin.

“Bolaning manfaatlariga oid barcha ishlar bo‘yicha”. Qonun bola o‘z fikrini ifoda etishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarin cheklasa ham, bola o‘z fikrini ifoda etish mumkin bo‘lgan masalalar doirasini cheklamagan – ya’ni bola uning manfaatlariga tegishli barcha masalalar bo‘yicha o‘z fikrini ifoda etishi mumkin.

Oila kodeksiga binoan, quyidagi hollarda bolaning fikrini e’tiborga olish shart:

- *nikohni bekor qilish;*
- *familiya va ismni o‘zgartirish;*
- *ota-onalik huquqlarini tiklash;*
- *ota-onalik huquqlarini amalga oshirish;*
- *farzandlikka olish;*

Yuqorida qayd etilgan vaziyatlar bolaning eng muhim manfaatlariga oid. Bola voyaga yetgan fuqaro bilan teng ravishda ismga bo'lgan huquqqa ega. Uning rozilgisiz hech kim uning ismini o'zgartirishi mumkin emas. Ota-onalik huquqlarini tiklash, farzandlik olish yoki oilaga tarbiyaga berish bolaning butun hayotini o'zgarishiga olib keladi va uni muayyan shaxslar bilan yashashga majbur qiladi. Bu harakatlar bolaning xohish istaklariga qarshi tarzda amalga oshirishi mumkin emas, hattoki u aqlsiz va asossiz tuyulsa ham. Bola – narsa emas, va uni kimgadir uning erkiga qarshi berib yuborish va erkiga qarshi u odamlar bilan yashashga majbur qilish mumkin emas.

Bolaning fikrini e'tiborga olish shuni bildiradiki, birinchidan, bolaning fikrini eshitish kerak, ikkinchidan, uning fikriga e'tiroz bo'lganda buning sabablari tushuntirilishi kerak.

Fuqarolik jarayonida ishtirok etish. Sudda o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish layoqati voyaga yetgan fuqarolar va tashkilotlarga tegishlidir.

Voyaga yetmagan, ya'ni yoshi o'n to'rtidan o'n sakkizgacha bo'lgan fuqarolarning, shuningdek muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki homiylar tomonidan himoya qilinadi. Ammo bu hol voyaga yetmaganlarni va muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarni bunday ishlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum qilmaydi.

Mehnat bilan bog'liq huquqiy munosabatlardan va olingan ish haqini yoki boshqa daromadni tasarruf etish bilan bog'liq bitimlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha voyaga yetmaganlar sudda o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini shaxsan himoya qilish huquqiga egadirlar. Bunday ishlarda voyaga yetmaganlarga yordam berish uchun ularning ota-onalarini, ularni farzandlikka olganlarni yoki homiylarni jalb qilish masalasini sud hal etadi.

O‘n olti yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muomalaga to‘la layoqatli deb e‘lon qilingan (emansipatsiya) taqdirda, u sudda o‘z huquqlari va majburiyatlarini shaxsan amalga oshirishi mumkin.

Yosh bolalarning, ya‘ni o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan fuqarolarning, shuningdek ruhiy kasallik yoki aqli zaifligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari - ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki homiyilar himoya qiladilar.

Bolaning jinoyat protsessda ishtirok etishi. Jinoiy protsessda bola protsessning boshqa ishtirokchilari bilan teng huquqlarga ega, biroq qonun-hujjatlarda bola qonuniy vakili bilan ishtirok etishi nazarda tutilgan. Voyaga yetmaganning jinoyatlari haqidagi ishni yuritishda qonuniy vakilning qatnashishi shart (Jinoyat protsessul kodeksining 549-moddasi). Jinoiy protsessual qonunchilik bolaga sud muhokamasida o‘z fikrini erkin ifoda etish huquqini beradi. Ba‘zi hollarda voyaga yetmaganlarning jinoyatlari to‘g‘risidagi ish yopiq sud majlisida ko‘riladi. Voyaga yetmagan sudlanuvchining himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek prokurorning fikrini eshitib voyaga yetmagan shaxsga salbiy ta‘sir etishi mumkin bo‘lgan holatlar tekshirilayotganda sud o‘z ajrimi bilan uni sud zalidan chiqarib turishga haqli.

Voyaga yetmagan shaxs sud zaliga qaytarilganidan so‘ng raislik qiluvchi unga yo‘qligida bo‘lib o‘tgan muhokama mazmunini yetarli hajmda va shaklda ma‘lum qiladi va uning yo‘qligida so‘roq qilingan shaxslarga savol berishi uchun voyaga yetmaganga imkoniyat yaratib beradi (Jinoyat professsual kodeksini 561-moddasi).

Ma‘muriy muhokama. Ma‘muriy muhokama deganda muayyan ish bo‘yicha fuqaroning murojaatini idora ichida ko‘rib chiqish prosedurasi chiqish tushuniladi. U o‘z ichiga muayyan tartib, tamoyillar va ish ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish muddatlarini oladi. “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunga binoan, har

qanday ariza davlat organi tomonidan bir oy ichida ko‘rib chiqilishi lozim va arizaning mazmuni bo‘yicha javob berilishi kerak.

BOLANING AXBOROT OLISH HUQUQI KAFOLATLARI

Har bir bola o‘zining sog‘lig‘i, ahloqiy va ma‘naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan axborotni olish huquqiga ega.

Har bir bola har qanday axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega, qonunda nazarda tutilgan cheklashlar bundan mustasno.

Pornografiya, shafqatsizlik va zo‘ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta‘sir ko‘rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanadi.

So‘z erkinligi - asosiy fuqarolik huquqlaridan biri bo‘lib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (19-modda), Fuqarolik va siyosiy huquqlari xalqaro pakt (19-modda), Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya hamda “Bolalar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun (16-modda), kabi xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar bilan kafolatlanadi (13-modda).

U “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 15-moddasi, ya‘ni ishtirok etish huquqi bilan bog‘liq, chunki ma‘lumotga asoslangan holda qaror qabul qilish va ishtirok etish tegishli ma‘lumotga ega bo‘lgan holda malga oshiriladi, lekin mazkur Qonunning 16-moddasi har qanday maqsadda olinadigan ma‘lumotga nisbatan qo‘llaniladi.

Internet va uyali telefon kabi zamonaviy texnologiyalar bolalarga bir biri bilan muloqotda bo‘lishga va ma‘lumot bilan almashishga katta imkoniyatlar yaratib bergan.

Biroq, ular orqali bolalar ular uchun zararli bo‘lgan ma‘lumotga ham ega

bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham, bolaning har qanday axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi mutlaq emas. Agar axborot bolalarni ma’naviy va ahloqiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lsa, bunday axborotni izlash, olish va tarqatish taqiqlanadi.

Axborot olish huquqi. Bolalar agarda ularning sog‘lig‘iga, ahloqiy va ma’naviy rivojlanishiga zarar yetkazmasa, har qanday ma’lumotni har qanday vosita orqali olish huquqiga ega.

Biroq, davlatning majburiyati bolalarga axborot olishga ruxsat berish bilangina cheklanmagan. Shu bilan birga, davlatlarga bu huquqni amalga oshirish uchun pozitiv majburiyatlar ham yuklanadi. Masalan, davlat noto‘kis bolalar va ozchilikni tashkil etadigan millatlar tilida gapiradigan bolalar uchun, ularga taalluqli axborot olish imkoniyatini yaratib berishi shart. Bu uchun maxsus va qo‘shimcha tadbirlarni o‘tkazish talab qilinishi mumkin.

***Ma’lumot bola uchun zararli ekanligini kim hal qiladi?** Davlatning zimmasiga bola u uchun zararli bo‘lgan ma’lumotga ega bo‘lishini oldini olish majburiyati ham yuklatilgan. Zararli ma’lumotlarniga yaqqol misol – pornografiya va zo‘ravonlik haqida ma’lumotlar.*

Odatda, bolalar uchun zararli axborotlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- millatlararo va dinlararo adoqat uyg‘otuvchi, terrorchilik va urushni targ‘ib qiluvchi;
- pornografik xarakterdagii buzuqli, hayosizlikni ifodalovchi;
- odobsizlik, ahloqsizlik, ota-ona va kattalarni behurmat qilish kabi milliy qadriyatlarga zid odatlarni targ‘ib qiluvchi;
- sog‘liqqa ziyon yetkazishga, jumladan, o‘z joniga qasd qilishgaa undaydigan;
- insonlar qadr-qimmatini kamsitadigan;
- shafqatsizlik, vahshiylik, zo‘ravonlikni, shuningdek, hayvonlarni azoblash, ularga ozor yetkazishni targ‘ib qiladigan;
- jinoyatchilikka chorlovchi va uni targ‘ib etuvchi;
- diniy ekstremistik g‘oyalarni ilgari suruvchi;

- missionerlik va prozelitizmni targ'ib qiluvchi;
- alkogol, tamakai va narkotik mahsulotlarni iste'mol qilishga qiziqish uyg'otuvchi;
- qimor o'yinlari, fohishabozlik va tilanchilik kabi illatlarga qiziqtiruvchi;
- haqoratlovchi so'zlarni aks ettirgan;
- bola ruhiyatiga ziyon yetkazadigan vahimali, qo'rqinchli, hayot to'g'risida noto'g'ri qraashlarni shakllantiradigan boshqa axborotlar¹⁷⁰.

Bu holatlarda davlat tomonidan muayyan filmlarni, kitoblarni va jurnallarni sotib olish uchun yosh chegarasi belgilanishi mumkin. Biroq, e'tirof etish kerakki, bolaga nima to'g'ri kelishi yoki kelmasligini aniqlashda ota-onaning o'rnini muhim (hal qiluvchi yagona omil bo'lmasada).

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 5-moddasiga binoan, davlatlar ota-onaning e'tirof etilgan huquqlarini amalga oshirishda munosib darajada bolani boshqarish va unga rahbarlik qilish hamda bu ishni bolaning rivojlanib borayotgan qobiliyatiga muvofiq holda bajarishdagi mu'suliyati, huquq va majburiyatlarini hurmat qiladilar. Shu bilan birga, ota-onaning huquqlari bolaning huquqlarini cheklamasligi lozim.

Umuman olganda, aynan ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bolalar axborot vositalaridan foydalanishini nazorat qilish uchun ma'suldirlar. Shuning uchun, davlat ota-onalarga qaror qabul qilishda ko'mak ko'rsatishi kerak, masalan ularda teledasturlar, videofilmlar, kompyuter o'yinlari va shu kabi ma'lumot bilan ta'minlab va yosh chegaralari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirishi lozim.

Lekin, ba'zi hollarda ota-onalar bolalariga berishni xohlamagan ma'lumotni davlat berishi kerak, deb topishi mumkin. Bunday hollarda huquqlar o'rtasida nizo kelib chiqadi, uni bolaning manfaatlaridan kelib chiqqan holda hal etish kerak.

Jinsiy salomatlik haqida ma'lumot. *BMTning Bola huquqlari qo'mitasi o'smirlarga jinsiy salomatlik to'g'risidagi ma'lumotni berish masalasini ko'rib*

¹⁷⁰ Karimova D. Bolalarni zararli axborotlardan himoyalashning qonuniy asoslari. //Demokratlashtirish va inson huquqlari. -№3, 2013. –B.32

chiqdi. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 24-moddasi (sog'liqqa bo'lgan huquq), 3-moddasi (bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta'minlash) va 17-moddasi (bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun axborot olish huquqi)ni e'tiborga olgan holda Qo'mita shunday xulosaga keldiki, davlatlarga bolalarga jinsiy va reproduktiv sog'liq, oilani rejalashtirish va kontrasepsiya, erta homiladorlikning xavfi, OITSni oldini olish va jinsiy aloqalar orqali yuqadigan kasalliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni bolalar berish kerak. Qo'mitaning fikriga ko'ra, bunday holatlarda, davlatlar o'smirlarga oilaviy ahvolidan, ota-onasi yoki vasiylarining roziligidan qat'iy nazar tegishli ma'lumotni berishi shart¹⁷¹.

Imkoniyatlari cheklangan bolalarning axborot olish huquqini ta'minlash. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 21 –moddasi¹⁷² davlat zimmasiga noto'kis insonlar bu huquq har qanday turdagi axborotni, chegarasidan qat'iy nazar, og'zaki, yozma yoki bosma shaklda, san'at asari ko'rinishida yoki bolaning tanloviga ko'ra boshqa vositalar yordamida izlash, olish va uzatish erkinligini ta'minlash majburiyatini yuklaydi.

Bu huquqni amalga oshirishda cheklovlar. Qonunning 16-moddasi 2-qismiga binoan, har bir bola har qanday axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega, qonunda nazarda tutilgan cheklashlar bundan mustasno. Bunday cheklovlar xalqaro standartlarga mos kelishi lozim va bu huquqning mazmuniga zid kelmasligi kerak.

Xalqaro standartlarda o'z o'zini namoyon etish erkinligiga nisbatan qonuniy cheklovlar qo'yilishi kerakligi e'tirof etadi, chunki bu huquq maxsus majburiyatlar va javobgarlik bilan birgalikda amalga oshiriladi. (Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktning 19-moddasi 3-bandi). Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 13-moddasiga binoan, bunday huquqning amalga oshirilishi ba'zi bir cheklashlarga duch kelishi mumkin, biroq bunday cheklashlar faqat qonunda ko'zda tutilgan cheklashlardan iborat bo'ladi, bu quyidagilar uchun zarur: a) boshqa shaxslarning huquqlari va obro'sini hurmat qilish uchun; b) davlat xavfsizligi yoki jamoat tartibini (ordre public), aholining sog'lig'i yoki ma'naviyatini muhofaza qilish uchun.

Ta'kidlash joizki, ozodlikdan mahrum bo'lgan bolalar ham bu huquqidan mahrum etilishi kerak emas.

Ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan bolalar. 1990-yilda qabul qilingan BMTning ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmaganlarni himoya qilish to'g'risidagi qoidalari ta'kidlashicha, "ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmaganlar ozodlikdan mahrum etilgan holatiga zid kelmaydigan o'zlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlaridan mahrum etilishi mumkin emas"(13 qoida). Ular so'z erkinligiga ega. 62 qoidaga binoan, ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmaganlar ommaviy axborot vositalaridan foydalanish huquqiga ega bo'lishlari kerak. "Gazeta o'qish, davriy matbuot va boshqari nashriyotlar orqali, radio va teledasturlar va filmlar ko'rish orqali yangiliklardan habardor bo'lib turish huquqiga ega".

Ommaviy axborot vositalari. Ommaviy axborot vositalari bolaning axborotni izlash, olish va berish huquqini amalga oshirishda muhim o'rin tutadilar. Shu bilan birga, bolalarni OAVning salbiy ta'siridan himoya qilish uchun davlat tomonidan choralar ko'rilishi bilan OAVni ijobiy kuchga aylanishi mumkin va u davlat tomonidan rag'batlantirilishi kerak.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 17-moddasi bolalar rivojlanishiga ko'maklashishga qaratilgan axborotlardan bahramand bo'lishiga alohida urg'u berilgan. 7-moddaga binoan, shu maqsadda ishtirokchi-davlatlar: a) ommaviy axborot vositalarini ijtimoiy va madaniy yo'nalishdagi hamda 29-modda ruhidagi bola uchun foydali axborot va materiallarni tarqatishga rag'batlantiradilar; b) turli xil madaniy, milliy va xalqaro manbalardan bunday axborot va materiallar tayyorlash, ayirboshlash hamda tarqatish sohasidagi xalqaro hamkorlikni rag'batlantiradilar; s) bolalar adabiyotini nashr etish va tarqatishni rag'batlantiradilar; d) ommaviy axborot vositalarining ozchilikni tashkil qiluvchi guruh yoki tub aholiga mansub bolaning til ehtiyojlariga alohida e'tibor berishni rag'batlantiradilar.

Nogiron bolalarning axborotga ega bo'lish huquqinin ta'minlash uchun qo'shimcha va alohida choralar ko'rilishi talab qilinishi mumkin.

Pornografiya, zo'ravonlik va shafqatsizlikni namoyish etadigan ommaviy axborot vositalarni taqiqlash. Ommaviy axborot vositalari orqali zo'ravonlikni namoyish etishning bolalarga, ularning jismoni va ruhiy sog'lig'iga salbiy ta'siri ko'p mamlakatlarni havotirga solmoqda.

Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunning 16-moddasi OAV, adabiyot va filmlardan pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlik targ'ib qilish maqsadida foydalanishni man etadi. Bu juda qattiq chora bo'lib, bolalarni kattalarning o'zini namoyon etish erkinligidan himoya qilishga qaratilgan va Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qaraganda kengroq mazmuniga ega bo'lib, bolalarni bunday axborotdan foydalanishiga yo'l qo'ymaslikka majburlaydi.

Pornografiya tushunchasiga ta'rif.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga bolalar savdosi, fohishabozligi va pornografiyasi to'g'risidagi qo'shimcha protokolga binoan, bolalar pornografiyasi – bu bolaning haqiqiy yoki uyushtirilgan ochiq seksual faoliyatdagi ishtirokini har qanday vositalar orqali aks ettiruvchi tasvirni, yoki asosan shahvoniy maqsadlar uchun bolaning jinsiy a'zolarini aks ettiruvchi har qanday tasvirni anglatadi.

Shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi ma'lumotdan himoya qilish. Qonunchilik bilan urush va zo'ravonlikni, shafqatsizlikni, milliy, irqiy va diniy adovatni qo'zg'atishni targ'ib qilish taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi qonunining 7-moddasiga binoan, quyidagi reklama taqiqlanadi:

faqat voyaga yetganlarga mo'ljallangan yoki voyaga yetmaganlarning olishi yoxud iste'mol qilishi taqiqlangan mahsulotni voyaga yetmaganlar iste'mol qilayotgan yoki undan foydalanayotgan tasvir tushirilgan reklama;

voyaga yetmaganlarni mahsulot olishga yoki reklama qilayotgan mahsulotni olishni iltimos qilib uchinchi shaxslarga murojaat etishga da'vat qiluvchi reklama;

haqiqiy yoki o'yinchoq quroldan foydalanilgan reklama.

Shuningdek, qonunga binoan, voyaga yetmaganlarga tamaki, tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarning nomi, tovar belgisi tushirilgan tovarlarni (futbol-maykalari, bosh kiyimlar, o'yinlar va shu kabilarni) tarqatish, shu jumladan, sotish;

Voyaga yetmaganlarga mo'ljallangan bosma nashrlarda tamaki, tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni reklama qilish;

**BOLANING FIKRLASH, SO'Z, VIJDON VA E'TIQOD ERKINLIGI
HUQUQI KAFOLATLARI**

*Bola fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.
Bolaning fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi qonunda belgilangan
tartibda cheklanishi mumkin.*

"Bolalar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 17-moddasida bolaning fikr, din va e'tiqod erkinligi bilan birgalikda yozma va og'zaki shakldagi axborotni olish va berish huquqi, ya'ni so'z erkinligi bayon etilgan. O'z o'zini namoyon etishning boshqa jihatlari Qonunning 16-moddasida yoritilgan edi.

Bu huquqlar asosiy fuqarolik va siyosiy huquqlar hisoblanadi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida (18-19-moddalarda) va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda (18-19- moddalar) va Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada (13- va 14-moddalar) aks etgan.

Fikr yuritish erkinligi. Bolaning fikr yuritish erkinligi uning axborot olish huquqi va ta'lim olish huquqi bilan bevosita bog'liq.

Fikrlash erkinligi – bu soʻz erkinligi orqali amalga oshiriladigan va oʻz fikrini erkin soʻzlash hamda shu fikrlarni boshqa shaxslarning eʼtiboriga havola qilishdir¹⁷³. Bolaning fikr yuritish erkinligi deganda, bolaning bilimi va hayotiy tajribasi orqali shakllangan fikrini erkin ifoda qilishi tushunilib, bu ifoda qilish soʻz

Bolaning shaxsiy hayotining daxlstizligini himoya qilini koʻzda tutgan holda, Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya bolalarni oʻz fikrini aytishga majburlash mumkin emasligini bildiradi.

Eʼtiqod erkinligi. Ong va fikr tushunchalari maʼnodosh hisoblansada, ong tushunchasi fikr tushunchasidan kengroq. Bu biron bir aniq narsaga ishonchni bildiradi. Bu kabi masalalar ovqatlanish (misol uchun, vegetarianlik) yoki tabiiy muhitga nisbatan boʻlishi mumkin.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasiga muvofiq, “Har bir inson eʼtiqod erkinligi va uni erkin ifoda etish qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir toʻsiqsiz oʻz eʼtiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va gʻoyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qatʼi nazar izlash, olish va tarqatish erkinligini oʻz ichiga oladi”.

Demokratik jamiyatda har kim oʻz eʼtiqodiga asoslangan holda, jamiyat, davlat hayoti va ijtimoiy-siyosiy muammolarga doir fikr va mulohazalarini erkin bayon qilish huquqiga ega¹⁷⁴.

Inson va fuqarolarning fikrlash vva eʼtiqod erkinligi huquqi soʻz erkinligi orqali, yaʼni ularni ochiq tarzda izhor qilish hamda boshqa shaxslarga yetkazish orqali amalga oshiriladi.

Oʻz dini yoki eʼtiqodini targʻib qilish erkinligi faqat qonunda belgilangan hamda davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholining maʼnaviyati va sogʻligʻini

¹⁷³Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi. –T.: Oʻzbekiston, 2013. -B.151

¹⁷⁴Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi. –T.: Oʻzbekiston, 2013. -B.150

saqlash yoki boshqa shaxslarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur hisoblangandagina cheklanishi mumkin

Vijdon erkinligi. Konvensiyaning 14 - moddasi bolaning vijdon va din erkinligini himoya qiladi. Konvensiyaning 30-moddasiga binoan, etnik, diniy yoki til jihatdan ozchilikni tashkil qiluvchi yohud tub aholiga mansub shaxslar yashaydigan davlatlarda ana shunday ozchilikka yoki tub aholiga mansub bolaning mazkur guruh boshqa a'zolari bilan birgalikda o'z madaniyatidan foydalanish, o'z diniga e'tiqod qilish va uning rasm-rusumlarini bajarish, shuningdek, ona tilidan foydalanish huquqi rad etilmasligi lozim.

Vijdon erkinligi bu ma'noda din erkinligi deb qaralishi mumkin. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda quyidagi holatlar aks etgan:

- o'z xohishiga ko'ra maslakka yoki dinga ega bo'lish;
- tushunchaga va dinga ega bo'lish;
- o'z maslagi va dinini o'zgartirish;
- dinga va maslakka bir o'zi, birgalikda e'tiqod qilish, ommaviy yoki shaxsiy tartibda dinni o'rganish va sig'inish;
- diniy rasm-rusm va toat-ibodat marosimlarini o'tkazish;
- ota-onalarga yoki qarovchilarga o'z tushunchalariga amal qiligan holda.

O'zlarining bolalarini diniy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashni ta'minlash¹⁷⁵.

Mamlakatimizda vijdon erkinligi va diniy e'tifod erkinligi masalalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun (yangi tahriri) va boshqa qonunchilik bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun (yangi tahriri)ning 3-moddasida asosan vijdon erkinligi – fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Bolaning vijdon va din erkinligini ta'minlashda ota-onaning va qonuniy vasiylar o'rni. Bolalar fikr yuritish, vijdon va din erkinligiga ega va ularni amalga

¹⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi. –T.: O'zbekiston, 2013. -B.150

oshirishga haqli. Biroq, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga binoan, ota-onalar o'zlarining shaxsiy e'tiqodiga muvofiq bolalariga diniy va ahloqiy tarbiyalash huquqiga ega. Bundan tashqari, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga ham binoan, ota-ona hamda tegishli holatlarda qonuniy vasiylarning bolaga uning rivojlanayotgan qobiliyatlariga muvofiq keladigan usul orqali bola huquqini amalga oshirishda rahbarlik qilish huquqiga ega. Biroq bunday rahbarlik bolaning qobiliyatlariga muvofiq bo'lishi kerak.

Bola hayotiy tajribasi yetarli emasligi va ruhiy kamolotga yetmaganligi bois bu masallarni o'zi hal etmaydi. Shu bois boshqalarnig ta'siriga tushib qolishi mumkin. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda ushbu holat e'tiborga olingan.

Qonunning 3-moddasiga binoan, voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi. Bunday harakat jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

Ta'lim tizimi va vijdon erkinligi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 18 moddasining 4-bandiga binoan, ota-onalar o'z bolalarining o'z shaxsiy e'tiqodiga muvofiq diniy va ahloqiy tarbiyalash huquqiga ega.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bolaga o'z ixtiyoriga qarab din va etika mashg'ulotlariga qatnash yoki qatnamaslik huquqini beradi, ota-onalar esa bolaning imkoniyatlariga qarab faqat yo'nalish berishlari mumkin. Masalan, 17 yoshli bola bunday darslarga qatnashishni o'zi xal ishi mumkin bo'lsa, 7 yoshli bola haqida so'z ketganda, bu masala ota-ona tomonidan hal etiladi.

Bunga qo'shimcha tariqasida, diniy ta'lim faqat bitta din bo'yicha ma'lumot berilmasligi kerak, diniy ta'lim berganda boshqa dinlarga oid ma'lumotlarni ham berilishi lozim.

"Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuning 7-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgan. Ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta’lim olish huquqi ularning dinga bo‘lgan munosabatidan qat’i nazar ta’minlanadi.

Cheklovlar. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasi 4-qismiga binoan, dinga e’tiqod qilish yoki o‘zga e’tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan darajadagina cheklanishi mumkin.

So‘z erkinligi. So‘z erkinligininng qadri shundaki, ommaviy baxs-mulohazalar boshqa ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun foydali vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, shaxsiy fikrini bildirish har bir inson uchun ahamiyatli.

Xalqaro standartlarda so‘z erkinligi bayon etilmagan. Uning o‘rniga har qanday turdagi axborotni, chegarasidan qat’iy nazar, og‘zaki, yozma yoki bosma shaklda olish va berish huquqi aks etilgan (Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 13-moddasi hamda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasi).

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida har kimga so‘z erkinligini kafolatlaydi. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasiga binoan, davlat har kimning axborotni izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqini himoya qiladi

2. Bolalarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari

Siyosiy huquqlar – fuqaroning subyektiv huquq va erkinliklarining muhim kategoriyasini tashkil etadi. Bu huquqlar qonun tomonidan ta’minlangan insonning davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok eta olishi (individual va jamoa holda) va shu bilan davlat hokimiyatini amalga oshirishi bilan bog‘liq bo‘lgan ommaviy hokimiyatga ega bo‘lish imkoniyatidir. Siyosiy huquqlar inson huquqlarining boshqa turlari mavjudligining bevosita sharti hisoblanadi, chunki ular organik

ravishda bir-biridan ajralmas bo‘lib, demokratiya tizimining asosini tashkil etadi va hokimiyatni cheklaydigan hamda o‘z faoliyatini yo‘naltiradigan qadriyat sifatida-maydonga chiqadi¹⁷⁶.

Siyosiy huquqlar boshqa huquq va erkinliklarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Chunki, birinchidan, siyosiy huquqlar davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ikkinchidan, bu huquqlar, o‘z tabiatiga ko‘ra inson tug‘ilganidanoq ega bo‘ladigan va uzviy hisoblangan asosiy shaxsiy huquqlardan farqli o‘laroq, davlat fuqaroligiga ega bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Bu farqlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsiy va iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar “har kim”, siyosiy huquqlar esa, “fuqarolar” deb aniq yo‘naltirilganligida o‘z ifodasini topgan. Konstitutsiyamizda fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini amalga oshirish shakllari ifodalangan.

Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita ishtirok etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, saylov va referendumlarda bevosita qatnashishlari va o‘z ovozlari berishlarida namoyon bo‘ladi. Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqi esa oliy va mahalliy vakillik organlariga saylaydigan o‘z vakillari orqali davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda qatnashishlarini ifodalaydi¹⁷⁷.

Qayd etish lozimki, bu borada bolalar kattalarga nisbatan kamroq siyosiy huquqlarga ega. Chunki, bu ularning intellektual jihatdan to‘la qonli shaxs sifatida shakllanmaganligi, ya’ni muomala layoqatiga ega emasligi yoki qisman ega ekanligi bilan bog‘liqdir. Albatta, o‘n yoshli yoki o‘n besh yoshli bolaga davlatni boshqarishni ishonib bo‘lmaydi, bu tushunarli. Shuning uchun ham bolalar davlat va jamiyatni boshqaruvida, ularga bo‘ladigan saylovlarda ishtirok eta olmaydilar. Shuning uchun ham, bunday huquqlar xalqaro standartlarda ham, milliy qonunchilikda ham o‘z aksini topmaydi.

¹⁷⁶Muminov A. Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas’ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T. Adolat, 2013 – B.301

¹⁷⁷O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi. –T.: O‘zbekiston, 2013. -B.154-155

Ammo, bu degani bolalar siyosiy huquqlarga egalik qila olmaydi degani emas. Ular ham muayyan darajada siyosiy huquqlarga ega.

Jumladan, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 15-moddasining 1-bandi Ishtirokchi-davlatlar bolaning assotsiatsiya va tinch yig'ilishlar erkinligi huquqini e'tirof etishini ko'zda tutadi. Mazkur moddaning 2-bandiga binoan, qonunga muvofiq qo'llaniladigan va demokratik jamiyatda davlat xavfsizligi yoki jamiyat xavfsizligi, jamoat tartibi (ordre public) manfaatlari yo'lida, aholining sog'lig'i yoki ma'naviyatini saqlash, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan cheklashlar istisno qilgan holda, bu huquqning amalga oshiriliga nisbatan biror-bir cheklovlar qo'yilishi mumkin emas.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega ekanliklari, 34-moddasida esa, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egaliklari ko'rsatib o'tilgan.

Ijtimoiy uyushmalar a'zoligiga qabul qilinishi yoki kirish uning nizomida yozilgan shartlarga muvofiq ko'ngilli ravishda amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda, bolalarning ijtimoiy uyushmalarga birlashishga bo'lgan huquqi *"Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati* va uning homiyligi faoliyat yurituvchi *"Kamalak" bolalar tashkilotiga* birlashishi orqali ko'rishimiz mumkin.



O'zbekiston "Kamolot" YoIH mamlakatimiz yoshlarin ixtiyoriylik, oshkoralik, huquq va majburiyatlar tengligi tamoyili asosida birlashtiradigan nodavlat notijorat tashkilotidir.

Harakat o'z safiga 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 5,5 mln O'zbekiston yoshlarini birlashtiradi.

Harakat o'z Ustaviga ega bo'lib, unga ko'ra, Harakat jismoniy shaxslar tomonidan jamoat birlashmasi tashkiliy-huquqiy shaklida tuzilgan, jismonan

sogʻlom, maʼnaviy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, uni tashqi tahdidlar va “ommaviy madaniyat”ning zararli taʼsiridan muhofaza qilish, yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga har tomonlama koʻmaklashish va shart-sharoitlarni yaratish maqsadida Oʻzbekiston yoshlarining birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotidir.

Harakatning asosiy maqsadi – mamlakat yoshlarini ozod va obod Vatan yaratishdek ulugʻ maqsad yoʻlida birlashtirish, milliy gʻoyaga tayangan holda mustaqil Oʻzbekistonning jismonan sogʻlom, maʼnaviy yetuk, dunyoqarashi teran va mustaqil fikrlovchi, milliy va umumbashariy qatriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni, bozor iqtisodiyoti asoslarini chuqur egallagan yoshlarni voyaga yetkazishga har tomonlama koʻmaklashish, oʻsib kelayotgan avlodning inson huquqlari va qadr-qimmatini ulugʻlashga, xalqimizning obroʻsi va nufuzini, yurtimizning shon-shuhratini oshirishga xizmat qiladigan uzoq muddatli keng koʻlamli ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy-maʼrifiy jarayonlardagi faol ishtirokini taʼminlashdan iboratdir¹⁷⁸.

Harakatning tashkiliy negizini boshlangʻich tashkilotlar tashkil etadi. Boshlangʻich tashkilotlar Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy boʻlinishiga muvofiq Harakatning tuman va shaxar boʻlimlariga birlashadilar. Boshlangʻich tashkilot kamida besh nafar Harakat aʼzosining xohishiga asosan, ularning yigʻilishi qarori bilan tuziladi. Harakatda aʼzolik yoshidagi oʻz qiziqishlari boʻyicha hamda turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish maqsadida Harakat tizimlari qoshida tuziladigan turli klublar va markazlarga birlashishlari mumkin.

Harakatning tuman va shahar boʻlimlari Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boʻlimlariga birlashadilar.



Kamolot Yoshlar ijtimoiy harakati homiyligida respublika “Kamalak” bolalar tashkiloti faoliyat yuritadi.

“Kamalak” bolalar tashkiloti oʻz safiga oʻn yoshdan oʻn toʻrt yoshgacha boʻlgan bolalarni va oʻsmirlarni milliy istiqlol gʻoyasi asosida Vatanning sodiq farzandlari

¹⁷⁸Kamolot nima? http://kamolot.uz/kamolot_nima.html

etib tarbiyalash, huquq va manfaatlarini ifodalash va himoya qilish, qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida ixtiyoriy ravishda birlashtiradi¹⁷⁹.

Bolalarnig yana bir siyosiy huquqi sifatida, ularning murojaat qilish huquqini e'tirof etish kerak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasiga ko'ra har bir shaxs o'zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) va 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar a qarorlar ustidan sudga shikoyat qiliish to'g'risida"gi, qonunlarida fuqarolarning huquqiy sohalardagi murojaatlarini asosiy qoidalari, ko'rib chiqish tartibi, muddati va hal etish prinsiplari belgilangan. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonun kabi, inson huquqlariga oid maxsus qonunlarda ham fuqarolarning murojaat qilish huquqlari belgilab qo'yilgan. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2010-yildagi faoliyati bo'yicha Hisobotida bola huquqlarini buzilganligi to'g'risida 168 ta murojaat kelib tushgan¹⁸⁰.

Vakolatli organlarga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish – bu fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishining amaliy shakllaridan biri bo'lib, bu huquq – fuqarolarning siyosiy faolligini namoyon qilish, ijtimoiy ishlarga qiziqishini, shuningdek, o'zlarining huquqlarini himoya qilishning muhim vositalaridan biridir¹⁸¹.

"Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi Qonunga binoan, bola huquqlari va erkinliklari buzilgan taqdirda, uning huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun to'siqlar bo'lganda sudga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin. Shikoyat ota-

¹⁷⁹Kamolot nima? http://kamolot.uz/kamolot_nima.html

¹⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakilining (ombudsmanning) 2010-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. –Toshkent, 2011. –B.81

¹⁸¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi. –T.: O'zbekiston, 2013.–B.165

onalar yoki boshqa qonuniy vakillar tomonidan, bola 14 yoshga to'lgandan keyin – yashash joyiga yoki harakatlari ustidan shikoyat qilinayotgan organ yoki mansabdor shaxs joylashgan joyiga qarab bevosita bolaning o'zi tomonidan sudga beriladi.

Murojaat qilish huquqining mohiyati shundaki, vakolatli davlat organlariga fuqarolar ariza, taklif va shikoyat bilan murojaat qilganlarida bu organlarning rahbarlari tomonidan fuqarolarning taklif va arizalarini ko'rib chiqishlari rad etilishi mumkin emas.

Ariza, taklif, shikoyatlarda tashkilot, muassasalar faoliyatini yaxshilash bilan bir qatorda, ularning faoliyatidagi kamchiliklarni ko'rsatuvchi va davlat hayotiga oid ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy tavsifdagi kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari ham taklif etilishi mumkin. bu fuqarolarning jamiyat ishlarini boshqarishidagi eng samarali usuldir¹⁸².

Ombudsmanning bola huquqlarini buzilish bilan holatlar bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqish natijasida Hisobotda “Afsuski, ijobiy hal qilingan shkiotyalarnig 30 foizga yaqini bolalar hayoti va faoliyatining turli sohalarida ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi bilan bog'liqdir. Yuzaga kelgan vaziyat O'zbekistonda bolalar huquqlarini ta'minlash sohasidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan nazoratni va mansabdor shaxslarning javobgarligini “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunga muvofiq kuchaytirish lozimligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi”, deb xulosa qilinmoqda. ¹⁸³.

Qayd etish kerakki, barcha fuqarolarga taalluqli murojaat qilish huquqi, o'z navbatida bolalarga ham taalluqlidir. Bolalarning bu huquqlari o'zlari, yoki odatda ularning qonuniy vakillari orqali amalga oshiriladi. bolalarning bu huquqlardan o'zlari foydalanishi, yoki ota-onalari yo bo'lmasa boshqa qonuniy vakillari orqali foydalanishi qonunchilikda batafsil ko'rsatib o'tilgan.

¹⁸² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi. –T.: O'zbekiston, 2013.-B.166

¹⁸³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakilining (ombudsmanning) 2010-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. –Toshkent, 2011. –B.81

Bolalarning siyosiy huquqlari bo'yicha xulosa qilish mumkinki, birinchidan, bolaning davlat va jamiyat boshqarish bilan bog'liq masalalardan ishtirok etishi bilan bog'liq huquqi, uning shaxsiy huquq va erkinliklariga nisbatan cheklanganligi cheklanganligi bilan xarakterlanadi va bu cheklanish uning muomala layoqatining cheklanganligi bilan asoslanadi. Ikkinchidan esa, bolalar "Kamolot" YoIH, kabi birlashmalarga birlashish orqali, o'zalarining huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini nafaqat himoya qilishi mumkin, balki ular bilan bog'liq muammolarni hal qilish bilan bog'liq siyosiy hayotda faollik ko'rsatishi mumkin. Uchindan esa, murojaat qilish huquqini amalga oshirish orqali, o'zlari yoki ularning qonuniy vakillari orqali nafaqat o'z huquq va erkinliklarini amalga oshiradi, himoya qiladi va tiklaydi, balki ularga mutassadi tashkilotlar, organlar va mansabdor shaxslarning bu huquqlarni ta'minlash bilan bog'liq vakolatlari va majburiyatlarini samarali bajarishiga, jamiyatni "yaxshi boshqarish" tizimini takomillashtirishga ko'maklashadi.

3. Bolalarning shaxsiy huquq va erkinliklari hamda siyosiy huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik bola huquqlarining kafolat sifatida va uning huquqiy asoslari.

Bola huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ta'minlashda, ularning buzilganligi uchun, bunday huquqbuzarlik uchun yetgishli ravishda javobgarlikka tortish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, har qanday buzilgan huquqni tiklashda, bunday huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan tegishli ravishda javobgarlik belgilanishi bola huquqlarini tiklash bo'yicha odilsudlovning muhim vazifasi hisoblanadi. Huquqbuzarlikka qarshi jazoning muqarrarligi, adolat tamoyilining asosiy mezonidir.

Bolaning odil sudlov sohasidagi huquqlarini, shaxsiy daxlsizlik huquqini, bolani ekspluatatsiya va zo'ravonlikning barcha shakllaridan, qiynoqlardan yoki muomalaning boshqa shafqatsiz, qo'pol yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi shakllaridan, jinsiy zo'ravonlikda, o'g'irlanish, jinoiy faoliyatga jalb qilinishdan va

va shu kabi huquqlarini ta'minlash bolaning yashash huquqini ta'minlash bo'yicha davlat faoliyatining eng muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Bola huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzganlik uchun, sodir etilgan huquqbuzarlikning xarakteriga qarab, huquqbuzar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan ma'muriy, jinoiy, fuqarolik yoki moddiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Quyidagi bunday huquqbuzarliklar uchun javobgarlik turlariga to'htalib o'tamiz.

Ma'muriy javobgarlik. O'zbekiston Respublikasi MJtKning "Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbuzarliklar" deb nomlanadigan 5-bobida bola huquqlarini ta'minlash sohasidagi huquqbuzarliklarning turli xillari uchun javobgarlikni ko'zda tutgan bir qator moddalar mustahkamlanib qo'yilgan. Masalan, 43-moddada fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishni g'ayriqonuniy tarzda rad etganlik, murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzganlik, asossiz, qonunga zid qaror qabul qilganlik, shuningdek fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklashni, shikoyat munosabati bilan qabul qilingan qarorni real bajarishni ta'minlamaganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini hamda uning shaxsiy hayotiga noqonuniy aralashishdan himoya qilinishga bo'lgan huquqi buzilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi ma'muriy qonunchiligida javobgarlik ko'zda tutilgan. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasiga binoan, tuhmat qilish, ya'ni bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish tegishli miqdorda jarima to'lashga olib keladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 41-moddasiga asosan, haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash tegishlicha miqdorda jarima undirilishga olib keladi.

Bolaning zararli axborotlardan himoya qilish huquqini buzganlik uchun javobgarlik masalasi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 189-moddasida ko'zda tutiladi. Unda, *pornografik mazmundagi materiallarni tarqatish uchun*, ya'ni pornografik mazmundagi asarlar, bosma nashrlar, ashyolarning

tasvirlari, kino-video filmlar, teleradio dasturlar, video va ovoz yozuvli materiallar, kino-foto materiallar va boshqa mahsulotlarni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish uchun javobgarlik ko'zda tutilgan.

Jinoiy javobgarlik. Bola huquqlarining buzilishi jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi mumkin. Jinoyat kodeksining bir qator moddalarida bola huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Masalan, yashash huquqini buzganlik (o'ldirish) uchun javobgarlikni ko'zda tutgan quyidagilar moddalarni misol sifatida keltirish mumkin: 97-modda (qasddan o'ldirish), 98-modda (kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish), 100-modda (onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirish), 102-modda (ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish), 103-modda (o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish) va boshqa moddalar

Bolaning shaxsiy daxlsizligini buzganlik uchun JKning 104-106 va 109-111 moddalarida, ya'ni qasddan badanga shikast yetkazish va qiynash uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, 235-moddada qiynoqlar va muomalaning va jazoning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy va qadr-qimmatni kamsituvchi turlari uchun sanksiyalar belgilangan. Shahvoniy zo'ravonlik orqali shaxsiy daxlsizlikni buzish uchun 118-moddada (nomusga tegish) va 119-moddada (jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish) javobgarlik ko'zda tutilgan. Bolaga nisbatan bunday jinoyatlarni sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holat hisoblanib, ular uchun og'irroq jazo tayinlanadi.

Jinoyat kodeksida oilaga, yoshlarga va ahloqqa qarshi jinoyatlarga bag'ishlangan alohida bob (5-bob) mavjud bo'lib, unda voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash uchun (122-modda), bolani almashtirib qo'yish (124-modda), farzandlikka olish sirini oshkor qilish (125-modda), voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy hatti-harakatlarga jalb qilish (127-modda), 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish (128-modda), 16 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz buzuvchi harakatlar qilish (129-modda), pornografik narsalarni tayyorlash yoki tarqatish (130-modda), fohishaxona saqlash yoki qo'shmachilik qilish (131-modda) uchun javobgarlik

belgilangan.

Bolaning shahvoniy zo‘ravonlikdan himoya qilinish huquqi, bu huquqni buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi jinoiy qonunchiligida tegishli javobgarlik ko‘zda tutilishi bilan kafolatlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 118-121 moddalarida nomusga tegish va bir qator boshqa jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida 16 yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqaga kirish (128-modda), 16 yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz buzuq harakatlar qilish (129-modda), pornografik narsalar tayyorlash va tarqatish (130-modda), fohishaxona saqlash yoki qo‘shmachilik qilish (131-modda) uchun javobgarlik ko‘zda tutilgan.

Pornografik narsalarni tayyorlash va tarqatish uchun ham jinoiy javobgarlik ham ko‘zda tutilgan. Jinoyat kodeksining 130-moddasiga binoan, namoyish qilish yoki tarqatish maqsadida pornografik narsalarni tayyorlash, shuningdek ularni 21 yoshga to‘lmagan shaxslar o‘rtasida namoyish qilish yoki tarqatish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa jinoiy javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 127-moddasiga binoan, voyaga yetmagan shaxsni tilamchilikka, spirtli ichimliklar iste‘mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta‘sir qiladigan vosita va moddalarni iste‘mol etishga jalb qilish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, tegishli miqdorda jarima yoki tegishli muddatlarga ahloq tuzatish ishlari yoxud qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste‘mol etishga jalb qilish – tegishli muddatgacha qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni jinoyat qilishga jalb etish, shuningdek ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda muomalaga chiqarish bilan bog'liq har qanday jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;

v) o'quv yurtlarida yoki o'quvchilar, studentlar o'quv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlari o'tkazadigan boshqa joylarda sodir etilishi – aybni og'irlashtiradi va jazoni muddatini tegishli darajada oshiradi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuning 14-moddasini buzganlik, ya'ni bolani g'ayriqonuniy ko'chirilishi uchun JKning 135-moddasida (odam savdosi) va 137-moddasida (odamni o'g'irlash) javobgarlik ko'zda tutilgan. Bolaga nisbatan bunday jinoyatlarni sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holat hisoblanib, ular uchun og'irroq jazo tayinlanadi.

Jinoyat kodeksining 135-moddasida odam savdosi bilan bog'liq harakatlar uchun, ya'ni kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yohud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash hokimiyatni suiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki kabul qilish, odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanish yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini majburiy mehnat yoki xizmatlarni qullik yoki qullikka o'xshash odatlarni erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan.

Odam savdosi uchun jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksining 135-moddasida ko'zda tutilgan bo'lib, unga binoan bu jinoyat aybdorga oldindan ma'lum bo'lgan 18 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan sodir etilsa jazoni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi va tegishli muddatga ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

Ta'kidlash joizki, Jinoyat kodeksida fuqarolarning, jumladan, bolalarning konstitutsiyaviy huquqlarini buzish uchun, jumladan fuqarolarning teng huquqligini (141-modda), turar joy daxlsizligini (142-modda), fuqarolarning

murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarni (144-modda), vijdon erkinligini (145-modda), mehnat qilish huquqini (148-modda) buzish uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Jumladan, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga binoan, voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi. Bu normani buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 145-moddasi, 2-qismiga binoan tegishli jinoiy javobgarlik ko'zda tutiladi.

O'zbekiston 1995-yil BMTning Qiynoq va muomalaning va jazoning shafqatsiz, noinsoniy va qadr qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilishi O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksida qiynoqlarni qo'llash uchun jinoiy javobgarlikni belgilash uchun ko'mak bo'ldi.

Jinoyat kodeksining 235-moddasiga binoan, ko'rsatuv berishga majbur qilish ya'ni surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan ko'rsatuv berishga majbur qilish maqsadida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh jablanuvchi yoki ekspertga nisbatan qo'rqitish, urish, do'pposlash, qiynash, azob berish badanga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish yoki qonuga xilof boshqa harakatlar bilan ruhiy yoki jismoniy ta'sir ko'rsatish uchun – jiniy javobgarlik ko'zda tutilgan. O'sha harakat voyaga yetmagan nisbatan qo'llanilsa - 3-5-yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Undan tashqari Jinoyat kodeksining 103-moddasida moddiy tomondan yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'lmagan shaxsga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha'ni va qadr qimmatini mutasil ravishda kamsitish natijasida uni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish uchun javobgarlik ko'zda tutilgan.

Jinoyat kodeksining 110-moddasida qiynash uchun, ya'ni muttasil ravishda do'pposlash yoki boshqacha harakatlar bilan qiynash uchun javobgarlik belgilangan

Bolani qiynoqlardan himoya qilinishga bo'lgan huquqi zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish uchun javobgarlikni ko'zda tutgan Jinoyat kodeksining 138–moddasi bilan ham kafolatlanadi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik. Fuqarolik kodeksiga binoan, moddiy va ma'naviy zarar yetkazish orqali bola huquqlariga oid qonun hujjatlarni buzish uchun Fuqarolik-protsessual kodeksda belgilangan sud tartibida fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortish ko'zda tutilgan. Masalan, bolaning ismiga va individualligini saqlab qolishga bo'lgan huquqi FKning 20-moddasi bilan kafolatlatlanadi. Unga binoan, o'z ismi bilan yashash huquqiga e'tiroz bildirilayotgan yoki ismidan qonunsiz foydalanilayotganligi munosabati bilan manfaatlari buzilayotgan shaxs manfaatlarini buzuvchidan bunday harakatlarga chek qo'yishni va raddiya berishni talab qilishi mumkin. Manfaat qasddan buzilganida jabrlanuvchi ma'naviy ziyonning qoplanishini ham talab qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 99-moddasiga binoan, "Shaxsning hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmat, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro'si, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga bo'lgan huquqi, tasvirga bo'lgan huquqi, mualliflik huquqi, boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda tug'ilganidan boshlab yoki qonunga muvofiq fuqaroga tegishli bo'lgan boshqa nomoddiy ne'matlar tortib olinmaydi va o'zga usul bilan boshqa shaxsga berilmaydi. Vafot etgan kishiga tegishli bo'lgan shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne'matlar qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda boshqa shaxslar, shu jumladan, huquq egasining vorislari tomonidan amalga oshirilishi va himoya etilishi mumkin.

Fuqarolik kodeksning 100-moddasiga binoan, fuqaro o'zining sha'ni, qadr-qimmat yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan, basharti bunday ma'lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo'li bilan raddiya talab qilishga haqli.

Fuqaro ommaviy axborot vositalarida uning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini kamsituvchi ma'lumotlar e'lon qilinganda u ayni o'sha ommaviy axborot vositalari orqali chiqib, o'zini himoya qilish huquqiga ega.

Basharti, sudning hal qiluv qarori bajarilmasa, sud qoidabuzarga qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda va tartibda undiriladigan jarima solishga

haqlidir. Jarimani to‘lash qoidabuzarni sudning hal qiluv qarorida nazarda tutilgan harakatlarni bajarish vazifasidan ozod etmaydi.

O‘zining sha’ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro‘sigacha putur yetkazuvchi ma’lumotlar tarqatilgan fuqaro bunday ma’lumotlar rad etilishi bilan bir qatorda ularni tarqatish oqibatida yetkazilgan zararlar va ma’naviy ziyoning o‘rnini qoplashni talab qilishga haqlidir.

Bolalarning shaxsiy huquq va erkinliklari hamda siyosiy huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik masalalarini tegishli ravishda ma’muriy, jinoiy, fuqarolik, mehnat qonunchiligida belgilab qo‘yilgan javobgarlik masalalarini tahlil qili orqali xulosa qilish mumkinki, bunday javobgarlikni belgilab qo‘yilishi, *birinchidan* bola huquqlarini kafolatlaridan biri hisoblansa, *ikkinchidan* esa, bunday huquqbuzarliklar uchun jazoning muqarrarligini ta’minlaydi. *Uchinchidan*, esa, uni sodir etganlar va bunday huquqbuzarlikni sodir etishi mumkin bo‘lganlar tomonidan yangi huquqbuzarliklarni oldini olishga xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar:

- 1. Bolaning shaxsiy huquq va erkinliklari deganda nimalarni tushunsiz?*
- 2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarida bolaning shaxsiy huquq va erkinliklari o‘z aksini topgan?*
- 3. Konstitutsiyada inson huquqlari, shuningdek bola huquqlariga oid xalqaro-huquqiy qoidalar qanday o‘z aksini topgan?*
- 4. Bolaning yashash huquqi deganda nimani tushunasiz va uning xalqaro va milliy huquqiy asoslarining mazmunini aytib bering.*
- 5. Bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo‘lgan huquqining kafolatlari va uning huquqiy asoslarining mazmunini aytib bering.*
- 6. Bolaning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlari nima va ularning huquqiy asoslarini aytib bering.*
- 7. Bolaning g‘ayriqonuniy ko‘chirilishdan himoyalash huquqi kafolatlari nima va ularni huquqiy asoslarining mazmunini aytib bering.*

8. *Bolaning himoyaga bo'lgan huquqining kafolatlari nima va ularni huquqiy asoslarining mazmunini aytib bering.*
9. *Bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi kafolatlari nima va ularni huquqiy asoslarining mazmunini aytib bering.*
10. *Bolaning axborot olish huquqi kafolatlari nima va ularni huquqiy asoslarining mazmunini aytib bering.*
11. *Bolaning fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi kafolatlari va ularni huquqiy asoslarining mazmunini aytib bering.*
12. *Bolalarning siyosiy huquqlari deganda nimani tushunasiz va ularning o'ziga xos xususiyatlari qanday?*
13. *Bolalarning siyosiy huquqlariga kiruvchi huquqlar va ularning mazmunini hamda huquqiy asoslarini aytib bering.*
14. *Bolalarning shaxsiy huquq va erkinliklari hamda siyosiy huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik nima uchun bola huquqlarining kafolati sifatida ko'rilishi kerak?*
15. *Bola huquqlarini buzganlik uchun qanday javobgarlik turlari mavjud va ularning huquqiy asoslarini aytib bering.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar va manbalar ro'yhati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014.*
2. *Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI nashriyoti, 2009.*
3. *Mo'minov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. –T.: JIDU, 2011*
4. *Mo'minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. 2-nashr. –T.: Adolat, 2013.*
5. *Mo'minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013.*
6. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi. –T.: O'zbekiston, 2013.*

7. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakilining (ombudsmannning) 2010-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. –Toshkent, 2011.*
8. *Balog'atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar. /Kirish so'z muallifi va mas'ul muharrir. A.X.Saidov. –T.; 2002. -232 b.*
9. *Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. To'plam. /O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X.Saidov. -T.: Adolat. 2004.*
10. *O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, Fuqarolik va Fuqarolik-protsessual kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqa tegishli milliy qonun hujjatlarini topish uchun qarang: LexUz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz*

8-mavzu. Bolalarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari va ularni amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari

5. Bolalarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari tushunchasi.
6. Bolalarning iqtisodiy huquqlari amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari.
7. Bolalarning ijtimoiy va madaniy huquqlari amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari.
8. Bolalarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik bola huquqlarini ta'minlashning kafolati sifatida va uning huquqiy asoslari.

1. Bolalarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari tushunchasi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar “ikkinchi avlod” huquqlariga taalluqlidir. Ushbu huquqlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohadagi turmush sharoitini belgilab beruvchi huquqlar hisoblanadi. Bu sohada inson mehnat qiladi, dam oladi, mulkka egalik qiladi va uni tasarruf qiladi, kasbiy bilimlarini oshiradi va tajriba orttiradi, jamiyatning madaniy boyligidan bahramand bo'ladi va o'zining ijodiy faoliyati tufayli mazkur boylikni yanada ko'paytirishga xissa qo'shadi. Mazkur “ikkinchi avlod” huquqlari shaxsni, shuningdek bolaning ijtimoiy rivojlanishi bilan bir qatorda, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotidagi o'rni va rolini belgilab beradi.

“Ikkinchi avlod” huquqlarining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ushbu huquqlarni ta'minlab berishda davlatlar birinchi galda o'zining iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Shu bois, bunday huquqlarni barcha davlatlar ham bir xil darajada ta'minlab bera olmaydi. Shuningdek, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda qatnashuvchi davlatlar ulardan foydalanishda turli cheklashlar o'rnatishi mumkinligini e'tirof etadi. Cheklashlar

shu davlatning qonunida belgilanib, ular umumiy farovonlik maqsadlariga va mamlakatda amalda bo‘lgan tartib-qoidalar tabiatiga mos bo‘lishi shart¹⁸⁴.

Ayni vaqtda davlatlar ushbu huquqlarni, ularni birinchi avlod huquqlaridan kamsitmagan holda ta’minlab berishi kerak.

2. Bolalarning iqtisodiy huquqlari amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari.

Bolaning iqtisodiy huquqlariga, uning xususiy mulkka bo‘lgan huquqi kiradi. Xususiy mulkka bo‘lgan huquq O‘zbekiston Respublikasida asosiy va eng muhim konstitutsiyaviy huquqlardan biri hisoblanadi.

BOLANING XUSUSIY MULKKA BO‘LGAN HUQUQI

Bola qonunda belgilangan tartibda xususiy mulk huquqiga ega bo‘lishi mumkin.

Bolaning shaxsiy foydalanishida bo‘lgan, bola tomonidan hadya, meros tariqasida olingan, shaxsiy mehnati evaziga yoki boshqa qonuniy usulda olingan huvumlar. mol-mulk uning xususiy mulkidir.

Inson uchun mulka ega bo‘lish va uni himoya qilish huquqiga ega bo‘lish tabiiy. Mulk – bu inson mustaqiligining asosi va kelajakdagi moliyaviy xavfsizligi garovidir. Biroq ushbu huquq bolalarga qaraganda ko‘proq katta yoshdagilarga tegishli deb hisoblanadi. Bolaning xususiy mulkka bo‘lgan huquqi shuni e’tirof etadiki, bola huquqiy faol subyekt sifatida nafaqat fuqarolik va siyosiy huquqlarga, balki, shuningdek iqtisodiy huquqlarga ham ega.

Bola xususiy mulkka ega bo‘lish huquqiga ega va u quyidagi mulklarga egalik qilishda ko‘rinishi mumkin:

Bolaning shaxsiy foydalanishida bo‘lgan,

bola tomonidan hadya sifatida,

meros tariqasida olingan,

bolaning shaxsiy mehnati evaziga

¹⁸⁴Mo‘minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas’ul muharrir A.X.Saidov. -2 nashr. –T.: Adolat, 2013. – B.311

yoki boshqa qonuniy usulda olingan buyumlar va mol-mulk.

Xususiy mulkka bo‘lgan huquq Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida e’tirof etilgan bo‘lishiga qaramay, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada o‘z aksini topmagan. Shuning uchun, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 18-moddasi bolaning xususiy mulkka bo‘lgan huquqini himoya qilish masalalarida xalqaro standartlarga qaraganda kengroq.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 17-moddasiga binoan, “Har bir inson yaka tartibda, shuningdek boshqalar bilan birgalikda mulkka egallik qilish huquqiga ega. Hech kim zo‘ravonlik bilan o‘z mulkidan mahrum etilishi mumkin emas.”

Xususiy mulkka bo‘lgan huquq – bu shaxsning mulkka ega bo‘lish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqi demakdir.

Ega bo‘lish huquqi – bu buyumga egalik qilish.

Foydalanish huquqi – buyum egasining ehtiyojlarini qondirish uchun buyumning foydali xususiyatlaridan foydalanish (masalan, DVD-bo‘lsa undan filmlar ko‘rish uchun foydalanish)

Tasarruf etish – turli xil bitimlar orqali buyumning taqdirini belgilash (masalan, sotib yuborish yoki yo‘q qilish)

Bu huquqqa har bin inson ega va u konstitutsiyaviy tizimning asosi hisoblanadi. Mulk – insonning haqiqiy mustaqiligining asosi va uning ertangi kuniga ishonchdir. Davlat xususiy mulkni va uning daxlsizligini himoya qilish majburiyatini o‘z zimmasiga olgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasiga binoan, har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli. Bankka qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

Bundan tashqari, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin (53-moddasi)

Fuqarolik kodeksining 16-bobi - butunlay xususiy mulk masallariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda xususiy mulk tushunchasi (egallik qilish, foydalanish

va tasarruf etish), uning subyektlari (egalari) va obyektlari (mulk turlari) berilgan.

Fuqarolik kodeksining 207-moddasiga binoan, xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi.

Bolaning xususiy mulki. Oila kodeksida ham bolalarga tegishli mulkning huquqiy rejimini tartibga soladigan alohida bo'lim mavjud. (13-bob. Ota-onalar va bolalarning mulkiy huquqlari va majburiyatlari)

Bola unga tegishli mulkning va u orqali keladigan daromadning egasidir. Uning mulki turli qiymatdagi ko'char va ko'chmas mulkdan, qimmatboho qog'ozlardan, kapitaldagi ulushidan, kredit yoki boshqa tijorat tashkilotlariga qo'ygan omonatdan, omonati bo'yicha olinadigan daromaddan iborat bo'lishi mumkin. Bu mulk bola tomonidan o'zining mablag'lariga sotib olingan bo'lishi mumkin, yoki unga hadya qilingan, meros sifatida o'tgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, voyaga yetmaganning o'z ish haqi, stipendiyasi yoki intellektual yoki tadbirkorlik faoliyatidan oladigan boshqa daromadlarini mustaqil tasarruf etish huquqiga ega. .

Bolaning shaxsiy foydalanishidagi buyumlari. Oila kodeksining 93-moddasiga binoan, voyaga yetmaganlarning shaxsiy foydalanishidagi buyumlari (kiyim kechak, poyabzal, ishlab chiqraish qurollari, o'quv anjomlari va boshqalar) ularning xususiy mulki hisoblanadi

Bu degani, ular bu buyumlarga nafaqat o'z xohishlariga qarab egalik qilish, shuningdek ulardan foydalanishi va ularni tasarruf qilish huquqiga ham ega.

Sovg'a sifatida olingan mulk. Bola xadya qilingan mulkning egasi bo'lishi mumkin. Fuqarolik kodeksiga binoan, hadya shartnomasiga muvofiq, bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga ashyoni tekinga mulk qilib beradi yoki berish majburiyatini oladi yohud unga o'ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabi)ni beradi yo berish majburiyatini oladi, yoxud uni o'zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoki ozod qilish majburiyatini oladi.

Hadyani topshirish uni taqdim qilish, ramziy topshirish (kalit va hokazolarni taqdim qilish) yoki huquqni belgilaydigan hujjatlarni taqdim etish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Meros sifatida olingan mulk. Bola meros olish orqali mulk egasiga aylanishi mumkin. Meros qoldirish vatsiyat va qonun bo‘yicha amalga oshiriladi.

Nafaqat voyaga yetmaganlar merosho‘r bo‘lishi mumkin, shuningdek meros qoldiruvchining hayotlik paytida homila holida bo‘lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug‘ilgan bolalari vatsiyat va qonun bo‘yicha merosxo‘r bo‘lishlari mumkin.

Vatsiyatnoma yozilgan joyi va vaqti ko‘rsatilgan holda yozma shaklda tuzilishi lozim (Fuqarolik kodeksining 1124-moddasi).

Vatsiyatnoma bo‘lmagan holda bola qonun bo‘yicha merosxo‘r bo‘lishi mumkin. Qonun bo‘yicha merosxo‘rlar vorislikka qonunda nazarda tutilgan navbat tartibida chaqiriladilar. Meros qoldiruvchining bolalari (jumladan, farzandlikka olingan bolalari), eri (xotini) va ota-onasi (farzandlikka oluvchilar) teng ulushlarda qonun bo‘yicha birinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo‘ladilar. Meros qoldiruvchining vafotidan keyin tug‘ilgan bolalari ham birinchi navbatdagi vorislar jumlasiga kiradilar. Meros qoldiruvchining tug‘ishgan hamda ona (ota) bir ota (ona) boshqa aka-ukalari va opa-singillari, shuningdek uning ham ota, ham ona tarafdin bobosi va buvisi teng ulushlarda qonun bo‘yicha ikkinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo‘ladilar.

Meros qoldiruvchining voyaga yetmagan yoki mehnatga qobiliyatsiz bolalari, shu jumladan, farzandlikka olgan bolalari, shuningdek mehnatga qobiliyatsiz eri (xotini) va ota-onasi, shu jumladan, uni farzandlikka olganlar, vatsiyatnomaning mazmunidan qat’i nazar, qonun bo‘yicha merosho‘r bo‘lganlarida, ulardan har biriga tegishi lozim bo‘lgan ulushning kamida yarmini (majburiy ulush) meros qilib oladilar. (1142- modda).

Bolaning yoshi va huquqiy layoqati. Fuqarolik qonun-hujjatlarida bolaning o‘z mulkini mustaqil ravishda tasarruf etishi huquqi belgilangan. Bolaning bu

imkoniyatlari, uning yoshiga bog‘liq va Fuqarolik odeksining 27-, 29-moddalariga asosan belgilanadi.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar. Bolaning xususiy mulkka bo‘lgan huquqi mutlaq emas. Bu huquq bolaning yoshiga bog‘liq.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarining roziligisiz quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli:

- 1) o‘z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish;
- 2) fan, adabiyot yoki san‘at asarining, ixtironing yoxud o‘z intellektual faoliyatining qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish;
- 3) qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo‘yish va ularni tasarruf etish;
- 4) Fuqarolik kodeksi 29-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan-mayda maishiy bitimlarni hamda boshqa bitimlarni tuzish.

Bunday voyaga yetmagan shaxs tomonidan tuzilgan bitim keyinchalik shaxsning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiysi yozma ravishda ma‘qullaganidan so‘ng, u ham haqiqiy hisoblanadi. Yetarli asoslar mavjud bo‘lganida sud ota-onalar, farzandlikka oluvchilar yoki homiyni yoxud vasiylik va homiylik organining iltimosnomasiga muvofiq o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganning o‘z ish haqi, stipendiyasi yoki boshqa daromadlarini mustaqil tasarruf etish huquqini cheklab qo‘yishi yoki bu huquqdan mahrum qilishi mumkin.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar o‘zlari tuzgan bitimlar bo‘yicha mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo‘ladilar.

O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar). Olti yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan kichik yoshdagi bolalar quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar:

- 1)-mayda maishiy bitimlar;

2) tekin manfaat ko‘rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;

3) qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag‘larni tasarruf etish borasidagi bitimlar.

Mayda maishiy bitimlar tushunchasi aniq cheragasi yo‘q, chunki har safar buyumning qimmati va qiymati o‘zgarib turadi, ayniqsa hozirgi vaqtda.

Shubhasiz, har bir oilada uning moddiy ahvolidan kelib chiqib bolaning moddiy ehtiyojlari haqida har xil tushuniladi. Bunda ota-onaning madaniyati, oilaviy pedagogika, uning maqsadi muhim o‘rin tutadi.

Olti yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan kichik yoshdagi bolalar ularga berilgan mulkdan foydalanishlari, xadya olishlari mumkin. Ular ota-onasi bergan mablag‘larni o‘z ihtiyoriga qarab tasarruf etishi mumkin, bu mablag‘lar begona odam tomonidan berilsa, ota-onasining yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar roziligi kerak bo‘ladi. *Bu kabi talablar pedagogik jihatdan belgilangan.* Har vaziyatda ham kichik yoshdagi bola notarial tasdiqlanishi kerak bo‘lgan yoki davlat ro‘yxatidan o‘tishi kerak bo‘lgan bitimni tuzishga haqli emas. *6 yoshgacha bo‘lgan bolalarga kelsak, ular nomidan barcha bitimlarni faqat ularning ota-onasi tuzishga haqli.*

Ota-onalar bolaning qonuniy vakili bo‘lganligi bois, uning mulkini boshqarganda huddi fuqarolik qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan vasiylar singari huddi shunday huquq va majburiyatlarga ega. Bu talablar bolani farzandlikka olgan shaxslarga ham tegishli. Bundan kelib chiqqan holda, bolaga tegishli daromadlar ota-onasi tomonidan bolaning manfaatlarini ko‘zlagan holda vasiylik va homiylik organlarining ruhsati bilan sarflanadi. Bunday ruhsat bolaning kundalik ta‘minoti, unga kiyim sotib olish, davolash, dam olishi uchun kerak bo‘lgan harajatlar haqida so‘z ketganda talab qilinadi.

3. Bolalarning ijtimoiy huquqlari amalga oshirishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari.

***BOLALARNI TARBIYALAYOTGAN OILALARNI DAVLAT
TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH***

Davlat bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni qo‘llab quvvatlashni kafolatlaydi, shuningdek qonun-hujjatlarida belgilangan tartibda ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatilishini ta‘minlaydi.

Oila jamiyatning asosiy guruhi va bolaning tarbiyasi uchun tabiiy muhit hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida alohida “Oila“ deb nomlangan bob mavjud bo‘lib (63-66-moddalar) unda oila davlat himoyasida bo‘lgan jamiyatning eng muhim ijtimoiy bo‘g‘imi sifatida belgilangan. Uning ahamiyatini e‘tiborga olgan holda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasi bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni qo‘llab-quvvatlash majburiyatini yuklaydi. Bunday yondashuv xalqaro andozalarda ham o‘z aksini topgan. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada aniq ko‘zda tutilganidek, ota-onalar va oila muhim o‘rin egallaydi va ular o‘z farzandlarini muhofaza etish, himoya qilish va tarbiya qilish hamda ularning ehtiyojlarini qondirish uchun ma’suldir. Bola oilaviy muhitda tarbiyalanishini ta’minlash maqsadida davlat zimmasiga o‘z vazifalarini bajarish orqali oilalarni qo‘llab-quvvatlash majburiyati yuklatiladi.

Bunday qo‘llab-quvvatlash oilani buzilishini, bolalar orasidagi jinoyatchilikni va bolalarni bola muassalariga joylatirilishini oldini olish uchun g‘oyatda muhim.

Bolalarni tarbiyalashda ota-onalarni qo‘llab-quvvatlashga xissa qo‘shish muqobil parvarishlashni ta’minlash bo‘yicha davlatning uzoq muddatli harajatlarini kamaytiradi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 12-moddasi “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyaning 13-moddasi (Bolaning oilaviy muhitga bo‘lgan huquqi) hamda 24-moddasi (ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni oilaviy muhitga bo‘lgan huquqining kafolatlari) bilan birgalikda bolalarga qonun bilan

belgilangan tartibda ijtimoiy yordam ko‘rsatish majburiyatini davlatlar zimmasiga yuklaydi.

Qonunning 12-moddasi davlat bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni qo‘llab-quvvatlashi shart deb mustahkamlab qo‘yilgan. Unda, davlatlar oilalarga ijtimoiy yordamni ta‘minlab berish shartligiga muhim ahamiyat qaratiladi.

Qo‘llab–quvvatlash (yordam). Qo‘llab-quvvatlash (yordam) o‘z ichiga nimani kamrab olishi Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada belgilangan.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 18-moddasida aniq belgilanganidek, *“ishtirokchi-davlatlar ota-ona va qonuniy vasiylarga bola tarbiyasi bo‘yicha majburiyatlarini bajariliga tegishli yordam ko‘rsatadilar hamda bolalar muassasalari tarmog‘ining rivojlanishini ta‘minlaydilar”*

U o‘z ichiga ota-onalar ota-onalik majburiyatlarini bajarishida yoki alohida muammolarga duch kelganlarida (masalan, nogiron bollarni tarbiyalaganda) ularga amaliy yordam va ruhiy ko‘mak berishni o‘z ichiga oladi. Unga ko‘ra, davlatlar bolalar muassalarini va bolalarni parvarishlash bo‘yicha xizmatlarini rivojlanishini ta‘minlash majburiyatini oladi.

Bunday xizmatlar o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- Kunduzgi parvarish (bog‘cha va maktabgacha muassasalar)
- O‘yin guruhlari
- Yoshlar klublari
- Uyda yordam ko‘rsatish
- Ruhiy ko‘mak va maslahatlar, jumladan ota-onalar uchun sinflari/tug‘ish oldi o‘quv kurslari
- Sog‘liq masalalariga oid ta‘lim, ya‘ni onalar kursi
- Tinchlantiruvchi kurslar - ayniqsa, nogiron bolalarning ota-onalari uchun.

Milliy harakat dasturlari. Hukumat darajasida 2007-2011-yillarga mo'ljallangan Bolalar farovonligini ta'minlash bo'yicha milliy harakatlar dasturi tasdiqlangan bo'lib, unga bolalarning turmush tarzini ta'minlayetgan muhit sifatida oilalarni qo'llab-quvvatlash choralar kompleksi kiritilgan. Ushbu choralar sirasiga quyidagilar kiradi:

- bolalarni dispanserlarda kuzatish va reabilitasiya qilish;
- nogiron bolalarni tarbiyalayotgan oilalar bilan ish olib borish;
- birinchi sinf o'quvchilarini o'quv qurollari bilan bepul ta'minlash, kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan o'quvchilarni qishki kiyim bilan ta'minlanishini tashkil etish;
- kam ta'minlangan va 2 yoshdan 18 yoshgacha farzandlari bo'lgan oilalarga nafaqa to'lashga ajratilgan davlat mablag'lari maqsadga muvofiq tarzda sarflanayotgannini muntazam ravishda monitoring qilinishini tashkil etish va idoralararo asosida patronatni tashkil etish (fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, o'quv muassasaning pedagogik majlisi, ichki ishlar bo'limining huquqbuzarliklarni oldini olish bo'limlari).

Ijtimoiy ko'mak. "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyaning 26-moddasida bolalarga ijtimoiy sug'urtadan foydalanish huquqini e'tirof etadi. Bola uchun ma'sul bo'lgan kattalar ba'zi holatlarda ko'ra (kasallik, nogironlik, bola tug'ilishini, qarilik va hokazo) buni ta'minlay olmasa uni ishlashini oldini olmasa, u holda davlat bola moliyaviy yordamning biron shakliga ega bo'lishini ta'minlashga majbur.

Davlat bera oladigan moliyaviy yordam miqdori davlat resurslariga bog'liq. Bunday holat, Konvensiyada e'tirof etilgan. 4-moddaga binoan, davlat iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni o'zida mavjud bo'lgan imkoniyatlar doirasida ta'minlashga majbur.

2007-yil 1-martda “Aholiga ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish va mustahkamlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezident Farmoni qabul qilindi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eng avvalo, ko‘p bolali oilalarga, uzoq qishloqlarda yashadigan, alohida ehtiyojlari bo‘lgan farzandli bo‘lgan oilalarga qaratilgan.

Yosh oilalarga moddiy va ma‘naviy ko‘makni yanada kuchaytirish maqsadida, ularga mehnat faoliyatining va mustaqil hayotga kirishining boshida zarur yordam ko‘rsatish, daromadlarining manbalarini shakllantirish uchun samarali rag‘batlantirish va yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida 2007-yil 18-mayda “Yosh oilalarga moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatish bo‘yicha qo‘shimcha choralar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni qabul qilindi.

BOLANING OILAVIY MUHITGA BO‘LGAN HUQUQI KAFOLATLARI

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilish, ular bilan birga yashash va ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish huquqiga ega, uning manfaatlariga zid bo‘lgan hollar bundan mustasno.

Bolaning ota-onasi bo‘lmaganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda hamda bola ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan boshqa hollarda uning oilada yashash hamda tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta‘minlanadi.

Bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko‘rishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota va onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta‘sir qilmaydi.

Ota va ona turli davlatlarda yashagan taqdirda ham bola ular bilan ko‘rishish huquqiga ega.

Ekstremal vaziyatlarga (ushlab turish, hibsga olish, qamoqqa olish, davolash muassasasida bo‘lish va boshqa hollarda) tushib qolgan bola o‘z ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan qonun - hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rishish huquqiga ega.

Agar “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 13-moddasi bolaning oilaviy muhitga bo‘lgan huquqiga bag‘ishlangan. Mazkur modda nafaqat bolaning o‘zining biologik oilasida tarbiyalanishiga bo‘lgan huquqini, shuningdek,

buning ilojisi bo‘lmagan hollarda oilaviy muhitga bo‘lgan huquqini aks etadi.

O‘z oilasida tarbiyalanish huquqi Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning asosiy tamoyili hisoblanadi. Konvensiyaning Muqadimmasida bayon etilishicha, bolaning shaxsi sog‘lom va har tomonlama uyg‘unlashganholda kamoloti uchun u oila g‘amxo‘rligigada baxt, mehr-muhabbat va ongli ravishda tushunish vaziyatida o‘ssishi zarur. Shuningdek, bolaning oilasi bilan munosabatlarida qo‘llanma hisoblanadigan Konvensiyaning boshqa moddalarini alohida ta’kidlash lozim, ya’ni o‘z ota-onasini bilish va tarbiyalanish (7-modda), oilaviy aloqalarni saqlab qolish (8-modda) va o‘z ota -onasidan agarda bolaning eng yaxshi manfaatlariga zarur bo‘lmasa, ajratmaslik (9-modda).

O‘z oilasida yashash va tarbiya olish huquqi. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 65- va 66-modalarining mazmuni ma’lum darajada “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasida rivojlantirilgan. Oila kodeksining 65-moddasi, xususan, ota-onalar zimmasiga o‘z farzandlarini tarbiyalash, rivojlantirish, ularning sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va ahloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish majburiyatini yuklaydi.

O‘z ota-onasini bilish huquqi. Har doim, hamma bolalar ham o‘z ota-onasi tomonidan tarbiyalanavermaydi, ayrim hollarda, o‘z ota - onasini bilmaydi, ham. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasi bolaning o‘z ota-onasini bilish huquqini kafolatlashga qaratilgan.

Bolaning ota-onasi kim?. “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyaning 7-moddasida bola o‘z ota-onasini bilish huquqini e’tirof etilgan. 1989-yilgi Konvensiya qabul qilinishidan boshlab ota-ona tushunchasi kengaytirilgan. Bugungi kunda kelib, ota-ona tushunchasi biologik ota-ona – tuqqan onani hamda bolaning otasini, psixologik ota-ona – bolalikning muhim davrlarida bolaga g‘amxo‘rlik qilgan shaxslar, genetik ota-ona – ya’ni donorlarni o‘z ichiga oladi.

O‘z ota onasini bilish huquqi – murakkab masala. Bir qarashda bolalar o‘z ota-onasi kimligini bilishi huquqiga ega, deb tuyulishi mumkin. Biroq, bola yana nimani bilishga haqli? Bola madaniy merosini tushunish uchun o‘z ota onasining ijtimoiy va etnik kelib chiqishini bilishga haqlimi?

Bolalar uchun bunday ma'lumotga ega bo'lish ruhiy jihatdan g'oyatda muhim. Ota-onasining genetik tarixini bilishning muhimligini hisobga olgan holda aytish mumkinki, bola ota-onasining tibbiy tarixini ham bilishga haqli.

Bolaning manfaatlariga zid bo'lgan istisno holatlar. Agar bolaning manfaatlariga zid bo'lsa bolaning ushbu huquqi cheklanadi.

Davlat iloji boricha bolaga ota-onasini bilish huquqini ta'minlaydi. Davlat ushbu huquqni amalga oshirish uchun barcha choralarni ko'rishi kerak, lekin bolaning ota-onasini aniqlash ilojisi bo'lmaganda, (bola tashlab ketilgan bo'lsa yoki onasi bolaning otasi kimligini bilmasa), yoki ona bolaning otasi kimligini aytishni rad etgan (favqullodagi vaziyatlar, incest yoki nomusga tegish bo'lgan hollarda) hollarda bolaning bunday huquqlarini ta'minlash chegaralanishi mumkin.

“Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida”gi qonunda ham, yuqoridagi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda bolaning ota-onasini bilish huquqini ta'minlash chegaralanishi mumkin.

Bolaning o'z ota-onasini bilish huquqi nafaqat ushbu qonun bilan, shu bilan birga Oila kodeksining 65-moddasi bilan ham kafolatlanadi. Bu borada yagona istisno – O'zbekistonda mavjud bo'lgan farzandlikka olish siri. Oila kodeksining 153-moddasiga binoan, farzandlikka olish siri qonun bilan himoyalanaadi.

Ota-onalik huquqlaridan mahrum etish va ularni cheklash va “Bolaning manfaatlariga zid bo'lmagan hollarda o'z ota-onasi bilan yashash va tarbiyalanish huquqi”. “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning 13-moddasida aks etilgan bolaning o'z ota-onasi bilan yashash huquqi asosiy tamoyilni o'zida aks etadi – o'z ota-onasi bilan yashagan bolalar yaxshiroq tarbiya oladi. Bundan tashqari, g'amxo'rlik bolaning faqat jismoniy ehtiyojlarini emas, shuningdek uning ruhiy va xissiy ehtiyojlarini ham o'z ichiga oladi. Biroq, shu e'tirof etilganki, ayrim hollarda bolaning o'z oilasida bo'lishi uzoq va qisqa muddat ichida uning manfaatlariga zid kelishi mumkin.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 9-moddasiga binoan, bola shafqatsiz muomala xavfi ostida qolganda, davlatlar bolaning eng yaxshi

manfaatlariga zarur bo'lgan hollarda uni o'z ota-onasidan ayirishi shart. 9-modda ayirish uchun aniq mezonlarni va qoidalarni ko'zda tutadi:

-ayirish to'g'risidagi qaror qonunga binoan chiqarilishi kerak;

-ayirish to'g'risidagi qaror vakolatli organ tomonidan chiqarilishi kerak va uning ustidan shikoyat keltirish imkoniyati bo'lishi kerak;

-noqonuniy va asossiz ayirilish iloji boricha qisqa bo'lishi uchun apellyatsiya jarayoni tezkor bo'lishi kerak;

-qarorning qabul qilinishi ota-onalar alohida yashaganda va bolaning turar joyini belgilash kerak bo'lganda ham zarur bo'lishi mumkin.

Ota-ona yo'qligida vasiylik va homiylik organlarining vazifalari. “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning 13-moddasiga binoan, bolaning ota-onasi bo'lmaganda, vasiylik va homiylik organlari uning oilada yashash va tarbiyalanish huquqini ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, ushbu modda bolalarga g'amxo'rlikni va parvarishni ta'minlaydigan joylashtirishning muqobil shakllarini ta'minlash majburiyatini davlat zimmasiga yuklaydigan Qonunning 24-moddasida (yoki, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 20-moddasida) nazarda tutilgan majburiyatlarga qaraganda kengroq..

24-moddada bolaning joylashtirishning muqobil shakllari ohirgi chora sifatida ko'rilsada, 13-moddada bu imkoniyat ko'zda tutilmagan holda, unga binoan vasiylik va homiylik organlari oilada yashash va tarbiya olish huquqini ta'minlaydilar.

Vasiylik va homiylik organlarining vazifalari O'zbekiston Respublikasi Vasiylik va homiylik organlari to'g'risidagi qonun bilan belgilangan.

Mazkur Qonunning 7-moddasiga binoan, vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari jumlasiga quyidagilar kiradi:


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi;

mahalliy davlat hokimiyati organlari.



Vasiylik va homiylik organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash, ularni joylashtirish va vasiylik hamda tarbiyaga olgan oilalar tomonidan majburiyatlari bajarilishini nazorat etish masalalari bilan shug'ullanadi.

Vasiylik va homiylikni rasmiylashtirish prosedurasi mahalliy organlar tomonidan amalga oshiriladi va hokim qarori bilan tasdiqlanadi.

Ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqi. Bola har tomonlama to'liq tarbiya olishining sharti – ota-onasi, bobo, buvi, aka-uka, opa-singillar va boshqa qarindoshlari bilan doimo aloqada bo'lishidir. 13-moddaning 3-bandiga binoan, bola ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega. Nikohdan ajratish yoki u haqiqiy emas, deb topilganda, oila buzilishi oqibatida bu huquqning amalga oshirilishi qiyin bo'lishi mumkin, lekin bu xodisa bola huquqlariga ta'sir ko'rsatmaydi. Ota-onasi bilan ko'rishish bilan bog'liq

muammolar voyaga yetmagan ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar bilan yashaganda yoki biron davlat muassasasiga joylashtirilganda kelib chiqadi. Biroq, ota onasi bilan ko'rishish bolaning tarbiyasi uchun xavf tug'dirsa, uni taqiqlash yoki ma'lum muddatga qoldirish mumkin. Masalan, ota yoki ona muttasil ichkibozlik yoki giyohvandlikka mubtalo bo'lsa. Bu holatda Oila kodeksiga binoan (79-, 83-moddalar), ota yoki ona ota-onalik huquqlaridan mahrum etilishi yoki ularning ota-onalik huquqlarini cheklash mumkin.

Bola ota (ona)si bilan ko'rishish huquqi shuni ham bildiradiki, u alohida yashaydigan otasi yoki onasi bilan ham ko'rishish huquqiga ega. Bu Oila kodeksining 76-moddasi bilan kafolatlangan bo'lib, unga binoan bola bilan birga yashayotgan ota (ona) bolaning ota (ona)si bilan ko'rishishiga, agar bunday ko'rishish bolaning jismoniy va ruhiy sog'lig'iga, ahloqiy kamolotiga zarar keltirmasa, qarshilik qilmasligi kerak. Ota-ona boladan alohida yashaydigan ota (ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida yozma ravishda kelishuv tuzishga haqlidir. Agar ota-ona kelisha olishmasa, nizo ota-ona yoki ulardan birorining talabiga binoan sud tomonidan vasiylik va homiylik organi ishtirokida hal qilinadi.

Ota-onalar turli xil mamlakatlarda yashagan hollarda ular bilan ko'rishish huquqi – ota-onalar boshqa yoki turli mamlakatlarda yashaganda bolaning bu huquqini amalga oshirish ancha mushkul bo'ladi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani 10-moddasining 2-bandiga binoan, ota-onasi turli davlatlarda yashayotgan bola, alohida holatlardan tashqari, otasi va onasi bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlarni saqlab qolish va to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqiga egadir.

Bola o'g'irlanganda ota-onasining biri bilan aloqani yo'qotib qo'yishi mumkin. O'zbekiston 1980-yildagi Bolani o'g'irlashning fuqarolik jihatlari to'g'risidagi Gaaga konvensiyasiga a'zo. Bu Konvesiya ota-onalarga sud qaroriga asosan boshqa davlatga (agar, u ham Konvensiya a'zosi bo'lsa) kirish huquqini beradi.

Ekstremal vaziyatlarda ko‘rishish huquqi – 13-modda bolaning ekstremal vaziyatlarda o‘z ota-onasi bilan ko‘rishish huquqini alohida ta’kidlaydigan qonunda ta’kidlanishicha 13-moddaning 5-bandiga binoan ekstremal vaziyatlarda bu

***BOLANING TURAR JOYGA BO‘LGAN HUQUQLARI
KAFOLATLARI***

Har bir bola turar joyli bo‘lish huquqiga ega. Ushbu huquq qonun - hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Turar joy mulkdorining yoki turar joyni ijaraga oluvchining oila a‘zolari bo‘lgan bolalar ular qayerda bo‘lishlaridan qat’i nazar, turar joy mulkdori yoki turar joyni ijaraga oluvchisi egallab turgan turar joyga nisbatan huquqqa ega bo‘ladi.

Tarbiya, davolash muassasalari va boshqa muassasalarda, qarindoshlari, vasiylari yoki homiylari qaramog‘ida bo‘lgan yetim bolalar, ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar turar joyga bo‘lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi.

Vasiylik yoki homiylik belgilangan bolaning mulkida yoki foydalanishida bo‘lgan turar joyni o‘zga shaxsga o‘tkazish uchun vasiylik yoki homiylik organining roziligi talab qilinadi.

Bolaning turar-joyga bo‘lgan huquqini alohida e’tirof etib “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 19-moddasi Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga (27-modda) qaraganda kengroq mazmunga ega bo‘ldi. 27-moddada bolaning jismoniy, ruhiy, ma’naviy, ahloqiy va ijtimoiy kamol topish uchun zarur hisoblangan turmush darajasiga ega bo‘lish huquqini e’tirof etilgan. Unga ko‘ra, davlat ota-onalarga (bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslarga) bu huquqni amalga oshirishda ko‘mak ko‘rsatishi va zarur hollarda uy-joy bilan ta’minlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Munosib uy-joyga bo‘lgan huquq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 11-moddasida ham o‘z aksini topgan.

Ushbu modda Qonunning 26-moddasi bilan birgalikda (Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning turar-joyga bo‘lgan huquqlarining kafolatlari) yetim bolalarga va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga turar-joyga ega bo‘lish huquqini kafolatlaydi.

Bolaning turar joyga bo'lgan huquqi. Bolaning turar joyi tushunchasi, birgina u yashaydigan xona bilan bir qatorda, bolaning xavfsizligini, tinchligini va qadr-qimmatini ta'minlaydigan joydagi yashash huquqini o'z ichiga oladi. Shuning uchun turar joy o'z ichiga binoning ichkari va tashqarisini ham oladi. Bolalar oilasi uysiz qolganda chiqarib tashlanishdan himoyalaniishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 9-moddasiga binoan, fuqarolarning doimiy yashashiga mo'ljallangan, belgilangan sanitariya, yong'inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, shuningdek belgilangan tartibda maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg'iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylar) sifatida foydalanishga mo'ljallangan joylar turar joy deb hisoblanadi.

Uy -joy kodeksining 10-moddasiga binoan, turar joylarga quyidagilar kiradi: uylar; ko'p kvartirali uylardagi kvartiralar; boshqa imoratlardagi yashash uchun mo'ljallangan xonalar va o'zga turar joylar.

Fuqarolar o'n sakkiz yoshga to'lgach, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan nikoh tuzganlar, emansipatsiya qilinganlar yoki ishga kirganlar esa qonunda nazarda tutilgan hollarda – tegishli ravishda nikoh tuzgan, emansipatsiya qilingan yoxud ishga kirgan vaqtidan boshlab munitsipal, idoraviy uy-joy fondi va aniq maqsadli kommunal uy-joy fondidan turar joy olish huquqiga ega bo'ladilar (Uy-joy kodeksining 38-, 39- moddalari).

Bolaning turar joyga bo'lgan huquqining kafolatlari. Bolaning turar-joyga bo'lgan huquqi Uy-joy kodeksining qoidalariga binoan amalga oshirilishi mumkin. Kodeksga binoan, uy, kvartira mulkdorining oila a'zolari. shuningdek u bilan doimiy yashayotgan Fuqarolar, agar ularni ko'chirib kelgan paytda yozma ravishda boshqa hol qayd etilgan bo'lmasa, uydagi, kvartiradagi xonalardan mulkdor bilan teng foydalanishga haqlidirlar.

Uy-joy Kodeksining 32-moddasining 2-qismiga binoan, turar joy mulkdorining oila a'zolari deb u bilan doimiy birga yashayotgan xotini (eri) va ularning farzandlari tan olinadi.

Uy-joy kodeksi turar joyni almashtirish hollarida ham bola huquqlarini himoya qiladi.

Mulkida uyi, kvartirasi bo'lgan fuqarolar barcha voyaga yetgan oila a'zolarining, shu jumladan, vaqtincha bo'lmagan oila a'zolarining yozma roziligiga binoan o'zlari egallab turgan turar joyni boshqa turar joy mulkdori yoki uy-joy qurish yoxud uy-joy kooperativining a'zosi bilan, shu jumladan, boshqa aholi punktida yashayotganlar bilan almashtirishga haqlidirlar. Bunda oilaning voyaga yetmagan a'zolari roziligi ota-onalar tomonidan, ular bo'lmagan taqdirda esa - vasiylik va homiylik organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Kodeksda boshqa turar joy bergan holda bolalarni xizmat turar joylaridan ko'chirib chiqarishdan himoya qiladigan normalar mavjud. Biroq bu ruyxatga faqat quyidagilar kiradi:

I va II guruh nogironlari;

nogiron farzandlari bo'lgan oilalar;

tarbiyachi-ota-onalar, oilaviy bolalar uyi tugatilgan taqdirda;

voyaga yetmagan farzandlari bilan birga yashayotgan yolg'iz shaxslar.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning turar-joyga bo'lgan huquqining kafolatlari. Qonunning bu maoddasi Uy-joy kodeksining 52-moddasiga binoan, tarbiyaviy, tibbiy yoki boshqa muassalarda, yoki vasiylar va homiylar bilan bo'lgan yetim bolalar hamda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning turar joyga bo'lgan huquqi yoki undan foydalanish huquqini saqlab qolinishinig kafolatidir.

Bolalar tarbiyalanish uchun bolalar muassasasiga, qarindoshlarga yoki homiylarga, vasiylarga topshirilganda - ular ushbu muassasada, qarindoshlar yoki homiylar, vasiylar qaramog'ida bo'ladigan butun davr mobaynida, agar bolalar chiqib ketgan turar joyda oilaning boshqa a'zolari yashash uchun qolgan bo'lsa turar joyi saqlanib turadi. Agar bolalar chiqib ketgan turar joyda ularning oila a'zolari yashash uchun qolmagan bo'lsa, ushbu xona bolalarning muassasada bo'lishi muddati tugaguncha yoki qarindoshlar yoxud homiylar, vasiylar qaramog'idan qaytib kelgan bolalar voyaga yetguncha, shuningdek tegishli hollarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida

o'qish tugaguncha yoxud mamlakat Qurolli Kuchlaridagi harbiy xizmat muddati tamom bo'lguncha ushbu turar joy ijara shartnomasi asosida boshqa fuqarolarga berib turilishi mumkin.

Shuningdek, bu modda voyaga yetmagan shaxs ozodlikdan mahrum etilgan bo'lgan hollarda ham turar joyining saqlab qolinishini kafolatlaydi.

Vasiylik va homiylik organlarning uy-joy tortib olinib qo'yishiga roziligi. Turar joyni tasarruf etish huquqi bolaning ota-onasiga, ular bo'lmagan holda – vasiylik va homiylik organlariga tegishli. Bolalarga nisbatan vasiylik va homiylik organlarining vazifalari Xalq ta'limi bo'limlariga yuklatilgan.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarnig uy-joyini vasiylik va homiylik organlarining roziligisiz olib qo'yish mumkinmasligi ularning uy-joyga bo'lgan huquqining muhim kafolatidir. Uy-joy kodeksining 108- va Oila kodekining 184-moddasiga binoan, homiylikka yoki vasiylikka

BOLANING MYEHNAT QILISH HUQUQI KAFOLATLARI

Har bir bola o'zining yoshi, sog'lig'ining holati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq qonun - hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat qilish, faoliyat turini va kasbni erkin tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega.

Ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi.

O'n byosh yoshga to'lgan shaxslar ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin.

Bolalarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'iga va rivojlanishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtlarida bajarish uchun - ular o'n to'rt yoshga to'lganlaridan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Davlat o'n sakkiz yoshga to'lmagan ishlovchi shaxslarga ishni ta'lim bilan qo'shib olib borishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish va qonun - hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa choralarni ko'rish orqali bolaning mehnat qilish huquqi ta'minlanishini kafolatlaydi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 20-moddasi bolalar va mehnatga oid 5 asosiy masalani o‘z ichiga olgan.

- *ularning mehnat qilish huquqi;*
- *necha yoshdan mehnat qilish mumkinligi;*
- *qanday ishlarni qilishi mumkinligi;*
- *mehnat sharoitlari;*
- *ta’lim olish va mehnat qilish o‘rtasidasi muvozanat.*

Bolalar bandligiga va ularni iqtisodiy eksplutatsiyadan himoya qilishga oid xalqaro standartlar mavjud. Ular orasida eng muhimlari quyidagilardir: Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaning 32-moddasi va Xalqaro mehnat tashkilotining 138-Konvensiyasi (Ishga qabul qilish uchun minimal yosh to‘g‘risida) va 182- Konvensiyasi (Bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham berish to‘g‘risida).

Mehnat huquqlariga oid xalqaro standartlarning maqsadi - bolalarni iqtisodiy ekspluatatsiyadan va ularning hayotiga tahdid soladigan, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishiga zarar yetkazadigan yoki ular ta’lim olishi uchun to‘sqinlik qiladigan ishlardan himoya qilish. E’tirof etilganki, bola qancha ko‘p o‘qisa, shunchali hayotida ko‘proq imkoniyatlar ega bo‘ladi. To‘liq bandlik asosida ishlashdan avval bola kamida majburiy ta’lim olishi kerak. Bu nafaqat bola uchun, butun jamiyat uchun ham foydali bo‘ladi, chunki u ta’lim olgan aholidan iborat bo‘ladi.

Mehnat qilish huquqi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 23-moddasida va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 6-moddasida o‘z aksini topgan. Biroq xalqaro standartlar bolaning ishlash huquqini qullab-quvatlamaydi. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya bolaning ishlash huquqini e’tirof etmaydi, lekin uning sog‘lig‘iga, jismoniy, aqliy, ruhiy, ma’naviy va ijtimoiy kamolot topishiga xavfli bo‘lgan barcha ishlardan himoya

qilinishga bo‘lgan huquqini aks etadi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning mazkur moddasi va Mehnat kodeksining 246-moddasida bolaning ishga bo‘lgan huquqi ko‘rib chiqilgan. Biroq, 20-moddada bolaning ushbu huquqi bolaning yoshi va u qilishi mumkin bo‘lgan ish turlari bilan cheklab qo‘ygan.

Ishga qabul qilish uchun minimal yosh. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada davlat zimmasiga ishga qabul qilish uchun minimal yosh belgilab qo‘yish majburiyati yuklangan, lekin u necha yosh bo‘lishi kerakligi belgilanmagan.

Xalqaro mehnat tashkilotining 138-Konvensiyasiga binoan, eng kichik yosh majburiy maktab ta‘limini tugallash uchun zarur bo‘lgan yoshdan kam bo‘lmasligi kerak va har qanday holda 15 yoshdan kichik bo‘lmasligi zarur.

XMTning mazkur Konvensiyasida bir nechta istisnolar ko‘zda tutilgan. Milliy qonunchilikka binoan, bolalarga 15 yoshdan ishlashga ruhsat berilishi mumkin, lekin ular majburiy maktab ta‘limini tugallagan bo‘lishi kerak va ushbu ish og‘ir bo‘lmasligi shart.

138-Konvensiyaga binoan, 13-15 yoshgacha bo‘lgan shaxslarga yengil ishlarda ishlashga yoki yollanib ishlashga ruhsat berilishi mumkin, agar bu ularning sog‘lig‘i va rivojlanishi uchun zararli bo‘lmasa, ularning maktabga qatnashishiga yoki kasbiy tayyorgarlik dasturlarida ishtirok etishlariga zarar yetkazmaydigan bo‘lsa.

Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonunning 20-moddasiga binoan, ishga qabul qilishga o‘n olti yoshdan yo‘l qo‘yiladi. Bu Mehnat kodeksining 77-moddasida aks etilgan. Biroq 20-moddaga binoan, 16 yoshdan kichik bo‘lgan shaxslarga ham ba‘zi shartlarga rioya etgan holda ishlashga ruxsat berilgan.

O‘n besh yoshga to‘lgan shaxslar ota-onasidan birining yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslarning yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin.

Shuningdek, bolalarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning o'quvchilarini ularning *sog'lig'iga va rivojlanishiga ziyon yetkazmaydigan*, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtlarida bajarish uchun - ular o'n to'rt yoshga to'lganlaridan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Mazkur normada ishga qabul qilish uchun minimal yoshni maktabni tugatish yoshi bilan bog'lanmaydi. Biror bir qonun hujjatida ta'lim olishning tugatish yoshi belgilanmagan. Uning o'rniga, bolalar 12-yillik majburiy ta'limni tugatishi talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 12-moddasiga binoan, maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-etti yoshidan qabul qilinadi.

Ishni erkin tanlash huquqi. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 20-moddasi bolaning erkin ish va kasb tanlash huquqini e'tirof etadi. Biroq milliy va xalqaro standartlar bu huquqni bolaning hayotini, uni zo'ravonlikdan va ekspluatatsiyadan himoya qilishi va uning sog'lom rivojlanishini ta'minlash zaruriyati bilan cheklab qo'yadi.

Bola mehnatining eng yomon shakllari. XMTning 182-Konvensiyasiga binoan, davlatlar 18 yoshdan kichkina bo'lgan bolalar uchun bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlab qo'yishlari shart. Konvensiyaga binoan, "bolalar mehnatining eng yomon shakllari" atamasi quyidagilarni qamrab oladi:

a) qullikning barcha shakllari yoki qullikka o'xshash amaliyot, masalan, bolalarni sotish va ularning traffiki, qarz asosidagi qaramlik va krepostnoy tobelik, shuningdek zo'raki yoki majburiy mehnat, shu jumladan,, bolalardan qurolli mojaralarda foydalanish uchun ularni zo'rlab yoki majburlab jalb qilish;

b) fohishabozlik bilan shug'ullanish, pornografiya mahsulotlari tayyorlash yoki pornografik tomoshalarda ishtirok etish uchun boladan foydalanish, uni yollash yoki uni taklif qilish;

s) qonunga xilof faoliyat bilan shug'ullanish uchun, xususan, tegishli

xalqaro shartnomalarda belgilangani kabi, narkotiklar tayyorlash va sotish uchun boladan foydalanish, uni yollash yoki uni taklif qilish;

d) bajarish xususiyatlari yoki sharoitiga ko'ra bolalar sog'lig'i, xavfsizligi va ma'naviyatiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlar.

XMTning 190-tavsiyasi zararli va xavfli ish deganda nima tushunilish kerakligi yeritib, ushbu Konvensiyani to'ldiradi.

Yengil ish – XMTning 138-Konvensiyasiga binoan, o'n uch yoshdan o'n besh yoshgacha bo'lgan shaxslarga yengil ishlarda ishlashga yoki yollanib ishlashga ruxsat etilishi mumkin, agar bu:

a) ularning sog'lig'i va rivojlanishi uchun zararli bo'lmasa;

b) ularning maktabga qatnashiga, ularning vakolatli hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlangan kasbga yo'naltirish yoki kasbiy tayyorgarlik dasturlarida ishtirok etishlariga, yoki ularning olgan o'quvlaridan foydalanish layoqatiga zarar yetkazmaydigan bo'lsa.

Vakolatli hokimiyat organi ishlashga yoki yollanib ishlashga ruxsat etilgan faoliyat sohasini aniqlaydi hamda bunday ishning yoki yollanma ishning bajarish mumkin bo'lgan ish vaqti davomiyligi va sharoitini belgilaydi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning 20-moddasida 18 yoshga to'magan shaxslarning bolalar mehnatining eng yomon shakllaridan himoya qilinish huquqiga oid masalalar yoritilmagan bo'lsa-da, unda davlatning o'n sakkiz yoshga to'lmagan ishlovchi shaxslarga ishni ta'lim bilan qo'shib olib borishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish va qonun - hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa choralarni ko'rish orqali bolaning mehnat qilish huquqini ta'minlash bo'yicha majburiyatlari ko'zda tutilgan, hamda Qonunning 8-moddasiga binoan, davlat sog'lom bolaning tug'ilishi va rivojlanishini ta'minlash uchun sharoit yaratadi. Shuningdek, 10-modda bolani ekspluatatsiyaning barcha shakllaridan, shu jumladan, shahvoniy shilqimliklardan va jinoiy faoliyatga jalb etilishdan himoya qilishni davlat zimmasiga yuklaydi.

Mehnat kodeksiga binoan, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar mehnatidan shu toifa xodimlarining sog'lig'i, xavfsizligi yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi

mumkin boʻlgan mehnat sharoiti noqulay ishlarda, yer-osti ishlarida va boshqa ishlarda foydalanish taqiqlanadi.

Shuningdek, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza etish vazirligi va Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining 2009-yil 26-iyundagi “Oʻn sakkiz yoshdan kichik shaxslarning mehnati qoʻllanishi taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitlari ishlari roʻyxatini tasdiqlash haqida”gi 33Q/B; 13-sonli qarori qabul qilindi. Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 12-sentabrdagi 207-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh toʻgʻrisidagi Konvensiyani hamda Bolalar mehnatining ogʻir shakllarini taqiqlash va yoʻq qilishga doir shoshilinch choralar toʻgʻrisidagi Konvensiyani amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi qaroriga muvofiq qabul qilingan mazkur Qarorning ilovasida oʻn sakkiz yoshdan kichik shaxslarning mehnati qoʻllanishi taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitlari ishlari roʻyhati yangi tahrirda berilib, unda bolalar uchun 34 ta yoʻnalishda taqiqlangan noqulay mehnat turlari koʻrsatib oʻtildi¹⁸⁵.

Adolatli mehnat sharoitlari. “Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi qonunning 20-moddasida davlat yoshga qarab adolatli mehnat sharoitlarni yaratib beradi va oʻn sakkiz yoshga toʻlmagan ishlovchi shaxslarga mehnat qilish huquqi taʼminlaydi deyilgan.

Adolat va qulay ish sharoitlariga boʻlgan huquq Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida va xalqaro hujjatlarda aks etilgan. Ushbu huquq hech bir kamsitishsiz teng mehnat uchun teng haq olishni nazarda tutadi.

Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyada (32-modda) ham, XMTning 138-Konvensiyasida ham bolalar ishlashga ruxsat etilgan hollarda mehnat sharoitlariga oid qoidalarni ishlab chiqish talab qilingan.

¹⁸⁵ *Batafsil maʼlumotlar uchun qarang:* Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2009 y., 30-31-son, 355-modda

XMTnig 77-, 78-, 124-Konvensiyalariga binoan, ishlashga ruxsat olishdan oldin 18 yoshga to'lmaganlar tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart. Ko'rikdan o'tish bepul bo'lishi lozim.

Bola mehnatiga oid asosiy qoidalar Mehnat kodeksining 14-bobida ("Ayrim toifadagi xodimlarga beriladigan qo'shimcha kafolatlar va imtiyozlar") aks etilgan. (Mehnat kodeksining 239-258-moddalari)

Mehnat kodeksining 240-moddasi alohida e'tiborga loyiq bo'lib, unga binoan, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar mehnatga oid huquqiy munosabatlarda katta yoshdagi xodimlar bilan teng huquqda bo'ladilar, mehnatni muhofaza qilish, ish vaqti, ta'tillar va boshqa mehnat shartlari sohasida ular uchun mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan qo'shimcha imtiyozlardan foydalanadilar.

Ish vaqti - Ish vaqtining muddati o'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga o'ttiz olti soatdan, o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar (ta'til davrida ishlayotgan o'n to'rtidan o'n olti yoshgacha bo'lgan o'quvchilar) uchun esa haftasiga yigirma to'rt soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi. (Mehnat kodeksining 242-moddasi)

O'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlarga kamida o'ttiz kalendar kundan iborat yillik ta'til beriladi va ular bu ta'tildan yoz vaqtida yoki yilning o'zlari uchun qulay bo'lgan boshqa vaqtida foydalanishlari mumkin. (Mehnat kodeksining 244-moddasi)

Sog'liqni himoya qilish – Mehnat kodeksining 239–moddasiga binoan, o'n sakkiz yoshga to'lmagan barcha shaxslar dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgandan keyingina ishga qabul qilinadilar va keyinchalik ular o'n sakkiz yoshga to'lgunlariga qadar har yili majburiy tarzda tibbiy ko'rikdan o'tkazib turilishi kerak.

Shuningdek, Mehnat kodeksining 247-moddasida ota-onalarga va vasiylarga (homiylar), shuningdek mehnatni muhofaza qilish ustidan nazorat qiluvchi organlarga hamda voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalarga, agar o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar bajarayotgan ishni

davom ettirish ular sog‘lig‘iga ziyon qiladigan yoki ularga boshqacha tarzda zarar yetkazadigan bo‘lsa, bunday shaxslar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishni talab etishga berilgan huquq sog‘liqni saqlash huquqining muhim kafolati hisoblanadi.

Mehnat qilish huquqini himoya qilish – voyaga yetmaganlarning mehnat qilish huquqining muhim kafolati Mehnat kodeksining 246-moddasida aks etilgan. O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga, mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiy tartibiga rioya qilishdan tashqari, mahalliy mehnat organining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Ta‘lim va ish. Bolaning ta‘lim olishi va mehnat qilishi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Bolalar mehnatini oldini olishda ta‘lim olishning ta‘minlanishi katta ahamiyat kasb etadi. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 32-moddasiga binoan, davlatlar ta‘lim olishiga to‘sqinlik qiladigan ishlardan bolalarni himoya qilishi kerak.

Mehnat qilish huquqining ta‘lim olish huquqiga ziyot yetkazmay amalga oshirilishiga oid bunday bog‘liqlik “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 20-moddasida ham o‘z aksini topgan. Xalqaro standartlarda ta‘lim olishning ustuvorligi belgilangan bo‘lsa, milliy qonunchilikda ish bilan ta‘limni birga qo‘shib olib borish uchun sharoitlarni yaratib berish majburiyati davlat zimmasiga yuklatilgan.

Mehnat kodeksining 14 bobini “Ishni ta‘lim bilan birga qo‘shib olib borayotgan shaxslar uchun imtiyozlar” deb nomlanuvchi 3 paragrafi ta‘lim muassasalarida ishlab chiqarishdan ajralmagan xolda o‘qiyotganlar uchun yillik ta‘tillar berish vaqti va umumta‘lim maktablarida ishlab chiqarishdan ajralmagan xolda o‘qiyotganlar uchun ish vaqtini qisqartirish ko‘zda tutilgan.

Ish vaqtining muddati o‘n oltidan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlarga haftasiga o‘ttiz olti soatdan, o‘n beshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan shaxslar (ta‘til davrida ishlayotgan o‘n to‘rtidan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar) uchun esa haftasiga yigirma to‘rt soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi.

O‘qishdan bo‘sh vaqtlarida ishlayotgan o‘quvchilarning o‘quv yili davomidagi ish vaqti muddati ushbu moddaning birinchi qismida tegishli yoshdagi shaxslar uchun nazarda tutilgan ish vaqti eng ko‘p muddatining yarmidan ortib ketishi mumkin emas.

XMTning 138 va 182-Konvensiyalarini bajarilishini ta’minlash maqsadida 2008-yil 12-sentabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan 207-Qaror qabul qilinib, Milliy harakatlar dasturi tasdiqlandi. Milliy harakatlar dasturining 12-bandida umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o‘quvchilarining majburiy mehnatidan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan monitoring va nazoratni amalga oshirish hamda paxta yig‘im-terimi ishlarida

BOLANING DAM OLISH VA BO‘SH VAQTGA BO‘LGAN HUQUQI KAFOLATLARI

Har bir bola o‘zining yoshi, sog‘lig‘i hamda ehtiyojlariga mos keladigan dam olish va bo‘sh vaqtga bo‘lgan huquqqa ega.

Ota-ona yoki ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z qobiliyatlari hamda imkoniyatlariga muvofiq bolaning har tomonlama kamol topishi va farovonligi uchun zarur turmush sharoitini ta’minlaydi.

Bolalar sog‘lomlashtirish, sport, ijodiy tashkilotlari hamda dam olishni va bo‘sh vaqtni uyushtiruvchi boshqa tashkilotlar qonun hujjatlariga muvofiq davlat organlari tomonidan ta’sis etiladi va qo‘llab-quvvatlanadi.

“Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning bolaning dam olish va bo‘sh vaqtga bo‘lgan huquqi kafolatlariga bag‘ishlangan 21-moddasini Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning bolaning dam olish va bo‘sh vaqtni o‘tkazishga bag‘ishlangan 31-moddasi hamda ota-ona o‘z qobiliyatlari va moliyaviy imkoniyatlari doirasida bolaning kamol topishi uchun zarur bo‘lgan turmush sharoitini ta’minlash bo‘yicha asosiy javobgarligiga bag‘ishlangan 27-moddasi normalarini implementatsiyasi deyish mumkin.

Bolaning asosiy ijtimoiy va madaniy huquqlari himoyasiga yo‘naltirilgan mazkur norma, bolaning normal kamol topishi uchun juda muhimdir.

Mazkur norma shuningdek, bolaning mehnat qilish huquqi kafolatlari bilan ham bog‘liqdir. Dam olish va bo‘sh vaqtga bo‘lgan huquqni kafolatlagan holda, Qonun keyinchalik – bolalarni ekspluatatsiyadan himoya qiladi.

Ushbu holatda davlatga nafaqat bolaning turmush sharoiti uchun zarur dam olishga bo‘lgan bola huquqlarini ta‘minlash majburiyati, balki bolalar sport va ijodiy muassasalarini rivojlantirish yo‘li orqali bo‘sh vaqtni o‘tkazish majburiyati yuklatiladi.

Dam olish va bo‘sh vaqt tushunchasi. Dam olish va bo‘sh vaqt tushunchalari bir qatorda turadi va ahamiyati jihatidan bir-biriga juda yaqin, chunki mehnat bilan bog‘liq bo‘lmagan harakatni bildiradi. Lekin, birlashtiruvchi omil bo‘lishiga qaramay, bu tushunchalar ayrim farqlarga ega. “Dam olish” jismoniy va ruhiy tinchlanish va uyquga bo‘lgan asosiy ehtiyojni o‘z ichiga oladi, “bo‘sh vaqt” esa ancha keng qamrovli atama bo‘lib, “ko‘ngilochar tadbirlar”ga bo‘lgan vaqt va erkinlinki bildirib, qanoatlanish maqsadida tanlab o‘tkaziladigan bir qator tadbirlarni ichiga oladi (shuningdek, sport, ijodiyot, ilmiy, qishloq xo‘jaligi yoki texnik tadqiqotlar kabi “mehnat” terminiga mos tushadigan ham).

Dam olish. Dam olish bola kamol topishi uchun ovqatlanish, turar-joy, sog‘liqni saqlash va bilim olish kabi muhim komponent hisoblanadi. Charchagan bolalar odatda o‘qishga qodir emaslar va kasallikka tez chalinadilar. Mazkur huquq bolani dam olishi uchun kerakli vaqt bilan ta‘minlashni o‘z ichiga olgan farovon mehnat sharoitlariga bo‘lgan huquqni ham o‘z ichiga oladi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining 79- va 90-konvensiyalari qoidalariga ko‘ra, O‘zbekistonda voyaga yetmaganlarni tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb etish taqiqlanadi (Mehnat kodeksining 245-moddasi). Bundan tashqari, ta‘lim muassasalari bolaning yoshi va rivojlanishiga mos tarzda o‘quv dasturlari va dars jadvallari tuzishi va bu o‘quv dasturlar va jadvallarda har kungi dam olish uchun zarur vaqt va ta‘tillarni ham ko‘zda tutishi shart.

Bo‘sh vaqt. Bo‘sh vaqtga bo‘lgan huquq tungi uyquga kerak vaqtdan ko‘ra ko‘proq vaqtni o‘z ichiga oladi. Bu huquq, bolalarga o‘zlari uchun mehnat va

o‘qish oralig‘ida bir muddat vaqt kerakliligiga eslatmadir. Bo‘sh vaqtdagi sport tadbirlari, birinchi navbatda bolaning farovonligini rivojlantirish va bolaning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga yordam berishi lozim. Mazkur huquq “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning maktabdan tashqari ta’limga bag‘ishlangan 17-moddasida o‘z aksini topgan.

Ota-onalarning bolalarning farovonligi va kamol topishini ta’minlashga bo‘lgan ma’suliyati. Ota-ona yoki bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslar o‘z qobiliyatlari va moliyaviy imkoniyatlari doirasida bolaning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan turmush sharoitini ta’minlashga asosiy javobgardir.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 27-moddasiga binoan, ota-ona yoki bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslar o‘z qobiliyatlari va moliyaviy imkoniyatlari doirasida bolaning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan turmush sharoitini ta’minlashga asosiy javobgardir. Bunda, Konvensiya ota-onalarga zarur bo‘lgan moddiy qo‘llab-quvvatlashni davlat zimmasiga yuklaydi.

Konvensiyaning ushbu qoidasini amalga oshirib, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun ota-onalarga qobiliyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligi uchun zarur turmush tarzini yaratish ma’suliyatini yuklaydi. Ya’ni, uning jismoniy, ruhiy, ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash uchun qanoatlantiruvchi hayot standartlari yaratilishi kerak. Bunda bolaning jismoniy rivojlanishining eng muhim komponentlari ovqatlanish, kiyim-kechak va turar-joy, shuningdek, ichimlik suviga, sog‘lom tarbiyaga, gigiyena va sanitar shart-sharoitlarga, ozoda atrof-muhit va boshqalarning zarurligi hisoblanadi. Bundan tashqari, bolalar uchun muhim bo‘lgan sport va o‘yinlar orqali jismoniy rivojlanishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Odatda bunday ma’suliyat ota-onalarga zimmasida bo‘ladi. Ammo, bunday mas’uliyatni bajarish resurslar yetishmayotgan hollarda davlat ota-onalarga oziq-ovqat, kiyim-kechak va turar-joy ko‘rinishida moddiy yordam ko‘rsatadi.

Bolalar bo‘sh vaqtini o‘tkazish muassasalari tarmoqlarini rivojlantirish. Bolaning har tomonlama rivojlanishi va bo‘sh vaqtga bo‘lgan huquqi, ularning bo‘sh vaqtini sog‘lomlashtirish, sport, ijodiy, dam olish maskanlari kabi turli

maskanlarda o‘tkazishi orqali ta’minlanishi mumkin. Bola tarbiyalayotgan otalar va boshqa shaxslar, bolalarni bu ko‘rinishdagi faoliyatlar bilan o‘zlari ta’minlashlari shart emas. “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 21-moddasi 3-qismi davlat organlariga ko‘ngil ochish, sport, san’at va boshqa sohalarda bolalarga xizmatlar ko‘rsatishni yaratish va ishni tashkillashtirish ma’suliyatini yuklaydi. Davlat organlari bunday xizmatlar bilan ta’minlaydigan muassasalarni oldindan tashkil etishi va faoliyat olib borishi uchun ularni moliyaviy ta’minlashlari shart.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (17-modda) maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini bolalar va o‘smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini tashkil etishlari mumkinligini ko‘zda tutadi.

Unga muvofiq, maktabdan tashqari ta’lim muassasalariga:

- ijodiyot saroylari;
- bolalar uylari, klublari va markazlari;
- o‘smirlar ijodiyoti;
- bolalar-o‘smirlar sport maktablari;

Mazkur muassasalar:

- 6 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan barcha o‘quvchilarga ularning har tomonlama kamol topishlari va bo‘sh vaqtlarini o‘zlari belgilashlari uchun imkoniyat yaratadilar;
- o‘quvchilar shaxsining rivojlanishiga, ularning qiziqishlariga, iqtidoriga, mustaqil bilim olishlariga va ijodiy mehnat qilishlariga shart-sharoitlar yaratadilar;
- mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda maktabdan tashqari muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga oid chora-tadbirlarni amalga oshiradilar;
- ehtiyojlarni o‘rganish va shunga muvofiq bolalarning qiziqishlariga ko‘ra shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan to‘garaklar ochadilar; fan asoslari bo‘yicha qo‘shimcha ta’lim beradilar;
- bolalarga san’at va hunarmandchilikning an’anaviy milliy turlarini o‘rgatadilar;
- o‘quvchilar o‘rtasida qobiliyatli, iqtidorli yoshlarni aniqlash, shaxsni rivojlantirishga qaratilgan musobaqalarni, sayyohlik slyotlarini, texnika va badiiy ijodkorlik hamda boshqa tadbirlarni uyushtiradilar va o‘tkazadilar.

Maktabdan tashqari muassasalar tegishli hokimlikning qaroriga muvofiq barcha hudud (shaharchalar, tuman, shahar, viloyatlar va respublika)larda ochiladi. U mustaqil ravishda yoki ilmiy-ishlab chiqarish, o'quv-tarbiya kompleksi (markazi) tarkibida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Bolalarning ta'tillarini ko'ngilli va sermazmun o'tkazish uchun dam olish oromgohlari tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-martdagi 67-son "Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, oromgoh sanitariya-gigiyena, sanitariya-epidemiologiya hamda xavfsizlik talablariga to'liq javob beradigan va qulay sharoitda bolalarning belgilangan kundalik hayot tarziga rioya etishi, sifatli ovqatlanishi, ijodiy salohiyatining rivojlanishi, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarining shakllanishi, dam oldirilishi, salomatliklarining tiklanishi va mustahkamlanishi, jismoniy tarbiya, sport va turizm bilan shug'ullanishlarini ta'minlovchi sog'lomlashtirish muassasasi hisoblanadi.

Oromgohning maqsadi — bolalarning o'qishdan tashqari vaqtini sermazmun o'tkazish, ularning ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan hordiq chiqarishlarini ta'minlash, ular ongiga milliy g'oyani, vatanparvarlik tuyg'ularini hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iboratdir.

Shuningdek, bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda, bolalarning sog‘lom rivojlanishida sport sog‘lomlashtirish maskanlari, sport to‘garaklarining ahamiyatiga ham alohida to‘htalib o‘tish lozim.

Bolalar sportining ahamiyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov 2014-yil-mart oyida “O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi” Homiylik kengashining majlisida ishtirok etib, sport obyektlaridan to‘la va samarali foydalanish unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodning, ayniqsa, qizlarning sportga bo‘lgan qiziqish va intilishini orttirish yo‘lida muhim o‘rin tutishiga e‘tiborni jalb etib, 2014-yilga kelib, bolalar obyektlarida faoliyat ko‘rsatayotgan 57,5 mingdan ortiq sport seksiyalarida 1 million 800 ming nafardan ziyod bola 30 dan ortiq sport turi bilan muntazam shug‘ullanayotganligini va bu raqam, 2003-yilga nisbatan olganda, 1,4 barobar ko‘pligini, shu davr mobaynida maktab o‘quvchilarini jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga jalb etish 20,4 foizdan 40,5 foizga, jumladan qizlar o‘rtasida 16,4 foizdan 32,5 foizga o‘sganini, har qaysi sport inshootining kundalik o‘rtacha bandlik darajasi 9,2 soatga yetganini qayd etgan holda, “Sport mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim vositasi bo‘lib kelmoqda va kelajakda ham shunday bo‘lib qolishi muqarrar. Chunki sport – sog‘lom avlod, sog‘lom kelajak degani. Binobarin, faqat sog‘lom xalq, sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi”, deb alohida ta’kidlab o‘tdi¹⁸⁶.

Bolaning madaniy yutuqlardan foydalanish huquqi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ilm-fan bilan texnikaviy ijodiyotdan, osori-atiqalar, tarixiy yodgorliklar va madaniyat yutuqlaridan keng foydalanilmoqda. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida mustahkamlanganidek: “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”.

186 Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi homiylik kengashining majlisidagi ma’ruzasi. <http://press-service.uz/uz/news/772/>

Bolalarga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod huquqi va erkinligi berilgan. Bu huquq va erkinliklar ilmiy tadqiqotlar, ixtirochilik, ijod qilish faoliyatini keng avj oldirish, adabiyot va san'atni rivojlantirish, rag'batlantirish, mukofotlash bilan ta'minlanadi.

O'zbekistonda buning uchun zarur moddiy shart-sharoitlar yaratib berilmoqda, bolalarning ijod uylari, turli xil sport va boshqa madaniy, ma'rifiy to'garaklar, barkamol avlod bolalar markazlari, tashkil etilmoqda.

Barcha fuqarolar, kabi bolalarning ham intellektual mulkka bo'lgan huquqlari huquqlari davlat tomonidan rag'batlantirilmoqda va qo'riqlanmoqda.

Bolalar shuningdek, **tarixiy yodgorliklar, madaniy yutuqlardan keng foydalanish huquqiga** egadirlar. Ushbu huquq mamlakatimiz va jahon madaniyatining davlat va jamoat fondlarida saqlanayotgan madaniy-ma'naviy boyliklaridan barcha bolalarni bahramand qilish, mamlakatimiz hududida madaniy-ma'rifiy muassasalarni rivojlantirish, televideniye, radio, kitob nashr qilish ishini va vaqtili matbuotni, tekin kutubxonalar shoxobchalarini rivojlantirish, chet el davlatlari bilan madaniy aloqalarni kengaytirish bilan ta'minlanmoqda. Fuqarolarning yuqorida qayd etilgan huquqlaridan foydalanishida 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni muhim ahamiyatga egadir.

Madaniy taraqqiyotga va madaniy hayotda aholining ishtirok etishiga yordam berish maqsadida ko'plab jamg'armalar ishlab turibdi. Madaniyat ishlari bo'yicha vazirlik doirasida 85 ta muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatda 5735 ta kutubxona faoliyat ko'rsatmoqda.

Mustaqillik sharoitida O'zbekiston fuqarolarining intellektual ehtiyojlari, xilma-xil talablari oshib bormoqda va ular hokimiyat hamda boshqaruv organlari tomonidan tobora to'la qondirilmoqda.

BOLANING SOG'LIG'INI SAQLASH HUQUQINING KAFOLATLARI

Har bir bola sog'lig'ini saqlash huquqiga ega.

Davlat sog'lom bola tug'ilishini ta'minlash uchun onaga uning sog'lig'ini saqlash sharoitlarini yaratadi.

Davlat bolalarga qonun hujjatlariga muvofiq hajmda bepul tibbiy yordamni kafolatlaydi.

Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi davlat tomonidan quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishini tashkil qilish;

bolaning, uning ota-onasining salomatligini nazorat qilish va bolalar kasalliklari profilaktikasi;

bolalar va o'smirlarni davolash-profilaktika muassasalarida dispanser kuzatuvini olib borish hamda davolash;

talab darajasidagi sifatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi va sotilishini nazorat qilish;

bolaning fiziologik xususiyatlari va sog'lig'i holatiga javob beradigan ta'lim olish hamda mehnat qilish sharoitlarini yaratish;

kasbga yaroqlilikni aniqlashda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bepul tibbiy maslahat berish;

sanitariya-gigiyena ta'limi berish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va rag'batlantirish;

sog'lig'ining holati to'g'risida bola uchun qulay bo'lgan tarzda zarur axborotni taqdim etish.

O'n to'rt yoshdan katta yoshdagi bola ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega.

Bola bilan uning hayotiga, sog'lig'i va normal rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi har qanday ilmiy tajriba yoki boshqa eksperimentlar o'tkazish taqiqlanadi.

Davlat maxsus cheklovlarni joriy etish va maxsus profilaktika dasturlarini amalga oshirish orqali bolani alkogolga moyillikdan, chekishdan, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalar va intellektual-irodaviy faoliyatga ta'sir ko'rsatadigan boshqa moddalarni iste'mol qilishdan himoya qilish bo'yicha zarur choralarini ko'radi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 22-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan sog‘liqqa bo‘lgan huquq juda muhim bo‘lib, u bolaning boshqa huquqi hisoblanmish, yashash huquqi va rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, bu huquq *bola farovonligini ta‘minlash, ta‘lim olish, barcha turdagi jismoniy va ruhiy zo‘ravonlikdan himoya qilinish huquqi* kabilardan iborat bo‘lgan turmush tarzi bilan ham bog‘liq.

Xalqaro normalar va xalqaro tashkilotlar sog‘liqni saqlashga bo‘lgan huquq ta‘minlanishining muhimligini ta‘kidlaydilar. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning bolaning sog‘liqni saqlashga bo‘lgan huquqi aks etgan mazkur normasi Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning bolaning sog‘liqni saqlash tizimining takomillashgan xizmatlari, tibbiy xizmatlardan bahramand bo‘lishi, sog‘liqni rehabilitatsiyasiga bo‘lgan huquqi haqidagi 24-moddaga mos keladi. Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2000-yilda e‘lon qilingan Mingyillik rivojlanish maqsadlari deklaratsiyasida e‘lon qilingan 8 maqsaddan 3 tasi ham sog‘liqni saqlashga qaratilgan bo‘lib, ular chaqaloqlar o‘limi, onalar o‘limi va OIV/OITS sohasida vaziyatni yaxshilashga qaratilgan.¹⁸⁷ Qayd etish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlarini 2011-2015-yillarda bajarish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar kompleksi tasdiqlangan.

Mazkur norma, shuningdek, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning bolalarning noqonuniy narkotik va psixotrop moddalar iste‘mol qilishidan himoya qilishni ko‘zda tutuvchi 33-modda normalariga ham muvofiq keladi.

Bolalarni sog‘liqqa bo‘lgan huquqlari kafolatlaridan tashqari, Qonunning 22-moddasi sog‘lom bolalarning tug‘ilishi uchun juda ahamiyatli bo‘lgan onalarning sog‘liqni saqlashga bo‘lgan huquqini ham kafolatlaydi. Mazkur normadan kelib chiqib, davlat davlat bolalarning sog‘liqni saqlashga bo‘lgan

¹⁸⁷O‘sib borayotgan avlodning sog‘lig‘ini eng yaxshi ta‘minlash “Bolalarni saqlang” Xalqaro tashkiloti tomonidan 2012-yilda o‘tkazgan reytingida O‘zbekiston 161 davlat o‘rtasida 9 o‘rinni egalladi.: *Qarang*: Sbornik mejdunarodnyx dokumentov Komiteta OOn po pravam rebenka /Otv. red. A.X.Saidov. –T.: NSPCh, 2014. -S.5

huquqlari va alkohol va narkotiklar kabi zararli moddalarning ta'siridan himoya qilishni amalga oshirishni bajarishi shart bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Bundan tashqari, bu modda bolaning har qanday tibbiy aralashuv bo'yicha o'z fikrini bildirishiga bo'lgan huquqni va davolanishdan voz kechishga bo'lgan huquqini ham e'tirof oladi.

Sog'liqni saqlashga bo'lgan huquq. Qonun bolani sog'liqni saqlashga bo'lgan huquqini kafolatlaydi. Ushbu huquq davlatning sog'liqni saqlash xizmatlari va barcha bolalar uchun ularga kerakli xizmatlardan bahramand bo'lishini taminlash majburiyatini o'z ichiga oladi.

Sog'liq tushunchasi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti o'zining 1946-yilda Nyu-Yorkda Sog'liqni saqlash xalqaro konferensiyasida qabul qilingan Konstitutsiyasida sog'liq tushunchasiga ta'rif bergan. Ushbu ta'rif JSSTning 1978-yilagi Olma-otada qabul qilingan "Birinci tibbiy sanitariya yordami to'g'risidagi deklaratsiyasida ham qo'llanilgan. Unga binoan, *sog'liq – bu nafaqat kasalliklar yoki jismoniy nuqsonlar yo'qligi emas, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijmoiy farovonlik holati bo'lib, insoning sosiy huquqlaridan biri bo'ladi, va sog'liqning yuqori darajasiga erishi umumjahon ijtimoiy masala hisoblanadi,* uni bajarish uchun sog'liqni saqlash sektoridan tashqari jamiyatning barcha sektorlarining birgalikdagi ijtimoiy va iqtisodiy harakatlari kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasiga binoan, har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi huquqiga ega

O'zbekiston Respublikasining "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi qonunida malakali tibbiy xizmatga bo'lgan bola huquqlarining aniq mexnizmlari mustahkamlab qo'yilgan. Unda, jumladan, fuqarolarning sog'lig'ini saqlashning asosiy prinsiplari belgilangan (3-modda), ular:

- sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi;
- aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'la olishi;
- profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi;

- sog'lig'ini yo'qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi;
- tibbiyot fanining amaliyot bilan birligi.

Bundan tashqari, mazkur Qonunning 13-moddasidagi kamsitmaslik prinsipida "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sog'liqni saqlash borasida daxlsiz huquqqa egadirlar.

Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, fuqarolarning sog'lig'i saqlanishini ta'minlaydi" deyiladi. Ushbu Qonunning 24-moddasida belgilab qo'yilgan bemor huquqlari, bemor bolalarga ham taalluqli hisoblanadi.

Milliy qonunchilik va dasturlar. Bolalarning sog'liqni saqlashga bo'lgan huquqi nafaqat yuqorida ta'kidlangan Qonun bilan, balki malakali tibbiy xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan bir qator qonun va davlat dasturlari tomonidan ham ta'minlanadi. Aholining, shuningdek, bolalarning sog'lig'ini saqlash sohasida O'zbekistonda "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi, "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi, "Dori vositalari va farmasevtika faoliyati to'g'risida"gi, "Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida"gi, "Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning (OIV kasalligining) oldini olish to'g'risida"gi, "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi, "Psixiatriya yordami to'g'risida"gi, "Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risida"gi, "Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida"gi, kabi qonunlar, shuningdek, O'zbekistonda 2007-2011-yillarda bolalarning farovonligini ta'minlash milliy harakat dasturi, 2010-yildagi "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi, 2014-yildagi "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi kabi davlat dasturlari qabul qilingan.

Mamlakatimizda jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga

yetkazish vazifasini izchil davom ettirish uchun aniq maqsadga qaratilgan keng ko‘lamdagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini shu yo‘lda safarbar etish maqsadida hamda 2014-yil “Sog‘lom bola yili” deb e‘lon qilinishi munosabati bilan 2014-yil 19-fevralida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2133-son qarori bilan “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi qabul qilindi. Mazkur davlat dasturining ustuvor vazifalari va yo‘nalishlari to‘g‘risida 6-mavzuda batafsil to‘htalib o‘tganmiz.

Onaning sog‘lig‘ini ta‘minlash. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun 22-moddasining 2-qismi sog‘lom farzand tug‘ilishi maqsadida ona sog‘lig‘ini ta‘minlashga qaratilgan.

Bolalarga nisbatan Harakat dasturi bo‘yicha Butunjahon sammitiga ko‘ra “dunyoda bolalar o‘limining, ayniqsa chaqaloqlar o‘limining yuqori darajadiligiga sabab vaqtdan oldin tug‘ish, xavfsiz bo‘lmagan tug‘ish, turli xil kasalliklar perinatal sabablarga ko‘ra sodir bo‘lgan o‘lim asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Davlatlar mazkur masala yuzasidan ehtiyojga muhtoj bo‘lganlar uchun yetarli darajada bilimga ega tibbiyot xodimlari bilan ta‘minlashi lozim.

O‘zbekistonda ayollarning sog‘liqni saqlashga bo‘lgan huquqi Mehnat kodeksining 224-238-moddalaridagi ayollarga va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg‘ul shaxslarga beriladigan qo‘shimcha kafolatlarga bag‘ishlangan normalarida ham o‘z aksini topgan.

Sog‘liqni saqlash huquqining davlat kafolatlari. Davlat tibbiyot muassasalari tomonidan bolalarni tibbiy xizmatdan o‘tkazish bepul amalga oshirilmoqda. Bolalar bepul dori vositalari bilan ta‘minlanadigan aniq kasalliklar ro‘yxati mavjud (sil, SPID, diabet kabi kasalliklar).

Bolaning sog‘liqqa bo‘lgan huquqini ta‘minlash bo‘yicha eng muhim kafolatlardan biri malakali tibbiy xizmatni tashkil etish hisoblanadi. Bolalarning kasalga chalinishini va o‘limini kamaytirishda, birinchi navbatda, bolalar uchun asosiy tibbiy xizmatni takomillashtirish shart.

Bolalar kasalliklari profilaktikasini nazorat qilishni tashkil etish 1 yoshgacha; 1 yoshdan 5 yoshgacha; 6 yoshli bolalarni maktabga chiqishidan oldin

chuqur tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek, 14 yoshgacha bo'lgan bolalarni tor doiradagi mutaxassislar ishtirokida har yilgi kompleks tibbiy tekshiruvdan o'tkazish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Bolalarning dispanser nazoratida bo'lishi hamda ularning bolalar va o'smirlarning davolash profilaktika muassasalarida davolanishi nafaqat "Fuqarolar sog'lig'ini himoya qilish to'g'risidagi" Qonunning 19-moddasida, balki o'quv jarayonini tashkil etishga doir tegishli qoidalarda ham ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasining umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risidagi nizomga binoan, o'quvchilarni har yili mutaxassislarni jalb etgan holda dispanser tekshiruvdan o'tishi ta'minlanishi lozim.

Bolalarning sog'liqqa bo'lgan huquqini ta'minlash zarur sifatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishni nazorat qilish bilan ham ta'minlanadi. Davlat ushbu maqsadda bu mahsulotlarni ishlab chiqish va sotish uchun tegishli qoidalarni o'rnatadi.

Bolaning sog'lom rivojlanishining kafolatlaridan biri bolaning fiziologik o'ziga xosliklari va sog'lig'i holatiga javob beradigan ta'lim va mehnat sharoitlarini yaratish hisoblanadi. Bu haqidagi to'liq talablar O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida hamda ta'lim haqidagi alohida qoidalarda, umumiy va maxsus ta'limning davlat standartlarida e'tirof etilgan.

Davlat O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladigan bepul tibbiy maslahatni ta'minlash majburiyatini oladi.

Aholining tibbiy madaniyatini oshirish, ayollar sog'lig'ini mustahkamlash uchun sharoitlar yaratish, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalash, sog'lom iqlim va farovonlikni shakllantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002-yil 25-yanvar kuni "Ayollar va o'sib kelayotgan avlod sog'lig'ini mustahkamlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №32 son Qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorga binoan, boshqa chora-tadbirlar qatorida, sog'lom avlod, ayollar sog'lig'ini mustahkamlash va oilaning tibbiy madaniyati darajasini oshirish masalalari bo'yicha doimiy ishlovchi Hukumat komissiyasi tashkil etish, o'quvchilarning tibbiy madaniyatini oshirish maqsadida umumta'lim

maktablarining 10-11-sinflari o'quvchilarining hamda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda o'qitishning 2-3-yillari o'quv dasturlariga sog'lom oila va nikoh, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalash masalalari bo'yicha mutaxassis tibbiy xodimlar tomonidan o'tkaziladigan maxsus fakultativ darslar kiritilishi belgilab qo'yildi¹⁸⁸. Unga ko'ra, maktab, litsey, kolledjlarda 16 soatli "Reproduktiv sog'liq va sog'lom oilaning shakllanishi asoslari" fakultativ kurslari kiritilgan.

Bu huquqning ta'minlanishi, shuningdek, axborot olish huquqi bilan ham bog'liq. Bu holda qonunchilik sog'lig'i haqidagi kerakli ma'lumotni bolaga tushunarli shaklda berish haqidagi qoidalarni belgilab qo'ydi. "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunning 25-moddasiga ko'ra fuqaroning sog'lig'i haqidagi ma'lumotni uning o'ziga, o'n to'rt yoshga to'lmagan shaxslar hamda qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar sog'lig'i to'g'risidagi ma'lumotlarni esa ularning qonuniy vakillariga davolash-profilaktika muassasasining davolovchi shifokori, bo'lim mudiri yoki tekshirish va davolashda bevosita qatnashayotgan boshqa mutaxassislar beradi.

Ma'lumotli tibbiy aralashuvlarga bo'lgan huquq. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 22-moddasi 5-qismida bolaning sog'liqqa bo'lgan huquqi bilan birga ma'lumotga ega bo'lish va tanlash erkinligi huquqi ham ko'rsatib o'tilgan. "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunning 24-moddasida sanab o'tilgan bemorlar huquqiga tibbiy aralashuvga o'z ixtiyori bilan rozilik berish yoki uni rad etish ham kiradi. Bu huquq yuqorida ko'rsatilgan Qonunning 26-, 27- va 28-moddalarida to'liq tartibga solingan qilingan.

Qonunchilik qoidalarida bu huquqni ixtiyoriy tarzda amalga oshirish yoshi - 14 yosh belgilangan. Bu yoshga to'lgunga qadar tibbiy aralashuvga rozilikni ularning qonuniy vakillari beradi. Ota-ona yoki boshqa qonuniy vakillar yo'qligida tibbiy aralashuv to'g'risidagi qarorni konsilium qabul qiladi, basharti konsiliumga yig'ilishning iloji bo'lmagan taqdirda esa, keyinchalik davolash-profilaktika

¹⁸⁸*Batafsil ma'lumotlar uchun qarang:* O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2002 y., 2-son, 21-modda; 2004 y., 30-son, 344-modda

muassasasining mansabdor shaxslari va bemorning qonuniy vakillarini xabardor qilish sharti bilan bevosita davolovchi (navbatchi) shifokor qaror qabul qiladi.

“Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonunning 28-moddasida nazarda tutilgan hollar istisno etilgan holda, fuqaro yoki uning qonuniy vakili tibbiy aralashuvni rad etish yoki uning to‘xtatilishini talab qilish huquqiga ega, ushbu. Istisno etilgan hollarda shifokor yozma tasdiqnoma olishga, agar tasdiqnoma olishning iloji bo‘lmasa - tibbiy aralashuvni rad etishni guvohlar ishtirokida tegishli dalolatnoma bilan guvohlantirib olishga haqlidir.

Basharti tibbiy aralashuvni bemorning qonuniy vakili rad etsa va bu hol bemor uchun og‘ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo‘lsa, shifokor bu haqda vasiylik va homiylik organlarini xabardor qilishi shart.

Atrofdagilar uchun xavfli kasallikka chalingan shaxslarga fuqarolar yoki ular qonuniy vakillarining roziligisiz tibbiy yordam ko‘rsatilishiga qonun hujjatlarida belgilangan asoslarda va tartibda yo‘l qo‘yiladi.

Tibbiy eksperimentdan himoya qilish. Bola tibbiyot muassasasida ota-onasi va ularni o‘rnini bosadigan shaxslarsiz o‘z yoshi va fiziologik o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda yordamsiz qolishi mumkinligidan kelib chiqilgan holda, bolaga nisbatan har qanday ilmiy tajriba yoki bola hayoti, sog‘lig‘i va normal rivojlanishiga zarar qiladigan boshqa eksperimentlarni o‘tkazish qat’iyan ta’qiqlanadi.

Narkotik va boshqa psixotrop qaramlikdan himoya. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 22-moddasi 7-qismi davlatga bolani tamaki, alkohol va narkotik qaramlikdan himoya qilish majburiyatini qo‘yadi.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 33-moddasi ham davlatga bolani narkotik vositalar va psixotrop moddalarni noqonuniy iste’mol qilishdan himoya qilish majburiyatini yuklagan.

Bunda, xalqaro shartnomalar maxsus nazorat qilinishi talab qilingan narkotiklar ro‘yxatiga ega:

– opium, morfin va opiumli alkaloidlar va sintetik morfin (masalan, heroin);

- koka barglari va kokain;
- kanabis mahsulotlari (marixuana);
- qaramlik keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan yoki ularni haddan ziyod iste’mol qilinishi sog‘liqqa zarar keltiradigan har qanday psixotrop/psixoaktiv narkotiklar.

Narkotiklar bo‘yicha asosiy xalqaro shartnomalar 1972-yil Protokol bilan o‘zgartirish kiritilgan Narkotik vositalar haqidagi Yagona Konvensiya (1961 y.) va Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi Konvensiya (1972 y.) hisoblanadi.

Bolalar tomonidan iste’mol qilingan ruhiy va jismoniy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan moddalarga alkogol, tamaki va eritmalar (kley) ham kiradi.

2011-yil 5-oktabrida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi qonuni fuqarolarning sog‘lig‘ini, avvalo, yigirma yoshga to‘lmagan shaxslarning sog‘lig‘ini alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishning zararli ta’siridan, shu bilan bog‘liq ijtimoiy va boshqa salbiy oqibatlardan himoya qilishga, shuningdek jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda qaror toptirishning tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Qonunning 13-moddasiga binoan, alkogol va tamaki mahsulotlari 20 yoshga to‘lmagan shaxslarga; ta’lim, sport muassasalari va diniy muassasalardan besh yuz metrdan kam radiusda joylashgan savdo obyektlari tomonidan sotilishi mumkin emas.

BOLANING BILIM OLISH HUQUQI KAFOLATLARI

Har bir bola bilim olish huquqiga ega.

Davlat bolaning bepul majburiy umumiy o‘rta ta’lim, shuningdek o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi olishini kafolatlaydi

Bolalarning farovonligi ta'lim tarbiya olish va ma'naviy rivojlanish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish bilan uzviy bog'liq. Bolaning jismoniy, intellektual, ma'naviy axloqiy va ijtimoiy rivojlanishi ta'lim olish huquqi bilan bevosita bog'liq. Ta'lim olish huquqini amalga oshirish boshqa inson huquqlariga, ya'ni shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy huquqlarga ega bo'lish uchun asos hisoblanadi.

Ta'lim olishning muhimligi bir qator xalqaro hujjatlarda aks etilgan. Ushbu huquq Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida (26-modda) va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktda (13-moddaning 2-bandi) e'tirof etilgan. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 28-moddasi bolalarning teng ravishda ta'lim olish huquqini e'tirof etish majburiyatini davlatlar zimmasiga yuklagan. Bundan tashqari, Mingyillik taraqqiyot maqsadlaridan biri - 2015-yilga qadar barcha o'g'il va qiz bolalar boshlang'ich maktabni tamomlashini ta'minlash.¹⁸⁹

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning 23-moddasi bo'yicha davlat har bir bolaga ta'lim olish huquqini, jumladan bolaning umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. Bu huquq Qonunning 29-moddasida ham aks etilgan bo'lib, unda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta'lim olish huquqi e'tirof etilgan.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 28-moddasida ta'lim olish huquqi e'tirof etilgan.

Ta'lim deganda nima tushuniladi? Ta'lim olish maktabdagi o'qish bilan cheklanmaydi. Ta'lim bolaning tarbiyasi va jismoniy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini ham o'z ichiga oladi.

Ta'lim sohasida ixtisoslashgan tashkilot hisoblanmish YUNESKO tomonidan 1974-yil 19-noyabrda qabul qilingan “Xalqaro o'zaro tushunish, hamkorlik, tinchlik va inson huquqlarini va asosiy erkinliklarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash bo'yicha tavsiya”ning 1-moddasi a) bandiga ko'ra, “Ta'lim”

¹⁸⁹2000-yil BMTning Nyu Yorkdagi Sammitida qabul qilingan Mingyillik rivojlanish maqsadlarining 2-maqsadi: Batafsilroq ma'lumotlar uchun murojaat qiling: <http://www.un.org/millenniumgoals/index.shtml>

soʻzi ijtimoiy hayotning alohida shaxslar va guruhlar milliy va xalqaro farovonlik maqsadida oʻzlarining isteʼdodlarini, qobiliyatlarini, bilimlarini rivojlantirish uchun ongli ravishda oʻqish jarayonini qamrab oladi. Bu jarayon aniq bir tadbirlar bilan cheklanmaydi.¹⁹⁰ YUNESKO doirasida taʼlim olish huquqi, shuningdek 1960-yil 15-dekabrda “Taʼlim sohasida kamsitishga qarshi kurash toʻgʻrisida”gi konvensiya, 1989-yil 10-noyabrda “Texnikaviy va kasb-hunar taʼlimi toʻgʻrisida”gi konvensiya, kabi hujjatlarda ham oʻz aksini topgan.¹⁹¹

Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyaning 29-moddasining 1-bandiga binoan, “Ishtirokchi-davlatlar bolaga taʼlim berish quyidagi yoʻnalishlarda olib borilishi lozimligiga rozilik bildiradilar:

a) bolaning shaxsi, isteʼdodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlari eng toʻla hajmda rivojlanishi;

b) inson huquqlari va asosiy erkinliklariga, BMT Ustavida eʼlon qilingan tamoyillarga hurmatni tarbiyalash;

s) bolaning ota-onaga, uning madaniy oʻziga xosligi, tili va qadriyatlariga, bola yashayotgan mamlakatning, u dunyoga kelgan mamlakatning milliy qadriyatlariga, oʻzinikidan farq qiladigan madaniy taraqqiyot darajasiga hurmat bilan qarashni tarbiyalash;

d) bolani erkin jamiyatda, tinchlik, sabr-toqatli boʻlish, erkaklar va ayollarning tengligi hamda barcha xalqlar, etnik, milliy va diniy guruhlar, shuningdek, tub aholi orasidan boʻlgan shaxslar oʻrtasida doʻstlik ruhida tayyorlash;

e) atrof-tabiatga hurmatni tarbiyalash.”

190Recommendation concerning Education for International Understanding, Co-operation and Peace and Education relating to Human Rights and Fundamental Freedoms. http://portal.unesco.org/en/ev.php-URL_ID=13088&URL_DO=DO_TOPIC&URL_SECTION=201.html

191Batafsil maʼlumotlar uchun qarang: YuNYeSKO xalqaro meʼyoriy hujjatlari. /Oʻzbekcha nashrining masʼul muharriri L.Saidova. –T.: Adolat, 2004.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida ta'lim olish huquqi kafolatlangan bo'lib, unga binoan, har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi O'zbekiston Respublikasida yagona davlat siyosati asosida va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni tatbiq etish asosida ta'minlab beriladi. Ushbu Qonun ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyllarini belgilaydi va O'zbekiston Respublikasi rivojlanishida ta'limni ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etadi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;

ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ta'lim olish huquqining huquqiy tartibga solinishi kompleks xarakterga ega va bir qator huquq tarmoqlariga oid normalar bilan tartibga solinadi, ya'ni mehnat, oila, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy noqonuniy natijalar hollarda sud orqali himoya qilishda – jinoiy huquq normalari asosida. Ta'lim olish huquqi ham yuridik jihatdan ham amaliy jihatdan ham, ko'proq, bolalarga va yoshlarga qaratilgan. Shu bois, ta'lim olish huquqining amalga oshirish va muhofaza etishga oid barcha ijtimoiy va huquqiy masalalarda, odatda, ko'proq shu toifadagi shaxslarning

manfaatlaridan kelib chiqiladi. Ammo, qayd etish lozimki, ta'lim olish huquqi yoshidan qat'iy nazar barcha shaxslarga taalluqlidir.

Ushbu huquq nafaqat ta'lim to'g'risidagi qonun bilan, shuningdek. Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha davlat umummilliy dasturi bilan ham tartibga solinadi. Ushbu dasturlarda ta'lim tizimini rivojlantirish uchun zarur mexanizmlar hamda o'quvchilarga ijtimoiy ko'mak ko'rsatish buyicha choralar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida ta'lim turlari sanab etilgan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Sanab o'tilgan ta'lim turlaridan umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim turlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagilarni qamrab oladi: boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar); umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar).

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-etti yoshidan qabul qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki

tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta‘limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste‘dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim olish maqsadida har kim umumiy o‘rta ta‘lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishning yo‘nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo‘yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta‘limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo‘ladigan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi beradi.

Akademik litsey o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta‘minlaydigan uch yillik o‘rta maxsus o‘quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta‘minlaydigan uch yillik o‘rta kasb-hunar o‘quv yurtidir.

Bepul ta‘lim olish huquqi. Davlat bolaning bepul majburiy umumiy o‘rta ta‘lim, shuningdek o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi olishini kafolatlaydi

Bozor munosabatlariga o‘tish davrida ta‘lim olish huquqiga munosabat o‘zgardi. Ta‘limning bir qismi to‘lov asosida amalga oshiriladi. Faqat maktabdagi va o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim bepul.

Fuqarolarning davlat ta‘lim standartlari doirasida ta‘lim olish huquqining kafolati davlat tomonidan moliyalashtirishdir. O‘zbekistonda davlat byudjetining 30%idan ortig‘i ta‘lim sohasiga ajratiladi¹⁹².

Ta‘lim sohasida kamsitmaslik. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 28-moddasi ishtirokchi-davlatlar bolaning ilm olish huquqini e‘tirof etadilar hamda ana shu huquq teng imkoniyatlar asosida amalga oshirishini ta‘minlab berdi.

¹⁹²Mo‘minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. /Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013. –B.324

Bola huquqlari bo'yicha qo'mita alohida e'tiborga loyiq guruhlarni belgiladi, chunki ular ta'lim sohasida kamsitilish extimoli katta. Ular sirasiga :

qizlar;

qishloqdagi bolalar;

ozchilikni tashkil etadigan guruhlarga mansub bolalar;

nogiron bolalar;

ozodlikdan mahrum bo'lgan bolalar kiradi.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonunga binoan, jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

Ozodlikdan mahrum bo'lgan bolalar ham o'rta ta'lim va kasbiy-hunar ta'lim olish huquqiga ega.

Ta'lim umumta'lim maktablarida o'zbek, rus, qoraqolpoq, kozoq, turkman, tojik, qirg'iz tillarida olib boriladi. Ota tilidan tashqari o'quvchilar davlat tili o'zbek tilini va xorijiy tillarni o'rganishadi. Ozchilikni tashkil etadigan millatlarga mansub bolalar o'zlarining milliy tilini o'rganishga haqli. Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili to'g'risida”gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Bolaning ta'lim olish huquqlarining amalga oshirilishi to'g'risidagi batafsil ma'lumot Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning bajarilishi to'g'risidagi O'zbekistonning davriy ma'ruzalarida taqdim etilganligini ta'kidlash lozim.¹⁹³

2010-yilga bag'ishlangan “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi doirasida ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga katta hissa qo'shildi. Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi va zamonaviy o'quv

¹⁹³*Batafsil ma'lumotlar uchun qarang:* Sbornik mejdunarodnyx dokumentov Komiteta OOn po pravam rebenka /Otv. red. A.X.Saidov. –T.: NSPCh, 2014.

anjomlari bilan jihozlandi. “Barkamol avlod yili” Davlat dasturini amalga oshirish uchun davlat tomonidan 8 trillion so‘m sarflandi.¹⁹⁴

Bolalarning ta’lim olish huquqlarini to‘liq amalga oshirilishi uchun ta’lim sohasidagi bugungi kunda, mamlakatda ham qonunchilik, ham amaliy jihatdan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimini moliyalashtirishni kuchaytirishga, ta’lim muassasalarini moddiy-texnikaviy jihatdan ta’minlashga, ijtimoiy himoyaga muhtoj o‘quvchilarga yordam ko‘rsatishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim sohasida davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi, shuningdek xalqaro tashkilotlar, birinchi navbatda YUNISEF bilan hamkorlikning rivojlanishi ijobiy baholanishga loyiq.

Shunday qilib, inson huquqlarining xalqaro standartlaridan kelib chiqib, bola ta’lim muassasasida nafaqat muayyan fanlar bo‘yicha bilim oladi, balki o‘zining zamonaviy talablarga javob beruvchi yuqori sifatli ta’lim olish huquqini, bolaning barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishiga yordam beruvchi axborot olish huquqini, fuqaroning faol hayot pozitsiyasini tarbiyalashga yordam beruvchi o‘z fikr va e’tiqodlarini erkin ifoda etish huquqini, o‘z sha’ni va qadr-qimmatiga, tarbiya va jazolashning nohuquqiy shakllariga, uning shaxsiy hayotiga aralishishdan himoyalani huquqini, sog‘liqni saqlash va shaxsiy xavfsizlikka doir huquqini, dam olish va vaqtni qiziqarli o‘tkazish huquqini, shuningdek bolalar o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlarida ishtirok etish huquqini amalga oshiradi.

4. Bolalarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini buzganlik buzganlik uchun javobgarlik bola huquqlarining kafolat sifatida va uning huquqiy asoslari

Bolaning xususiy mulkka bo‘lgan huquqi, bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, bolaning oilaviy muhitga bo‘lgan huquqi, bolaning turar joyga bo‘lgan huquqlari, bolaning mehnat qilish huquqi, bolaning dam olish va bo‘sh vaqtga bo‘lgan huquqi, bolaning sog‘lig‘ini saqlash huquqi,

¹⁹⁴*Qarang:* Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruza. 2010-yil 7 dekabr /– T.: “O‘zbekiston”, 2010. – 32 b.

bolaning bilim olish huquqi kabi huquqlarini ta'minlash orqali bolaning ikkinchi avlod huquqlari bo'lmish iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish davlat faoliyatining eng muhim yo'nalishi hisoblanadi. Albatta, bu huquqlarni ta'minlab berishda tegishli maxsus qonunlarni qabul qilish va boshqa tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, bu huquqlarni ta'minlashning yetarli kafolati hisoblanmaydi. Chunki, bunday huquqlar ham ayrim hollarda fuqarolar, mansabdor shaxslar va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan buzilishi mumkin. Bunda buzilgan huquqlarni tiklash bilan bir qatorda, uni buzgan huquqbuzar subyektlar uchun tegishli ravishda javobgarlik belgilanishi, bu huquqlarni ta'minlashning kafolati bo'lishi mumkin.

Bolaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini buzganlik uchun, sodir etilgan huquqbuzarlikning xarakteriga qarab, huquqbuzar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan ma'muriy, jinoiy, fuqarolik yoki moddiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Quyidagi bunday huquqbuzarliklar uchun javobgarlik turlariga to'htalib o'tamiz.

Ma'muriy javobgarlik. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining "Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbuzarliklar" deb nomlanadigan 5-bobida bola huquqlarini ta'minlash sohasidagi huquqbuzarliklarning turli xillari uchun javobgarlikni ko'zda tutgan qator normalar mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur kodeksning 42-moddasida fuqarolarning tarbiya va ta'lim berishda tilni erkin tanlashdan iborat huquqlarini buzish, tildan foydalanishda to'sqinlik qilish va cheklash, davlat tilini, shuningdek O'zbekiston Respublikasida yashovchi boshqa millatlar va elatlarning tillarini mensimaslik uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Ushbu norma ta'lim sohasida kamsitilmaslik va teng huquqlik tamoyilini amalga oshirish kafolati deb hisoblanadi.

Shuningdek, 2013-yili Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks bolalarni ta'lim olish huquqini buzganligi, bolalarni maktab, litsey yoki kollejdagi o'qishga qatnashishiga to'sqinlik qilganligi uchun ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni tegishli ravishda javobgarlikka tortish bo'yicha norma bilan to'ldirildi.

Jumladan, mazkur Kodeksning bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik masalalariga bag'ishlangan 47-moddasining 1-qismida "Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan, voyaga yetmagan bolalarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi — eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi" deb ko'rsatilgan bo'lsa, unga yangi kiritilgan 2-qismga ko'ra, "Bolalarning majburiy umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishiga ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to'sqinlik qilish - eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi" deb belgilab qo'yildi¹⁹⁵.

Kodeksda bevosita ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, jumladan ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organiga xabar qilmaslik (47¹-modda), ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda qonun hujjatlari talablarini buzish(47²-modda), vasiylik huquqini suiiste'mol qilish (48-modda) uchun tegishli ravishda ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Bolaning mehnat sohasidagi huquqlarini buzish uchun Kodeksning 49-moddasiga binoan javobgarlik ko'zda tutilgan.

Alohida qayd etib o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga ko'shimchalar kiritish haqidagi" qonuni yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik bilan bog'liq vaziyatni yaxshilash, ularning g'ayrisotsial xatti-harakatining oldini olishga qaratilgan bo'lib, unda voyaga yetmaganlarni tungi vaqtda ota-onalaridan birining yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxsning kuzatuvisiz restoranlarga, kafelarga, barlarga, diskotekalarga, kinoteatrlarga,

195 O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 41-son, 543-modda. www.lex.uz

Internet va kompyuter zallariga, ko'ngilochar tadbirlar o'tkaziladigan boshqa binolarga kiritganlik uchun ma'muriy javobgarlik joriy etilishi ko'zda tutilgan.

Jahonning ko'p davlatlarida voyaga yetmaganlarning tungi vaqtda ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok masalasi qonun hujjatlarida mustahkamlangan bo'lib, qonun hujjatlarida javobgarlik belgilangan. Jumladan, 2009-yilda "Rossiya Federatsiyasida bola huquqlari asosiy kafolatlari to'g'risidagi" Qonunga¹⁹⁶ tegishli o'zgartish va ko'shimchalar kiritilib, unda tungi vaqt (22.00dan 06.00gacha) tushunchasi, davlat organlari, mahalliy organlari hamda ota-onalarni bolalarni sog'lom va ma'naviy yetuk tarbiyalash majburiyatlari, shuningdek, 18 yoshga to'lmagan shaxslarni tungi vaqtda kuzatuvizsiz jamoat joylarga, stadionlarga, restoranlarga, kafelarga, barlarga, Internet va kompyuter zallariga, ko'ngilochar tadbirlar o'tkaziladigan joylarga borishi, jamoat transortida yurishi uchun cheklov o'rnatilishi hamda ma'muriy javobgarlik joriy etilishi ko'zda tutilgan. 2002-yil 23-iyuldagi Germaniyaning "Yoshlar muxofazasi to'g'risidagi" qonunida 18 yoshga to'lmagan bolalarni tungi bar va klublarda, ko'ngilochar, qimor o'yin zallarda va shunga o'xshash joylarda bo'lishi taqiqlangan.

Ayrim xorijiy davlatlarda (AQSh, Fransiya, Germaniya va boshqalar), esa tungi vaqtda alkogol ichimliklarni sotish joylari cheklangan bo'lib, voyaga yetmaganlarni uchun alkogol mahsulotini sotish va istemol qiladigan joylarga kiritish taqiqlangan. Buyuk Britaniyada spirtli ichimliklarni sotish 8.00dan 21.00gacha ruxsat etilgan bo'lsa, Irlandiyada esa 18 yoshga to'lmagan shaxslarni ushbu ichimliklarni bilan savdo qiladigan barlarga 21.00dan keyin kirish taqiqlanadi¹⁹⁷.

Jinoiy javobgarlik. Bola huquqlarining buzilishi jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, Jinoyat kodeksida fuqarolarning, jumladan, bolalarning konstitutsiyaviy huquqlarini buzish uchun, jumladan mehnat qilish huquqini (148-

¹⁹⁶ Федеральный закон РФ №71-FZ от 28 апреля 2009 г. «О внесении изменений в Федеральный закон «Об основных гарантиях прав ребенка в Российской Федерации»

¹⁹⁷ Tillaboyev A. Bolalarning ijtimoiy-huquqiy himoyasi masalalari. //Demokratlashtirish va inson huquqlari. -№2, 2010. -B.13

modda) buzish uchun javobgarlik ko'zda tutilgan.

Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqining kafolati bo'lib Jinoyat kodeksining quyidagi qoidalari xizmat qiladi: voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan: alkogol va tamaki vositalarini sotib, savdo yoki xizmat qoidalarini buzish (189-modda), giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish (272-modda), giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar (273-modda), giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarini iste'mol qilishga jalb etish (274-modda).

Jinoyat kodeksining 116- va 117-moddalari tibbiyot xodimlari tomonidan kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmasligi va xavf ostida qoldirilishi bolaning hayoti va sog'lig'i himoyasining kafolati hisoblanadi.

Sog'liqqa bo'lgan kafolatning elementi bo'lib, Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalb qilish bo'yicha voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish to'g'risidagi modda hisoblanadi (127-modda). Ushbu modda bo'ya huquqbuzar tegishli muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ko'zda tutiladi.

Oila kodeksining 153-moddasiga binoan, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftaridagi va boshqa hujjatlardagi farzandlikka oluvchilar farzandlikka olinganlarning ota-onasi emasligini bildiradigan mazmundagi yozuvlar bilan tanishtirish bu yozuvlardan ko'chirmalar va boshqa ma'lumotlarni farzandlikka oluvchilarning rozilgisiz, agar ular vafot etgan bo'lsa vasiylik va homiylik organining rozilgisiz berish taqiqlanadi. Ushbu qoidani buzganlik uchun Jinoyat kodeksida javobgarlik belgilangan. Jinoyat kodeksining 125-moddasida farzandlikka olish sirini oshkor qilish uchun sanksiyalar ko'zda tutilgan

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning 10- va 11-moddalari bolani ekspluatatsiya qilishning barcha shakllaridan va ota-onalar tomonidan suiste'mol qilinishdan himoya qilish majburiyatini davlat zimmasiga yuklaydi.

Oila kodeksida ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish va ularni cheklash shartlari, oqibatlari, bunday shaxslarni bolalari bilan ko'rishii, ota-onalik huquqini cheklanishni bekor qilish, Bolaning hayoti yoki sog'lig'i bevosita xavf ostida qolganda bolani olish, Sudda bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni ko'rishda vasiylik va homiylik organining ishtiroki, Bolalarni tarbiyalash bilan bog'liq ishlar bo'yicha sudning hal qiluv qarorlarini ijro etish tartib qoidalari belgilangan (79-89 moddalar).

Ota-ona quyidagi hollarda ota-onalik huquqlaridan mahrum bo'lishi mumkin: ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan, aliment to'lashdan bo'yin tovlasa, uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassidan tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa; ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa, mutassil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lsa, o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yohud eri xotining hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa (79-modda).

Ota-onalik huquqlaridan mahrum etish qonun asosida va sud tomonidan amalga oshiriladi. Ota-onalik huquqlaridan mahrum etish bo'yicha ishlar ota yoki ona, prokuror yoki vasiylik va homiylik organlari da'vo arizasiga binoan ko'riladi.

Bolaning mehnat sohasidagi huquqlarini buzish uchun javobgarlik. Bolaning mehnat sohasidagi huquqlarini buzganlik uchun ish beruvchining javobgarligi Ma'muriy kodeksda ko'zda tutilgan bo'lib, uning tartibi va proseduralari Kodeksning 187-197-moddalarida belgilangan.

Fuqarolik –huquqiy javobgarlik. Fuqarolik kodeksiga binoan, moddiy va ma'naviy zarar yetkazish orqali bola huquqlariga oid qonun hujjatlarni buzish uchun Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan sud tartibida fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortish ko'zda tutilgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. *Bolaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari degandan nimani tushunasiz?*
2. *Bolaning iqtisodiy huquqlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.*
3. *Bolaning xususiy mulkka bo'lgan huquqi deganda nimani tushunasiz?*
4. *Bolaning ijtimoiy huquqlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.*
5. *Bolaning madaniy huquqlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.*
6. *Bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash deganda nimani tushunasiz?*
7. *Bolaning oilaviy muhitga bo'lgan huquqi kafolatlari deganda nimani tushunasiz?*
8. *Bolaning turar joyga bo'lgan huquqlari kafolatlari deganda nimani tushunasiz?*
9. *Bolaning mehnat qilish huquqi kafolatlari deganda nimani tushunasiz?*
10. *Bolaning dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqi kafolatlari deganda nimani tushunasiz?*
11. *Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi kafolatlari deganda nimani tushunasiz?*
12. *Bolaning bilim olish huquqi kafolatlari deganda nimani tushunasiz?*
13. *Bolaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarining buzilishi deganda nimani tushunasiz va ular uchun qanday javobgarlik ko'zda tutiladi.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar va manbalar ro'yhati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014.*
2. *Karimov I.A.. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruza. 2010-yil 7-dekabr /– T.: "O'zbekiston", 2010.*
3. *Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik / Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI nashriyoti, 2009.*
4. *Mo'minov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. –T.: JIDU, 2011*

5. *Mo‘minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. 2-nashr. –T.: Adolat, 2013.*
6. *Mo‘minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013.*
7. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi. –T.: O‘zbekiston, 2013.*
8. *“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga sharhlar” /Mas‘ul muharrir A.X.Saidov – Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008.*
9. *Balog‘atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar. /Kirish so‘z muallifi va mas‘ul muharrir. A.X.Saidov. –T.; 2002.*
10. *Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar. To‘plam. /O‘zbekcha nashrining mas‘ul muharriri A.X.Saidov. -T.: Adolat. 2004.*
11. *YUNESKO xalqaro me‘yoriy hujjatlari. /O‘zbekcha nashrining mas‘ul muharriri L.Saidova. –T.: Adolat, 2004.*
12. *Sbornik mejdunarodnyx dokumentov Komiteta OOn po pravam rebenka /Otv. red. A.X.Saidov. –T.: NSPCh, 2014.*
13. *O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodeksi, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, Fuqarolik va Fuqarolik-protsessual kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqa tegishli milliy qonun hujjatlarini topish uchun qarang: LexUz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz*

9-bob. Bola huquqlarini ta'minlash usullari

1. Bola huquqlarini ta'minlashda davlat organlarining o'rni va roli
2. Bola huquqlarini himoya qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va roli
3. Bola huquqlarini ta'minlashda inson huquqlari bo'yicha milliy mexanizmning o'ziga xos xususiyatlari
4. Bola huquqlari milliy monitoringi

1. Bola huquqlarini ta'minlashda davlat organlarining o'rni va roli

Albatta, barcha sohalarda bo'lgani kabi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bola huquqlarini ta'minlash va himoya qilish sohasida ham muhim va hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Chunki, bu sohadagi davlat siyosatini amalga oshirilishi, qonunchilikni takomillashtirish va boshqa huquqiy, tashkiliy masalalarning qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining qanchalik demokratik va samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga binoan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'z vazifalari doirasida quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish;

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash;

bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini ijro etish;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari hamda hududiy dasturlarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish;

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat organlari, bolalar muassasalari, tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga doir tadbirlarni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish;

davlatga qarashli bolalar muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va nodavlat bolalar muassasalarini rivojlantirishga ko'maklashish chora-tadbirlarini ko'rish;

bola huquqlarini ta'minlash masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish hamda xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifodalash;

axborot-ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash masalalarini hal etish.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, davlat organlari va boshqa organlarning, tashkilotlarning bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida qonun - hujjatlarida belgilangan tartibda bola huquqlari bo'yicha vakolatli organ tashkil etilishi mumkin.

Bolalarga oid davlat siyosatini hayotga tatbiq etish bo'yicha davlat organlarining asosiy vazifalarini va vakolatlarni tartibga solishga, ularning faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini va shakllarini belgilashga qaratilgan. Shuningdek, ushbu modda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada nazarda tutilgan bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha turli davlat organlari o'rtasidagi, davlat organlari va milliy nodavlat hamda xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish va o'zaro ta'sirini kuchaytirish maqsadida kompleks choralar ko'rish zarurligi to'g'risidagi qoidalarning amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Bola huquqlarining himoya qilinishini ta'minlaydigan organlar tizimi inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha umumiy davlat tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va bu tizimga quyidagi davlat organlari kiradi:

➤ Bola huquqlari va ekrinliklarining kafolatchisi – davlat boshlig'i, ya'ni, mamlakatdagi barcha hokimiyat vakolatlarini muvofiqlashtiruvchisi sifatida - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

➤ Vakillik organlari sifatida – oliy vakillik organi sifatida: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari, mahalliy vakillik organlari organlari sifatida: viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlari;

➤ Ijro etuvchi hokimiyat organlari sifatida - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, ijro xokimiyatiga qarashli boshqa davlat tuzilmalari hamda mahalliy davlat boshqaruvi organlari, ya’ni hokimiyatlar;

➤ Sudlov hokimiyati organlari sifatida - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo‘jalik sudi, fuqarolik va jinoiy ishlar bo‘yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari, xarbiy va xo‘jalik sudlari tarkibida sud tizimini tashkil etadigan sud organlari;

➤ Nazorat organi sifatida - O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va unga buysunadigan prokuraturalar;

➤ Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar sifatida: Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonunchilikni monitoring instituti¹⁹⁸.

Bola huquqlarini ta’minlash bo‘yicha yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish va bola huquqlarini ta’minlash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni belgilash. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash va hamda strategik dasturlarni, jumladan bola huquqlariga oid dasturlarni qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlariga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ichki va tashqi siyosatiga oid eng muhim masalalari, jumladan bola huquqlarini ta’minlash masalari bo‘yicha har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ma’ruzalar taqdim etadi. Shunday qilib, bola huquqlariga oid yagona davlat siyosatini shakllantirish O‘zbekiston

¹⁹⁸Bola huquqlari. / Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik // Prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009.-B.163

Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat siyosatini shakllantirishda va amalga oshirishda iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalarning samarali faoliyatiga rahbarlikni ta’minlaydigan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faol ishtirok etadi. Hukumat davlat boshqaruv organlar tizimiga va o‘zi tashkil etadigan xo‘jalik boshqaruv organlariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatiga ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat, va aholini ijtimoiy himoya qilish va boshqa sohalarda yagona davlat siyosatini amalga oshirish kiradi.

2003-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qumitalari, idoralari va boshqa davlat va xo‘jalik organlarining faoliyatni muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi, ularning faoliyatini tartibga soladigan nizomlarni tasdiqlaydi. Vazirliklar va idoralar faoliyati ustidan, jumladan bola huquqlariga oid masalalar bo‘yicha faoliyati ustidan ham nazoratni amalga oshirib, Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo‘mitalari idoralari va boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining qarorlarini qonunchilikka zid kelgan hollarda bekor qilish huquqiga ega. Bevosita bolalar huquqlarini ta’minlash masalalari bilan Vazirlar Mahkamasining ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha Axborot-tahlil departamenti shug‘ullanadi.

Vazirliklar va idoralar, boshqa davlat boshqaruv organlari o‘zlari boshchilik qiladigan sohalarda yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta’minlaydi. Masalan, 2004-yil 5-avgustdagi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan tasdiqlangan Xalq ta’limi vazirligi to‘g‘risidagi Nizomga binoan, vazirlikning asosiy vazifalariga maktabgacha bo‘lgan, umumiy, o‘rta va maktabdan tashqari ta’limning rivojlantirishga, pedagogik kadrlarning, ayniqsa boshlang‘ich maktab o‘qituvchilarining sifatini va professional darajasini ko‘tarishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish kiradi.

Ta'kidlash joizki, bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va ustuvor vazifalari bola huquqlarini amalga oshirish bo'yicha mehanizmlar va proseduralarga oid masalalar bo'yicha qabul qilinayotgan qonunlarda va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarini ta'minlashga bag'ishlangan har yilgi va maxsus davlat dasturlarida o'z aksini topadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha qonun-hujjatlar va davlat (hududiy) dasturlarining ijrosini ta'minlaydi.

Bolaning yashash, sog'lig'ini saqlash, bilim olish, zo'ravonlik va ekspluatatsiyadan himoyalani, dam olish va boshqa vaqtga bo'lgan huquqlari hamda boshqa huquqlari va erkinliklari tegishli qonun hujjatlar bilan tartibga solinadi va Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura va joydagi prokuraturalar, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar, Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili, vasiylik va homiylik organlari, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy organlari tomonidan ta'minlanadi.

Davlat organlari, bolalar muassasalari tomonidan bola huquqlarini ta'minlashga oid qonun-hujjatlarni va O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini ijro etilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish bola huquqlari masalalari bilan shug'ullanadigan davlat organlarining muhim vakolatlaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillari mobaynida O'zbekiston Respublikasida Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalari asosida bola huquqlarini ta'minlash bilan shug'ulanadigan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish modeli shakllandi. Bu sohada qonun-hujjatlarni amalga oshirish masalalari bo'yicha davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlaydigan asosiy organ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi bo'ladi. Masalan, 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan va 2007-yil 2-oktabrda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan

“Sog‘liqni saqlash to‘g‘risida”gi Qonunda ko‘rsatilganidek, Vazirlar Mahkamasining vakolatiga fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash, oilani, onalikni va bolalikni muhofaza etish bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik subyektlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish kiradi.

Idoraning ichki faoliyatni muvofiqlashtirishmasdan bola huquqlarini ta‘minlanishini tasavvur qilish mumkin emas, unda yuqori davlat organlari quyi, ya‘ni ularga bo‘ysunadigan tuzilmalarning faoliyatini muvofiqlashtirishadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi ta‘lim muassalarining faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Idoralararo muvofiqlashtirish darajasida ham katta ish olib borilib, u kelib chiqayotgan muammolarni birgalikda hal etish uchun Vazirlar Maxkamasi tomonidan hamda vazirliklar, idoralar va bolalar muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasida Bolalar huquqlarini va qonuniy manfaatlarini monitoring va nazorat qilish milliy tizimi shakllangan bo‘lib, uni shartli ravishda ichki va tashqi monitoring va nazoratga ajratish mumkin.

Ichki monitoring va nazorat bola huquqlarini ta‘minlash sohasidagi vaziyatni monitoring qilishda namoyon bo‘lib, muayyan sohada bola huquqlarini bevosita amalga tatbiq qiladigan quyi tuzilmalar va idoralarga qarashli bo‘limlar ustidan yuqori organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat organlari, bolalar muassasalari va tashkilotlarining faoliyati yuzasidan tashqi monitoring va nazorat qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi davlat organlari tizimida yaratilgan quyidagi maxsus institutlar tomonidan amalga oshiriladi:

- Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Vakili;
- Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Amaldagi qonunchilikni monitoring qilish instituti;

- Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi tizimida faoliyat olib boradigan inson huquqlari himoya qilish bo'yicha maxsus tuzilmalar (inson huquqlari bo'yicha boshqarmalar);
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sud huzuridagi sud qonunchiligini demokartlashtirish va liberallashtirish va sud tizimini mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar markazi;
- Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar (*mazkur komissiya faoliyati to'g'risida keyingi paragrafda batafsil to'htalib o'tiladi*).

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha choralarni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash. “Bolalar huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning 5-moddasida bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish uchun moliyalashtirishni ta'minlash zaruriyati aniq ko'rsatilgan. Bu moliyalashtirish davlat tomonidan va mamlakat qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar bilan ta'minlanishi kerak .

BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini bajarish uchun davlat bolalarning ijtimoiy harajatlarini ta'minlash uchun, ayniqsa milliy, viloyat va tuman darajalarida sog'liqni saqlash, farovonligini oshirish va ta'lim sohalarida ajratiladigan byudjet mablag'larini qayta ko'rib chiqishi kerak.

Qonun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bola huquqlariga oid davlat siyosatini moddiy-texnikaviy va moliyaviy ta'minlash bilan bog'liq vakolatlarini belgilaydi. Qonun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va boshqa qonun bilan taqiqlanmagan manbalar hisobidan bola huquqlarini himoya qilishga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni belgilangan tartibda moliyalashtirish, bu mablag'larni davlat bolalar muassasalarining moddiy - texnikaviy asosini mustahkamlash, nodavlat bolalar muassasalarining rivojlanishiga ko'maklashish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvatlashga yo'naltirish bo'yicha majburiyatlarni davlat zimmasiga yuklaydi.

Bola huquqlari bo'yicha turli hil faoliyatlarni moliyalashtirish tartibi qonunda belgilangan. Masalan, “Sog'liqni saqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida (9-modda) quyidagi sog'liqni saqlash tizimini

moliyalashtirish manbalari nazarda tutilgan: davlat byudjeti mablag‘lari, tibbiy sug‘urtalash mablag‘lari, fuqarolarning sog‘lini saqlashga mo‘ljalangan aniq maqsadga yo‘naltirilgan fondlar, tibbiy-profilaktika muassalar tibbiy yordam ko‘rsatish uchun olgan mablag‘lari, ixtiyoriy va xayriya badallari, bank kreditlari va boshqa qonun bilan taqiqlanmagan manbalar. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 31-moddasida ko‘rsatilganidek, davlat ta’lim muassasalarining moliyalashtirilishi respublika va mahalliy byudjet, hamda byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, O‘zbekiston tegishli davlat organlari orqali o‘zining xalqaro majburiyatlarini bajarish doirasida bolalar huquqlarini ta‘minlash uchun nafaqat qonuniy va tashkiliy choralar, balki ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va moddiy-texnikaviy choralar ham ko‘radi, ulardan boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim tizimini, ularning sog‘lig‘ini saqlash, ijtimoiy himoyaga muxtoj bolalarga yordam berish uchun foydalaniladi. Bola huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish davlat byudjeti hisobidan, ijtimoiy manbalar (jamoatashkilotlarning fondlari), xalqaro tashkilotlar (YUNISEF va boshqa) mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bola huquqlariga oid xalqaro majburiyatlarni bajarilishini nazorat qilish.

Davlat organlariga bola huquqlarini ta‘minlash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish va O‘zbekiston Respublikasining manfaatlarini xalqaro tashkilotlarda himoya qilish vakolati berilgan. Shu munosabat bilan, ta‘kidlash joizki, “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 27-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari qat’iy va majburiy ravishda bajarilishi lozim. O‘zbekiston hukumati ularni bajarish uchun choralarni ishlab chiqadi va xalqaro majburiyatlarni, jumladan bola huquqlariga oid majburiyatlarni bajarish uchun ma’sul bo‘lgan vazirliklarni va idoralarni belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi tegishli vazirliklar va idoralari vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun bevosita

ma'sul. Ushbu davlat organlari BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi va boshqa tegishli xalqaro hujjatlarning qoidalari bajarilishi to'g'risidagi milliy ma'ruzalar uchun ma'lumot taqdim etadilar.

Axborot - ma'rifiy faoliyat. “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonun va boshqa qonun hujjatlar haqida axborot berish bola huquqlarini samarali himoya qilinishini ta'minlaydi va shuning uchun axborot-ma'rifiy faoliyat bola huquqlarini himoya qilish masalalari bilan shug'ulanadigan davlat organlarining muhim vakolati hisoblanadi. U aholi, bolalar, huquqni muhofaza qilish organlari, NNT vakillari, fuqarolarning o'z o'zini boshqarish organlarining bola huquqlarini himoya qilish va ularla rioya etish masalari bo'yicha bilimni oshirishga qaratilgan.

Axborot-ma'rifiy choralar doirasida davlat organlari bola huquqlarini ta'minlash masalalariga oid O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, O'zbekiston qo'shilgan xalqaro huquqiy hujjatlar, bola huquqlari bilan shug'ulanadigan davlat va nodavlat tuzulmalarning huquqlari va majburiyatlari to'g'risida axborot berishlari, bola huquqlari buzilgan taqdirda ularni himoya qilish usullari va shakllarini tushuntirishi kerak.

Shuningdek, bola huquqlariga bag'ishlangan ma'rifiy faoliyat maktabgacha va maktab ta'lim muassasalarida bola huquqlari bo'yicha ta'lim tizimini shakllanishida, tegishli adabiyot chop etilishida, seminarlar, treninglar, konferensiyalar, suhbatlar va aholi bilan uchrashuvlar olib borilishda, bolalarning ijtimoiy ahvolini yaxshilash bo'yicha horijiy tajribani o'rganishda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash davlat organlarining muhim vakolati hisoblanadi. Bu toifadagi bolalarga Qonuning 3-moddasiga binoan nogironlar, jismoniy va yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar, yetimlar, maxsus bolalar muassasalarida tarbilanayotgan bolalar, turar joyi bo'lmagan bolalar, kam ta'minlangan oilalardan bolalar, hamda jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazo o'tash muassasalarida bo'lgan, zo'ravonlik va

ekspluatatsiyadan, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlari himoya qilish bo‘yicha maxsus choralar va proseduralar nazarda tutilgan bo‘lib, Bolalar farovonligini ta‘minlash bo‘yicha Milliy harakatlar dasturida ularni himoya qilish bolalarni qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishi deb belgilangan. Ushbu dasturning 5-bo‘limi maxsus sharoitlarda bo‘lgan bolalarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha aniq choralarni ko‘rsatadi. Bundan tashqari, “Bolalar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 3-bobida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo‘shimcha kafolatlari aks etilgan.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari ularning vakolatini belgilaydigan hujjatlar asosida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. Masalan, yagona statistik ma‘lumot va hisobot tizimini o‘rnatish, bola huquqlarini amalga oshirish masalalari bo‘yicha ma‘lumotlarni to‘plash, bola huquqlarini tartibga solishni takomillashtirishda ishtirok etish, bola huquqlari sohasidagi vaziyatni yaxshilashga ko‘maklashadigan organlar va tuzilmalarni shakllantirish barcha davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

Shu yerda alohida qayd etish lozimki, “Bolalar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda bola huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash hamda davlat va boshqa organlar bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tashkilotlar faoliyatini monitoring qilish maqsadida bola huquqlari bo‘yicha vakil institutini tashkil etish ehtimoli ko‘zda tutilgan.

2. Bola huquqlarini himoya qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni va roli

Barcha demokratik jamiyatlardan bo‘lgani kabi, O‘zbekiston Respublikasida bola huquqlarini himoya qilish va ta‘minlashning huquqiy kafolatlari va ularning samaradorligi mamlakatdagi fuqarolik jamiyatining tayanchi hisoblangan institutlar: fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlarining faoliyatiga bevosita bog‘liqdir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda fuqarolarning inson huquqlarini himoya qilishda nosudlov organlari hisoblangan nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashishi uchun xalqaro va milliy huquqiy kafolatlar yaratilgan. Bugunga kelib, O‘zbekiston BMTning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” (1948 y), “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” (1966 y.), “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” (1966 y.) kabi xalqaro hujjatlari, shuningdek, XMT va YUNESKO tashkilotlarining bu sohaga taalluqli qator xalqaro hujjatlariga qo‘shildi hamda milliy qonunchilik tizimi yaratildi va bu institut doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bu tizimga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Ijtimoiy fondlar to‘g‘risida”gi, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Xomiylik to‘g‘risida”gi qonunlari kabi qonunlar, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “Jamoat birlashmalarini ro‘yxatdan o‘tkazishni tartibga solish to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi hududida jamoat birlashmalari nizomlarini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi kabi qonunosti hujjatlari kiradi¹⁹⁹.

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda va himoya qilishda ko‘maklashadi, bolaga yoki uning qonuniy vakiliga huquqiy, uslubiy, axborotga oid va boshqa yordam ko‘rsatadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari:

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha davlat dasturlari va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda hamda ro‘yobga chiqarishda ishtirok etishi;

¹⁹⁹ Mo‘minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas’ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013. –B.419

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga doir vakolatlarni amalga oshirishda davlatdan va xalqaro tashkilotlardan uslubiy, tashkiliy hamda moliyaviy yordam olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasiga binoan, voyaga yetmaganlarning huquqlari davlat himoyasidadir, lekin ularni ta'minlashda faqat davlat ishtirok etmaydi.

Fuqarolik jamiyati institutlari mustaqil va davlat organlari bilan birgalikda bola huquqlarini ta'minlashda ishtirok etishadi. 6-moddada bu faoliyatni amalga oshirish maqsadida dasturlar ishlab chiqishda va amalga oshirishda va davlat tomonidan va xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyalashtirishni ta'minlashda jamiyat ishtirokini ko'zda tutadi.

Bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda jamiyatning ishtiroki bevosita fuqarolar tomonidan tuziladigan jamoa tuzulmalar, ya'ni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar (jamo birlashmalari, jamoa fondlari, muassalar, institutlar va hokazo) faoliyatida namoyon bo'ladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bolaga uning huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda va himoya qilishda kshmak kshrsatishadi, bolaga yoki uning qonuniy vakiliga huquqiy, uslubiy, axborot va boshqa turdagi yordamni ko'rsatadi.

Bola huquqlarini ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaring huquqlari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli hududda yashaydigan bolalar huquqlarini amalga oshirish bo'yicha huquqlarga ega. Bu organlar mahalliy ahamiyatga ega masalalarni, birinchi navbatda, bolalarni tarbiyalash, barcha toifadagi bolalarni huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liq masalalarni hal qilish bo'yicha mustaqil faoliyat olib boradi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ular shaharlarda, qishloqlarlarda, qo'rg'onlarlarda, ovullarda va mahallalarda joylashganligi sababli bolalarga va ota-onalarga, ta'lim va ijtimoiy muassasalarga yaqinroq bo'ladi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati tizimiga kirmaydi,

lekin bola huquqlariga tegishli mahalliy ahamiyatga ega masallara hal qilishda mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan yaqin aloqada bo‘ladi.

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, bu organlar quyidagi huquqlarga ega:

➤ Qonunlar va boshqa qonun-hujjatlar, jumladan bola huquqlari masalalariga oid qonun-hujjatlar ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

➤ Tuman, shahar va viloyat xokimiyatlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarning har chorakda topshiriladigan, jumladan bolalarga oid bo‘lgan hisobotlarini tinglash;

➤ Kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish, bolali muxtoj oilalarga nafaqalar tayinlash;

➤ Yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan choralarni ko‘rish, bu masalalar bo‘yicha ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik qilish;

➤ Bolalar sport-maydonchalarini obodonlashtirishda va jihozlashda aholini ixtiyeriy ravishda ishtirokini tashkillashtirish;

➤ O‘smirlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olish, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha olib boriladigan ishlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko‘maklashish;

➤ Maktablar va boshqa ta‘lim muassasalarning sanitar xolatini nazorat qilishga ko‘maklashish;

➤ Belgilangan tartibda tegishli organlarga mansabdor shaxslarni tomonidan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarning qarorlari bajarmaganligi yoki kerakli darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikka tortish uchun vakolati doirasi taqdimnomalar kiritish ;

➤ Fuqarolarni, jumladan bolalarni va ularning qonuniy vakillari qabul qilish, ularning bola huquqlariga rioya etish va ularni himoya qilish bo‘yicha shikoyatlarlari, arizalari va takliflarini ko‘rib chiqish.

O‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalliy darajada bola huquqlarini va manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ijtimoiy ishlarni tashkillashtiradi, vasiylik va

homiylilik organlariga ota-onalar to'g'risida ma'lumot beradilar, hamda bunday bolalarni tegishli davlat muassalariga joylashtirilishiga ko'maklashadi

O'zini o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari bunday ma'lumotlarni bermaganligi yoki noto'g'ri ma'lumotlarni berilganligi uchun ma'imuriy javobgarlikka tortiladi (O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 47-prim. moddasi)

Bola huquqlarini ta'minlashda NNTning huquqlari. O'zbekiston Respublikasining nodavlat notijorat tashkilorining (NNT) faoliyatini tartibga soluvchi qonun-hujjatlari ularga bola huquqlarini ta'minlash va himoya qilishda faol ishtirok etish imkoniyatini beradi. NNT – daromad olish maqsadini ko'zlamaydigan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun, ijtimoiy, madaniy va ta'lim maqsadlariga erishish uchun, xayriya ishlarini amalga oshirishi uchun va boshqa jamiyat uchun foydali bo'lgan maqsadlarni ko'zlab ixtiyeriy ravishda jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tuziladigan o'zini o'zi boshqaradigan tashkilotlar.

Ta'kidlash joizki, yoshlarning nodavlat notijorat tashkilotiga o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar, bolalarning nodavlat notijorat tashkilotiga esa o'n yoshga to'lgan shaxslar a'zo bo'lishi mumkin. ("Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning 18 - moddasi).

NNTlar quyidagi huquqlarga ega:

- o'z a'zolarining va ishtirokchilarining, jumladan bolarning ham huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- bola huquqlarini ta'minlash maqsadida ijtimoiy hayotning turli masalalari bo'yicha tashabbuslar bilan chiqish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga bolalar ahvolini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qarorlarini ishlab chiqishda ishtirok etish (jamo'a ekspertizasi, qonun loyihalarining umumxalq muxokamasi, bola huquqlari bo'yicha davlat va hududiy dasturlarni ishlab chiqish);
- bola huquqlari bo'yicha o'zlarining faoliyati haqida axborot berish;

- bola huquqlari bo'yicha aborot vositalarini ta'sis etish va nashriyot faoliyatini olib borish;
- nizomdagi vazifalarini bajarish uchun tadbirkorlik tuzulmalar tashkil etish;
- o'z faoliyatiga oid masalalar bo'yicha yig'ilishlar, konferensiyalar o'tkazish;
- qonunchilikka muvofiq tarzda vakolatxonalarini ochish va filiallarni tashkil etish.

NNT qonunda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Davlat NNTlarning, jumladan bolalar huquqlari bilan shug'ulanadigan NNTlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, jamiyat hayotida ishtirok etishi uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi. NNTlarga subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar berish orqali ko'maklashadi, NNTlarga axborotga olish, mulkini, ishchanlik obro'si, intellektual faoliyatining natijalarini himoya qilish, va davlat organlarining noqonuniy harakatlari, mansabdor shaxslarning harakati (harakatsizligini) yuqoridagi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqini kafolatlaydi.

Nodavlat tuzulmalar xalqaro tashkilotlar ko'magida bolalar huquqlari bilan bog'liq masalarni, aniqrog'i bolalarning huquqiy himoya qilinishini kuchaytirish, oilani qo'llab-quvvatlash, bolalar sog'lig'ini saqlashni kuchaytirish, ta'lim, tarbiya va rivojlanishini sifatini oshirish, alohida sharoitlarda bo'lgan bolalarni qo'llab quvvatlash, bolalarning mehnat sohasidagi va odil sudlov sohasidagi huquqlarini himoya qilish va shu kabi masalalarni hal etishda faol ishtirok etishadi

Nodavlat notijorat tashkilotlar, ya'ni bolalar nodavlat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, jamoa fondlari bola huquqlarini, erkinliklarini, va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha davlat va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirishda faol ishtirok etishadi.

O'zbekistonda bolalarning farovonligini ta'minlash, ularning manfaatlarini himoya qilish, barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalash borasida davlat dasturlarini amalga oshirishda "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish Jamg'armasi", "Sen

yolg'iz emassan”, “Mahalla”, “Sog'lom avlod uchun” jamg'armalari, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston bolalar va oilalarni qo'llab-quvvatlash Assotsiatsiyasi, Respublika bolalar ijtimoiy adaptatsiyasi markazi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, “Oila” markazi, “Mehr tayanchi”, “Ekosan”, Qizil yarim oy jamiyati, “Nogironlar jamiyati” kabi NNTlari faol ishtirok etishi bilan bir qatorda o'z dasturlarini ham hayotga tatbiq etmoqda.

Misol uchun, O'zbekiston Prezidentining 2002-yil-oktabrdagi Farmoniga asosan tashkil etilgan “O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi” xalqaro nohukumat tashkiloti mablag'lari hisobidan 2004-2014-yillarda 1113ta bolalar sporti obyekti, jumladan, 252ta yangi sport majmuasi, 861ta sport zali qurilgan. Ushbu obyektlarning 84 foizi qishloq joylarda barpo etilgan. Bundan tashqari, faoliyat ko'rsatayotgan 262ta sport inshooti rekonstruksiya qilingan va kapital ta'mirlandi.”²⁰⁰.

Shuningdek, Bolalar va oilalarni qo'llab-quvvatlash Assotsiatsiyasi O'zbekiston Bolalar jamg'armasining huquqiy vorisi bo'lib, u mamlakatning deyarli barcha viloyatlarida o'zining tuzilmaviy bo'limlariga ega bo'lib, bolalar huquqlarini ta'minlashda ko'maklashish, onalik va bolalikni muhlfaza qilish ishlariga qaratilgan ijtimoiy hamkorlik tamoyiliga asoslangan holda bir necha dastur va loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.²⁰¹

“Sog'lom avlod uchun” jamg'armasi tomonidan 2008-yilda 6508 tadan ortiq sport, madaniy-ma'rifiy, xayriya tadbirlari o'tkazilib, ularga 956354 ming so'm sarflandi. 2009-yilnig 1-yarim yilligida 2136 tadan ortiq tadbirlar o'tkazildi.

Mamlakat ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, kam ta'minlangan oilalar farzandlarini ijtimoiy himoyalash darajasi yaxshilanishiga erishilmoqda. Ayniqsa, mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning ta'lim tarbiyasi va turmush sharoitlarini yaxshilash, ularning qonuniy huquqlarini va

200 Bolalar sportini rivojlantirish Jamg'armasi 10-yilda qurilish ishlari uchun 570 milliard so'm sarfladi. <http://kun.uz/2013/03/16/bolalarsporti/>

201Yusupova I. Bolalar manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan institutsional tizimda nodavlat-notijorat tashkilotlarning o'rni. //”O'zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini boshqarishni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish: yutuqlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro forumning materiallari. Toshkent, 2011-yil 29-30-noyabr. –T.: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2011. –B.94

manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda, moddiy, tibbiy yordam ko‘rsatishda nodavlat tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan tadbirlar yaxshi samara bermoqda.

“SOS” Kinderdorf Interneshnl Xalqaro tashkiloti hamkorligida 2000-yilda Toshkent shahrida “SOS-O‘zbekiston bolalar mahallasi” tashkil etilgan edi. Amaliyotda o‘zini to‘la oqlagan bu usul keyinchalik yanada ommalashtirildi. 2006-yilda Samarqand shahrida “SOS-bolalar mahallasi” o‘z faoliyatini boshladi.

Yetim bolalarni ijtimoiy himoya qilish, ular huquqlarining poymol qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularning kelgusida hayotga moslashishlarida ko‘maklashish bugungi kun talabidir. Shu ma’noda yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarning jamiyat hayotiga har tomonlam moslashuvida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi va “Sen yolg‘iz emassan” Respublika jamoatchilik bolalar jamg‘armasining xizmatlari katta²⁰².

Shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, ko‘p bolali oilalarga ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlar olib borilmoqda. Mustaqillik yillarida ona va bolaga davlat tomonidan ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish yaxlit tizimi shakllantirildi. Shuni ta’kidlash lozimki, 2006-yilda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy muhofaza etishga davlat byudjetining 51 % sarflangan bo‘lsa, 2009-yilda bu ko‘rsatkich 55,6% tashkil etdi, 2010-yilda esa 59,1%ni,²⁰³ 2014-yilda 60 %ni tashkil etmoqda²⁰⁴.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish ehtiyojlariga bunday e’tibor, bunday munosabatda bo‘lish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitlarida juda kam uchraydigan holatdir.

Bolaning ijtimoiy huquqiy himoyasi oila va davlatning zimmasida ekan, avvalo, eng yaxshi yondashuv ham ota-ona o‘rnini bosa olmasligini tan olish zarur.

²⁰²Xolbekov A. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvichlarini ijtimoiy himoyalash – bola huquqlarini ta’minlashning omili sifatida. //“O‘zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini boshqarishni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish: yutuqlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro forumning materiallari. Toshkent, 2011-yil 29-30-noyabr. –T.: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2011. –B.162

²⁰³Tillaboyev A. Bolalarning ijtimoiy-huquqiy himoyasi masalalari. //Demokratlashtirish va inson huquqlari. -№2, 2010. –B.12.

²⁰⁴ Выступление Президента Ислама Каримова на открытии международноy конференции «O vajneyshix rezervax realizasii prodovolstvennoy programmy v Uzbekistane». <http://www.mfa.uz/ru/press/news/2014/05/1946/>

Shu sababli davlat haqiqiy oilani mustahkamlash, uning buzilishini oldini olish imkoniyatlarini izlab topmoqda.

Nohukumat tashkilotlar o'zining ta'lim xizmatlari, bolalar va onalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, nogironlar va xastalarni parvarishlash, ehtiyojmandlarga ijtimoiy ko'mak berish kabi sohalardagi muhim ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyati bilan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni rivojlantirish ishiga salmoqli ulush qo'shmoqda. Mamlakatda Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va Nodavlat notijorat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilishi bola huquqlari muammolari bilan shug'ullanuvchi NNTlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bola huquqlarining umumjahoniyligi prinsipini ro'yobga chiqarishda, bola huquqlari borasida aholining huquqiy ongini yuksaltirishda fuqarolik jamiyati, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan bir qatorda, ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Ommaviy axborot vositalari kattayukichik fuqarolar ongida bola huquqlari va erkinliklari, qonuniy manfaatlari to'g'risida huquqiy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish, bolalarning faol ijtimoiy-huquqiy qarashlarini mustahkamlash borasida muayyan ishlarni amalga oshirmoqda. O'zbekistonda davlatga qarashli va nodavlat ko'plab ommaviy axborot vositalari, xususan, 671 gazeta, 208 jurnal, 4 axborot agentligi, 79 nashriyot va bir qancha elektron ommaviy axborot vositalari mavjud. Bolalarga bag'ishlangan maxsus ommaviy gazeta va jurnallar chop etilmoqda, telekanallar tashkil etilmoqda. "Bola va Zamon", "Gulxan", "G'uncha", "Tong yulduzi", "Klass!", "Bulbulcha", "Bilimdon", "Dono Word", "Znayka", "Buloqcha" Bolalar ekologik jurnali, "Maktabdan tashqari ta'lim" ("MTT"), "Polvonjon" bolalar va o'smirlar sport jurnali kabi jurnallar va gazetalar shular jumlasidandir.

Davriy matbuot sahifalari, televideniye ko'rsatuvlari va radioeshittirishlarda bola huquqlarining turli jihatlari borasida tushuntirish-targ'ibot ishlarini olib borishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bolalarda, ularning atrofdagi dunyoni bilishga, zamonaviy axborot texnologiyalarini hamda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini hisobga olgan holda dunyoqarashni shakllantirishda elektron ommaviy axborot vositalarining tobora ortib borayotgan rolini e'tiborga olib hamda bolalarning intellektual, idrok qilishga bo'lgan va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2013-yil 30-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1976-sonli qarori bilan "Bolajon" respublika bolalar raqamli telekanalini tashkil etildi.

Bola huquqlarini ta'minlab berish bo'yicha nodavlat tashkilotlarining o'sishi va faollashuvi kuzatilmoqda. Bola huquqlarini ta'minlab berish va himoya qilishning turli sohalari bo'yicha ixtisoslashgan umummilliy darajadagi nodavlat tashkilotlarining tarmog'i ishlab turibdi, ularga quyidagilar kiradi: "Kamolot" – yoshlar tashabbuslarini, yoshlarning siyosiy va liderlik faolligini qo'llab-quvvatlovchi O'zbekiston yoshlari harakati; "Sen yolg'iz emassan" - yetim bolalar, ota-onalari qarovsiz qolgan bolalar, nogiron bolalar, kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalarni qo'llab-quvvatlovchi jamg'arma; O'zbekiston Bolalar va oilalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi – bolalarning bevosita ishtiroki bilan ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi jamg'arma; "Sog'lom avlod uchun" – tibbiy, ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha jamg'arma.

Bolalarning malakaviy tibbiy ko'rikka bo'lgan huquqlarini amalga oshirishning muayyan mexanizmi "Fuqarolar sog'lig'ini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunda mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur qonunga ko'ra, davlat sog'liqni saqlash tizimi xizmatlaridan foydalanish va bolalar sog'lig'ini tiklash uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Respublika reproduktiv salomatlik markazi va O'smirlar reproduktiv salomatligi markazi va ularning viloyatlardagi filiallari faoliyat ko'rsatib turibdi. Har yili barcha bolalarni tibbiy dispanserizatsiyalash amalga oshirilmoqda. 90-yillardan buyon go'daklar o'limining darajasi kamayishi kuzatilmoqda.

3. Bola huquqlarini ta'minlashda inson huquqlari bo'yicha milliy mexanizmning o'ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunda O'zbekistonda bola huquqlarini himoya qilishning keng institutsional mexanizmi shakllangan. Ushbu mexanizmni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, shuningdek, viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, ijroiya hokimiyatiga qarashli boshqa davlat utzilmalari, shuningdek hokimiyatlar, sud, prokuratura organlari, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi davlat organlari, shuningdek, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat tashkilotlari tashkil etadi.

Bu tizimda oldingi paragraflarimizda alohida ta'kidlab o'tilmagan institutlar, ya'ni inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar hamda voyaga yetmagan ishlari bo'yicha maxsus komissiyalar faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning nosudlov tizimiga kiradi. O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutlari kiradi. Ularning faoliyati biz oldingi mavzularda ko'rib chiqqan bola huquqlari bo'yicha xalqaro andozalar va ilg'or xorijiy tajriba asosida tashkil etilgan va doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Quyida ularning huquqiy maqomi va faoliyatiga to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman) instituti O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Oliy Majlisning birinchi sessiyasida tashkil etildi va 1995-yil 6-mayda Oliy Majlis qaroriga binoan, uning huzurida Vakilning inson huquqlari borasidagi vazifalarni namunali amalga oshirishiga ko‘maklashish uchun Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya qilish komissiyasi tashkil etildi. Vakil va Komissiya faoliyati Oliy Majlisning 1995-yil 29-avgust Qarori bilan tasdiqlangan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risidagi nizom bilan tartibga solingan. Qayd etish lozimki, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman)” atamasi odatda, qisqartirilib, “Vakil”, “Ombudsman” nomlari bilan ham ataladi. Jahon va xorijiy amaliyotda “Ombudsman” atamasi keng qo‘llaniladi.

“Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi qonun 1997-yilda qabul qilingan va 2004-yil 27-avgustda yangi tahrirda qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining mazkur yangi tahrirdagi Qonunining har bir qoidasi inson huquqlari himoyasi uchun xizmat qiladi.²⁰⁵

Mazkur qonun Inson huquqlari bo‘yicha vakilning huquqiy holatini, faoliyat sohasi va tamoyillarini, shuningdek, lavozimga saylanish va ishdan bo‘shatilish tartibini, fuqarolarning shikoyat va arizalarini ko‘rib chiqishdagi vakolatlari hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoyalashdagi huquqlari va majburiyatlarini belgilab beradi.

O‘zbekistondagi Vakil keng huquqiy vakolatlarga ega bo‘lib, uning faoliyati davlat va fuqaro, jamiyat va shaxsga oid ijtimoiy munosabatlarning muhim sohasini o‘z ichiga oladi. Hozirgi zamon jamiyatining hayoti va faoliyatining Vakilga taaluqli bo‘lmagan birorta sohasi yo‘q, chunki inson va uning haq-huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari Vakilning asosiy diqqat obyekti hisoblanadi²⁰⁶.

²⁰⁵ Mo‘minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013. –B.428

²⁰⁶ Qarang: Dunyo ombudsmanlari. To‘plam /Mas‘ul muharrir S.Rashidova. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.

Bir tomondan, Vakil zimmasiga tarbiyaviy va ma'rifiy funksiyalar yuklatilgan: u inson huquqlari bo'yicha boshqa milliy tizimlar qatori inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya qilish zaruratini yalpi tan oldirish va tushunishga keng ko'lamda ko'maklashadi, jamiyatga O'zbekiston qonunlari va xalqaro normalarida mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlari, kafolatlari va burchlari haqida atroflicha axborot beradi.

Ikkinchi tomondan, Vakil fuqarolar huquqlarining beg'araz va insonparvar himoyachisidir: u inson huquqlari buzilganligi to'g'risidagi shikoyatlarni ko'rib chiqadi va tekshiradi, ayrim tashkilotlar va mansabdor shaxslar yo'l qo'ygan xatoliklarni tugatish yuzasidan tadbirlar tavsiya qiladi, fuqarolarning huquqlari tiklanishiga yordamlashib, inson huquqlarining jiddiy ravishda buzilishiga sababchi bo'lgan shaxslarni qonunga binoan javobgarlikka tortish to'g'risida tavsiya qilishga ham haqlidir. Misol uchun, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2010-yil uchun faoliyati to'g'risidagi hisobotida, "Fuqarolar Ombudsmanga yo'llagan o'z murojaatlarida ota-onalarning (ular o'rini bosuvchi shaxslarning) bolalarga qo'pol muomala bo'layotganliklari, voyaga yetmaganlarning aliment olish hukquqlarini hal etishdagi qiyinchiliklar, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, tegishli davlat tuzilmalarining ular muammolariga loqaydlik bilan munosabatda bo'layotganliklari haqida ma'lum qiladilar. Ushbu toifadagi fuqarolarning huquqlari buzilishiga yo'l qo'yilayotganligi to'g'risida xolis axborot olish maqsadida Ombudsman tomonidan turli instansiyalarga 228 ta so'rovnomalar yuborildi. Shundan 49ta holatda huquq buzilish holatlari o'z tasdig'ini topdi. Ijobiy hal qilingan shikoyatlarning 30 foizga yaqini bolalar hayoti va faoliyatining turli sohalarida ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi bilan bog'liqdir."²⁰⁷

Ombudsman Hisobotida bola huquqlarini himoya qilishga oid ayrim misollar ham keltiriladi. Misol uchun, "Fuqaro Ye.I. ustidan, uning onasi O.V. shikoyat qilib, unda 2002-yilda tug'ilgan, bolalikdan nogiron nevarasini qarovsiz,

²⁰⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakilining (ombudsmanning) 2010-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. –Toshkent-2011.-B.81

lozim darajadagi e'tiborsiz va parvarishsiz qodirganligi to'g'risidagi shikoyati Ombudsman tomonidan nazoratga olindi va unda bayon etilgan dalillar Ombudsmanning Toshkent shahri bo'yicha mintaqaviy vakili hamda Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi xodimi ishtirokida tekshirilgan. Tekshiruv natijasida nogiron bola 1-Mehribonlik bolalar uyiga joylashtirildi, natijada uning jismoniy ahvoli ancha yaxshilandi. Bundan tashqari, murojaat qiluvchiga aslida kelini va uning fuqarolik erini ota-onalik majburiyatlarini bajarishga majbur qilish masalasi yuzasidan sud organlariga murojaat etish tavsiya qilindi.”

Ikkinchi misol, “G‘azalkent shahridagi internatning sobiq tarbiyalanuvchisi R.S.ning o‘z uy-joyi yo‘qligi, Angren shahrida uy-joy uchun navbatda turuvchilar soni ko‘pligi to‘g‘risidagi murojaati Ombudsmanning alohida nazoratiga olindi. Yetimning manfaatlarini ko‘zlab iltimosnoma Toshkent viloyat hokimligiga yuborildi. Viloyat hokimligi arizachining qonuniy huquqlarini qanoatlantirish imkoniyatini izlab topdi va unga ushbu aholi punktidan kvartira ajratildi.”²⁰⁸

Uchinchi tomondan, Vakil faoliyati chuqur tahliliy ish bilan bog‘liq: u mamlakatda inson huquqlariga qanday rioya qilinayotganligini o‘rganishi va tahlil etishi, inson huquqlari buzilishini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlashi, O‘zbekiston normalarining shu sohadagi xalqaro shartnomalarga qanchalar muvofiqligini tekshirishi, inson huquqlariga amal qilishni ta’minlaydigan dasturlar ishlab chiqishi va, boshqa tashkilotlar tayyorlagan analitik dasturlarning hayotga tatbiq etilishida ishtirok etishi lozim.

Vakil faoliyatining *to‘rtinchi yo‘nalishi* inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, inson huquqlarini ta’minlash borasida mavjud chet el tajribasini o‘rganish va, shu bilan birga, jahon jamoatchiligini respublikamizdagi inson huquqlarini ta’minlash va himoyalash ahvolidan xabardor qilib turishdan iboratdir²⁰⁹.

²⁰⁸ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) 2010-yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot. –Toshkent-2011.-B.81-82

²⁰⁹ Mo‘minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas’ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013. –B.429-430

Shunday qilib, Vakil faoliyatining biz ta'riflagan to'rt asosiy yo'nalishi O'zbekistonda inson huquqlari umumiy holatining yaxshilanishi inson va uning huquqlarining jamoatchilik tomonidan hurmat qilinishiga hissa qo'shadi, zero mamlakatning muvaffaqiyatli demokratik taraqqiyotini siyosat, iqtisod, ekologiya va madaniyat sohasida jahon sivilizatsiyasi tomonidan tan olingan inson huquqlari tantanasisiz amalga oshirish mumkin emas. Jamiyatda inson huquqlariga rioya qilish va ularni himoyalash muammosi qanchalik samarali hal etilsa, u demokratiyaga va fuqarolik jamiyati shakllanishiga shunchalik yaqinlashadi.

O'zbekistonda inson huquqlarini monitoring qilishning milliy tizimi shakllandi. O'tgan davr uchun Ombudsman tomonidan respublikaning barcha viloyatlarida quyidagi: ayollar va bolalar huquqlariga, nogironlar va bemorlar huquqlariga rioya etilishi kabi dolzarb muammolar bo'yicha monitoring tadqiqotlari o'tkazildi. Xotin-qizlar qo'mitasi bilan birgalikda Maslahat-tahlil kengashi tashkil etildi. Ushbu Kengash ayollar huquqlari, bola huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyalariga va ushbu shartnomalar bo'yicha tashkil etilgan qo'mitalarning qarorlariga rioya etilishi bo'yicha monitoringni amalga oshiradi²¹⁰.

Ombudsmanning mintaqaviy vakillari 2000-yildan buyon O'zbekistonning barcha mintaqalarida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ular fuqarolarning kelib tushgan murojaatlari bo'yicha joylarga, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish joylariga ham chiqib, o'z tekshiruvlarini amalga oshirish, yana shuningdek, tegishli mintaqalardagi Xalq deputatlari kengashlari majlislarida joylardagi inson huquqlariga rioya etilishi bo'yicha axborotlarni taqdim etish yo'li bilan Ombudsman ishining samaradorligini ancha kuchaytirmoqda.²¹¹

“Ombudsman to'g'risida”gi Qonunning 7-moddasiga ko'ra, Vakil O'zbekistonda bola huquqlariga rioya etilishining ahvoli to'g'risida BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasining Milliy ma'ruzalarini tayyorlashda ishtirok etadi. O'tgan davrda BMT qo'mitalariga taqdim etilgan

²¹⁰ Mo'minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. -T.: Adolat, 2013. -B.432

²¹¹ Mo'minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. -T.: Adolat, 2013. -B.432

O'zbekistonning barcha Milliy ma'ruzalari Ombudsman Kotibiyatida ekspertizadan o'tdi. O'zbekistonning milliy ma'ruzalarini ko'rib chiqilishi natijalari bo'yicha qabul qilingan BMTning shartnomaviy qo'mitalarining xulosaviy tavsiyanomalari doimiy ravishda Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha komissiyasi majlislarida muhokama qilib boriladi²¹².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti.

1997-yil 15-yanvarda Oliy Majlis huzurida tashkil etilgan Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti 2005-yilning 2 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan yangi maqomda qayta tashkil etildi.

Monitoring – lotincha «monitor» so'zidan olingan bo'lib kuzatish, o'rganish, eslatish, baholash, istiqbolni belgilash va nazorat qilish demakdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti – demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish, inson huquqlari sohasidagi huquqiy normalarga rioya etilishi ustidan monitoring hamda samarali nazoratni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan davlat tashkilotidir.

Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutining asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligini monitoring qilib borar ekan, qonunchilikning boshqa sohalari kabi, bola huquqlariga oid qonunchilikni ham takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borai, qonunchilikni bola huquqlariga oid O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari normalariga muvofiqlashtirish yuzasidan, bola huquqlariga oid qonunchilik ishi mexanizmini takomillashtirish yuzasidan, bola huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha huquqiy tatbiqiy tajribani o'rganish va umumlashtirish, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab

²¹²Mo'minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. -T.: Adolat, 2013. – B.433-434

chiqadi. Shuningdek, institutlar va xalqaro tashkilotlar bilan O‘zbekistonda bola huquqlari monitoringi sohasida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlaydi; mazkur sohadagi qonun loyihalarini ilmiy ekspertizadan o‘tkazadi; amaldagi qonunlarning ro‘yobga chiqarilishi va ularning ijrosini nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi; qonunchilik ishlari yuzasidan joriy va istiqbolga mo‘ljallangan rejalar hamda dasturlarga doir takliflar ishlab chiqadi.²¹³

Institut tomonidan qonun hujjatlari, shu jumladan, bola huquqlari bo‘yicha qonunchilikni monitoringini amalga oshirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganib borilmoqda. Institutning o‘z faoliyatini amalga oshirar ekan, bola huquqlari bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan, tegishli xorijiy ilmiy va o‘quv markazlari bilan hamkorlik olib boradi²¹⁴.

Institut qayta tashkil etilganidan so‘ng qator ilmiy-amaliy seminarlar va konferensiyalar o‘tkazildi, parlamentning Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan, hukumat tomonidan taqdim etilgan qonun loyihalariga xulosalar tayyorlandi, shuningdek, qonunchilik va monitoring o‘tkazishning takomillashtirish masalalari bo‘yicha adabiyotlar nashr qilindi.

BMTning shartnomaviy qo‘mitalarining, shu jumladan, Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitaning tavsiyalarini amalga oshirish maqsadida Institut tomonidan amaldagi qonunchilikning ekspertizasi o‘tkazilmoqda.

Institut faoliyati jarayonida inson huquqlari bo‘yicha qonun hujjatlari ijrosining monitoringini olib boradi va bugungi kunda bu sohada muayyan tajriba shakllandi. Monitoringlarni amalga oshirishda Institut xodimlari bevosita viloyatlarga chiqadilar. O‘tkazilgan monitoringlar natijalari bo‘yicha tegishli davlat organlari va jamoat tuzilmalarining vakillari ishtirokida seminarlar o‘tkaziladi.²¹⁵

²¹³ Raxmonqulov X, Raxmanov A. Prava cheloveka: istoriya i sovremennost. -T., Izd. « Mir ekonomiki i pravo», 1998. -S.217

²¹⁴ Misol uchun qarang: Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutining 2003-yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot. -T., 2004. –B.8.

²¹⁵ Mo‘minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas’ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013. –B.436-437

Demak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti “inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari sohasidagi vaziyatni monitoring qilishning milliy tizimini shakllantirish va rivojlantirish maqsadlarida O‘zbekistonda tuzilgan tashkilotlar”²¹⁶ dan biridir.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi²¹⁷ davlat idoralararo tahlil, tushuntirish va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi, ya’ni mazkur organ inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari sohasida ham davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, inson huquqlari sohasidagi ishlar milliy rejasini ishlab chiqadi, O‘zbekistonda inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlarining himoyasi bo‘yicha milliy ma’ruzalar tayyorlaydi, davlat xizmatchilari uchun esa bu borada axborot bazasini yaratadi, ularni o‘qitadi, maslahatlar beradi va tashviqot ishlarini olib boradi.

Markazning asosiy maqsadi – ustuvor vazifalarni har tomonlama hal etish yo‘li bilan inson huquq va erkinliklarni himoya etishning ko‘p jihatli tizimini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda, bola huquqlari sohasida ham quyidagi vazifalarni amalga oshirishdir:

1. Bol huquqlari sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish;
2. Bola huquqlari bo‘yicha huquqiy yordam ko‘rsatish;
3. Bola huquqlarini suddan tashqari himoya qilish tizimini yaratish;
4. Bolalarning huquqini himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish;
5. Bola huquqlari bo‘yicha NNTlar faoliyatlarining samarali shakllarini rivojlantirish;
6. Bola huquqlariga rioya qilish kafolati sifatida axborot olish erkinligini ta’minlash;
7. Bola huquqlari sohasidagi ta’limni rivojlantirish;

²¹⁶ Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma /Mas’ul muharrir A.X.Saidov. –T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011. –B.8

²¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni bilan 1996-yil 31-oktabrda tashkil etilgan.

8. Ijro xokimiyati doirasidagi vazirliklar, qo‘mitalar, idoralar va muassasalarning bola huquqlari sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

9. O‘zbekiston Respublikasida bola huquqlari tizimining rivojlanishi asosida xalqaro hamjamiyatga kirish yo‘llarini shakllantirish.²¹⁸

Quyidagilar bola huquqlari borasida Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari hisoblanadi:

- Inson huquqlari sohasida milliy harakat rejasini ishlab chiqish;

- Bola huquqlari sohasida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish;

- O‘zbekiston Respublikasida bola huquqlariga rioya etilishi va bu huquqlarning muhofaza qilinishi yuzasidan milliy ma’ruzalar tayyorlash;

- bola huquqlarini muhofaza qilish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha xalqaro va milliy nodavlat tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

- bola huquqlari sohasida davlatlararo ikki tomonlama va ko‘p tomonlama bitimlar loyihalarini ishlab chiqish va ularni ekspert baholash hamda ana shu bitimlar yuzasidan tomonlarning kelishuvida qatnashish;

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, shuningdek, inson huquqlari bo‘yicha jamoat birlashmalariga maslahatlar berib turish faoliyatini amalga oshirish;

- davlat organlari vakillariga bola huquqlarini rag‘batlantirish va muhofaza qilish sohasida ta’lim berish, targ‘ibot, o‘quv-uslubiy adabiyotlarni nashr etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- bola huquqlarini amalga oshirish va rivojlantirish bo‘yicha ma’lumotlar axborot bazasini barpo etish;

- bolalarning huquq va erkinliklarini rivojlantirish yuzasidan sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish va ularda qatnashish;

²¹⁸ Mo‘minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas’ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013. –B.438

- davlat organlarining bola huquqlariga rioya etishi va bu huquqlarni muhofaza qilishi sohasidagi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ularga tavsiyalar tayyorlash;

- bola huquqlarini muhofaza qilish bo'yicha milliy dasturlarni ishlab chiqish;

- aholining bola huquqlari borasidagi huquqiy madaniyatini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish;

- bola huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilish sohasida jamoatchilik tashabbuslarini rag'batlantirish va muvofiqlashtirish;

- bola huquqlari bo'yicha adabiyotlar, teleko'rsatuvlar va radio-eshittirishlar, shuningdek, "O'zbekistonda demokratlashtirish va inson huquqlari" ilmiy-ommabop jurnalini tayyorlash va chiqarish;

- milliy, mintaqaviy va xalqaro darajalarda bola huquqlariga rioya etish va ularni muhofaza qilish sohasida ilmiy tadqiqotlar tashkil etish;

- bola huquqlari sohasida hukumatga qarashli bo'lmagan jamoat tashkilotlari, huquqni muhofaza qilish organlari va siyosiy partiyalar bilan hamkorlik qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Hukumatining bola huquqlariga rioya qilish, muhofaza qilish va rag'batlantirish bo'yicha faoliyati to'g'risida aholini, shuningdek, xalqaro jamoatchilikni ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish.²¹⁹

Markaz vazifalaridan biri fuqarolarga maslahat yordamini ko'rsatish hisoblanadi. Fuqarolardan Markazga yiliga 1500 dan ziyod ariza va shikoyatlar kelib tushadi hamda telefon orqali 3000 ga yaqin murojaatlarga huquqiy maslahat beriladi. Turli sohalar qatorida ta'lim olish huquqi, oilani, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish kabi masalalar yuzasidan ham murojaat qilinmoqda²²⁰.

Markazning muvofiqlashtiruvchi faoliyatining yana bir turi O'zbekiston qo'shilgan xalqaro hujjatlardagi normalarning bajarilishi to'g'risida Milliy ma'ruzalarni tayyorlashdan iboratdir. O'tgan davr mobaynida BMTning 6 ta

²¹⁹ Mo'minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. -T.: Adolat, 2013. -B.438-439

²²⁰ Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Saidov A., Bakayeva F., Tillabayev M. Национальный центр по правам человека в 2011 году. - T.: NSPCh, 2012

shartnomaviy organlariga, shu jumladan, Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaga, O'zbekiston qo'shilgan BMTning asosiy hujjatlari bo'yicha milliy ma'ruzalar taqdim etildi. Alohida ta'kidlash lozimki, o'tgan davr mobaynida Bola huquqlari bo'yicha konvensiya va unga 2 ta protokol: "Bolalar savdosiga, bolalar fohishabozligiga va bolalar pornografiyasi"ga taalluqli protokol va "Bolalarning qurolli mojaralarda ishtiroki"ga taalluqli protokol bo'yicha milliy ma'ruzalar taqdim etildi.

Markaz o'z faoliyati davomida milliy ma'ruzalarni tayyorlashning 15 bosqichdan iborat maxsus tartib-qoidalarini ishlab chiqqan bo'lib, ular qatoriga Milliy ma'ruzani taqdim etish lozimligi to'g'risida BMT tegishli qo'mitasining xabarnomasini olish, ma'ruza loyihasini ishlab chiqish uchun ishchi guruhni tashkil etish, ma'ruza loyihasini tayyorlash, uni tegishli qo'mitaga jo'natish va uning ko'rib chiqilishi, shuningdek, BMT qo'mitasi tavsiyasini bajarish bo'yicha Milliy harakat rejasi qoidalarining bajarilishi yuzasidan doimiy monitoringni amalga oshirishni kiritish mumkin²²¹.

Markaz mutaxassislari shuningdek, "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi, "Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va ularga barham berishga doir zudlik bilan ko'riladigan choralar to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi, "Ishga qabul qilinadigan eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi, "Bolalar savdosiga, bolalar fohishabozligiga va bolalar pornografiyasiga; qurolli nizolarda bolalarning ishtirokiga doir Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shimcha Fakultativ protokolga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi qonunlar loyihalarini tayyorlashda faol ishtirok etishdi.

Markaz vakillari huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan inson huquqlariga rioya qilinishi bilan bog'liq ahvolni o'rganish bo'yicha Idoralararo ishchi guruhda faol ishtirok etishadi. Undan tashqari, Markaz direktori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini

²²¹ Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Natsionalnyy sentr Respubliki Uzbekistan po pravam cheloveka: stanovleniye i razvitiye / Otv. red. A.X.Saidov. – T., 2007. – S. 28–29.

oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2008-yil 8-iyuldagi № PQ–911-sonli Qarori bilan tashkil etilgan Inson savdosiga qarshi kurash bo‘yicha Respublika Idoralararo komissiyasining a‘zosi ham hisoblanadi.

Markaz o‘z faoliyatini amalga oshirishda BMT, YUNISEF, YUNESKO kabi qator xalqaro tashkilotlar, qator xorijiy davlatlar elchixonalari, qator xalqaro nohukumat tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Bundan tashqari, Milliy markaz oliy o‘quv yurtlarida inson huquqlari bo‘yicha darsliklar, ma‘ruzalar va seminarlar o‘tkazilishini amalga oshirmoqda.

Markaz xalqaro shartnomalar, xalqaro tashkilotlarning materiallari va qo‘llanmalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va chop etishni ham amalga oshiradi. O‘tgan davr mobaynida Markaz tomonidan “Bolalarni himoya qilish: parlament a‘zolari uchun qo‘llanma” nomli qo‘llanma, “Bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham berish”, nomli qo‘llanmasi, Xalqaro mehnat tashkilotining shartnomalari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi. Milliy markaz tomonidan inson huquqlari bo‘yicha 110 ta xalqaro shartnomalar matnlarini o‘z ichiga olgan 10 ta to‘plam chop etildi.²²²

O‘zbekiston Respublikasidagi inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar bola huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalarning bajarilishi yuzasidan nazoratni quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirmoqdalar:

- qonunchilikka rioya etilishini monitoring qilish;
- qonunchilikka oid takliflarni tayyorlash;
- BMT tuzilmalariga milliy ma‘ruzalarni tayyorlash va taqdim etish;
- inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari sohasida ta‘lim bo‘yicha milliy rejani amalga oshirish;
- BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi va Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitaning tavsiyalarini bajarish bo‘yicha milliy harakat rejalarini tayyorlash va amalga oshirish;

²²² Mo‘minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013. –B.442

■ bola huquqlari sohasida texnikaviy yordam dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashish.

Bola huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha institutsional tizimga qo‘shimcha muvofiqlashtiruvchi organlar. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari tomonidan inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi holatini o‘rganish bo‘yicha Idoralararo ishchi guruh. Inson huquqlari sohasida monitoring masalasida fikr yuritilganda, faoliyati Adliya vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladigan “Huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklariga rioya etilishining holatini o‘rganish bo‘yicha Idoralararo ishchi guruh”ga ham alohida to‘htalib o‘tish maqsadga muvofiq. Mazkur Idoralararo ishchi guruh, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 23-iyundagi Qaroriga muvofiq huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlarining inson huquqlari va erkinliklari, shu jumladan, bolalarning huquqlarini buzilishi bo‘yicha axborotlarni yig‘ish, fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqishni monitoring qilish, tegishli davlat organlariga amaldagi qonunchilikni buzganlik uchun mas’ul shaxslarni javobgarlikka tortish bo‘yicha takliflar kiritishni amalga oshiradi.

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi ma’naviy barkamol va jismoniy sog‘lom avlodni tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish, jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar, notinch oilalar bolalari yoki ota-onalari qarovisiz qolgan bolalarning to‘liq ijtimoiy moslashuvini ta’minlash, ko‘rsatib o‘tilgan toifadagi bolalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish zarurligini jamiyatning ma’naviy-axloqiy asoslari va negizini mustahkamlashning majburiy sharti sifatida jamoatchilik ongiga singdirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 7-sentabrdagi 419-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

Markaz faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni tashkil etadi:

jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar (nogironlar, jismoniy nuqsoni bo‘lgan hamda asab va ruhiyati buzilgan bolalar, surunkali og‘ir kasalliklardan azob chekuvchi bolalar) hamda ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlarga

kiradigan bolalarning (etimlar, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosadigan shaxslarning qarovsiz qolgan bolalar, notinch oilalarning bolalari) ijtimoiy moslashuvi muammolarini o'rganish, ko'rsatib o'tilgan muammolarni hal etish yuzasidan maqsadli kompleks dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek bolalar o'rtasida jismoniy imkoniyatlari cheklangan, ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlar paydo bo'lishiga olib keladigan omillarning salbiy ta'sirini kamaytirish;

bolalarning alohida nochor guruhlarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashtirish sohasida Vatan tajribasini, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rganish va umumlashtirish, bolalarning ijtimoiy moslashuvi masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat muassasalari va nodavlat muassasalarning amaliy faoliyatida ulardan foydalanish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

imkoniyatlari cheklangan, ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlariga kiradigan bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini o'rganish, zamonaviy talablarni va standartlarni hisobga olgan holda tizimning samaradorligini oshirishga doir kompleks dasturlar ishlab chiqish;

bolalarning ijtimoiy moslashuvi masalalari bo'yicha o'quv-metodik va ma'lumotnoma qo'llanmalarining holati va sifatini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

bolalarning maqsadli guruhlariga mo'ljallangan tadbirlarga tegishli davlat dasturlari va jamoat loyihalari bajarilishi monitoringini olib borish, ularni amalga oshirish samaradorligini kuchaytirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ishlar masalalarida ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari bilan o'zaro aloqani amalga oshirish, ijtimoiy ishlar bo'yicha ta'lim standartlarini takomillashtirish, bolalarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimida «ijtimoiy xodim» maqomini mustahkamlash;

jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalarga, ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlariga kiradigan bolalarga ruhiy-pedagogik, ta'lim va rehabilitatsiya dasturlarini amalga oshirish yo'li bilan amaliy yordam ko'rsatish;

bolalar huquqlarini himoya qilish, bolalar psixologiyasi va yoshga oid psixologiya, pedagogika, tibbiyot sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini,

bolalarning zaif guruhlarini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashtirish sohasidagi xalqaro tajribani keng jamoatchilikka yetkazish yo‘li bilan bolalarni ijtimoiy moslashtirish masalalarida ma’rifiy va targ‘ibot faoliyati, bolalarning ijtimoiy moslashtirish masalalarini hal etishga barcha manfaatdor tomonlarni jalb etish.

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi 11-son qaroriga muvofiq “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazining himoyaga muhtoj bolalarni ijtimoiy muhofaza qilishni muvofiqlashtirish, nazorat qilish va monitoringini olib borish bo‘yicha Jamoatchilik kengashi” tashkil etildi. Jamoatchilik kengashining asosiy maqsadi bolalarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimiga (vazirliklar, idoralar va nodavlat notijorat tashkilotlariga) ko‘maklashishdan iboratdir.

Qayd etish lozimki, mamlakatda bola huquqlari muammolari bilan shug‘ullanuvchi vazirliklar va idoralar, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini muvofiqlashtirishning kuchaytirish maqsadida qator idoralararo muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar tashkil etildi. Bu tuzilmalarga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiya va uning hududiy komissiyalari, Odam savdosiga qarshi kurash bo‘yicha respublika Idoralararo komissiya va hududiy komissiyalari, “Bolalar uchun odilsudlov” Ishchi guruhi, Ta’lim masalalari bo‘yicha Sektorlararo guruh, Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash, XMT Konvensiyalarini bajarilishi bo‘yicha Idoralararo Ishchi Guruh va boshqalar kiradi²²³.

Voyaga yetmagan ishlari bo‘yicha maxsus komissiyalar. Jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya qonunchiligida, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya normalariga muvofiq keluvchi voyaga yetmaganlarga oid odilsudlovni amalga oshirishning batafsil detallashtirilgan qoidalari o‘z aksini topgan. Bolalarni nazoratsiz qoldirish, qarovsizlikni bartaraf etish maqsadida, shuningdek, huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida 2000-yildan buyon voyaga yetmaganlar

²²³ Sbornik mejdunarodnix dokumentov Komiteta OON po pravam rebenka /Otv. red. A.X.Saidov. –T.: NSPCh, 2014. -S.9

ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyat yuritib kelmoqda. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-sentabrdagi №360 raqamli "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori* ushbu komissiyalarning obro'sini yanada mustahkamladi va ijtimoiy og'ir ahvoldagi oilalar bilan profilaktika ishlarini olib borishni yangi bir pog'onaga ko'tardi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, tuman va shahar hokimiyatlari huzurida 246 dan ortiq bunday maxsus komissiyalar tashkil etilgan. Ushbu komissiyalar xalq ta'limi, o'rta va o'rta maxsus ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, prokuratura, ichki ishlar, mehnat organlari, ayollar qo'mitasi, kasaba uyushmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mudofaaga ko'mak jamiyatlari, mehnat jamoalari, madaniy-ma'rifiy va boshqa muassasalarning vakillaridan tashkil etiladi.

Komissiyalarning asosi vazifalari quyidagilardir:

voyaga yetmaganlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va tiklash, voyaga yetmaganlarni qarovsiz qolishi, ular tomonidan buzarlilik va jamoatga noloyiq bo'lgan harakatlarni sodir qilishiga olib keluvchi sabablarni o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

voyaga yetmaganlarning qarovsiz qolishi va buzarliligi bo'yicha profilaktika, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha davlat organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalari faoliyatlarini muvofiqlashtirish;

voyaga yetmaganlarning qarovsiz qolishi va buzarliliklarini profilaktika qilish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha takliflar tayyorlash va boshqa masalalar.

Komissiyalar o'z vazifalarini amalga oshirishida keng huquqlarga egadir:

komissiya ishi uchun davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;

komissiya majlislarida bolalar va o'smirlarning tarbiyasi va yashash sharoitlariga tegishli masalalar bo'yicha organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlarining xabarlarini eshitish;

voyaga yetmaganlar, ota-onalar bilan shaxsan qabul o'tkazish, ularning shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqish, ularning shaxsiy ishlari bilan tanishib chiqish va boshqa shu kabilar.

Komissiyalar o'z vakolatlaridan kelib chiqib, davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qarorlar qabul qiladi.

Bola huquqlarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasida shakllangan inson huquqlari bo'yicha milliy mexanizmning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda ko'rinadi:

*Birinchi*dan, bir necha milliy institutlarning tashkil etilishi bola huquqlariga rioya etish va ularni himoya qilish sohasidagi imkoniyatlarni anchagina ko'paytirishga imkon berdi, chunki ular amaliy ishlari bilan huquqni qo'llash amaliyotida bola huquqlarini amalga oshirishga, davlat organlari faoliyatida qonun ustuvorligi tamoyilining qaror topishiga, xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishda, inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari madaniyatini rivojlantirishga faol ta'sir ko'rsatishmoqda.

*Ikkinchi*dan, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar respublikada bola huquqlari bo'yicha qonunchilikka rioya etilishini tekshirishda faol ishtirok etishmoqda, doimiy ravishda bola huquqlari va ularni O'zbekistonda himoya qilish mexanizmlari masalalari bo'yicha seminarlar va konferensiyalar tashkil etishmoqda.

*Uchinchi*dan, ushbu institutlar mamlakatda bola huquqlariga rioya etish masalalarini hal etishda, bola huquqlariga oid qonunchilikni takomillashtirishda o'z faoliyatlarini nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish asosiga qurishmoqda.

*To'rtinchi*dan, milliy institutlar bola huquqlari sohasida xalqaro-huquqiy hujjatlarni amalga oshirish yuzasidan xalqaro nazorat jarayonida, xalqaro organlarga yakka tartibda (individual) murojaat qilishga bo'lgan huquqni amalga

oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, O'zbekistonning BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va Bola huquqlari bo'yicha qo'mitadagi faoliyatida hamda bola huquqlari sohasida BMT organlari bilan hamkorlik qilishda muhim rol o'ynovchi Milliy institutlar bo'yicha xalqaro muvofiqlashtiruvchi qo'mita bilan hamkorlik qilishida katta ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, mamlakatda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar bilan bir qatorda bola huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha institutsional tizimga qo'shimcha muvofiqlashtiruvchi organlar tizimi ham shakllandi. Bu tizimning o'ziga xos xususiyatlari esa,

a) bola huquqlari va erkinliklari sohasida *idoralararo ishchi guruh* shaklida *huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari tomonidan inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi holatini o'rganishda*;

b) Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi orqali ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish, jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar, notinch oilalar bolalari yoki ota-onalari qarovisiz qolgan bolalarning to'liq ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda;

v) mamlakatda bola huquqlari muammolari bilan shug'ullanuvchi vazirliklar va idoralar, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini ixtisoslashgan holda idoralararo shaklda muvofiqlashtirishda;

g) voyaga yetmagan ishlari bo'yicha maxsus komissiyalar faoliyati orqali mamlakatda yuvenal adliyani shakllantirilishida ko'rinmoqda.

4. Bola huquqlari milliy monitoringi

Bola huquqlarini ta'minlash va ularga rioya qilish sohasida monitoring vositalari davlat siyosatining ishonchliligini baholashda, davlat organlarining huquqni qo'llash faoliyatidagi vaziyatni, ular tomonidan yo'l qo'yilayotgan buzilishlar va ularning tarqalishi sabablarini aniqlashda yordam beradi. Monitoring yordamida eng qo'pol va keng tarqalgan bola huquqlari buzilishini aniqlash va vaziyatni to'g'irlash uchun choralar ko'rish mumkin; qonunchilik hujjatlaridagi

muammolarni yoki markaziy va mahalliy darajadagi organlar faoliyatini tashkillashtirishdagi kamchiliklarni aniqlash mumkin.

Bola huquqlarining monitoringi:

Birinchidan, aniq sohada bolalarning buzilgan huquqlarining ko‘lami va xususiyatiga tegishli ma‘lumotlarni qat’iy o‘ylab chiqqan holda faol to‘plashdan iborat. Kuzatilayotgan buzilishlar huquqiy normalar tomonidan ham (shu jumladan, ularning ijrosi bo‘yicha mavjud barcha qo‘llanma va yozma ko‘rsatmalar), ko‘rsatilgan normalarni qo‘llashda ham yuzaga kelishi mumkin.

Ikkinchidan, olingan ma‘lumotlarga qayta ishlov berish va ularni konstitutsiya, ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar va davlat ichki qonunlari tomonidan o‘rnatilgan standartlar bilan taqqoslashdan – huquqiy normalarning iyerarxiyasiga muvofiq;

Uchinchidan, ushbu sohada inson huquqlari buzilishining sabablarini o‘rnatishdan va mavjud vaziyatni to‘g‘irlash uchun qanday o‘zgartirishlar kiritish mumkinligini ko‘rsatishdan;

To‘rtinchidan, tizimli o‘zgartirishlarni amalga oshirish bo‘yicha keyingi harakatlarni o‘tkazish uchun zarur materiallarni to‘plashdan iborat (huquqiy, siyosiy va ijtimoiy).

O‘zbekistonda hokimiyatning barcha tarmoqlaridagi organlarni qamarb oluvchi bola huquqlariga rioya etilishining monitoring tizimi tashkil etilgan va u muvoffaqiyatli ishlab kelmoqda. Bu tizimga quyidagi tashkilotlar kiradi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining qonunchilik ijrosi ustidan nazorat Bosh boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qoshidagi Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha Tadqiqot markazi.

Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tuzilmasida inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash bo‘yicha

maxsus bo‘linmalar tuzilgan, ularning vazifalariga bolalarning huquqlarini ta’minlash masalalari ham kiradi²²⁴.

Bola huquqlarini monitoring qilishda milliy davlat va nodavlat organlari bilan birgalikda xalqaro tashkilotlar va ularning organlari ishtirokidagi monitoring ham katta ahamiyat kasb etadi. Bola huquqlarini monitoring qilishda, oldingi boblarimizda faoliyati o‘rganilib chiqilgan YUNISEF, BMTning Bola huquqlari qo‘mitasi kabi xalqaro organlar va ular bilan mamlakatimizda davlat va nodavlat organlarning o‘zaro hamkorligini alohida ta’kidlab o‘tish darkor.

O‘zbekistonda O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksidagi nikoh yoshi to‘g‘risidagi qoidalarining BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi va Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasi tamoyillariga muvofiq kelishi yuzasidan mavzuida qonunchilik hujjatlarining monitoringlari va ekspertizalari o‘tkazilgan. Qonunchilik hujjatlarida nikoh tuzishda ayol va erkaklarning tengligi tamoyilini ta’minlash va bolaning nikoh tuzishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi takliflar jamoatchilik muhokamasi jarayonida turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan bolaning ta’lim olish va mehnat huquqlarini himoya qilish sohasiga oid xalqaro-huquqiy normalarning va O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarining qiyosiy tahlili o‘tkazilgan.

Xulosa o‘rnidan aytish mumkinki, o‘tgan davr mobaynida O‘zbekistonda bola huquqlarini monitoring qilish tizimi yuzaga keldi, uni shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin:

birinchidan, bolaning muayyan toifadagi huquqlarini ta’minlash bo‘yicha xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlarini ijro etish yuzasidan tegishli vakolatlarga ega tegishli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan idoralararo monitoring (xalq ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi, sog‘liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish, ichki ishlar vazirliklari v.b.);

ikkinchidan, noidoraviy yoki tashqi monitoring:

²²⁴Sbornik mejdunarodnykh dokumentov Komiteta OON po pravam rebenka /Otv. red. A.X.Saidov. – T.: NSPCh, 2014. -S.9

- Qonunchilik palatalari va Senat qo‘mitalari va komissiyalari, shuningdek Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha Vakili (ombudsman) tomonidan ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati ustidan parlament nazorati doirasida amalga oshiriladi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi monitoring hujjatlari monitoringi instituti tomonidan;
- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan;
- Bola huquqlari bo‘yicha O‘zbekistonning milliy ma‘ruzalarini tayyorlash jarayonida Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qoshidagi Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha tadqiqot markazi tomonidan;
- fuqarolik jamiyati organlari, asosan bolalar NNT va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi.²²⁵

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda O‘zbekistonda bola huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashda muhim omil hisoblanuvchi, bola huquqlari bo‘yicha xalqaro va milliy huquqiy normalarni bajarilishi ustidan xalqaro va milliy monitoring tizimi shakllangan bo‘lib, bu monitoringni amalga oshirish mazkur huquqiy normalarni yanada takomillashtirishda hamda huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga yordam bermoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. *O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o‘z vazifalariga nimala kiradi?*
2. *O‘zbekistonda bola huquqlari va erkinliklarini himoya qilish davlat tizimiga qaysi organlar kiradi va ularning maqomi qanday?*

²²⁵ Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma /mas‘ul muharrir A.X.Saidov. –T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011. -B.9

3. *Bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish va bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash, deganda nimani tushunasiz?*
4. *Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha choralarni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, deganda nimani tushunchasiz?*
5. *Bola huquqlariga oid xalqaro majburiyatlarni bajarilishini nazorat qilish, deganda nimani tushunasiz?*
6. *Bola huquqlari sohasida axborot - ma'rifiy faoliyat, deganda nimani tushunasiz?*
7. *Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash, deganda nimani tushunasiz?*
8. *Bola huquqlarini himoya qilishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari va faoliyati nimadan iborat?*
9. *Bola huquqlarini ta'minlashda NNTning huquqlari va vakolatlarini nimadan iborat?*
10. *Bola huquqlarini himoya qilishda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning vazifalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?*
11. *Bola huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha institutsional tizimga qo'shimcha muvofiqlashtiruvchi organlar, deganda nimani tushunasiz va ularning o'ziga xususiyatlarini tushuntirib bering.*
12. *Bola huquqlarining monitoringi nima va uning bola huquqlarini ta'minlashdagi o'rnini tushuntirib bering.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar va manbalar ro'yhati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014.*
2. *Выступление Президента Ислама Каримова на открытии международного конференции «О важнейших резервах реализации продовольственной программы в Узбекистане».* <http://www.mfa.uz/ru/press/news/2014/05/1946/>
3. *Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI nashriyoti, 2009.*

4. *Bola huquqlari monitoringi. O'quv-uslubiy qo'llanma /Mas'ul muharrir A.X.Saidov. –T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011.*
5. *“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga sharhlar” /Mas'ul muharrir A.X.Saidov – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008.*
6. *Mo'minov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. –T.: JIDU, 2011*
7. *Mo'minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. 2-nashr. –T.: Adolat, 2013.*
8. *Mo'minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. –T.: Adolat, 2013.*
9. *Sbornik mejdunarodnyx dokumentov Komiteta OOn po pravam rebenka /Otv. red. A.X.Saidov. –T.: NSPCh, 2014.*
10. *O'zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini boshqarishni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish: yutuqlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro forumning materiallari. Toshkent, 2011-yil 29-30-noyabr. –T.: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2011.*
11. *O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, Fuqarolik va Fuqarolik-protsessual kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqa tegishli milliy qonun hujjatlarini topish uchun qarang: LexUz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz*

10-bob. O‘zbekiston Respublikasining bola huquqlari bo‘yicha xalqaro hamkorligi

1. O‘zbekiston Respublikasining bola huquqlari bo‘yicha xalqaro hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari

2. O‘zbekistonni xalqaro tashkilotlar bilan bola huquqlari bo‘yicha hamkorligi

3. O‘zbekistonni YUNISEF bilan bola huquqlari bo‘yicha xalqaro hamkorligi

1. O‘zbekiston Respublikasining bola huquqlari bo‘yicha xalqaro hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasining bola huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari va tamoyillariga, respublikaning tashqi siyosati va bola huquqlari sohasidagi milliy qonunchiligiga, BMT va YeXHTning tamoyillari va maqsadlariga, shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlariga asoslanadi.

O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatini amalga oshirishda quyidagi ustuvorliklardan kelib chiqadi:

Birinchidan, o‘zining milliy-davlat manfaatlari ustun bo‘lgani holda o‘zaro manfaatlarni to‘liq hisobga olish;

Ikkinchidan, O‘zbekiston insonlar va davlatlar orasidagi o‘zaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini tan olgan holda xalqaro aloqalarda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, nizolarni tinch yo‘l bilan bartaraf etishni yoqlab chiqmoqda;

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati o‘zaro tinchlik, o‘zaro foyda, ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillariga, mustaqillikni va suverenitetni chegaralovchi hamda davlatlararo munosabatlarni mafkuralashtirishga qaratilgan harakatlarga yo‘l qo‘yilmaydigan tamoyillarga asosan quriladi;

To‘rtinchidan, O‘zbekiston tashqi siyosatda ochiqlik tamoyilini turli xil mafkuraviy qarashlardan xoli ravishda amalga oshirib, barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o‘rnatmoqda;

Beshinchidan, O‘zbekiston xalqaro normalarning milliy qonunchilikdan ustunligini tan oladi, xalqaro-huquqiy standartlarni hurmat qiladi²²⁶.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir”, deb ko‘rsatib qo‘yilishi, shuningdek, ushbu moddaning ikkinchi qismida “Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin”,²²⁷ degan qoida mustahkamlab qo‘yilgan.

Shuningdek, 2012-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, “O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, uning farovonligi va xavfsizligiga, mamlakatni modernizatsiya qilish ustuvor yo‘nalishlariga, amaldagi milliy qonunchilik hamda qabul qilingana xalqaro majburiyatlarga amal qilgan holda ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish, shuningdek ulardan chiqish huquqini o‘zida saqlab qoladi”.

Mazkur qoidalar O‘zbekistonni xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan ko‘p tomonlama va ikki tomonlam hamkorlik aloqalarini olib borishga, xususan, nufuzli xalqaro tashkilotlarga to‘la huquqli a‘zo bo‘lib kirishi hamda uning xalqaro xamjamiyat tomonidan har tomonlama tan olinishi va xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarga, shu jumladan, bola huquqlari sohasida ham hamkorlik aloqalari olib borishi uchun huquqiy zamin yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro hamkorligi boshqa sohalar kabi, bola huquqlari sohasida ham quyidagi yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

birinchidan, mamlakatning xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan bola huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomaviy huquqiy munosabatlarga kirishi orqali;

²²⁶ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. -T.: O‘zbekiston, 2001. –B.67-68

²²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2014. -B.8

ikkinchidan, mamlakatning xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligi orqali.

Mustaqillikka erishganidan boshlab, O‘zbekiston turli sohalarda xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan 5000dan ziyod ko‘p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar tuzgan. Bu hujjatlarning 70dan ortig‘i inson huquqlariga oid muhim xalqaro konvensiyalar va shartnomalarni tashkil etadi. Mazkur hujjatlarning aksariyati bola huquqlari va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga ham taalluqlidir.

Mamlakatimiz, hozirgi kunda, shuningdek, 50 dan ortiq turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik olib bormoqda. O‘zbekiston BMT va YUNESKO, JSST, YUNISEF kabi uning ixtisoslashgan tashkilotlari va organlari, YeXHT, MDH, ShHT kabi, tashkilotlarga nafaqat a‘zo bo‘ldi, balki, ular bilan o‘zaro foydali hamkorlik aloqalarini ham olib bormoqda. Bunday tashkilotlar orasida, BMT, uning ixtisoslashgan muassasalari, YUNISEF, kabi xalqaro tashkilotlar va xalqaro jamg‘armalarga alohida to‘xtalib o‘tish joizdir. Mazkur tashkilotlarning asosiy faoliyati bola huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lib, ular tomonidan O‘zbekistonda qator loyihalar, dasturlar va boshqa tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

2. O‘zbekistonni xalqaro tashkilotlar bilan bola huquqlari bo‘yicha hamkorligi

O‘zbekiston va BMTning bola huquqlari sohasidagi hamkorligi. O‘zbekistonning BMT bilan bola huquqlari bo‘yicha hamkorligi to‘g‘risida aytish mumkinki, O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki, kunlaridanoq, boshlangan, desak, adashmagan bo‘lamiz. Ya‘ni, 1991-yil 30-sentabrda O‘zbekiston BMTning inson huquqlari va erkinliklari, shu jumladan, bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida eng muhim bo‘lgan hujjat – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga qo‘shildi. O‘tganda davr mobaynida mazkur hujjatning normalari milliy qonunchilikka singdirib bo‘lindi. Qayd etish kerakki, 2008-yil-may oyida BMT Bosh kotibi va Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissarning chaqirig‘ini

qo‘llab-quvvatlab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 60-yilligiga bag‘ishlangan chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur dasturda inson huquqlari bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish, monitoring olib borish, inson huquqlari sohasida axborot ta‘minoti, ta‘lim va xalqaro hamkorlik singari yo‘nalishlarda tadbirlar amalga oshirish vazifa qilib belgilangan edi.

1992-yilda esa, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani mamlakat parlamenti ratifikatsiya qildi. O‘tgan davr mobaynida mamlakat milliy qonunchiligi, mazkur Konvensiya normalariga muvofiqlashtirildi. 2008-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni mazkur Konvensiyaning to‘la implementatsiyasi bo‘ldi.

Shuningdek, o‘tgan davr mobaynida, O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha BMTning asosiy xalqaro huquqiy hujjatlariga qo‘shildi. Shulardan ko‘pchiligi bola huquqlariga taalluqlidir. Jumladan, bola huquqlarini ta‘minlashda O‘zbekiston Respublikasi BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya, Irqiy kamsitishlarga barham berish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya va Qiynoq va muomala va jazoning shafqatsiz, noinsoniy va qadr-qimmatni kamsituvchi boshqa turlariga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiya kabi boshqa asosiy shartnomalariga ham tayanadi.

Alohida qayd etish lozimki, yuqorida qayd etilgan, mamlakat parlamenti Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga doir ikkita fakultativ protokol: “Bolalar savdosiga, bolalar fohishabozligiga va bolalar pornografiyasi”ga taalluqli Fakultati protokol (2008-yil 11-dekabr) va “Bolalarning qurolli mojaralarda ishtiroki”ga taalluqli Fakultati protokolni (2008-yil 11-dekabr), BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini (Nyu-York, 2000-yil-noyabr) to‘ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa, ayllar va bolalar savdosining

oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi protokolini (2008-yil 8-iyulda) ratifikatsiya qildi.²²⁸

O'zbekiston va BMTning bola huquqlari bo'yicha hamkorligi yanada shuningdek, inson huquqlari, shu jumladan,, bola huquqlari bo'yicha milliy ma'ruzalarni taqdim etish va ularni natijalari bo'yicha hamkorlik qilish borasida ham olib borilmoqda.

Xalqaro talablarga javob beruvchi, mamlakatning o'z xalqaro majburiyatlarini bajarishi to'g'risidagi milliy ma'ruzalarini vaqtida tayyorlash va jo'natishda aks etgan O'zbekistonning BMT shartnomaviy qo'mitalari oldidagi hisobdorligi tizimi shakllantirildi. Davriy ma'ruzalarni ko'rib chiqishning natijalari bo'yicha BMT qo'mitalarini yakunlovchi tavsiya va mulohazalarini bajarish bo'yicha Milliy harakat rejalarini tayyorlash va qabul qilish mazkur tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. BMT qo'mitalariga inson huquqlari, bola va ayollar huquqlari masalasi yuzasidan 30dan ortiq ma'ruzalar taqdim etildi va 10 ta milliy harakat rejalarini qabul qilindi.

O'zbekiston BMTning nizomiy va shartnomaviy organlari bilan inson huquqlari masalasi bo'yicha faol muloqotda bo'lib, BMTning maxsus proseduralari (tartibotlari) bilan ham muntazam ravishda hamkorlikni amalga oshirmoqda. Jumladan, quyidagidirlarning so'rovi asosida mufassal axborot taqdim qilingan:

BMTning Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasi masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachisi;

BMTning bolalarga nisbatan zo'ravonlik masalasi bo'yicha maxsus vakili;

BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining quldorlikning zamonaviy turlari bo'yicha maxsus ma'ruzachisi;

BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining ta'limga oid huquqi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi;

²²⁸ Bola huquqlari monitoringi. O'quv-uslubiy qo'llanma /mas'ul muharrir A.X.Saidov. –T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011. -B.5

BMTning Odam savdosi, ayniqsa bolalar va ayollar bo'yicha maxsus ma'ruzachisi.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish yuzasidan O'zbekiston 2008-2014-yillar mobaynida 10ta Milliy ma'ruzalarni taqdim qildi, jumladan, Bola huquqlari konvensiyasi qoidalarni bajarish bo'yicha Uchinchi-To'rtinchi davriy ma'ruza, Bola huquqlari konvensiyasining ikta Fakultativ protokollarini bajarish yuzasida 2 ta boshlang'ich ma'ruzalar.

O'zbekistonni BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi bilan hamkorligi masalalariga alohida to'htalib o'tish lozim. Chunki, O'zbekistondagi bola huquqlari va erkinliklari sohasidagi vaziyatni xalqaro monitoring qilish, avvabombor, BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya doirasida amalga oshiriladi.

Davlat organlariga bola huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish va O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini xalqaro tashkilotlarda himoya qilish vakolati berilgan. Shu munosabat bilan, ta'kidlash joizki, "O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 27-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari qat'iy va majburiy ravishda bajarilishi lozim. O'zbekiston hukumati ularni bajarish uchun choralarni ishlab chiqadi va xalqaro majburiyatlarni, jumladan bola huquqlariga oid majburiyatlarni bajarish uchun ma'sul bo'lgan vazirliklarni va idoralarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi tegishli vazirliklar va idoralari vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi va boshqa tegishli xalqaro hujjatlarning qoidalari bajarilishi to'g'risidagi milliy ma'ruzani tayyorlash uchun uchun ma'lumot taqdim etadilar. Milliy ma'ruzalar har 5-yilda taqdim etiladi.

1999-yildan boshlab, O'zbekiston BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasiga o'z majburiyatlarini bajarish yuzasidan milliy ma'ruza yo'llashni

boshladi. Hozirgacha O'zbekiston Respublikasi ushbu Qo'mitaga Konvensiyani bajarilishi haqida 4 ta milliy ma'ruzalarni taqdim etgan, bola huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni bajarilishi to'g'risidagi batafsil ma'lumot bergan milliy ma'ruzalarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaning yakuniy xulosalari va tavsiyalarini bajarish uchun Milliy harakatlar rejalarini amalga oshirgan.

2010-yilda Bola huquqlari bo'yicha Qo'mitaga Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning bajarilishi yuzasidan O'zbekistonning Uchinchi-To'rtinchi ma'ruzasi taqdim etildi, uni tayyorlashda 29 ta davlat organlari va 20 ta nohukumat tashkilotlari ishtirok etishdi. Ma'ruzada Bola huquqlari bo'yicha BMT Qo'mitasi tavsiyalarining keyingi ijrosi bo'yicha davlatning qonunchilik, tashkiliy va axborot-ma'rifiy choralari yoritib beruvchi 2006-2009-yillarda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalarini bajarish to'g'risida ma'lumot taqdim etilgan. Ma'ruzada, shuningdek davlat siyosatining istiqbolli yo'nalishlari va bola huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishning samarali tizimini yaratish sohasida jamiyatda mavjud qiyinchiliklar ham yoritib berilgan. Ma'ruza ilovasida bola huquqlari masalalari bo'yicha batafsil statistik materiallar, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda bolalar huquqlarini ta'minlash sohasidagi tendensiyalarni tavsiflovchi jadvallar taqdim etilgan.

Bola huquqlari bo'yicha BMT Qo'mitasi tavsiyasi bo'yicha Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning bajarilishi yuzasidan O'zbekistonning Uchinchi-To'rtinchi ma'ruzasini ko'rib chiqishga tayyorlash doirasida 2010-yilda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, YUNISEF, shuningdek davlat organlari vakillari bilan hamkorlikda bola huquqlarini, shu jumladan, uning ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoyaga doir huquqlarini monitoring qilish tizimini rivojlantirish va takomillashtirishni o'rganishga qaratilgan tadqiqot o'tkazildi.

2013-yil-iyun oyida Jenevada BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning bajarilishi yuzasidan

O'zbekistonning Uchinchi-To'rtinchi davriy ma'ruzasi hamda ushbu Konvensiyaga 2ta Fakultativ protokollar bajarilishi yuzasida birlamchi ma'ruzalarini ko'rib chiqildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston taqdim etayotgan milliy ma'ruzalar va ularning bajarilishi yuzasidan mamlakatda olib borilayotgan chora-tadbirlardan xulosa qilish mumkinki, BMT bilan bola huquqlari sohasida hamkorlik qilishni O'zbekiston o'zining tashqi siyosatida muhim vazifa sifatida baholaydi va O'zbekiston qo'shilgan hujjatlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarini siddiqidildan bajarib kelmoqda.

O'zbekiston bola huquqlari sohasida BMTning ixtisoslashgan muassasalari bilan faol hamkorlik qilmoqda. Bu yo'nalishda *BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan tashkiloti – YUNESKO* bilan hamkorlik keng ko'lamda olib borilmoqda. “Biz, - degan edi Islom Karimov YUNESKONing 1996-yilda bo'lib o'tgan Ijroiya kengashi sessiyasida, - avvalo, ma'naviy sohada, fan, madaniyat, ta'lim va axborot sohalarida integratsiyalashuvni yoqlab chiqamiz”²²⁹.

O'zbekiston va YUNESKO hamkorligining muhim yo'nalishi – bu YUNESKO hujjatlariga O'zbekistonning qo'shilishi va ularni bajarishi hisoblanadi. O'zbekiston YUNESKONing 10ga yaqin xalqaro-huquqiy hujjatlariga qo'shilgan bo'lib, ular orasida bolalarning ta'lim olish, ijod qilish va madaniy merosdan baharamand bo'lishi bilan bog'liq huquqlarini o'ziga qamrab olgan quyidagi hujjatlarni ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir:

- Ta'lim sohasida kamsitishlarga qarshi konvensiya (1960-yil);
- Texnikaviy va kasb-xunar ta'limi to'g'risidagi konvensiya (1989-yil) va boshqalar.

YUNESKONing xalqaro hujjatlariga qo'shilish va ulardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish, avvalambor, mamlakatimizning ta'lim, fan va madaniyatini xalqaro standartlar asosida yanada rivojlantirishga, bu sohadagi moddiy va nomoddiy boyliklarimizni asrab-avaylashda, keyingi avlodlarga

²²⁹ Karimov I. Bunyodkorlik yo'lidan. -T.: O'zbekiston, 1996. –B.232

yetkazib berishda, va nihoyat, O‘zbekistonning jahon madaniy hamjamiyatiga yanada chuqurroq integratsiyalashuvi uchun huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan bir vaqtda, alohida qayd etish kerakki, YUNESKO O‘zbekistonda ta’limni qo‘llab- quvvatlashga ham katta e’tibor qaratmoqda. Jumladan, O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida 10 ga yaqin YUNESKO kafedralari ochilgan bo‘lib, ular YUNESKOning YuNITVIN dasturi doirasida jahon YUNESKO kafedralari tarmog‘iga kiritilgan. Shuningdek, 30dan ortiq YUNESKO maktablari faoliyat yuritadi. Mazkur kafedra va maktablar YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda va uning qo‘llab-quvvatlashi asosida tashkil etilgan.

Inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari sohasida BMTning yana bir ixtisoslashgan tashkiloti hisoblanuvchi *Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)* bilan O‘zbekiston Respublikasining hamkorligi mamlakatimizning 1992-yil 13-iyulda ushbu Tashkilotga a’zo bo‘lganidan boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro mehnat tashkiloti faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi va, o‘z navbatida, bu faoliyat dunyodagi hozirgi vaziyatni aks ettirishi hamda a’zo-davlatlar bilan to‘rtta strategik masala (asosiy prinsiplar va mehnat sohasidagi huquq masalalari, bandlik, ijtimoiy himoya va ijtimoiy muloqot hamda shunga bog‘liq boshqa masalalar) doirasida hamkorlik qilishga tayyorligini bildiradi. Shu o‘rinda, O‘zbekiston XMT e’tiboridagi gender tenglik, umumiy iqtisodiy va ijtimoiy rivoj, ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish, bolalar mehnatining eng yomon shakllariga yo‘l qo‘ymaslik sohasidagi muammolarni tan oladi va ularning muhimligini e’tirof etadi²³⁰.

O‘zbekiston Respublikasi XMTning oliy organi Xalqaro mehnat konferensiyasining bir yilda bir marotaba bo‘lib o‘tadigan har yilgi sessiyalarida ishtirok etib keladi. Tashkilotning 2010-yil 2-18-iyundagi 99-sessiyasida O‘zbekiston delegatsiyasi birinchi marotaba uch tomonlama tarkibda: Hukumat, Kasaba uyushmalari

²³⁰ Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari. /O‘zbekcha nashri uchun mas’ul A.X.Saidov. –T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. -B.15-16

federatsiyasi kengashi va Savdo-sanoat palatasi vakillaridan iborat bo‘lgan holda ishtirok etdi.

2011-yil 9-dekabrda O‘zbekiston delegatsiyasi XMT rahbariyati bilan Jenevada bir qator uchrashuvlar o‘tkazdi. Uchrashuvda XMTning O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan asosiy konvensiyalarini amalga oshirish bo‘yicha Milliy harakatlar rejasi bajarilishining borishi muhokama qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasi 2009-yil 16-martda Jenevada bo‘lib o‘tgan XMTning Bolalar mehnatiga barham berish bo‘yicha Xalqaro dasturi (IPEC – International Programme on the Elimination of Child Labour) Boshqaruv qo‘mitasining 18-majlisida ishtirok etgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston XMT tomonidan tashkil etiladigan xalqaro anjumanlarda ham muntazam va faol ishtirok etadi.

O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasi 2010-yil 10-11-may kunlari XMT tashabbusi hamda YUNISEF va Jahon Banki homiyligida Gaagada bo‘lib o‘tgan **“Bolalar mehnati bo‘yicha butunjahon konferensiyasi”**da qatnashdi. Anjumanda 80 ta a‘zo davlatdan 450 ta vakillar, jumladan, 30 ta mehnat vazirlari ishtirok etdi.

Xalqaro mehnat tashkilotining O‘zbekiston bilan aloqalarida Tashkilot Kotibiyati – XMT Byurosi, XMTning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo bo‘yicha Moskvadagi subregional Ofisi, XMTning Mehnat sohasida huquq hamda asosiy prinsiplar va standartlar Departamenti muntazam ishtirok etadi.

O‘zbekiston nafaqat XMT konvensiyalarining ishtirokchisi, balki Tashkilot doirasida qabul qilinayotgan xalqaro normativ hujjatlarni ishlab chiqishda ham faollik ko‘rsatmoqda. Misol sifatida, 2010-yil-iyunda XMK 99-sessiyasida **“Uyda o‘tirib ishlaydigan ishchilar uchun munosib mehnat”** (Decent work for Domestic workers - Dostoyniy trud dlya domashnix rabotnikov) konvensiyasining loyihasi ishlab chiqilgan va a‘zo davlatlarga tarqatilgan edi. Mazkur loyiha respublikamizdagi barcha manfaatdor tashkilotlarga yetkazilgan va Konvensiya loyihasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida O‘zbekistonning takliflari XMT taqdim etilgan. Mazkur konvensiya loyihasi oradan bir yil o‘tib 2011-yilda qabul qilindi.

Xalqaro mehnat tashkilotining bugungi kunda 190 ta konvensiyasi va tavsiyalari bor. O‘zbekiston uning 13 asosiy konvensiyasi²³¹ ga qo‘shildi. Ular orasida, 1973-yil 6-iyunda qabul qilingan “Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risida”gi 138-Konvensiya (2008-yil 4 aprel)²³²; 1999-yil 1-iyunda qabul qilingan “Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to‘g‘risida”gi 182-Konvensiya (2008-yil 8 aprel)ni²³³ alohida ta’kidlash lozim. Chunki, bu konvensiyalar bolalarning mehnat ekspluatatsiyasidan himoya qilishga va mehnat sohasidagi boshqa huquqlarini xalqaro kafolatlashga bag‘ishlangan.

XMTning Bolalar mehnatiga barham berish bo‘yicha Xalqaro dasturi (IPEC – International Programme on the Elimination of Child Labour) O‘zbekistonda 2005-2010-yillarda samarali faoliyat olib bordi. O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarni implementatsiya qilish bo‘yicha texnik yordam ko‘rsatdi. Dastur ko‘magi asosida Oliy Majlis deputatlari uchun uslubiy va amaliy qo‘llanmalar chop etildi.

2012-yil 3-4-may kunlari Toshkent shahrida XMT Kotibiyati va YeI Komissiyasi ekspertlari ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan XMT konvensiyalarining asosiy qoidalarini amalga oshirish” mavzusida xalqaro seminar tashkil etildi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytganda, O‘zbekistonning XMT bilan hamkorligining qamrovi tobora kengayib bormoqda. Mazkur tashkilot bilan aloqalarni konstruktiv asosda yanada kuchaytirish masalasiga Davlatimiz rahbariyati alohida e’tibor

²³¹ XMTning asosiy konvensiyalariga quyidagilar kiradi: 1930-yil 28-iyunda qabul qilingan “Zo‘raki yoki majburiy mehnat to‘g‘risida”gi 29-Konvensiya (1997-yil 30-avgust); 1935-yil 22-iyunda qabul qilingan “Ish vaqtini haftasiga qirq soatgacha qisqartirish to‘g‘risida”gi 47-Konvensiya (1995-yil 6-may); 1936-yil 4-iyunda qabul qilingan “Haq to‘lanadigan yillik ta’tillar to‘g‘risida”gi 52-Konvensiya (1995-yil 6-may.); 1949-yil 1-iyulda qabul qilingan “Jamoalar muzokaralarini tashkil etish va yuritish huquqi prinsiplarini qo‘llanishi to‘g‘risida”gi 98-Konvensiya (1997-yil 30-avgust); 1951-yil 29-iyunda qabul qilingan “Bir xil qiymatga ega bo‘lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi 100-Konvensiya (1997-yil 30-avgust); 1919-yil qabul qilingan va 1952-yil 28-iyunda qayta ko‘rib chiqilgan “Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 103-Konvensiya (1995-yil 6-may); 1957-yil 25-iyunda qabul qilingan “Majburiy mehnatni tugatish to‘g‘risida”gi 105-Konvensiya (1997-yil 30-avgust); 1958-yil 25-iyunda qabul qilingan “Mehnat va mashg‘ulotlar sohasidagi kamsitishlar to‘g‘risida”gi 111-Konvensiya (1997-yil 30-avgust); 1964-yil 9-iyulda qabul qilingan “Bandlik sohasidagi siyosat to‘g‘risida”gi 122-Konvensiya (1995-yil 6-may); 1971-yil 23-iyunda qabul qilingan “Korxonalarda mehnatkashlar vakillarining huquqlarini himoya qilish va ularga beriladigan huquqlar to‘g‘risida”gi 135-Konvensiya (1997-yil 30-avgust); 1981-yil 19-iyunda qabul qilingan “Jamoalar muzokaralariga ko‘maklashish to‘g‘risida”gi 154-Konvensiya (1997-yil 30-avgust); 1973-yil 6-iyunda qabul qilingan “Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risida”gi 138-Konvensiya (2008-yil 4 aprel); 1999-yil 1-iyunda qabul qilingan “Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to‘g‘risida”gi 182-Konvensiya (2008-yil 8 aprel).

²³² O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, №4, 2008. 176-modda.

²³³ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, №4, 2008. 180-modda.

qaratmoqda. Ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga oid maxsus dasturlar qabul qilinmoqda. Jumladan, 2012-yili mamlakat parlamentida XMTning Xalqaro mehnat konferensiyasning 101-sessiyasi ishida ishtirok etganligi bo'yicha hukumat delegatsiyasining hisoboti eshitildi. Hisobot natijalari bo'yicha XMT bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi qabul qilingan.²³⁴ Unda XMTning qolgan boshqa konvensiyalariga qo'shilish, mehnat sohasidagi milliy qonunchilikni XMT standartlariga moslashtirish va takomillashtirish ko'zda tutilgan.

2008-yil 12-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi Konvensiyani hamda Bolalar mehnatining eng og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi Konvensiyani amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 207-sonli Qarori qabul qilindi.

Uning 1-bandiga muvofiq, mana shu ikki konvensiyani amalga oshirish bo'yicha 37ta qismdan iborat Milliy harakatlar rejasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Uning doirasidagi barcha faoliyatlarni muvofiqlashtirish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga yuklatildi. Tashkilotlar, korxonalar va jismoniy shaxslar tomonidan bolalarni mehnatga majbur qilishga yo'l qo'ymaslik, voyaga yetmaganlar uchun qonun hujjatlarida belgilangan mehnat normalari va sharoitlariga rioya qilinishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash vazifasi belgilandi hamda Bosh prokuraturaga konvensiya talablarini so'zsiz rioya etilishi yuzasidan nazoratni kuchaytirish tavsiya etilgan.

Milliy harakatlar rejasi bo'yicha ishlar 4 ta yo'nalishda olib boriladi:

- Bola mehnatidan foydalanmaslikni nazorat qiluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- Konvensiyalarni bajarilishini nazorat va monitroing qilish;
- Konvensiya masalalari bo'yicha tushuntirish-axborot ishlarini olib borish;
- Bola mehnatini taqiqlash sohasidagi xalqaro hamkorlik loyihalarini amalga oshirish.

²³⁴ Sbornik mejdunarodnykh dokumentov Komiteta ON po pravam rebenka /Otv. red. A.X.Saidov. –T.: NSPCh, 2014. –S.11

Mana shu Konvensiyalarning ijosini ta'minlash maqsadida milliy qonunchilikni takomillashtirish konvensiyalar normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va uni XMT standartlariga yaqinlashtirish orqali amalga oshirilmoqda.

Aytib o'tish joizki, majburiy mehnatni taqiqlash, bola huquqlarini himoyalashning huquqiy mexanizmlari milliy qonunchiligimizda o'z aksini topgan bo'lib, biz ularni oldingi boblarimizda batafsil ko'rib chiqdik.

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunga binoan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar “bola” deb ataladi. Bular hammasi XMT standartlari bilan to'liq mos tushadi.

Qonunchilikni yanada takomillashtirish maqsadida, O'zbekistonning XMT konvensiyalariga qo'shilishi va ratifikatsiya qilinishi munosabati bilan Oliy Majlis tomonidan 2009-yilda “O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va “Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun qabul qilindi va Mehnat kodeksining 12 ta va Qonunning 1 ta moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 4 apreldagi qonuni bilan XMTning “Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risida”gi 138-sonli Konvensiya ratifikatsiya qilingan bo'lsa, ushbu Konvensiyaning 2-moddasiga binoan, eng kichik yosh etib 15 yosh belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 77-moddasi va “Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida”gi Qonunning 20-moddasida esa eng kichik yosh etib 16 yosh belgilangan edi. Shu bilan birga, 15 yoshga to'lgan shaxs, uning ota-onasidan birining yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxsning yozma roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkinligi belgilangan edi.

Konvensiya ratifikatsiya qilingach, Mehnat kodeksining 77-moddasi, 242-moddasi va “Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida”gi Qonunning 20-moddasiga o'zgartirishlar kiritildi. Endilikda 15 yoshga to'lgan o'quvchilarning ota-onasidan birining yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxsning roziligi bilan ta'lim olish

jarayoniga ziyon yetkazmaydigan tarzda o‘qishdan bo‘sh vaqtlarda yengil ishlarni bajarish uchun ishga qabul qilinishiga yo‘l qo‘yiladi.

2009-yil 21-dekabrda esa O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish munosabati bilan Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Kodeksiga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

Jinoyat kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekssida odam savdosi va majburiy mehnat uchun jinoiy va ma‘muriy javobgarlik kuchaytirildi.

“Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunda insonni ekspluatatsiya qilishning har qanday shakliga qarshi kurash, majburiy mehnatga yo‘l qo‘ymaslikning mexanizmlari yaratildi.

Bu borada bir qator idoralararo hujjatlar ham qabul qilingan.

2001-yildan 18 yoshga to‘lmagan bolalarning mehnat qilishi taqiqlangan noqulay mehnat sharoitlari ostidagi ish (faoliyat turlari) ro‘yxati ishlab chiqilgan va yangilanib turiladi. Ro‘yxat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan Sog‘liqni saqlash vazirligi hamkorligida tasdiqlangan va Adliya vazirligida ro‘yxatga olingan. Ro‘yxatning yangilangan №1990-sonli tahriri 2009-yil 29-iyulda qabul qilingan.

2008-yil 2-oktabrda Fermer xo‘jaliklari assotsiatsiyasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi qishloq xo‘jaligi ishlarini olib borishda bolalar mehnatidan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida Qo‘shma bayonot qabul qilishgan.

2009-yildan Davlat statistika qo‘mitasi yillik hisobotlariga mehnat qilayotgan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning sonini belgilash ko‘rsatkichlari kiritilgan.

Konvensiyalarni bajarilishini nazorat va monitoring qilish hamda qonunlar ijrosini ta‘minlash borasida bir qator amaliy natijalarga erishildi. Milliy harakatlar rejasining 20-qismida “Paxta yig‘im-terim ishlarida umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining majburiy mehnatidan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik

yuzasidan joylarda monitoring olib borish va tegishli ishchi guruhlar tuzish” ko‘rsatilgan. Sud va prokuratura organlarining nazorat faoliyati kuchaytirildi.

Milliy harakatlar rejasi doirasidagi ishlarning borishi bo‘yicha monitoring olib borildi: 150 ta mansabdor shaxs bolalar mehnatiga oid qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma‘muriy javobgarlikka tortildi.

2014-yilning 18-sentabridan 25-oktabriga qadar respublikaning barcha hududlarida Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) metodologiyasi va texnik ko‘magida o‘tkazilgan Milliy monitoring davomida O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamda hududiy nodavlat tashkilotlari vakillaridan iborat 8 ta hududiy Ishchi guruhlarini ish olib bordi. Milliy monitoring yakunlari O‘zbekistonda 18 yoshga to‘lmagan bolalarni paxta-yig‘im terimiga jalb etish holatlari mavjud emasligini ko‘rsatdi. XMT ekspertlari hamda hududiy monitoring guruhlarini a‘zolari voyaga yetmaganlarni Hukumat tashabbusi bilan paxta terimiga tizimli ravishda jalb etish holatlarining mavjud emasligini tasdiqladi. Monitoring natijalari mahalliy hokimliklar va fermerlarning 18 yoshga to‘lmagan bolalarni paxta-yig‘im terimiga jalb etishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida to‘liq xabardor ekanliklarini ham ko‘rsatdi. Ayrim holatlarda paxta dalalarida voyaga yetmagan bolalar (49 nafar) mavjudligi aniqlanib, ular o‘zlari yoki ota-onalari ixtiyori bilan borganligi ma‘lum bo‘ldi. Bu kabi holatlar bo‘yicha hududiy monitoring guruhlarini tomonidan bolalarni daladan chiqarib yuborish choralari ko‘rilib, mehnat inspeksiyalari yordamida ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi hujjatlar tuzildi. Xususan, 11 ta kasb-xunar kolleji direktorlari, 2 ta fermer xo‘jaligi hamda 6 ta terim otryadi rahbarlari ma‘muriy javobgarlikka tortilib, ular 11,7 mln. so‘m miqdorida jarimaga tortildi²³⁵.

Xalqaro hamkorlik sohasida Milliy harakatlar rejasining 30-bandiga muvofiq, 2010-yil-iyunda O‘zbekiston va XMTning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo bo‘yicha subregional byurosi o‘rtasida “Bolalar mehnatining og‘ir shakllarini

²³⁵ O‘zbekiston Respublikasida bolalar mehnati masalasi bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash kotibiyati. www.kasaba.uz

taqiqlash va yo‘q qilish sohasida hamkorlik to‘g‘risida Memorandum loyihasi tayyorlandi. Uning 2-moddasi XMTning Bolalar mehnatiga barham berish bo‘yicha Xalqaro dasturi (IPEC – International Programme on the Elimination of Child Labour) bilan hamkorlikni nazarda tutadi. 1992-yili tashkil etilgan mazkur Dastur, quyidagi yo‘nalishlarda ish olib bormoqda:

- bolalar mehnatiga barham berish bo‘yicha islohotlarni amalga oshirish va aniq choralar ko‘rishga yo‘naltirilgan dasturlarni turli mamlakatlarda joriy etmoqda;

- jamoatchilik fikrini o‘zgartirishga hamda XMT Konvensiyasini ratifikatsiya qilish va uni bajarish zarurligiga ishonitirishga qaratilgan xalqaro va milliy kampaniyalar o‘tkazadi;

- chuqur tadqiqotlar, huquqiy ekspertizalar, mazkur sohada mintaqaviy va xalqaro darajada amalga oshirilayotgan dasturlar strategiyasini ishlab chiqish va baholashni o‘tkazadi.²³⁶

XMT Konvensiyalari ijrosini ta‘minlashning institutsional mexanizmlari ham kuchaytirildi. Konvensiyalarining ijrosi bo‘yicha ma‘lumotlar tayyorlash va muvofiqlashirilgan faoliyat olib borish maqsadida 2010-yil 2-iyulda Idoralararo ishchi guruhi tuzilgan. Uning tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza himoya qilish vazirligi; Xalq ta‘limi vazirligi; Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vaziligi; TIV; Adliya vazirligi; Savdo-sanoat palatasi; O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi kiradi.

Bundan tashqari, quyidagilar mehnat sohasida bola huquqlari buzilishini nazorat qilish va monitoring qilish bo‘yicha davlat va jamoat mexanizmlaridir:

- Hukumat tarikibida Bosh vazir o‘rinbosari rahbarligidagi *Oila, bolalik va onalikni muhofaza qilish bo‘yicha Kompleks*;

- Vazirlar Makamasi huzurida Bosh prokuror rahbarligidagi *Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha maxsus komissiya*;

²³⁶ Raxmonov B., Maxmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. –T.: CHASHMA PRINT, 2011. -B.63

-Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tarkibida *Davlat mehnat huquqiy inspeksiyasi* va har bir tumanda joriy etilgan *Mehnatni muhofaza qilish inspeksiyalari*.

O‘zbekistonda 138- va 182-konvensiyalar ijrosini ta’minlash borasida bolalar mehnatining og‘ir shakllari va bolalar mehnatidan foydalanishni taqiqlash sohasida katta ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, bu sohada muammolar hali ham mavjud.

Bolalar mehnati bilan bog‘liq xalqaro hamkorlik masalalari o‘rganilganda, alohida qayd etish lozimki, ayrim hollarda, bolalar mehnatini ro‘kach qilish orqali XMT doirasida hamda xalqaro nohukumat tashkilotlari tomonidan O‘zbekistonga nisbatan noxolis ta’na toshlari otilmoqda. Otilayotgan toshlarning asl sabablari siyosiy kampaniyavozlik, iqtisodiy raqobatning g‘irrom metodlari, mustaqil va qat’iy tashqi siyosat yuritayotgan yosh davlatga nisbatan bosim o‘tkazish, uning nufuzini tushirishga va undan boshqa geosiyosiy maqsadlarda foydalanishga bo‘lgan harakatlardan iboratdir.

Sifatli raqobatbardosh va biologik toza o‘zbek paxtasi jahon bozorida qadri oshib, sun’iy tarzda genetik o‘zgartirilgan AQSh paxtasini siqib chiqarayotganligi AQSh va Buyuk Britaniya kabi davlatlardagi paxta ishlab chiqaruvchilarini ancha tashvishga solib qo‘ygan. O‘zbek paxta tolasining Xitoy bozorida 20 foizga, Bangladeshda 65 foizga oshganligi uning Janubiy Sharqiy Osiyo bozorlariga mustahkam kirib borayotganligini ko‘rsatib turadi.

Atrofga teng ko‘z bilan qaralsa, hozirgi paytda bolalar mehnati bilan bog‘liq muammo barcha joyda kuzatiladi va tashvishli holatni yuzaga keltiradi. 2004-2008-yillar davomida dunyoda mehnat qilayotgan bolalar soni 222 mln.dan 215 mln.ga kamaygan bo‘lsa-da, hozirda ularning soni 200 mln. atrofida bo‘lib, 115 mln. bola og‘ir mehnat shakli sharoitlarida ishlamoqda.

Hindiston Mehnat va bandlik vazirligi huzuridagi Mehnat milliy instituti tadqiqotlariga ko‘ra, 2010-yilda AQSh mehnat qonunchiligida bolalar mehnatidan foydalanishni taqiqlashga oid normalar mavjud emas. 50 ta shatatdan 16 tasida 16 yoshgacha bo‘lgan bolalarning ko‘p soatli ish kunlari joriy etilgan. 2008-yilda 2,3 mln. 15-17 yoshli bolalar xalq xo‘jaligining turli sohalarida ishlatilgan. 800 ming

bola qishloq ho‘jaligida mehnat qilgan. Holbuki, AQSh har yili boshqa davlatlarda bolalar mehnatini taqiqlash kompaniyasi uchun 25 mln. dollar sarflaydi.


Bolalar mehnati bo‘yicha Butunjahon konferensiyasida (Gaaga, 2010-yil 11-12-may) e‘lon qilingan XMTning *“Bolalar mehnatini butunlay tugatish bo‘yicha sa‘y-harakatlarni jadallashtirish”* nomli Global ma‘ruzasida 2016-yilgacha bolalar mehnatini og‘ir shakllarini yo‘qotish maqsad etib belgilangan²³⁷.

Xalqaro mehnat tashkilotining O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini amalga oshirishni davom ettirish, majburiy mehnatga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, bolalar mehnatining eng yomon shakllari qo‘llanilishining oldini olish bo‘yicha qonun hujjatlarini takomillashtirish va qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 27-mayda “Xalqaro mehnat tashkiloti(XMT)ning O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini 2014-2016-yillarda amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan.

Unga ko‘ra, Xalqaro mehnat tashkiloti(XMT)ning O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini 2014-2016-yillarda amalga oshirishga doir qo‘shimcha tadbirlar kompleksi ishlab chiqilgan. Unda mazkur konvensiyalar normalariga oid milliy qonunchilikni, bu sohadagi huquqni qo‘llash mexanizmini takomillashtirish masalalari, aholida bolalarning mehnat huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatini oshirish va boshqa shu kabi turli chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston shuningdek, Jahon sog‘liq saqlash tashkiloti, YuNFPA, BMTRD kabi BMTning boshqa ixtisoslashgan tashkilotlari bilan ham bola huquqlari sohasida o‘zaro manfaatli hamorlik aloqalarini olib bormoqda.

Bola huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish masalasida mamlakatimiz hukumati boshqa xalqaro hukumatlararo va xalqaro nohukumat tashkilotlari bilan ham faol hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasi bola huquqlari borasida BMT, YUNESKO, XMT, JSST, YUNISEF, kabi kabi hukumatlararo tashkilotlar bilan bir qatorda, “SOS Kinderdorf

 Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markaz tahliliy ma‘lumotnomasi.

Interneynshnl”, Save Children, Xalqaro Qizil Xoch Qo‘mitasi, kabi xalqaro nohukumat tashkilotlari bilan ham yaqindan hamkorlik olib bormoqda.

Jumladan, yetim bolalarni uyg‘un rivojlantirish va tarbiyalash uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida “Sog‘lom avlod uchun” hukumatga qarashli bo‘lmagan xalqaro xayriya jamg‘armasi, O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi va “SOS - Kinderdorf Interneshnl” xalqaro jamiyati (Avstriya) bilan birgalikda “O‘zbekiston bolalar mahallalari” (“SOS - Detskiye derevni Uzbekistana”) uyushmasi tashkil etildi. “SOS - O‘zbekiston bolalar mahallalari” uyushmasi “SOS - Kinderdorf Interneshnl” xalqaro uyushmasi tarkibiga kiradi.

“SOS - O‘zbekiston bolalar mahallalari” uyushmasining asosiy vazifalariga:

- jamoatchilik va davlat tuzilmalarining yetim bolalarni jismoniy, intellektual va ma’naviy rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, ularni ijtimoiy va huquqiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish;

- yetim bolalarni O‘zbekistonda qabul qilingan an’anaviy pedagogika tamoyillarini hisobga olgan holda tarbiyalash;

- “SOS - Kinderdorf Interneshnl” jamiyati a’zolari bo‘lgan tashkilotlar bilan “SOS - O‘zbekiston bolalar mahallalari” va ular bilan bog‘liq SOS - loyihalari bolalar bog‘chalari, maktablar, o‘qitish, sport va dam olish markazlari qurish va ularni to‘liq jihozlashni tashkil etishda vositachi sifatida hamkorlik qilish;

- davlat, jamoat va xususiy tuzilmalarni Uyushma faoliyatiga faol jalb qilish kiradi.

3. O‘zbekistonni YUNISEF bilan bola huquqlari bo‘yicha xalqaro hamkorligi

YUNISEFning O‘zbekistondagi faoliyati bolalar va ularning oilalari hayotini yaxshilashga qaratigan bo‘lib, quyidagi huquqlarni amalga oshirishga yordam beradi:

- yuqori sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, xususan, onalar salomatligi, bolalar o‘limini qisqartirish hamda OITV/OITS to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish huquqi;

- yuqori sifatli va bepul bo‘lgan boshlang‘ich ta‘lim olish hamda yuqori sifatli va imkon qadar bepul bo‘lgan o‘rta ta‘lim olish huquqi;
- bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va xordiq chiqarish huquqi;
- o‘z fikr-mulohazalarini erkin ifoda etish huquqi;
- jinsi, dini yoki irqidan qat‘i nazar, hamma uchun teng imkoniyatga ega bo‘lish huquqi.

Bolalar huquqlariga tayziq o‘tkazish ehtimoli hamma yerda ham bo‘lishi mumkin.

YUNISEF O‘zbekistondagi bolalar o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshirish uchun ularning asosiy ehtiyojlarini qondirish va ularning imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berish maqsadida bola huquqlarini himoya qilish borasidagi o‘z faoliyatini 1994-yil 1-mart kundan boshlagan. Dastavval da davlat organlari hamda jamoat tashkiltlari bilan hamkorlikning va sherikchilik munosabatlarining asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. Jamg‘armaning butun faoliyati Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha majburiyatlarni bajarishda O‘zbekiston hukumatiga ko‘mak ko‘rsatishga qaratilgan asosiy vazifadan kelib chiqadi. YUNISEF faoliyatini muhim obykti bolalar, yoshlar va onalar hisoblanadi.²³⁸

YUNISEF hamkorlik dasturlari doirasida hukumat bilan ham markaziy, ham mahalliy darajalarda, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro hamkorlari bilan faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

YUNISEF o‘zining O‘zbekiston hukumati bilan hamkorlik dasturlari doirasida ana shu masalalarga e‘tibor beradi.

1995-1999-yillarda YUNISEFning birinchi ish dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirilib, gumanitar yuk yetkazilib berildi, sog‘liqni saqlash metodikalari bo‘yicha treninglar o‘tkazildi.

2000-2004-yillarda Mamlakat Hamkorlik Dasturi amalga oshirilib, u asosiy sohalarni: omon qolish, ona va bolani rivojlantirish hamda himoya qilish, bola

²³⁸ Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.Saidov, F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. –T.: “O‘zbekiston”, 2010. -B.271

hayotini yaxshilash, yoshlar farovonligi; qurg‘oqchilik oqibatida sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatni qamrab oldi.²³⁹ Mazkur dastur 3 davrni tashkil etadi. Birinchi davr – “Ona va bola sog‘lig‘i” bo‘lib, ona qornidagi va 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Ikkinchi davr esa – “Bolaning ilk pallada rivojlanishi”. U bolaning 5 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan asosiy rivojlanish davrini o‘z ichiga oladi. Va, nihoyat, uchinchi davr – “Bolaning farovonligi” – 13 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan.

2005-yil avgustda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va YUNISEF tashkiloti o‘rtasidagi 2005-2009-yillarga mo‘ljallangan Mamlakat Harakat Rejasi dasturi imzolandi. Mazkur harakat rejasi maqsadi hukumati bollar va ayollarning yashash, o‘sinh va yaxshi, g‘amho‘r va himoyalangan muhitda rivojlanishiga bog‘liq bo‘lgan majburiyatlarini amalga oshirishda ko‘mak beradi. YuNICEFning Davlat Dasturi oziqlanishni yaxshilash, ta‘lim olish, gender tengligi, ona sog‘lig‘i, bolalar o‘limini kamaytirish, OIV/OITSni yo‘q qilish va bolalar qashshoqlik muammolarini yechish sohalarida Mingyillik Rivojlanish maqsadlariga erishish uchun yo‘naltirilgan edi.

Ushbu Rejada shuningdek, bola huquqlarini kafolatlash va himoya qilishga qaratilgan yagona (umumlashtirilgan) huquqiy hujjat ishlab chiqish va qabul qilish borasidagi Hukumat tomonidan olib borilayotgan sa‘y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash, bolalar uchun ixtisoslashgan nishona sud tashkil etish orqali Yuvenal yustitsiya masalalarini muhokama qilishga doir bolalar Ombudsmanini tashkil etish, shuningdek, bolalarning oila hayoti muhitiga bo‘lgan huquqlarini keng targ‘ib qilish, bolalarga mo‘ljallangan muassasalarning muqobil ko‘rinishlarini yaratish va bular bilan bog‘liq bir qator masalalarga oid qoidalar o‘z aksini topgan.

YUNISEF ushbu maqsadlarga erishish yo‘lida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, fuqarolik jamiyati instituti vakillari va bevosita bolalarning o‘zlari bilan ham yuqorida qayd etib o‘tilgan muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish borasida

²³⁹ Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.Saidov, F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. –T.: “O‘zbekiston”, 2010. -B.273

hamkorlik qilib kelayotir²⁴⁰. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni, jabrdiyda guvohlar himoyasi, shuningdek, otalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyaga topshirishning muqobil ko‘rinishlari targ‘ib qilingan Yuvenal yustitsiya kodeksi ishlab chiqish bo‘yicha ko‘plab aniq tadbirlar ushbu hamkorlikning muayyan natijalaridandir.

Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan va 2010-2015-yillarga mo‘ljallangan Mamlakatlararo hamkorlik dasturi milliy ustuvorliklar va Mingyillik rivojlanish maqsadlariga javob beradi. Dasturning asosiy vazifasi – tenglik tamoyillariga rioya qilgan holda bola huquqlarini izchil amalga oshirish. Ushbu dastur Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasiga muvofiq tenglikka erishish hamda bolalar huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan tadbirlarni rejalashtirish, o‘tkazish va nazorat qilish sohasida milliy salohiyatni mustahkamlash vazifalarni qamrab oladi.

YUNISEF mamlakatdagi turli hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari yaqindan hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. Ayniqsa, uning mamlakat parlamenti bilan aloqalari kuchayib bormoqda. jumladan, 2009-yil 7-aprelda YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida Memorandum imzolangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi bolalar manfaati va huquqlarini qo‘llab-quvvatlash belgilangan.

Ushbu Memorandum doirasida parlamentning quyi palatasida bola huquqlari bo‘yicha Resurs markazi ochildi, bolalar huquqlari rioya qilish va himoyalash masalalari bo‘yicha bir qator tadbirlar uyushtirildi. Ushbu tadbirlarda deputatlar, davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda xalqaro ekspertlar ishtirok etdi. Shuningdek, Bola huquqlari konvensiyasi hamda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning bajarilishi yuzasidan parlament tomonidan nazorat-tahliliy ishlar amalga oshirib kelmoqda.

YUNISEF ko‘magida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasida Bola huquqlari bo‘yicha resurs markazi tashkil qilingan. U nafaqat

²⁴⁰ Bolalarni himoya qilish. Parlament a‘zolari uchun qo‘llanma. - T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006. -B.3

deputatlarni bola huquqlari masalalari bo'yicha xabardor qiladi, balki davlat organlari va nohukumat tashkilotlarining ushbu sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, YUNISEF bilan hamkorlikda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun normalari bajarilishining monitoringi muhokama qilib borilmoqda. Misol uchun, 2012-yil 27-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasida YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 25- va 29-moddalari ijrosining monitoringi" mavzuida davra suhbatlari tashkil etildi. Tadbirning asosiy maqsadi – ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatga uyg'unlashishi, ularning ta'lim, tibbiyot va madaniyat-ma'rifat muassasalaridan foydalanish imkoniyatlarini davlat tomonidan ta'minlash, ularga xuddi boshqa barcha bolalar kabi ta'lim olishlari uchun zarur bo'lgan mablag'larni ajratish va choralar ko'rish hamda ularning ehtiyojlarini inobatga olgan holda zarur bo'lgan maxsus pedagogik yondashuvlarni ta'minlab berish majburiyatlarining bajarilishi monitoring qilinib, bu boradagi muammolar muhokamasi natijalaridan kelib chiqqan holda, ularning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar va xulosalar ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.²⁴¹

YUNISEF Vakolatxonasining faoliyati, eng avvalo, bola huquqlari oid xalqaro shartnomalar qoidalarini tushunishga moslashtirishda, YUNISEFning maqsad va vazifalarini anglab yetishda yordam beradi. Ushbu Tashkilotning O'zbekiston Konstitutsiyasi asosiy qoidalariga mos bo'lgan oliy va yuksak maqsadlari ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya, ijtimoiy ko'mak va madaniyat kabi sohalarida O'zbekiston Hukumati bilan YUNISEF o'rtasidagi hamkorlik tobora jipslashmoqda va serunum bo'lib borilishiga ko'maklashmoqda.²⁴²

²⁴¹ Bola huquqlarining kafolatlari //Demokratlashtirish va inson huquqlari. №1, 2013. -B.61

²⁴² *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.Saidov, F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. –T.: "O'zbekiston", 2010.-B.275*

Bola huquqlari sohasidagi O‘zbekistonning YUNISEF bilan hamkorlik dasturi doirasida O‘zbekiston hukumatining YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, YUNISEFning Bosh ofisi va Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari va MDH davlatlari uchun YUNISEFning Mintaqaviy vakolatxonasi bilan hamkorlik rivojlanmoqda va kengaymoqda.

YUNISEF o‘z maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mamlakatda bola huquqlari va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilish sohasida, shuningdek, mamlakatdagi inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar, ya’ni Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Ombudsman, Amaldagi qonun hujjatlari monitoring instituti, jumladan O‘zbekiston Bolalar va oilalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, “Kamolot” Yoshlar ijtimoiy harakati, “Sen yolg‘iz emassan”, “Sog‘lom avlod uchun”, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi kabi nodavlat tashkilotlar bilan ham yaqindan hamkorlik aloqalari olib bormoqda. Bu hamkorlik aloqalari qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish, aholining zaif qatlami sifatida bolalar va onalarni qo‘llab-quvvatlash, bola huquqlari sohasida keng targ‘ibot-ma’rifiy ishlar, bola huquqlarining turli muammolari borasida tadqiqotchilik ishlari va ularni qo‘llab-quvvatlash kabi turli sohalarni qamrab olmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

- 1. Bola huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari*
- 2. O‘zbekiston bola huquqlari sohasida qaysi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini olib boradi?*
- 3. O‘zbekiston Respublikasining BMT bilan bola huquqlari sohasidagi hamkorligi qandaay amalga oshirilmoqda?*
- 4. O‘zbekistonni BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi bilan hamkorligi qanday amalga oshirilmoqda?*
- 5. O‘zbekiston BMTning ixtisoslashgan muassasalari bilan bola huquqlari bo‘yicha hamkorligi qanday yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda?*

6. *O'zbekiston bola huquqlari sohasida qaysi xalqaro nohukumat tashkilotlar bilan hamkorlik olib bormoqda.*
7. *YUNISEF tashkilotining maqomini tushuntirib bering.*
8. *O'zbekistonning YUNISEF bilan xalqaro hamkorligi qanday yo'nalishlarda olib borilmoqda.*
9. *YUNISEFning O'zbekistondagi faoliyati qanday yo'lga qo'yilgan va uning asosiy hamkorlari qaysi tashkilotlar?*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

13. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2014.*
14. *Karimov I. Bunyodkorlik yo'lidan. -T.: O'zbekiston, 1996.*
15. *Balog'atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar. /Kirish so'z muallifi va mas'ul muharrir. A.X.Saidov. -T.; 2002. -232 b.*
16. *Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo'llanma. T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006.*
17. *Bola huquqlari monitoringi. O'quv-uslubiy qo'llanma /mas'ul muharrir A.X.Saidov. -T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011.*
18. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.Saidov, F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -T.: "O'zbekiston", 2010.*
19. *Mo'minov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. -T.: JIDU, 2011*
20. *Mo'minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muxarrir A.X.Saidov. 2-nashr. -T.: Adolat, 2013.*
21. *Mo'minov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. -T.: Adolat, 2013.*
22. *Raxmonov B., Mahmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. -T.: "CHASHMA PRINT", 2011.*

23. *Xakimov R. Detstvo: Problemy i perspektivy: [1946-2006]. –T.: O'zbekiston, 2006.*
24. *Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari. /O'zbekcha nashri uchun mas'ul A.X.Saidov. –T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008.*

***BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISHGA OID
XALQARO HUQUQIY HUJJATLAR***

BOLA HUQUQLARI TO‘G‘RISIDAGI KONVENSIYA

***BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi
44/25-qarori bilan qabul qilingan***

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrda
757-XII-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan**

MUQADDIMA

Ushbu Konvensiyada ishtirokchi-davlatlar,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavida e‘lon qilingan tamoyillarga muvofiq, jamiyat barcha a‘zolarining o‘ziga xos bo‘lgan qadr-qimmatini, teng va ajralmas huquqlari yer yuzasida erkinlik, adolat va tinchlikni ta‘minlashning asosi ekanligi e‘tirof etilganini hisobga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqlari Ustavida insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsining sha‘ni va qadr-qimmatiga bo‘lgan o‘z ishonchlarini tasdiqlaganliklari hamda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilash borasida ko‘maklashishga ahd qilganliklarini e‘tiborga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda har bir inson mazkur xujjatlarda ko‘rsatib qo‘yilgan huquq hamda erkinliklarga irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e‘tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug‘ilishi yoki boshqa holatlar bilan bog‘liq belgilariga ko‘ra har qanday tafovutdan qat‘iy nazar, ega bo‘lishini e‘lon qilganligi va rozilik bildirganligini e‘tirof etib,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida bolalar alohida g‘amxo‘rlik va yordam huquqiga egadirlar, deb e‘lon qilganligini eslatib,

jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va tibbiy muhitga uning barcha a‘zolari, ayniqsa, bolalar o‘sib-ulg‘ayishlari va farovonlikka ega bo‘lishlari uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga to‘liq oladigan bo‘lishiga erishish maqsadda zarur himoya va yordam bilan ta‘minlanishi lozim ekanligiga ishonch hosil qilgan holda,

bolaning shaxsi sogʻlom va har tomonlama uygʻunlashgan holda kamoloti uchun u oila gʻamxoʻrligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida oʻsishi zarurligini eʼtirof etib,

bola jamiyatda mustaqil hayotga toʻla tayyorlanishi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavida eʼlon qilingan gʻoyalar ruhida, ayniqsa, tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, erkinlik, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozimligini hisobga olib,

bolani mana shunday alohida himoya qilish zarurligi 1924-yilgi Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasida va 1959-yil 20-noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasida koʻzda tutilganligini va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisida xalqaro paktda (jumladan, 23- va 24-moddalarda), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisida xalqaro paktda (jumladan, 10-moddada), shuningdek, ixtisoslashgan muassasalar hamda bolalarning farovonligi masalalari bilan shugʻullanuvchi xalqaro tashkilotlarning Ustavlari va tegishli xujjatlarida eʼtirof etilganligini eʼtiborga olib,

Bola huquqlari deklaratsiyasida koʻrsatib oʻtilganidek, «bola, agar u jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetishmagan boʻlsa, maxsus ravishda muhofaza va gʻamxoʻrlikka, binobarin, tugʻilguncha va tugʻilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj» ekanligini eʼtiborga olib,

Ijtimoiy va huquqiy tamoyillar toʻgʻrisidagi deklaratsiyaning bolalar himoyasi va farovonligi, ayniqsa, bolalarni milliy va xalqaro darajalarda tarbiyalashga berish hamda asrab olish paytidagi himoyasi va farovonligiga doir qoidalariga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Balogʻatga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari («Pekin qoidalari») va Favqulodda holatlarda va qurolli mojarolar davrida ayollar va bolalarni himoya qilish toʻgʻrisidagi deklaratsiya qoidalariga tayanib,

jahondagi barcha mamlakatlarda nihoyatda ogʻir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida eʼtiborga muhtoj ekanliklarini eʼtirof etib,

bolaning himoya qilinishi va uygʻun ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning anʼanalari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olib,

har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligini eʼtirof etib,

quyidagilar haqida kelishib oldilar:

I QISM

1-modda

Ushbu Konvensiyaning maqsadlari uchun 18 yoshga toʻlmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qoʻllaniladigan qonun boʻyicha u ertaroq balogʻatga yetmagan boʻlsa, bola hisoblanadi.

2-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyada o'z ta'sir doirasida bo'lgan har bir bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamsitishlarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, bolaning sog'lig'i va tug'ilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoki biror-bir boshqa holatlardan qat'iy nazar, hurmat qiladilar hamda shu huquqlarni ta'minlab beradilar.
2. Ishtirokchi-davlatlar bola, uning ota-onasi, qonuniy vasiysi yoki boshqa oila a'zolarining qarashlari yoki e'tiqodida o'z ifodasini topadigan maqom, faoliyat asosida kamsitish yoki jazolashning barcha shakllaridan bolaning himoyasini ta'minlash uchun hamma zarur choralarni ko'radilar.

3-modda

1. Bolalarga nisbatan barcha hatti-harakatlarda, ular ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat yoki xususiy muassasalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan sodir etiladimi-yo'qmi, bundan qat'iy nazar, bolaning manfaatlari yaxshiroq ta'minlanishiga birinchi darajali e'tibor beriladi.
2. Ishtirokchi-davlatlar o'z zimmasiga bolani uning farovonligi uchun zarur hisoblangan himoya va g'amxo'rlik bilan ta'minlash, bunda uning ota-onasi, vasiysi yoki qonun bo'yicha uning uchun javobgar sanalmish boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlarini e'tiborda tutishni hisobga oladilar hamda ana shu maqsadda barcha qonuniy va ma'muriy chora-tadbirlarni ko'radilar.
3. Ishtirokchi-davlatlar bolalar haqida g'amxo'rlik ko'rsatish yoki ularni himoya qilish uchun mas'ul hisoblangan organlar, muassasalar va xizmatlar vakolatli organlar tomonidan belgilab qo'yilgan me'yorlarga, xususan, xavfsizlik va sog'liqni saqlash sohasida va ulardagi xodimlarning soni va ishga yaroqliligi, shuningdek, vakolatli nazorat olib borishi nuqtai nazaridan belgilangan me'yorlarga javob berishlarini ta'minlaydilar.

4-modda

Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirish uchun barcha zarur qonuniy, ma'muriy va boshqa choralarni ko'radilar. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga nisbatan ishtirokchi-davlatlar bunday choralarni o'zlarida mavjud bo'lgan imkoniyatlar doirasida, mumkin qadar yuqori darajada zarurat tug'ilgan takdirda esa xalqaro hamkorlik doirasida qabul qiladilar.

5-modda

Ishtirokchi-davlatlar ota-onaning va tegishli holatlarda kengaytirilgan oila a'zolari yoki mahalliy urf-odatlarda ko'zda tutilganidek, jamoaning vasiylar yoki qonun bo'yicha bola tarbiyasi uchun javobgar hisoblangan boshqa shaxslarning ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirishda munosib darajada bolani boshqarish va unga rahbarlik qilish hamda bu ishni bolaning rivojlanib borayoggan qobiliyatlariga muvofiq holda bajarishdagi mas'uliyati, huquq va majburiyatlarini hurmat qiladilar.

6-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar har bir bola yashash uchun ajralmas huquqqa ega ekanligini e'tirof etadilar.
2. Ishtirokchi-davlatlar bolaning omon yashashi va sog'lom rivojlanishi uchun mumkin qadar yuqori darajada imkoniyat yaratib beradilar.

7-modda

1. Bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi va tug'ilgan daqiqasidan boshlab ism bilan atalish va fuqarolikka ega bo'lish, shuningdek, iloji boricha, o'z ota-onasini bilish va ularning g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqlarini olishga haqli hisoblanadi.
2. Ishtirokchi-davlatlar bunday huquqlar o'z milliy qonunchiliklariga muvofiq amalga oshirilishini, ularning majburiyatlari shu sohaga tegishli xalqaro xujjatlarga asosan, xususan, bola boshqa fuqarolikka ega bo'lmagan taqdirda bajarilishini ta'minlaydilar.

8-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar qonunda ko'zda tutilganidek, bolaning o'ziga xos xususiyatlari jumladan, fuqaroligi, ismi va oilaviy aloqalarini saqlab qolish huquqini hurmat qilish, qonunga zid ravishda aralashuvga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar.

2. Agar bola o'ziga xoslik elementlarining bir yoki barcha qismlaridan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etilgan bo'lsa, ishtirokchi-davlatlar uning bu xususiyatlari tezroq tiklanishi uchun zarur yordamda himoyalashni ta'minlaydilar.

9-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bola o'z ota-onasidan ularning hoxishlariga zid ravishda ayrilib qolmasligini ta'minlaydilar, vakolatli organlar sud qaroriga binoan qo'llanilgan qonun va tartib-rusumga muvofiq tarzda bunday ayrilish bolaning eng yaxshi manfaatlari yo'lida zarur deb topgan holatlar bundan mustasnodir. Bunday ajrim, masalan, ota-ona bolaga shafqatsizlik bilan munosabatda bo'lgan yoki unga

g'amxo'rlik qilmay qo'ygan yohud otag'ona alohida yashayotgan hamda bola yashaydigan joyga nisbatan qaror qabul qilish zarurati paydo bo'lgan u yoki bu aniq holatda zarur bo'lishi mumkin.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq holda ishni har qanday sharoitda ko'rib chiqish jarayonida barcha manfaatdor tomonlarga muhokamada qatnashish va o'z nuqtai nazarini bayon qilish imkoniyati beriladi.

3. Ishtirokchi-davlatlar ota-onasining bittasi yoki har ikkovidan ham ayrilgan bolaning ular bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqini hurmat qiladilar, bunday munosabatlar bolaning eng yaxshi manfaatlariga zid keladigan bo'lsa bundan mustasno bo'ladi.

4. Ishtirokchi-davlat tomonidan qabul qilingan biror-bir qaror, masalan, hibsga olish, qamash, surgun qilish, deportatsiya yoki ota-onadan bittasi yohud ikkovining ham yoki bolaning o'limi (ana shu shaxs davlat ixtiyorida bo'lgan paytda har qanday sababga ko'ra ro'y bergan o'lim ham shunga kiradi) tufayli sodir bo'lgan bo'lsa, ishtirokchi-davlat ota-onaga, bolaga yoki, agar zarurat tug'ilsa, oilaning boshqa a'zosiga ularning iltimosiga binoan oilaning yo'qolgan a'zosi (a'zolari yashab turgan joy) haqida, zarur axborotni agar bu bolaning farovonligiga ziyon keltirmaydigan bo'lsa yetkazib beradi. Ishtirokchi-davlatlar bunday iltimosni qondirish o'z-o'zidan tegishli shaxs (shaxslar) uchun noxush oqibatlariga olib kelmasligini ta'min etadilar.

10-modda

1. Ishtirokchi-davlatlarning 9-moddadagi 1-band bo'yicha majburiyatiga muvofiq bola yoki uning ota-onasi oilani birlashtirish maqsadda ishtirokchi-davlatga kirish yohud undan chiqish uchun bergan arizalari ishtirokchi-davlatlar tomonidan ijobiy, insonparvarlik ruhida va tezkorlik bilan ko'rib chiqilishi lozim. Ishtirokchi-davlatlar bunday iltimoslar arizachilar va ularning oila a'zolari uchun noxush oqibatlar keltirib chiqarmasligini ta'minlaydilar.

2. Ota-onasi turli davlatlarda yashayotgan bola alohida holatlardan tashqari, otasi va onasi bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqiga egadir. Ana shu maqsadda 9-moddaning 2-bandi bo'yicha ishtirokchi-davlatlarning majburiyatlariga muvofiq ishtirokchi-davlatlar bolaning va ota-onasining har qanday mamlakatni tark etish, jumladan, o'z mamlakatini tashlab ketish va unga qaytib kelish huquqini hurmat qiladilar. Har qanday mamlakatni tark etish huquqiga nisbatan qonunda belgilab qo'yilgan va davlat xavfsizligini, jamoat tartibini (ordre public), aholining sog'lig'i va ma'naviyati hamda boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini saqlash uchun zarur hisoblangan, ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan boshqa huquqlarga mos tushadigan cheklashlarga amalda bo'ladi.

11-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolalarning g'ayriqonuniy ravishda ko'chirilishiga va

- chet eldan qaytmasligiga qarshi kurash olib borish uchun chora-tadbirlar ko'radilar.
2. Ana shu maqsadda ishtirokchi-davlatlar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bitimlar tuzilishiga yohud amaldagi bitimlarga qo'shilishga ko'maklashadilar.

12-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar o'zining qarashlarini shakllantirishga qodir bolaga, ana shu karashlarni bolaga taalluqli barcha masalalar bo'yicha erkin ifoda etish huquqini ta'minlaydilar, binobarin, bolaning qarashlariga uning yoshi va yetukligiga muvofiq munosib darajada e'tibor beriladi.

2. Ana shu maqsadda bolaga, jumladan, bolaga taalluqli har qanday sud yoki ma'muriy muhokama paytida, bevosita, vakil yohud tegishli organ orqali milliy qonunchilikning protsessual me'yorlarida ko'zda tutilgan tartibda o'zining fikrlarini ular tomonidan eshitish imkoniyati beriladi.

13-modda

1. Bola o'zining fikrini erkin ifodalash huquqiga ega: bu huquq har qanday turdagi axborotni, chegarasidan qat'iy nazar, og'zaki, yozma yoki bosma shaklda, san'at asari ko'rinishida yoki bolaning tanloviga ko'ra boshqa vositalar yordamida izlash, olish va uzatish erkinligini o'z ichiga oladi.

2. Bunday huquqning amalga oshirilishi ba'zi bir cheklashlarga duch kelishi mumkin, biroq bunday cheklashlar faqat qonunda ko'zda tutilgan cheklashlardan iborat bo'ladi, bu quyidagilar uchun zarur:

- a) boshqa shaxslarning huquqlari va obro'sini hurmat qilish uchun;
- b) davlat xavfsizligi yoki jamoat tartibini (ordre public), aholining sog'lig'i yoki ma'naviyatini muhofaza qilish uchun.

14-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqini hurmat qiladilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar ota-onaning hamda tegishli holatlarda qonuniy vasiylarning bolaga uning rivojlanayotgan qobiliyatlariga muvofiq keladigan usul orqali bola huquqini amalga oshirishda rahbarlik qilish huquqi va majburiyatlarini hurmat qiladilar.

3. O'z dini yoki e'tiqodini targ'ib qilish erkinligi faqat qonunda belgilangan hamda davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholining ma'naviyati va sog'lig'ini saqlash yoki boshqa shaxslarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur hisoblangandagina cheklanishi mumkin.

15-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning assotsiatsiya va tinch yig'ilishlar erkinligi huquqini e'tirof etadilar.
2. Bu huquqning amalga oshirilishiga nisbatan biror-bir cheklashlar qo'llanilmaydi, qonunga muvofiq qo'llaniladigan va demokratik jamiyatda davlat xavfsizligi yoki jamiyat xavfsizligi, jamoat tartibi (ordre public) manfaatlari yo'lida, aholining sog'lig'i yoki ma'naviyatini saqlash, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan cheklashlar bundan mustasnodir.

16-modda

1. Birorta bola uning shaxsiy hayot, oilaviy hayot, uy-joy dahlsizligi yoki pochta orqali yuboriladigan narsalarning maxfiyligiga bo'lgan huquqi amalga oshirilishiga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga zid ravishda aralashish yohud uning sha'ni va obro'siga g'ayriqonuniy tajovuz qilish obyekti bo'lishi mumkin emas.

2. Bola ana shunday aralashishlar yoki tajovuz qilishlardan qonun yo'li bilan himoyalanih huquqiga egadir.

17-modda

Ishtirokchi-davlatlar ommaviy axborot vositalarining muhim mavqeini e'tirof etadilar hamda bola turli xil milliy va xalqaro manbalarning axborotlari hamda materiallari, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy farovonlikka, shuningdek, bolaning sog'lom, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ko'maklashishga qaratilgan axborotlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydilar.

e) 13- va 18-moddalarni hisobga olgan holda bolaning farovonligiga zarar yetkazadigan axborot va materiallardan uni himoya qilishning tegishli tamoyillarini ishlab chiqishni rag'batlantiradilar.

18-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bola tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun ota-onaning umumiy va bir xil javobgarligi tamoyili e'tirof etilishini ta'minlashga qaratilgan barcha mumkin bo'lgan kuch-g'ayratlarni safarbar etadilar. Ota-ona yoki tegishli holatlarda qonuniy vasiylar bolaning tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun asosiy javobgar bo'ladilar. Bolaning eng yaxshi manfaatlari ular ko'rsatadigan asosiy g'amxo'rlikning predmeti hisoblanadi.

2. Ushbu Konvensiyada bayon qilingan huquqlarning amalga oshirilishini kafolatlash va ko'maklashish maqsadda ishtirokchi-davlatlar ota-ona va qonuniy vasiylarga bola tarbiyasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishlariga tegishli yordam ko'rsatadilar hamda bolalar muassasalari tarmog'ining rivojlanishini ta'minlaydilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar ota-onasi ishlaydigan bolalar uchun mo'ljallangan xizmatlar hamda bolalar parvarish qilinadigan muassasalardan bolalarning foydalanish huquqiga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radilar.

19-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolani jismoniy va ruhiy zo'ravonlikning, haqoratlash va suiiste'molliklar, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik yoki beparvolik bilan muomalada bo'lish, qo'pol muomala qilish yoki ota-ona, qonuniy vasiylar yoki bola haqida g'amxo'rlik qiluvchi har qanday boshqa shaxs tomonidan ekspluatatsiya qilish, jumladan, shahvoniy suiiste'molliklar sodir etishning har qanday shakllaridan himoyalash maqsadda jamiki zarur qonuniy, ma'muriy, ijtimoiy va ma'rifiy chora-tadbirlarni ko'radilar.

2. Bunday himoya choralari, zarurat tug'ilgan taqdirda, bola va unga g'amxo'rlik ko'rsatayotgan shaxslarni lozim darajada qo'llab-quvvatlash maqsaddagi ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish uchun samarali tartib-rusumlarni, shuningdek, bola bilan yuqorida ko'rsatilgan tarzda shafqatsizlarcha muomala qilish hollari munosabati bilan ogohlantirish, aniqlash, xabar berish, qarab chiqish, tergov olib borish, davolash hamda shundan keyingi choralarni ko'rish zarurati tug'ilgan taqdirda, sud ishini qo'zg'atish uchun chora-tadbirlarni ham o'z ichiga oladi.

20-modda

1. O'zining oila g'amxo'rligidan vaqtincha yoki doimiy mahrum bo'lgan yoki o'zining eng yaxshi manfaatlari yo'lida bunday g'amxo'rlikda qola olmaydigan bola davlat tomonidan ko'rsatiladigan alohida himoya va yordamni olish huquqiga egadir.

2. Ishtirokchi-davlatlar o'z milliy qonunlariga muvofiq ravishda bolani parvarish qilishning almashtirilishini ta'minlaydilar.

3. Bolani bunday parvarishlash, jumladan, islom shariati bo'yicha «kafola»ga tarbiyaga berishni, asrab olishni yoki zarurat tug'ilgan taqdirda, bolalar boqiladigan tegishli muassasalarga joylashtirishni o'z ichiga oladi. Parvarishni almashtirish turlari qarab chiqilayotganda bola tarbiyasidagi vorislikning maqsadga muvofiqligi hamda uning etnik kelib chiqishi, diniy va madaniy mansubligi, ona tili yetarli darajada hisobga olinishi lozim.

21-modda

Bola asrab olish tizimi mavjudligini e'tirof yoki hal qiladigan ishtirokchi-davlatlar bolaning eng yaxshi manfaatlari birinchi navbatda hisobga olinishini ta'minlaydilar, ular:

a) bolani asrab olish faqat vakolatli ma'murlar tomonidan hal etilishini ta'minlaydilar, bunday ma'murlar qo'llaniladigan qonun va tartib-rusumlarga muvofiq hamda ishga taalluqli va ishonchli butun axborot asosida asrab olishga ota-ona, qarindoshlar va qonuniy vasiylarga nisbatan bolaning maqomiga qarab, agar talab etilsa, manfaatdor shaxslar zarur bo'lib qoladigan maslahat asosida asrab olish uchun o'zlarining ongli roziliklarini berishlari bois yo'l qo'yilishini aniqlaydilar;

b) boshqa mamlakatda asrab olish, agar bolani tarbiyaga berish yoki uning tarbiyasini ta'minlay oladigan yohud asrab oladigan oilaga joylashtirish mumkin bo'lmasa, agar bola paydo bo'lgan mamlakatda uni munosib ravishda tarbiyalashni ta'minlashning iloji bo'lmasa, bola boqishning muqobil usuli sifatida qaralishini e'tirof etadilar;

s) bola boshqa mamlakatda asrab olingan taqdirda xuddi mamlakat ichkarisida asrab olinganida qo'llaniladigan kafolat va me'yorlar qo'llanilishini ta'minlaydilar;

d) bola boshqa mamlakatda asrab olingan taqdirda uning joylashtirilishi shu ish bilan bog'liq shaxsga o'zini oqlamagan moliyaviy foyda keltirmasligini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radilar;

e) zarur holatlarda ushbu moddaning maqsadlariga ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartlashuvlar yoki bitimlar tuzilishi yo'li bilan erishishga ko'maklashadilar hamda shu asosda bolaning boshqa mamlakatda joylashuvi vakolatli ma'murlar va organlar tomonidan amalga oshirilishini ta'minlashga intiladilar.

22-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar qochqin maqomini olishni istagan yoki qochqin hisoblangan bolani qo'llaniladigan xalqaro yoki ichki huquq va tartib-rusumlarga muvofiq ravishda, ham unga hamroh bo'layotgan va bo'lmayotgan ota-onasi yoki tegishli ravishda himoya qiladigan va insonparvarlik yordami ko'rsatadigan har qanday boshqa shaxsni ushbu Konvensiyada va inson huquqlari bo'yicha boshqa xalqaro hujjatlarda yoki hujjatlarda bayon qilingan qo'llanishi mumkin bo'lgan huquqlardan foydalanishini ishtirokchilari hisoblanadigan ko'rsatib o'tilgan davlatlar ta'minlashi uchun zarur choralarni ko'radilar.

2. Ana shu maqsadda ishtirokchi-davlatlar, o'zlari zarur deb topgan holatlarda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa vakolatli hukumatlararo tashkilotlar yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik qilayotgan nodavlat tashkilotlarning bunday bolani himoya qilish, unga yordam ko'rsatish hamda har qanday qochqin bolaning ota-onasi yoki oilasining boshqa a'zolarini izlashda, uning o'z oilasi bilan qo'shilishi uchun zarur bo'lgan axborotni olish maqsaddagi har qanday kuch-g'ayratlariga ko'maklashadilar. Agar ota-onasi yoki oilasining boshqa a'zolarini topish iloji bo'lmagan taqdirda bu bolaga, ushbu Konvensiyada ko'zda tutilganidek biror-bir sababga ko'ra o'zining oilaviy

g'amxo'rligidan doimiy yoki vaqtincha mahrum bo'lgan har qanday ko'rsatiladigan himoya taqdim etiladi.

23-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar aqliy va jismoniy jihatdan yaxshi rivojlanmagan bola o'zining qadr-qimmatini ta'minlaydigan, o'ziga ishonch tug'diradigan va uning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini yengillashtiradigan sharoitlarda to'laqonli hamda munosib tarzda yashashi lozimligini e'tirof etadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar aqliy va jismoniy noto'kis bola o'ziga nisbatan alohida g'amxo'rlik ko'rsatilishi huquqiga ega ekanligini e'tirof etadilar hamda buni rag'batlantiradilar, imkoniyatlar mavjud bo'lgan taqdirda, yordam so'rab iltimos qilingan bo'lsa va bunday yordam bolaning ahvoriga, uning ota-onasi va bola haqida g'amxo'rlik ko'rsatayotgan boshqa shaxslarning mavqeiga mos kelsa, shunga haqli bolaga unga g'amxo'rlik qilish uchun javobgar kishilarga ana shunday yordam berilishini ta'minlaydilar.

3. Aqliy va jismoniy noto'kis bolaning alohida ehtiyojlari e'tirof etilgan holda ushbu moddaning 2-bandiga muvofiq yordam imkon darajasida bolaning ota-onasi va uning haqida g'amxo'rlik qilayotgan boshqa shaxslarning moliyaviy imkoniyatlari hisobga olinib bepul beriladi, bunday yordam noto'kis bola ta'lim, kasb-kor tayyorgarligi, tibbiyot, sog'liqni tiklash, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish sohasidagi xizmatlaridan samarali ravishda bahramand bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutadi, shuningdek, dam olish vositalariga yo'l ochadiki, bunday vositalar imkon darajasida bolani ijtimoiy hayotga jalb etishga, shaxsning rivojlanishi, jumladan, madaniy va ma'naviy kamol topishiga olib keladi.

4. Ishtirokchi-davlatlar xalqaro hamkorlik ruhida noto'kis bolalarning sog'lig'ini saqlash profilaktikasi, tibbiyot, ruhiy va funksional davolanishi sohasidagi tegishli axborotning ayirboshlanishiga ko'maklashadilar, sog'lomlashtirish usullari, umumiy ta'lim va kasb-kor tayyorgarligi haqidagi axborotni tarqatish, shuningdek, ana shu axborot bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lish ham shunga kiradi, toki ishtirokchi-davlatlar bu sohadagi o'z imkoniyatlari va bilimlarini yaxshilashga, tajribalarini kengaytirishga erishsinlar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e'tibor berilishi lozim.

24-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning sog'liqni saqlash tizimining takomillashgan xizmatlaridan, kasalliklarni davolash va salomatlikni tiklash vositalaridan foydalanishini huquqiy e'tirof etadilar. Ishtirokchi-davlatlar birorta ham bola sog'liqni saqlash tizimining bunday xizmatlaridan bahramand bo'lishdan iborat o'z huquqidan mahrum bo'lib qolmasligini ta'minlashga harakat qiladilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar bunday huquqning to'la amalga oshishiga erishadilar, jumladan, quyidagi choralarni ko'radilar:

a) chaqaloqlar va bolalar o'limi darajasini pasaytirish;

b) hamma bolalarga zarur tibbiy yordam ko'rsatilishi va ularning sog'lig'ini saqlashga, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirishga birinchi darajali e'tibor berilishiga erishish;

s) boshqa usullar qatorida qulay texnologiyani qo'llash va yetarli miqdorda to'yimli oziq-ovqat va toza ichimlik suv yetkazib berish yo'li bilan hamda atrof-muhitning ifloslanish xavf-xatarini e'tiborga olgan holda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish doirasida kasalliklar va to'yib ovqatlanmaslikka qarshi kurash olib borish;

d) onalarga tug'ish oldidan va tuqqandan keyingi davrda ularning sog'lig'ini saqlash sohasida tegishli ravishda xizmatlarni taqdim etish;

e) jamiyat barcha tabaqalarining, jumladan, ota-onalar va bolalarning go'daklar sog'lig'i va ovqatlanishi, ko'krak suti bilan boqishning afzalliklari, gigiyena, bola yashayotgan muhit sanitariyasi va baxtsiz hodisalarning oldini olish haqidagi xabardorligini ta'minlash, shuningdek, ularning ilm olishiga yo'l ochish va egallagan bilimlaridan foydalanishlarini qo'llab-quvvatlash;

f) profilaktik tibbiy yordam va oila hajmini rejalashtirish sohasidagi ma'rifiy ishlar va xizmatlarni rivojlantirish.

3. Ishtirokchi-davlatlar bolalarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadigan an'anaviy amaliyotga barham berish maqsadda har qanday samarali va zarur chora-tadbirlarni ko'radilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar ushbu moddada e'tirof etilgan huquqlar to'la amalga oshishiga asta-sekin erishish maqsadda xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish majburiyatini oladilar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e'tibor berilishi zarur.

25-modda

Ishtirokchi-davlat parvarish qilish, himoya ostiga olish yoki jismoniy yohud ruhiy davolash, bolaga taqdim etiladigan davolashni vaqtincha baholash hamda bunday vasiylik bilan bog'liq, bolaga tegishli barcha boshqa shart-sharoitni yaratib berish maqsadda vakolatli organlar tomonidan vasiylikka topshirilgan bolaning huquqlarini e'tirof etadilar.

26-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar har bir bolaning ijtimoiy ta'minot ne'matlaridan, jumladan, ijtimoiy sug'urtadan foydalanish huquqini e'tirof etadilar hamda ana shu huquq davlatlarning milliy qonunchiligiga muvofiq tarzda to'la amalga oshishiga erishish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'radilar.

2. Bu ne'matlar zaruratga qarab bolaning hamda bolani boqish mas'uliyatini zimmasiga olgan shaxslarning, bola tomonidan yoki uning nomidan ne'matlarni olish bilan bog'liq har qanday fikr-mulohaza nazarda tutilgan holda taqdim etiladi.

27-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar har bir bolaning jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy kamol topishi uchun zarur hisoblangan turmush darajasiga ega bo'lish huquqini e'tirof etadilar.

2. Ota-ona yoki bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslar o'z qobiliyatlari va moliyaviy imkoniyatlari doirasida bolaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitini ta'minlashga asosiy javobgardir.

3. Ishtirokchi-davlatlar milliy shart-sharoitlarga muvofiq va o'z imkoniyatlari doirasida ana shu huquqning amalga oshishida ota-ona va bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslarga yordam ko'rsatish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'radilar, zarurat tug'ilgan hollarda moddiy yordam beradilar, ayniqsa, oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joy bilan ta'minlash borasidagi dasturni qo'llab-quvvatlaydilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar ota-ona yoki bola uchun moliyaviy javobgar hisoblangan boshqa shaxslar tomonidan bolani boqish ishtirokchi-davlat ichida ham, xorijda ham tiklanishini ta'minlash uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko'radilar. Xususan, bola uchun moliyaviy javobgar shaxs va bola turli davlatlarda yashayotgan bo'lsalar, ishtirokchi-davlatlar xalqaro bitimlarga qo'shilishga yoki shunday bitimlar tuzilishiga, shuningdek, boshqa tegishli kelishuvlarga erishishga ko'maklashadilar.

28-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning ilm olish huquqini e'tirof etadilar hamda ana shu huquq teng imkoniyatlar asosida amalga oshishiga asta-sekin erishish maqsadda ular, jumladan:

a) bepul va majburiy boshlang'ich ta'limni joriy etadilar;

b) ham umumiy, ham kasb-hunar bo'yicha o'rta ta'limning turli shakllari rivojlanishini rag'batlantiradilar, bunday ta'limdan hamma bolalar bahramand bo'lishlarini ta'minlaydilar hamda bepul ta'lim joriy etish va zarurat tug'ilgan hollarda moliyaviy yordam ko'rsatish singari zarur chora-tadbirlarni ko'radilar;

s) barcha zarur vositalar yordamida har bir bolaning qobiliyati asosida oliy ta'limdan bahramand bo'lishini ta'minlaydilar;

d) barcha bolalar uchun ta'lim va kasb-hunar tayyorgarligi sohasida axborot hamda materiallar bilan tanishish imkoniyatlarini yaratib beradilar;

e) bolalarning maktabga muntazam borishlariga ko'maklashish hamda maktabni tashlab ketadigan o'quvchilar sonining kamayishi uchun chora-tadbirlar ko'radilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar maktab intizomi bolaning insoniylik qadr-qimmatini hurmatlash o'z ifodasini topgan usullar yordamida hamda ushbu Konvensiyaga muvofiq olib borilishi uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko'radilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar ta'limga taalluqli masalalar bo'yicha, jumladan, butun dunyoda johillik va savodsizlikni tugatishga yordam beradigan hamda ilmiy-

texnikaviy bilimlar va o'qitishning zamonaviy usullariga yo'l ochishni yengillashtiradigan maqsadlarga qaratilgan xalqaro hamkorlikni rag'batlantiradilar va rivojlantiradilar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e'tibor berilishi zarur.

29-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaga ta'lim berish quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi lozimligiga rozilik bildiradilar:

a) bolaning shaxsi, iste'dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlari eng to'la hajmda rivojlanishi;

b) inson huquqlari va asosiy erkinliklariga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavida e'lon qilingan tamoyillarga hurmatni tarbiyalash;

s) bolaning ota-onaga, uning madaniy o'ziga xosligi, tili va qadriyatlariga, bola yashayotgan mamlakatning, u dunyoga kelgan mamlakatning milliy qadriyatlariga, o'zining farq qiladigan madaniy taraqqiyot darajasiga hurmat bilan qarashni tarbiyalash;

d) bolani erkin jamiyatda, tinchlik, sabr-toqatli bo'lish, erkaklar va ayollarning tengligi hamda barcha xalqlar, etnik, milliy va diniy guruhlar, shuningdek, tub aholi orasidan bo'lgan shaxslar o'rtasida do'stlik ruhida tayyorlash;

e) atrof-tabiatga hurmatni tarbiyalash.

2. Ushbu moddaning yoki 28-moddaning hech qaysi bandi alohida shaxslar va organlarning o'quv yurtlarini ochish hamda ularga ushbu moddaning 1-bandida bayon etilgan tamoyillarga rioya qilgan holda rahbarlikni amalga oshirish hamda bunday o'quv yurtlarida beriladigan ta'lim davlat tomonidan o'rnatilgan minimal me'yorlarga javob berishi kerak, degan talabning bajarilishidagi erkinligini cheklash sifatida talqin qilinmaydi.

30-modda

Etnik, diniy yoki til jihatdan ozchilikni tashkil qiluvchi yohud tub aholiga mansub shaxslar yashaydigan davlatlarda ana shunday ozchilikka yoki tub aholiga mansub bolaning mazkur guruh boshqa a'zolari bilan birgalikda o'z madaniyatidan foydalanish, o'z diniga e'tiqod qilish va uning rasm-rusumlarini bajarish, shuningdek, ona tilidan foydalanish huquqi rad etilmasligi lozim.

31-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning dam olish va bo'sh vaqtini o'tkazish huquqini, o'zining yoshiga mos keladigan o'yinlar va ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish, madaniy hayotda erkin qatnashish, san'at bilan shug'ullanish huquqini e'tirof etadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar bolaning madaniy va ijodiy hayotda har tomonlama

qatnashish huquqini hurmat qiladilar, ragʻbatlantiradilar hamda madaniy va ijodiy faoliyat, boʻsh vaqtni oʻtkazish va dam olish uchun tegishli teng imkoniyatlar yaratib berilishiga koʻmaklashadilar.

32-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan hamda uning sogʻligʻi uchun xavf-xatar yetkazishi mumkin boʻlgan yoki taʼlim olishiga toʻsqinlik qiladigan yohud sogʻligʻi, jismoniy, aqliy, maʼnaviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga zarar keltiradigan har qanday ishlardan himoya qilinish huquqini eʼtirof etadilar,

2. Ishtirokchi-davlatlar ushbu moddaning amalga oshirilishini taʼminlash uchun qonuniy, maʼmuriy va ijtimoiy, shuningdek, taʼlim sohasidagi chora-tadbirlarni koʻradilar. Ana shu maqsadlarda, boshqa xalqaro hujjatlarning tegishli qoidalariga amal qilgan holda, ishtirokchi-davlatlar, jumladan:

a) ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh yoki eng kichik yoshlarni belgilab qoʻyadilar;

b) kundalik vaqtdagi ishning muddati va mehnat sharoitiga doir zarur talablarni aniqlaydilar;

s) ushbu moddaning samarali amalga oshirilishini taʼminlash uchun jazoning tegishli turlari yoki boshqa sanksiyalarni koʻzda tutadilar.

33-modda

Ishtirokchi-davlatlar tegishli xalqaro shartnomalarda belgilab qoʻyilganidek, bolalarni giyohvandlik va psixotrop moddalarini gʻayriqonuniy ravishda isteʼmol qilishdan himoya etish maqsadda zarur barcha chora-tadbirlarni, jumladan, qonuniy, maʼmuriy va ijtimoiy, shuningdek taʼlim sohasidagi choralarni hamda ana shunday moddalarni gʻayriqonuniy ravishda ishlab chiqarishda va ularni sotishda bolalardan foydalanishga yoʻl qoʻymaslik choralarni koʻradilar.

34-modda

Ishtirokchi-davlatlar bolani shahvoniy maqsadlarda foydalanish va shahvoniy buzishning barcha shakllaridan himoya qilish majburiyatini oʻz zimmlariga oladilar. Ana shu maqsadlarda ishtirokchi-davlatlar, jumladan, milliy, ikki tomonlama va koʻp tomonlama darajada quyidagi holatlarning oldini olish uchun hamma zarur chora-tadbirlarni koʻradilar:

a) bolani har qanday gʻayriqonuniy ravishdagi shahvoniy faoliyatga tortish va majburlash;

b) bolalardan fohishabozlik yoki gʻayriqonuniy ravishdagi barcha shahvoniy maqsadlarda foydalanish;

c) bolalardan pornografiya va pornografiya materiallari tayorlash maqsadlarida foydalanish.

35-modda

Ishtirokchi-davlatlar bolalarni o'g'irlash, sotish yoki ularni har qanday maqsadlarda va har qanday shakllarda kontrabanda qilishning oldini olish uchun milliy, ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajada barcha zarur chora-tadbirlarni ko'radilar.

36-modda

Ishtirokchi-davlatlar bolani uning farovonligiga oid har qanday jihatdan zarar yetkazadigan foydalanishning barcha boshqa shakllaridan himoya qiladilar.

37-modda

Ishtirokchi-davlatlar kuyidagilarni ta'minlaydilar:

a) birorta ham bola qiynoqlarga yoki boshqa shafqatsizlarcha, g'ayriinsoniy yohud qadr-qimmatni oyoq osti qiladigan muomala yoki jazoga duchor etilmasligini. Na o'lim jazosi, na ozodlikka chiqarish imkoniyatini ko'zda tutmagan umrbod qamoq jazosi 18 yoshdan kichik bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun belgilanmaydi;

b) birorta ham bola g'ayriqonuniy ravishda yoki o'zboshimchalik bilan ozodlikdan mahrum etilmasligini. Bolani hibsga olish, ushlab turish yoki qamoqqa solish qonunga muvofiq amalga oshiriladi hamda faqat noiloj chora sifatida va mumkin qadar tegishli qisqa vaqt mobaynida ishlatiladi;

s) ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola uning yoshidagi shaxs ehtiyojlari hisobga olingan holda insoniy muomala va shaxsining ajralmas qismi bo'lgan qadr-qimmatini hurmatlashdan foydalanishini. Xususan, ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola, agar bolaning eng yaxshi manfaatlari yo'lida shunday qilish kerak, deb hisoblanmasa, kattalardan ajratib saqlanadi hamda alohida holatlarni istisno qilganda, o'z oilasi bilan xat yozish va diydor ko'rishish orqali aloqa bog'lab turish huquqiga egadir;

d) ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola huquqiy va boshqa tegishli yordamdan zudlik bilan bahramand bo'lish huquqidan, shuningdek, sud yoki boshqa vakolatli, mustaqil va xolis organ oldida o'zining ozodlikdan mahrum etilishining qonuniyligiga e'tiroz bildirish huquqidan hamda ana shunday har qanday protsessual xatti-harakatga nisbatan ular tomonidan kechiktirmasdan qaror qabul qilinishi huquqidan foydalanadi.

38-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar xalqaro insonparvarlik huquqining qurolli mojarolar ro'y bergan holatda ularga nisbatan qo'llaniladigan va bolalarga taalluqli me'yorlarini hurmat qilishni, ularga rioya etilishini ta'minlashni o'z zimmalariga

oladilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar 15 yoshga to'lmagan shaxslar harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmasliklarini ta'minlash uchun imkoni bo'lgan barcha chora-tadbirlarni ko'radilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar 15 yoshga to'lmagan har qanday shaxsni o'z qurolli kuchlari safiga xizmatga chaqirishga yo'l qo'ymaydilar. 15 yoshga yetgan biroq 18 yoshga to'lmagan shaxslar orasidan armiyaga jalb etilayotganda ishtirokchi-davlatlar yoshi kattaroq shaxslarni ma'qul ko'rishga harakat qiladilar.

4. Qurolli mojarolar paytida harbiy bo'lmagan aholini himoya qilish bilan bog'liq xalqaro insonparvarlik huquqi bo'yicha majburiyatlariga muvofiq ishtirokchi-davlatlar qurolli mojarolarning ta'siridan bolalarni himoyalash hamda parvarishlashni ta'minlash uchun imkoni bo'lgan barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rish majburiyatini o'z zimmlariga oladilar.

39-modda

Ishtirokchi-davlatlar beparvolik, ishlatish yoki suiiste'molliklar, qiynashning har qanday ko'rinishlari yoki shafqatsizlik, noinsoniy yohud qadr-qimmatni oyoqosti qiladigan boshqa har qanday muomala, jazolash yoki qurolli mojarolar qurboni bo'lgan bolaning jismoniy va ruhiy tiklanishi hamda ijtimoiy jihatdan o'zini o'nglab olishiga ko'maklashish uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko'radilar. Bunday tiklanish va o'zini o'nglab olish bolaning sog'lig'i, o'zini o'zi hurmatlashi va qadr-qimmatini ta'minlaydigan sharoitlarda amalga oshirilishi lozim.

40-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar jinoiy qonunchilikni buzgan deb topilgan, qonunni buzishda ayblanayotgan yoki aybdor deb topilayotgan har bir bolaning unda qadr-qimmat va ahamiyatga moliklik his-tuyg'usini tarbiyalaydigan, bolada inson huquqlariga va boshqalarning asosiy erkinliklariga hurmatni mustahkamlaydigan hamda bunda bolaning yoshi va o'zini o'nglab olishi, jamiyatda foydali o'rin tutishiga ko'maklashish istagi hisobga olinadigan huquqini e'tirof etadilar.

2. Ana shu maqsadlarda va xalqaro xujjatlarning tegishli qoidalarini e'tiborga olib, ishtirokchi-davlatlar, jumladan, quyidagilarni ta'minlaydilar:

a) birorta bola xatti-harakat sodir etilgan vaqtda milliy yoki xalqaro huquqda man etilmagan harakat yoki harakatsizlik sababli jinoiy qonunchilikni buzgan deb topilmasligi, ayblanmasligi va aybdor deb topilmasligini;

b) jinoiy qonunchilikni buzgan deb hisoblanayotgan yoki uni buzishda ayblanayotgan har bir bola kamida quyidagi kafolatlarga ega bo'lishi zarur:

i) uning aybi qonunga muvofiq isbotlanguncha aybsizlik prezumpsiyasi;

ii) unga qarshi qo'yilayotgan ayblar haqida o'ziga, zarurat tug'ilgan taqdirda, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi orqali kechiktirmasdan va bevosita

ma'lum qilish hamda o'zining himoyasini tayyorlash va amalga oshirishda huquqiy va boshqa xil yordam olishi;

iii) ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan vakolatli, mustaqil va xolis organ yoki sud organi tomonidan ishni adolatli tarzda ko'rish davomida qonunga muvofiq ravishda advokat yohud boshqa tegishli shaxs ishtirokida, agar bu bolaning eng yaxshi manfaatlariga zid keladi deb hisoblanmasa, xususan, uning yoshi yoki ota-onasi yohud qonuniy vasiylarining mavqei hisobga olingan holda hech kechiktirmasdan qaror qabul qilinishi;

iv) guvohlik ko'rsatmasi berish yoki aybga iqror bo'lishga majburlashdan erkinlik; ayblash bo'yicha guvohlarning ko'rsatmalarini yohud mustaqil ravishda yohud boshqa shaxslar yordamida o'rganib chiqish hamda himoya guvohlarining teng ravishdagi ishtiroki va ularning ko'rsatmalarini o'rganishni ta'minlash;

v) agar bola jinoiy qonunchilikni buzgan deb hisoblansa, yuqori turuvchi vakolatli, mustaqil va xolis organ yoki sud tomonidan tegishli qarorni va u bilan bog'liq holda qabul qilingan har qanday choralarni qonunga muvofiq ravishda takroran ko'rib chiqish;

vi) agar bola foydalanilayotgan tilni tushunmasa yoki bu tilda gapira olmasa, tarjimonning bepul yordam berishi;

vii) ishni ko'rib chiqishning barcha bosqichlarida uning shaxsiy hayotini to'la hurmat qilish.

3. Ishtirokchi-davlatlar jinoiy qonunchilikni buzgan deb hisoblanayotgan, qonunbuzarlikda ayblanayotgan yoki aybdor deb topilgan bolalarga bevosita taalluqli qonunlar, tartib-qoidalar, organlar va muassasalarni aniqlashda ko'maklashishga intiladilar, jumladan:

a) jinoiy qonunchilikni buzishga qodir bo'lmagan eng kichik yoshni belgilashga;

b) zarurat tug'ilgan taqdirda va imkon bo'lganda, bunday bolalar bilan muomala qilish bo'yicha inson huquqi va huquqiy kafolatlar to'la rioya etilgan holda sud muhokamasidan foydalanmaslik chora-tadbirlarini ko'rishga.

4. Bolaning farovonligi, holati va jinoyatning xarakteriga muvofiq keladigan, muassasalardagi parvarishning o'rnini bosadigan muomala qilishni ta'minlash maqsadda parvarish, vasiylik va nazorat haqida qoida, maslahat xizmatlari, sinov muddatini belgilash, o'quv va kasb-hunarga tayyorlash dasturlari va parvarishning boshqa shakllari mavjud bo'lishi zarurdir.

41-modda

Ushbu Konvensiyadagi hech bir narsa bola huquqlarini amalga oshirishga ko'p darajada yordam beradigan har qanday vaziyatga daxl qilmaydi hamda bunday qoidalar quyidagilarda o'z ifodasini topishi mumkin:

- a) ishtirokchi-davlat qonunchiligida;
- b) mazkur davlatga nisbatan amal qilayotgan xalqaro huquq normalarida.

II QISM

42-modda

Ishtirokchi-davlatlar tegishli va ta'sirli vositalardan foydalangan holda Konvensiyaning tamoyillari va qoidalari haqida katta yoshdagilarni ham, bolalarni ham keng xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

43-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar tomonidan ushbu Konvensiyaga muvofiq qabul qilingan majburiyatlar bo'yicha erishilgan taraqqiyotni ko'rib chiqish maqsadda quyida ko'zda tutilgan vazifalarni ado etadigan Bola huquqlari bo'yicha qo'mita ta'asis qilinadi.

2. Qo'mita o'zining yuksak ma'naviy fazilatlari hamda ushbu Konvensiyada qamrab olingan sohalarda vakolatli deb e'tirof etilgan o'n nafar ekspertdan iboratdir. Qo'mita a'zolari ishtirokchi-davlatlar tomonidan o'z fuqarolari ichidan saylanadilar hamda ular shaxsan ishtirok etadilar, binobarin, adolatli ravishda jug'rofiy taqsimlanishga, shuningdek, bosh huquqiy tizimlarga e'tibor beriladi.

3. Qo'mita a'zolari ishtirokchi-davlatlar tomonidan ko'rsatilgan shaxslar ro'yxatiga kiritilganlar orasidan yopiq ovoz berish yo'li bilan saylanadilar. Har bir ishtirokchi-davlat o'z fuqarolari orasidan bitta shaxsni ko'rsatishi mumkin.

4. Qo'mitaga dastlabki saylov ushbu Konvensiya kuchga kirgan kundan e'tiboran olti oydan kechikmasidan, keyin esa har ikki yilda bir-marta o'tkaziladi. Har bir saylov kunidan kamida to'rt oy oldin Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ishtirokchi-davlatlarga ikki oy mobaynida o'z nomzodlarini taqdim etish taklifi bilan xat orqali murojaat qiladi. So'ngra Bosh kotib ko'rsatilgan barcha nomzodlar ro'yxatini alifbo tartibida ishtirokchi-davlatlar nomini qayd etgan holda tuzib chiqadi hamda bu ro'yxatni ushbu Konvensiya ishtirokchi-davlatlariga taqdim etadi.

5. Saylovlar Bosh kotib tomonidan chaqiriladigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining markaziy muassasalarida ishtirokchi-davlatlar kengashlarida o'tkaziladi. Ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki qismi kvorumni tashkil etadigan ana shu kengashlarda Qo'mita tarkibiga saylangan deb eng ko'p ovoz olgan hamda ishtirokchi-davlatlarning kengashida ishtirok etayotgan va ovoz berishda qatnashayotgan vakillarining mutlaq ko'pchilik ovozini to'plagan nomzodlar hisoblanadilar.

6. Qo'mita a'zolari to'rt yillik muddatga saylanadilar. Ular nomzodlari takroran ko'rsatilgan taqdirda qayta saylanish huquqiga egadirlar. Birinchi saylovlarda saylangan besh a'zoning vakolat muddati ikki yillik davr oxirida tugaydi, birinchi saylovdan keyin o'z o'rnini qayta egallash uchun besh a'zo kengash Raisi tomonidan qur'a tashlash orqali aniqlanadi.

7. Qo'mita a'zolaridan birortasi vafot etgan yoki iste'foga chiqqan yohud u qandaydir sababga ko'ra Qo'mita a'zosi vazifalarini bundan keyin bajara olmay qolgan taqdirda o'sha Qo'mita a'zosini ko'rsatgan ishtirokchi-davlat Qo'mita

qo'llab-quvvatlashi sharti bilan qolgan muddatga o'z fuqarolari orasidan boshqa ekspert tayinlaydi.

8. Qo'mita o'zining tartib-qoidalarini o'rnatadi.

9. Qo'mita ikki yillik muddatga o'zining mansabdor shaxslarini saylaydi.

10. Qo'mita sessiyalari, odatda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining markaziy muassasalarida yoki Qo'mita tanlagan boshqa har qanday qulay joyda o'tkaziladi. Qo'mita o'z sessiyalarini, odatda har yili o'tkazadi. Qo'mita sessiyasining davom etishi Bosh Assambleya ko'llab-quvvatlashi sharti bilan ushbu Konvensiya ishtirokchi-davlatlarining kengashida aniqlab qo'yiladi va zaruratga qarab qayta ko'rib chiqiladi.

11. Qo'mita o'zining vazifalarini ushbu Konvensiyaga muvofiq samarali bajarishi uchun uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi zarur xodimlar va moddiy mablag' bilan ta'minlaydi.

12. Ushbu Konvensiyaga binoan ta'xis etilgan Qo'mita a'zolari Bosh Assambleya tomonidan belgilab ko'yilgan tartib va shartlarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti mablag'lari hisobidan Bosh Assambleya tasdiqlagan rag'batlantirishlarni oladilar.

44-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi orqali Qo'mitaga Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlari mustahkamlash yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar haqida hamda ana shu huquqlarini amalga oshirishda erishilgan taraqqiyot haqida ma'ruzalar taqdim etish majburiyatini oladilar:

a) Konvensiya kuchga kirganidan keyin ikki yil mobaynida tegishli ishtirokchi-davlat uchun;

b) keyinchalik har besh yilda.

2. Ushbu moddaga muvofiq taqdim etiladigan ma'ruzalarda mazkur Konvensiya bo'yicha majburiyatlarning bajarilish darajasiga ta'sir etuvchi omil va qiyinchiliklar, agar ular mavjud bo'lsa, ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, ma'ruzalarda yetarli axborot ham o'z ifodasini topadi, toki mazkur mamlakatda Konvensiyaning amal qilish borasida Qo'mita to'la tasavvurga ega bo'lsin.

3. Qo'mitaga har tomonlama dastlabki mufassal ma'ruza taqdim etgan ishtirokchi-davlat ushbu moddaning 1-b bandiga binoan taqdim etiladigan keyingi ma'ruzalarda ilgari bayon qilingan asosiy axborotni takrorlashiga zarurat bo'lmaydi.

4. Qo'mita ishtirokchi-davlatlardan ushbu Konvensiyaning bajarilishiga taalluqli bo'lgan qo'shimcha axborot so'rab olishi mumkin.

5. Qo'mita faoliyati to'g'risidagi ma'ruzalar ikki yilda bir-marta Bosh Assambleyaga Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash vositachiligida taqdim etiladi.

6. Ishtirokchi-davlatlar ma'ruzalari o'z mamlakatlarida keng oshkora bo'lishini ta'minlaydilar.

45-modda

Konvensiyaning samarali amalga oshirilishga koʻmaklashish va ushbu Konvensiyada qamrab olingan sohalardagi xalqaro hamkorlikni ragʻbatlantirish maqsadda:

a) Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari, Bolalar jamgʻarmasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti boshqa organlari ushbu Konvensiyaning ular vakolati doirasiga kiradigan qoidalarini amalga oshirishga doir masalalar muhokama qilinayotgan paytda vakil yuborish huquqiga egadirlar. Qoʻmita Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari, Bolalar jamgʻarmasi va boshqa vakolatli organlariga agar maqsadga muvofiq deb topsa, ularning tegishli vakolat doirasiga kiradigan masalalarda Konvensiyaning amalga oshirilishiga doir ekspertlar xulosasini taqdim qilishni taklif etishi mumkin. Qoʻmita Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari, Bolalar jamgʻarmasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti boshqa organlariga oʻz faoliyat doirasiga kiradigan sohalarda Konvensiyaning amalga oshirilishi haqida maʼruzalar taqdim qilishni taklif etishi mumkin;

b) Qoʻmita Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari, Bolalar jamgʻarmasi va boshqa vakolatli organlariga, agar maqsadga muvofiq deb topsa, ishtirokchi-davlatlarning texnik maslahat yoki yordam soʻralgan yohud shunga ehtiyoj koʻrsatib oʻtilgan har qanday maʼruzalarini, shuningdek, Qoʻmitaning ana shunday iltimos yoki koʻrsatmalarga doir fikr-mulohaza va takliflarini, agar ular mavjud boʻlsa, qayta yoʻllaydi;

s) Qoʻmita Bosh Assambleyaga oʻz nomidan Bosh kotibga bola huquqlariga taalluqli alohida masalalar yuzasidan tadqiqotlar oʻtkazishni taklif etishni tavsiya qilishi mumkin;

d) Qoʻmita ushbu Konvensiyaning 44- va 45-moddalariga muvofiq olinadigan axborotga asoslangan umumiy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar kiritishi mumkin. Umumiy ahamiyatga molik bunday taklif va tavsiyalar manfaatdor har qanday ishtirokchi-davlatga oldindan yoʻllanadi hamda ishtirokchi-davlatlarning fikr-mulohazalari bilan birgalikda, agar mavjud boʻlsa, Bosh Assambleyaga maʼlum qilinadi.

III QISM

46-modda

Ushbu Konvensiya barcha davlatlar tomonidan imzolash uchun ochiqdir.

47-modda

Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinishi zarur. Ratifikatsiya yorliqlari saqlab qoʻyish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshiriladi.

48-modda

Ushbu Konvensiya unga har qanday davlatning qo‘shilishi uchun ochiqdir. Qo‘shilish to‘g‘risidagi hujjatlar saqlab qo‘yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshiriladi.

49-modda

1. Ushbu Konvensiya yigirmanchi ratifikatsiya yorlig‘i yoki qo‘shilish to‘g‘risidagi hujjat saqlab qo‘yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshirilgan sanadan e‘tiboran o‘ttizinchi kun o‘tgandan keyin kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan yoki unga qo‘shiladigan har bir davlat uchun yigirmanchi ratifikatsiya yorlig‘i yohud qo‘shilish to‘g‘risidagi hujjat saqlab qo‘yishga topshirilgan sanadan e‘tiboran mazkur Konvensiya bunday davlat uni ratifikatsiya qilish yoki qo‘shilish to‘g‘risidagi hujjatni saqlab qo‘yishga topshirilgandan keyingi o‘ttizinchi kundan boshlab kuchga kiradi.

50-modda

1. Har qanday ishtirokchi-davlat Konvensiyaga tuzatish taklif qilishi va uni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. Shundan so‘ng Bosh kotib taklif etilgan tuzatishni ishtirokchi-davlatlarga mana shu takliflarni ko‘rib chiqish va ularni ovozga qo‘yish maqsadda ishtirokchi-davlatlarning konferensiyasini chaqirish tarafdorimi, degan so‘rov bilan qayta yo‘llaydi. Agar mana shunday xabar yetkazilgan sanadan boshlab to‘rt oy mobaynida ishtirokchi-davlatlarning kamida uchdan bir qismi shunday konferensiyani chaqirishni yoqlab chiqsa, Bosh kotib bunday konferensiyani Birlashgan Millatlar Tashkiloti belgisi ostida chaqiradi. Bu konferensiyada ishtirok etayotgan va ovoz berishda qatnashayotgan ishtirokchi-davlatlarning ko‘pchiligi ovozi bilan qabul qilingan har qanday tuzatish tasdiqlash uchun Bosh Assambleyaga taqdim etiladi.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qabul qilingan tuzatish uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tasdiqlagandan keyin hamda ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki aksariyat qismi qabul qilgan taqdirda kuchga kiradi.

3. Tuzatish kuchga kirgandan keyin u mana shu tuzatishni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun majburiy bo‘lib qoladi, boshqa davlatlar uchun esa ushbu Konvensiya qoidalari hamda ular qabul qiladigan keyingi har qanday tuzatishlar majburiy hisoblanadi.

51-modda

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi davlatlar tomonidan ratifikatsiya yoki qo‘shilish paytida bildirilgan e‘tiroz matnini kabul qilib oladi hamda barcha davlatlarga yuboradi.

2. Ushbu Konvensiyani maqsad vazifalariga mos tushmaydigan e‘tirozga yo‘l berilmaydi.

Z. E‘tiroz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga yuborilgan tegishli bildirishnoma yo‘li bilan istalgan paytda olib tashlanishi mumkin, so‘ngra Bosh kotib bu haqda barcha davlatlarga xabar yetkazadi. Bunday bildirishnoma uni Bosh kotib qo‘lga olgan kundan boshlab kuchga kiradi.

52-modda

Har qanday ishtirokchi-davlatning ushbu Konvensiyani Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga yozma ravishdagi bildirishnoma yuborish asosida bir tomonlama bekor qilishi Bosh kotib bildirishnomani olganidan keyin bir yil o‘tgach, kuchga kiradi.

53-modda

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ushbu Konvensiyaning saqlovchisi etib tayinlanadi.

54-modda

Ushbu Konvensiyaning inglizcha, arabcha, ispancha, xitoycha, ruscha va fransuzcha asl nusxasi matnlari teng bir xillikka ega bo‘lib, saqlab qo‘yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshiriladi.

Ushbuni tasdiqlash uchun quyida imzo chekkan vakolatli vakillar o‘zlarining tegishli hukumatlari tomonidan shunga yetarli darajada vakil qilingan bo‘lib, mazkur Konvensiyani imzoladilar.

**BOLA HUQUQLARI TO‘G‘RISIDAGI KONVENSIYAGA
BOLALARNING QUROLI MOJAROLARGA JALB QILINISHI
TO‘G‘RISIDAGI FAKULTATIV PROTOKOL**

*BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil 25-maydagi
A/RES/54/263-qarori bilan qabul qilingan*

**O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-dekabrda
O‘RQ-190-son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan**

Ushbu Protokolda ishtirokchi-davlatlar,

bola huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlarga umumsodiqlikni namoyish qilgan holda, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning to‘la qo‘llab-quvvatlanishidan ruhlanib,

bolalar huquqlari maxsus himoya talab qilishini qayta tasdiqlab, bolalarni farqlamasdan sharoitini doimiy ravishda yaxshilashga hamda tinchlik va xavfsizlik sharoitida ularning rivojlanishini va ta‘lim olishini ta‘minlashga chaqirgan holda,

qurolli mojaroning bolalarda aks etadigan zararli va keng ko‘lamli ta‘siridan hamda barqaror tinchlik, xavfsizlik va rivojlanish uchun uzoq muddat talab etuvchi uning oqibatlaridan tashvishga tushgan holda,

qurolli mojarolar hollarida bolalarni nishonga olishni hamda xalqaro huquq himoyasiga olingan obyektlarga, shu jumladan, maktab va kasalxonalar kabi bolalar odatda ko‘p yig‘iladigan joylarga bevosita hujumlarni qoralab,

Xalqaro jinoyat sudining Rim Statuti qabul qilinishini, xususan, 15 yoshga to‘lmagan bolalarni harbiy xizmatga chaqirish yoki yollash, yoki xalqaro va xalqaro bo‘lmagan qurolli mojarodagi harbiy harakatlarda faol ishtirok etish uchun ulardan foydalanish «harbiy jinoyat» deb kiritilganligini e‘tiborga olib,

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada e‘tirof etilgan huquqlar yanada samarali bajarilishi uchun bolalarning qurolli mojarolarga jalb qilinishidan himoya qilish bo‘yicha sa’y-harakatlarni kuchaytirishga ehtiyoj borligini hisobga olib,

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 1-moddasida belgilanganidek, - Konvensiyaning maqsadlari uchun 18 yoshga to‘lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo‘llaniladigan qonun bo‘yicha u ertaroq balog‘atga yetmagan bo‘lsa, bola hisoblanishini e‘tiborga olib,

qurolli kuchlar safiga chaqirish mumkin bo‘lgan va harbiy harakatlarda ishtirok etishga ruxsat etilgan yoshning fakultativ protokol tomonidan oshirilishi, bolalarga nisbatan amalga oshiriladigan barcha harakatlarda «eng avvalo bolaning oliy manfaatlarini hisobga olish» prinsipi amalga oshishiga katta hissa qo‘shadi, deb ishongan holda,

1995-yil-dekabr oyida bo‘lib o‘tgan Qizil Xoch va Qizil Yarim Oyning yigirma oltinchi Xalqaro Konferensiyasida mojarodagi tomonlar 18 yoshdan kichik

bo'lgan bolalarning harbiy harakatlarda ishtirok etmasligini ta'minlash uchun barcha kerakli choralarni ko'rishi lozimligi tavsiya qilinganini e'tiborga olib,

bolalardan qurolli mojaroda foydalanish uchun ularni zo'rlab yoki majburlab yollashni taqiqlovchi Xalqaro Mehnat Tashkilotining Bolalar mehnatini taqiqlash va uning eng og'ir shakllariga barham berish bo'yicha shoshilinch choralar to'g'risidagi 182-Konvensiyasining yakdillik bilan 1999-yilning-iyun oyida qabul qilinganini qutlab,

milliy chegaralar doirasida va tashqarisidagi harbiy harakatlarga davlatning qurolli kuchlari tarkibiga kirmagan qurolli guruhlar tomonidan bolalarni yollash, ularni tayyorlash va ulardan shu maqsadlarda foydalanish harakatlarini chuqur xavotir bilan qoralab, hamda shu munosabat bilan bolalarni yollagan, tayyorlagan va ulardan foydalanganlarning javobgarligini e'tirof etib,

qurolli mojarolardagi har bir tomonning xalqaro gumanitar huquq qoidalariga rioya qilish majburiyati mavjudligini eslatib,

mazkur Protokol Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida ko'rsatilgan maqsad va prinsiplariga, shu jumladan,, 51-modda va gumanitar huquqning tegishli normalariga monelik qilmasligiga urg'u berib,

Ustavda ko'rsatilgan maqsad va prinsiplarni hurmat qilishga asoslangan tinchlik va xavfsizlik sharoiti va tegishli inson huquqlari bo'yicha hujjatlarga rioya qilinishi bolalarni to'la himoya qilish uchun, xususan, qurolli mojaro va chet el bosqini vaqtida o'ta muhimligini e'tiborga olgan holda,

ushbu Protokolga zid ravishda harbiy harakatlarda ishlatilishga yoki safga chaqirilishga, jinsi, iqtisodiy yoki ijtimoiy ahvoli bois alohida zaif bo'lgan bolalarning maxsus ehtiyojlarini e'tirof etib,

bolalarning qurolli mojarolarga jalb qilinishining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sabablarini hisobga olish muhimligini esda tutib,

mazkur Protokolni bajarishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarurati, qurolli mojaroda jabrlangan bolalarni jismoniy va psixosotsial rehabilitatsiyasi va ijtimoiy reintegratsiyasi kabi muhim ekanligini anglagan holda,

mazkur Protokolni bajarish bo'yicha ma'lumot va ta'lim beruvchi dasturlarning tarqalishida jamiyatning va, xususan, bolalar va jabrlangan bolalarning ishtirokini qo'llab-quvvatlagan holda,

quyidagilar haqida kelishib oldilar:

1-modda

Ishtirokchi-davlatlar o'zlarining qurolli kuchlari safidagi 18 yoshga to'lmagan harbiy xizmatchilarini harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmasligini ta'minlash uchun barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'radilar.

2-modda

Ishtirokchi-davlatlar 18 yoshga to'lmagan shaxslarni majburiy tarzda o'zlarining qurolli kuchlari safiga chaqirilmasligini ta'minlaydilar.

3-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar o'zlarining milliy qurolli kuchlari safiga ixtiyoriy tarzda chaqirish mumkin bo'lgan eng kichik yoshni Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 38-modassi 3-bandida ko'zda tutilgan yoshdan oshiradilar, bunda ushbu moddada aks etgan prinsiplarni hisobga oladilar hamda Konvensiya bo'yicha 18 yoshdan kichik yoshdagi shaxslar maxsus himoya qilinish huquqiga ega bo'lishlarini e'tirof etadilar.

2. Har bir ishtirokchi-davlat mazkur Protokolni ratifikatsiya qilayotganida yoki unga qo'shilyotganida, o'zining milliy qurolli kuchlari safiga ixtiyoriy tarzda chaqiruvga ruxsat etilgan eng kichik yoshni ko'rsatuvchi va bunday chaqiruv zo'raki yoki majburiy tarzda amalga oshirilmaligini ta'minlash uchun ko'rilgan himoya choralarni bayon etuvchi majburiy bo'lgan deklaratsiyani saqlab qo'yish uchun topshiradi.

3. O'zining milliy qurolli kuchlari safiga 18 yoshdan kichik shaxslarni ixtiyoriy tarzda chaqirishga ruxsat etgan ishtirokchi-davlatlar eng kamida quyidagilarni ta'minlovchi himoya choralarni ko'radilar:

- e) Bunday chaqiruv haqiqatda ham ixtiyoriy tarzda amalga oshirilishini;
- f) Bunday chaqiruv shaxsning ota-onasi yoki qonuniy vasiyning anglangan roziligi bilan amalga oshirilishini;
- g) Bunday shaxslar harbiy xizmatning majburiyatlari haqida to'liq xabardor bo'lishini;
- h) Bunday shaxslar milliy harbiy xizmatga qabul qilinishdan oldin yoshini tasdiqlovchi ishonchli isbot keltirishlarini.

4. Har bir ishtirokchi-davlat har qanday vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi nomiga tegishli xabarnoma yuborish orqali o'zining deklaratsiyasini kuchaytirishi mumkin. Bu haqda Bosh kotib barcha ishtirokchi-davlatlarni xabardor qiladi. Bosh kotib bunday xabarnomani olgan kundan boshlab u kuchga kiradi.

5. Mazkur moddaning 1-bandida ko'zda tutilgan yoshni oshirish talabi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 28 va 29 moddalariga muvofiq ishtirokchi-davlatning qurolli kuchlari qoshida yoki nazorati ostida bo'lgan o'quv muassasalarga qo'llanilmaydi.

4-modda

1. Davlatning qurolli kuchlari tarkibiga kirmaydigan qurolli guruhlar, hech qanday holatda, 18 yoshga to'lmagan shaxslardan harbiy harakatlarda foydalanishi yoki ularni yollashi mumkin emas.

2. Ishtirokchi-davlatlar bolalarni bunday yollash yoki ulardan foydalanishning oldini olish maqsadda barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'radilar, shu jumladan,, bunday amaliyotni taqiqlash va jinoyat deb topilishi uchun zarur huquqiy choralarni ko'radilar.

3. Ushbu moddaning qo‘llanilishi qurolli mojarolardagi hech bir tomonning huquqiy maqomiga ta’sir etmaydi.

5-modda

Ushbu Protokolning hech bir qoidasi ishtirokchi-davlat qonunida yoki halqaro shartnomalar va halqaro gumanitar huquqda mavjud bo‘lgan bola huquqlarining ijobiy tarzda amalga oshirilishiga ko‘maklashuvchi qoidalarga to‘sqinlik qiladi deb talqin qilinmaydi.

6-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat o‘zining yurisdiksiyasi chegarasida mazkur Protokol qoidalarini samarali bajarilishini va hayotga tadbiq etilishini ta’minlash uchun barcha zarur bo‘lgan huquqiy, ma’muriy va boshqa choralarni ko‘radi.

2. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Protokolning qoidalari va prinsiplarini kattalarga va bolalarga keng tarzda ma’lum qilish va tegishli usullar yordamida targ‘ib qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar o‘zining yurisdiksiyasi chegarasida mazkur Protokolga nomuvofiq tarzda harbiy chaqiruvga chaqirilgan yoki harbiy harakatlarda foydalanilgan shaxslarni demobilizatsiya qilinishi yoki xizmatdan ozod qilinishini ta’minlash uchun barcha mumkin bo‘lgan choralarni ko‘radilar. Ishtirokchi davlatlar, zarur hollarda, bunday shaxslarning jismoniy va psixologik tiklanishi va ijtimoiy reintegratsiyasi uchun zarur bo‘lgan barcha yordamni amalga oshiradilar.

7-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar ushbu Protokolning bajarilishi sohasida, xususan Protokolga nomuvofiq bo‘lgan har qanday faoliyatning oldini olish va Protokolga nomuvofiq bo‘lgan harakatlar oqibatida jabrlangan shaxslarning rehabilitatsiyasi va ijtimoiy reintegratsiyasi sohasida hamkorlik qiladilar, shu jumladan,, texnik hamkorlik va moliyaviy yordam orqali. Bunday yordam va hamkorlik tegishli ishtirokchi-davlatlar va halqaro tashkilotlar bilan maslahatlashgan holda amalga oshirilishi mumkin.

2. Shunday yordam ko‘rsatish imkoniga ega ishtirokchi-davlatlar bunday yordamni mavjud ko‘p tomonlama, ikki tomonlama yoki boshqa dasturlar orqali yoki, xususan, Bosh Assambleya qoidalariga muvofiq tashkil qilingan ixtiyoriy badallar jamg‘armasi orqali amalga oshiradilar.

8-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat, ushbu Protokol unga nisbatan kuchga kirganidan keyin ikki yil ichida uning qoidalarini bajarish borasida ko‘rilgan

choralar to'g'risida, xususan, chaqiruv va ishtirok etish to'g'risidagi qoidalarini bajarish borasidagi choralar haqida mufassal axborot beruvchi ma'ruzani Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaga taqdim etadi.

2. Mufasal ma'ruza taqdim etilganidan keyin har bir ishtirokchi-davlat, Konvensiyaning 44-moddasiga muvofiq Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaga taqdim etiladigan keyingi ma'ruzalariga Protokolning bajarilishi borasida yangi ma'lumotlarni kiritadi. Protokolda ishtirokchi boshqa davlatlar ma'ruzani har besh yilda taqdim etadilar.

3. Bola huquqlari bo'yicha qo'mita ishtirokchi-davlatlardan ushbu Protokolning bajarilishiga taalluqli bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilishi mumkin.

9-modda

1. Ushbu Protokol Konvensiyada ishtirok etuvchi yoki Konvensiyani imzolagan har bir davlatga imozolash uchun ochiqdir.

2. Ushbu Protokol ratifikatsiya qilinadi va har qanday davlatning qo'shilishi uchun ochiqdir. Ratifikatsiya yoki qo'shilish hujjatlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

3. Bosh kotib Konvensiya va Protokolning depozitariyi sifatida Konvensiyada ishtirok etuvchi va Konvensiyani imzolagan barcha davlatlarni 3-moddaga muvofiq saqlanishga toshpirilgan har bir deklaratsiya hujjatlari haqida xabardor qiladi.

10-modda

1. Ushbu Protokol o'ninchi ratifikatsiya yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlanishga topshirilgan sanadan keyin uch oy o'tgach kuchga kiradi.

2. Mazkur Protokol u kuchga kirganidan keyin uni ratifikatsiya qiladigan yoki unga qo'shiladigan har bir davlat uchun uning ratifikatsiya yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjati saqlanishga topshirilgan sanadan keyin bir oy o'tgach kuchga kiradi.

11-modda

1. Har qanday ishtirokchi-davlat mazkur Protokolni har qanday vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga yozma xabarnoma yuborish orqali denonsatsiya qilishi mumkin. Bosh kotib xabarnomani olgach, Konvensiyada ishtirok etuvchi va Konvensiyani imzolagan barcha davlatlarni bundan xabardor qiladi. Denonsatsiya Bosh kotib tomonidan xabarnoma olingan sanadan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi. Biroq, agar bir yillik muddat tugaydigan kuni ishtirokchi-davlat qurolli mojaroda ishtirok etayotgan bo'lsa, shu qurolli mojaroda tugaguncha denonsatsiya kuchga kirmaydi.

2. Bunday denonsatsiya ishtirokchi-davlatni ushbu Protokoldan kelib chiqadigan majburiyatlaridan, ya'ni denonsatsiya kuchga kirishidan oldin sodir

etgan har qanday harakatlari bo'yicha majburiyatlaridan ozod etmaydi. Shuningdek, bunday denonsatsiya denonsatsiya kuchga kirishidan oldin Bola huquqlari bo'yicha qo'mita tomonidan ko'rilishi boshlangan har qanday masalaning ko'rilishini davom ettirishga monelik qilmaydi.

12-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat o'zgartirish kiritishni taklif qilishi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. Bosh kotib taklif etilgan o'zgartirish haqida ishtirokchi-davlatlarga xabar beradi hamda ulardan mazkur takliflarni ko'rib chiqish va ularni ovozga qo'yish maqsadda konferensiya chaqirilishiga nisbatan o'z fikrini bildirishini so'raydi. Agar xabar yetkazilgan sanadan keyin to'rt oy ichida ishtirokchi-davlatlarning eng kamida uchdan bir qismi shunday konferensiya chaqirish istagini bildirsa, shunga binoan, Bosh kotib Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'magida shunday konferensiyani chaqiradi. Konferensiyada ishtirok etayotgan va ovoz berayotgan ishtirokchi-davlatlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan o'zgartirish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasiga tasdiqlanish uchun taqdim etiladi.

2. Mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq qabul qilingan o'zgartirish Bosh Assambleya tomonidan tasdiqlanganidan keyin, ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki qismi tomonidan qabul qilinganidan keyin kuchga kiradi.

3. O'zgartirish kuchga kirgandan keyin uni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun majburiy bo'lib qoladi, boshqa ishtirokchi-davlatlar uchun esa mazkur protokolning qoidalari va har qanday oldingi qabul qilingan o'zgartirishlar majburiy hisoblanadi.

13-modda

1. Ushbu Protokol Birlashgan Millatlar Tashkilotining arxivlarida saqlanadi va uning arabcha, xitoycha, inglizcha, fransuzcha, ruscha va ispancha matnlari bir xil kuchga ega.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi mazkur Protokolning tasdiqlangan nusxalarini barcha ishtirokchi-davlatlarga va Konvensiyani imzolagan barcha davlatlarga jo'natadi.

**BOLA HUQUQLARI TO‘G‘RISIDAGI KONVENSIYAGA
BOLALAR SAVDOSI, BOLA FOHISHABOZLIGI VA BOLA
PORNOGRAFIYASI TO‘G‘RISIDAGI
FAKULTATIV PROTOKOL**

*BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil 25-mayda
A/RES/54/263-qarori bilan qabul qilingan*

**O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 11-dekabrda
O‘RQ-188-son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan**

Ushbu Protokolda ishtirokchi-davlatlar,

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning maqsadlariga erishishga va uning qoidalarini, xususan, 1, 11, 21, 32, 33, 34, 35 va 36-moddalarining bajarilishiga ko‘maklashish uchun ishtirokchi-davlatlar bola savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasi amaliyotidan bolani himoya qilishni kafolatlash bo‘yicha ko‘rishlari shart bo‘lgan chora-tadbirlarni kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘lishini e‘tiborga olib,

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada, bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan va bola uchun xavfli bo‘lishi mumkin bo‘lgan yoki bolaning ta‘lim olishiga halaqit qiladigan yohud bolaning sog‘lig‘iga, uning jismoniy, aqliy, ma‘naviy, axloqiy yoki ijtimoiy rivojlanishiga zarar qiladigan har qanday ishni bajarishdan himoyalani huquqi tan olinganligini e‘tirof etib,

bolalar savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasini ko‘zlagan bolalar halqaro traffigi sezilarli darajada o‘sayotganidan tashvishlanib,

bolalar savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasini bevosita kuchaytiradigan, bolalar uchun alohida havfli bo‘lgan, seks-turizm amaliyotining keng tarqalishidan va uning davom etayotganligidan chuqur tashvishlanib,

alohida zaif guruhlarni, jumladan, qiz bolalarning seksual ekspluatatsiyaga duchor bo‘lish ehtimolligi ancha katta ekanligini hamda seksual ekspluatatsiyaga duchor qilinganlar orasida qiz bolalar ko‘pchilikni tashkil qilishini tan olib,

internetda va boshqa rivojlanib kelayotgan texnologiyalar orqali bola pornografiyasi tarqalishining o‘shidan tashvishga tushgan holda, 1999-yilda Venada bo‘lib o‘tgan Internetda bola pornografiyasining tarqalishiga qarshi kurash bo‘yicha Xalqaro konferensiyani, xususan, uning bola pornografiyasi mahsulotlarini ishlab chiqish, tarqatish, eksport qilish, uzatish, import qilish, qasddan saqlash va reklama qilish jinoyat deb butun jahon bo‘yicha e‘lon qilishga chaqiruvchi xulosasini eslatib, hukumatlar va internet industriyasi o‘rtasida yanada yaqinroq hamkorlik va sheriklik o‘rnatishning muhimligiga urg‘u berib,

bola savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasining yo‘q qilinishida, shu muammolarga ko‘maklashuvchi omillarni, ya‘ni iqtisodiy qoloqlik,

qashshoqlik, iqtisodiy tengsizlik, adolatsiz ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma, oilalarning notinchligi, ta'lim darajasining pastligi, qishloqdan shaharga migratsiya, jinsiy kamsitish, katta yoshdagilarning mas'uliyatsiz shahvoniy xulqi, zararli an'anaviy amaliyotlar, qurolli mojarolar va bolalar traffigini qamrab oluvchi, keng miqyosli yondashuv yordam berishiga ishonib,

bola savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasiga bo'lgan iste'molchilik talabini kamaytirish uchun bu haqda xalqning xabardorligini oshiradigan sa'y-harakatlar zarur ekanligiga ishonib, hamda barcha ishtirokchilar o'rtasidagi global hamkorlikni rivojlantirish va milliy darajada qonun ijrosini ta'minlash choralarini kuchaytirish muhimligiga amin bo'lib,

bolalar himoyasiga taalluqli bo'lgan xalqaro-huquqiy hujjatlar qoidalari, jumladan, Bolalar himoyasi va davlatlararo farzandlikka olish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Gaaga Konvensiyasi, Xalqaro bola o'g'irlashning fuqaroviy jihatlarini to'g'risidagi Gaaga Konvensiyasi, Bolalar himoyasi bo'yicha chora-tadbirlar va ota-onalarning ma'suliyati masalalari bo'yicha yurisdiksiya, qo'llaniladigan qonun, tan olish, qonun ijrosini ta'minlash va hamkorlik to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi va Xalqaro Mehnat Tashkilotining Bolalar mehnatini ta'qiqlash va uning eng og'ir shakllariga barham berish bo'yicha shoshilinch choralar to'g'risidagi 182-Konvensiya qoidalarini e'tiborga olib,

bola huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarga umumsodiqlikni namoish qilgan holda, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning to'la qo'llab-quvvatlanishidan ruhlanib,

bola savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasining oldini olish bo'yicha Harakat dasturi qoidalarining, 1996-yil 27-31-avgustda Stokgolmda bo'lib o'tgan Bolalarni tijorat maqsadda seksual ekspluatatsiya qilishga qarshi Butunjahon kongressida qabul qilingan Deklaratsiya va Harakat rejasining hamda tegishli xalqaro tashkilotlarning boshqa shu masalaga oid qaror va tavsiyalarning bajarilishi muhimligini tan olib,

bolani himoyalash va barkamol shakllanishi uchun har bir xalqning an'analari va madaniy qadriyatlarining muhimligini tegishli darajada hisobga olib, quyidagilar haqida kelishib oldilar:

1-modda

Ishtirokchi-davlatlar mazkur Protokolda ko'rsatilganidek, bola savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasini taqiqlaydilar.

2-modda

Ushbu Protokol maqsadlari uchun:

a) «bolalar savdosi» - haq olish evaziga yoki boshqa shaklda qoplanadigan foyda evaziga har qanday shaxs yoki bir guruh shaxslar tomonidan bolani boshqa shaxsga yoki bir guruh shaxslarga berishni ko'zlagan har qanday harakat yoki bitimni anglatadi;

b) «bola fohishabozligi» - haq olish evaziga yoki boshqa shaklda qoplanadigan foyda evaziga bolani seksual maqsadlarda ishlatishni anglatadi;

c) «bola pornografiyasi» - bolaning haqiqiy yoki uyushtirilgan ochiq seksual faoliyatdagi ishtirokini har qanday vositalar orqali aks ettiruvchi tasvirni, yoki asosan seksual maqsadlar uchun bolaning jinsiy a'zolarini aks ettiruvchi har qanday tasvirni anglatadi.

3-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat, hech bo'lmaganda quyidagi harakat va faoliyatlar, bular milliy yoki xalqaro miqyosda yoki bir shaxs tomonidan yoki uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilishidan qat'iy nazar, uning jinoyat yoki penitensiar huquqi tomonidan to'liq qamrab olishini ta'minlaydi:

a) 2-moddada ta'riflangan bolalar savdosi mazmunidan kelib chiqqan holda:

i) quyidagi maqsadlar uchun har qanday vositalar orqali bolani taklif qilish, yetkazib berish yoki qabul qilish:

a. bolani seksual ekspluatatsiya qilish;

b. foyda olish uchun bola organlarini ko'chirish;

c. bolani majburiy mehnatga jalb qilish;

ii) farzandlikka olish sohasida qo'llaniladigan xalqaro-huquqiy hujjatlar qoidalarini buzish orqali bolani farzandlikka olish uchun nomuvofiq tarzda, vositachi sifatida, ko'nishga majburlash;

b) 2-moddada ta'riflangan bola fohishabozligi uchun bolani taklif qilish, olish, yetkazib berish yoki bola bilan ta'minlash;

c) 2-moddada ta'riflangan bola pornografiyasini yuqorida keltirilgan maqsadlar uchun ishlab chiqish, taqsimlash, tarqatish, import va eksport qilish, taklif qilish, sotish yoki saqlash.

2. Shu kabi qoidalar, ishtirokchi-davlatning milliy qonunchili qoidalari inobatga olingan holda, yuqorida keltirilgan har qanday harakatlarni sodir etish maqsadda qilingan har qanday harakatga nisbatan va yuqorida keltirilgan har qanday harakatlarda ishtirokchilik yoki ishtirok qilishga nisbatan qo'llaniladi.

3. Har bir ishtirokchi-davlat bu kabi jinoyatlar uchun, ularning og'irlik darajasini hisobga olgan holda, tegishli jazo choralarini ko'zda tutadi.

4. Har bir ishtirokchi davlat o'zining milliy qonunchili qoidalarini inobatga olgan holda, mazkur moddaning 1-qismida belgilangan jinoyatlar uchun yuridik shaxslarning javobgarligini o'rnatish uchun, tegishli hollarda, chora-tadbirlar ko'radi. Ishtirokchi-davlatning huquqiy prinsiplari inobatga olingan holda, yuridik shaxslarning bunday javobgarligi jinoiy, fuqaroviy yoki ma'muriy bo'lishi mumkin.

5. Ishtirokchi-davlatlar, bolani farzandlikka olish harakatiga jalb qilingan barcha shaxslar qo'llaniladigan xalqaro-huquqiy hujjatlar qoidalariga muvofiq tarzda harakat qilishlarini kafolatlash uchun barcha tegishli huquqiy va ma'muriy choralar ko'radilar.

4-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat 3-moddaning 1-qismida ko'zda tutilgan jinoyatlarga nisbatan, agar bunday jinotlar uning hududida yoki ushbu davlatda ro'yxatga olingan dengiz yoki havo kemasi bortida sodir etiladigan bo'lsa, o'z yurisdiksiyasini o'rnatish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'radi.

2. Har bir ishtirokchi-davlat 3-moddaning 1-qismida ko'zda tutilgan jinoyatlarga nisbatan quyidagi hollarda o'z yurisdiksiyasini o'rnatish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'rishi mumkin:

a) agar jinoyatda gumon qilinuvchi mazkur davlatning fuqarosi yoki uning hududida doimiy yashash joyiga ega shaxs bo'lsa;

b) agar jabrlanuvchi mazkur davlatning fuqarosi bo'lsa.

3. Har bir ishtirokchi-davlat, shu tariqa, yuqorida keltirilgan jinoyatlarga nisbatan, agar jinoyatda gumon qilinuvchi o'z davlatning hududida bo'lsa va bu davlat, ushbu jinoyat o'z fuqarolaridan biri tomonidan sodir qilinganligi asosida uni boshqa ishtirokchi-davlatga ekstraditsiya qilmayotgan bo'lsa, o'z yurisdiksiyasini o'rnatish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'radi.

4. Mazkur Protokol milliy qonunchilik qoidalariga muvofiq tarzda qo'llaniladigan har qanday jinoiy yurisdiksiyani istisno qilmaydi.

5-modda

1. 3-moddaning 1-qismida ko'zda tutilgan jinoyatlar ishtirokchi-davlatlar o'rtasida mavjud bo'lgan har qanday ekstraditsiya to'g'risidagi shartnomaga ekstraditsiya qilinishni keltirib chiqaradigan jinoyatlar sifatida kiritiladi deb hisoblanadi hamda bunday shartnomalarda belgilangan shartlarga muvofiq davlatlar o'rtasida keyinchalik tuziladigan ekstraditsiya to'g'risidagi har bir shartnomaga ekstraditsiya qilinishni keltirib chiqaradigan jinoyatlar sifatida kiritiladi.

2. Agar, shartnoma mavjudligiga asoslanib ekstraditsiya qiladigan ishtirokchi-davlat o'zi bilan ekstraditsiya to'g'risida shartnomaga ega bo'lmagan boshqa davlatdan ekstraditsiya to'g'risida iltimosnoma olsa, u holda mazkur Protokolni bunday jinoyatlarga nisbatan ekstraditsiya qilish uchun qonuniy asos deb hisoblashi mumkin.

Ekstraditsiya iltimosnoma olgan davlatning qonunida belgilab qo'yilgan shartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Shartnoma mavjudligiga asoslanmay ekstraditsiya qiladigan ishtirokchi-davlatlar, iltimosnoma olgan davlatning qonunida belgilab qo'yilgan shartlarga muvofiq bunday jinoyatlarni ekstraditsiya qilinadigan jinoyatlar sifatida o'zaro tan oladilar.

4. Bunday jinoyatlar, ishtirokchi-davlatlar o'rtasidagi ekstraditsiya maqsadlari uchun, nafaqat u sodir bo'lgan joyda, balki, agar 4-moddaga muvofiq

o'z yurisdiksiyasini o'rnatishga majbur bo'lgan davlatlarning hududida sodir etilgan bo'lsa, shu hududlarda ham ko'riladi.

5. Agar ekstraditsiya to'g'risidagi iltimosnoma 3-moddaning 1-qismida ko'zda tutilgan jinoyatga nisbatan qilingan bo'lsa, va iltimosnoma olgan ishtirokchi-davlat jinoyatchining fuqaroligi asosida uni ekstraditsiya qilmasa yoki qilishni xohlamasa, unda mazkur ishtirokchi-davlat ushbu ishni vakolatli organlarga jinoyat ishini qo'zg'atish maqsadda topshirish uchun tegishli choralarni ko'radi.

6-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar 3-moddaning 1-qismida belgilangan jinoyatlarga nisbatan qo'zg'atilgan ekstraditsiya yoki jinoyat ishlari yoki tergov harakatlarini amalga oshirish borasida qo'llaridan keladigan yordamni, shu jumladan, shu protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan dalillarni olish borasidagi yordamni bir-birlariga ko'rsatadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar, o'zaro mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday shartnomalarga yoki boshqa o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi kelishuvlarga asoslangan holda, mazkur moddaning 1-qismiga muvofiq o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajaradilar. Agar bunday shartnomalar yoki kelishuvlar mavjud bo'lmasa, unda ishtirokchi-davlatlar o'zlarining milliy qonunlariga muvofiq bir-birlariga yordam ko'rsatadilar.

7-modda

Ishtirokchi-davlatlar o'zlarining milliy qonunchiligi qoidalarini inobatga olgan holda:

a) tegishli hollarda quyidagilarning olib qo'yilishi yoki musodara qilinishini ta'minlaydigan chora-tadbirlar ko'radilar:

i) mazkur Protokolda ko'zda tutilgan jinoyatlarni sodir etish uchun ishlatiladigan, material, mablag' va boshqa uskunalar kabi buyumlarni;

ii) bunday jinoyatlarni sodir etish evaziga olingan foydani;

b) Boshqa ishtirokchi-davlatning «a»-kichik badda ko'zda-tutilgan buyumlarini yoki foydani olib qo'yish yoki musodara qilish talabnomasini bajaradilar;

c) bunday jinoyatlarni sodir etish maqsadda ishlatiladigan inshootlarni vaqtincha yoki butunlay yopib qo'yishga qaratilgan choralarni ko'radilar.

8-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Protokol tomonidan man etilgan amaliyotda jabrlangan bolalarning huquq va manfaatlarini jinoyat protsessining barcha bosqichlarida himoya qilish uchun tegishli choralar ko'radilar, xususan quyidagi yo'llar orqali:

a) jabrlangan bolalarning zaifligini tan olish orqali va ularning maxsus ehtiyojlarini, jumladan, ularning guvoh sifatidagi maxsus ehtiyojlarini tan olish maqsadda shu sohadagi tartibni moslashtirish orqali.

b) jabrlangan bolalarni ularning huquqlari, roli va ish jarayonining mohiyati, muddati va bosqichlari hamda ularning ishlari bo'yicha chiqarilgan qarorlar to'g'risida xabardor qilish orqali;

s) ish jarayonida jabrlangan bolalarning manfaatlariga ta'sir qiladigan masalalar ko'rilgan hollarda, ularning o'z qarashlari, ehtiyojlari va muammolari milliy qonunning protsessual normalariga muvofiq tarzda bayon qilinishi va ko'rib chiqilishi uchun imkoniyat yaratish orqali;

d) jabrlangan bolalarga sud protsessining barcha bosqichlarida tegishli yordam xizmatlarini ko'rsatish orqali;

e) jabrlangan bolalarning shaxsini va shaxsiy hayotini tegishlicha himoyalash orqali hamda jabrlangan bolalarni shaxsini aniqlashga olib kelishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni noo'rin tarqalib ketishini oldini olish uchun milliy qonunga muvofiq chora-tadbirlar ko'rish orqali;

f) jabrlangan bolalar hamda ularning oilalari va ular nomidan qatnashayotgan guvohlarni lozim hollarda po'pisa qilish va o'ch olish harakatlardan himoya qilish orqali;

g) jabrlangan bolalarga kompensatsiya berish to'g'risidagi ishlar bo'yicha qaror chiqarishda va shu qarorlarni yoki farmoyishlarni ijrosida assosiz kechiktirilishiga yo'l qo'ymaslik orqali.

2. Ishtirokchi-davlatlar jabrlanganning haqiqiy yoshining noaniqligi jinoyat tergov ishlarini boshlashga, jumladan, jabrlanganlarning yoshini aniqlashga qaratilgan tergov ishlarini boshlashga to'sqinlik qilmasligini ta'minlaydilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Protokolda ta'riflangan jinoyatlardan jabrlangan bolalarga nisbatan jinoyat-protsessual tizim tomonidan amalga oshiriladigan muomalada eng avvalo bolaning oliy manfaatlarining hisobga olinishini ta'minlaydilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar, ushbu Protokolga muvofiq ta'qiqlangan jinoyatlar oqibatida jabrlangan bolalar bilan ishlaydigan shaxslarni tegishli tayyorgarlikdan, xususan, huquqiy va psixologik tayyorgarlikdan o'tkazish uchun chora-tadbirlar ko'radilar.

5. Ishtirokchi-davlatlar, lozim hollarda, shu kabi jinoyatlarning oldini olish faoliyati bilan shug'ullanuvchi va/yoki shu kabi jinoyatlar oqibatida jabrlanganlarni himoya va reabilitatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning va/yoki shaxslarning shaxsiy dahlsizligini va himoyasini ta'minlash uchun chora-tadbirlar ko'radilar.

6. Ushbu moddaning qoidalari, ayblanuvchining adolatli va xolis sud muhokamasiga bo'lgan huquqlariga putur yetkazadi yoki zid keladi, deb talqin qilinmaydi.

9-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Protokolda ko'zda tutilgan jinoyatlarning oldini olish maqsadda qonunlar, ma'muriy choralar, ijtimoiy strategiyalar va dasturlar qabul qilishi yoki ularni kuchaytirishi, amalga oshirishi va targ'ib qilishi kerak. Asosiy e'tibor, bunday amaliyotga o'ta zaif bo'lgan bolalarning himoyasiga qaratiladi.

2. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Protokolda ko'zda tutilgan jinoyatlarning oldini olish choralari va ularning zararli ta'sirlari to'g'risida barcha tegishli vositalar orqali xabardor qilish, ta'lim berish va o'qitish yo'li bilan keng jamoatchilikni, shuningdek bolalarning xabardorligini oshirishda ko'maklashadilar. Ishtirokchi-davlatlar, mazkur modda bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlarida, jamoatchilikning, xususan, bolalar va jabrlangan bolalarning ta'lim, o'qitish, axborot dasturlarida qatnashishlarini, shu jumladan,, xalqaro darajada, rag'batlantirishlari lozim.

3. Ishtirokchi-davlatlar bunday jinoyatlar oqibatida jabrlanganlarga, xususan, ularning to'liq ijtimoiy reintegratsiyasi hamda ularning to'liq jismonan va psixologik tiklanishlari uchun, barcha tegishli yordam ko'rsatilishini ta'minlash maqsadda mumkin bo'lgan barcha choralarni ko'radilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar, mazkur Protokolda ko'zda tutilgan jinoyatlar oqibatida jabrlangan barcha bolalar, huquqiy javobgar bo'lgan shaxslardan yetkazilgan zararlar uchun, hech qanday kamsitishlarsiz, kompensatsiya olish bo'yicha tegishli proseduralardan foydalanishlarini ta'minlaydilar.

5. Ishtirokchi davlatlar mazkur protokolda ko'zda tutilgan jinoyatlarni reklama qiluvchi materiallar ishlab chiqarilishini va tarqatilishini samarali ta'qiqlashga qaratilgan tegishli choralar ko'radilar.

10-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolalar savdosi, bola fohishabozligi, bola pornografiyasi va bola seks turizmi bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgar shaxslarni jazolash, ularga nisbatan surishtiruv, tergov ishlarini, sud ta'qibini amalga oshirish va bunday jinoyatlarning oldini olish maqsadda ko'p tomonlama, mintaqaviy va ikki tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha barcha zarur choralarni ko'radilar. Ishtirokchi-davlatlar, shuningdek, o'zlarining hokimiyat organlari, milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlar hamda xalqaro tashkilotlar o'rtasida xalqaro hamkorlik va muvofiqlashtirish ishlariga ham ko'maklashadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar jabrlangan bolalarga ularning jismoniy va psixologik tiklanishlari, ijtimoiy reintegratsiya va repatriatsiyasi sohasida yordam berishga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikka ko'maklashadilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar bolalar savdosi, bola fohishabozligi, bola pornografiyasi va bola seks turizmiga bolalarni jalb qilinishini osonlashtiruv - qashshoqlik va iqtisodiy qoloqlik kabi asosiy sabablarini yo'q qilishga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga ko'maklashadilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar, o'z imkoniyatidan kelib chiqib, mavjud ko'p tomonlama, mintaqaviy, ikki tomonlama yoki boshqa dasturlar doirasida moliyaviy, texnik va boshqa yordam ko'rsatadilar.

11-modda

Ushbu Protokolning hech bir qoidasi, bola huquqlarini yaxshiroq amalga oshishiga yordam beruvchi har qanday qoidalarga salbiy ta'sir qilmaydi, va ushbu qoidalar quyidagilarda o'z aksini topgan bo'lishi mumkin:

- a) ishtirokchi-davlatning qonunida;
- b) ushbu ishtirokchi-davlat uchun kuchda bo'lgan xalqaro huquq normalarida.

12-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat, ushbu Protokol unga nisbatan kuchga kirganidan keyin ikki yil ichida uning qoidalarini bajarish borasida ko'rilgan choralar to'g'risida mufassal axborot beruvchi ma'ruzani Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaga taqdim etadi.

2. Mufassal ma'ruza taqdim etilganidan keyin har bir ishtirokchi-davlat, Konvensiyaning 44-moddasiga muvofiq Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaga taqdim etiladigan keyingi ma'ruzalariga Protokolning bajarilishi borasida yangi ma'lumotlarni kiritadi. Protokolda ishtirokchi boshqa davlatlar ma'ruzani har besh yilda taqdim etadilar.

3. Bola huquqlari bo'yicha qo'mita ishtirokchi-davlatlardan ushbu Protokolning bajarilishiga taalluqli bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilishi mumkin.

13-modda

1. Ushbu Protokol Konvensiyada ishtirok etuvchi yoki Konvensiyani imzolagan har bir davlatga imzolash uchun ochiqdir.

2. Ushbu Protokol ratifikatsiya qilinadi va Konvensiyada ishtirok etuvchi yoki Konvensiyani imzolagan har bir davlatning qo'shilishi uchun ochiqdir. Ratifikatsiya yoki qo'shilish hujjatlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

14-modda

1. Ushbu Protokol o'ninchi ratifikatsiya yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlanishga topshirilgan sanadan keyin uch oy o'tgach kuchga kiradi.

2. Mazkur Protokol u kuchga kirganidan keyin uni ratifikatsiya qiladigan yoki unga qo'shiladigan har bir davlat uchun uning ratifikatsiya yoki qo'shilish

to'g'risidagi hujjati saqlanishga topshirilgan sanadan keyin bir oy o'tgach kuchga kiradi.

15-modda

1. Har qanday ishtirokchi-davlat mazkur Protokolni har qanday vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga yozma xabarnoma yuborish orqali denonsatsiya qilishi mumkin. Bosh kotib xabarnomani olgach, Konvensiyada ishtirok etuvchi va Konvensiyani imzolagan barcha davlatlarni bundan xabardor qiladi. Denonsatsiya Bosh kotib tomonidan xabarnoma olingan sanadan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Bunday denonsatsiya ishtirokchi-davlatni ushbu Protokoldan kelib chiqadigan majburiyatlaridan, ya'ni denonsatsiya kuchga kirishidan oldin sodir etgan har qanday jinoyati bo'yicha javobgarlikdan ozod etmaydi. Shuningdek, bunday denonsatsiya denonsatsiya kuchga kirishidan oldin Bola huquqlari bo'yicha qo'mita tomonidan ko'rilishi boshlangan har qanday masalaning ko'rilishini davom ettirishga monelik qilmaydi.

16-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat o'zgartirish kiritishni taklif qilishi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. Bosh kotib taklif etilgan o'zgartirish haqida ishtirokchi-davlatlarga xabar beradi hamda ulardan mazkur takliflarni ko'rib chiqish va ularni ovozga qo'yish maqsadda konferensiya chaqirilishiga nisbatan o'z fikrini bildirishini so'raydi. Agar xabar yetkazilgan sanadan keyin to'rt oy ichida ishtirokchi-davlatlarning eng kamida uchdan bir qismi shunday konferensiya chaqirish istagini bildirsa, shunga binoan, Bosh kotib Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'magida shunday konferensiyani chaqiradi. Konferensiyada ishtirok etayotgan va ovoz berayotgan ishtirokchi-davlatlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan o'zgartirish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasiga tasdiqlanish uchun taqdim etiladi.

2. Mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq qabul qilingan o'zgartirish Bosh Assambleya tomonidan tasdiqlanganidan keyin, ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki qismi tomonidan qabul qilinganidan keyin kuchga kiradi.

3. O'zgartirish kuchga kirgandan keyin uni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun majburiy bo'lib qoladi, boshqa ishtirokchi-davlatlar uchun esa mazkur protokolning qoidalari va har qanday oldin qabul qilingan o'zgartirishlar majburiy hisoblanadi.

17-modda

1. Ushbu Protokol Birlashgan Millatlar Tashkilotining arxivlarida saqlanadi va uning arabcha, xitoycha, inglizcha, fransuzcha, ruscha va ispancha matnlari bir xil kuchga ega.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi mazkur Protokolning tasdiqlangan nusxalarini barcha ishtirokchi-davlatlarga va Konvensiyani imzolagan barcha davlatlarga jo‘natadi.

ISHGA QABUL QILISH UCHUN ENG KICHIK YOSH TO‘G‘RISIDAGI 138-KONVYENSIYA

1973-yil 26-iyun

Xalqaro Mehnat Tashkiloti Bosh Konferensiyasining 58-Sessiyasida qabul qilingan

O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 4 apreldagi O‘RQ-140-son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan

Xalqaro Mehnat Tashkilotining Bosh konferensiyasi,

Xalqaro Mehnat Byurosining Ma‘muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1973-yilning 6-iyunida o‘zining ellik sakkizinchi Sessiyasiga to‘planib,

ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risidagi bir qancha takliflarni qabul qilishga qaror chiqarib va bu Sessiya kun tartibining to‘rtinchi bandi hisoblanib,

Sanoatda eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1919-yilgi Konvensiya, Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1920-yilgi Konvensiya, Qishloq xo‘jaligida eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1921-yilgi Konvensiya, Flotda ko‘mir yuklovchi va o‘t yoquvchi uchun eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1921-yilgi Konvensiya, Nosanoat ishlarda eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1932-yilgi Konvensiya, Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1936-yilgi (qayta ko‘rib chiqilgan) Konvensiya, Sanoatda eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1937-yilgi (qayta ko‘rib chiqilgan) Konvensiya, Nosanoat ishlardagi eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1937-yilgi (qayta ko‘rib chiqilgan) Konvensiya, Baliqchilar uchun eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1959-yilgi Konvensiya hamda Yer osti ishlariga ruxsat beriladigan eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1965-yilgi Konvensiya qoidalarini e‘tiborga olib,

bolalar mehnatini to‘liq bekor qilishga erishish maqsadda, cheklangan iqtisodiy sektorlarda qo‘llaniladigan mavjud shartnomalarni bosqichma-bosqich almashtiruvchi umumiy shartnoma ishlab chiqish vaqti kelganini e‘tiborga olib,

mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga qaror qilib,

bir ming to‘qqiz yuz yetmish uchinchi yil-iyun oyining yigirma oltinchi kunida quyidagi "Eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1973-yilgi Konvensiya" deb nomlanishi mumkin bo‘lgan Konvensiyani qabul qildi:

1-modda

Tashkilotining har bir a‘zosi, ushbu Konvensiya unga nisbatan kuchga kirgan bo‘lsa, bolalar mehnatini batamom bekor qilishni ta‘minlashga

yoʻnaltirilgan va ishlashga yoki yollanishga ruxsat etilgan eng kichik yoshni oʻsmirlarning toʻla jismoniy va aqliy rivojlanish darajasiga mos keladigan yoshgacha bosqichma-bosqich oshirishga yoʻnaltirilgan milliy siyosatni amalga oshirish majburiyatini oʻz zimmasiga oladi.

2-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Tashkilotning har bir aʼzosi, ratifikatsiya toʻgʻrisidagi hujjatga ilova qilinadigan deklaratsiyasida, oʻz hududi doirasida va hududida roʻyxatga olingan transport vositalarida ishga qabul qilinishga yoki yollanishga ruxsat etilgan eng kichik yoshni koʻrsatadi; mazkur Konvensiyaning 4-8-moddalari shartiga binoan, mazkur eng kichik yoshdan kichik boʻlgan shaxslarga har qanday ish turida ishlashga yoki yollanishga yoʻl qoʻyilmaydi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir aʼzosi, keyinchalik, keyingi deklaratsiyasi orqali, mamlakatda oʻrnatilgan eng kichik yoshni yangitdan, avval oʻrnatilgan eng kichik yoshidan kattaroq yosh belgilaganligi haqida Xalqaro Mehnat Byurosi Bosh direktorini xabardor qilishi mumkin.

3. Mazkur modda 1-bandi asosida belgilanadigan eng kichik yosh majburiy maktab taʼlimini tugallash uchun zarur boʻlgan yoshdan kam boʻlmasligi kerak va har qanday holda oʻn besh yoshdan kichik boʻlmasligi zarur.

4. Iqtisodiyoti va taʼlim imkoniyatlari yetarlicha rivojlanmagan Tashkilot aʼzosi, mazkur modda 3-bandi qoidalaridan qatʼi nazar, ish beruvchilar va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar shunday tashkilotlar mavjud boʻlsa, maslahatlashilgandan soʻng dastavval eng kichik yosh deb oʻn toʻrt yoshni belgilashi mumkin.

5. Yuqoridagi band qoidalariga muvofiq eng kichik yosh deb oʻn toʻrt yoshni belgilagan Tashkilotning har bir aʼzosi Xalqaro Mehnat Tashkiloti Ustavining 22-moddasiga muvofiq oʻzining mazkur Konvensiya ijrosi toʻgʻrisidagi maʼruzasiga quyidagi bayonotlarni kiritadi:

- a) ushbu qaror qabul qilinishi sabablari oʻzgarmaganligi; yoki
- b) u muayyan sanadan eʼtiboran oʻzining mazkur qoidalardan foydalanish huquqidan voz kechishini.

3-modda

1. Oʻz xususiyati yoki amalga oshiriladigan sharoitiga koʻra oʻsmir sogʻligʻi, xavfsizligi yoki maʼnaviyatiga ziyon yetkazishi mumkin boʻlgan har qanday ish turiga yoki yollanma ish turiga qabul qilish uchun eng kichik yosh oʻn sakkiz yoshdan kam boʻlmasligi kerak.

2. Ushbu modda 1-bandi qoʻllaniladigan ish turlari yoki yollanma ish turlari milliy qonun hujjatlari yoki vakolatli hokimiyat organi tomonidan ish beruvchilar

va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashilgandan so'ng belgilanadi.

3. Ushbu modda 1-bandi qoidalaridan qat'i nazar, milliy qonun hujjatlari yoki vakolatli hokimiyat organi ish beruvchilar va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashilgandan so'ng o'n olti yoshdan kichik bo'lmagan shaxslarga ishlashga yoki yollanib ishlashga, ularning sog'lig'i, xavfsizligi va ma'naviyati to'la muhofaza etilishi va ular yetarlicha maxsus ta'lim hamda faoliyatning tegishli sohasi bo'yicha kasbiy tayyorgarlik olishlari sharti bilan ruxsat berishlari mumkin.

4-modda

1. Zaruratga ko'ra vakolatli hokimiyat organi ish beruvchilar va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashilgandan so'ng, mazkur Konvensiyaning qo'llanilishi doirasidan ishlarning yoki yollanma ishlarning cheklangan toifalarini, ya'ni ularning qo'llanilishida alohida va muhim muammolar vujudga keladigan toifalarini chiqarib tashlashlari mumkin.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Tashkilotning har bir a'zosi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti Ustavining 22-moddasiga binoan taqdim etiladigan, mazkur Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi o'zining birinchi ma'ruzasida, mazkur modda 1-bandiga muvofiq chiqarib tashlanishi mumkin bo'lgan barcha toifalarni, chiqarib tashlash sabablarini ko'rsatgan holda qayd etadi hamda navbatdagi ma'ruzalarda chiqarib tashlangan mazkur toifalarga nisbatan o'z milliy qonunchiligi va amaliyotining ahvoli to'g'risida va Konvensiya qoidalari ushbu toifalarga nisbatan qanday qo'llanilayotganligi yoki qo'llanilishi mo'ljallanayotganligi to'g'risida ma'lum qiladi.

3. Ushbu Konvensiya 3-moddasi bilan qamrab olinadigan ish turi yoki yollanma ish turi, mazkur modda bajarilishidan kelib chiqib, ushbu Konvensiya qo'llanilishi doirasidan chiqarib tashlanmasligi kerak.

5-modda

1. Iqtisodiyoti va ma'muriy imkoniyatlari yetarlicha rivojlanmagan Tashkilotning a'zosi, ish beruvchilar va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar shunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashilgandan so'ng, dastavval mazkur Konvensiya qo'llanilishi doirasini cheklab qo'yishi mumkin.

2. Mazkur modda 1-bandi qoidalarini qo'llayotgan Tashkilotning har bir a'zosi ratifikatsiya to'g'risidagi hujjatiga ilova qilinadigan deklaratsiyada, mazkur Konvensiya qoidalarini u qo'llaydigan iqtisodiy faoliyat tarmoqlari yoki korxonalar turlarini ko'rsatishi lozim.

3. Konvensiya qoidalari hech bo'lmaganda quyidagi sohalarda qo'llanilishi lozim: shaxta va karerlarda; ishlov berish sanoatida; qurilishda; elektr, gaz va suv ta'minotida; sanitariya xizmatlarida; transport, omborlar va aloqa xizmatida;

ekinzorlar va tijorat maqsadlari uchun mahsulot ishlab chiqaradigan boshqa qishloq xo'jalik korxonalaridagi ishlarda, shu jumladan, mahalliy iste'mol uchun mahsulot ishlab chiqaradigan, doimiy ravishda yollanma mehnatkashlardan foydalanmaydigan oilaviy va kichik xo'jaliklarda.

4. Mazkur Konvensiya qo'llanilishi doirasini ushbu modda qoidalariga muvofiq cheklaydigan Tashkilotning har bir a'zosi:

a) Xalqaro Mehnat Tashkiloti Ustavining 22-moddasiga muvofiq taqdim etiladigan ma'ruzasida mazkur Konvensiya qo'llanilishi doirasidan chiqarilgan faoliyat sohalarida o'smirlar va bolalarning ishlashi yoki yollanib ishlashining umumiy ahvoli to'g'risidagi va mazkur Konvensiya qoidalari kengroq qo'llanilishi yo'lida amalga oshirilgan har qanday ijobiy o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi lozim;

b) xohlagan vaqtda, Xalqaro Mehnat Byurosi Bosh direktoriga yuboriladigan deklaratsiyasi orqali, Konvensiya qo'llanilishi doirasini rasman kengaytirishi mumkin.

6-modda

Ushbu Konvensiya bolalar va o'smirlar tomonidan umumta'lim maktablari, kasb-hunar va texnika ta'limi yoki boshqa o'quv muassasalarida bajariladigan ishlarga yoki kamida o'n to'rt yoshda bo'lgan shaxslar tomonidan vakolatli hokimiyat organlari - ish beruvchilar va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashilgandan so'ng - belgilab qo'ygan shartlarga muvofiq korxonalarda bajaradigan ishlarga nisbatan va quyidagilarning tarkibiy qismi hisoblanadigan ishlarga nisbatan qo'llanilmaydi:

a) asosiy mas'uliyat maktab yoki kasbiy tayyorgarlik muassasasi zimmasida bo'lgan ta'lim yoki tayyorgarlik kursining;

b) asosan yoki butunlay korxonada amalga oshiriladigan, vakolatli hokimiyat organi tomonidan ma'qullangan kasbiy tayyorgarlik dasturining;

s) kasbiy yoki kasbiy tayyorgarlik turini tanlashni yengillashtirishga qaratilgan kasbga yo'naltirish dasturlarining.

7-modda

1. Milliy qonun hujjatlarini o'n uch yoshdan o'n besh yoshgacha bo'lgan shaxslarga yengil ishlarda ishlashga yoki yollanib ishlashga ruxsat etishi mumkin, agar bu:

a) ularning sog'lig'i va rivojlanishi uchun zararli bo'lmasa;

b) ularning maktabga qatnashiga, ularning vakolatli hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlangan kasbga yo'naltirish yoki kasbiy tayyorgarlik dasturlarida ishtirok etishlariga, yoki ularning olgan o'quvlaridan foydalanish layoqatiga zarar yetkazmaydigan bo'lsa.

2. Milliy qonun hujjatlarini kamida o'n besh yoshda bo'lgan, lekin majburiy maktab ta'limini tugallamagan shaxslarga, mazkur modda 1-bandi "a" va "b"

kichik bandlari talablariga rioya etish sharti bilan, ishlashga yoki yollanib ishlashga ruxsat etishi mumkin.

3. Vakolatli hokimiyat organi ishlashga yoki yollanib ishlashga mazkur modda 1 va 2-bandlariga muvofiq ruxsat etilgan faoliyat sohalari aniqlaydi hamda bunday ishning yoki yollanma ishning bajarish mumkin bo'lgan ish vaqti davomiyligi va sharoitini belgilaydi.

4. Mazkur modda 1 va 2-bandlari qoidalaridan qat'i nazar, 2-modda 4-bandi qoidalarini qo'llayotgan Tashkilot a'zosi, u uchun zarur bo'lgan muddatda, mazkur modda 1-bandida ko'rsatilgan o'n ikki va o'n to'rt yoshlarni - o'n uch va o'n besh yoshlar bilan, 2-bandida esa o'n to'rt yoshni - o'n besh yosh bilan almashtirishi mumkin.

8-modda

1. Vakolatli hokimiyat organi, ish beruvchilar va mehnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashilgandan so'ng, ruxsatnomalar berish yo'li orqali mazkur Konvensiya 2-moddasida ko'zda tutilgan ishga yoki yollanma ishga qabul qilishni man etish qoidasini ayrim hollarda, badiiy tadbirlarda ishtirok etish kabi maqsadlar uchun, istisno qilishi mumkin.

2. Shu tartibda beriladigan ruxsatnoma ishlash yoki yollanib ishlash mumkin bo'lgan sharoitni belgilaydi va ish vaqti davomiyligini cheklaydi.

9-modda

1. Vakolatli hokimiyat organi tomonidan mazkur Konvensiya qoidalarini hayotga samarali tatbiq etishni ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar ko'riladi, shu jumladan, tegishli jazolarni belgilash choralari ko'riladi.

2. Milliy qonun hujjatlari yoki vakolatli hokimiyat organi tomonidan Konvensiya ijrosini ta'minlovchi qoidalarning rioya etilishiga mas'ul bo'lgan shaxslar belgilanadi.

3. Milliy qonun hujjatlari yoki vakolatli hokimiyat organi tomonidan ish beruvchi tasarrufida va xizmatida bo'ladigan ro'yxatlar yoki boshqa hujjatlar tayinlanadi: bunday ro'yxatlar yoki hujjatlarda ish beruvchi tomonidan yollangan yoki u uchun ishlaydigan va o'n sakkiz yoshdan kichik bo'lgan shaxslar ism-sharifi, yoshi yoki tug'ilgan sanasiga doir ma'lumotlar zarur darajada tasdiqlangan holda ko'rsatiladi.

10-modda

1. Mazkur Konvensiya, ushbu moddada ko'zda tutilgan shartlar asosida, Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi 1919-yilgi Konvensiya, Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1920-yilgi Konvensiya, Qishloq xo'jaligidagi eng kichik yosh to'g'risidagi 1921-yilgi Konvensiya, Flotda ko'mir yuklovchi va

o't yoquvchi uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1921-yilgi Konvensiya, Nosanoat ishlarda eng kichik yosh to'g'risidagi 1932-yilgi Konvensiya, Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1936-yilgi (qayta ko'rib chiqilgan) Konvensiya, Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi 1937-yilgi (qayta ko'rib chiqilgan) Konvensiya, Nosanoat ishlardagi eng kichik yosh to'g'risidagi 1937-yilgi (qayta ko'rib chiqilgan) Konvensiya, Baliqchilar uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1959-yilgi Konvensiya hamda Yer osti ishlariga ruxsat beriladigan eng kichik yosh to'g'risidagi 1965-yilgi Konvensiyani qayta ko'rib chiqadi.

2. Mazkur Konvensiyaning kuchga kirishi Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1936-yilgi (qayta ko'rib chiqilgan) Konvensiya, Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi 1937-yilgi (qayta ko'rib chiqilgan) Konvensiya, Nosanoat ishlardagi eng kichik yosh to'g'risidagi 1937-yilgi (qayta ko'rib chiqilgan) Konvensiya, Baliqchilar uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1959-yilgi Konvensiya yoki Yer osti ishlariga ruxsat beriladigan eng kichik yosh to'g'risidagi 1965-yilgi Konvensiyaning keyinchalik ratifikatsiya uchun yopilishiga olib kelmaydi.

3. Agar Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi 1919-yilgi Konvensiya, Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1920-yilgi Konvensiya, Qishloq xo'jaligida eng kichik yosh to'g'risidagi 1921-yilgi Konvensiya hamda Flotda ko'mir yuklovchi va o't yoquvchilar uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1921-yilgi Konvensiyaning barcha ishtirokchilari ularni ratifikatsiya uchun yopishga rozi bo'lib, mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilsalar yoki bu haqda Xalqaro Mehnat Byurosi Bosh direktoriga deklaratsiya jo'natsalar, ushbu Konvensiyalar bundan keyingi ratifikatsiya uchun yopiladi.

4. Agar mazkur Konvensiya majburiyatlari:

a) Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi 1937-yilgi (qayta ko'rib chiqilgan) Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan Tashkilotning a'zosi tomonidan qabul qilinsa va mazkur Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq eng kichik yosh o'n besh yoshdan kam qilib belgilanmagan bo'lsa, u holda qonunning o'z kuchi bilan, Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi 1937-yilgi (qayta ko'rib chiqilgan) Konvensiyaning darhol denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

b) Nosanoat ishlarda eng kichik yosh to'g'risidagi 1932-yilgi Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan Tashkilotning a'zosi tomonidan nosanoat ishlariga nisbatan qabul qilinsa, u holda qonunning o'z kuchi bilan, Nosanoat ishlarda eng kichik yosh to'g'risidagi 1932-yilgi Konvensiyaning darhol denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

s) Nosanoat ishlarda eng kichik yosh to'g'risidagi 1937-yilgi (qayta ko'rib chiqilgan) Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan Tashkilotning a'zosi tomonidan nosanoat ishlariga nisbatan qabul qilinsa va mazkur Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq eng kichik yosh o'n besh yoshdan kam qilib belgilanmagan bo'lsa, u holda qonunning o'z kuchi bilan, Nosanoat ishlarda eng kichik yosh to'g'risidagi 1937-yilgi (qayta ko'rib chiqilgan) Konvensiyaning darhol denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

d) Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1936-yilgi (qayta ko'rib chiqilgan) Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan Tashkilotning a'zosi tomonidan dengizdagi ishlarga nisbatan qabul qilinsa va mazkur Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq eng kichik yosh o'n besh yoshdan kam qilib belgilanmagan bo'lsa, yoki Tashkilotning a'zosi mazkur Konvensiyaning 3-moddasi dengizdagi ishlarga nisbatan qo'llanilishini belgilagan bo'lsa, u holda qonunning o'z kuchi bilan, Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1936-yilgi (qayta ko'rib chiqilgan) Konvensiyaning darhol denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

e) Baliqchilar uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1959-yilgi Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan Tashkilotning a'zosi tomonidan dengizda baliqchilik sohasidagi ishlarga nisbatan qabul qilinsa va mazkur Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq eng kichik yosh o'n besh yoshdan kam qilib belgilanmagan bo'lsa yoki Tashkilotning a'zosi mazkur Konvensiyaning 3-moddasi dengizda baliqchilik sohasidagi ishlarga nisbatan qo'llanilishini belgilagan bo'lsa, u holda qonunning o'z kuchi bilan, Baliqchilar uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1959-yilgi Konvensiyaning darhol denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

f) Yer osti ishlariga ruxsat beriladigan eng kichik yosh to'g'risidagi 1965-yilgi Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan Tashkilotning a'zosi tomonidan qabul qilinsa va mazkur Konvensiya 2-moddasiga muvofiq eng kichik yoshni yuqorida ko'rsatilgan 1965-yilgi Konvensiyaga muvofiq belgilangan eng kichik yoshdan kam qilib belgilanmagan bo'lsa yoki Tashkilotning a'zosi ushbu yosh mazkur Konvensiyaning 3-moddasiga ko'ra shaxtalardagi yer osti ishlariga ruxsat berish uchun qo'llanilishini belgilagan bo'lsa, u holda qonunning o'z kuchi bilan, Yer osti ishlariga ruxsat beriladigan eng kichik yosh to'g'risidagi 1965-yilgi Konvensiyaning darhol denonsatsiya qilinishiga olib keladi, faqat mazkur Konvensiya kuchga kirgan bo'lsa.

5. Mazkur Konvensiya majburiyatlarining qabul qilinishi:

a) ushbu Konvensiyaning 12-moddasiga muvofiq, Sanoatda eng kichik yosh to'g'risidagi 1919-yilgi Konvensiyaning denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

b) qishloq xo'jaligiga nisbatan, ushbu Konvensiyaning 9-moddasiga muvofiq, Qishloq xo'jaligida eng kichik yosh to'g'risidagi 1921-yilgi Konvensiyaning denonsatsiya qilinishiga olib keladi;

s) dengizdagi ishlarga nisbatan, ushbu Konvensiyaning 10-moddasiga muvofiq, Dengizda ishlash uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1920-yilgi Konvensiya va ushbu Konvensiyaning 12-moddasiga muvofiq, Flotda ko'mir yuklovchi va o't yoquvchilar uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 1921-yilgi Konvensiyaning denonsatsiya qilinishiga olib keladi, faqat mazkur Konvensiya kuchga kirgan bo'lsa.

11-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro Mehnat Byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

12-modda

1. Ushbu Konvensiya faqatgina ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro Mehnat Tashkilotining a'zolari uchun majburiy hisoblanadi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

13-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning a'zosi Konvensiya dastlab kuchga kirgan sanadan o'n yil o'tganidan keyin Xalqaro Mehnat Byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan akt orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Bunday denonsatsiya denonsatsiya akti ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi bandeda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin, bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va shunga muvofiq, u mazkur modda shartlariga binoan ushbu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin bo'ladi.

14-modda

1. Xalqaro Mehnat Byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari va denonsatsiya aktlarining barchasini ro'yxatga olganligi haqida Xalqaro Mehnat Tashkilotining barcha a'zolariga xabar beradi.

2. Bosh direktor, unga yuborilgan ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatni ro'yxatga olganligi haqida Tashkilot a'zolariga xabar berganda, u Tashkilot a'zolarining e'tiborini Konvensiyaning kuchga kirish sanasiga qaratadi.

15-modda

Xalqaro Mehnat Byurosi Bosh direktori, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari va denonsatsiya aktlarining barchasiga oid to'la ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

16-modda

Har gal, Xalqaro Mehnat Byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish kerakligini yoki kerak emasligini ko'rib chiqadi.

17-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi, qonunning o'z kuchi bilan, 13-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiyaning Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi to'xtatiladi.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qolaveradi.

18-modda

Mazkur Konvensiyaning inglizcha va fransuzcha matnlari bir xil kuchga ega.

BOLALAR MEHNATINING ENG YOMON SHAKLLARI TO‘G‘RISIDAGI 182-KONVENSIYA

1999-yil 17-iyun

**Xalqaro Mehnat Tashkiloti Bosh Konferensiyasining
87-Sessiyasida qabul qilingan**

**O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 8 apreldagi
O‘RQ-144-son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan**

Xalqaro Mehnat Tashkilotining Bosh konferensiyasi,

Xalqaro Mehnat Byurosining Ma‘muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1999-yilning 1-iyunida o‘zining 87-Sessiyasiga to‘planib,

milliy va xalqaro sa‘y-harakatlarning, shu jumladan,, xalqaro hamkorlik va xalqaro yordamning bosh ustuvor tamoyili sifatida bolalar mehnatini taqiqlash va uning eng yomon shakllariga barham berish uchun bolalar mehnati bo‘yicha asosiy hujjat bo‘lib qolayotgan Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1973-yilgi Konvensiya va Tavsiyani to‘ldiradigan yangi hujjatlarni qabul qilishni zarur deb hisoblab,

bolalar mehnatining eng yomon shakllariga samarali barham berish shoshilinch va har tomonlama sa‘y-harakatlarni - bepul umumiy ta‘lim hamda bolalarni shu turdagi barcha ishlardan xalos etish zaruratini hisobga olgan holda va ularning oilalari ehtiyojlariga yo‘naltirilgan holda ularning reabilitatsiyasiga va ijtimoiy integratsiyalashuviga ko‘maklashish maqsadda, - talab etishini e‘tiborga olib,

1996-yilda Xalqaro Mehnat Konferensiyasining 83-Sessiyasida qabul qilingan bolalar mehnatiga barham berish to‘g‘risidagi rezolyutsiyani eslatib,

bolalar mehnati ko‘p jihatdan qashshoqlik oqibatida vujudga kelishini va bu masalaning uzoq muddatli yechimi ijtimoiy taraqqiyotga olib boradigan, xususan, qashshoqlikni tugatish va universal ta‘limni ta‘minlaydigan barqaror iqtisodiy o‘sishga bog‘liqligini tan olib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani eslatib,

Xalqaro Mehnat Konferensiyasining 1998-yildagi 86-Sessiyasida qabul qilingan Xalqaro Mehnat Tashkilotining mehnat sohasidagi asosiy prinsiplari va huquqlari Deklaratsiyasini hamda ularni amalga oshirish mexanizmini eslatib,

bolalar mehnatining ayrim eng yomon shakllari boshqa xalqaro hujjatlar, xususan Majburiy mehnat to‘g‘risidagi 1930-yilgi Konvensiya, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qullik va qul savdosini, qullikka o‘xshash institutlar va odatlarni bekor qilish to‘g‘risidagi qo‘shimcha Konvensiyasi bilan qamrab olinishini eslatib,

bolalar mehnatiga oid bir qancha takliflarni qabul qilishga qaror chiqarib va bu Sessiya kun tartibining to'rtinchi bandi hisoblanib,
mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga qaror qilib,
bir ming to'qqiz yuz to'qson to'qqizinchi yil-iyun oyining o'n yettinchi kunida quyidagi "Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi 1999-yilgi Konvensiya" deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qildi:

1-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Xalqaro Mehnat Tashkilotining har bir a'zosi bolalar mehnatini taqiqlash va uning eng yomon shakllariga barham berishni ta'minlash maqsadda darhol samarali chora-tadbirlar ko'radi.

2-modda

Mazkur Konvensiya maqsadlari uchun "bola" atamasi 18 yoshgacha bo'lgan barcha shaxslarga qo'llaniladi.

3-modda

Mazkur Konvensiya maqsadlari uchun "bolalar mehnatining eng yomon shakllari" atamasi quyidagilarni qamrab oladi:

a) qullikning barcha shakllari yoki qullikka o'xshash amaliyot, masalan, bolalarni sotish va ularning traffiki, qarz asosidagi qaramlik va krepostnoy tobelik, shuningdek zo'raki yoki majburiy mehnat, shu jumladan,, bolalardan qurolli mojaralarda foydalanish uchun ularni zo'rlab yoki majburlab jalb qilish;

b) fohishabozlik bilan shug'ullanish, pornografiya mahsulotlari tayyorlash yoki pornografik tomoshalarda ishtirok etish uchun boladan foydalanish, uni yollash yoki uni taklif qilish;

s) qonunga xilof faoliyat bilan shug'ullanish uchun, xususan, tegishli xalqaro shartnomalarda belgilangani kabi, narkotiklar tayyorlash va sotish uchun boladan foydalanish, uni yollash yoki uni taklif qilish;

d) bajarish xususiyatlari yoki sharoitiga ko'ra bolalar sog'lig'i, xavfsizligi va ma'naviyatiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlar.

4-modda

1. Milliy qonun hujjatlarii yoki vakolatli hokimiyat organi tomonidan, mehnatkashlar va ish beruvchilarning tegishli tashkilotlari bilan maslahatlashilgandan so'ng, 3-moddaning "d" kichik bandida ko'rsatilgan ish turlari belgilanadi, bunda tegishli xalqaro standartlari, xususan, Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi 1999-yilgi Tavsiyaning 3 va 4-bandlari qoidalari e'tiborga olinadi.

2. Vakolatli hokimiyat organi, mehnatkashlar va ish beruvchilarning tegishli tashkilotlari bilan maslahatlashgandan soʻng, shu tariqa belgilangan ish turlari mavjudligini aniqlaydi.

3. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq belgilangan ish turlari roʻyxati muntazam tahlil qilib boriladi va zaruratga qarab mehnatkashlar va ish beruvchilarning tegishli tashkilotlari bilan maslahatlashib, qayta koʻrib chiqiladi.

5-modda

Tashkilotning har bir aʼzosi, mehnatkashlar va ish beruvchilarning tegishli tashkilotlari bilan maslahatlashgandan soʻng, mazkur Konvensiyani hayotga tatbiq etadigan qoidalar qoʻllanilishining nazoratini amalga oshirish uchun tegishli mexanizmlar yaratadi yoki bunday mexanizmlarni belgilaydi.

6-modda

1. Tashkilotning har bir aʼzosi ustuvor tartibda bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham berish toʻgʻrisidagi harakat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

2. Bunday harakat dasturlari tegishli hukumat idoralari hamda mehnatkashlar va ish beruvchilarning tashkilotlari bilan maslahatlashib ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi, zarurat tugʻilgan holda boshqa tegishli guruhlar fikrlari eʼtiborga olinadi.

7-modda

1. Tashkilotning har bir aʼzosi, mazkur Konvensiyani hayotga tatbiq etadigan qoidalarni samarali qoʻllash va ularga rioya etishni taʼminlash uchun, shu jumladan, jinoiy javobgarlikni joriy etish va qoʻllash orqali hamda vaziyatga qarab boshqa jazo choralarini qoʻllash orqali barcha zarur chora-tadbirlarni koʻradi.

2. Tashkilotning har bir aʼzosi, bolalar mehnatiga barham berishda taʼlimning muhimligini eʼtiborga olgan holda, belgilangan muddatlarda quyidagilarga yoʻnaltirilgan samarali chora-tadbirlarni koʻradi:

a) bolalarning bolalar mehnatining eng yomon shakllariga jalb etilishiga yoʻl qoʻymaslikka;

b) bolalarning bolalar mehnatining eng yomon shakllari bilan mashgʻul boʻlishlarini toʻxtatishga, shuningdek ularni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy integratsiyalash uchun zarurat va talab darajasida bevosita koʻmaklashishga;

s) bolalar mehnatining eng yomon shakllaridan xalos etilgan barcha bolalar bepul umumiy taʼlim olishlari, shuningdek ular uchun imkoniyat darajasida va zaruratga qarab kasbga oʻqish uchun sharoit yaratilishiga;

d) alohida xavfli ahvoldagi bolalarni aniqlash va qamrab olishga;

e) qizlar ahvolining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olishga.

3. Tashkilotning har bir a'zosi mazkur Konvensiyani hayotga tatbiq etadigan qoidalar qo'llanilishi uchun mas'ul bo'lgan vakolatli hokimiyat organini tayinlaydi.

8-modda

Tashkilotning a'zolari mazkur Konvensiya qoidalarini hayotga tatbiq etishda bir-biriga yordam berish maqsadda, mukammal xalqaro hamkorlik va/yoki yordam orqali, shu jumladan,, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-kuvvatlash, qashshoqlikka qarshi kurash bo'yicha dasturlar hamda universal ta'lim orqali zarur choralarni ko'radilar.

9-modda

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar ro'yxatga olinishi uchun Xalqaro Mehnat Byurosi Bosh direktoriga yuboriladi.

10-modda

1. Ushbu Konvensiya faqatgina ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan Xalqaro Mehnat Tashkilotining a'zolarinigina birlashtiradi.

2. Ushbu Konvensiya Tashkilot ikki a'zosining ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari Bosh direktor tomonidan ro'yxatga olingan sanadan keyin 12 oy o'tgach kuchga kiradi.

3. Keyinchalik ushbu Konvensiya Tashkilotning har bir a'zosi uchun uning ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjati ro'yxatga olingan sanadan keyin 12 oy o'tgach kuchga kiradi.

11-modda

1. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning a'zosi Konvensiya dastlab kuchga kirgan sanadan o'n yil o'tganidan keyin Xalqaro Mehnat Byurosining Bosh direktoriga ro'yxatga olish uchun yuborilgan akt orqali Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Bunday denonsatsiya denonsatsiya akti ro'yxatga olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan Tashkilotning har bir a'zosi, yuqoridagi badda qayd etilgan o'n yillik muddat o'tganidan keyin, bir yil ichida mazkur moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya huquqidan foydalanmagan bo'lsa, navbatdagi o'n yillik muddatni kutishga majbur bo'ladi va shunga muvofiq, u mazkur modda shartlariga binoan ushbu Konvensiyani har o'n yillik muddat tugashi bilan denonsatsiya qilishi mumkin bo'ladi.

12-modda

1. Xalqaro Mehnat Byurosi Bosh direktori Tashkilot a'zolari tomonidan yuborilgan ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari va denonsatsiya aktlarining barchasini ro'yxatga olganligi haqida Xalqaro Mehnat Tashkilotining barcha a'zolariga xabar beradi.

2. Bosh direktor, ikkinchi ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatni ro'yxatga olganligi haqida Tashkilot a'zolariga xabar berganda, u Tashkilot a'zolarining e'tiborini Konvensiyaning kuchga kirish sanasiga qaratadi.

13-modda

Xalqaro Mehnat Byurosi Bosh direktori, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 102-moddasiga muvofiq, yuqoridagi moddalar qoidalariga binoan o'zi ro'yxatga olgan ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlari va denonsatsiya aktlarining barchasiga oid to'la ma'lumotlarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga ro'yxatga olish uchun yuboradi.

14-modda

Har gal, Xalqaro Mehnat Byurosi Ma'muriy kengashi zarur deb topganda, Bosh konferensiyaga ushbu Konvensiyaning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi va uni to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqish haqidagi masalani Konferensiya kun tartibiga kiritish kerakligini yoki kerak emasligini ko'rib chiqadi.

15-modda

1. Agar Konferensiya mazkur Konvensiyani to'la yoki qisman qayta ko'rib chiqadigan yangi konvensiya qabul qilsa va yangi konvensiyada zid keluvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda:

a) Tashkilotning biror a'zosi tomonidan qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi, qonunning o'z kuchi bilan, 11-modda qoidalaridan qat'i nazar, mazkur Konvensiyaning zudlik bilan denonsatsiya qilinishiga olib keladi, bunda qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan bo'lishi kerak;

b) qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiya kuchga kirgan sanadan e'tiboran, mazkur Konvensiyaning Tashkilot a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi to'xtatiladi.

2. Mazkur Konvensiya, har qanday holatda, uni ratifikatsiya qilgan, ammo qayta ko'rib chiqilgan yangi konvensiyani ratifikatsiya qilmagan Tashkilot a'zolari uchun amaldagi shakli va mazmuni o'z kuchida qolaveradi.

16-modda

Mazkur Konvensiyaning inglizcha va fransuzcha matnlari bir xil kuchga ega.

BOLA HUQUQLARIGA OID
O‘ZBYEKISTON RYESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARI

O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
07.01.2008 y. №O‘RQ-139

BOLA HUQUQLARINING KAFOLATLARI TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 23-noyabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2007-yil 1-dekabrda ma‘qullangan

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Bola huquqlarining kafolatlari
to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

bola (bolalar) - o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs (shaxslar);

bolaning qonuniy vakillari - ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar;

vasiylik va homiylik - ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ularga ta‘minot, tarbiya hamda ta‘lim berish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Vasiylik o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan, homiylik esa o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan bolalarga nisbatan belgilanadi;

etim bola - otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e‘lon qilingan bola;

jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola - nogironlikni belgilash uchun yetarli bo'lmagan jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bola;

ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar - yuzaga kelgan holatlar sababli og'ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalar, shu jumladan,:

nogiron bolalar;

jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar;

etim bolalar;

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar;

ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar;

muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan bolalar;

kam ta'minlangan oilalardagi bolalar;

jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida turgan bolalar;

zo'ravonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar;

nogiron bola - jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lganligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordamga, himoyaga muhtoj hamda qonunda belgilangan tartibda nogiron deb topilgan bola;

ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar - qonunda belgilangan tartibda bolaga nisbatan ota-onalik huquqini amalga oshiruvchi va ota-onalik majburiyatlarini bajaruvchi, lekin bolaning ota-onasi bo'lmagan shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar);

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola - har qanday sababga ko'ra ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola, bundan yetim bola mustasno.

4-modda. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosati

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;

bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash;

bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish;

bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligini ta'minlash;

bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va ahloqiy kamol topishiga ko'maklashish;

bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik va tinchliksevarlik tuyg'ularini tarbiyalash;

bolani O'zbekiston xalqining tarixiy va milliy an'analari, ma'naviy qadriyatlari hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish;

bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish;

bolalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

bolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish;

bola huquqlarini ta'minlash maqsadida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik qilish;

bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

bolalarning ijtimoiy ko'nikmasiga, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirishga ko'maklashish.

5-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha vakolatlari

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'z vazifalari doirasida quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish;

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash;

bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini ijro etish;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari hamda hududiy dasturlarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish;

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat organlari, bolalar muassasalari, tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga doir tadbirlarni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish;

davlatga qarashli bolalar muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va nodavlat bolalar muassasalarini rivojlantirishga ko'maklashish chora-tadbirlarini ko'rish;

bola huquqlarini ta'minlash masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish hamda xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifodalash;

axborot-ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash masalalarini hal etish.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, davlat organlari va boshqa organlarning, tashkilotlarning bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bola huquqlari bo'yicha vakolatli organ tashkil etilishi mumkin.

6-modda. Bola huquqlarini ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda va himoya qilishda ko'maklashadi, bolaga yoki uning qonuniy vakiliga huquqiy, uslubiy, axborotga oid va boshqa yordam ko'rsatadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari:

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda hamda ro'yobga chiqarishda ishtirok etishi;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga doir vakolatlarni amalga oshirishda davlatdan va xalqaro tashkilotlardan uslubiy, tashkiliy hamda moliyaviy yordam olishi mumkin.

2-BOB. BOLA HUQUQLARINING ASOSIY KAFOLATLARI

7-modda. Bola huquqlarining qonuniy kafolatlari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq har bir bolaga inson hamda fuqaro huquqlari va erkinliklari tegishli bo'ladi hamda davlat tomonidan kafolatlanadi.

Nikohda va nikohsiz tug'ilgan bolalar teng hamda har taraflama himoyadan foydalanadi.

Davlat bolaning barcha shakllardagi kamsitishlardan himoya qilinishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radi.

Bola huquqlari cheklanishi mumkin emas, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

8-modda. Bolaning yashash huquqi kafolatlari

Yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqidir. Bola hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

Davlat sog'lom bolaning tug'ilishi va rivojlanishini ta'minlash uchun sharoit yaratadi.

9-modda. Bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo'lgan huquqi kafolatlari

Har bir bola tug'ilgan paytdan e'tiboran familiya, ism, ota ismi olish, millati va fuqaroligiga ega bo'lish huquqiga, shuningdek ularni saqlab qolish huquqiga ega.

10-modda. Bolaning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlari

Har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turar joyi daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish huquqiga ega.

Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayri qonuniy aralashuvlardan himoyalanih huquqiga ega.

Bola qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas.

Davlat bolaning shaxsi, turar joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiyaning barcha shakllaridan, shu jumladan, jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qiynoqqa solishlardan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, jinoiy faoliyatga, fohishalik bilan shug'ullanishga jalb etilishdan himoya qilishni amalga oshiradi.

11-modda. Bolaning himoyaga bo'lgan huquqi kafolatlari

Har bir bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi, ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror, sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetguncha qonunga muvofiq to'la muomalaga layoqatli deb e'tirof etilgan (emansipatsiya) bola o'z huquqlarini, shu jumladan,, himoyaga bo'lgan

huquqini mustaqil amalga oshirishga hamda majburiyatlarini mustaqil bajarishga haqlidir.

Bola ota-ona va ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan qilinadigan suiiste'molliklardan himoyalaniish huquqiga ega.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan,, ota-ona (ulardan biri) yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab vasiylik va homiylik organiga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqli.

Bolaning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganidan, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligidan xabardor bo'lgan shaxslar bu haqda bola haqiqatda turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma'lum qilishlari shart. Shunday ma'lumotlar olingan taqdirda, vasiylik va homiylik organi bolaning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilish bo'yicha zarur choralar ko'rish shart.

12-modda. Bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Davlat bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlashni kafolatlaydi, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularga ijtimoiy yordam ko'rsatilishini ta'minlaydi.

13-modda. Bolaning oilaviy muhitga bo'lgan huquqi kafolatlari

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ular bilan birga yashash va ularning g'amxo'rligidan foydalanish huquqiga ega, uning manfaatlariga zid bo'lgan hollar bundan mustasno.

Bolaning ota-onasi bo'lmaganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda hamda bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada yashash hamda tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.

Bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota va onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmaydi.

Ota va ona turli davlatlarda yashagan taqdirda ham bola ular bilan ko'rish huquqiga ega.

Ekstremal vaziyatlarga (ushlab turish, hibsga olish, qamoqqa olish, davolash muassasasida bo'lish va boshqa hollarda) tushib qolgan bola o'z ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rish huquqiga ega.

14-modda. Bolaning g‘ayriqonuniy ko‘chirilishdan himoyalanih huquqi kafolatlari

Har bir bola g‘ayriqonuniy ko‘chirilishdan va chet eldan qaytarilmaslikdan himoyalanih huquqiga ega.

Bolaning chet elga safarlari faqat ota va onaning yoki ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslarning roziligi bilan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Ushbu masala bo‘yicha ota va ona yoki ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘rtasidagi har qanday kelishmovchilik sud tomonidan hal qilinadi.

Ota-ona yoki ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslar bolaning yo‘qolganligi haqida tegishli organlarga darhol xabar berishlari shart.

Ota-ona yoki ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslar hamrohligida bo‘lmagan bolalar ularning yoniga kafolatli qaytarilish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonolari chet elda qonuniy vakillari hamrohligisiz turgan bolalarning - O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hisobini yuritadi va ularning qaytarilishi bo‘yicha choralar ko‘radi. Ota-onasi bedarak yo‘qolgan deb topilgan yoki ular vafot etgan deb e‘lon qilingan taqdirda, vasiylik va homiylik organi ana shu bolalarni oilaga, bunday imkoniyat bo‘lmaganda esa yetim bolalar yoki ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalarga joylashtirish choralarini ko‘radi.

Qonuniy vakillari hamrohligisiz chet elda turgan bolalarni qaytarish masalalari O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida hal qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq davlat ijro etish maqsadlari, shakllari va usullaridan qat’i nazar, bolalarni g‘ayriqonuniy ko‘chirishning oldini olish, shuningdek ularni doimiy yashaydigan mamlakatiga qaytarish choralarini ko‘radi.

15-modda. Bolaning o‘z fikrini ifoda etish huquqi kafolatlari

Oilada har bir bola o‘z fikrini ifoda etishga, shuningdek har kanday sud muhokamasi yoki ma‘muriy muhokama davrida o‘z manfaatlariga taalluqli masalalar yuzasidan so‘zlashga haqlidir.

16-modda. Bolaning axborot olish huquqi kafolatlari

Har bir bola o‘zining sog‘lig‘i, ahloqiy va ma‘naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan axborotni olish huquqiga ega.

Har bir bola har qanday axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega, qonunda nazarda tutilgan cheklashlar bundan mustasno.

Pornografiya, shafqatsizlik va zo‘ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanadi.

17-modda. Bolaning fikrlash, so‘z, vijdon va e’tiqod erkinligi huquqi kafolatlari

Bola fikrlash, so‘z, vijdon va e’tiqod erkinligi huquqiga ega.

Bolaning fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi qonunda belgilangan tartibda cheklanishi mumkin.

18-modda. Bolaning xususiy mulkka bo‘lgan huquqi kafolatlari

Bola qonunda belgilangan tartibda xususiy mulk huquqiga ega bo‘lishi mumkin.

Bolaning shaxsiy foydalanishida bo‘lgan, bola tomonidan hadya, meros tariqasida olingan, shaxsiy mehnati evaziga yoki boshqa qonuniy usulda olingan buyumlar, mol-mulk uning xususiy mulkidir.

19-modda. Bolaning turar joyga bo‘lgan huquqlari kafolatlari

Har bir bola turar joyli bo‘lish huquqiga ega. Mazkur huquq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Turar joy mulkdorining yoki turar joyni ijaraga oluvchining oila a’zolari bo‘lgan bolalar ular qayerda bo‘lishlaridan qat’i nazar, turar joy mulkdori yoki turar joyni ijaraga oluvchisi egallab turgan turar joyga nisbatan huquqqa ega bo‘ladi.

Tarbiya, davolash muassasalari va boshqa muassasalarda, qarindoshlari, vasiylari yoki homiylari qaramog‘ida bo‘lgan yetim bolalar, ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar turar joyga bo‘lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi.

Vasiylik yoki homiylik belgilangan bolaning mulkida yoki foydalanishida bo‘lgan turar joyni o‘zga shaxsga o‘tkazish uchun vasiylik yoki homiylik organining roziligi talab qilinadi.

20-modda. Bolaning mehnat qilish huquqi kafolatlari

Har bir bola o'zining yoshi, sog'lig'ining holati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat qilish, faoliyat turini va kasbni erkin tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega.

Ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi.

Bolalarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtida bajarishi uchun - ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi. (O'zR 25.12.2009 y. O'RQ-239-son Qonuni tahriridagi qism)

Davlat o'n sakkiz yoshga to'lmagan ishlovchi shaxslarga ishni ta'lim bilan qo'shib olib borishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa choralarni ko'rish orqali bolaning mehnat qilish huquqi ta'minlanishini kafolatlaydi.

21-modda. Bolaning dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqi kafolatlari

Har bir bola o'zining yoshi, sog'lig'i hamda ehtiyojlariga mos keladigan dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqqa ega.

Ota-ona yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z qobiliyatlari hamda imkoniyatlariga muvofiq bolaning har tomonlama kamol topishi va farovonligi uchun zarur turmush sharoitini ta'minlaydi.

Bolalar sog'lomlashtirish, sport, ijodiy tashkilotlari hamda dam olishni va bo'sh vaqtni uyushtiruvchi boshqa tashkilotlar qonun hujjatlariga muvofiq davlat organlari tomonidan ta'sis etiladi va qo'llab-quvvatlanadi.

22-modda. Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi kafolatlari

Har bir bola sog'lig'ini saqlash huquqiga ega.

Davlat sog'lom bola tug'ilishini ta'minlash uchun onaga uning sog'lig'ini saqlash sharoitlarini yaratadi.

Davlat bolalarga qonun hujjatlariga muvofiq hajmda bepul tibbiy yordamni kafolatlaydi.

Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi davlat tomonidan quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishini tashkil qilish;

bolaning, uning ota-onasining salomatligini nazorat qilish va bolalar kasalliklari profilaktikasi;

bolalar va o'smirlarni davolash-profilaktika muassasalarida dispanser kuzatuvini olib borish hamda davolash;

talab darajasidagi sifatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi va sotilishini nazorat qilish;

bolaning fiziologik xususiyatlari va sog'lig'i holatiga javob beradigan ta'lim olish hamda mehnat qilish sharoitlarini yaratish;

kasbga yaroqlilikni aniqlashda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bepul tibbiy maslahat berish;

sanitariya-gigiyena ta'limi berish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va rag'batlantirish;

sog'lig'ining holati to'g'risida bola uchun qulay bo'lgan tarzda zarur axborotni taqdim etish.

O'n to'rt yoshdan katta yoshdagi bola ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega.

Bola bilan uning hayotiga, sog'lig'i va normal rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi har qanday ilmiy tajriba yoki boshqa eksperimentlar o'tkazish taqiqlanadi.

Davlat maxsus cheklovlarni joriy etish va maxsus profilaktika dasturlarini amalga oshirish orqali bolani alkogolga moyillikdan, chekishdan, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalar va intellektual-irodaviy faoliyatga ta'sir ko'rsatadigan boshqa moddalarni iste'mol qilishdan himoya qilish bo'yicha zarur choralarini ko'radi.

23-modda. Bolaning bilim olish huquqi kafolatlari

Har bir bola bilim olish huquqiga ega.

Davlat bolaning bepul majburiy umumiy o'rta ta'lim, shuningdek o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi olishini kafolatlaydi.

3-BOB. IJTIMOIIY HIMOYAGA MUHTOJ BOLALAR HUQUQLARINING QO'SHIMCHA KAFOLATLARI

24-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning oila muhitiga bo'lgan huquqi kafolatlari

Davlat bolaning oilada bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi sharoitlarni bartaraf qilish, bola oilasidan ajratilgan hollarda esa uni oilasiga tezroq qaytarish bo'yicha zarur choralarini ko'radi.

Davlat nogiron bolalarni hamda jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga moddiy yordam, maslahat yordami va boshqa yordam ko'rsatadi hamda ularni qo'llab-quvvatlaydi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola to'g'risida g'amxo'rlik qilishda imtiyozli huquq bu vazifani bajarishga qodir bo'lgan qarindoshlariga beriladi.

Bolani oilaga joylashtirishning imkoniyati bo'lmagan taqdirda, uni ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirish oxirgi choradir.

Oilada tarbiyalanishi mumkin bo'lmagan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar ularga zarur g'amxo'rlikni hamda qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan muqobil shaklda joylashtirilish huquqiga ega.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirishning shakllari quyidagilardir:

vasiylik va homiylikni belgilash;

bolani farzandlikka olish;

oilaga tarbiyaga olish (patronat);

ixtisoslashtirilgan tarbiya, davolash muassasalariga, ijtimoiy himoya muassasalariga joylashtirish.

Qonun hujjatlariga muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirishning boshqa shakllari ham nazarda tutilishi mumkin.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

25-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatga uyg'unlashish huquqi kafolatlari

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar jamiyat hayotida ishtirok etishda boshqa bolalar bilan teng huquqlarga egadir.

Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va ular oilalarining jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash uchun ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmaslik shartlari asosida dasturlar ishlab chiqish tashabbuskori bo'ladi hamda zarur resurslar ajratadi.

Ta'lim, tibbiyot va madaniy-ma'rifiy muassasalar nogiron bolalar hamda jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning erkin harakatlanishlari uchun moslashtirilgan bo'lishi kerak.

Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni reabilitatsiya qilish tizimini shakllantirish va rivojlantirishni tashkil etadi hamda bunga ko'maklashadi.

Nogironlik belgilangan paytdan boshlab bola tegishli davlat organlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan yakka tartibdagi reabilitatsiya dasturidan foydalanish huquqiga ega.

26-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning turar joyga bo'lgan huquqlari kafolatlari

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, to'liq davlat ta'minotida turgan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarini bitirgan yoki jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilingan bolalar, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan boshqa toifadagi bolalar o'zlari ilgari yashagan turar joy-maydoniga ega bo'lish yoki qonun hujjatlariga muvofiq turar joy olish huquqiga ega.

27-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning

ijtimoiy yordam olishga bo'lgan huquqi kafolatlari

Ijtimoiy yordam uni olish huquqiga ega bo'lgan har bir bolaga tayinlanadi.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish miqdori, shartlari va tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yetim bolalarga va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'lim berish hamda ularni ta'minlash qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda to'liq davlat ta'minoti asosida amalga oshiriladi.

Davlat organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir bolaga, bolalarning joylashtirilishi shaklidan qati nazar, moddiy va boshqa sharoitlarni ta'minlaydi.

Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan homiylik dasturlarini qonun hujjatlariga muvofiq rag'batlantiradi.

28-modda. Nogiron bolalar, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning tibbiy-ijtimoiy yordam olishga bo'lgan huquqi kafolatlari

Nogiron bolalar tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga ega bo'lib, bu profilaktika, davolash-tashxis qo'yish, reabilitatsiya, sanatoriy-kurort, protez-ortopediya yordamini, harakatlanish vositalari bilan imtiyozli shartlarda ta'minlanishni va boshqa yordam turlarini o'z ichiga oladi.

Nogiron bolalar davlat sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi muassasalarida bepul tibbiy-ijtimoiy yordam olish, o'z uylarida parvarish qilinish huquqiga ega.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tartibi, ularga beriladigan imtiyozlar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, homiylik va boshqa jamg'armalarning mablag'lari hisobidan, shuningdek ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslarning mablag'lari hisobidan ijtimoiy muhofaza tizimi muassasalarida saqlanishlari mumkin.

29-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta'lim olish huquqi kafolatlari

Davlat maxsus pedagogik yondashuvga ehtiyoji bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning belgilangan ta'lim standartlari va talablari darajasida bilim olishlarini kafolatlovchi zarur mablag'lar ajratadi hamda boshqa choralar ko'radi.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va nogiron bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim

muassasalarida o‘qish va tarbiyalanish hamda o‘z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo‘lgan ta’lim olish huquqiga ega.

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning tavsiyasi bo‘lgan taqdirda, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar va nogiron bolalarning ota-onalari o‘z xohish-istagiga ko‘ra hamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta’lim (umumta’lim yoki ixtisoslashtirilgan) muassasasi turini tanlash huquqiga ega.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishda qonun hujjatlari bilan imtiyozlar belgilanishi mumkin.

4-BOB. YaKUNLOVChi QOIDALAR

30-modda. Nizolarni hal etish

Bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

31-modda. Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

32-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. Karimov

O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
29.09.2010 y. №O‘RQ-263

**VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA NAZORATSIZLIK
VA HUQUQBUZARLIKLARNING PROFILAKTIKASI TO‘G‘RISIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2010-yil 12-avgustda qabul qilingan
Senat tomonidan 2010-yil 28-avgustda ma’qullangan

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

**2-modda. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va
huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari**

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun hamda boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

voyaga yetmagan - o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxs;

voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi - voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan - voyaga yetmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan yoxud uni ta’minlash, tarbiyalash va unga ta’lim berish

talablariga javob bermaydigan sharoitda bo'lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila - ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan oila;

nazoratsiz - ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

yakka tartibdagi profilaktika ishi - ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyat;

qarovsiz - aniq yashash joyi bo'lmagan nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar - voyaga yetmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug'ullanishida ifodalanadigan xatti-harakatlari, shuningdek o'zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari.

4-modda. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalari

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish;

voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish.

5-modda. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy prinsiplari

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

insonparvarlik;

tizimlilik;

oilani qo'llab-quvvatlash va u bilan o'zaro hamkorlik qilish;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarning tarbiyasiga yakka tartibda yondashish.

6-modda. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatni axborot bilan ta'minlash

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek fuqarolar:

prokuratura organlarini - voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to'g'risida;

voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarni - voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to'g'risida, shuningdek voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar faoliyatida yo'l qo'yilgan kamchiliklar to'g'risida;

vasiylik va homiylik organlarini - yetim bolalar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoxud hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'diradigan yoxud ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo'lgan bolalar to'g'risida;

mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarini - ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan hamda davlatning ijtimoiy yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalar aniqlanganligi to'g'risida;

ichki ishlar organlarini - ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalar, huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etgan voyaga yetmaganlar to'g'risida, shuningdek voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga jalb qilayotgan yoxud ularga nisbatan boshqa g'ayrihuquqiy qilmishlar sodir etayotgan ota-onalar va o'zga shaxslar haqida;

sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalarini - muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aqliroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishi oqibatida tibbiy tekshiruvga, kuzatuvga yoki davolanishga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlar to'g'risida;

ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalarini - ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarini yoki boshqa bolalar muassasalarini o'zboshimchalik bilan tark etgan yoxud ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoki muntazam ravishda qatnashmayotgan hamda davlatning ijtimoiy

yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlar to'g'risida zudlik bilan xabardor qiladi.

7-modda. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning ishtiroki

Ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar bolalarini ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajara borib, ularning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i muhofaza qilinishini, nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining profilaktikasini ta'minlash maqsadida:

ta'lim muassasalarida o'qiyotgan voyaga yetmaganlarning o'qish vaqtida restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, Internet tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalarda yoxud boshqa ko'ngilochar (dam olish) joylarda bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, bundan mazkur muassasalarda ta'lim faoliyati yoki ta'lim muassasasi tomonidan o'tkaziladigan tadbir doirasida bo'lishi mustasno;

voyaga yetmaganlarning spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishiga, chekishiga yo'l qo'ymaslik;

voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'radi.

Ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarning restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, Internet tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalarda yoxud boshqa ko'ngilochar (dam olish) joylarda tungi vaqtda ulardan birining kuzatuvisiz bo'lishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'radi.

2-BOB. VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA NAZORATSIZLIK VA HUQUQBUZARLIKLARNING PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRUVCHI ORGANLAR HAMDA MUASSASALAR VA ULARNING VAKOLATLARI

8-modda. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimi

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar;

ichki ishlar organlari;

ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari;

vasiylik va homiylik organlari;

sogʻliqni saqlashni boshqarish organlari va sogʻliqni saqlash muassasalari;
mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari.

Ushbu moddaning birinchi qismida koʻrsatilmagan organlar hamda muassasalar voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etadi.

9-modda. Voyaga yetmaganlar ishlari boʻyicha komissiyalar

Voyaga yetmaganlar ishlari boʻyicha komissiyalar oʻz vakolatlari doirasida:

voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini taʼminlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik, huquqbuzarliklar va boshqa gʻayriijtimoiy xatti-harakatlarning profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini taʼminlash boʻyicha kompleks tadbirlarni ishlab chiqadi, shuningdek ushbu tadbirlarning roʻyobga chiqarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini taʼminlash sohasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarning ijobiy ish tajribalarini umumlashtiradi va ommalashtiradi, ularga tashkiliy-uslubiy yordam koʻrsatadi;

voyaga yetmaganlar, pedagogik jamoalar va jamoatchilik oʻrtasida huquqiy targʻibotni olib boradi;

voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarda voyaga yetmaganlarni saqlash, tarbiyalash va ularga taʼlim berish sharoitlarini nazorat qiladi;

voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan oʻquv-tarbiya muassasalariga joylashtirish toʻgʻrisidagi iltimosnoma bilan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa masalalar boʻyicha sudga murojaat qiladi;

taʼlim muassasalarining voyaga yetmaganlarni mazkur muassasalardan chiqarish toʻgʻrisidagi iltimosnomalarini koʻrib chiqadi;

voyaga yetmaganlarning, ularning ota-onasi yoki ota-ona oʻrnini bosuvchi shaxslarning, shuningdek boshqa shaxslarning voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilishi bilan bogʻliq shikoyatlari va arizalarini koʻrib chiqadi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki ixtisoslashtirilgan oʻquv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlarga ishga joylashish va

turmushini yo'lga qo'yishda yordam ko'rsatadi, davlatning ijtimoiy yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlarni joylashtirish shakllarini belgilashda ko'maklashadi;

huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarni qayta tarbiyalashda ota-onaga yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarga yordam berish uchun zarur tayyorgarlikka, hayotiy tajribaga yoki bolalar bilan ishlash tajribasiga ega bo'lgan fuqarolarni ularning roziligi bilan jalb qiladi;

o'z majlislariga mansabdor shaxslar, mutaxassislar va boshqa shaxslarni ko'rilyotgan masalalar yuzasidan axborot hamda tushuntirishlar olish uchun taklif qiladi;

voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishini bartaraf etish, tarbiya-profilaktika faoliyatini yaxshilash maqsadida davlat organlari va boshqa tashkilotlarga taqdimnomalar kiritadi;

voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi hollari to'g'risida prokuratura organlariga xabarlar yuboradi;

davlat organlari va boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslari voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarning qarorlarini bajarmagan, shuningdek voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarning voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishini bartaraf etishga doir taqdimnomalarida ko'rsatilgan choralarni ko'rmagan hollarda, ularni javobgarlikka tortish to'g'risida tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlarga takliflar kiritadi;

voyaga yetmaganlar, ularning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan ta'sir choralarni belgilangan tartibda qo'llaydi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarning tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

10-modda. Ichki ishlar organlari

Ichki ishlar organlari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi maxsus bo'linmalari voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalaridan hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlaridan (bundan buyon matnda ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi deb yuritiladi) iboratdir. Ichki ishlar organlarining boshqa bo'linmalari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida o'z vakolatlari doirasida ishtirok etadi hamda zarur yordam ko'rsatadi.

11-modda. Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalari

Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalari o'z vakolatlari doirasida:

yakka tartibdagi profilaktika ishini olib boradi;

qidiruv e'lon qilingan voyaga yetmaganlarni, shuningdek ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni aniqlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi hamda belgilangan tartibda ularni voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi tegishli organlarga yoki muassasalarga yuboradi;

voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga jalb qilayotgan yoxud voyaga yetmaganlarga nisbatan boshqa g'ayrihuquqiy qilmishlar sodir etayotgan shaxslarni, shuningdek voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud voyaga yetmaganlarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalarni yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni aniqlaydi hamda ularga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir choralarni qo'llash to'g'risida tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlarga takliflar kiritadi;

voyaga yetmaganlarning, ularning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning, shuningdek boshqa shaxslarning voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqadi;

huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir choralarni qo'llash to'g'risida voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi tegishli organlar va muassasalarga takliflar kiritadi;

voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga yoki ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga belgilangan tartibda joylashtirish uchun ularga taalluqli hujjatlarni tayyorlaydi;

voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligi, huquqbuzarliklari yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari faktlari, shuningdek ularga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlar to'g'risida tegishli davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarni xabardor qiladi;

huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarni, shuningdek nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ichki ishlar organlariga olib boradi, bu haqda zudlik bilan bayonnoma tuzadi hamda voyaga yetmaganlar keltirilganligi haqida ularning ota-onasini yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni xabardor qiladi;

voyaga yetmaganlarning yashash, o'qish (ish) joyidagi ta'lim, madaniy-ko'ngilochar, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida, boshqa tashkilotlarda, to'garaklar va klublarda voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ahvolini o'rganadi;

voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida tegishli davlat organlariga hamda boshqa tashkilotlarga takliflar kiritadi;

voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklari yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari to'g'risidagi materiallarning tegishli organlar va muassasalar tomonidan ko'rib chiqilishida ishtirok etadi;

voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning, voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan otanonalar yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning hisobini yuritadi, shuningdek statistika hisobotini tuzish uchun zarur bo'lgan axborotni yig'adi va umumlashtiradi;

etim bolalar hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda vasiylik va homiylik organlariga ko'maklashadi.

Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12-modda. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari

Ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari o'z vakolatlari doirasida:

uch yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning shaxsini aniqlash, hayoti, sog'lig'ini muhofaza qilish yoki ular tomonidan takroran huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida ularni kecha-kunduz qabul qilishni hamda vaqtincha saqlashni ta'minlaydi;

olib kelingan voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini olib boradi, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlaydi hamda bu haqda tegishli davlat organlarini va boshqa tashkilotlarni xabardor qiladi;

voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga olib boradi, shuningdek ushbu muassasalarda saqlanayotgan voyaga yetmaganlarni joylashtirish bo'yicha boshqa chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga quyidagi voyaga yetmaganlar joylashtirilishi mumkin:

nazoratsiz yoki qarovsiz qolganlar;

ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarini, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalarini yoxud boshqa bolalar muassasalarini o'zboshimchalik bilan tark etganlar;

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan o'n olti yoshgacha bo'lganlar;

ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetishga qodir bo'lmaganlar, agar voyaga yetmaganlarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash yoki ular tomonidan takroran ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olish zarur bo'lsa, shuningdek ularning shaxsi aniqlanmagan yoxud ularning aniq yashash joyi bo'lmasa yoki o'zlari ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo'lsa;

ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan huquqbuzarliklarni sodir etganlar, agar ularning shaxsi aniqlanmagan bo'lsa yoxud ularning aniq yashash joyi bo'lmasa yoki o'zlari huquqbuzarliklar sodir etgan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo'lsa;

o'zining ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirilishi to'g'risidagi masalaning sud tomonidan ko'rib chiqilishini vaqtincha kutib turganlar;

sudning ajrimiga ko'ra ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga yuborilayotganlar.

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish uchun sudning ajrimi asos bo'ladi.

Voyaga yetmagan ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga ichki ishlar organi yoki ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi boshlig'ining yoxud uning o'rinbosarining qarori asosida joylashtirilishi mumkin. Bu holda voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma va uni mazkur markazga joylashtirish zaruratini tasdiqlovchi materiallar voyaga yetmagan markazga joylashtirilganidan keyin 48 soatdan kechiktirmasdan sudga yuboriladi.

Ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi boshlig'i yoki uning o'rinbosari voyaga yetmaganning ushbu markazga joylashtirilganligi to'g'risida mazkur markaz joylashgan yerdagi prokurorni va voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyani zudlik bilan, lekin 24 soatdan kechiktirmasdan xabardor qiladi.

Voyaga yetmaganlar ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida ularni joylashtirish uchun zarur bo'lgan eng kam vaqt davomida, lekin ko'pi bilan o'ttiz kun bo'lishi mumkin. Alohida hollarda bu muddat sudning ajrimi asosida o'n besh kungacha uzaytirilishi mumkin.

Ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida voyaga yetmaganning bo'lishi muddatiga quyidagilar kirmaydi:

ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida sog'liqni saqlashni boshqarish organi tomonidan e'lon qilingan karantin davri;

voyaga yetmaganing sog'liqni saqlash muassasasining hujjati bilan tasdiqlangan va uni oilaga qaytarishga yoki tegishli muassasaga yuborishga to'sqinlik qilayotgan kasalligi davri;

sudning iltimosnomani qanoatlantirish va voyaga yetmaganini ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi ajrimi ustidan berilgan shikoyatning (protestning) ko'rib chiqilish vaqti.

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

13-modda. Ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari

Ta'limni boshqarish organlari o'z vakolatlari doirasida:

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirishga, ularga axloq va sog'lom turmush tarzi asoslarini singdirishga yo'naltirilgan dasturlar hamda uslublarni ishlab chiqadi va ta'lim muassasalarining ish amaliyotiga joriy etadi;

ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarining, shuningdek voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash vazifalarini amalga oshirayotgan boshqa muassasalarining faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoxud muntazam ravishda qatnashmayotgan voga yetmaganlarni aniqlaydi hamda ularning hisobini yuritadi, ularning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim olishiga doir chora-tadbirlarni ko'radi;

voyaga yetmaganlarga o'z hayot yo'lini va kasb-hunar tanlashida ularning qobiliyati, qiziqishi, moyilligi hamda sog'lig'ining holatiga muvofiq psixologik yordam ko'rsatadi;

rivojlanishida yoki xulq-atvorida nuqsoni bo'lgan voyaga yetmaganlarni aniqlaydigan, ularni kompleks tekshiruvdan o'tkazadigan hamda ularning kelgusidagi ta'minoti, tarbiyasi va ta'limi shakllarini belgilash bo'yicha tavsiyalar tayyorlaydigan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar tuzadi;

yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borishda ishtirok etadi;

ta'lim muassasalarida ommabop sport seksiyalari, texnik va boshqa to'garaklar, klublar tashkil etilishini hamda voyaga yetmaganlarni ularda qatnashishga jalb etishni ta'minlaydi, voyaga yetmaganlarning bandligi va dam olishini tashkil etishda qatnashadi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari hamda boshqa ta'lim muassasalari o'z vakolatlari doirasida:

rivojlanishida yoki xulq-atvorida nuqsoni yoxud o'qishida muammolari bo'lgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik yordam ko'rsatadi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan, shuningdek ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzri sabablarsiz kelmayotgan yoxud muntazam ravishda qatnashmayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlaydi, ularni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berishga doir chora-tadbirlarni ko'radi;

ta'lim muassasalarida ommabop sport seksiyalari, texnik va boshqa to'garaklar, klublar tashkil qiladi hamda voyaga yetmaganlarni ularda qatnashishga jalb etadi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni aniqlaydi hamda ushbu oilalarga o'z bolalarini ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasida yordam ko'rsatadi;

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirishga, ularga axloq va sog'lom turmush tarzi asoslarini singdirishga yo'naltirilgan dasturlar hamda uslublarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlarni ko'radi.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalari o'z vakolatlari doirasida:

voyaga yetmaganlarning ota-onasi vafot etgan, ularning ota-onalari ota-onalik huquqidan mahrum etilgan, ular ota-onalarining ota-onalik huquqi cheklangan, ota-onasi muomalaga layoqatsiz deb topilgan, ota-onasi kasal bo'lgan, ota-onasi uzoq muddat bo'lmagan, ota-onasi bolalarini tarbiyalashdan yoki ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlagan hollarda, shu jumladan, ota-onasi o'z bolalarini ta'lim muassasalaridan, sog'liqni saqlash muassasalaridan, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalaridan va boshqa muassasalardan olishdan bosh tortgan taqdirda, shuningdek bolalar ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash, ularga ta'lim berish, kelgusida ularni joylashtirish va mustaqil hayotga tayyorlash uchun qabul qiladi;

kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalarning voyaga yetmagan bolalarini, faqat otasi yoki onasi bor bo'lgan voyaga yetmaganlarni ushbu oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun qabul qiladi;

mazkur muassasalarda saqlanayotgan voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi;

yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borishda ishtirok etadi.

Ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

14-modda. Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari

Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga ixtisoslashtirilgan maktablar va ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari kiradi.

Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga o'n bir yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan, ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish uchun alohida sharoitlarga muhtoj voyaga yetmaganlar quyidagi hollarda uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga joylashtirilishi mumkin, agar ular:

ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetishga qodir bo'lmagan bo'lsa;

aybliligi to'g'risidagi masala hal qilinmay turib jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan, materiallar voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaga ko'rib chiqish uchun topshirilgan bo'lsa;

ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish tariqasidagi majburlor chorasi qo'llanilgan holda jinoiy jazodan ozod qilingan bo'lsa;

yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilayotganligiga qaramay huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir qilishni davom ettirayotgan bo'lsa.

Voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi, uchinchi va beshinchi xatboshilarida ko'rsatilgan voyaga yetmaganlarga nisbatan ushbu Qonunga muvofiq chiqarilgan sud ajrimi;

ushbu modda ikkinchi qismining to'rtinchi xatboshisida ko'rsatilgan voyaga yetmaganlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq chiqarilgan sud ajrimi.

Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga ushbu muassasalarda saqlash, tarbiyalash va ta'lim berishga to'sqinlik qiladigan kasalligi bo'lgan voyaga yetmaganlar joylashtirilishi mumkin emas.

Voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida saqlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berishga to'sqinlik qiladigan kasalliklar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari o'z vakolatlari doirasida:

voyaga yetmaganlarni o'qitishni, ularning kasb-hunar tayyorgarligini va ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiyasini amalga oshiradi;

voyaga yetmaganlarni saqlashning mazkur muassasalar hududini ko'riqlashni, voyaga yetmaganlarning shaxsiy xavfsizligini va salbiy ta'sirlardan himoyalanganligini, ushbu muassasalar hududiga begona shaxslarning erkin kirishini, bu muassasalarda saqlanayotgan voyaga yetmaganlarning erkin chiqishini cheklashni o'z ichiga olgan maxsus shart-sharoitlarini ta'minlaydi;

voyaga yetmaganlarning mazkur muassasalarni o'zboshimchalik bilan tark etishi holatlari to'g'risida ushbu muassasalar joylashgan yerdagi va voyaga yetmaganlarning yashash joyidagi yoki turgan joyidagi ichki ishlar organlarini xabardor qiladi hamda ichki ishlar organlari bilan birgalikda ularni topish va mazkur muassasalarga qaytarishga doir chora-tadbirlarni ko'radi;

voyaga yetmaganlarning yashash joyidagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga voyaga yetmaganlarning ushbu muassasalardan chiqarilayotganligi to'g'risidagi xabarnomalarni, shuningdek voyaga

yetmaganlarga oid tavsifnomaparni ularni chiqarishdan kamida bir oy oldin yuboradi.

Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari mazkur muassasalar joylashgan yerdagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga quyidagi masalalar yuzasidan taqdimnomalar kiritadi:

voyaga yetmaganlarni boshqa ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga o'tkazish;

voyaga yetmaganlarning mazkur muassasalarda bo'lishini sud tomonidan belgilangan muddat o'tishidan oldin, agar ular xulq-atvori tuzalganligi sababli ushbu ta'sir chorasini qo'llashni davom ettirishga muhtoj bo'lmasa yoki sog'lig'i holatiga ko'ra bu muassasalarda bo'la olmasa, tugatish;

voyaga yetmaganlarni o'qitishni tamomlash zarur bo'lgan taqdirda, ularning ushbu muassasalarda bo'lish muddatini uzaytirish.

Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari to'g'risidagi nizomlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

15-modda. Vasiylik va homiylik organlari

Vasiylik va homiylik organlari o'z vakolatlari doirasida:

etim bolalarni, ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlaydi va ularning hisobini yuritadi hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlikning aniq holatlaridan kelib chiqib, bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydi, shuningdek ularni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish sharoitlari ustidan nazoratni amalga oshiradi;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda voyaga yetmaganlarga nisbatan vasiylik va homiylikni belgilashga doir chora-tadbirlarni ko'radi;

o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganning o'z ish haqi, stipendiyasi yoki boshqa daromadlarini mustaqil tasarruf etish huquqini cheklab qo'yish yoki uni bu huquqdan mahrum qilish to'g'risidagi iltamosnoma bilan sudga murojaat qiladi, bundan voyaga yetmaganning belgilangan tartibda to'la hajmda muomala layoqatini olishi hollari mustasno;

yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borishda ishtirok etadi;

ota-onalik huquqini cheklash yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida da'volar qo'zg'atadi;

ota-onalik huquqini cheklash yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi, shuningdek ota-onalik huquqini tiklash haqidagi ishlarni sudlarda ko'rib chiqishda ishtirok etadi.

Vasiylik va homiylik organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

16-modda. Sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari

Sogʻliqni saqlashni boshqarish organlari va sogʻliqni saqlash muassasalari oʻz vakolatlari doirasida:

voyaga yetmaganlar, ularning ota-onasi yoki ota-ona oʻrnini bosuvchi shaxslar oʻrtasida sanitariya-gigiyena bilimlarini keng yoyishni, shuningdek sogʻlom turmush tarzini targʻib qilishni tashkil etadi;

voyaga yetmaganlar oʻrtasida alkogolizm, chekish, giyohvandlik va zaharvandlik hamda ularning xulq-atvoridagi shu bilan bogʻliq nuqsonlarning profilaktikasi boʻyicha tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini taʼminlaydi;

voyaga yetmaganlar oʻrtasida alkogolizm, chekish, giyohvandlik va zaharvandlikning tarqalishi toʻgʻrisida voyaga yetmaganlar ishlari boʻyicha komissiyalarni xabardor qiladi;

uch yoshgacha boʻlgan adashib qolgan, tashlab ketilgan va ota-onasi qaramogʻidan mahrum boʻlgan boshqa bolalarni kecha-kunduz qabul qilish hamda parvarishlashni amalga oshiradi;

voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalarga, shuningdek voyaga yetmaganlarning ota-onasi yoki ota-ona oʻrnini bosuvchi shaxslarga maslahat yordamini koʻrsatadi;

alkogol taʼsirida mast holatda boʻlgan yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga taʼsir etuvchi boshqa moddalar taʼsiri ostida boʻlgan voyaga yetmaganlarni kecha-kunduz qabul qilishni amalga oshiradi va ularga tibbiy yordam koʻrsatadi;

rivojlanishida yoki xulq-atvorida nuqsoni boʻlgan voyaga yetmaganlarga ixtisoslashtirilgan tashhis hamda davolash-tiklash yordamini koʻrsatadi;

ixtisoslashtirilgan oʻquv-tarbiya muassasalariga yuborilayotgan voyaga yetmaganlarning sogʻligʻi toʻgʻrisida belgilangan tartibda xulosalar tayyorlaydi;

spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga taʼsir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda isteʼmol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilishni tashkil etadi;

jinsiy yoʻl bilan yuqtiriladigan kasalliklarning manbalarini aniqlash, ushbu kasalliklarga chalingan voyaga yetmaganlarni tekshirish va davolashni tashkil etadi.

Sogʻliqni saqlashni boshqarish organlari va sogʻliqni saqlash muassasalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

17-modda. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari oʻz vakolatlari doirasida:

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarga va oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatishda belgilangan tartibda ishtirok etadi;

yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borishda ishtirok etadi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarga va oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish va ularni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilishning zamonaviy uslub hamda texnologiyalaridan foydalanadi;

voyaga yetmaganlarning dam olishini, ijtimoiy muassasalarda ochilgan to'garaklar yoki klublarda ijodiy qobiliyatini rivojlantirishni tashkil etishda ishtirok etadi;

nogiron bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatilishini ta'minlaydi, nogiron bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatlarining kompleks tarmoqlarini rivojlantiradi;

voyaga yetmaganlarni ishga joylashtirish, kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ko'maklashadi, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqadi.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

18-modda. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida madaniyat va sport muassasalari, turizm sohasidagi tashkilotlarning hamda ommaviy axborot vositalarining ishtiroki

Madaniyat va sport muassasalari, turizm sohasidagi tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalari o'z vakolatlari doirasida:

voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

faoliyati voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan bolalar va yoshlar jamoat birlashmalari, ijtimoiy muassasalar, jamoat fondlariga hamda boshqa tashkilotlarga yordam ko'rsatadi;

voyaga yetmaganlarni o'qitishni, ularning bandligi va dam olishini tashkil etishda ishtirok etadi;

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda shakllantirish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi.

Madaniyat va sport muassasalari, turizm sohasidagi tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

19-modda. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtiroki

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar o'z vakolatlari doirasida:

voyaga yetmaganlarning ma'naviy, axloqiy, huquqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasida ishtirok etadi, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga ko'maklashadi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarga va oilalarga yordam ko'rsatadi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko'maklashadi;

voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-BOB. YAKKA TARTIBDAGI PROFILAKTIKA ISHINI TASHKIL ETISH

20-modda. O'ziga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika ishi olib boriladigan shaxslarning toifalari

Yakka tartibdagi profilaktika ishi quyidagi voyaga yetmaganlarga nisbatan olib boriladi:

nazoratsiz yoki qarovsiz qolganlar;

g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etganlar;

ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida yoki ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarida saqlanayotganlar;

ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoki muntazam ravishda qatnashmayotganlar;

ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etganlar;

amnistiya akti asosida yoki qilmish yoxud shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi sababli yoki aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi yoxud yarashilganligi munosabati bilan, shuningdek voyaga yetmaganni jazo qo'llamasdan turib tuzatish mumkin deb e'tirof etilgan hollarda jinoiy javobgarlikdan ozod qilinganlar;

ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmaganlar yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetishga qodir bo'lmaganlar;

jinoyat sodir etganlikda ayblanib, qamoqqa olish bilan bog‘liq bo‘lmagan ehtiyot chorasi qo‘llanganlar;

majburlov choralari qo‘llangan holda jinoiy jazodan ozod qilinganlar;

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinganlar, shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotganligi sababli yoki aybdor o‘z qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan yoxud amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilinganlar;

hukmning ijrosi kechiktirilganlar;

shartli hukm qilinganlar, axloq tuzatish ishlariga yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa jazo turlariga hukm qilinganlar;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganlar yoki ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelganlar;

ruhiy kasallik tufayli sog‘liqni saqlash muassasalarida hisobda turganlar va huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lganlar.

Yakka tartibdagi profilaktika ishi ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oilalarga nisbatan ham olib boriladi.

21-modda. Yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borish asoslari

Yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borish uchun ushbu Qonunning 20-moddasida nazarda tutilgan holatlar, agar ular quyidagi hujjatlarda qayd etilgan bo‘lsa, asos bo‘ladi:

voyaga yetmaganning yoxud uning ota-onasi yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarning voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan o‘ziga yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi arizasida;

sudning hukmi yoki ajrimida;

voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning yoki ichki ishlar organi boshlig‘ining qarorida;

voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi muassasalarga voyaga yetmaganlarni joylashtirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarda;

voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organ yoki muassasa rahbari shikoyatlar, arizalar yoki boshqa xabarlarni tekshirish natijalari bo‘yicha tasdiqlagan xulosada.

22-modda. Yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borish muddatlari

Yakka tartibdagi profilaktika ishi ijtimoiy va boshqa yordam ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan muddatlarda, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va qarovsizligiga, huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlar bartaraf qilinguniga yoki voyaga

yetmaganlar o‘n sakkiz yoshga to‘lguniga yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlar yuzaga kelguniga qadar olib boriladi.

23-modda. Yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilishini tashkil etish

Ichki ishlar organlari ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini uning shaxsi va yon-atrofidagilarning o‘ziga xos xususiyatlarini, sodir etilgan huquqbuzarlik yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarning xususiyatini, oilaviy tarbiya sharoitlarini hisobga olgan holda olib boradi. Ushbu holatlar voyaga yetmagan, uning ota-onasi yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslar, boshqa shaxslar bilan profilaktika suhbatlari o‘tkazish, voyaga yetmaganni uning yashash, o‘qish (ish) joyiga borib ko‘rish, tavsiflovchi materiallarni o‘rganish davomida aniqlanadi.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borish davomida:

voyaga yetmaganning turmush tarzi, aloqalari va niyati aniqlanadi;

voyaga yetmaganga huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oqibatlari tushuntiriladi;

voyaga yetmaganning huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishi sabablari va shart-sharoitlari aniqlanadi hamda ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar ko‘riladi;

voyaga yetmaganni huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etayotgan shaxslar aniqlanadi va ularni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga doir chora-tadbirlar ko‘riladi;

voyaga yetmaganga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslar jalb etiladi;

voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar bilan o‘zaro hamkorlikda voyaga yetmaganni saqlash, tarbiyalash, unga ta‘lim berish, uning bandligi va dam olishini tashkil etish masalalari hal etiladi.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oilalar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borish davomida:

oiladagi muhitni sog‘lomlashtirishga, ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarning bolalarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini bartaraf etishga doir tadbirlar amalga oshiriladi;

ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarga voyaga yetmaganlarni ta‘minlash, tarbiyalash va ularga ta‘lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik, bolalarning xulq-atvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatganlik yoxud ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘lganlik oqibatlari tushuntiriladi;

oilani yashash joyiga borib ko‘rish, tavsiflovchi materiallarni o‘rganish, sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari, ta‘limni boshqarish organlari va ta‘lim muassasalari vakillari, boshqa shaxslar bilan

suhbatlar o'tkazish orqali ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning turmush tarzi hamda niyati aniqlanadi;

ularga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslar jalb etiladi;

voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar bilan o'zaro hamkorlikda voyaga yetmaganlarni saqlash, tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning bandligi va dam olishini tashkil etish masalalari hal etiladi;

voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalar yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llash to'g'risida tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlarga belgilangan tartibda takliflar kiritiladi.

24-modda. O'ziga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilayotgan shaxslarning huquqlari

O'ziga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilayotgan voyaga yetmaganlar, ularning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlar bilan ta'minlanadi.

Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasi yoki ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida saqlanayotgan voyaga yetmaganlar belgilangan tartibda quyidagi huquqlar bilan ta'minlanadi:

ota-onasini yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni voyaga yetmaganlar mazkur muassasalarga olib kelinganligi yoki joylashtirilganligi to'g'risida xabardor qilish;

voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarning qarorlari va mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi organlarga, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga, prokuratura organlariga yoki sudga shikoyat qilish;

odamning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmaydigan insoniy muomalada bo'lish;

cheklanmagan miqdorda telefonda so'zlashuvlar, boshqa aloqa vositalari orqali muloqotlar hamda uchrashuvlar vositasida oilasi bilan aloqada bo'lish, posilkalar, banderollar, yo'qlovlar olish, xat va telegrammalar olish hamda jo'natish;

belgilangan normalar bo'yicha bepul ovqat, kiyim-kechak, poyabzal va ashyoviy ta'minotning boshqa buyumlarini olish.

4-BOB. VOYAGA YETMAGANNI IJTIMOY-HUQUQIY YORDAM KO'RSATISH MARKAZIGA JOYLASHTIRISH TARTIBI

25-modda. Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi materiallarni tayyorlash

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirishni talab qiluvchi holatlar aniqlangan taqdirda, ichki ishlar organlari voyaga yetmagan ichki ishlar organlarining bo'linmalariga keltirilgan paytdan e'tiboran 48 soat ichida voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risida sudga iltimosnoma yuborish uchun materiallarni tayyorlashi shart.

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma va uni mazkur markazga joylashtirish zarurligini tasdiqlovchi materiallar voyaga yetmagan topilgan joydagi yoxud ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi joylashgan yerdagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga ichki ishlar organi boshlig'i yoki uning o'rinbosari tomonidan yuboriladi.

26-modda. Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomaning sud tomonidan ko'rib chiqilishi

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma ichki ishlar organi uni taqdim etgan paytdan e'tiboran 24 soat ichida jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sudyasi tomonidan yopiq sud majlisida yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

O'ziga nisbatan ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma ko'rib chiqilayotgan voyaga yetmagan, prokuror, vasiylik va homiylik organining, ichki ishlar organining vakillari sud majlisida ishtirok etishi shart. Iltimosnomani ko'rib chiqishda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaning vakili va advokat ishtirok etishi mumkin.

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish ichki ishlar organi vakilining voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish zarurligini asoslab beradigan ma'ruzasidan boshlanadi. So'ngra prokuror, o'ziga nisbatan iltimosnoma ko'rib chiqilayotgan voyaga yetmagan, advokat, agar u sud majlisida ishtirok etayotgan bo'lsa, sudda hozir bo'lgan boshqa shaxslar eshitiladi, taqdim etilgan materiallar o'rganiladi.

Ajrim sudya tomonidan alohida xonada chiqariladi.

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, sudya quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

iltimosnomani qanoatlantirish va voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risida;

iltimosnomani qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risida.

Sudyaning voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani qanoatlantirish yoki qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risidagi ajrimi u o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va darhol ijro etilishi lozim.

Sudyaning voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bo'yicha chiqargan ajrimi darhol ichki ishlar organiga ijro etish uchun, voyaga yetmaganga, uning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarga, vasiylik va homiylik organiga, advokatga, agar u sud majlisida ishtirok etgan bo'lsa, ma'lumot uchun yuboriladi.

Sudyaning voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bo'yicha chiqargan ajrimi ustidan sudya mazkur ajrimni chiqargan kundan e'tiboran o'n kun ichida jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudiga voyaga yetmagan, uning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar, vasiylik va homiylik organi hamda advokat tomonidan shikoyat berilishi yoki prokuror tomonidan protest bildirilishi mumkin.

Jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudining, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudining sudyasi voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bo'yicha chiqarilgan ajrim ustidan berilgan shikoyatni (protestni) shikoyat (protest) kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ko'rib chiqadi va quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

sudyaning ajrimini o'zgarishsiz, shikoyatni (protestni) esa qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risida;

sudyaning ajrimini o'zgartirish to'g'risida;

sudyaning iltimosnomani qanoatlantirish va voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi ajrimini bekor qilish haqida;

sudyaning iltimosnomani qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risidagi ajrimini voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish masalasini hal qilgan holda bekor qilish haqida.

27-modda. Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida saqlash muddatini uzaytirish tartibi

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida saqlash muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma va ushbu muddatni uzaytirish zaruratini tasdiqlovchi materiallar ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi boshlig'i yoki uning o'rinbosari tomonidan mazkur markaz joylashgan yerdagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida saqlashning muddati tugashidan kamida uch kun oldin yuboriladi.

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida saqlash muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma ushbu Qonunning 26-moddasida belgilangan tartibda sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

5-BOB. VOYAGA YETMAGANNI IXTISOSLASHTIRILGAN O'QUV-TARBIYA MUASSASASIGA JOYLASHTIRISH TARTIBI

28-modda. Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi materiallarni tayyorlash

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya voyaga yetmaganga nisbatan kelib tushgan uning aybliligi to'g'risidagi masala hal qilinmay turib rad qilingan yoki tugatilgan jinoyat ishi materiallarini yoxud o'ziga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilgan voyaga yetmaganning huquqbuzarligi yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari to'g'risidagi materiallarni ko'rib chiqib, voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish yoki boshqa ta'sir choralarini qo'llash haqida qaror qabul qiladi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, ichki ishlar organlari bu haqda zudlik bilan xabardor qilinadi.

Ichki ishlar organlari voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani sudga yuborish uchun zarur bo'lgan materiallarni o'n kun ichida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya uchun tayyorlashi shart.

Ichki ishlar organlari tegishli davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga zarur hujjatlarni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuboradi. So'rovlar olingan kundan e'tiboran besh kun ichida bajarilishi kerak.

Sog'liqni saqlash muassasalari voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish mumkinligini aniqlash uchun uni tibbiy tekshiruvdan o'gkazadi.

Tibbiy tekshiruv vaqtida voyaga yetmaganda uning ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasida saqlanishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan kasalliklar aniqlangan taqdirda, unga taalluqli materiallar boshqa ta'sir choralarini qo'llash uchun voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaga topshiriladi.

O'ziga nisbatan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish haqidagi materiallar tayyorlanayotgan voyaga yetmagan ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirilishi yoxud ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning nazoratiga topshirilishi mumkin bo'lib, ular voyaga yetmaganning munosib xulq-atvorda bo'lishini va sudning chaqiruviga binoan kelishini ta'minlashi shart. Sudga kelishdan bo'yin tovlayotgan ota-ona yoki ota-ona o'rnini

bosuvchi shaxslar, shuningdek o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmaganlar majburiy keltirilishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar, agar jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilingan yoki jinoyat ishi tugatilgan yoxud jinoiy jazodan ozod qilingan paytdan e'tiboran bir yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirilmaydi.

29-modda. Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani sudga yuborish

Ichki ishlar organi boshlig'i yoki uning o'rinbosari voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish mumkinligi haqidagi masalani ko'rib chiqish uchun voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaga quyidagi hujjatlarni yuboradi:

voyaga yetmaganning o'qish (ish) joyidan ma'lumotnoma va tavsifnoma;

voyaga yetmaganning oilaviy-maishiy turmush sharoitlarini tekshirish dalolatnomasi;

ichki ishlar organining voyaga yetmagan tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar hamda shu sababli ko'rilgan ta'sir choralari haqidagi axborotni o'z ichiga olgan ma'lumotnomasi;

sog'liqni saqlash muassasasining voyaga yetmaganning sog'lig'i holati hamda uni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish mumkinligi haqidagi xulosasi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan hujjatlarni olgach, voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani olingan hujjatlarni, shuningdek jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilingan yoki tugatilgan jinoyat ishi materiallarini ilova qilgan holda uch sutkadan kechiktirmay sudga yuboradi.

30-modda. Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomaning sud tomonidan ko'rib chiqilishi

Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya uni taqdim etgan paytdan e'tiboran 24 soat ichida voyaga yetmaganning yashash joyidagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sudyasi tomonidan yopiq sud majlisida yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

O'ziga nisbatan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma ko'rib chiqilayotgan voyaga yetmagan, uning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar, prokuror, vasiylik va homiylik organining, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaning vakillari sud majlisida ishtirok

etishi shart. Iltimosnomani ko'rib chiqishda ichki ishlar organining vakili va advokat ishtirok etishi mumkin.

Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya vakilining voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish zarurligini asoslab beradigan ma'ruzasidan boshlanadi. So'ngra prokuror, o'ziga nisbatan iltimosnoma ko'rib chiqilayotgan voyaga yetmagan, advokat, agar u sud majlisida ishtirok etayotgan bo'lsa, sudda hozir bo'lgan boshqa shaxslar eshitaladi, taqdim etilgan materiallar o'rganiladi.

Ajrim sudya tomonidan alohida xonada chiqariladi.

Voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, sudya quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

iltimosnomani qanoatlantirish va voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga mazkur majburlor chorasini qo'llash muddatini ko'rsatgan holda joylashtirish to'g'risida;

voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirmay turib tuzalishi mumkinligini tasdiqlovchi holatlar yoki uni mazkur muassasaga joylashtirishga to'sqinlik qiladigan sabablar sudya tomonidan aniqlangan hollarda, iltimosnomani qanoatlantirishsiz qoldirish va materiallarni voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaga voyaga yetmaganga nisbatan boshqa ta'sir choralarini qo'llash uchun yuborish to'g'risida.

Sudyaning voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani qanoatlantirish yoki qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risidagi ajrimi u o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va darhol ijro etilishi lozim.

Sudyaning voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bo'yicha chiqargan ajrimi darhol mazkur ajrimni ijro etishni ta'minlovchi organlar va muassasalarga yuboriladi, voyaga yetmaganga, uning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarga, vasiylik va homiylik organiga, advokatga, agar u sud majlisida ishtirok etgan bo'lsa, ma'lumot uchun yuboriladi.

Sudyaning voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bo'yicha chiqargan ajrimi ustidan sudya mazkur ajrimni chiqargan kundan e'tiboran o'n kun ichida jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudiga voyaga yetmagan, uning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar, vasiylik va homiylik organi, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya hamda advokat tomonidan shikoyat berilishi yoki prokuror tomonidan protest bildirilishi mumkin.

Jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudining, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudining sudyasi voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bo'yicha chiqarilgan ajrim ustidan berilgan shikoyatni (protestni)

shikoyat (protest) kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ko'rib chiqadi va quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

sudyaning ajrimini o'zgarishsiz, shikoyatni (protestni) esa qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risida;

sudyaning ajrimini o'zgartirish to'g'risida;

sudyaning iltimosnomani qanoatlantirish va voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi ajrimini bekor qilish haqida;

sudyaning iltimosnomani qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risidagi ajrimini voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish masalasini hal qilgan holda bekor qilish haqida.

31-modda. Sudning voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma yuzasidan chiqarilgan ajrimini ijro etish

Sudning voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma yuzasidan chiqarilgan ajrimining ijrosini quyidagilar ta'minlaydi:

voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya - voyaga yetmaganga nisbatan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ta'sir choralari qo'llashga taalluqli qismini;

ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi - voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga olib borishga taalluqli qismini;

ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasi - voyaga yetmaganni mazkur muassasada saqlash muddati mobaynida uning tuzalishi va ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishini ta'minlashga taalluqli qismini.

6-BOB. YaKUNLOVChI QOIDALAR

32-modda. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarning moliyaviyva moddiy-texnika ta'minoti

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalarning moliyaviy hamda moddiy-texnika ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

33-modda. Nizolarni hal etish

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

34-modda. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

35-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

36-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. Karimov

O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
02.01.2014 y. №O‘RQ-364

VASIYLIK VA HOMIYLIK TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2013-yil 8-noyabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2013-yil 12-dekabrda ma’qullangan

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi vasiylik va homiylik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Vasiylik va homiylik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Vasiylik va homiylik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining vasiylik va homiylik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

vasiylik - o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta‘minot, tarbiya va ta‘lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli;

homiylk - o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta‘minot, tarbiya va ta‘lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra mustaqil ravishda o‘z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o‘z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga bu shaxslarning iltimosiga ko‘ra homiylik belgilanishi mumkin;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs - o‘ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxs;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar - alohida g'amxo'rlikka, shuningdek o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj bo'lgan yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ota-onalik huquqidan mahrum etilmagan ota-onasi bo'lgan hamda bolalarning hayoti yoki sog'lig'iga bevosita tahdid tug'dirayotgan yoki ularning ta'minoti, tarbiya va ta'lim olishiga doir talablarga javob bermaydigan sharoitda yashayotgan bolalar, sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolar, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan fuqarolar.

4-modda. Vasiylik va homiylik sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Vasiylik va homiylik sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarning o'z vaqtida aniqlanishi, hisobga olinishi va joylashtirilishini ta'minlash;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

vasiylik va homiylik to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash;

bolalarni oilada tarbiyalash shaklining ustuvorligini ta'minlash;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlash;

vasiylik va homiylik sohasida davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash;

vasiylik va homiylik sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

5-modda. Vasiylik va homiylikning asosiy prinsiplari

Vasiylik va homiylikning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

insonparvarlik va mehr-shafqat;

vasiylik va homiylik masalalarida individual yondashuv;

bolalarni oilada tarbiyalash shaklining ustuvorligi;

vasiylik va homiylikka doir majburiyatlarni qabul qilishning va rad qilishning ixtiyoriyligi.

6-modda. Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni qabul qilgan oilani kuzatib borish

Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni qabul qilgan oila joylashgan yerdagi vasiylik va homiylik organlari vasiylikdagi yoki

homiylidagi shaxslarning ijtimoiy va psixologik moslashuvini ta'minlash maqsadida ushbu oilani kuzatib borishni amalga oshiradi.

Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni qabul qilgan oilani kuzatib borish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan maslahat yordami, huquqiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik, tibbiy yordam ko'rsatilishini ko'zda tutadi.

Vasiylikka yoki homiylikka muhtoj bo'lgan shaxslarni qabul qilgan oilani kuzatib borish bepul amalga oshiriladi.

2-BOB. VASIYLIK VA HOMIYLIK SOHASIDAGI FAOLIYATNI AMALGA OSHIRUVCHI DAVLAT ORGANLARI HAMDA ULARNING VAKOLATLARI

7-modda. Vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari

Vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi;

mahalliy davlat hokimiyati organlari.

Vasiylik va homiylik bo'yicha faoliyat:

tuman, shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limlari tomonidan - voyaga yetmaganlarga nisbatan;

tuman, shahar tibbiyot birlashmalari tomonidan - sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarga nisbatan;

tuman, shahar bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan - sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga nisbatan amalga oshiriladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatni ushbu Qonunda va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashaydigan, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek sog'lig'ining holatiga ko'ra mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vasiylik yoki homiylik belgilash chora-tadbirlarini ko'radi.

Vasiylik va homiylik organlaridan tashqari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni aniqlash va joylashtirish bo'yicha faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

8-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vasiylik va homiylik sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
vasiylik va homiylik sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

vasiylik va homiylik sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi;

davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

vasiylik va homiylikni belgilash, shuningdek vasiy va homiy tayinlash tartibini belgilaydi;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulkini hisobga olish davlat reestrini (bundan buyon matnda davlat reestri deb yuritiladi) tashkil etish va yuritish tartibini hamda unga kiritiladigan ma'lumotlar ro'yxatini belgilaydi;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning shaxsiy hujjatlar yig'majildini yuritish va vasiy yoki homiy tomonidan o'z majburiyatlarini bajarishi to'g'risida hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-modda. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklarining vasiylik va homiylik sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklari o'z vakolatlari doirasida:

vasiylik va homiylik sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

vasiylik va homiylik sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi hamda ularni amalga oshirishda ishtirok etadi;

bolalarni oilada tarbiyalash shaklining ustuvorligini ta'minlaydi;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlaydi;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarga munosib turmush va ta'minot sharoitlarini ta'minlaydi;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlovchi davlat muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

ijtimoiy ishlar sohasida vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni maslahat yordami, ijtimoiy-huquqiy, psixologik-pedagogik, tibbiy jihatdan kompleks qo'llab-quvvatlashni ta'minlovchi mutaxassislar tayyorlaydi;

oila va bolalarni qo'llab-quvvatlash muassasalari tarmoqlarini, xizmatlarini, vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarga hamda ularning oilalariga maslahat yordami, huquqiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik, tibbiy yordam va xizmatlar ko'rsatish markazlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi;

vasiylik va homiylik sohasida xalqaro hamkorlikni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vasiylik va homiylik sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida: vasiylik va homiylik sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

vasiylik va homiylik sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi hamda amalga oshiradi;

vasiylik va homiylik sohasidagi vazifalarni bajaruvchi hududiy davlat boshqaruvi organlari faoliyatini nazorat qilishni hamda muvofiqlashtirib borishni amalga oshiradi;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarning, shuningdek vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

davlat reestrini yuritadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Tumanlar, shaharlar hokimlari vasiylikni yoki homiylikni belgilash va tugatish bo'yicha, shuningdek vasiylarni yoki homiylarni o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etish yoxud chetlashtirish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

11-modda. Vasiylik va homiylik organlarining asosiy vazifalari

Vasiylik va homiylik organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni o'z vaqtida aniqlash va hisobga olish;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarning zarur hujjatlarini tayyorlash va ularni joylashtirish;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi hamda vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

vasiyalar va homiylarning majburiyatlari bajarilishini, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning ta'minoti, ularga tarbiya va ta'lim berish sharoitlarini, shuningdek mol-mulki but saqlanishini ta'minlash ustidan nazorat qilish.

12-modda. Tuman, shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limlarining vasiylik va homiylik sohasidagi vakolatlari

Tuman, shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limlari o'z vakolatlari doirasida:

etim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlaydi va ularning hisobini yuritadi;

etim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar haqidagi ma'lumotlarning axborot bazasini yuritadi, ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun taqdim etadi, shuningdek davlat statistika hisobotini tegishli davlat statistika organiga qonun hujjatlarida belgilangan shaklda va muddatlarda taqdim etadi;

etim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risidagi, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulki haqidagi ma'lumotlarni davlat reestriga kiritish uchun tuman, shahar hokimligiga taqdim etadi;

etim bolalarning va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlaydi;

vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan hamda vasiylarga va homiylarga qo'yiladigan talablarga mos bo'lgan shaxslarni tanlashni hamda hisobga olishni amalga oshiradi;

etim bolalarga va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilash uchun zarur hujjatlarni tayyorlaydi;

etim bolalarning va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning turmush va ta'minot sharoitlarini, shuningdek vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan shaxslarning turmush sharoitlarini tekshiruvdan o'tkazadi hamda bu haqda dalolatnoma tuzadi;

etim bolalarga va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilanishi zarurligi, shuningdek vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan shaxsning vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkinligi to'g'risida tuman, shahar hokimiga xulosa beradi;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning shaxsiy hujjatlar yig'majildlarini yuritadi;

vasiyalar va homiylarning o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, ularga vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarni tarbiyalashni, ularning tibbiy kuzatuvini tashkil etishda, ta'lim muassasalariga hamda ishga joylashtirilishida yordam ko'rsatadi;

etim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishni, shuningdek ularning mol-mulki but saqlanishini ta'minlaydi;

vasiylikni yoki homiylikni tugatish to'g'risida, shuningdek ushbu Qonunning 29 va 30-moddalarida nazarda tutilgan hollarda vasiylarni yoki homiylarni o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etish yoxud chetlashtirish haqida tuman, shahar hokimiga iltimosnomalar kiritadi;

bolaning hayotiga yoki sog'lig'iga bevosita tahdid tug'ilgan hollarda uni ota-onasidan yoxud ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan olib qo'yish chora-tadbirlarini ko'radi;

voyaga yetmaganni to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilish (emansipatsiya) to'g'risida homiylarning roziligi bilan qaror qabul qiladi;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari yuzasidan belgilangan tartibda ariza bilan sudga murojaat qiladi, mazkur masalalar yuzasidan ishlarni sud majlislarida ko'rib chiqishda ishtirok etadi;

o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganning o'z ish haqi, stipendiyasi yoki boshqa daromadlarini mustaqil ravishda tasarruf etish huquqini cheklash yoki uni bu huquqdan mahrum etish to'g'risida sudga zarur hollarda ariza bilan murojaat qiladi, voyaga yetmaganning qonunda belgilangan tartibda to'la muomala layoqatiga ega bo'lishi hollari bundan mustasno;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarga tegishincha maslahat yordami, huquqiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik va tibbiy yordam ko'rsatish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash muassasalari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi;

fuqarolarga vasiylik va homiylik masalalari bo'yicha maslahatlar beradi;

fuqarolarning vasiylik va homiylik masalalariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ular yuzasidan zarur choralar ko'radi.

Tuman, shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

13-modda. Tuman, shahar tibbiyot birlashmalarining vasiylik va homiylik sohasidagi vakolatlari

Tuman, shahar tibbiyot birlashmalari o'z vakolatlari doirasida: muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolarni aniqlaydi hamda ularning hisobini yuritadi;

muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar haqidagi ma'lumotlarning axborot bazasini yuritadi, ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun taqdim etadi, shuningdek davlat statistika hisobotini tegishli davlat statistika organiga qonun hujjatlarida belgilangan shaklda va muddatlarda taqdim etadi;

muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar to'g'risidagi, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulki haqidagi ma'lumotlarni davlat reestriga kiritish uchun tuman, shahar hokimligiga taqdim etadi;

muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlaydi;

vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan hamda vasiylarga va homiylarga qo'yiladigan talablarga mos bo'lgan shaxslarni tanlashni hamda hisobga olishni amalga oshiradi;

muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolarga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilash uchun zarur hujjatlarni tayyorlaydi;

muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolarning turmush va ta'minot sharoitlarini, shuningdek vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan shaxslarning turmush sharoitlarini tekshiruvdan o'tkazadi hamda bu haqda dalolatnoma tuzadi;

vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan shaxsning vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkinligi to'g'risida tuman, shahar hokimiga xulosa beradi;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning shaxsiy hujjatlar yig'majildlarini yuritadi;

vasiylik va homiylarning o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, ularga vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarni parvarish qilishni, tarbiyalashni va ularning tibbiy kuzatuvini tashkil etishda yordam ko'rsatadi;

vasiylikni yoki homiylikni tugatish to'g'risida, shuningdek ushbu Qonunning 29 va 30-moddalarida nazarda tutilgan hollarda vasiylarni yoki homiylarni o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etish yoxud chetlashtirish haqida tuman, shahar hokimiga iltimosnomalar kiritadi;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari yuzasidan belgilangan tartibda ariza bilan sudga murojaat qiladi, mazkur masalalar yuzasidan ishlarni sud majlislarida ko'rib chiqishda ishtirok etadi;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarga tegishincha maslahat yordami, huquqiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik va tibbiy yordam ko'rsatish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi;

fuqarolarga vasiylik va homiylik masalalari bo'yicha maslahatlar beradi;

fuqarolarning vasiylik va homiylik masalalariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ular yuzasidan zarur choralar ko'radi.

Tuman, shahar tibbiyot birlashmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

14-modda. Tuman, shahar bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining vasiylik va homiylik sohasidagi vakolatlari

Tuman, shahar bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari o‘z vakolatlari doirasida:

sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarni aniqlaydi va ularning hisobini yuritadi;

sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslar haqidagi ma‘lumotlarning axborot bazasini yuritadi, ma‘lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma‘lumotlar bazasiga kiritish uchun taqdim etadi, shuningdek davlat statistika hisobotini tegishli davlat statistika organiga qonun hujjatlarida belgilangan shaklda va muddatlarda taqdim etadi;

sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslar to‘g‘risidagi, ularning joylashtirilganligi haqidagi ma‘lumotlarni davlat reestriga kiritish uchun tuman, shahar hokimligiga taqdim etadi;

sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarga nisbatan homiylik belgilash uchun zarur hujjatlarni tayyorlaydi;

sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarning turmush va ta‘minot sharoitlarini, shuningdek homiy bo‘lish istagini bildirgan shaxslarning turmush sharoitlarini tekshiruvdan o‘tkazadi va bu haqda dalolatnoma tuzadi;

homiylar bo‘lish istagini bildirgan shaxsning homiy etib tayinlanishi mumkinligi to‘g‘risida tuman, shahar hokimiga xulosa beradi;

homiylardagi shaxslarning shaxsiy hujjatlar yig‘majildlarini yuritadi;

homiylarning o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, ularga homiylikdagi shaxslarning tibbiy kuzatuvini tashkil etishda yordam ko‘rsatadi;

homiylarni tugatish to‘g‘risida, shuningdek ushbu Qonunning 29 va 30-moddalarida nazarda tutilgan hollarda homiylarni o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod etish yoxud chetlashtirish haqida tuman, shahar hokimiga iltimosnomalar kiritadi;

homiylardagi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari yuzasidan belgilangan tartibda ariza bilan sudga murojaat qiladi, mazkur masalalar yuzasidan ishlarni sud majlislarida ko‘rib chiqishda ishtirok etadi;

homiylardagi shaxslarga tegishincha maslahat yordami, huquqiy, ijtimoiy, psixologik va tibbiy yordam ko‘rsatish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sog‘liqni saqlash muassasalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi;

fuqarolarga homiylik masalalari bo‘yicha maslahatlar beradi;

fuqarolarning homiylik masalalariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ular yuzasidan zarur choralar ko‘radi.

Tuman, shahar bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-BOB. VASIYLIK YO'KI HOMIYLIK BELGILANISHIGA MUHTOJ BO'LGAN SHAXSLAR VA ULARNING MOL-MULKI TO'G'RISIDAGI AXBOROT

15-modda. Davlat reestriga kiritish uchun ma'lumotlarni taqdim etish

Vasiylik va homiylik organlari vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar to'g'risidagi, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulki haqidagi ma'lumotlarni davlat reestriga kiritish uchun har oyda tuman, shahar hokimligiga taqdim etadi.

Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsning yashash joyi va uning mulkiy ahvoli o'zgargan taqdirda, vasiylik va homiylik organlari mazkur o'zgarishlar to'g'risida yetti ish kuni ichida tuman, shahar hokimligini xabardor etishi hamda uning shaxsiy hujjatlar yig'majildini mazkur shaxsning yangi yashash joyidagi vasiylik va homiylik organiga yuborishi shart. Bunda shaxsiy hujjatlar yig'majildining ko'chirma nusxasi vasiylik va homiylik organining arxivida qolishi shart.

16-modda. Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar aniqlanganligi to'g'risida vasiylik va homiylik organlariga ma'lumotlar taqdim etish

Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar aniqlanganda, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari, ta'lim muassasalari va sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mazkur shaxslar aniqlangan kundan e'tiboran yetti ish kuni ichida ular haqidagi ma'lumotlarni yozma shaklda vasiylik va homiylik organlariga yuboradi.

Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan bolalar aniqlangan hollarda, vasiylik va homiylik organi bunday ma'lumotlar olingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida ularning turmush va ta'minot sharoitlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshiruvdan o'tkazishi shart.

17-modda. Yashash joyi O'zbekiston Respublikasining boshqa viloyatlari, tumanlari, shaharlari yoki boshqa mamlakat bo'lgan vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj shaxslar aniqlanganda vasiylik va homiylik organlarining majburiyatlari

Yashash joyi O'zbekiston Respublikasining boshqa viloyatlari, tumanlari, shaharlari yoki boshqa mamlakat bo'lgan vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar aniqlangan taqdirda vasiylik va homiylik organlari:

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar aniqlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat reestriga kiritish uchun ular haqiqatda turgan joydagi tuman, shahar hokimligiga taqdim etadi;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxs aniqlanganligi haqida uning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organini xabardor qiladi;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organidan mazkur shaxsning ota-onasi yoki boshqa qarindoshlari, turar joyi va boshqa mol-mulki bor-yo'qligini tasdiqlovchi hujjatlarni oladi;

ularni yashash joyiga qaytarishga ko'maklashadi.

Yashash joyi O'zbekiston Respublikasining boshqa viloyatlari, tumanlari, shaharlari yoki boshqa mamlakat bo'lgan vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar aniqlanganda vasiylik va homiylik organlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

18-modda. Davlat reestrini yuritish

Davlat reestrini tuman, shahar hokimligi yuritadi.

Davlat reestriga vasiylik va homiylik organlaridan kelib tushadigan vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar to'g'risidagi, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulki haqidagi ma'lumotlar kiritiladi.

Davlat reestrini tashkil etish va yuritish tartibi hamda unga kiritiladigan ma'lumotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

4-BOB. VASIYLIK VA HOMIYLIKNI BYeLGILASH. VASIY YoKI HOMIY TAYINLASH

19-modda. Vasiylik va homiylikni belgilash

Vasiylik va homiylik tuman, shahar hokimining qarori bilan belgilanadi.

Vasiylik yoki homiylik vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsning yashash joyi bo'yicha, agar shaxs muayyan yashash joyiga ega bo'lmasa, vasiyning yoki homiyning yashash joyi bo'yicha belgilanadi.

20-modda. Ota-ona yashash joyida vaqtincha bo'lmaganda vasiylik yoki homiylik belgilash

Ota-ona yashash joyida vaqtincha bo'lmaganda, agar bola ular tomonidan olti oydan ortiq muddatga qarindoshlarining yoki boshqa yaqin kishilarining vasiyligida yoki homiyligida va nazorati ostida qoldirilgan bo'lsa, mazkur shaxslarning bolaga nisbatan vasiyligi yoki homiyligi belgilanadi.

Ota-ona yashash joyida olti oydan kam muddatga vaqtincha bo'lmaganda, basharti bola ular tomonidan qarindoshlarining yoki boshqa yaqin kishilarining

vasiyligida yoki homiylikda va nazorati ostida qoldirilgan bo'lsa, vasiylik yoki homiylik, agar bu bolaning manfaatlari uchun zarur bo'lsa, belgilanadi.

21-modda. Vasiy yoki homiy tayinlash

Vasiylik yoki homiylik bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun tuman, shahar hokimining qarori bilan vasiy yoki homiy tayinlanadi.

Voyaga yetgan fuqarolar faqat o'z roziligiga ko'ra vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkin.

Tuman, shahar hokimi vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan shaxsning yozma arizasiga muvofiq vasiy yoki homiy tayinlaydi.

Vasiy yoki homiy tayinlashda uning axloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlarini, majburiyatlarni bajarish qobiliyati, vasiy, homiy va vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs o'rtasidagi munosabatlar, vasiy yoki homiy oilasining vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsga munosabati, shuningdek vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning istagi inobatga olinishi lozim.

Vasiylik yoki homiylik belgilash zarurligi haqida vasiylik va homiylik organlariga ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay vasiy yoki homiy tayinlanishi kerak.

Agar vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsga bir oy ichida vasiy yoki homiy tayinlanmagan bo'lsa, vasiyning yoki homiyning majburiyatlarini bajarish vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxs aniqlangan joydagi tegishli vasiylik va homiylik organining zimmasiga vaqtincha yuklatiladi.

Ota-onasi bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan tegishli vasiylik va homiylik organi ularning ota-onasi yoki qarindoshlari qaramog'ida bo'lmaganligi fakti aniqlangan kundan e'tiboran vasiyning yoki homiyning majburiyatlarini bajaradi.

Vasiylik va homiylik organi vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan shaxs haqidagi ma'lumotlarni olish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlariga, shuningdek sog'liqni saqlash muassasalariga yozma so'rov yuboradi. Bunda vasiylik va homiylik organi fuqaro to'g'risidagi faqat vasiyning yoki homiyning majburiyatlarini bajarish qobiliyatini aniqlash imkonini beradigan axborot taqdim etilishini talab qiladi.

Vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan shaxs haqidagi vasiylik va homiylik organi tomonidan olingan ma'lumotlar mahfiy bo'lib, oshkor qilinmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Yashash joyidan qat'i nazar, vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsning qarindoshlari, u yashayotgan oilaning shaxslari, aka-ukalarni va opa-singillarni ular o'rtasidagi qarindoshlik aloqalarini uzmasdan vasiylikka yoki homiylikka olayotgan shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi fuqarolari vasiy yoki homiy etib tayinlanishda imtiyozli huquqqa ega.

Vasiy va homiy tayinlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

22-modda. Vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkin bo'lmagan shaxslar

Quyidagilar vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkin emas:
ota-onalik huquqidan mahrum etilgan yoki ota-onalik huquqlari cheklangan shaxslar;
sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;
sobiq farzandlikka oluvchilar, agar farzandlikka olish ularning o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganligi, farzandlikka olinganlar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lganligi, surunkali alkogolizm yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lganligi oqibatida bekor qilingan bo'lsa;
o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi yoxud o'z huquqlarini suiiste'mol qilganligi uchun vasiy yoki homiy majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslar;
qasddan sodir etgan jinoyati uchun ilgari hukm qilingan shaxslar.

23-modda. Dastlabki tarzda vasiy yoki homiy tayinlash

Agar vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsning manfaatini ko'zlab unga darhol vasiy yoki homiy tayinlanishi zarur bo'lsa, shu jumladan,, bolalar ota-onasidan yoxud ularning o'rnini bosuvchi shaxslardan olib qo'yilsa vasiylik va homiylik organi bir oy muddatga dastlabki tarzda vasiy yoki homiy tayinlash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Dastlabki tarzda vasiy yoki homiy tayinlash vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan shaxsning arizasiga ko'ra, basharti mazkur shaxs tomonidan o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek vasiylik va homiylik organi tomonidan uning turmush sharoitlarini tekshirish dalolatnomasi, yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organidan olingan ma'lumotnoma va tavsifnoma taqdim etilsa, vasiylik va homiylik organi tomonidan amalga oshiriladi.

Dastlabki tarzda tayinlangan vasiylar yoki homiylar vasiyning yoki homiyning barcha huquqlari va majburiyatlariga ega bo'ladi, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulkini uning nomidan tasarruf etish huquqi bundan mustasno.

Agar vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsga dastlabki tarzda vasiy yoki homiy tayinlash to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy o'tguniga qadar joylashtirishning u yoki bu shakli tanlangan bo'lsa yoxud vaqtincha tayinlangan vasiy yoki homiy unga vasiy yoki homiy etib tayinlanmasa, dastlabki tarzda vasiylik yoki homiylik tugaydi.

24-modda. Shaxsga bir nechta vasiy yoki homiy tayinlash

Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsning qonuniy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, unga tuman, shahar hokimi qarori bilan bir nechta vasiy yoki homiy tayinlanishi mumkin.

Bir nechta vasiy yoki homiy tayinlanganda, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bir vaqtning o'zida barcha vasiylar yoki homiylar tomonidan amalga oshiriladi. Agar vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning ishlarini yuritish vasiylarning yoki homiylarning biriga topshirilsa, bu shaxs qolgan vasiylardan yoki homiylardan ishonchnomalar olgan bo'lishi lozim.

Bir nechta vasiy yoki homiy tayinlanganda, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning parvarish qilinishini ta'minlash va uning tibbiy yordamni o'z vaqtida olishiga ko'maklashishga doir majburiyatlar, vasiylikdagi yoki homiylikdagi voyaga yetmagan shaxsga nisbatan esa, shuningdek ta'minot, tarbiya va ta'lim berishga doir majburiyatlar vasiylik va homiylik organlarining ularni tayinlash haqidagi xulosasiga muvofiq vasiylar yoki homiylar o'rtasida taqsimlanadi.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning va bir vaqtning o'zida barcha vasiylarning yoki homiylarning manfaatlari o'rtasida, shuningdek vasiylar yoki homiylar o'z majburiyatlarini bajarayotganda vasiylar yoki homiylar o'rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga kelgan taqdirda, vasiylik va homiylik organi yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar hal etilguniga qadar vasiyning yoki homiyning majburiyatlarini bajaradi.

25-modda. Bir shaxsni bir nechta vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsga vasiy yoki homiy etib tayinlash

Zarurat bo'lganda, vasiylikka yoki homiylikka olinuvchilarning qonuniy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, tuman, shahar hokimi qarori bilan bir shaxs bir nechta vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsga vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkin.

Shaxsni ikkinchi va undan keyingi vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarga vasiy yoki homiy etib tayinlash to'g'risidagi tuman, shahar hokimi qarorida boshqa shaxs vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkin emasligining sabablari ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Ayni bir vasiy yoki homiy o'z majburiyatlarini bajarayotganda uning vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning manfaatlari o'rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga kelgan taqdirda, vasiylik va homiylik organi yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar hal etilguniga qadar vasiyning yoki homiyning majburiyatlarini bajaradi.

26-modda. Voyaga yetmaganlarga nisbatan ular ota-onasining yoki voyaga yetmaganlarning o'z arizasiga ko'ra vasiy yoki homiy tayinlash

Tuman, shahar hokimi qarori bilan ota-onaning uzrli sabablarga ko'ra o'zlarining ota-onalik majburiyatlarini bajara olmaydigan davr uchun o'zining

voyaga yetmagan bolalariga vasiy yoki homiy tayinlash to'g'risidagi arizasi asosida vasiy yoki homiy tayinlanishi mumkin, ushbu arizada aniq shaxs hamda vasiy yoki homiy vakolatlarining amal qilish muddati ko'rsatiladi.

Voyaga yetmagan bolalarning ota-onasi o'z sog'lig'i holatiga ko'ra bolalariga vasiyni yoki homiyni, agar uning roziligi bo'lsa, belgilashi mumkin. Ota-onaning o'z voyaga yetmagan bolalariga vasiy yoki homiy tayinlash haqidagi arizasi bolalarning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organiga beriladi.

Ota-onaning o'z voyaga yetmagan bolalariga vasiy yoki homiy tayinlash haqidagi arizasi ushbu ariza yozilgan sana ko'rsatilgan holda ularning o'z qo'li bilan imzolangan va notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Ota-ona o'z voyaga yetmagan bolalariga vasiy yoki homiy tayinlash haqidagi arizasini bolalarning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organiga yangi ariza berish yo'li bilan bekor qilishga yoki o'zgartirishga haqli.

O'n to'rt yoshga to'lgan voyaga yetmaganga homiy voyaga yetmaganning aniq shaxs ko'rsatilgan arizasiga ko'ra tuman, shahar hokimi qarori bilan tayinlanishi mumkin.

Tuman, shahar hokimi voyaga yetmaganning otasi (onasi) yoki ota-onasi yoxud o'n to'rt yoshga to'lgan voyaga yetmaganning o'zi ko'rsatgan shaxsni vasiy yoki homiy etib tayinlashni rad etish to'g'risidagi qarorni faqat bunday tayinlash qonun hujjatlariga yoxud voyaga yetmaganning qonuniy manfaatlariga zid bo'lgan taqdirda qabul qiladi.

27-modda. Ota-onalik huquqidan mahrum qilinmagan ota-onasi bo'lgan voyaga yetmaganga vasiy yoki homiy tayinlash

Ota-onalik huquqidan mahrum qilinmagan ota-onasi bo'lgan voyaga yetmaganga vasiy yoki homiy, agar ota-onasi bilan turishi ushbu shaxsning qonuniy manfaatlariga javob bermasligi hamda uning hayoti yoki sog'lig'i uchun bevosita tahdid mavjudligi vasiylik va homiylik organi tomonidan aniqlansa, tayinlanishi mumkin.

Voyaga yetmagan vasiylikda yoki homiylikda bo'lgan davrda vasiylik va homiylik organi uning oilasini ijtimoiy-pedagogik jihatdan rehabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganni oilasiga qaytarish masalalari bo'yicha, agar bu uning qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

5-BOB. VASIYLIK VA HOMIYLIKNI TUGATISH. VASIYNING VA HOMIYNING O'Z MAJBURIYATLARINI BAJARISHDAN OZOD QILINISHI HAMDA CHAYETLASH TIRILISHI

28-modda. Vasiylikni va homiylikni tugatish asoslari

Vasiylik quyidagi hollarda tugatiladi:

vasiylikdagi shaxs vafot etganda;
voyaga yetmagan o‘n to‘rt yoshga to‘lganda;
voyaga yetmagan ota-onasiga qaytarilganda;
vasiylikdagi shaxs farzandlikka olinganda;
fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan tiklanganda.

Voyaga yetmagan o‘n to‘rt yoshga to‘lganligi sababli vasiylik tugatilgach, vasiyning majburiyatlarini bajaruvchi shaxs belgilangan tartibda tayinlanmagan holda voyaga yetmaganning homiysi bo‘lib qoladi.

Homiyluk quyidagi hollarda tugatiladi:

homiylukdagi shaxs vafot etganda;
homiylukdagi shaxs voyaga yetganda;
homiylukdagi shaxs ota-onasiga qaytarilganda;
homiylukdagi shaxs farzandlikka olinganda;

fuqaroning muomala layoqatini cheklash haqidagi sudning hal qiluv qarori bekor qilinganda;

voyaga yetmagan to‘la muomalaga layoqatli deb e‘lon qilinganda (emansipatsiya);

homiylukdagi shaxs nikohga kirganda;

sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiyluk belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxsning sog‘lig‘i yaxshilanganda.

Vasiylukdagi yoki homiylukdagi shaxs tarbiya, sog‘liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarida va boshqa shunga o‘xshash muassasalarda vaqtincha bo‘lganda vasiyning yoki homiyning uzrli sabablarga ko‘ra o‘z majburiyatlarini bajara olmasligi vasiyning yoki homiyning vasiylukdagi yoki homiylukdagi shaxsга nisbatan huquqlari va majburiyatlarini bekor qilmaydi.

29-modda. Vasiyning yoki homiyning o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilinishi

Vasiy yoki homiy o‘zining arizasiga ko‘ra o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilinishi mumkin.

Homiy homiylukdagi shaxsning talabiga ko‘ra o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilinishi lozim.

Vasiyni yoki homiyni o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilish to‘g‘risidagi qaror tuman, shahar hokimi tomonidan vasiyluk va homiyluk organining iltimosnomasi asosida qabul qilinadi.

Voyaga yetmaganning, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan fuqaroning vasiysi yoki homiysi o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilingan taqdirda, vasiylukdagi yoki homiylukdagi shaxsning istagi inobatga olingan holda unga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa vasiy yoki homiy tayinlanadi yoxud joylashtirishning boshqa shakli belgilanadi.

Sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiyluk belgilanishiga muhtoj bo‘lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqaroning homiysi o‘z majburiyatlarini bajarishdan

ozod qilingan taqdirda, homiylikdagi shaxsning roziligi bilan homiy sifatida boshqa shaxs tayinlanadi.

Vasiy yoki homiy majburiyatlarini bajargan shaxs o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilinganligi to'g'risida unga ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay vasiylik va homiylik organiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobot taqdim etishi shart.

30-modda. Vasiyning yoki homiyning o'z majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirilishi

Vasiy yoki homiy o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan yoxud o'z huquqlarini suiiste'mol qilgan hollarda, ularni o'z majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirish to'g'risidagi qaror tuman, shahar hokimi tomonidan vasiylik va homiylik organining iltimosnomasi asosida qabul qilinadi.

Vasiy yoki homiy o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlardan g'arazli yoki boshqa past niyatlarda foydalanganda, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsni nazoratsiz va zarur yordamsiz qoldirganda, vasiylik va homiylik organlari uni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun zarur choralarni ko'rishi shart.

Voyaga yetmaganning, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan fuqaroning vasiysi yoki homiysi o'z majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirilgan taqdirda, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning istagi inobatga olingan holda unga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa vasiy yoki homiy tayinlanadi yoxud joylashtirishning boshqa shakli belgilanadi.

Sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqaroning homiysi o'z majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirilgan taqdirda, homiylikdagi shaxsning roziligi bilan homiy sifatida boshqa shaxs tayinlanadi.

Vasiy yoki homiy majburiyatlarini bajargan shaxs o'z majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirilganligi unga ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay vasiylik va homiylik organiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobot taqdim etishi shart.

6-BOB. VASIYLAR VA HOMIYLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI. VASIYLIKDAGI YO'KI HOMIYLIKDAGI SHAXSLARNING HUQUQLARI

31-modda. Vasiylar va homiylarning huquqlari

Vasiylar o'z vasiyigidagi shaxslarning qonuniy vakili bo'lib, ularning nomidan yoki ularning manfaatlarini ko'zlab barcha zarur bitimlarni tuzadi.

Homiylar o'z homiyigidagi shaxslarning qonuniy vakili bo'lib, homiyigidagi shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishida va majburiyatlarini bajarishida ko'maklashadi, shuningdek ularni uchinchi shaxslar tomonidan bo'ladigan suiiste'molliklardan muhofaza qiladi.

Vasiylar va homiylar:

o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsni uning fikrini hamda vasiylik va homiylik organlarining tavsiyalarini hisobga olgan holda tarbiyalash usullarini mustaqil belgilashga;

o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsni qonuniy asoslarsiz o'zida ushlab turgan har qanday shaxsdan, shu jumladan, ota-onasidan hamda boshqa yaqin qarindoshlaridan uni qaytarib berishni sud tartibida talab qilishga;

o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsning ta'minoti, unga tarbiya, ta'lim berish va uning sog'lig'ini saqlash bo'yicha huquqiy, uslubiy, diagnostika va maslahat yordami olishga;

o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxs mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli bo'lmagan bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirishga;

zarur ijtimoiy yordam olish uchun vasiylik va homiylik organlariga, ta'lim muassasalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, nodavlat notijorat tashkilotlariga murojaat qilishga;

o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsning davolanishi va sog'lig'ini tiklashi maqsadida davolash, sanatoriy-kurort muassasalariga yo'llanmalar olish uchun sog'liqni saqlash muassasalariga murojaat qilishga haqli.

Vasiylar va homiylar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Vasiy yoki homiy o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsning ota-onasi va boshqa yaqin qarindoshlari bilan muloqotda bo'lishiga to'sqinlik qilishga haqli emas, bunday muloqot vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning qonuniy manfaatlariga mos kelmaydigan hollar bundan mustasno.

Vasiy yoki homiy, uning eri (xotini) va yaqin qarindoshlari vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs bilan bitimlar tuzishga, shuningdek vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs bilan vasiyning yoki homiyning eri (xotini), uning yaqin qarindoshlari o'rtasidagi sud ishlarini yuritishda vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning vakili bo'lishga haqli emas.

32-modda. Vasiylar va homiylarning majburiyatlari

Vasiylar va homiylar:

o'zining yashash joyi o'zgarganligi haqida vasiylik va homiylik organini xabardor qilishi;

o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsni tarbiyalashi, uning ta'minoti, sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishi, shuningdek uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;

o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsning maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishi uchun sharoitlarni ta'minlashi;

alimentlar, pensiyalar, nafaqalar hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ijtimoiy to'lovlar to'lashni talab qilish yuzasidan zarur choralar ko'rishi;

o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsning o'zlariga topshirilgan mol-mulkini asrab-avaylashi, mol-mulkning qiymati pasayishiga yo'l qo'ymasligi hamda undan foyda chiqarishga imkon tug'dirmasligi;

ushbu Qonunning 37-moddasida nazarda tutilgan hollarda vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mulkiy huquqlariga daxl qiladigan harakatlarni amalga oshirishda vasiylik va homiylik organlarining ruxsatlarini olishi;

o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsning mol-mulkini boshqarishdan tushgan daromadlardan va boshqa mavjud mablag'laridan uning ta'minoti uchun foydalanishi;

o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsning parvarish qilinishini, tibbiy kuzatuvini va davolash-profilaktika muassasalarida davolanishini ta'minlashi;

vasiylik va homiylik organlariga o'z majburiyatlarining bajarilishi haqida hisobotlar taqdim etishi;

o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxs stasionarda davolanish uchun joylashtirilganligi haqida vasiylik va homiylik organlarini xabardor qilishi;

agar fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topishga yoki muomala layoqati cheklanganligiga doir asoslar bekor bo'lgan bo'lsa, o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsni muomalaga layoqatli deb topish to'g'risida sudga ariza bilan murojaat qilishi;

o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi voyaga yetmagan shaxs bilan birga yashashi shart.

O'z homiyligidagi shaxs bilan birga yashayotgan homiyning yashash joyini o'zgartirishi vasiylik va homiylik organining yozma ruxsati va o'n to'rt yoshga to'lgan voyaga yetmaganning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Homiyning o'z homiyligidagi o'n olti yoshga to'lgan shaxsdan alohida yashashiga, basharti bu homiylikdagi shaxsning tarbiyasiga, ta'minotiga va ta'lim olishiga, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasa, vasiylik va homiylik organlarining yozma ruxsati bilan yo'l qo'yiladi. Homiy o'z homiyligidagi shaxsdan alohida yashagan taqdirda, uning yashash, ta'lim olish sharoitlarini nazorat qilishi, uni atrofdagilarning salbiy ta'siridan himoya qilishi shart.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi voyaga yetmagan shaxsning turar joyi mavjud bo'lmagan taqdirda, vasiy yoki homiy uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq uni olish bo'yicha choralar ko'rishi shart.

Muomala layoqati cheklangan fuqarolarning homiylari ularni spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol etishdan, chekishdan himoya qilishga doir zarur chora-tadbirlarni ko'rishi shart.

Vasiylik va homiylik bo'yicha majburiyatlar bepul bajariladi.

Vasiylar va homiylarning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

33-modda. Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning huquqlari

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslar quyidagi huquqlarga ega:
o‘zlariga nisbatan hurmat bilan va insoniy munosabatda bo‘linishi;
o‘zlarining ta‘minoti, tarbiyasi, ta‘lim olishi va sog‘lig‘i haqida g‘amxo‘rlik qilinishi;

o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishi;

o‘z huquqlari va o‘zlariga ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan xizmatlar to‘g‘risida, shuningdek o‘z huquqlarini himoya qilish usullari hamda vositalari haqida vasiylik va homiylik organlaridan axborot olish;

ta‘lim olishga, sog‘liqni saqlashga, ijtimoiy muhofaza qilinishga bo‘lgan huquqlarini, shuningdek o‘zlarining jismoniy, aqliy va ma‘naviy jihatdan uyg‘un rivojlanishiga yordam beradigan boshqa huquqlarni amalga oshirish uchun zarur yordam olish hamda qo‘llab-quvvatlanish;

agar bu vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid bo‘lmasa, ota-onasi va boshqa yaqin qarindoshlari bilan muloqotda bo‘lish;

o‘z shaxsiy hayotiga taalluqli axborotning mahfiyligi ta‘minlanishi;

turar joyga bo‘lgan mulk huquqi yoki turar joydan foydalanish huquqi, shuningdek ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan qarindoshlik faktiga asoslangan mulkiy huquqlari ta‘minlanishi;

vasiyning yoki homiyning g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan vasiylik va homiylik organiga, shuningdek sudga murojaat qilish.

Voyaga yetmagan vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslar vasiy yoki homiy bilan birga yashash huquqiga ega.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

7-BOB. VASIYLIKDAGI YO‘KI HOMIYLIKDAGI SHAXSLARNING MULKIY HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

34-modda. Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mulkiy huquqlari

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslar vasiylarning yoki homiylarning mol-mulkiga nisbatan, vasiylar yoki homiylar esa, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mol-mulkiga, shu jumladan, alimentlar, pensiyalar, nafaqalar summalariga hamda boshqa ijtimoiy to‘lovlarga nisbatan mulk huquqiga ega bo‘lmaydi.

Mol-mulk qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra umumiy mulk huquqi asosida vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarga, vasiylarga, homiylarga tegishli bo‘lishi mumkin.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslar o‘z vasiylarining yoki homiylarining mol-mulkidan ularning roziligi bilan foydalanishga haqli.

Vasiylarga yoki homiylarga vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mol-mulkidan o'zlarining manfaatlari yo'lida foydalanish taqiqlanadi.

35-modda. Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulkini boshqarish

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulkini boshqarish mol-mulkning joylashuvi bo'yicha belgilanadi.

Vasiylar o'z vasiyligidagi shaxsning pul mablag'larini banklarga va boshqa kredit tashkilotlariga qo'yishga haqli. Vasiylikdagi shaxsning banklarga va boshqa kredit tashkilotlariga qo'yilgan pul mablag'larini vasiy tomonidan sarflash faqatgina vasiylikdagi shaxsning ta'minoti uchun vasiylik va homiylik organining yozma ruxsatiga ko'ra amalga oshiriladi.

Sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarning homiylari o'z homiyligidagi shaxsning roziligi bilan homiylikdagi shaxsning ta'minotiga va maishiy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan maishiy yoki boshqa bitimlar tuzadi, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda homiylikdagi shaxsning mol-mulkini boshqarishni amalga oshiradi.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs nomidan hadya shartnomasi tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Sudning fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish to'g'risidagi yoki uni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi hal qiluv qarori bekor qilingan taqdirda yoxud meros qabul qilinganda mol-mulkni boshqarish bekor qilinadi.

36-modda. Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulkini muhofaza qilish

Vasiylar yoki homiylar o'z vasiyligidagi yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulkini uni saqlashni amalga oshirgan shaxslardan vasiylik yoki homiylik belgilangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida ro'yxat bo'yicha qabul qilib olishi shart.

Zarurat bo'lgan taqdirda, muomala layoqati cheklangan fuqarolarning va sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarning homiylari o'z homiylikdagi shaxslarning mol-mulkini ularning iltimosi bo'yicha ro'yxatga ko'ra qabul qilib olishga haqli.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs mol-mulkining ro'yxati vasiylik va homiylik organi tomonidan vasiy yoki homiy, tegishli fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi vakillari, shuningdek vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs ishtirokida tuziladi.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs mol-mulkining ro'yxatini tuzishda boshqa manfaatdor shaxslar ham ishtirok etishi mumkin.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs mol-mulkining ro'yxati uch nusxada tuziladi va mol-mulk ro'yxatini tuzishda hozir bo'lgan shaxslar tomonidan imzolanadi. Ro'yxatning bir nusxasi vasiyga yoki homiyga topshiriladi, ikkinchi

nusxasi vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning vasiylik va homiylik organi tomonidan yuritiladigan shaxsiy hujjatlar yig'majildida saqlanadi, uchinchi nusxasi esa, davlat reestriga tegishli ma'lumotlarni kiritish uchun tuman, shahar hokimligiga yuboriladi.

Zarurat bo'lganda, agar buni vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning qonuniy manfaatlari talab etsa, vasiy yoki homiy o'z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulkini o'zganing qonunga xilof egaligidan talab qilib olish haqida sudga ariza berishi yoxud o'z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning mulkiy huquqlarini himoya qilish yuzasidan boshqa choralar ko'rish shart.

Vasiylar va homiylar o'z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning o'ziga topshirilgan mol-mulkini asrab-avaylashi, mol-mulkning qiymati pasayishiga yo'l qo'ymasligi hamda undan foyda chiqarishga imkon tug'dirmasligi kerak. Vasiy va homiy tomonidan mazkur majburiyatlarning bajarilishi o'z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulki hisobidan amalga oshiriladi.

Vasiylar o'z vasiylikdagi shaxslar nomidan tuzgan bitimlar yuzasidan belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

37-modda. Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mulkiy huquqlariga daxl qiladigan harakatlarni vasiy yoki homiy amalga oshirganida vasiylik va homiylik organlarining ruxsatlari

Vasiylar vasiylik va homiylik organlarining ruxsati bilan:

vasiylikdagi shaxs nomidan notarial tartibda tasdiqlanishi lozim bo'lgan bitimlar tuzishga;

mol-mulkni taqsimlashga;

vasiylikdagi shaxsning mol-mulkini bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga garovga yoki ijaraga berishga;

vasiylikdagi shaxsning turar joyini ayirboshlashga;

vasiylikdagi shaxs nomidan meros va (yoki) hadya olishdan voz kechishga haqli.

Agar vasiyning yoki homiyning harakatlari vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsqa qarashli mol-mulkning qiymati pasayishiga olib kelishi mumkin bo'lsa, barcha hollarda, xususan:

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning manfaatlarini ko'zlab berilgan da'vodan voz kechilganda;

sud muhokamasida vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs nomidan kelishuv bitimini tuzishda;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs da'vogar bo'lgan ijro ishini yuritish bo'yicha qarzdor bilan kelishuv bitimini tuzishda vasiylik va homiylik organlarining ruxsati talab etiladi.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs nomidan ishonchnoma berilgan taqdirda ham vasiylik va homiylik organining ruxsati talab etiladi.

Vasiylik va homiylik organi rad etish sabablarini ko'rsatgan holda ruxsat berishni rad etishi mumkin.

Vasiylik va homiylik organining ruxsati yoki ruxsat berishni rad etishi bunday ruxsatni berish to'g'risida ariza topshirilgan kundan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmasdan vasiyga yoki homiyga taqdim etilishi kerak.

38-modda. Vasiylik va homiylik organining ruxsatini olmay turib vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs nomidan shartnoma tuzish oqibatlari

Vasiy yoki homiy tomonidan vasiylik va homiylik organining ruxsatisiz vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs nomidan shartnoma tuzilganligi fakti aniqlanganda, vasiylik va homiylik organi vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning manfaatlarini ko'zlab zudlik bilan sudga murojaat qilishi shart.

Vasiylik va homiylik organining ruxsatisiz vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs nomidan tuzilgan shartnoma haqiqiy emas deb topilganda, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsga tegishli bo'lgan mol-mulk qaytarilishi, shartnoma taraflariga yetkazilgan zararining o'rni esa, qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda va tartibda vasiy yoki homiy tomonidan qoplanishi shart.

39-modda. Vasiy yoki homiy tomonidan yetkazilgan mulkiy zararining o'rnini qoplash

Vasiylik va homiylik organlari vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsga g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizlik) tufayli yetkazilgan mulkiy zararining o'rni to'liq hajmda qoplanishini vasiydan yoki homiydan talab qilishi shart, vasiylik yoki homiylik tugatilganda esa, vasiylikdagi yoki homiylikdagi muomalaga layoqatli shaxs talab qilishga haqli.

Vasiy yoki homiy tomonidan vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulkini saqlashga va vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulkini boshqarishga doir majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganda (mol-mulkni yaroqsiz holga keltirish, lozim darajada saqlamaslik, mol-mulkni belgilangan maqsad uchun sarflamaslik, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs mol-mulkining qiymati pasayishiga sabab bo'lgan harakatlarni (harakatsizlikni) amalga oshirish va boshqalar) vasiylik va homiylik organi bu haqda dalolatnoma tuzishi hamda vasiyga yoki homiyga vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsga yetkazilgan mulkiy zararining o'rnini qoplash to'g'risida talabnoma taqdim etishi shart.

40-modda. Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsga nafaqa tayinlash

Vasiyning yoki homiyning o'z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning ta'minotiga doir xarajatlarining o'rni vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs mablag'lari hisobidan qoplanadi, bu mablag'lar yetarli bo'lmagan taqdirda esa,

vasiylik va homiylik organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uning ta'minoti uchun nafaqa tayinlash maqsadida tegishli organlarga murojaat qiladi.

8-BOB. VASIYLIK VA HOMIYLIK SOHASIDAGI NAZORAT

41-modda. Vasiylik va homiylik organlari faoliyati ustidan nazorat

Vasiylik va homiylik organlari hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyati ustidan nazoratni qonun hujjatlarida vakolat berilgan davlat organlari va mansabdor shaxslar amalga oshiradi.

42-modda. Vasiylar va homiylarning majburiyatlari bajarilishi ustidan nazorat

Vasiylar va homiylarning majburiyatlari bajarilishi ustidan nazorat vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning yoxud vasiylarning yoki homiylarning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslar vasiyning yoki homiyning harakatlari (harakatsizligi) ustidan tegishli vasiylik va homiylik organiga yoxud sudga shikoyat qilishga haqli.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning hayotiga yoki sog'lig'iga bevosita tahdid tug'ilganligi to'g'risida, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi haqida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan shaxslar bu haqda vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning haqiqatda turgan joyidagi vasiylik va homiylik organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi shart. Bunday ma'lumotlarni olgan vasiylik va homiylik organlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir zarur choralar ko'rish shart.

43-modda. Vasiy va homiyning hisoboti

Vasiy va homiy o'z majburiyatlarining bajarilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda vasiylik va homiylik organiga hisobot taqdim etishi shart.

44-modda. Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsga etkazilgan zararining o'rnini qoplash

Vasiylik va homiylik organlarining g'ayriqonuniy qarorlari yoxud ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsga yetkazilgan zararning o'zni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi shart.

45-modda. Tuman, shahar hokimining, vasiylik va homiylik organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilish

Tuman, shahar hokimining vasiylikni yoki homiylikni belgilash va tugatish, vasiylarni yoki homiylarni o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etish yoxud chetlashtirish to'g'risidagi, vasiylik va homiylik organlarining dastlabki tarzda vasiy yoki homiy tayinlash haqidagi qarorlari ustidan manfaatdor shaxslar tomonidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

46-modda. Vasiy va homiyning g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish

Vasiy va homiyning g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs, davlat organlari va muassasalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning yashash joyidagi fuqarolar tomonidan tegishli vasiylik va homiylik organiga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin.

9-BOB. YaKUNLOVChi QOIDALAR

47-modda. Nizolarni hal etish

Vasiylik va homiylik sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

48-modda. Vasiylik va homiylik to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Vasiylik va homiylik to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

49-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

50-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran olti oy o'tgach kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. Karimov

BOLA HUQUQLARIDAN GLOSSARIY

Adaptatsiya (lotincha adaptare)- moslashish, jumladan organizmni o'zgarayotgan sharoitlarga moslashishi.

Adekvat (lotincha adecqvatus)- tenglashgan, bir xil, o'xshash.

Bill (inglizcha bill)- bir qator mamlakatlarda Angliya, AQSh, Kanada va boshqalarda qabul qilinadigan qonun.

Bola - 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi.

Bolaning qonuniy vakili - bolaning ota-onasi, farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar hisoblanuvchi shaxs.

Bola huquqlari - jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmagan, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj bolalarga taqdim etilayotgan alohida huquqlar, imtiyozlar va kafolatlarni qamrab oluvchi xalqaro va milliy huquqiy asos va mexanizmlarni o'z ichiga qamrab olgan inson huquqlari sohasi.

Bola huquqlari bo'yicha xalqaro institutsional tizim – o'z faoliyati doirasida bola huquqlari bo'yicha davlatlararo hamkorlik olib borishga ko'maklashuvchi hamda uni muvofiqlashtirib boruvchi, bevosita bola huquqlari bo'yicha xalqaro norma ijodkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar va organlarning tizimi.

Vasiylik va homiylik - ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, ularga ta'minot, tarbiya hamda ta'lim berish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli.

Voyaga yetmagan shaxs – o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs (odatda yoshi o'n to'rt dan o'n sakkizgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan ishlatiladi).

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi — voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi;

Gender- jinsiy biologik farqni hamda jamiyat va davlat hayotida ularning rolini huquqiy va imkoniyatlar tengligi nuqtai nazaridan inobatga olish.

Dilemma (yunoncha di(s) ikki +lemma faraz)- ikki (ko'pincha noxush) imkoniyatlardan birini tanlash zarurati.

Yetim bola - otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e'lon qilingan bola.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola - nogironlikni belgilash uchun yetarli bo'lmagan jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bola hisoblanadi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar - yuzaga kelgan holatlar sababli og'ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalar.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmagan — voyaga yetmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan yoxud uni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo'lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan shaxs.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila — ota-ona yoki ota-ona o'rmini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan oila.

Impulsiv- qo'zg'atuvchining birinchi ta'siri bilanoq harakat qilishga moyillik.

Intensiv (lotincha intensio)- odatdagidan tez kuchli, ko‘proq maxsulli.

Interniv (lotincha internus)- ichki, ichkariga oluvchi; 1) urushayotgan davlatning hududiga kirgan askarlarni ushlab va qurilsizlantirish; 2) urushayotgan davlatning qarshi davlat fuqarolarini urush tugaguncha ushlab va ozodlikdan maxrum qilish.

Kanon- (yunoncha kanon) qoida, majburiy talab.

Kichik yoshdagi bola yoki yosh bola – odatda o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan shaxs tushuniladi.

Kodifikatsiya (lotincha codificatio) - mamlakat qonunlarini huquqning ayrim sohalari bo‘yicha jamlab yagona tizimga keltirish.

Kombatantlar (fransuzcha combatant)- xalqaro huquqqa binoan, urushuvchi davlatlarning qurolli kuchlari tarkibiga kiruvchi, dushmanga qarshi jang harakatlari olib borayotgan shaxslar.

Komentariy (lotincha sharh) -biror matn yoki kitobni tushuntirib berish yoxud talqin qilish; unga tushuntiruvchi eslatma.

Konvensiya (lotincha conventio)- shartnoma, kelishuv bitim; biror maxsus masala, masalan, bola huquqlari to‘g‘risida xalqaro shartnoma.

Kontekst (lotincha kontekstus)- matndagi ayrim so‘z yoki so‘zlar birikmasining mazmuniga aniqlik kirituvchi qismi.

Konsepsiya (lotincha conceptio)- yondashuv 1) biror voqelikka oid qarashlar tizimi: ularga nazar tashlash, tushuntirish; 2) umumiy talqin (rassom, shoir, olim va b.)

Konfidensial (lotincha confidentio)- ishonib, sir saqlanishi sharti bilan, maxfiy.

Konflikt (lotincha conflictus)- bir- biriga zid manfaatlar, qarashlar, intilishlarning to‘qnashuvi; murosasizlik, kelishmovchilik, nizo, chigallanish xavfi.

Kriteriy (yunoncha kriterion)- biror narsaga baxo berish, aniqlash yoki tasniflash uchun asos bo‘luvchi belgi, alomat.

Kulminatsiya (lotincha culmen)-cho‘qqi, biror harakat, voqelikning rivojlanishida eng keskin payt.

Legalizatsiya (lotincha legalis)- qonuniy, qonun kuchi berilgan.

Limitlash-eng oxirgi me'yorni belgilash, cheklash.

Mediator (lotincha mediator)- vositachi, o'rtada turuvchi, murosaga keltiruvchi.

Mediatsiya (lotincha mediatio) vositachilik, xalqaro nizolarni xal qilishda uchinchi, nizoda qatnashmovchi davlat.

Monopoliya (yunoncha mono+poleo)- bir o'zi sotishi; biror narsaga faqat o'zi haqli bo'lish; bir shaxsga, muayyan guruxga yoki davlatga tegishli huquq.

Nazoratsiz bola — ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan shaxs.

Neytral (lotincha neutralis)- xech kimga tegish bo'lmagan narsa; nizo va kurashda qatnashuvchi xolis tomon; jang-maydoni tarzida foydalanilmaydigan ikki davlat chegaralari orasidagi hudud, biror davlatning o'z lashkarlarini saqlashi mumkin bo'lmagan zona.

Nogiron bola - jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lganligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordamga, himoyaga muhtoj hamda qonunda belgilangan tartibda nogiron deb topilgan bola.

Ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar - qonunda belgilangan tartibda bolaga nisbatan ota-onalik huquqini amalga oshiruvchi va ota-onalik majburiyatlarini bajaruvchi, lekin bolaning ota-onasi bo'lmagan shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar).

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bola - yetim bo'lib qolishdan tashqari (ya'ni ota-onasi vafot etgan yoki sud qarori bilan vafot etgan deb topilgan hollardan tashqari) boshqa har qanday sabab tufayli ota-onaning qaramog'isiz qolgan bola.

Patronat - oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladan, tarbiya va davolash

muassasalarida, shuningdek aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi

Pornografiya (yunoncha pornographo)- behayo adabiyot, surat va sharmsor qiliqlar.

Potensial (lotincha potentia)- imkoniyat, yuzaga keltirilmagan qudrat.

Prevensiya (lotincha priventio)- ogohlantirish.

Prizma (yunoncha prisma)- kesim: 1) geometriyada-ikki qirrali asos, parallel tomonlarga ega bo'lgan teng ko'pburchaklar va qolganlari yon qirra parallelogrammadan iborat ko'pqirra; 2) shaffof moddadan yasalgan shakllar, ular antik asboblarda elak tarzida xizmat qiladi.

Prinsip (lotincha principium)- biror nazariya, ta'limot va fanning rahbariy g'oyalari, asosiy qoidalari va talablari.

Prioritet (lotincha prior)- birinchilik, masalan inson huquqlarining birinchi daraja ahamiyati, ilmiy kashfiyotning shaksiz muhimligi.

Problema (yunoncha problema)- vazifa, topshiriq, muammo; hal qilinishi, o'rganilishi, tadqiq qilinishi zarur bo'lgan nazariy yoki amaliy murakkab masala.

Problematika- muammolar majmuasi.

Progress (lotincha progressus)- rivojlanish, odatda ilg'or, yangi, takomil holat sari intilish, yaxshi tomonga, yanada yuksak pog'onaga erishish.

Ratifikatsiya (lotincha ratification)- shartlashuvchi davlatlarning vakolatli shaxslari tuzgan shartnomasi davlat oliy xokimiyat organi tomonidan tasdiqlanishi.

Reglament (fransuzcha reglament)- qoida: 1) yig'ilish, majlis, sessiyani olib borish tartibi; 2) muassasaning ish tartibini belgilovchi nizom, qoidalar majmuasi.

Reglamentatsiya- muayyan qoida- tartib o'rnatish.

Rubrika (lotincha rubrica)- sarlavha, xatboshi: 1) Qadimgi qizil rangda yozilgan asar yoki bo'limning sarlavhasi; 2) Keng mazmunda qism, bo'lim, fasl, grafa.

Standart (inglizcha standart)- andoza, me'or, na'muna, masalan, oltin andoza.

Emansipatsiya - o‘n olti yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muomalaga to‘la layoqatli deb e‘lon qilinishi. Emansipatsiya ota-onaning, farzandlikka oluvchilarning yoki homiyning roziligi bilan vasiylik va homiylik organining qaroriga muvofiq yoxud, bunday rozilik bo‘lmagan taqdirda, sudning qarori bilan amalga oshiriladi.

Fuqarolarning huquq layoqati - barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo‘lish layoqati. Fuqaroning huquq layoqati u tug‘ilgan paytdan e‘tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

Fuqaroning muomala layoqati - fuqaroning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya‘ni o‘n sakkiz yoshga to‘lgach to‘la hajmda vujudga keladi. Voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o‘tgan fuqaro nikohdan o‘tgan vaqtdan e‘tiboran to‘la hajmda muomala layoqatiga ega bo‘ladi.

Yakka tartibdagi profilaktika ishi — ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyat.

Qarovsiz — aniq yashash joyi bo‘lmagan nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan shaxs.

G‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar — voyaga yetmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta‘sir etuvchi boshqa moddalarni iste‘mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug‘ullanishida ifodalanadigan xatti-harakatlari, shuningdek o‘zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari.

**“BOLA HUQUQLARI” FANI BO‘YICHA TAVSIYA ETILAYOTGAN
ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YHATI:**

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. – 368 b .
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. – 384 b.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. – 368 b.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. T.4. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. – 349 b.
5. Karimov I.A. T.5. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – T.: “O‘zbekiston”, 1997. – 384 b.
6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.6. –T.: “O‘zbekiston”, 1998. – 429 bet.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – T.: “O‘zbekiston”, 1999. – 416 bet.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. –T.: “O‘zbekiston”, 2000. – 528 bet.
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T.9. –T.: “O‘zbekiston”, 2001. – 432 b.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – T.: “O‘zbekiston”, 2002. – 432 b.
11. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T.11. – T.: “O‘zbekiston”, 2003. –320 b.
12. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-kudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T.12. – T.: “O‘zbekiston”, 2004. – 400 b.
13. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T.13. – T.: “O‘zbekiston”, 2005. – 448 b.

14. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14. – T.: “O‘zbekiston”, 2006. – 280 b.

15. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. T.15. – T.: “O‘zbekiston”, 2007. – 294 b.

16. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. T.16. – T.: “O‘zbekiston”, 2008.

17. 20. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. T.17. – T.: “O‘zbekiston”, 2009.– 280b.

18. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarilish sari. T.18. – T.: “O‘zbekiston”, 2010. –280 b.

19. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. – T.: “O‘zbekiston”, 2011. – 360 b.

20. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.

18. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: “O‘zbekiston”, 2009.

19. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: “O‘zbekiston”, 2009.

20. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi, № 19 (4934). 2010-yil 28-yanvar.

21. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. //O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. // Xalq so‘zi, № 21 (4936). 2010-yil 30-yanvar.

22. Karimov I.A. Hamkorlik, taraqqiyot va xavfsizlikni ta‘minlash yo‘lidan.// O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT ning Sammiti Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. Xalq so‘zi, 2010-yil 22-sentabr.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2010-yil 7-dekabr kuni Asosiy Qonunimiz – Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 18-yilligi munosabati bilan “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir” mavzusida qilgan ma‘ruzasi. /Xalq so‘zi, 2010-yil 8-dekabr.

24. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohlolarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruza. 2010-yil 12-noyabr. –T.: “O‘zbekiston”, 2011. – 56 b.

25. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarish sari. –T.: “O‘zbekiston”, 2010, -T. 18. -280 b

26. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 2011-yil 21-yanvar. // Xalq so‘zi, 2011-yil 22-yanvar.

27. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O‘zbekiston”, 2011. – 440 b.

28. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta‘minlash hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2012. – 32 b.

29. “Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir”. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. /Xalq so‘zi, 2013-yil 7-dekabr.

30. Выступление Президента Ислама Каримова на открытии международного конференции «О важнейших резервах реализации продовольственной программы в Узбекистане». <http://www.mfa.uz/ru/press/news/2014/05/1946/>

Xalqaro-huquqiy hujjatlar

1. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar: to‘plam/O‘zbekcha nashrining mas‘ul muharriri A.X.Saidov. –Toshkent: «Adolat», 2004. – 520b.
2. O‘zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar: inson huquqlari bo‘yicha universal shartnomalar. – T.: Adolat. 2002. -270 b
3. Balog‘atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar/Международные документы по правам несовершеннолетних. – T.: Adolat. 2002. -231 b.
4. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining insoniylik mezonlari bo‘yicha hujjatlari. – T., 2002. – 164 b.
5. Jeneva konvensiyalari to‘plami. /A.Saidov tahriri ostida. -Toshkent, 2002.
6. YUNESKONing xalqaro me‘yoriy hujjatlari. To‘plam. /Mas‘ul muharrir L.Saidova. –T.: Adolat, 2004. -304 b.
7. Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari. /O‘zbekcha nashri uchun mas‘ul muharrir A.X.Saidov. –T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. -240 b.
8. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
9. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt.
10. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt.
11. Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya.
12. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga bolalarni qurolli mojarolarga jalb qilinishi to‘g‘risidagi fakultativ protokol, 2000-yil.

13. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga oid fakultativ protokol, 2000-yil.
14. BMTning balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari ("PYEKIN QOIDALARI").
15. BMTning balog'atga yetmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari ("AR-RIYO'D DASTURIY PRINSIPLARI").
16. BMTning qamoqda saqlash bilan bog'liq bo'lmagan choralarga doir minimal standart qoidalari ("TOKIO QOIDALARI").
17. BMTning ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmaganlarga oid qoidalari.
18. BMTning ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan choralari bo'yicha qoidalari.
19. XMTning "Majburiy mehnat to'g'risida"gi 29- Konvensiyasi.
20. XMTning "Majburiy mehnatga barham berish to'g'risida"gi 105-Konvensiyasi
21. XMTning "Bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham berish to'g'risida"gi 182-Konvensiyasi
22. XMTning "Ishga qabul qilish uchun minimal yosh to'g'risida"gi 138-Konvensiyasi.
23. Bolalarni xalqaro o'g'irlash to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi, 1980-yil
24. BMTning Transmilliy uyushtirilgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasiga doir odam savdosini, ayniqsa ayollar va bolalar savdosini oldini olish va ehtiyot choralari to'g'risidagi protokol.
25. Rezolyutsiya Soveta po pravam cheloveka 5/1 ot 18-iyunya 2007 goda. // Dok. OON. A/HRC/5/21, glava III punkty 60-62

Milliy qonunchilik hujjatlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston. 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994 y., 22-sentabr. (Oliy Majlis Axborotnomasi, 1995 y., № 1, 1-m.).

3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 1994 y., 22-sentabr. (Oliy Majlis Axborotnomasi, 1995 y., № 2, 4-m.).
4. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks. 1994 y., 22-sentabr. (Oliy Majlis Axborotnomasi, 1995 y., № 3, 6-m.).
5. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 1995 y., 21-dekabr. (Oliy Majlis Axborotnomasi 1996 y., № 1-ilova.)
6. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. –T.: Adolat. 1996.
7. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. 1997 y., 25 aprel (Oliy Majlis Axborotnomasi, № 6).
8. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. 1997 y., 30-avgust.
9. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. 1998 y., 30 aprel (Oliy Majlis Axborotnomasi, № 5-6, ilova).
10. O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi. 1998 y., 24-dekabr (Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999 y., № 1, 4-m.).
11. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonun. 1991 y., 15-fevral (Oliy Majlis Axborotnomasi, 1991 y., № 4, 76-m.).
12. “O‘zbekiston Respublikasining “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 1991 y., 18-noyabr. (Oliy Majlis Axborotnomasi, 1992 y., № 2, 78-m.).
13. “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun. 1991 y., 20-noyabr. (Oliy Majlis Axborotnomasi, 1992 y., № 2, 80-m.).
14. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik to‘g‘risida”gi Qonun. 1992 y., 2-iyul. (Oliy Majlis Axborotnomasi, № 9, 338-m.).
15. Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Qonun. 1993 y., 6-may. (Oliy Majlis Axborotnomasi, № 5, 223-m.).
16. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 1995 y., 30-avgust. (Oliy Majlis Axborotnomasi № 9, 183-m.).

17. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi (Yangi tahriri) Qonuni. 1995 y., 21-dekabr. (Oliy Majlis Axborotnomasi № 12, 257-m.).
18. O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi Qonuni. 1995 y., 22-dekabr. (Oliy Majlis Axborotnomasi 1995 y., № 12, 262-m.).
19. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni. 1996 y., 29-avgust. (Oliy Majlis Axborotnomasi № 9, 128-m.).
20. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi Qonuni. 1997 y., 24 aprel. (Oliy Majlis Axborotnomasi, 4-5, 108-m.).
21. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 1997 y., 29-avgust (Oliy Majlis Axborotnomasi, № 9, 225-m.).
22. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida. 1997 y., 29-avgust (Oliy Majlis Axborotnomasi, 11-12, 295-m.).
23. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi (yangi tahrirda) Qonuni. 2007 y., 15-yanvar (Oliy Majlis Axborotnomasi, 2007 y., № 1, 4-m.).
24. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonuni. 1998 y., 1-may (Oliy Majlis Axborotnomasi, № 5-6, 99-m.).
25. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 1999 y., 14 aprel (Oliy Majlis Axborotnomasi, № 5, 115-m.).
26. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonuni. 2000 y., 14-dekabr (Oliy Majlis Axborotnomasi 2001 y., № 1-2, 10-m.).
27. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2002 y., 12-dekabr (Oliy Majlis Axborotnomasi 2003 y., № 1, 2-m.).
28. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonuni. 2002 y., 13-dekabr (Oliy Majlis Axborotnomasi 2003 y., № 1, 7-m.).

29. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2003 y., 29-avgust (Oliy Majlis Axborotnomasi № 9-10, 141-m.).
30. Qizil yarim oy va qizil xoch timsollaridan foydalanish hamda ularni himoya qilish to‘g‘risida. 2004 y., 29 aprel (Oliy Majlis Axborotnomasi № 5, 84-m.).
31. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida (yangi tahriri). 2004 y., 27-avgust (Oliy Majlis Axborotnomasi № 9, 169-m.).
32. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 2006 y., 20-iyul (Oliy Majlis Axborotnomasi № 7, 372-m.).
33. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2007 y., 3-yanvar (Oliy Majlis Axborotnomasi, № 1, 2-m.).
34. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonuni. 2007 y., 15-yanvar (Oliy Majlis Axborotnomasi, № 1,4-m.).
35. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2007 y., 3-yanvar (Oliy Majlis Axborotnomasi, № 1, 2-m).
36. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008-yil,-yanvar.
37. O‘zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008-yil 17 aprel.
38. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 16-son, 117-modda.
39. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga

qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009 y., 52-son, 551-modda.

40. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida” (yangi tahrirda) Qonuni

41. O‘zbekiston Respublikasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2009-yil. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009 y., 16-son, 197-modda;

42. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2010-yil. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010 y., 39-son, 341-modda.

43. O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 1-son, 1-modda.

44. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktabrdagi «Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazi tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

45. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 2001-yil 4-yanvardagi F-1322- sonli Farmoyishi

46. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”2004-yil 29-avgustdagi PF-3481-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagi «O‘zbekistonda o‘lim jazosni bekor qilish to‘g‘risida”gi Farmoni.

47. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘rida”gi Farmoni.

48. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar musiqa va san‘at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha 2009—2014-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2008-yil 8-iyuldagi PQ-910-sonli Qarori.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini qabul

qilinganligining 60-yilligiga bag'ishlangan chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni //Xalq so'zi, 2008-yil 1-may.

49. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi 2010-yil 27-yanvardagi PQ-1271-sonli Qarori

50. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mustahkam oila yili" davlat dasturi to'g'risida"gi 2012-yil 27-fevraldagi PQ-1717-sonli Qarori

51. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi byudjetini xamda 2013-yilda bolalar sporti obyektlari, suzish havzalari va bolalar musiqa hamda san'at maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish manzilli dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2013-yil 15-martdagi PQ-1939-son Qarori

52. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining "Yoshlar" Teleradiokanali» yopiq aksiyadorlik jamiyati huzuridagi "Bolajon» Bolalar raqamli telekanalini tashkil etish to'g'risida"gi 2013-yil 30-maydagi PQ-1976-son Qarori

53. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi byudjetini hamda 2014-yilda bolalar sporti obyektlari, suzish havzalari va bolalar musiqa hamda san'at maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash manzilli dasturlarini tasdiqlash to'g'risida" 2014-yil 31-yanvardagi PQ-2118-son qarori

54. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sog'lom avlod uchun" hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasining takliflari to'g'risida"gi 1993-yil 28-oktabrdagi 524-sonli Qarori

55. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 1999-yil 12 apreldagi 171-sonli qarori /O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarining to'plami, 1999 y., 4-son, 18-modda.

56. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2004-yil 29-avgustdagi 410-son qarori.
57. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini tashkil etish to‘g‘risida” 2004-yil 7-sentabrdagi 419-son Qarori
58. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 2-noyabrdagi “Osiyo Taraqqiyot Banki ishtirokida “Umumta’lim maktablari uchun darsliklar va o‘quv adabiyotlari nashr etish tizimini takomillashtirish” loyihasining ikkinchi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 513-sonli Qarori.
59. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 25-oktabrdagi “Maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 225-sonli Qarori.
60. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 2010-yil 26-noyabrdagi 268-sonli Qarori.
61. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni turar joylar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2010-yil 2-avgustdagi 164-sonli Qarori. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010 y., 31-son, 260-modda.
62. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yildagi “Bolalarni tarbiyalashni takomillashtirishga, sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
63. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “BMT Mingyillik rivojlanish maqsadlarini O‘zbekistonda amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2011-yil 26-yanvardagi 21-sonli Qarori.
64. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2011-yil 28-

fevraldagi 50-sonli Qarori. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011 y., 9-son, 89-modda.

65. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 11-maydagi «Barkamol avlod» bolalar markazlari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 130-son qarori. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011 y., 19-son, 190-modda.

66. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni tarbiyalashni takomillashtirishga, sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2011-yil 14-oktabrdagi 280-sonli Qarori.

67. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-martdagi “Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog‘lomlashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 67-son Qarori.

68. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 175-sonli Qarori.

69. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 13-iyundagi “Bolalar uylari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 171-son Qarori.

70. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-iyundagi “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 185-sonli Qarori.

71. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Toshkent shahrida ximiya bo‘yicha maktab o‘quvchilarining 47-Xalqaro Mendeleev olimpiadasini o‘tkazish to‘g‘risida”gi 2012-yil 13-dekabrdagi 352-sonli Qarori.

72. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Zo‘rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to‘g‘risidagi konvensiyani hamda Bolalar mehnatining og‘ir shakllarini taqiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risidagi konvensiyani 2012-2013-yillarda amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi 82-son qarori.

73. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordamni tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi 2013-yil 15-fevraldagi 44-sonli Qarori.

74. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 6-martdagi “Respublika Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazining mintaqaviy filiallari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 68-sonli Qarori.

75. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining valyuta mablag‘larini jalb etgan holda bolalar sporti uchun mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 114-sonli Qarori.
//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 19-son, 213-modda.

76. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining “Bolalikdan nogironlarga nafaqalar to‘lash bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2009-yil 24-fevraldagi 27-sonli buyrug‘i va mazkur buyruq bilan tasdiqlangan “Bolalikdan nogironlarga nafaqalar to‘lash bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

77. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga joylashtirilayotgan voyaga yetmaganlarning tibbiy ko‘rigini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 2010-yil 17-dekabrda 342-sonli buyrug‘i.

78. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “Vasiylik va homiylik organlari tomonidan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar turar joylarining saqlanib qolishini nazorat qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2010-yil 31-dekabrda 46, 206-QQ va 29-son Qarori.

79. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining “Spirтли ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa

moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2011-yil 17-yanvardagi 18-sonli buyrug'i.

80. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Ota-onalar tomonidan bolalarning musiqa va san'at maktablarida o'qishi uchun haq to'lash va undan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida 2014-yil 31-martdagi 22 va 29-sonli Qarori.

81. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2014-yil 11-martdagi 9, 3-son Qarori.

Asosiy adabiyotlar:

1. Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI nashriyoti, 2008. – 240 bet.
2. Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo'llanma. T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006
3. Bola huquqlari monitoringi. O'quv-uslubiy qo'llanma /Mas'ul muharrir A.X.Saidov. –T.: Inson huquqlari bo'yyiaa O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011.
4. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga sharhlar» / Mas'ul muharrir A.X.Saidov – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008 – 135 b
5. Защита прав ребенка. (социальные и юридические аспекты) М.: Российский благотворительный фонд «Нет алкоголизму и наркомании» («NAN»), 1999..
6. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /Mualliflar jamoasi: A.Saidov, F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. –T.: "O'zbekiston", 2010.

7. Kommentariy k Zakonu Respubliki Uzbekistan «O garantiyax prav rebenka» /A.Saidov i dr. –T.: Vektor-Press, 2009.
8. Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. –T.; JIDU, 2010.
9. Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. 2 nashr. –T.; Adolat, 2013.
10. Mo'minov A., Tillabaev M. Darslik. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. -2-nashr. – T.: Adolat, 2013.
11. Muminov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. –T.: JIDU, 2011.
12. Gafurov A., Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. O'quv qo'llanma . – T.; Adolat, 2012
13. Prava rebenka: Uchebnik. /pod red. A.X.Saidova. –T.: TGYuI, 2009. -251 s.
14. Saidov A. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. -T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 2014.
2. Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutining 2003-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. -T., 2004
3. Актуальные проблемы современного детства. - Сборник научных трудов. - М., 1992. - S.78.
4. Antonov A.I. Кто защищает права ребенка и от кого. – Vestnik Moskovskogo Universiteta. Seriya 18. Sotsiologiya i politologiya. –1997. №2. S.6-13.
5. Barkamol avlod orzusi. //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, X.Saidov, R.Ahliddinov. - To'ldirilgan ikkinchi nashr. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.-
6. Bola huquqlari qo'mitasining Umumiy xulosalari №4 (2003) “O'smirlarning

sogʻligʻi va rivojlanishi”.CRC/GC/2003/4

7. Bola huquqlarining kafolatlari //Demokratlashtirish va inson huquqlari. №1, 2013.

8. Bolalar gʻayriijtimoiy harakatlarining oldini olish borasidagi dolzarb vazifalar va ustuvor yoʻnalishlar: (ilmiy-amaliy konferensiya materiallari) Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari boʻyicha komissiya, BMT Bolalar fondining (UNICEF) Oʻzbekistondagi vakolatxonasi, Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining oliy oʻquv kurslari; masʼul muharrir T.A.Umarov. –T.: YURIST-MEDIA markazi, 2010. 378 b

9. Voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish tizimi: muammolar va yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T.: Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, “KONSAUDITINFORM-NASHR”, 2008.

10. Ganibayeva Sh. Mejdunarodno-pravovaya zashchita prav rebyonka /Otv. red. A.X.Saidov. –T.: 2003.

11. Dunyo ombudsmanlari. Toʻplam /Masʼul muharrir S.Rashidova. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007

12. Jinoyat protsessi: (Maxsus qism): Yuridik institut va fakultetlari talabalari uchun darslik (Z.F.Inogʻomjonovanning umumiy tahriri ostida). –T.: TDYuI, 2008.

13. Zdorovoye pokoleniye – budущеe Uzbekistana. / Detskiy Fond Uzbekistana / - T.: «Uzbekiston», 2001.

14. Inson huquqlari boʻyicha xalqaro meʼyorlar va Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi / Inson manfaatlari: qonun hujjatlarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari mavzuidagi ilmiy-amaliy anjuman hujjatlari. Fafurov A.B. tahriri ostida. T.: Ijtimoiy fikr. 1998. 40-42 b.

15. Ismailov B., Raximova M. Правовые основы системы yuvnalnoy yustitsii. Uchebnoye posobiye. Tashkent, UNICEF, 2003.

16. Ismoilov B. Oʻzbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlarini taʼminlashdagi xalqaro-huquqi majburiyatlarini bajarish amaliyoti

//O‘zbekiston va BMT: tajriba va hamkorlik istiqbollari. Konferensiya materiallari to‘plami. 2006-yil 16-mart. –T.; TDYuI, 2006.

17. Kabyshev O.A. Prava roditeley i detey. – M.: «Izdatelstvo PRIOR», 1998.
18. Karelova G. Konvensiya o pravax rebenka: kak yee osuschestvit. / Iz vystupleniy na seminare v Jeneve (8-10-dekabrya 1997 goda) – Sotsialnoye obespecheniye. - 1998. №2.
19. Karimova D. Bola huquqlarining paydo bo‘lishi, rivojlanish tarixi va bola huquqlarining ta’rifi. Qonunchilikni takomillashtirish islohotlar kafolati (ilmiy maqolalar to‘plami). T.: O‘zMUU, Huquqshunoslik fakulteti, El-Press, 2012.
20. Karimova D. Bolalarni zararli axborotlardan himoyalashning qonuniy asoslari. //Demokratlashtirish va inson huquqlari. -№3, 2013.
21. Kobilova S.A., Leonteva Ye.A. Prava rebenka i garantii ix zashchity v mejdunarodnom i rossiyskom zakonodatelstve. // Publichnoye i chastnoye pravo: problemy razvitiya i vzaimodeystviya zakonodatelnogo vyrajeniya i yuridicheskoy praktiki: Materialy Vserossiyskoy konferensii (23-24 aprelya 1998). – Yekaterinburg. – Izd-vo UrGYuA, 1999.
22. Kolosova S.Yu. Realizatsiya principa spravedlivosti pri zashchite sotsialno uyazvimykh kategoriy naseleniya v mejdunarodnom prave. (Na primere Konvensii o pravax rebenka 1989 goda) // Moskovskiy jurnal mejdunarodnogo prava. – 2000. - №1. S. 115-127.
23. Matveeva T. Nepravitelstvennyye organizatsii v mexanizmax zashchity prav cheloveka. – M.: Izd-vo RAGS, 1997.
24. Mejdunarodnoye sotrudnichestvo v oblasti prav cheloveka. -M., 1993. Выр. 2.
25. Melnikova E.B. Yuvenalnaya yustitsiya. Problemy ugovnogo prava, ugovnogo protsessa i kriminologii: uchebnoye posobiye. – M.: «Delo», 2000.
26. Muxamedov R. Konun ijrosi – Sog‘lom avlod kafolati.T.: «Ma’naviyat», 2000. 136 b.
27. Mo‘minov A. Xalqaro tashkilotlar huquqi. O‘quv qo‘llanma. –T.: JIDU, 2014.
28. Mo‘minov A. Xalqaro tashkilotlar huquqi shakllanishining nazariy masalalari. –T.: JIDU, 2013

29. Nesovershennoletniye: Pravo na imushchestvo i na trud. – M.: «Sotsialnaya zashchita», 2001.
30. Nechayeva A.M. Uzbekistan i yee deti (rebenok, zakon, gosudarstvo). M.: Institut gosudarstva i prava Rossiyskoy Akademii nauk, 2000.
31. Natsionalnyy doklad Respubliki Uzbekistan po vypolneniyu polojeniy «Konvensii o pravax rebyonka» 1989 g. –T.:Izd-vo Natsionalnogo sentra Respubliki Uzbekistan po pravam cheloveka, 1999.-59 s.
32. Obshchaya teoriya prav cheloveka / Otv. red. Ye.A.Lukasheva. – M.: NORMA, 1996.
33. Odam savdosiga qarshi kurash sohasidagi milliy va xalqaro huquq normalari /Tuzuvchilar L.Ishoqova, K. Hamroyeva. –T.: “Yurist-media markazi”, 2010.
34. Odam savdosi jabrlanuvchilarini jazolamaslik qoidasini implementatsiya qilishga qaratilgan siyosat va qonunchilikka oid tavsiyalar. YeXHTning Odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakili va koordinatori byurosi, 2013
35. Ombudsman v Uzbekistane. Sbornik statey. T.: Izdatelstvo «Jaxon», 2001. 230 b.
36. Onalik va bolalik davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi: (Ilmiy amaliy anjumanga taqdim etilgan ma’ruzalar matni) /Ma’sul maharrir: N.Jurayev. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2001. – 62 bet.
37. Patriitsiya Xanigan Molodej ispytyvayushchaya trudnosti. Per. s fran. Gersik A.M. M.: «Interdialekt», 1999. -S. 216.
38. Prava rebenka: mejdunarodnyye i natsionalnyye standarty. Sbornik statey.-T.: Izdatelskiy dom “Eldenor”, 2000. -S. 211.
39. Prava cheloveka. Uchebnyk-xrestomatiya /pod red. A.Saidova. –T.: UMED, 2001.
40. Raxmonov b. Mahmudov F. Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari. –T.: CHASHMA PRINT, 2011. -144 b.
41. Rashidov K. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining tuzilishi, bajarilishi va bekor qilinishi. (Parlament a‘zolari uchun amaliy qo‘llanma). – Toshkent, 2012

42. Saidov A., Bakayeva F., Tillabayev M. Nasionalnyy sentr po pravam cheloveka v 2011 godu. – T.: NSPCh, 2012
43. Nasionalnyy sentr Respubliki Uzbekistan po pravam cheloveka: stanovleniye i razvitiye / Otv. red. A.X.Saidov. – T., 2007.
44. Saidov A.X., Juzjoniy A. Sharq va inson huquqlari: tarixiy-huquqiy lavhalar. T.: Ijtimoiy fikr, 1998.
45. Saidov A. Xalqaro huquq. – T.: «Adabiyot jamgʻarmasi», 2001.
46. Safarov O., Maxmudov M. Oila maʼnaviyati. – T.: «Maʼnaviyat», 1998. – 160 b.
47. Sbornik mejdunarodnykh dokumentov Komiteta OOn po pravam rebenka /Otv. red. A.X.Saidov. –T.: NSPCh, 2014.
48. Sogʻlom avlod – bizning kelajagimiz: toʻplam // Taxrir xayʼati: M.Muxammad Dust, O.Musurmonova, T.Riskiyev va boshkalar. / - T.: «Abu Ali ibn Sino», 2000. 272 b.
49. Tillabayev M.A. Nasionalnye instituty po pravam cheloveka: Mejdunarodnaya, zarubejnaya i nasionalnaya praktika /Otv. red. A.X.Saidov. –T.: Adolat, 2008. -312 s.
50. Tillaboyev A. Bolalarning ijtimoiy-huquqiy himoyasi masalalari. //Demkoralashtirish va inson huquqlari. -№2, 2010.
51. Xakimov R. Detstvo: Problemy i perspektivy:[1946-2006]. –T.: Oʻzbekiston, 2006.
52. Xidoya. Kommentarii musulmanskogo prava. –T.: Uzbekistan, 1994.
53. Xotin-kizlar va bolalarning xukuklariga oid konun kafolatlari (Ommabop yuridik maʼlumotnoma). – T.: «Oʻzbekiston», 2000. 256 b.
54. Federalnyy zakon RF №71-FZ ot 28 aprelya 2009 g. «O vnesenii izmeneniy v Federalnyy zakon «Ob osnovnykh garantiyax prav rebenka v Rossiyskoy Federasii»
55. Qurʼoni Karim maʼnolarining tarjimasii. Abdulaziz Mansur tarjimasii va izohlari. –T.: Islom universiteti, 2001.
56. Чыж Eljbeta. Prava rebenka. Xelsinkiy fond po pravam cheloveka.

Varshava. 2003

57. Ustav Soveta Yevropy // Mejdunarodnoye sotrudnichestvo v oblasti prav cheloveka: Dokumenty i materialy. -M., 1993. Выр.2.

58. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi: Darslik /H.T.Odilqoriyev tahriri ostida. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005.

59. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi. –T.: O‘zbekiston, 2013.

60. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) 2010-yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot. –Toshkent, 2011.

61. “O‘zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini boshqarishni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish: yutuqlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro forumining materiallari. 2011-yil 29-30-noyabr. –T.: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2011.

62. Shnekendorf Z.K. Putevoditel po Konvensii o pravax rebenka: (Voprosy i otvety) – M.: Ros. Ped. Agentstvo, - 1997. -S. 250

63. Eticheskiye prinsipy podgotovki jurnalistiskix materialov o detyax. <http://www.unicef.ru>

64. Special Rapporteur on the sale of children, child prostitution and child pornography. <http://www.ohchr.org/EN/Issues/Children/Pages/ChildrenIndex.aspx>

65. LexUz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz

66. Kamolot nima? http://kamolot.uz/kamolot_nima.html

67. 2000-yil BMTning Nyu Yorkdagi Sammitida qabul qilingan Mingyillik rivojlanish maqsadlarining 2-maqsadi: *Batafsilroq ma’lumotlar uchun murojaat qiling:* <http://www.un.org/millenniumgoals/index.shtml>

68. Recommendation concerning Education for International Understanding, Co-operation and Peace and Education relating to Human Rights and Fundamental Freedoms. http://portal.unesco.org/en/ev.phpURL_ID=13088&URL_DO=DO_TO_PIC&URL_SECTION=201.html

